АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается понятие инклюзивного образования, его принципы и сущность, формы и виды обучения детей с особыми образовательными потребностями и мнения и суждения об индивидуальном подходе, особенности детей с диагнозами, система коррекционно-развивающей работы с ними, необходимость оказания им педагогико-психологической помощи, включение их в число здоровых детей необходимости и установления равноправия между ними, освещены меры, принятые нашим правительством для развития инклюзивной формы образования.

ABSTRACT

This article examines the concept of inclusive education, its principles and essence, forms and types of education for children with special educational needs and opinions and judgments about an individual approach, the characteristics of children with diagnoses, the system of correctional and developmental work with them, the need to provide them with pedagogical and psychological assistance, their inclusion in the number of healthy children. and the establishment of equality between them, highlighted the measures taken by our government to develop an inclusive form of education.

Kalit so‘zlar: Inklyuziv ta’lim, individual yondashuv, alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalar, pedagogik yondashuv, inklyuziya, integratsiya, korreksion ta’lim.

Ключевые слова: Инклюзивное образование, индивидуальный подход, дети с особыми образовательными потребностями, педагогический подход, включение, интеграция, коррекционное образование.

Keywords: Inclusive education, individual approach, children with special educational needs, pedagogical approach, inclusion, integration, correctional education.

KIRISH.

Bugungi kunda jahon hamjamiyati tomonidan keng e’tirof etilib kelinayotgan inklyuziya tushunchasi har bir bolaning ta’lim olish va rivojlanish huquqini to‘laqonli ta’minlashni ko‘zlaydi. Bu borada ham hukumatimiz tomonidan qatror ishlar olib borilmoqda. Jumladan, Prezidentimiz tomonidan 2020-yil 13-oktabrda qabul qilingan 4860-son “Alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2024-yil 25-yanvarda qabul qilingan 46-sonli “Alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarning ta’lim olishlarini tashkil etish va ularni reabilitatsiya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari alohida ta’lim ehtiyojli bolalarni jamiyatga qo‘shish va ularning haq-huquqlarini himoya qilish maqsadida ishlab chiqilgan hamda amalda joriy qilingan. Shunindek, har bir shaxs jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi, huquq va erkinliklaridan to‘laqonli foydalanishi, shu bilan birga sog‘lom yoki nuqsonli bo‘lishidan qat’iy nazar ta’lim olish turini tanlashi kafolatlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Alohida ta’lim ehtiyojlari bor bolalarning inklyuziv ta’limi yetakchi davlatlarning an’anaviy ta’lim shakliga aylanib ulgurgan bo‘lsa-da, mamlakatimizda inklyuziv ta’lim jarayonida to‘siqlar uchramoqda. Bu kabi to‘siqlarni bartaraf etish uchun jamiyat a’zolariga inklyuziv ta’lim haqida tushuncha berilishi va har bir ta’lim muassasalarida inklyuziv sinflarni ochish va ularga alohida ta’lim ehtiyojli bolalarni jalb qilish haqida ma’lumotlar berilishi zarur. Alohida ta’lim ehtiyojli bolalar turli omillar, jumladan, jismoniy, aqliy, psixologik yoki til bilan bog‘liq qiyinchiliklarga duch kelishadi. Ularning o‘qish ehtiyojlari boshqalaridan farq qiladi. Shu sababli ular uchun individual yondashuv orqali ta’lim olish imkoniyatlari kengaytiriladi. Bu yondashuv bolaning qobiliyatlari, qiziqishlari, o‘rganish uslubi va ehtiyojlarini to‘liq hisobga olishga yordam beradi.

Alohida ta’lim ehtiyojiga ega bolalar — bu jismoniy, aqliy yoki psixologik qiyinchiliklarga duch kelgan, yoki o‘ziga xos o‘quv ehtiyojlari bo‘lgan bolalardir. Ularning ta’lim olish imkoniyatlarini yaxshilashda individual yondashuvning o‘rni katta. Bu haqda sohaning yetuk olimlari J.Piajet, L.S.Vigotskiy, H.Gardner, J.Deveylar ilmiy tadqiqotlar olib brogan. Jumladan, L.S.Vigotskiy “nutqli o‘rganish” va “ijtimoiy o‘rganish” nazariyalarini ilgari surgan holda shaxsiy o‘rganish jarayonida ijtimoiy muhitning roli haqida gapirgan. Shuningdek, “yaqin va dolzarb rivojlanish zonalari” ta’limotini ishlab chiqqan, bu o‘quvchilarning individual potentsialini maksimal darajada oshirishga yordam berashini ta’kidlagan.

Alohida ta’lim ehtiyojli bolalarga individual yondashuvni amalga oshirishda bir nechta asosiy tamoyillarni hisobga olish zarur. Har bir bolaning o‘ziga xos qobiliyatlari, ehtiyojlari va qiyinchiliklari mavjud, shuning uchun ular uchun umumiy yondashuvlardan ko‘ra, personallashtirilgan yondashuvlar muvaffaqiyatli bo‘ladi. Individual yondashuvni qo‘llash, alohida ta’limga muhtoj bo‘lgan bolalarning ijtimoiy, psixologik va intellektual rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga yordam beradi.

Alohida ta’lim ehtiyojli bolaga individual yondashuvni amalga oshirishda pedagoglar va ota-onalar o‘rtasidagi hamkorlik katta ahamiyatga ega. Ota-onalar bolaning uyda qanday rivojlanayotganini, qaysi faoliyatlarda muvaffaqiyatga erishayotganini va qayerda yordamga muhtojligini yaxshi bilishadi. Pedagoglar esa ta’lim jarayonida bolaning individual ehtiyojlarini, qobiliyatlarini va qiyinchiliklarini aniqlashda motivatsiya nafaqat o‘qish jarayonida, balki ijtimoiy hayotda ham muhim rol o‘ynaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Alohida ta’lim ehtiyojli bolalarning o‘ziga xos xususiyatlari orasida bilish jarayonlaridagi kamchilik, nuqsonlarni ham e’tirof etishimiz lozim. Bolalarning bilish jarayonlarini rivojlantirishda turli zamonaviy pedagogik va axborot kommunikativ texnologiyalardan foydalanishimiz samarali natija beradi. Bolalarning kognitiv sohasini korreksiyalash, rivojlantirishda tanlangan metodikalar ularning individual va yosh xususiyatlarini, nuqson xarakteri va darajasini, ehtiyoj, qiziqish va qobiliyatlarini inobatga olgan bo‘lishi kerak. Bu esa imkoniyati cheklangan bolalarning rivojlanish kamchiliklarini tuzatish, yumshatish, ko‘zga ko‘rinmaydigan holga keltirish uchun zamin bo‘lib, kelajakda ularning ijtimoiy adaptatsiyasi, reabilitatsiyasiga katta ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

XULOSA.

Alohida ta’lim ehtiyojli bolalar doimo mehr-muruvvat qurshovida bo‘lishi kerak. Bu esa jamiyatimizning insonparvarlik tamoyillariga yo‘g‘rilgan an’ana va odatlarida o‘z aksini topadi. Bolalarga doim motivatsiya berib turishi ularning o‘z kuchi va imkoniyatlariga ishonchini oshiradi va jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘ladilar. Jamiyatning to‘laqonli a’zosi bo‘lishi uchun esa, ularga individual yondashish va inklyuziv sinflarga jalb etish zarur. Ana shunda ular jamiyat qatorida rivojlanib yetuk va barkamol shaxs bo‘lib ulg‘ayadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. L.S.Vygotsky, (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.

2 .F.U,Qodirova, D.A.Pulatova. Inklyuziv ta’lim: nazariya va metodika. Chirchiq 2022. (259 bet)

3. H.Gardner, (1983). Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. Basic Books. Gardnerning ko‘p intellektualar nazariyasi, alohida ta’lim ehtiyojli bolalarni o‘qitishda turli qobiliyatlarni inobatga olishni ta’minlaydi.

4. Sh.N.Ibodullayeva, Sh.Masaliyeva. (2022) Inklyuziv ta’lim sharoitida maktabgacha yoshdagi bolalarning matematik tasavvurlarini rivojlantirish omillari. Inklyuziv ta’lim.111-113 bet.

5. Tomlinson, C.A. (2001). How to Differentiate Instruction in Mixed-Ability Classrooms. ASCD. Tomlinsonning asari, inklyuziv ta’limda turli ehtiyojlarni qondirish uchun darslarni qanday moslashtirishni o‘rganadi.

6. UNESCO (1994). The Salamanca Statement and Framework for Action on Special Needs Education. Inklyuziv ta’lim tamoyillari va alohida ta’lim ehtiyojli bolalar uchun ta’lim tizimlarini yaxshilashga qaratilgan xalqaro hujjat.

MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASALARIDA AQLIY TARBIYA BERISH VAZIFALARI

Abduraxmanova Shoxsanam Baxtiyor qizi
CHDPU, Maxsus pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi.
https://orcid.org/0009-0001-9957-1465
G‘aybullayeva Shahnoza Akmal qizi
Maxsus pedagogika:logopediya 24.1 guruh talabasi
Jumanazarova O’g’iloy Maqsad qizi
Maxsus pedagogika:logopediya 24.1 guruh talabasi

ANNOTTATSİYA

Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim muassasalarida aqliy tarbiya berish vazifalari, bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda aqliy tarbiyaning roli, mashg‘ulotlarda aqliy tarbiya usullari, didaktik vazifa haqida tushunchalar berilgan.

Kalit so‘zlar: didaktik o ‘yinlar, jozibali munosabat, elementar tushuncha, o ‘simlik va hayvonot olami, atrofdagi olam, ekskursiya, klassifikatsiya, rang, shakl, kattalik.

KIRISH

Ma’lumki, bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida aqliy tarbiya muhim o'rin tutadi. Aqliy tarbiya bolaning bilish faoliyatini rivojlantirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish va maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olishiga zamin yaratish vazifalarini bajaradi. Ushbu maqolada aqliy tarbiyaning bolalar maktab ta'limiga tayyorgarligidagi o'rni, uning mazmuni va amalga oshirish yo'llari muhokama qilinadi.Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek: “Biz ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz” [1] .[1]

ADABIYOTLAR TAHLILIVA METODOLOGIYA.

Bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda aqliy tarbiyaning roli. Bolalarni bilimlarini egallab olishlari ularni aqliy faolligini rivojlantirish, aqliy malaka va ko‘nikma egallab olishlari, ularning maktabda muvaffaqiyatli o‘qishlari uchun bo‘lajak mehnat faoliyatiga tayyorlashda manba bo‘lib xizmat qiladi. Bolalarni maktabga tayyorlashda aqliy tarbiyaning o‘rni katta. Bilimlar zaxirasini kengaytirish aqliy faollikni va mustaqillikni rivojlantirish, maktabda yaxshi o‘qish, keyingi mehnat faoliyatiga tayyorlanishning muhim shartidir. Bola 6-7 yoshdan maktabga o‘tishi, ularni maktab ta’limiga tayyorlash uchun aqliy rivojlantirish yetarli bo‘lishini ta’minlash tarbiyachidan katta mas’uliyatni talab etadi. Maktabgacha ta’lim yoshida bilim tez sur’atda rivojlanib boradi, boyib boradi. Nutq shakllanadi, bilish jarayonlari takomillashadi, bola eng oddiy aqliy faoliyat usullarini egallab boradi. Bolalarda aqliy faoliyatni dastlab muomala orqali, so‘ng mashg‘ulotlar, bilim berish orqali

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 22-dekabrdag “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari” yili oliy Majlisga Murojaatnomasi dasturidan. https://parliament.gov.uz/.

amalga oshiriladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy tarbiyalashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Bolalarda tabiat va jamiyat to‘g‘risidagi bilimlar tizimini, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish.
2. Bilimga doir ruhiy jarayonlami rivojlantirish: sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur, nutq. Bilishga doir ruhiy jarayonlarni rivojlantirish aqliy tarbiyaning muhim vazifasidir.
3. Bilishga qiziqish va aqliy qobiliyatlami aqliy mehnat madaniyatini rivojlantirish. Aqliy tarbiyaning vazifasi bolalar qiziquvchanligini ular aqlining sinchkovligini rivojlantirish va shular asosida bilishga qiziqish hosil qilishdan iborat.
4. Aqliy malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirish, ya’ni eng oddiy faoliyat usullari predmetlarni tekshirish ulardagi muhim va muhim bo‘lmagan belgilarni ajratib ko‘rsatish boshqa predmetlar bilan taqqoslash maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berish vazifalaridan biridir. Bu ko‘nikma va malakalar bilish faoliyatining tarkibiy qismlari bo‘lib, bolaning bilimlarini chuqur egallab olishiga yordam beradi.

Eng muhimi shundaki, bolalarga bilim beribgina qolmay, ularni olgan bilimlaridan aqliy va amaliy vazifalarni hal etishga foydalanishga o‘rgatish.

NATIJALAR

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning asosiy maqsad va vazifalari bolalarni jismoniy va aqliy jihatdan rivojlantirish, ularning ruhiyat, shaxsiy qobiliyatlari, intilish va ehtiyojlarini qondirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, mustaqillik g‘oyalariga sodiq holda voyaga yetib borishni ta’minlash, ulami maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiyasiga qo‘yilgan davlat talablariga muvofiq maktab ta’limiga tayyorlashdan iborat. Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish jarayoni oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalarning bajarilishiga erishish «Bolajon» tayanch dasturi asosida amalga oshiriladi.

Har bir oila barkamol avlodni tarbiyalash uchun qayg‘urishi lozim. Shu bois «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqiyotini ta’minlashning asosiy omili bo‘lgan kadrlarni tayyorlash borasidagi eng zarur tadbirlar tizimi belgilab berildi. Sog'lom avlodni tarbiyalash davlat va jamiyatning ustuvor yo‘nalishidir.

Hech kimga sir emaski, respublikada bolalarni maktabgacha ta’lim-tarbiya muassasalariga jalb etish 17 foizni tashkil qiladi. Bunday sharoitda maktabgacha ta’lim muassasalariga jalb qilinmagan 83 foiz bola bilan yuqorida ko‘rsatilgan 17 foiz bolaning rivojlanish darajasi o‘rtasida nomutanosiblik vujudga kelmoqda. Bunday nomutanosiblik, bolalar maktab ostonasiga qadam qo‘ygan kundan boshlab ularning rivojlanish darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. So‘ngi yillarda maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya mazmuni, shakli, vosita va metodlarini yengillashga alohida e’tibor berilmoqda. Davlat va jamiyat maktabgacha yoshda bo‘lgan bolalarni yagona talab asosida rivojlantirish vazifasini qo‘ydi. Shunga ko‘ra maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiyasiga qo‘yiladigan davlat talablariga tayangan holda maktabgacha yoshdagi bolalarga integral tarzda ta’lim-tarbiya berish maqsadida tayanch dasturlari taqdim etilmoqda. Bu tayanch dasturlari bugungi kunda maktabgacha ta’lim-tarbiya muassasalariga jalb etilmagan 3 milliondan ortiq bolani ham rivojlantirish va yagona davlat talablari asosida maktabga tayyorlash imkonini beradi. Ta’lim-tarbiya jarayoni yakunida mustaqil fikrlaydigan, erkin, bilimli, bir so‘z bilan aytganda barkamol shaxsni voyaga yetkazish asosiy maqsad qilib belgilandi. Bu uzluksiz ta’lim tizimining ilk turi - maktabgacha ta’limga o‘ziga xos yondashuvni talab etar edi.

Bola dunyoga kelgan kundan boshlab, davlat va jamiyat hamda ota-ona zimmasiga uning sog‘lom, aqlli, xulqli qilib tarbiyalash vazifasi qo‘yildi.

Bu ko‘nikma, malakalar bilish faoliyatini tarkibiy qismlarga bo‘lib, bola bilimlarni chuqur egallab olishiga yordam beradi.

Mashg‘ulotlarda aqliy tarbiya usullari. Pedagogika, psixologiya fani aqliy tarbiya vazifalarini samarali hal etish birinchi navbatda bolaning imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalanishni, ikkinchi tomondan bola organizmining charchashiga sabab bo‘ladigan ortiqcha zo‘rayish bo‘lmasligi kerak, degan fikrni ilgari suradi. To‘g‘ri tashkil etilgan faoliyat jarayonidagina to‘laqonli aqliy rivojlanish ro‘y beradi. Shu sababli pedagoglarning vazifasi muayyan maqsadni ko‘zlab, tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish uchun kerakli sharoitni yaratish bolalarda aqliy faoliyatni dastlab muomala orqali so‘ng mashg‘ulotlar, bilim berish orqali amalga oshiriladi. Bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda aqliy tarbiyaning roli kattadir. Bolani bilimlarini egallab olishi, aqliy faolligini rivojlantirish, aqliy malaka va ko‘nikmalarni egallab olishi maktabda muvaffaqiyatli o‘qishi uchun, bo‘lajak mehnat faoliyatiga tayyorlanishda manbaa bo‘lib, xizmat qiladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni aqliy tarbiyalashning asosiy vazifalari quyidagilar:

1. Bolalarda tabiat va jamiyat to‘g‘risidagi bilimlar tizimini ilmiy dunyoqarashini shakllantirish. Bola tevarak-atrofdagi narsalar, ularning vazifasi, sifati, xossalari haqida, qaysi materiallardan foydalanganligi, tayyorlanganligi to‘g‘risida aniq tasavvurga ega bo‘lishi kerak.

2. Bilishga doir ruhiy jarayonlami rivojlantirish: sezgi, idrok, xotira, hayol, tafakkur, nutq va boshqalar. Bilimga doir nutqni rivojlantirish aqliy tarbiyaning erkin vazifasidir.

3. Bilishga qiziqish va aqliy qobiliyatlarni, aqliy mehnat madaniyatini rivojlantirish. Aqliy tarbiyaning vazifasi bolalar qiziquvchanligini, sinchkovligini rivojlantirish va shular asosida bilishga qiziqish hosil qilishdan iborat.

4. Aqliy malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirish, ya’ni oddiy faoliyat usullari, predmetlarni tekshirish, ulardagi muhim va muhim bo‘lmagan belgilarni ajratib ko‘rsatish boshqa pred- metlar bilan taqqoslash raaktabgacha yoshdagi bolalarga aqliy tarbiya berish vazifalaridan biridir.

MUHOKAMA

1. Aqliy tarbiyaning maktabga tayyorgarlikdagi o'rni.

Ba'zi tadqiqotchilar aqliy tarbiya bolaning kelajakdagi o'quv jarayoniga moslashishiga katta ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydilar. Aqliy jihatdan yaxshi rivojlangan bolalar maktabda tezroq o'zlashtiradi va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Biroq, ba'zi mutaxassislar bolaning jismoniy va emotsional tayyorgarligi ham ahamiyatli ekanligini qayd etadilar.

2. Bilimga oid ruhiy jarayonlarning rivoji.

Sezgi, idrok, xotira, tafakkur va nutqning rivojlanishi aqliy tarbiyaning asosiy tarkibiy qismlaridir. Ushbu jihatlar rivojlanmagan taqdirda, bolaning ta'lim jarayoniga moslashishi qiyinlashishi mumkin. Ammo, ayni paytda, haddan tashqari akademik bosim ham bolaning ijodiy tafakkurini cheklashi mumkinligi qayd etiladi.

3. Bilishga qiziqish va mustaqil fikrlashni shakllantirish.

Bolalarning bilimga bo'lgan qiziqishini oshirish va ularning mustaqil fikrlashini shakllantirish aqliy tarbiyaning muhim jihatlaridan biridir. Bu borada o'yinlar, interfaol metodlar va tajribalarga asoslangan ta'lim usullari samarali deb hisoblanadi. Biroq, ayrim tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, faqatgina nazariy bilim berish bilan chegaralanish bolalarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda yetarli emas.

4. Maktabgacha ta'lim muassasalarining roli va muammolar.

Respublikada maktabgacha ta'lim muassasalariga jalb etilgan bolalar soni atigi 17 foizni tashkil etadi, bu esa rivojlanishdagi nomutanosiblikka olib kelishi mumkin. Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar bu masalani hal qilishga qaratilgan bo'lsa-da, hali ham maktabgacha ta'lim muassasalariga jalb qilinmagan bolalar borligi muammo sifatida dolzarb bo'lib qolmoqda.

XULOSA

Aqliy tarbiya bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida muhim rol o'ynaydi. Biroq, bolalarning maktabga tayyorgarligini faqat aqliy tarbiya bilan cheklash mumkin emas. Jismoniy, emotsional va ijtimoiy jihatdan ham bola tayyor bo'lishi kerak. Shu sababli, maktabgacha ta'lim muassasalari va oilalar birgalikda harakat qilib, bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashlari zarur.

Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish, bolalarning aqliy faolligini oshirish va ularni maktab ta'limiga tayyorlash uchun zamonaviy metodlarni keng joriy etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 22-dekabrdag “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari” yili oliy Majlisga Murojaatnomasi dasturidan. https://parliament.gov.uz/.
2. Mirziyoyev SH.M., O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 407 sonli qarori.22.10.2022 yil
3. D.R.Babayeva, “Nutq o’stirish nazariyasi va metodikasi”, Toshkent 2018 yil
4. Qodirova F.U.va boshqalar “Maxsus pedagogika asoslari” O‘quv qo‘llanma ZEBO-PRINTS 2023.
5. Qodirova F.U. va boshqalar “Inklyuziv va maxsus ta‘limning filologik asoslari” O‘quv qo‘llanma ZEBO-PRINTS 2022.

KO'RISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN KORREKSION ISH XUSUSIYATLARI

Izzatullayeva Iroda Hayatovna
Xolova Gulnoza Avazovna
Voyitova Sabrina Anvarovna
Meliqoziyeva Dilnoza Ulug'bekovna
CHDPU Pedagogika fakulteti maxsus pedagogika (tiflopedagogika) yo'nalishi
2-bosqich talabalari.
Ilmiy rahbar: ***Abduraxmanova Shoxsanam Baxtiyor qizi***
ChDPU, Maxsus pedagogika kafedrasi o'qituvchisi

ANNOTASIYA

Maqolada alohida yordamga muhtoj bolalar ta'lim-tarbiyasi, shu jumladan zaif ko'ruvchi, tatal ko'rlar va ularni kamchiliklarini bartaraf etish yuzasidan olib boriladigan ishlar haqida fikr mulohazalar yuritilgan

Kalit so'zlar. Nogironlarni reabilitatsiya qilish, imkoniyati cheklangan, bola, maxsus maktab, korreksiya, anomaliya, korreksion pedagogika.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются вопросы образования и воспитания детей с особыми потребностями, в том числе детей с нарушениями зрения, и работа по преодолению их недостатков.

Ключевые слова. реабилитация инвалидов с инвалидностью детская специальная школа коррекция аномалий коррекция коррекция педагогика.

ABSTRACT

The article discusses the education and upbringing of children with special needs, including the visually impaired, the visually impaired, and the work to overcome their deficiencies

Keywords. rehabilitation of disabled persons with disabilities child special school correction anomaly correctional pedagogy.

KIRISH.

Alohida yordamga muxtoj bolalarning ta'limi, tarbiyasi va reabilitatsiyasi jarayonlarini isloh qilib borish rivojlanish darajasidan qat'iy nazar har bir davlat va jamiyat oldidagi masaladir. Masalan, Respublikamizda nogironlarni ijtimoiy himoyalash, o'qitish, tarbiyalash masalalari davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (23 modda) hamda davlatimiz tomonidan 1992 yil ratifikatsiya qilingan BMT ning "Bola xuquqlari to'g'risida"gi Konventsiyasi (23-modda)da nogiron bolalarning alohida parvarish, ta'limdan foydalanish, munosib turmush kechirish xuquqlariga egaligi e'tirof etilgan. Bilamizki, hozirgi kunda bolalalikdan yoki hayoti davomida u yoki bu ta'sirlar sababli nogiron hisoblangan shaxslar ta'limda alohida ta'limga muxtoj yoki imkoniyati cheklanganlar deb aytiladi. Bu toifa bolalar, o'smir va kattalarning ta'limi, tarbiyasi umumiy

pedagogikaning barcha qonuniyatlariga asoslangan holda mustaqil fan sifatida tadqiq qilinadi va rivojlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Nogironlarni reabilitatsiya qilishning vazifasi nogironlarga to'laqonli turmush kechirish hamda o'z huquqlari va potentsial imkoniyatlarini amalga oshirish imkonini beruvchi ijtimoiy maqomini, o'ziga o'zi xizmat ko'rsatishga va kasbiy faoliyatning har xil turlariga doir qobiliyatlarini tiklashdan iboratdir deb 179 ko'rsatilgan.1 («O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqidagi qonunning 3-bob. Nogironlarni reabilitatsiya qilish, 12-modda. Nogironlarni reabilitatsiya qilishning maqsadi 6-bet). "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ta'lim berishning yangi shakllari va usullarini izlab topish va amalga oshirish bo'lg'usi pedagoglarni mukammal bilim va tajribaga ega bo'lishlarini taqoza etadi. Xozirgi kunda davr talabiga ko'ra "Barkamol avlod tarbiyasi" masalasi ko'ndalang turgan bir vaqtda ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning o'rganish muammosi o'ta dolzarb sanaladi. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni har tomonlama o'rganish zaruriyati tug'ildi. Ularning ruhiyatini yaxshi bilish, pedagogik jarayonini samarali kechishini ta'minlaydi. Nogiron, tug'ma kasalmand bolalar dunyoga kelishini ijtimoiy sabablarini o'rganish, uni oldini olish,ularning dardlariga malham bo'lish bu boradagi muammolarni hal etishdir. L. S. Vigotskiy anomal bolalar rivojlanishidagi xususiyatlarni o'rganib, nuqsonning murakkab tuzilishi haqidagi ta'limotni ishlab chiqdi. U «Korrektsion pedagogikaning asosiy muammolari» kitobida anomal bolalar bilan rivojlantiruvchi ta'limni olib borish kerakligini, korrektsiya, kompensatsiya usullari va bularni yanada oshirish yo'llarini ko'rsatib berdi. L.S. Vigotskiy anomal bolada nafaqat «salbiy» balki «ijobiy» tomonlarini ham o'rgatib, aniqlab, shularga tayangan holda va potentsial qobiliyatni inobatga 1 180 olib turib, ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etish zarurligiga diqqatni jalb etdi. U korrektsion pedagogika sohasida katta zaruriy meros qoldirdi. Atoqli psixolog L. V. Zankov 1935 yildan L. S. Vigotskiy bilan hamkorlikda ishladi. Bu olimlarning olib borgan tadqiqot ishlari psixologiya va korrektsion pedagogikaning nazariy jihatdan shakllanishida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Ular aqliy jihatdan qoloq bolalar psixikasi taraqqiyoti qonuniyatlarini noto'g'ri tushunishga qarshi chiqdilar, «rivojlanishning to'xtash nazariyasi», «chegara» degeneratsiya nazariyasi», «ma'naviy defektli» kabi g'ayri ilmiy va reaktsion nazariyalarni fosh etdilar. Eksperimental psixologiya laboratoriyasida anomal bolalarning rivojlanishi maxsus ta'lim ta'siri ostida qanday o'zgarib borishini o'rganish, ulardagi mavjud nuqsonlarni ham, ijobiy tomonlarini ham aniqlash yuzasidan qiyosiy eksperimental tadqiqotlar o'tkazildi. Ko'zi ojiz shaxslarni taraqqiyotining manbaalarini bilmay turib, ular ta'limiga yondosha olmaymiz.

NATIJA.

Ko'zi ojizlar ham sog'lom insonlar kabi yashashga, ilm olishga, ishlash va hayotda o'z o'rnini topishga xaqlidirlar. Davlatimiz siyosati, albatta, ko'zi ojiz insonlarni ham inobatga olib, ta'lim-tarbiya jarayonlariga ijobiy o'zgarishlarni olib kelmoqda. Chunki bizning ma'naviy merosimiz va muqaddas dinimizda komil inson tarbiyasi asosiy mavzu sifatida talqin etilgan. Ota onalar o'z farzandlariga sog'lom tarbiya berib, voyaga yetkazsa, farzandining xayotga toza rux, olam – olam orzu intilishlari bilan qadam qo'yayotganini ko'rsa, umri ma'noga to'ladi, xayotd armon qolmaydi. Inson shaxsinig to'laqonli, atroflicha mukammal bo'lib, rivojlanishi, shakllanishi uchun barcha analizatorlar sog'lom bo'lishi darkor. Aks holda shaxs bir butun holda me'yoriy rivojlanishi bo'lmasligi mumkin. Analizatorlarning tuzilishi nafaqat atrofdan kelayotgan taasurotlarni qabul qilish bakli ularni taxlil qilish, faoliyatni nazorat qilishni ta'minlaydi. SHui ta'kidlash joizki, ko'rish analizatorining zararlanishi nsonni ruxiy jarayonlarining turli tomonlariga salbiy ta'sir etar ekan. Ko'zi ojiz bolalarda diqqat, sezgi, idrok, xotira, tasavvur, hayol, tafakkur va nutq jarayonlari meyordan chetga chiqishi ko'zda tutiladi.

Ular atrof muxitni, undagi predmet xossalarini, voqealar moxiyatini tushinishida paypaslab sezish idroki katta rol o'ynaydi. O'zbekistonda ko'zi ojiz bolalarning xotira jarayonlari olimlar tomonidan chuqur o'rganilmaganlifi, tadqiqotimizning dolzarbligini bildiradi. L.S.Vigotskiy tomonidan, ko'rlar oltinchi sezgi (harakat) ga egaligi ko'rsatilib, u ularga predmetlarni masofada sezishga ranglarni ham sezishga imkoniyat yaratadi. Ta'lim jarayonida pedagog, ota-onalar ko'rlikni kompensasiya qilish bolada uning hayotining birinchi oylaridan boshlanishini hisobga olish lozim. Ko'rlikni kompensasiyalash, deydi L.I.Solnseva, butun psixik ta'lim tizimini, sensor tizimini, intellektual komponentlarni o'z ichiga oladiki, bular bolalarga adekvat va tashqi dunyoni aktiv aks etiradigan va bolalarni yoshiga qarab har xil shakldagi faoliyat bilan shug'ullanishiga imkoniyatlar yaratib beradi.

XULOSA.

Zaif ko'ruvchilar hodisalar, predmetlar bilan tanishganda, maydon orientirovkasini olishda va harakatlanganda ularda saqlanib qolgan ko'ruvdan foydalaniladi. Shuningdek, ko'zi ojizlarda ranglarni idrok etish buzilgan holatda bo'ladi. Keskin ifodalangan yaqindan ko'rishda va uzoqdan ko'rishda ko'zi ojizlar ba'zi bir pedmetni ifodalaydigan hira-shira belgilarni payqamasdan qolishi mumkin. Maxsus ta'lim erta boshlangandanormal maydon va stereoknopik ko'ruv yaxshi rivojlanadi va mukammallashadi, bu ularda kelajakda murakkab fazoviy ko'rgazmalarni idrok etish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni. 182

2. "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29- dekabrdagi PQ-2707-sonli Qarori.

3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni: "Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori". – T.: Sharq, 1997.

4. R.SHomaxmudova "Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar inkluziv ta'limi" Toshkent YuNESKO 2005 yil (ilmiy maqola).

5. R.SHomaxmudova "Ko'zi ojiz kishilarni uy ro'zg'or tutishga o'rgatish". Toshkent 1999 yil.

6. Internet ma'lumotlari. PY. http // Special psypublika . PY. http // revolution allbest. ru/ pedagogies // w.w.w.Kinder.by.

7. N.Abidova "Ko'rishga nuqsoni bo'lgan bolalar rivojlanish xususiyatlari" (Respublika Ilmiy-amaliy anjumanining maqolalar to'plami) 2011 yil.

8. I.K.Xoliqov "Ko'zi ojiz bolalarni o'qitish uslubiy muammolari". (Respublika Ilmiy-amaliy anjumanining maqolalar to'plami) 2011 yil.

9. Muzaffarova, X. (2020). Мактабгача таълим жараёнига мультимедиа технологиясини татбиқ этиш. Scienceweb academic papers collection.

10. Muzaffarova, X. (2021). HARAKAT-TAYANCH A'ZOLARI JAROHATLANGAN BOLALAR. Scienceweb academic papers collection.

11. Muzaffarova, X. (2021). ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНЫХ УМЕНИЙ И НАВЫКОВ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ С НАРУШЕНИЕМ ИНТЕЛЛЕКТА. Scienceweb academic papers collection.

12. Muzaffarova, X. (2020). Aqli zaif o 'quvchilarning muloqot munosabatlarining pedagogik–psixologik asoslari. Scienceweb academic papers collection.

13. Muzaffarova, X. (2020). АҚЛИ ЗАИФ БОЛАЛАР БИЛАН КОРРЕКЦИОНРИВОЖЛАНТИРИШ ИШЛАРИНИ ТАШКИЛЛАШТИРИШГА ЯНГИЧА ЁНДОШУВЛАР. Scienceweb academic papers collection.

14. Muzaffarova, X. (2020). Inklyuziv ta'lim-yosh avlodni ijtimoiy himoyalashning muhim omili sifatida. Scienceweb academic papers collection. 183

15. Muzaffarova, X. (2021). TA'LIM–TARBIYA JARAYONIDA INNOVATSION USULLARDAN FOYDALANISHDA O'QITUVCHINING MAHORATI. Scienceweb academic papers collection.

16. Muzaffarova, X. (2021). Мактабгача ёшдаги болалар билан олиб бориладиган логопедик машғулотларни ўйинлар асосида ташкиллаштириш. Scienceweb academic papers collection.

17. Muzaffarova, X. (2021). HORIJIY MAMLAKATLARDA AQLI ZAIF BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN ISHLAR MAZMUNI. Scienceweb academic papers collection.

18. Muzaffarova, X. (2021). BOLALARDA UCHRAYDIGAN NUQSONLAR VA ULARNING KELIB CHIQISH SABABLARI. Scienceweb academic papers collection.

19. Muzaffarova, X. (2021). INKLYUZIV TA'LIMNI AMALIYOTGA JORIY QILISH MASALALARI. Scienceweb academic papers collection.

20. Muzaffarova, X. (2021). MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARGA TA'LIM-TARBIYA BERISHDA KORREKSION METODLARINING MOHIYATI. Scienceweb academic papers collection.

21. Muzaffarova, X. (2021). BOLALAR PSIXIKANING RIVOJLANISHINI BELGILAYDIGAN OMILLAR. Scienceweb academic papers collection.

IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI INKLYUZIV TA'LIM MUHITIGA MOSLASHTIRISH HOLATI

Dilfuza Azamkulovna Pulatova
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0009-5619-2009
Mutaliyev Azizbek Kozimjanovich
Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
https://scholar.google.com/citations

ANNOTATSİYA

Mazkur maqolada imkoniyati cheklangan bolalarning inklyuziv ta'lim muhitiga moslashuvi masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotda inklyuziv ta'limni rivojlantirishga qaratilgan huquqiy asoslar, maxsus ta'lim muassasalarida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar va psixologik-pedagogik yondashuvlarning samaradorligi o'rganildi. Shuningdek, inklyuziv ta'lim tizimini joriy etishda jamiyat va ota-onalarning roli tahlil qilinib, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari ko'rsatib o'tildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim jarayoniga moslashuvi davlat siyosati, pedagogik strategiyalar hamda jamiyatning qo'llab-quvvatlashi bilan uzviy bog'liqdir.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, imkoniyati cheklangan bolalar, ijtimoiy moslashuv, pedagogik yondashuv, huquqiy asoslar.

KIRISH

Hozirgi bosqichda nogironlarga nisbatan davlat siyosati ijtimoiy siyosatning tarkibiy qismi sifatida ijtimoiy himoyani tashkil etishning mutlaqo yangi tamoyillariga asoslanmoqda. Turli mamlakatlar qonunchiligi va xalqaro huquqni qiyosiy o'rganish ijtimoiy siyosatning quyidagi tamoyillarini ajratib ko'rsatish imkonini beradi: ijtimoiy hamkorlik, ijtimoiy birdamlik, ishtirok etish, ijtimoiy kompensatsiya, kafolatlar va ustuvorliklar [1]. 1992 yilda Yevropa Kengashi Parlament Assambleyasida qabul qilingan reabilitatsiya dasturlari bo'yicha ishlab chiqilgan 1185-sonli tavsiyada shunday deyilgan: "Nogironlik - bu jismoniy, ruhiy, sezgi, ijtimoiy, madaniy, qonuniy va boshqa to'siqlar bilan bog'liq bo'lgan imkoniyatlardagi cheklovlardir. Bu cheklovlar nogironligi bo'lgan shaxsga jamiyatga qo'shilish va jamiyatning boshqa a'zolari bilan teng asosda oila yoki jamiyat hayotida ishtirok etish imkonini bermaydi. Jamiyat o'zidagi mavjud me'yorlarni nogironligi bo'lgan shaxslarning alohida ehtiyojlariga moslashtirishi shart." Nogironlik muammosiga bunday tubdan yangicha yondashuv, birinchidan, jamiyatning rivojlanish bosqichida postindustrial davrga o'tishi bilan, ikkinchidan esa, XX asrning ikkinchi yarmida ijtimoiy ongda "foydalilik madaniyati"dan "qadr-qimmat madaniyati"ga burilish yuz bergani bilan bog'liq. Sog'lig'i jihatdan imkoniyati cheklangan shaxsga, uning qobiliyati va imkoniyati, jamiyat uchun foyda keltirishidan qat'iy nazar, jamiyatga imkon qadar ko'proq moslashishi uchun sharoit yaratishga qaratilgan ijtimoiy ko'mak va g'amxo'rlik ob'yekti sifatida qarash lozim. Shu bois, nogironlikka ega shaxs nafaqat ijtimoiy ish ob'yekti, balki ijtimoiy hayotning faol ishtirokchisi va o'z taqdirining yaratuvchisi sifatida ham e'tirof etiladi. Buni, ayniqsa, imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim oladigan muassasalar xodimlari e'tiborga olishlari kerak, chunki aynan bolalikda shaxsning ruhiy va ijtimoiy qarashlari, "Men" pozisiyasi hamda atrofdagi dunyoga munosabati shakllanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Hozirgi kunda inklyuziv ta'lim haqiqatga aylanib, kishilarni doimiy ravishda o'ziga jalb etib, o'ziga «tortib olmoqda». Alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalarning ota-onalari farzandlarining umumiy o'rta

ta'lim tizimida o'qitish huquqlaridan faol foydalana boshlaganligi sababli, ushbu masala bo'yicha umumiy ta'lim muassasalarida tobora ko'proq fikr va savollar tug'ilmoqda. Har qanday holatda zamonaviy umumta'lim maktabi, inklyuziv muhitga tayyor bo'lishi zarur.

G.G.Sillastening qayd etishicha, chet elda «imkoniyati cheklangan kishilar», shu jumladan «imkoniyati cheklangan nogiron bolalar» tushunchasi kasal kishilarning turli shakllarda va myayyan sharoitlarda ijtimoiy foydali mehnatni amalga oshirishi uchun ma'lum imkoniyatlar mavjudligini nazarda tutadi [2]. Bunda jamiyat moslashish jarayonida yordamni tashkil qilish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish mas'uliyatini o'z zimmasiga oladi. Bu ma'lum bir nogironning jismoniy nuqsonini kompensatsiya qilish va kasallik uni olib kelgan holatda unga qulay yashash sharoitlarini yaratish imkonini beradigan sharoitlarni yaratadi.

Bugungi kunda ham adaptatsiya tushunchasi, tuzilishi va omillari ko'plab olimlarning o'rganish predmeti bo'lib qolmoqda. Ba'zi konsepsiyalarni ko'rib chiqib, moslashuv tushunchasi va uning tarkibiy elementlarini aniqlash masalasi bo'yicha tadqiqotlarimiz uchun quyidagi mualliflarning asarlari asos qilib olindi: J.Piaje [7], V.N.Pavlenko [5], S.A.Larionova [4], G.A. Ball [1] va boshqalar. J.Piaje adaptatsiyani organizmning muhitga moslashish jarayoni va u bilan uyg'un muvozanatga erishish nuqtai nazaridan ko'rib chiqadi [7]. V.N.Pavlenko moslashuv muhit bilan faol o'zaro ta'sir bo'lib, bu jarayonda inson ruhiyati o'z xususiyatlarini, xarakteristikalarini o'zgartiradi, deb hisoblaydi va bunday o'zgarishlar o'z-o'zini identifikatsiya qilish, rolli xatti-harakatlar, shaxsning qadriyat yo'nalishlari bilan bog'liq bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi [5]. Moslashuvni shaxs va muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayoni sifatida, guruh va shaxsning maqsadlari va qadriyatlarining uyg'un nisbatiga olib keladigan S.A.Larionova o'z asarlarida taqdim etadi [4]. G.A.Ballning fikricha, ijtimoiy moslashuv insonning o'z xatti-harakatlarini o'zgaruvchan sharoitlarga moslashtirish qobiliyatidan boshqa narsa emas [1].

Ta'lim muhiti muammolarini o'rganishga mahalliy va xorijiy olimlarning (Y.Korchak, J.Gibson, V.A.Yasvin, S.V.Tarasov, G.A.Kovalev va boshqalar) ko'plab asarlari bag'ishlangan. Ushbu olimlar ta'lim muhitini tarixan shakllangan ijtimoiy-madaniy muhitning quyi tizimi va shu bilan birga bolaning shaxsiyatini rivojlantiradigan maxsus tashkil etilgan pedagogik sharoitlar sifatida ko'rib chiqadilar. Shu ma'noda, ta'lim muhiti o'zining funksional maqsadi, o'z sub'yektlarining samarali rivojlanishini ta'minlaydigan ta'lim imkoniyatlarining sifati jihatidan ahamiyatlidir.

E.A.Klimov, V.A.Yasvina, S.V.Tarasovlar tomonidan muassasaning ta'lim muhitining tarkibiy qismlari taklif etilgan ishlari asosida, inklyuziv ta'lim muhitining tuzilmasini turli imkoniyat va xususiyatlarga ega bo'lgan bolalar ijtimoiylashuvining makoni sifatida ajratib ko'rsatishgan.

NATIJALAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'lim muhitiga moslashtirish jarayoni bir nechta muhim omillarga bog'liq. Ushbu jarayonda davlat siyosati, maxsus pedagogik strategiyalar, ota-onalar va jamiyatning yordami hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ya'ni:

1. "Huquqiy me'yorlarning rivojlanishi" O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'limni rivojlantirishga qaratilgan qonun va me'yoriy hujjatlar maxsus ta'lim ehtiyojlariga ega bolalar uchun qulay sharoitlarni yaratishga xizmat qilmoqda. Xususan, 2020-yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va 2023-yilda tashkil etilgan Ijtimoiy himoya milliy agentligi inklyuziv ta'lim tizimini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

2. "Ta'lim muassasalaridagi o'zgarishlar va takomillashtirish ishlari" Bugungi kunda mamlakat bo'ylab rivojlanishida nuqsoni bor bolalar uchun "76 ta maxsus maktab-internat" va "inklyuziv sinflar" faoliyat yuritmoqda. Ushbu muassasalarda bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirish, ularni mustaqil yashash va mehnat faoliyatiga tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

3. "Kompleks psixologik-tibbiy-pedagogik yondashuvning samaradorligi" Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, imkoniyati cheklangan bolalarning inklyuziv ta’lim jarayoniga moslashuvi individual yondashuv va maxsus psixologik-pedagogik yordam ko‘rsatish tizimi bilan bevosita bog‘liqdir. Bolalarning psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyalar tomonidan baholanishi va ularga mos ta’lim shaklining tavsiya etilishi ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

4. "Jamiyat va ota-onalarning roli" Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, inklyuziv ta’lim tizimining muvaffaqiyatli joriy etilishi ko‘p jihatdan ota-onalar va jamiyatning bu jarayonga bo‘lgan munosabatiga bog‘liqdir. So‘nggi yillarda inklyuziv ta’lim bo‘yicha ijobiy yondashuv ortib borgan bo‘lsa-da, ba’zi hollarda imkoniyati cheklangan bolalarning umumta’lim maktablariga qo‘shilishi borasida turli qarashlar mavjudligicha qolmoqda. Umuman olganda, tadqiqot natijalari imkoniyati cheklangan bolalarning ta’lim jarayoniga moslashuvi huquqiy asoslarning takomillashuvi, maxsus ta’lim muassasalarining rivojlanishi hamda jamiyat va ota-onalarning inklyuziv ta’limni qo‘llab-quvvatlash darajasi bilan chambarchas bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi.

MUHOKAMA

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda nogironlarga bo‘lgan e’tibor, ularning jamiyatga moslashtirish hamda ta’lim siyosati sezilarli darajada o‘zgardi. Uchinchi Renessans bosqichida ta’lim siyosati nogironlarni jamiyatga integratsiyalash va reintegratsiyalashga yo‘naltirilgan reabilitatsiya, ijtimoiy adaptatsiya ustuvorliklariga asoslanadi.

2020 yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni O‘zbekistonda ta’limni tashkil etishning yangi davlat tamoyillarini, yangicha ta’lim shakllari va ta’lim muassasalarining yangi tiplarini joriy etdi. Hozirgi vaqtda maktabgacha va maxsus maktab muassasalarining keng, tarmoqlangan tizimi mavjud. Maktab yoshidagi imkoniyati cheklangan bolalar turli ta’lim muassasalarida yoki uyda ta’lim oladilar. Bunday toifadagi bolalarni barcha turdagi va tipdagi ta’lim muassasalariga tanlab olishni psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya amalga oshiradi, u bolaning ruhiy va jismoniy rivojlanish holati to‘g‘risida xulosa va ta’limning keyingi shakllari to‘g‘risida tavsiyalarni beradi.

Bugungi kunda mamlakatimizda turli xil rivojlanish nuqsonlari bor bolalar uchun to‘rt turdagi ixtisoslashtirilgan maktablar, 12 viloyatning deyarli barcha tumanlarida inklyuziv maktab va sinflar mavjud bo‘lib, ular bolalarning ijtimoiy moslashuvi muammosini hal qilish bilan shug‘ullanadi. Shuningdek, sog‘lig‘i va hayot faoliyatiga doir nogironligi bo‘lgan bolalarning boshqa toifalari uchun ham ta’lim muassasalari tashkil etilgan. Surunkali kasal va sog‘lig‘i zaif bolalar uchun sanatoriy tipidagi maktab, uzoq muddat davomida davolanishga majbur bo‘lgan bolalar uchun tibbiy muassasalar qoshida “Mehrli maktab”lar tashkillashtirilgan. “O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun chiqqandan so‘ng, hukumatimiz tomonidan tomonidan 20 dan ortiq qarorlar va idoraviy me’yoriy hujjatlar qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi (keyingi o‘rinlarda Agentlik deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmon asosida tashkil etilishi bilan nogironlik va nogironlar muammolarini hal qilish bo‘yicha ishlar sifat jihatidan yaxshilandi.

Respublikamizda korreksion yo‘nalishidagi ijtimoiy institutlarning keng tarmog‘i yaratilgan bo‘lib, unga jamoatchilik tashkilotlari, ta’lim, sog‘liqni saqlash, aholini ijtimoiy himoya qilish, madaniyat va sport muassasalari, shuningdek, idoralararo tuzilmalar kiradi.

Respublikada jami 76 ta maxsus maktab-internatlar faoliyat yuritmoqda: kar bolalar uchun maxsus maktablar, zaif eshituvchi bolalar uchun maxsus maktab-internatlar, ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalar uchun maxsus maktab-internat, aqli zaif bolalar uchun maxsus maktab. Sanab o‘tilgan barcha maktab-

internatlarda bolalarning ta'lim olishi, tarbiyalanishi, sog'lomlashtirilishi, ijtimoiy moslashuvi va jamiyatga integrasiyalashuvi uchun shart-sharoitlar ta'minlanadi. Ta'limdan tashqari, maxsus maktab tibbiy va psixologik yordam ko'rsatadi, maktablarda qo'riqlash rejimiga rioya qilinadi, o'quvchilarning mehnat va kasbiy tayyorgarligiga e'tibor qaratiladi. Mehnat va kasbga yo'naltirish ishlarining mazmuni va shakllari mintaqaviy, etnomilliy sharoitlarni, mahalliy mehnat bozorining ehtiyojlarini, tarbiyalanuvchilarning individual potensial imkoniyatlarini, ularning qiziqishlarini hisobga oladi.

XULOSA

Shunday qilib, hozirgi vaqtda mamlakatimiz maxsus ta'lim tizimi 15 ta o'quv dasturini amalga oshiruvchi rivojlanishida nuqsoni bo'lgan ta'lim oluvchilar, tarbiyalanuvchilar uchun sakkiz turdagi maxsus (korreksion) ta'lim muassasalaridan iborat. Bundan tashqari, 1995 yildan boshlab sog'lig'ining holatiga ko'ra ilgari umumta'lim muassasalaridan chiqarilgan bolalar uchun uyda o'qitish maktablarida o'qitishning yangi shaklidan foydalanilmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):

1. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2020 yil 13 oktyabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-son Qarori. https://lex.uz/docs/5044711

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 12.10.2021 yildagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 638-son qarori.

3. Саламанкская декларация и документы ООН и ЮНЕСКО.

4. Н.Н.Малофеев, Н.Д.Шматко. Базовые модели интегрированного обучения // Дефектология. 2008. № 1. С. 71–78.

5. Н.Н.Малофеев, Е.Л.Гончарова, О.С.Николская, О.И.Кукушкина. Спесиалный федералный государственный стандарт общего образования детей с ограниченными возможностями здоровя: основные положения консепсии // Дефектология. 2009. № 1. С. 5–19

6. G'aniyeva A.T. TA'LIM TIZIMIDA INKLYUZIV TA'LIMNI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING O'ZBEKISTON VA XORIJIY TA'LIM TAJRIBASI. SCIENCE AND INNOVATION ISSN: 2181-3337 INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL. 2022 y. №4. https://doi.org/ 10.5281/zenodo.6981487.

7. Gaynutdinova L.R.BAHOLASH MEZONLARI Ota onalar va o'qituvchi pedagoglar uchun tavsiya. T: 2022 y,28 b.

8. F.U.Qodirova, D.A.Pulatova "Inklyuziv ta'lim: nazariya va amaliyot" darsligi, Chirchiq, 2022.

AUTIZM SINDROMLI BOLALARDA UMUMIY VA MAYDA HARAKATLARNING BUZILISHI

Dilfuza Azamkulovna Pulatova
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0009-5619-2009

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada autizm sindromli bolalarda umumiy va mayda motorikaning buzilishlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, maktabgacha yoshdagi autizm sindromiga ega bolalarda harakat koordinatsiyasining buzilishi, mushak tonusining pasayishi va mayda qo'l motorikasi nozik harakatlarni bajarishda qiyinchiliklar kuzatiladi. Harakat buzilishlarning neyrobiologik sabablari va korreksion metodlari batafsil yoritiladi. Shuningdek, harakat buzilishlarini aniqlash va korreksiyalashning samarali yondashuvlari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: autizm sindromi, harakat buzilishlari, umumiy motorika, mayda motorika, neyrobiologik sabablar, korreksion metodlar.

ABSTRACT

This article analyzes gross and fine motor impairments in children with autism spectrum disorder (ASD). The study results indicate that preschool children with ASD exhibit motor coordination deficits, reduced muscle tone, and difficulties in performing fine motor tasks. The neurobiological causes and correctional methods for motor impairments are discussed in detail. Additionally, effective approaches for diagnosing and correcting motor dysfunctions are reviewed.

Keywords: autism spectrum disorder, motor impairments, gross motor skills, fine motor skills, neurobiological causes, correctional methods.

KIRISH

Autizm sindromi (ASB) - ijtimoiy muloqotning buzilishi, stereotipik xatti-harakatlar, shuningdek, sezilarli harakat disfunksiyalari bilan tavsiflanadigan murakkab neyrorivojlanish kasalligidir. Maktabgacha yoshdagi ASB bor bolalarda harakat buzilishlari harakat koordinatsiyasining yetishmasligi, mushak tonusining pasayishi, harakat ko'nikmalarini o'zlashtirishning sekinlashishi va qo'llarning nozik harakatlarini bajarishda qiyinchiliklar kabi keng ko'lamli muammolarni o'z ichiga oladi[1]. Bu qiyinchiliklar bolaning kundalik hayotiga, mustaqilligiga va ijtimoiy moslashuviga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, autizm sindromli shaxslarda harakat buzilishlari miyacha, bazal gangliyalar va bosh miya motor po'stlog'i disfunksiyasi bilan bog'liq neyrobiologik xarakterga egadir[5]. Bu ASB bor bolalarda harakat yetishmovchiligini minimallashtirish va hayot sifatini yaxshilash uchun erta tashxis qo'yish va tuzatish choralarini ko'rish muhimligini taqozo etadi. Ushbu maqolada autizm sindromli bolalarda harakat buzilishlarining o'ziga xos xususiyatlari, ularning kelib chiqish sabablari va korreksion ish usullari batafsil ko'rib chiqiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

So'nggi yillarda ASB bo'lgan bolalarda motor buzilishlarni o'rganish olimlarning e'tiborini tortmoqda. Adabiyotlarda ta'kidlanishicha, autizmli bolalarda harakat yetishmovchiligi rivojlanishning dastlabki bosqichlaridayoq aniqlanishi mumkin [4]. C.P.Whyatt va C.M.Craigning tadqiqotlari kabi ilmiy ishlar

ASB bor bolalarda harakat nazorati va muvofiqlashtirishda sezilarli og‘ishlar mavjudligini tasdiqlaydi[6]. Bundan tashqari K.L.West, N.B.Leezenbaum, J.B.Northrup, J.M.Iverson meta-tahlilida harakat buzilishlarini tashxislashning asosiy usullari ko‘rib chiqilgan[7]. Biz 2023-2024-o‘quv yilida Chirchiq shahridagi 20- va 30-sonli ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan 31 nafar autizm sindromli bolalarning yirik va mayda motorikasining rivojlanish xususiyatlarini o‘rganish bilan bog‘liq tajriba-sinov ishimizda foydalanilgan instrumentlar quyidagi jadvalda ko‘rsatildi:

	Instrument nomi	Vazifasi
1	*Movement Assessment Battery for Children (MABC-2)*	-bolalarda yirik va mayda motorikani baholash instrumenti
2	*Bruininks-Oseretsky Test of Motor Proficiency (BOT-2)*	-motor buzilishlarning og‘irlik darajasini aniqlashga imkon beruvchi test
3	*Sensomotor testlar*	-harakat koordinatsiyasi, ko‘ruv-harakat integratsiyasi va postural (fazoda tana joylashuvi va mo‘ljal olish) nazoratni tekshirishga qaratilgan turli xil neyropsixologik va sensor-motor testlar [2].

1-jadval. Autizm sindromli bolalarning yirik va mayda motorikasining rivojlanish xususiyatlarini o‘rganish instrumentlari

Bundan tashqari, ASB bo‘lgan bolalarning ota-onalari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma ma’lumotlaridan foydalanildi, bu harakat ko‘nikmalarining buzilishi bilan bog‘liq eng muhim kundalik qiyinchiliklarni aniqlashga imkon berdi.

NATIJALAR

Tadqiqotimizda olib borilgan tajriba-sinov ishlari tahlili shuni ko‘rsatdiki, maktabgacha yoshdagi ASB bo‘lgan bolalarning aksariyatida harakatlarni boshqarish, muvofiqlashtirish va harakat nazorati bilan bog‘liq qiyinchiliklar mavjud. Bu buzilishlar quyidagicha namoyon bo‘ladi:

Yirik motorika: yurishni o‘zlashtirishda kechikish, harakatlanishdagi ishonchsizlik, koordinatsiya va muvozanatning buzilishi, yirik mushak guruhlarida zaiflik.

Mayda motorika: yozish, rasm chizish, tugmalarni qadash, qaychi va oshxona anjomlaridan foydalanishda qiyinchiliklar.

Ko‘ruv-harakat koordinatsiyasi: to‘pni ushlash, asboblardan foydalanish va ko‘z va qo‘llarni sinxronlashtirishni talab qiladigan harakatlarni bajarish kabi aniq harakatlarni bajarishda muammolar [4].

Stereotipik harakatlar: bir xil turdagi harakatlarning tez-tez takrorlanishi (qo‘llarni silkitish, tebranish), bu harakat nazoratining yetishmasligini ko‘rsatishi mumkin.

MUHOKAMA

Tadqiqot ma’lumotlariga ko‘ra, autizm sindromli bolalarda harakat buzilishlari muayyan miya strukturalari, xususan, harakatni muvofiqlashtirish uchun mas’ul bo‘lgan miyacha va harakat faolligini boshqarishda ishtirok etadigan bazal gangliyalar faoliyatidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin[5]. Harakatlar nazoratining yetishmasligi ijtimoiy va kommunikativ qiyinchiliklarni ham kletirganligi sababli, autizm sindromli bolalar ko‘pincha tengdoshlari bilan o‘ynash kabi birgalikdagi jismoniy faoliyatda qiyinchiliklarga duch kelishadi.

Autizm sindromli bolalarda harakat buzilishlarini korreksiyalash uchun turli xil yondashuvlardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi[8;9]:

Ergoterapiya - mayda motorikani rivojlantirish va sensomotor muvofiqlashtirishni yaxshilashga qaratilgan.

Kinezioterapiya va Davolovchi jismoniy tarbiya - mushaklarni mustahkamlash, muvozanatni saqlash va muvofiqlashtirishni rivojlantirish uchun mashqlarni o‘z ichiga oladi.

Sensor integratsiya - bolalarga sensor ma’lumotlarni yaxshiroq idrok etish va qayta ishlashga yordam beradi, bu esa harakatlarning rivojlanishiga ko‘maklashadi.

Maxsus jismoniy dasturlar - harakat ko‘nikmalarini yaxshilaydigan yoga, suzish, qoyaga chiqish va boshqa mashg‘ulotlarni o‘z ichiga olgan moslashtirilgan mashg‘ulotlar [3].

XULOSA

Umumiy va mayda motorikaning buzilishlari autizm sindromining o‘ziga xos xususiyati bo‘lib, bu buzilishlar bolaning kundalik hayotiga, ta’lim olishiga va ijtimoiy moslashuviga ta’sir ko‘rsatadi. Neyropsixologik va fizioterapevtik usullarni o‘z ichiga olgan korreksiyalash ishida kompleks yondashuv ASB bor bolalarning harakat ko‘nikmalarini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin. Bunday nuqsonli bolalarda harakat busilishlarini tasniflash hamda tashxislash usullari va samarali adaptiv korreksion dasturlarni ishlab chiqish uchun keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar o‘tkazilishi zarur.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Dowell, L. R., Mahone, E. M., & Mostofsky, S. H. (2009). Association of Motor Skills and Adaptive Functioning in Children with Autism Spectrum Disorders. Autism Research, 2(6), 456-468.

2. Green, D., Baird, G., Barnett, A. L., Henderson, L., Huber, J., & Henderson, S. E. (2021). The severity and nature of motor impairment in Asperger’s syndrome: a comparison with specific developmental disorder of motor function. Journal of Child Psychology and Psychiatry, 43(5), 655-668.

3. Leonard, H. C., Elsabbagh, M., Hill, E. L., & Happé, F. (2014). Early motor development in autism spectrum disorder: A review of the empirical evidence. Developmental Medicine & Child Neurology, 56(5), 422-429.

4. Lloyd, M., MacDonald, M., & Lord, C. (2013). Motor skills of toddlers with autism spectrum disorders. Autism, 17(2), 133-146.

5. Fournier, K. A., Hass, C. J., Naik, S. K., Lodha, N., & Cauraugh, J. H. (2010). Motor coordination in autism spectrum disorders: a synthesis and meta-analysis. Journal of Autism and Developmental Disorders, 40(10), 1227-1240.

6.Whyatt, C. P., & Craig, C. M. (2013). Motor skills in children aged 7–10 years, diagnosed with autism spectrum disorder. Journal of Autism and Developmental Disorders, 43(9), 2245-2257.

7. West, K. L., Leezenbaum, N. B., Northrup, J. B., & Iverson, J. M. (2019). The emergence of motor deficits in infants at high risk for autism spectrum disorder. Journal of Neurodevelopmental Disorders, 11(1), 1-14.

8. Muminova L.R. Autizm sindromi, uning sababalari, turlari va bartaraf etish metodikalari. Uslubiy qo‘llanma.// Toshkent, 2015 yil.

9. Qodirova F.U., Pulatova D.A. Autizm sindromli bolalar bilan ishlash metodikasi. O‘quv qo‘llanma.// Toshkent, 2023 yil.

ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN SHAXSLARNING HAYOTGA MOSLASHUVI VA INKLYUZIV JAMIYAT QURISH

Qodirova Feruzaxon Usmanovna
Professor, Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti, Chirchiq, O'zbekiston
ORCID ID: https://orcid.org/0000-0001-7439-5306
Normurodov Mirkamol Nurmurod o'g'li
1-kurs magistr talabasi, Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti,
Chirchiq, O'zbekiston

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola eshitishida nuqsoni bo'lgan shaxslarning ta'lim jarayoni va ijtimoiy hayotga moslashuvi muammolarini tahlil qiladi. Tadqiqot eshitish cheklovlari bo'lgan insonlar duch keladigan asosiy muammolarni, maxsus va inklyuziv ta'lim tizimlarining samaradorligini hamda zamonaviy texnologiyalarning ularning jamiyatga integratsiyasiga ta'sirini o'rganadi. Maqolada eshitish qobiliyatida nuqsoni bo'lgan shaxslar uchun ta'lim va jamiyatda moslashuv imkoniyatlarini yaxshilash bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: eshitish nuqsoni, inklyuziv ta'lim, maxsus ta'lim, imo-ishora tili, texnologik yechimlar, jamiyatga moslashuv.

KIRISH

Dunyo bo'ylab eshitish qobiliyatida nuqsoni bo'lgan insonlar soni ortib bormoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, taxminan 430 million kishi eshitish qobiliyati cheklangan bo'lib, 2050 yilga kelib bu raqam 700 millionga yetishi prognoz qilinmoqda (WHO, 2021). Eshitishida nuqsoni bo'lgan shaxslar uchun ta'lim olish va jamiyatga moslashish jarayoni murakkab bo'lib, ular muloqotdagi cheklovlar, ta'limdagi to'siqlar va ish topishdagi qiyinchiliklar bilan yuzlashadilar. Shu sababli, maxsus va inklyuziv ta'lim tizimlarining takomillashtirilishi, innovatsion texnologiyalarning joriy qilinishi va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimining rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqola eshitish qobiliyati cheklangan shaxslarning ta'lim jarayoni va jamiyatga integratsiyasi bo'yicha mavjud muammolarni tahlil qiladi hamda ularning hayot sifatini yaxshilash bo'yicha tavsiyalarni ilgari suradi.

METODOLOGIYA

Tadqiqot sifatli va miqdoriy tahlil usullaridan foydalangan holda amalga oshirildi. Quyidagi metodlar qo'llanildi: Adabiyotlar sharhi – xalqaro va mahalliy ilmiy maqolalar tahlil qilindi. Ta'lim tizimlarini taqqoslash – maxsus ta'lim va inklyuziv ta'lim modellari samaradorligi o'rganildi. Texnologik tahlil – audiovizual materiallar, subtitrlar, koxlear implantlar va imo-ishora tarjimonlarining ta'lim jarayoniga ta'siri o'rganildi. Ijtimoiy muhit tadqiqoti – eshitishida nuqsoni bo'lgan shaxslarning ishga joylashish va ijtimoiy integratsiya masalalari tahlil qilindi.

NATIJA

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki:

1. Maxsus va inklyuziv ta'lim tizimi taqqoslanganda, maxsus maktablarda imo-ishora tili va maxsus pedagogik yondashuv samarali bo'lishi aniqlangan, biroq inklyuziv ta'lim sharoitida bolalar ijtimoiy hayotga yaxshiroq moslashadi.

2. Texnologik innovatsiyalar – audiovizual vositalar, eshitish moslamalari va raqamli dasturlar eshitish qobiliyatida nuqsoni bo‘lgan shaxslarning axborotga kirishish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi.

3. Ish topishdagi qiyinchiliklar – O‘zbekistonda nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun ishga joylashish imkoniyatlari cheklangan bo‘lib, korxonalar ularga yetarli sharoit yaratib bermaydi.

4. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash muhimligi – rivojlangan mamlakatlarda davlat tomonidan maxsus dasturlar joriy qilingan bo‘lsa, O‘zbekistonda bunday yondashuv hali rivojlanish bosqichida.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, inklyuziv ta’lim, texnologik rivojlanish va davlat dasturlarining qo‘llab-quvvatlanishi eshitishida nuqsoni bo‘lgan shaxslarning jamiyatga moslashishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

1. O‘zbekistonda inklyuziv ta’limning rivojlanishi – so‘nggi yillarda davlat tomonidan nogironligi bo‘lgan bolalar uchun yangi ta’lim dasturlari ishlab chiqilgan, ammo bu hali etarli emas.

2. Xalqaro tajriba – rivojlangan mamlakatlarda, masalan, AQSh va Buyuk Britaniyada imo-ishora tili maktab dasturiga kiritilgan va davlat tomonidan subo‘tlantirilgan eshitish moslamalari tizimi mavjud.

3. Texnologiyalarni kengaytirish zarurati – O‘zbekistonda eshitishida nuqsoni bo‘lgan shaxslar uchun audiovizual materiallar va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish lozim.

XULOSA

Eshitish qobiliyatida nuqsoni bo‘lgan shaxslarning jamiyatga moslashuvi inklyuziv ta’lim, texnologik rivojlanish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimiga bog‘liq. Maqola natijalari quyidagi tavsiyalarni ilgari suradi: 1. Imo-ishora tilini davlat miqyosida rivojlantirish va ta’lim dasturiga kiritish 2. Zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanish va eshitish moslamalarini arzonlashtirish 3. Jamiyatda inklyuzivlik madaniyatini rivojlantirish va qonunchilikni takomillashtirish

ADABIYOTLAR

1. World Health Organization. (2021). *World report on hearing*.WHO.
2. Marschark, M., & Spencer, P. E. (2010). *The Oxford handbook of deaf studies, language, and education*. Oxford University Press.
3. United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization (UNESCO). (2021). *Inclusive education for children with disabilities*.
4. National Association of the Deaf. (2022). *Deaf culture and communication*.
5. O‘zbekiston Respublikasi. (2021). *Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi qonun*.

AQLI ZAIF BOLALARDA NUTQ BUZILISHINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

Isodullayeva Iqboloy Sodiqjonovna
Farg‘ona davlat universiteti Pedagogika-psixologiya va san’atshunoslik fakulteti,
Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
Shaxnoza Azizova
Maxsus pedagogika (logopediya) yo‘nalishi 2- kurs talabasi
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0005-9923-0328

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada yordamga muhtoj bolalar nutqni shakllantirish, bog‘langan nutqning o‘ziga xos xususiyatlari, aqli zaif bolalarning nutq orqali fikrlarini yetkazishdagi muammolari, ularning nutqlarini shakllantirish usullari va ota-onalar, logopedlar hamda pedagoglarning hamkorlikdagi ishlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Nutq, til, tafakkur, anomal, korreksiya, fonematik eshitish.

ABSTRACT

This article examines the development of speech in children with special needs, the distinctive characteristics of coherent speech, the challenges faced by children with intellectual disabilities in expressing their thoughts through speech, methods for developing their speech abilities, and the collaborative efforts of parents, speech therapists, and educators in this process.

Keywords: Speech, language, cognition, abnormal, correction, phonemic hearing.

KIRISH

Insonning eng muhim fazilatlaridan biri uning so‘zlash qobiliyatiga ega bo‘lib, nutq vositasida o'zaro aloqa bog‘lay olish, fikrlasha bilishidir. Turli tovushlarning ma’lum tartibda birgalashib, payvasta bo‘lib qo‘shilishidan yuzaga kelgan ma’noli nutq muayyan organizmlarning faoliyati natijasida paydo bo‘ladi. Nutq murakkab funksional jarayondir. Uning asosida muloqot jarayonidagi til birliklarini o‘rinli qo‘llash yotadi.

Tilning murakkab sistemasi uzoq muddatli ijtimoiy-tarixiy rivojlanish mahsuli bo‘lib, u bola tomonidan nisbatan qisqa muddatlarda o‘zlashtirib olinadi. Nutq rivojlanishi jarayonida bilish faoliyatining oliy shakllari, tafakkur qobiliyatlari shakllanadi. So‘zning ahamiyati o‘z-o‘zidan umumlashtiruvchi hisoblanadi va shu munosabat bilan o‘zida nafaqat nutq birligini, balki tafakkur birligini ham namoyon qiladi. Ular aynan o‘xshash emas va ma’lum darajada bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan holda paydo bo‘ladi. Lekin bolaning ruhiy rivojlanish jarayonida murakkab, sifati jihatidan yangi birlik nutqiy tafakkur, nutqiy fikrlash faoliyati paydo bo‘ladi. Kishilarning tili vositasida o‘zaro munosabatda bo‘lish jarayoni nutq deb ataladi. Nutq va tilni ayni bir narsa deb hisoblash yaramaydi.

Nutq odam boshqa kishilar bilan munosabatda bo‘lish maqsadida tildan foydalanadigan faoliyatdir. Har bir odam muomalani o‘zicha amalga oshiradi. Lekin bu muomala muayyan millat foydalanadigan o‘sha bir xil vositalari yordamida yuz beradi. Til esa ana shu vositalar yordamida vujudga keladi. Til tovush va so‘z boyligi, shuningdek, grammatik shakldir. Til ijtimoiy ishlab chiqarish taraqqiyoti davomida kishilar o‘rtasidagi nutq vositasidagi muomala jarayonida paydo bo‘ladi va uni inson tayyor holda o‘zlashtirib oladi. Bola nutqni egallab olganidan keyin o‘zi tug‘ilgan jamiyat hayotida kishilar bilan

munosabatda bo‘ladi. Agar bola biror sababga ko‘ra nutqni eslab qolmasa, uning aqliy kamoloti past darajaga tushib qolishi mumkin. Fikrlash o‘quvchining nutqi va tafakkuri o‘sishida muhim vositadir. Fikrni ifodalash usuliga ko‘ra nutq og‘zaki va yozma bo‘ladi. Og‘zaki nutq yozma nutqdan quyidagilar bilan farqlanadi: og‘zaki nutq — tovush nutq, yozma nutq esa grafik nutqdir. Og‘zaki nutqda intonatsiya, mimika, imo-ishora jestikulatsiyadan keng foydalanib, eshitish sezgisi asosiy rol o‘ynaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Oligofreniyaga oid adabiyotlarni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, unda o‘ziga xos ikki oqimga duch kelamiz: Birinchi oqim vakillarining fikriga ko‘ra, "aqli zaif bola u yoki bu darajada sodda, elementar bilimlarni o‘zlashtiradi. Ammo, ular umumlashtirish, abstraksiyalash jarayonlarini normal bolalardek bajara olmaydi" deb ta’kidlashadi.

L.S.Vigotskiy tomonidan ishlab chiqilgan g‘oya asosidagi ikkinchi oqim tarafdorlarining fikriga ko‘ra “Dastlabki va tez-tez uchraydigan nuqson psixologik funksiyalarining rivojlanmasligidir. Buning asosida xotira, tafakkur, xarakter buzilishlari yotadi”, deb ta’kidlanadi.

Bolalar nutqida qo‘shimcha tanish so‘zlar o‘rniga notanish so‘zlarning qo‘llanilishi tez-tez uchrab turadi. Bunday nutq hali bolaga yangi bilimlarni berish uchun mustahkam tayanch bo‘lib xizmat qila olmaydi. A.B.Zaporojetsning fikricha, maktabgacha bo‘lgan yoshda bilimlarni o‘zlashtirish imkoniyati aniq ko‘rgazmali tasavvurlarga tayangan holdagina tushuntirishlar asosida yuzaga keladi, faqatgina maktabgacha bo‘lgan katta yoshga kelib so‘z o‘z-o‘zidan muayyan mazmun chegarasida, bilimlar, ijtimoiy tajribani berish manbasi bo‘lib xizmat qila boshlaydi.

Aqli zaif bolalar o‘zlarining sog‘lom tengdoshlaridan farqli o‘laroq ancha kech tilga kiradilar. Birinchi so‘zni muddati bolaning uch, ba’zan besh yoshgacha kechikadi. Eng avvalo bu yerda talaffuzdagi nuqsonlarni qayd etish kerak. G.A.Kainning tadqiqotlariga ko‘ra, yordamchi maktab o‘quvchilarining 66 foizi tutilib gapirishning u yoki bu shakliga duchor bo‘ladi. Aqli zaif bolalar uchun xos bo‘lgan umumiy motor rivojlanmay qolishi ham nutqning rivojlanishining sekinlashishida ma’lum bir rol o‘ynaydi. Motorikaning (harakatlarning) rivojlanmay qolishi bolaning atrof – dunyo bilan tanishish jarayonini buzadi va natijada ular haqida tasavvur va ma’lumotlarni to‘plashni tormozlaydi.

G.L.Vigtoskiyning ma’lumotiga ko‘ra aqli zaif 1–2 sinf o‘quvchilari lug‘atida asosan ot va fe’llar ustunlik qiladi. G.M.Dulnevning aqli zaif bolalar o‘z nutqida sifatlardan kam foydalanadilar deb ko‘rsatadi. Aqli zaif bolalarda nutqiy ko‘chma ma’noda qo‘llangan so‘zlarning mohiyatini tushunmaydilar, “Oltin bosh” degan ibora bolada kulgu uyg‘otadi, hamda ularning e’tiroziga duch keladi. “Bunaqasi bo‘lmaydi” deyishadi ular. Nari borganda o‘quvchilar bu ibora vositasida quyoshda yiltillagan sochlarni tushunishadi. Hatto yordamchi maktabning yuqori sinf o‘quvchilari ko‘chma ma’nodagi so‘z birikmalarining to‘g‘ri sharxlashda qiynalishadi.

NATIJALAR

Aqli zaif bolalarning nutqini farqlaydigan yana bir xususiyat bu ularning noto‘g‘ri talaffuz etishlaridir. Aqli zaif bolalar juda ko‘p tovushlarni, ya’ni sirg‘aluvchi til orqa, sonor tovushlarni buzib talaffuz etadilar. Bunday holat bola nutq apparatining yaxshi rivojlanmaganligidan dalolat beradi. Bu guruhga kiruvchi bolalar orqasida tovushlarni buzib talaffuz etish, boshqa tovushlarga almashtirish ko‘proq foizni tashkil etadi. Shuning uchun ham logopedlarning o‘qituvchilarning asosiy vazifasi aqli zaif bolalar nutqini har tomonlama o‘stirishdir.

Bola nutqining normal rivojlanishi, unga doimo yangi tushunchalarni o‘zlashtirib olishga, tevarak-atrof haqidagi bilim va tasavvurlarni kengaytirishga imkoniyat yaratadi. Bolaning atrofidagi katta odamlar qaysi tilda gaplashsalar, bola ham shu tilni o‘rganadi. Nutqni egallashdek juda ham qiyin jarayonni bola qisqa muddat davomida uddasidan chiqa oladi. Bola rivojlanishida psixik jarayonlar bilan birga eshitish qobiliyati juda katta ahamiyatga ega. Bolaning normal rivojlanishida va umuman, barkamol bo‘lib o‘sishida barcha psixik jarayonlar bilan eshitish qobiliyati chambarchas bog‘liq holda, hech qanday nuqsonsiz rivojlangandagina uning nutq boyligi normal darajada rivojlanadi. Aqli zaif bolaning xususiyati shundaki, uning psixikasi qoidaga bo‘ysunmaydigan sharoitlarda, anomal taraqqiy topish jarayonida shakllanadi. Aqli zaif bola sog‘lom tengdoshlaridan shu bilan farqlanadiki, uning ilgarigi tajribasi va rivojlanishida bundan keyingi psixik kamol topish uchun zarur shart-sharoitlarni tashkil etuvchi mexanizmlar hamda psixik jarayonlar shakllanmagan bo‘ladi.

MUHOKAMA

Aqli zaif bolalarning mustaqil nutqini kuzatish shuni ko‘rsatadiki, ular syujetli rasm asosida hikoya tuzish, ko‘rgan narsalarini gapirib berish, ular uchun o‘qib berilgan matnni so‘zlab berish, o‘z ko‘rgan va boshlaridan kechirganlarini izchillik bilan bayon etib berish kabi topshiriqlarni juda katta qiyinchilik bilan bajaradilar. Aqli zaif bolalar og‘zaki nutqidagi barcha nuqsonlar ularni o‘qitish jarayonida qiyinchilik tug‘diradi.

Aqli zaif o‘quvchilarda yozma nutqdagi xatolarining asosiy sabablari esa quyidagilar:

- barcha nutq tovushlarini noto‘g‘ri talaffuz qilish;
- tovushlarni quloq bilan noto‘g‘ri eshitish va ajratish;
- tovushni so‘z ichidan ajrata olmaslik;
- tovushning so‘zdagi o‘rnini aniqlay olmaslik;
- shakllanmagan grammatik tizimlar;
- shakllanmagan fazoviy va vaqtinchalik tushunchalar.

XULOSA

Bularning barchasi yozma nutqda kamchiliklar bo‘lishini ta’minlaydi. Aqli zaif o‘quvchilarning nutqida u xoh og‘zaki yoki yozma bo‘lsin kamchiliklarni qisman bartaraf etish, korreksiyalash va rivojlantirish ishlarini amalga oshirishda oila bilan hamkorlikda bo‘lish va ularga yordam berish katta ahamiyatga egadir va bu davlat tomonidan kafolatlangan. Oilada alohida ta’lim ehtiyoji bor bolaga ta’lim-tarbiya berish, ularni har tomonlama rivojlantirish korreksiyalash va oilaviy hayotga tayyorlash vazifasini yuklaydi. Ushbu jarayonda individual imkoniyatlarni hisobga olgan holda nutqiy mashqlarni tashkil etish, muloqotga rag‘batlantirish va doimiy qo‘llab-quvvatlash orqali ularning nutq qobiliyatlarini yaxshilash mumkin. Bu nafaqat bolalarning nutqiy rivojlanishiga, balki ularning ijtimoiy hayotga moslashishiga ham yordam beradi. Aqli zaif o‘quvchilarning kelajakda o‘z-o‘ziga xizmat qilish malakalarini rivojlantirishda ham ularga sifatli va moslashtirilgan qulay ta’lim berish asosiy o‘rinni egallaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1 Айтметова С.Ш. — Особенности психического развития учащихся вспомогательной школы. — Т., Укитувчи, 1986.

2. Ayupova M. Logopediya. — T., 2011.

3. Беляков И.В. Запоминание стихотворних текстов умственно отсталыми ш кольниками при разных способах восприятия. Вопросы психологии познавательной деятельности. - М., 1984

4. Berdiyev G. Boshlang'ich sinflarda shaxslararo munosabatdagi kamchiliklar va ularni bartaraf etish. — Toshkent, 1995.

5. Berdiyev G. Shaxslararo munosabati va o'qituvchi. Xalq ta'limi jurnali, 5-son. — Toshkent, 1997. 20. Бгаженкова И.М. Психология умственно отсталого школьника. — М., 1987

6. Бурлачук Л.С. Психодиагностика: Учебник для вузов. СПб., — Питер, 2001.

7. Davletshin D., Mamedov K. Ibn Sinoning psixologik qarashlari. llmiy-ommabop to'plam. — T., 2002.

8. Davletshin M.G., To'ychiyeva S.M. Umumiy psixologiya. — Toshkent, 2002

9. Sh.M.Amirsaidova, Maxsus psixologiya (Oligofrenopsixologiya). –T.: <> 2019, 192 bet.

10. Учитель-логопед Е.В. Романова «Особенности письменной речи у обучающихся с легкой и умеренной умственной отсталостью» СанктПетербург 2021

11. Akramova X. (2020). Peculiarities of the labor activity of mentally retarded pupils. Архив Научных Публикаций JSPI, 15(1). извлечено от https://science.iedu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/897

12. Выготский Л С Мышление и речь -В кн.- Избранные психологические исследования М , 1956.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA TAJRIBA VA EKSPERIMENTLAR ORQALI BILISH FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISH

Egamberdiyeva Nigora Azizovna
CHPDU, Pedagogika fakulteti
Maxsus pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi
https://orcid.org/0009-0001-1670-7890
Xayriddinova Marjona Lutfullo qizi
CHPDU Maxsus pedagogika logopediya yo‘nalishi
2-bosqich talabasi
Hamidova Umida Jobir qizi
CHPDU Maxsus pedagogika logopediya yo‘nalishi
2-bosqich talabasi
Ro‘ziboyeva Zeboxon Qudrat qizi
CHPDU Maxsus pedagogika logopediya yo‘nalishi
2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar bilish faoliyatining rivojlanish jarayoni, bosqichlari, o‘ziga xos xususiyatlari hamda bolalar kognitiv jarayonlarini rivojlantirishda didaktik metodlar, jumladan amaliy metodlarning ahamiyati haqida yoritiladi.

Kalit so‘zlar: mashq, tajriba, eksperiment, didaktik materiallar, maktabgacha yosh, kognitiv soha, loyiha.

АННОТАЦИЯ

В данной статье будет освещен процесс, этапы, особенности развития познавательной деятельности дошкольников, а также Значение дидактических методов, в том числе практических, в развитии познавательных процессов детей.

Ключевые слова: упражнение, эксперимент, эксперимент, дидактический материал, дошкольный возраст, познавательная сфера, проект.

ABSTRACT

This article will cover the process, stages, and features of the development of cognitive activity in preschoolers, as well as the importance of didactic methods, including practical ones, in the development of children’s cognitive processes.

Keywords: exercise, experiment, experiment, didactic material, preschool age, cognitive sphere, project.

KIRISH.

Bolalar tajriba qilishni yaxshi ko‘rishadi. Bu ularning ko‘rgazmali-harakatli va ko‘rgazmali-obrazli tafakkurga ega ekanligi bilan izohlanadi. Maktabgacha yoshda u dunyoni bilishning yetakchi, dastlabki uch yilda esa deyarli yagona usuli hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishini ta’minlaydigan tavsiya etiladigan faoliyat turlari sifatida quyidagilar ajratib ko‘rsatiladi:

- bilish vazifalarini hal qilishni tashkil etish;

- MTT ishida eksperimentni qo‘llash;

- loyihalashdan foydalanish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni kognitiv rivojlantirishning dolzarb usuli eksperiment bo‘lib, u predmetlar va materiallarning xususiyatlari, sifatlari, hodisalarning aloqalari va bog‘liqliklarini bilishga qaratilgan izlanish xarakteridagi amaliy faoliyat sifatida qaraladi. Eksperimentda maktabgacha yoshdagi bola tadqiqotchi rolini bajaradi, u atrofdagi dunyoni mustaqil va faol ravishda o‘rganadi, unga ta’sir qilishning turli shakllaridan foydalanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Maktabgacha yoshdagi bolalik davrida atrof-olamni bilishda asosiy yetakchi faoliyat turi bo‘lgan tajriba o‘tkazish bola shaxsining rivojlanishiga o‘yin faoliyati kabi teng ta’sir ko‘rsatadi. Aslida, bu ikki haqiqiy bolalar faoliyatining mavjudligi maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi uchun qulay sharoitdir.

Bolalarning eksperimental-tadqiqotchilik faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish uchun pedagog zarur metod va usullarni egallagan bo‘lishi, materialni bolalarning talablari va yosh xususiyatlariga muvofiq tanlay olishi, bolalar eksperimentlari uchun sharoit yaratishi, ushbu yo‘nalishdagi ishlarni tizimlashtirishi kerak.

Kundalik hayotda bolalar ko‘pincha yangi narsalarni o‘rganishga intilib, turli moddalar bilan tajriba o‘tkazadilar. Ular o‘yinchoqlarni qismlarga ajratadilar, suvga tushib ketayotgan buyumlar - o‘yinchoqlarni kuzatadilar (cho‘kadi-cho‘kmaydi), qattiq sovuqda tillari bilan metall buyumlarni tatib ko‘radilar va hokazo.

Lekin bunday havaskorlikning xavfli tomoni shundaki, maktabgacha tarbiya yoshidagi bola moddalarni aralashtirish qonunlari, xavfsizlikning elementar qoidalari bilan hali tanish emas.

Pedagog tomonidan maxsus uyushtiriladigan eksperiment esa bola uchun xavfsiz bo‘lib, shu bilan birga uni tevarak-atrofdagi narsalarning turli xossalari, tabiatning hayot qonunlari bilan tanishtiradi, bola - maktabgacha tarbiya yoshidagi bola dunyosining yaxlit manzarasi shakllanishiga yordam beradi.

Shuning uchun, dastlab, men bolalarni o‘z rahbarligim ostida maxsus tashkil etilgan faoliyat turlarida tajriba o‘tkazishga o‘rgatdim, so‘ngra tajriba o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan jihozlarni, bolaning mustaqil takrorlashi uchun guruhning fazoviy-predmetli muhitiga kiritdim.

Mustaqil tajribalar, eksperimentlar o‘tkazish uchun barcha materiallar va uskunalar - quyidagi talablarga javob beradi:

- asboblar konstruksiyasi va ular bilan muloqot qilish qoidalarining maksimal soddaligi

- asboblarning buzilmasdan ishlashi va olinadigan natijalarning bir qiymatliligi

- hodisa yoki jarayonning faqat muhim tomonlarini ko‘rsatish

- o‘rganilayotgan hodisaning aniq ko‘rinishi, bolaning tajribani takroran ko‘rsatishda ishtirok etish imkoniyati.

Tajriba jarayonida bola nafaqat men buni qanday qilaman, balki nima uchun men buni boshqacha emas, aynan shunday qilaman, nima uchun men buni qilaman, nimani bilmoqchiman, natijada nima olishim kerak degan savolga javob berishi kerak.

Guruhda tajribalar o‘tkazish uchun ham yosh, ham pedagogik va sanitariya-gigiyena me’yorlari va talablariga javob beradigan mini laboratoriya jihozlandi. Laboratoriyani rasmiylashtirish katta xarajat talab qilmadi.

Alohida tokchalarga shisha kolbalar, probirkalar, kitoblar, ensiklopediyalar, turli maketlar; mikroskoplar, suv va havo haroratini o‘lchaydigan termometrlar, qum soat, budilnik, katta va kichik magnitlar, magnit doskasi, o‘lchash uchun leyklar, turli uzunlikdagi arqon va shnurlar, suv, qum, qog‘oz bilan o‘ynash uchun to‘plamlar qo‘ydi. Deraza tokchalariga kuzatish uchun o‘simliklar solingan yashiklar, bir nechta xona o‘simliklarini qo‘ydi, kichik bog‘ barpo etdi. Devorga soat, barometr, kuzgi barglardan panno osib qo‘ydim.

Tajribalarni o‘tkazish uchun turli o‘lcham va shakldagi qadoqlash materiallaridan foydalandim: muzqaymoq, yogurt, smetana va boshqa sut mahsulotlaridan tayyorlangan turli darajadagi shaffoflik va rangdagi stakanchalar, sochiluvchan moddalarni o‘lchash uchun shaffof qoshiqlar, tayoqchalar, kokteyl uchun naychalar (yangi), filtrlash uchun qog‘oz, shuningdek: qum, loy, toshlar, o‘simlik urug‘lari, g‘uddalar, moxlar, lishayniklar, daraxt po‘stlog‘i bo‘laklari. Shisha idishlarni faqat tajribalarni namoyish qilish uchun ishlatdim.

Tadqiqot uchun sayrlarda ko‘zachalar, suv quyish uchun stakanchalar, silindrlar, lupalar sotib olindi.

U bolalarga bolalar bog‘chasi hovlisida yoki uyda o‘z nuqtai nazaridan olimlar uchun qiziqarli bo‘lishi mumkin bo‘lgan narsalarni qidirishni va ularni laboratoriyaga olib kelishni - o‘z tanlovlarini tushuntirishni taklif qildi.

Muayyan mashg‘ulot uchun jihozlar to‘plamini har bir yosh olim uchun oldindan tayyorlab qo‘yaman va individual kichik patnisga joylashtiraman. O‘tkazilgandan so‘ng bola patnisni o‘zi yig‘ishtiradi. Taomlarni qayd etish uchun jamoa kundaliklari, papkalar, daftarlar, albomlarni bezatamiz.

Bolalar kattalar bilan birgalikda o‘zlarining birinchi kashfiyotlarini amalga oshiradigan, tushuntirish va isbotlashni o‘rganadigan, atrofdagi dunyoni bilish vositasi sifatida "laboratoriya sharoitida" tadqiqot obyektlari bilan ishlash qobiliyatini rivojlantiradigan mashg‘ulotlarni juda yoqtiradilar. Bu yerda bolalar tabiat bilan rasmlar orqali tanishmaydilar, balki u bilan doimo muloqotda bo‘lishlari mumkin. Mashg‘ulotlarda bolalarga qiziqarli bo‘lishiga harakat qilaman. Ularga tabiatning turli obyektlarini o‘rganish imkoniyatini taqdim etaman: ushlab ko‘rish, hidlash, ularni kuzatish, tajriba o‘tkazish va mustaqil o‘ynash, ba’zan kattalar uchun mutlaqo kutilmagan savollarga javob olish.

Ekologik ta’lim bilan shug‘ullanar ekanman, eng muhimi bolaning bilim olishi emas, balki unda atrof-muhitga ehtiyotkorona, hissiy munosabatni va ekologik savodli xulq-atvor ko‘nikmalarini shakllantirish ekanligini unutmadim. Bolalar iloji boricha ko‘proq turli xil nomlarni eslab qolishlariga intilmadi, bola uchun murakkab va tushunarsiz atamalarni ishlatmadi.Asosiysi, bolalarda tabiat obyektlariga nisbatan bilish qiziqishini, kuzatish, tajriba o‘tkazish, atrof-muhitda hamma narsa o‘zaro bog‘liq ekanligini tushunish istagi va qobiliyatini tarbiyalashdir.

Tadqiqot ishini bolalar faoliyatining boshqa turlari: sayrdagi kuzatishlar, o‘qish, o‘yin, tasviriy san’at mashg‘ulotlari, ovqatlanish, uyqu va boshqalar bilan bog‘lash juda muhimdir. Bolalarga tajriba natijalarini tushunishni nazarda tutuvchi ijodiy topshiriqlar berish. Buni ko‘plab misollar tasdiqlaydi. Sayrda kichik yoshdagi bolalar qum, qor, suv, buyum va o‘yinchoqlar bilan o‘ynaydilar. Bularning hammasi bolalarning tevarak-atrofdagi narsalarning xilma-xil sifat va xususiyatlari, ularning vazifasi, ishlatilishi haqidagi tasavvurlarini boyitadi, bilish faolligini va tajriba o‘tkazishga qiziqishni uyg‘otadi.

Tadqiqot ishini boshlashdan oldin har bir bolaga tajriba natijalari haqida o‘z taxminini bildirishni taklif qildi. Keyin maktabgacha yoshdagi bolalar o‘z farazlarini tajriba jarayonida o‘zlari tekshirib ko‘rdilar va kattalar bilan birgalikda natijalarni muhokama qildilar. O‘z misolida bolalarni paydo bo‘lgan savollarga mustaqil ravishda javob izlashga undadi, obyektning yangi, g‘ayrioddiy xususiyatlariga e’tibor qaratdi, taxminlar qildi, bolalardan yordam so‘radi, tajriba o‘tkazishga, mulohaza yuritishga, taxmin qilishga yo‘naltirdi.

Bir kuni bolalarga laboratoriyamizga kichkintoylarni taklif qilib, ularga eng oddiy tajribalarni, asbob-uskunalarni ko‘rsatishni, o‘z kuzatishlarining natijalari bilan tanishtirishni taklif qildim. Kichkintoylar tomosha qilib, quloq solib o‘tirishar, kattaroq bolalar esa g‘ururlanib ketishardi. Bunday mashg‘ulot katta tarbiyaviy samara berdi. Guruhda bolalarni intellektual faollik ko‘rsatishga undovchi predmetlar doimo paydo bo‘lib turdi. Bular sirli maktublar - sxemalar, shifrlangan yozuvlar, buzilgan, tuzatilishi kerak bo‘lgan o‘yinchoqlar, kosmosdan kelgan jo‘natmalar va hokazolar edi. Topishmoqlarni yechishda bolalar kashfiyot va bilish quvonchini his qilishdi. "Nima uchun bunday bo‘ladi?," "Agar shunday bo‘lsa, nima bo‘ladi?," "Qanday qilib o‘zgartirish mumkin,...?," "Buni nimadan qilishimiz mumkin?," "Buni qanday bilishimiz mumkin?" kabi savollar bolalar bilan muloqotimda doimo mavjud.

Shunday qilib, to‘g‘ri tashkil etilgan tajriba-tadqiqot faoliyati davomida tarbiyalanuvchilar:

1. Muayyan vaziyatdan tashqarida bo‘lgan narsa va hodisalarga qiziqish bildiradi, "nima uchun, nima uchun, qanday qilib?"

2. Dalillarning bog‘liqligini "chunki" mulohazasi yordamida tushuntirishga intilish aniqlanadi.

3. Konkret materiallar, buyumlar (kolleksiyalar) ni tartibga solish, sistemalashtirishga intiladilar.

4. Ma’rifiy adabiyotlarga qiziqish bildiradi.

5. Ramziy "tillar"ga qiziqish bildiradilar; sxemalar, xaritalar, chizmalarni mustaqil ravishda "o‘qishga" va ular bo‘yicha biror narsa qilishga (yasashga, konstruksiyalashga) harakat qiladilar.

6. Mustaqil ravishda sxemalar, xaritalar, piktogrammalar tuzadilar, hikoyalar, kuzatishlarni yozib oladilar (yozuvni tizimlashtirish va muloqot vositasi sifatida o‘zlashtiradilar).

Olingan bilimlarning qimmati shundaki, atrof-muhitni asrab-avaylash uchun o‘z mas’uliyatini anglash sodir bo‘ladi. Tevarak-atrofdagi real narsalarning xossalarini turli yo‘llar bilan bilish bolaga o‘z-o‘zini tasdiqlash va tevarak-atrofdagi olamda o‘z o‘rnini topish imkonini beradi.

XULOSA.

Tadqiqot va tajriba o‘tkazish bolaning intellektual faolligi va qiziquvchanligini rag‘batlantiradi, natijada tabiatning asosiy qonunlari tajribani qo‘yish natijasida bola tomonidan mustaqil ravishda keltirib chiqariladi. Bolalar bog‘chasidagi eksperiment bolalarni muayyan tadqiqot metodlari bilan, eksperiment o‘tkazishda xavfsizlik texnikasi qoidalari bilan tanishtirish imkonini beradi. Tajriba bolaning atrof-muhitga alohida intellektual-faol hissiy munosabatini ko‘rish imkonini beradi, bu uning tajriba jarayonida dunyodagi narsa va hodisalar haqidagi shaxsiy tajribasi va tasavvurini individual tarzda ifoda etishga intilishida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Azizovna, E. N. (2024). Alohida ta’lim ehtiyojiga ega bolalarni inklyuziv ta’limga qamrab olishning shart-sharoitlari. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 12(1), 53-55.

2. Azizovna, E. N. (2022). Bolalar serebral falajida o’yinli metodlardan foydalanish. Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali, 207-210.

3. Azizovna, E. N. NUTQ NUQSONIGA EGA BO‘LGAN BOLALARNI RIVOJLANTIRISHDA LOGOPEDIK O‘YINLARNING AHAMIYATI.

4. Egamberdiyeva, N. A., & Raxmatullayeva, M. R. (2022). Inklyuziv ta'limda eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlari. Inklyuziv ta'limning dolzarb masalalari, 1(1), 163-167.

BOLALARDA NUTQ BUZILISH SABABLARI VA ULARNI TUZATISH USULLARI

Egamberdiyeva Nigora Azizovna
CHDPU, Pedagogika fakulteti
Maxsus pedagogika kafedrasi o'qituvchisi
https://orcid.org/0009-0001-1670-7890
Olimova Zuhraxon Muhiddin qizi
CHDPU, Maxsus pedagogika/logopediya
II bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bolalarda uchraydigan nutq buzilishlari, ularning asosiy sabablari va belgilari hamda samarali korreksion usullari tahlil qilinadi. Nutq buzilishlari bolaning ijtimoiy moslashuvi, ta'lim jarayoni va psixologik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bilan birga erta tashxis va erta logopedik yondashuv muhim ahamiyat kasb etishi ko'rib chiqiladi. Maqolada logopedik mashqlar, psixologik yondashuvlar va innovatsion terapiya usullari haqida ma'lumot beriladi. Tadqiqot natijalari nutq muammolarini hal qilishda ota-onalar, pedagoglar va logopedlar uchun foydali bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: nutq, ontogenez, etiologiya, asfiksiya, dislaliya, nutq buzilishlari, logoped, tuzatish ishlari.

АННОТАЦИЯ

В данной статье будут проанализированы речевые нарушения, встречающиеся у детей, их основные причины и симптомы, а также эффективные методы коррекции. Речевые нарушения могут негативно сказаться на социальной адаптации, учебном процессе и психологическом состоянии ребенка. Однако считается, что ранняя диагностика и ранний логопедический подход становятся все более важными. В статье представлена информация о логопедических упражнениях, психологических подходах и инновационных методах терапии. Результаты исследования могут быть полезны родителям, педагогам и логопедам при решении речевых проблем.

Ключевые слова: речь, онтогенез, этиология, асфиксия, дислалия, нарушения речи, логопед, коррекционная работа.

ABSTRACT

This article will analyze speech disorders that occur in children, their main causes and symptoms, as well as effective methods of correction. Speech disorders can negatively affect a child's social adaptation, learning process, and psychological state. However, it is believed that early diagnosis and an early speech therapy approach are becoming increasingly important. The article provides information about speech therapy exercises, psychological approaches and innovative methods of therapy. The results of the study can be useful to parents, teachers and speech therapists in solving speech problems.

Keywords: speech, ontogenesis, etiology, asphyxia, dyslalia, speech disorders, speech therapist, correctional work.

KIRISH

Ta'lim – tarbiya ishlarini takomillashtirish, uni jahon andozalari darajasiga ko'tarish, fan sohasidagi yangiliklarni amaliy hayotga tatbiq etish muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish, ularda fan asoslariga nisbatan bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan hisoblanadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning I bob 3-moddasida:

- davlat ta'lim talablari-ta'limning tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga, shuningdek ta'lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlariga qo'yiladigan majburiy talablar;

- tarbiya – aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

- ta'lim-ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon.

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonuning II bobi 9-moddasida jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalar davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarida inklyuziv shaklda yoki uy sharoitlarida yakka tartibda ta'lim oladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Nutq – bolaning atrof-muhit bilan muloqot qilishida, fikrlarini ifodalashida va ijtimoiy muhitga moslashishida asosiy vositalardan biridir. Ammo ba'zi bolalarda nutq rivojlanishida turli muammolar kuzatiladi. Bunday buzilishlar bolaning o'z fikrlarini to'g'ri bayon qilishiga, o'qish va yozish ko'nikmalarini o'zlashtirishiga hamda jamiyatga integratsiyalashishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Nutq buzilishlari tug'ma yoki orttirilgan sabablarga ko'ra yuzaga kelishi mumkin. Tug'ma sabablar orasida nevrologik kasalliklar, eshitish qobiliyatining buzilishi va genetik omillar bo'lsa, orttirilgan sabablar psixologik stress, noto'g'ri tarbiya yoki yetarli nutqiy muhitning yo'qligi kabi omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Nutq nuqsonlari sabablarini o'rganagan holda M.I.Dobrogayev nutq buzilishlari sabablari orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatgan.

1. Oliy nevr faoliyati kasalliklari
2. Anatomik nut apparatida patologik òzgarishlar
3. Bolalikda tarbiyaning yetishmagabligi
4. Organizm umumiy nevropatik holati.

M.E.Xvattsev nutq nuqsonlarini kelib chiqish vaqtiga muvofiq prenatal, natal, postnatal davrlarga ajratadi hamda ekzogen va endogen ta'sirlarning me'yordagi nutq rivojiga salbiy ta'sirlarini tasniflaydi. Muallifning fikriga ko'ra prenatal davrdagi quyidagi ta'sirlar nutq rivojiga salbiy ta'sir etadi:

- homilaga kislorod yetishmasligi. Bu toksikoz, nefropatiya, tushish xavfi, yo'ldosh patologiyasi, yuqori qon bosimi va onaning somatik kasalliklari tufayli yuzaga kelishi mumkin;
- homiladorlik paytida onaga ta'sir qiladigan turli xil virusli infektsiyalar;
- yiqilish, ko'karishlar yoki jarohatlar, ayniqsa qorin bo'shlig'i;
- agar ona va chaqaloqning qon guruhlari mos kelmasa;
- erta tug'ilish yoki kech qolish;
- homiladorlik paytida chekish, spirtli ichimliklar va giyohvand moddalarni iste'mol qilish;

- homiladorlikning boshida qabul qilingan ba'zi dori-darmonlarni, shu jumladan saratonga qarshi antibiotiklar, ototoksik dorilar, bilvosita antikoagulyantlar va antidepressantlarni qabul qilish;

- abort qilishga urinish;

- haddan tashqari kuchlanish, kimyoviy moddalar yoki radiatsiya bilan ishlash kabi professional zararli omillar;

- homilaning kislorod ochligini keltirib chiqaradigan onaning stress.

Natal davridagi omillar:

- bosh miyaga qon quyilishi bilan tug'ilish travması;
- asfiksiya - miya uchun kislorod yetishmasligi;
- yangi tug'ilgan chaqaloqning vazni juda kichik (1,5 kg dan kam) va reanimatsiyaga muhtojligi;
- Apgar shkalasi bo'yicha past ball (bu holat tug'ilgandan keyin darhol baholanadi).

Postnatal davr:

- infektsiyalar, virusli kasalliklar, meningit, meningoensefalitni Markaziy asab tizimiga zarar yetkazishi, eshitish qobiliyatini buzilishi;

- ichki qon ketishiga olib keladigan miya shikastlanishi;

- yuz suyaklarining shikastlanishi;

- uzoq muddatli shamollash, o'rta va ichki quloqning yallig'lanishi tufayli eshitish qobiliyatini buzilishi va shu sababli nutqning rivojlanishiga ta'sir qilishi;

- eshitish qobiliyatini buzadigan ototoksik antibiotiklar (streptomitsin, neomitsin, kanamitsin, gentamitsin).

Dunyo miqyosidagi statistik ma'lumotlarga ko'ra nutq nuqsonlarining soni ko'payib bormoqda, shuning uchun bolalar va o'smirlarda nutq kamchiliklarini oldini olish dolzarb muammo bo'lib qolgan. Bizning mamlakatimizda nutq kamchiliklariga ega bolalar bilan olib boriladigan korreksion-tarbiyaviy va pedagogik ishga katta e'tibor qaratilmoqda. Nutq kamchiliklarini erta aniqlash, korreksion ta'lim va tarbiyani tashkil qilish va ta'lim-tarbiyaning uslublari masalasini hal qilish bo'yicha ma'lum miqdorda yutuqiarga erishilgan. Ko'p hollarda maxsus ta'sir etish yo'llari orqali bolalardagi turli xil nutq patologiyalarini oldini olishga erishilmoqda. Bolalardagi nutq kamchiliklarini o'z vaqtida oldini olish nerv-psixik kasalliklami oldini olish bilan uzviy bog'liqdir. Bu davolash, pedagogik va ijtimoiy ta'sirlami o'z ichiga olgan kompleks tadbirlar orqali amalga oshiriladi.

Nutqning me'yorda shakllanishi uchun miya yarim sharlasr po'stlog'ining ma'lum bir yetuklikka erishishi, artikulyar apparatning shakllanishi va eshitishning saqlanib qolishi kerak. Yana bir ajralmas shart - bu bolaning hayotining birinchi kunlaridan boshlab to'liq huquqli nutq muhiti. 1 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan nutqni rivojlantirishning asosiy ko'rsatkichlari keltirilgan.

Nutq buzilishi bo'lgan bolalar - bu normal eshitish va buzilmagan aql bilan nutq rivojlanishida og'ish bo'lgan bolalar. Nutq buzilishlari xilma-xil bo'lib, ular talaffuzning buzilishi, nutqning grammatik tuzilishi, lug'atning kambag'alligi, shuningdek, nutq tezligi va ravonligining buzilishida namoyon bo'lishi mumkin.

Og'irlik darajasiga ko'ra, nutq buzilishlarini davlat umumta'lim maktabida o'qishga to'sqinlik qilmaydiganlarga va maxsus tayyorgarlikni talab qiladigan og'ir kasalliklarga bo'lish mumkin. "Nutq buzilishi, nutqiy muomalaning cheklanganligi bola shaxsining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, aslida bu ruhiy buzilishlarni, hissiy-irodaviy sohaning o'ziga xos xususiyatlarini keltirib chiqarishi, uning xarakteridagi salbiy faziiatiar (tortinchoqlik, qat'iyatsizlik, odamovilik, salbiylik, nomukammallik tuyg'usi)ning rivojlanishi uchun yo'l ochib berishi mumkin". Biroq, ommaviy bolalar muassasalarida nutqi buzilgan bolalar ham alohida yordamga muhtoj. MTTlar tarbiyalanuvchilarining

ko‘pchiligida nutqida nuqsoni mavjud bo‘lib, ularda bolalarga logoped va ruxshunos yordam beradi. Nutqni tuzatishdan tashqari, bolalar xotira, diqqat, fikrlash, umumiy va nozik motorli ko‘nikmalarni rivojlantirish bilan shug‘ullanadilar, savodxonlik va matematikani o‘rgatadilar. Umumta’lim maktablari qoshidagi logopediya shahobchalarida maktab yoshidagi bolalarga yordam ko‘rsatilmoqda. Nutq markazlariga talaffuzida nuqsoni bor, nutqi rivojlanmaganligi sababli yozishda nuqsoni bor, duduqlangan bolalar yuboriladi. Maktabdagi logopedik mashg‘ulotlarining muvaffaqiyati ko‘p jihatdan oilaning to‘g‘ri nutq ko‘nikmalarini mustahkamlashga qanchalik hissa qo‘shishiga bog‘liq.

Og‘ir nutq buzilishlarida bolalarni ommaviy bolalar muassasalarida o‘qitish mumkin emas, shuning uchun og‘ir nutq buzilishi bo‘lgan bolalar uchun maxsus bolalar bog‘chalari va maktablar mavjud. Og‘ir nutq buzilishining asosiy belgisi - bu oddiy eshitish va buzilmagan aql bilan og‘zaki aloqa vositalarining aniq cheklanishi. Bunday kasalliklardan aziyat chekadigan bolalarda nutq zaxirasi kam, ba’zilari esa umuman gapirmaydi. Bu holatda boshqalar bilan muloqot juda cheklangan. Ushbu bolalarning aksariyati ularga aytilgan nutqni tushunishga qodir bo‘lishiga qaramay, ularning o‘zlari boshqalar bilan og‘zaki muloqot qilish imkoniyatidan mahrum. Bu bolalarning jamoadagi qiyin pozitsiyasiga olib keladi: ular tengdoshlari bilan o‘yinlarda, ijtimoiy faoliyatda ishtirok etish imkoniyatidan to‘liq yoki qisman mahrum.

Nutqida nuqsoni bor bolalar bilan olib boriluvchi korreksion-rivojlantiruvchi ish tizimi kompleks tarzda olib borilishi, ishning samarali muvafaqqiyatiga asos bo‘ladi.

Korreksion ishlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi, ya’ni:

- Bolalarni kompleks tarzda erta tashxislash;
- Mashg‘ulotlar jadvalini oqilona tuzish;
- Har bir bola bilan olib boriladigan individual ishni rejalashtirish;
- Frontal mashg‘ulotlarni rejalashtirish;
- Mashg‘ulotlarni kerakli jihozlar va ko‘rgazmali qurollar bilan ta’minlash;
- Logopedning tarbiyachi va ota-onalar bilan o‘zaro hamkorligi orqali amalga oshirish.

Nutqida kamchiligi bor shaxslarning barcha yosh guruhlarida nutq bilish faoliyati, emotsional-irodaviy sohalardagi nuqsonlarni bartaraf etish imkoniyatlari tibbiy va pedagogik ta’sirlar kompleksining o‘z vaqtida va aynan bir xil qo‘llanishiga bog‘liqdir. Tuzatuvchi ta’lim ishlarining barcha komplekslarini o‘tkazish umumdastur talablarini bajarish bilan birga, nutq nuqsonlarini tuzatish bo‘yicha maxsus mashg‘ulotlarni qo‘shib olib borishni talab qiladi. Nutq nuqsoniga ega bo‘lgan maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar guruhlari uchun oddiy kun tartibidan farq qiladigan maxsus kun tartibi ishlab chiqilgan. Jumladan, unda logoped tomonidan o‘tkaziladigan umumiy, guruhlardagi va yakka tartibdagi mashg‘ulotlar ko‘zda tutilgan. Shu bilan birga, kechki vaqtda tarbiyachining logoped topshirig‘i bo‘yicha guruhlarda va alohida bolalar bilan nutqni tuzatish yuzasidan maxsus soatlar ajratilgan. Tarbiyachi o‘z ishini dastur talablariga va bolalarning nutqiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda rejalashtiradi. Tarbiyachi bola nutqining shakllanishidagi individual kamchiliklarni bilishi, nutqning talaffuz va leksiko-grammatik jihatidan nuqsonlarini tushunishi, ta’lim va ta’limdan tashqari faoliyat jarayonida har bir bolaning nutqiy imkoniyatlarini hisobga olishi shart. Logoped bilan hamkorlikda nutqning to‘liq rivojlanmaganligi bo‘yicha mashg‘ulotlar, nutqni o‘stirish, atrof-muhit bilan tanishtirish va savod o‘rgatish ishlari olib boriladi. Bundan tashqari, logopedik ta’sir ham muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida logopedik ta’sirning asosiy maqsadi bilan tanishib chiqamiz:

- nutq tovushlarni bilishi va ularning idrokida aralashtirib yubormaslik kerak;
- bir tovushni ikkinchisidan akustik belgisi bo‘yicha ajrata bilishi;
- normal talaffuz qilingan tovushdan noto‘g‘ri talaffuz qilingan tovushni ajrata bilishi;
- o‘zi talaffuz qilgan tovushni eshitib, nazorat qila bilishi va sifatini baholashi;

- tovushning normal akustik effektini hosil qiluvchi artikulatsion holatini bajara olishi;
- nutqning hamma turlarida tovushlardan o‘rinli foydalanish.

Logopedik mashg‘ulotlar haftasiga 3 marta muntazam ravishda o‘tkaziladi. Ota-onalar bilan birgalikda uy sharoitida ham mashg‘ulotlar o‘tkazilishi lozim (logoped topshiriqlari asosida). Mashg‘ulotlarni har kuni 2-3 marta 5-15 daqiqa davomida o‘tkazish lozim.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Og‘ir nutq buzilishlari uchun xarakterli xususiyat uning umumiy rivojlanmaganligi bo‘lib, u nutqning tovush va leksik, grammatik jihatlarining pastligida namoyon bo‘ladi. Natijada og‘ir nutq buzilishi bo‘lgan bolalarning aksariyatida fikrlash, nutqni umumlashtirish, o‘qish va yozishda qiyinchiliklar mavjud. Bularning barchasi aqliy rivojlanishning birlamchi saqlanishiga qaramay, fan asoslarini o‘zlashtirishni qiyinlashtiradi.

Muloqotga urinishda o‘zining pastligi va kuchsizligini anglash ko‘pincha xarakterdagi o‘zgarishlarga olib keladi: izolyatsiya, negativizm, zo‘ravon hissiy buzilishlar. Ba’zi hollarda apatiya, befarqlik, letargiya, e'tiborning beqarorligi mavjud. Bunday reaktsiyalarning zo‘ravonligi bolaning joylashgan sharoitlariga bog‘liq. Agar uning nuqsoniga e'tibor qaratilmasa, nutqining noto‘g‘riligi beozor so‘zlar bilan ta’kidlanmasa, ular uni tushunishga va jamiyatdagi qiyin vaziyatni engillashtirishga har tomonlama harakat qiladilar, bolaning shaxsiyatida reaktiv qatlamlar kamroq bo‘ladi. Odatda, to‘g‘ri pedagogik yondashuv bilan bolalar og‘zaki va yozma nutqni o‘zlashtiradilar, maktab bilimlarining zarur miqdorini o‘rganadilar. Nutqning rivojlanishi bilan birga, qoida tariqasida, psixikadagi ikkilamchi o‘zgarishlar ham yo‘qoladi.

Nutq buzilishlari orasida eng ko‘p tarqalgan kamchilik bu - dislaliyadir.Dislaliya grekcha so‘zdan olingan bo‘lib, dis-buzilish,laliya-nutq degan ma’nolarni anglatadi.Bu kasallik yengil formadagi nutq buzilishi hisoblanib, uni vaqtida to‘g‘ri tashxislash va davolash orqali bartaraf etish mumkin**.**

XULOSA.

Nutq kamchiligiga ega bolalarni tarbiyalash jarayonida ota-onalar va pedagoglar doimo o‘z xulq-atvorini va o‘zining mavqeyini anglashi lozim. O‘zaro tushunish, rag‘batlantirish, o‘zaro hurmat, tartibni saqlash, oila a’zolari o‘rtasidagi singari pedagog va ota-onalar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir nutq kamchiligiga ega bolalardagi psixogen reaktiv holatlar profilaktikasida jiddiy rol o‘ynaydi. Xususan, ushbu holat duduqlanuvchi o‘quvchilar uchun dolzarbdir. Bolalar nutqiy nuqson bilan bog‘liq shaxsiy kechinmalar, nutq qo‘rquvi, nutqiy muloqotni talab qiluvchi vaziyatdan qochish va hoakazo holatlar kuzatilsa, logoped o‘z ishida muhim psixoterapevtik aksentni kuchaytirishi lozim. Bu aksent va psixoterapiya shakllari har doim bola yoshiga va uning individual psixologik ta’sirlanish xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Nutqiy nuqson belgilarini yaxshi bilish va hisobga olish zarur, shuningdek, uning to‘liq kompensatsiyasi ham e'tiborga olinadi. Buning natijasida har bir bolani har tomonlama sinchikovlik bilan o‘rganish, nutq kamchiligiga ega bolalar korreksion ta’lim-tarbiyasining yuqori darajadagi variantini tuzishda alohida ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchilogopedning guruhdagi barcha bolalaming individual xususiyatlarini aniq bilishi nuqsonni bartarf etish imkoniyatini belgilashga yordam beradi, buning uchun kerakli muddatlarni o‘rganish, umumta’lim maktablari dasturi bo‘yicha o‘qitishga qarab oldindan baho berish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Akhunjonov M. “Logopediya” – Toshkent: O‘qituvchi, 2005.
2. Azimova N.A. “Nutq buzilishlari va ularni korrektsiya qilish metodikasi” – Toshkent, 2010.
3. Masturabekova G. “Bolalarda nutq rivojlanishi va uning buzilishlari” – Toshkent: Fan, 2015.

4. Tikhonova L.A. “Logopediya: diagnostika va nutq buzilishlarini korrektsiya qilish” – Moskva: Akademiya, 2013.

5. Filicheva T.B., Chirkina G.V. “Logopediya: korrektsion ishlar tizimi” – Sankt-Peterburg, 2010.

Jamiyatda inklyuziv ta’limni amalga oshirish orqali, o'quvchilar nafaqat akademik bilimlarga ega bo'lishadi, balki ijtimoiy ko‘nikmalarni ham rivojlantiradilar. Bu, o‘z navbatida, jamiyatda turli guruhlarning o‘zaro hamkorligi va hurmatini kuchaytiradi. O’zbekistonda nogironlarni davlat tomonidan qo’llab-quvvatalash, tibbiy-ijtimoiy yordam ko’rsatish, hayoti sifatini yaxshilash tizimini takomillashtirish, ularga ta’lim olish va ishga joylashishda har tomonlama ko’maklashish bo’yicha qato ishlar amalga oshirilib, xalqimizga xos bo’lgan mehr-shavqat hamda zgulik tuyg’ularini hhisobga olgan holda nogironlarning muhim ehtiyoji va talablariga muhim e’tibor qaratilmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

O’zbekiston Respublikasi Prizidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha harakatlar strategiyasi to’g’risida” , 2017-yil 1-dekabrdagi PF-5270-son “Nogironligi bo’lgan shaxslarni davlat tomonidan qo’llab – quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to’g’risida”, 2019-yil 29- apreldagi PF-5712-son “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kansepsiyasi to’g’risida”, 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son “Alohida ta'lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

BMT tomonidan 1948-yilda qabul qilingan “Inson huquqlari umum jahon Deklaratsiyasi”da “Ta’lim olish har bir insonning asosiy va ajralmas huquqi” ekanligi alohida e’tirof etilgan.

Nuqsonli o’quvchilarning asosiy imkoniyatlari asosiy o’rinda turadi. Barcha nuqsonli bolalarning nuqsonlarini erta aniqlab ta’limga jalb qilish imkoniyatini topmoq kerak. Shunday qilib, yuqorida keltirilgan barcha huquqiy me’yoriy hujjatlar, xalqaro forum Kanferinsiyalar asosida maxsus ehtiyojli bolalar ham jamiyatning to’laqonli va teng huquqli a’zosi ekanligi e’tirof etilib, ular ta’limda alohida

yangicha yondoshuv maydonga keldi. Ushbu ta’lim shakllari inklyuziv va integratsion ta’lim deb ataladi. Inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi — nogironligi bo‘lgan o'quvchilarga moslashtirilgan ta’lim tizimini yaratish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan zaif guruhlar uchun teng imkoniyatlar yaratish va barcha o'quvchilarning ijtimoiy integratsiyasini ta'minlashdir.

Jamiyatda inklyuziv ta’limni amalga oshirish orqali, o'quvchilar nafaqat akademik bilimlarga ega bo'lishadi, balki ijtimoiy ko‘nikmalarni ham rivojlantiradilar. Bu, o‘z navbatida, jamiyatda turli guruhlarning o‘zaro hamkorligi va hurmatini kuchaytiradi.

Natijalar

Inklyuziv ta'lim tizimini keng miqyosda targ‘ib qilish uchun quyidagicha chora tadbirlar amalga oshirilishi zarur:

1. Ta'lim muassasalarini moslashtirish: Inklyuziv ta’limni joriy etish uchun birinchi navbatda ta’lim muassasalarini moslashtirish zarur. Nogironligi bo‘lgan o‘quvchilar uchun maxsus texnik vositalar, ko‘rish yoki eshitish imkoniyatini yengillashtiradigan asboblar (masalan, ekran o‘qish tizimlari, eshitish apparatlari) va maxsus o‘quv materiallari taqdim etilishi lozim. O‘quv xonalarida shuningdek, o‘quvchilarning ehtiyojlariga mos joylar tashkil etilishi, muassasa binolarida turli xil maxsus uskunalar, shuningdek, lift va boshqa moslashtirishlar bo‘lishi kerak. 2. O‘qituvchilarning malakasini oshirish: Inklyuziv ta’limni samarali amalga oshirish uchun o‘qituvchilarni maxsus treninglar orqali tayyorlash zarur. O‘qituvchilarga turli ehtiyojlarga ega o‘quvchilar bilan ishlashni o‘rgatish, inklyuziv pedagogika asoslarini o‘rgatish va shuningdek, o‘quvchilarga individual yondashuvni amalga oshirish bo‘yicha treninglar tashkil etilishi kerak. O‘qituvchilarni ta’limdagi xilma-xillikka nisbatan hurmatli va sabrli bo‘lishga o‘rgatish muhim. 3. Jamiyatda inklyuzivlikni targ‘ib qilish: Inklyuziv ta’limning ahamiyatini jamiyatga tushuntirish va uni keng miqyosda targ‘ib qilish uchun ijtimoiy kampaniyalar, ommaviy axborot vositalari va reklama vositalaridan foydalanish zarur. Jamiyatda nogironligi bo‘lganlar va boshqa maxsus ehtiyojlari bo‘lgan shaxslarni kamsitmaslik va ular bilan teng muomala qilish bo‘yicha keng tarqalgan tushunchalarni yaratish uchun ta’lim va axborot vositalaridan keng foydalanish kerak. Jamiyatni inklyuziv ta’limning foydalari va uning jamiyatdagi o‘rni haqida xabardor qilish ijtimoiy muhitni o‘zgartirishga yordam beradi.

4. Davlat siyosati va qo‘llab-quvvatlash: Inklyuziv ta’limni rivojlantirishda hukumatning roli juda muhim. Davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida inklyuziv ta’limni ko‘rsatish va unga zarur bo‘lgan moliyaviy va moddiy resurslarni ajratish kerak. Qonunlar, normativ-huquqiy hujjatlar va dasturlar orqali inklyuziv ta’limni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan ijtimoiy loyihalar va dasturlarni tashkil etish zarur.

5. O‘quvchilarning o‘zaro muloqotini rivojlantirish: Inklyuziv ta’lim tizimi o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro muloqot va hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradi. O‘quvchilarga turli guruhlar, millatlar, va nogironligi bo‘lgan odamlar bilan qanday munosabatda bo‘lishni o‘rgatish, ularni o‘zaro hurmat, tushunish va hamkorlikka chaqirish muhimdir. Shuningdek, sinf va maktabda inklyuziv faoliyatlar, guruh ishlari va ijtimoiy tadbirlar orqali o‘quvchilarning o‘zaro muloqotini kuchaytirish kerak.

Inklyuziv ta’limning qamrovi O‘zbekistonda 2023 yilda 530 ta maktabda tashkil etilgan bo‘lsa, 2024 yilda bu ko‘rsatkich 947 taga yetdi. Ya’ni, inklyuziv ta’lim joriy etilgan maktablar soni 79% ga oshdi.

Xulosa

Yuqoridagilarda xulosa qilib aytadigan bo’lsak, ICHBlarning nafaqat akademik bilimlarni olish imkoniyatini ta’minlash, balki jamiyatda ijtimoiy integratsiyani rivojlantirishga ham katta hissa qo‘shadi. U jamiyatni tenglik, adolat va o‘zaro hurmat asosida shakllantirishga yordam beradi. Inklyuziv ta’limni keng miqyosda targ‘ib qilish uchun barcha darajadagi davlat organlari, ta’lim muassasalari, jamiyat va oilalarning hamkorligi muhimdir. Bunday tizimni samarali amalga oshirish uchun ta’lim muassasalarini moslashtirish, o‘qituvchilarning malakasini oshirish, jamiyatda inklyuzivlikni targ‘ib

qilish va zarur qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari zarur. Bu jarayonlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi nafaqat ta’lim sohasida, balki jamiyatning barcha jabhalarida ijtimoiy adolat va tenglikni ta’minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. F.U.Qodirova, D.A.Pulatova “INKLYUZIV TA’LIM: NAZARIYASI VA AMALIYOTI”. Yangi Chirchiq book” nashriyoti-2022-250 bet
2. F.U.Qodirova, M.A.Umaraliyeva, SH.Z.Matupayeva, M.D.Omonova /Maxsus pedogogika asoslari/ o’quv qo’llanma – Chirchiq “ Yangi chiqchiq book”,2023.-228 bet
3. F.U.Qodirova, X.SH.Yunusova “Inklyuziv va mxsus ta’limning filologik asoslari.
4. Kobilova Sh.X. Introducing the theory of the "Inclusive Diffusion" approach to inclusive education and its prospects // Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities Volume 20, July , 2023 –pp. 24-27.
5. Kobilova Sh.X. Uzluksiz inklyuziv ta’limda imkoniyati cheklangan o‘quvchilar hayot xavfsizligini ta’minlashning pedagogik-psixologik shartsharoitlari // "Teoriya i praktika sovremennoy nauki" №11(101) 2023. 116-120 c.
6. Kobilova SH.X. Uzluksiz inklyuziv ta’limda pedagogik faoliyat ni tashkil etish hamda psixologik muvofiqlashtirish / Yangi O‘zbekiston; fan, ta’lim va innovatsiya mavzusidagi Respublika ilmiy-tehnik anjuman materiallari to‘plami (2024-yil 9-10 aprel)-Jizzax -2024. –B.122-126

NOGIRONLIK – TO‘SIQ EMAS: INKLYUZIV TA’LIMDA MUVAFFAQIYAT

***Sobirova Sitora Sobirovna*[1]**

Boshlang‘ch ta’lim 3 bosqich talabasi, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, O‘zbekiston.

***Hojimurodova Parvina Bekmurodovna*[2]**

Boshlang‘ch ta’lim 3 bosqich talabasi, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, O‘zbekiston. UDK: 376.24 Email: HojimurodovaP@gmail.com

ANNOTATSİYA

Ushbu maqolada nogironlikning ta’lim olishdagi to‘siq emasligi va inklyuziv ta’lim orqali muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlari yoritiladi. Inklyuziv ta’lim nafaqat nogironligi bor bolalarning bilim olish huquqini himoya qiladi, balki ularning ijtimoiy integratsiyasini ta’minlaydi. Maqolada muvaffaqiyatli inklyuziv ta’limning asosiy tamoyillari, qo‘llaniladigan metodlar va global tajribalardan misollar keltiriladi. Shu bilan birga, nogironligi bor bolalar uchun yaratilgan qulay muhit va pedagogik yondashuvlarning ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Inklyuziv ta’lim, nogironlik, muvaffaqiyat, ijtimoiy integratsiya, teng imkoniyatlar, pedagogik yondashuv, maxsus ehtiyojlar, qo‘llab-quvvatlash.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается вопрос о том, что инвалидность не является препятствием для получения образования, и как инклюзивное обучение способствует достижению успеха. Инклюзивное образование не только защищает право детей с инвалидностью на получение знаний, но и способствует их социальной интеграции. В статье описываются основные принципы успешного инклюзивного обучения, применяемые методы и примеры из мирового опыта. Также анализируется значение создания благоприятной среды и педагогических подходов для детей с особыми потребностями.

Ключевые слова: Инклюзивное образование, инвалидность, успех, социальная интеграция, равные возможности, педагогический подход, особые потребности, поддержка.

ABSTRACT

This article explores the notion that disability is not a barrier to education and how inclusive education enables success. Inclusive education not only protects the right of children with disabilities to access knowledge but also promotes their social integration. The article discusses the key principles of successful inclusive education, effective methods, and examples from global experiences. Additionally, it analyzes the importance of creating a supportive environment and adopting pedagogical approaches for children with special needs.

Keywords: Inclusive education, disability, success, social integration, equal opportunities, pedagogical approach, special needs, support.

KIRISH

Bugungi kunda ta’lim jarayonida teng imkoniyatlarni yaratish va ijtimoiy adolatni ta’minlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan inklyuziv ta’lim tushunchasi alohida e’tiborga

loyiqdir. Inklyuziv ta'lim nogironligi bor bolalarga umumta'lim muassasalarida teng sharoitlarda bilim olish imkoniyatini yaratib, ularni jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiya qilishni maqsad qilib qo'yadi. Ushbu yondashuv nogironligi bor bolalar faqat maxsus maktablarda ta'lim olishlari kerak degan an'anaviy qarashni o'zgartirib, ularning jamiyatda teng huquqli a'zo sifatida o'qib-o'rganishlariga zamin yaratadi.

Inklyuziv ta'limning ahamiyati shundaki, u nafaqat maxsus ehtiyojlari bor bolalarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytiradi, balki ularning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantiradi va psixologik barqarorligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, bunday ta'lim modeli sog'lom o'quvchilar orasida ham bag'rikenglik, hamdardlik va yordam berish fazilatlarini shakllantiradi.

Jahon miqyosida inklyuziv ta'limning rivojlanishi xalqaro tashkilotlarning e'tiborida bo'lib, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlarida (4-maqsad) inklyuziv va teng imkoniyatli ta'limni ta'minlash masalasi alohida ko'rsatib o'tilgan. UNESCO va UNICEF kabi tashkilotlar tomonidan inklyuziv ta'lim siyosati ishlab chiqilib, dunyo bo'ylab muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Ayrim mamlakatlarda, jumladan, Skandinaviya davlatlarida inklyuziv ta'lim yuqori darajada yo'lga qo'yilib, barcha bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratilgan[3.48].

O'zbekistonda ham inklyuziv ta'lim sohasida bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2020-yilda qabul qilingan yangi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunda inklyuziv ta'limga alohida e'tibor qaratilib, nogironligi bor bolalarning ta'lim olish huquqi kafolatlandi. Shunga qaramay, ushbu sohada hali ko'plab muammolar mavjud: ta'lim infratuzilmasi yetarlicha moslashtirilmagan, maxsus o'qituvchilar malakasi yetarli darajada emas, ijtimoiy stereotiplar saqlanib qolmoqda.

Ushbu maqolada inklyuziv ta'limning mazmun-mohiyati, uning ahamiyati, xalqaro tajribalar va O'zbekistondagi holati chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, inklyuziv ta'limni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan pedagogik strategiyalar va amaliy yondashuvlar tavsiflanadi. Maqolaning asosiy maqsadi – inklyuziv ta'lim orqali nogironligi bor bolalarning muvaffaqiyatli integratsiyasini ta'minlash yo'llarini o'rganish va O'zbekistonda bu boradagi mavjud muammolarni tahlil qilishdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada inklyuziv ta'limning ahamiyati va uning muvaffaqiyat omillarini o'rganish uchun quyidagi tadqiqot metodlari qo'llanildi:

Adabiyotlar tahlili: Inklyuziv ta'lim nazariyalari va amaliyotini yorituvchi ilmiy maqolalar, kitoblar va xalqaro tashkilotlar hisobotlari o'rganildi.

Taqqoslash usuli: O'zbekistondagi inklyuziv ta'lim holati boshqa davlatlar tajribasi bilan taqqoslandi.

Tahlil va sintez: Olingan ma'lumotlar tahlil qilinib, inklyuziv ta'limni amalga oshirishda uchraydigan muammolar va muvaffaqiyat omillari aniqlandi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Inklyuziv ta'limning nazariy asoslari va amaliyotini chuqur anglash uchun keng qamrovli adabiyotlar tahlili o'tkazildi. Ushbu tahlil jarayonida inklyuziv ta'limning mazmun-mohiyati, tamoyillari, pedagogik strategiyalari, xalqaro tajribalar va O'zbekistondagi holati batafsil o'rganildi. Adabiyotlar tahlili davomida inklyuziv ta'limga turli yondashuvlar, konseptual model va usullar tahlil qilinib, sohadagi muammolar va imkoniyatlar aniqlab berildi.

Inklyuziv ta'lim nazariyasining rivojlanishi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan[4.86]. Ilk bosqichlarda ta'limda tenglik va adolat masalalari ko'tarilib, maxsus ehtiyojlari bor bolalar uchun maxsus maktablar tashkil etilgan. Biroq, keyinchalik bu yondashuv nogironligi bor bolalarni jamiyatdan ajratib qo'yishi mumkinligi tanqid qilina boshlandi.

Ainscow va Miles (2008) inklyuziv ta'limni barcha o'quvchilar uchun qulay va teng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan yondashuv sifatida ta'riflaydilar. Ularning fikricha, inklyuziv ta'lim nafaqat nogironligi bor bolalar uchun, balki barcha o'quvchilar uchun ijtimoiy adolat va tenglikni ta'minlaydi.

Florian (2014) esa inklyuziv ta'limni faqat maxsus ehtiyojlari bor bolalar bilan cheklamay, balki barcha o'quvchilar uchun moslashtirilgan o'qitish usullarini qo'llash zarurligini ta'kidlaydi. U inklyuziv ta'limda muvaffaqiyatni baholashda nafaqat akademik yutuqlar, balki o'quvchilarning ijtimoiy integratsiyasi va psixologik o'zgarishlarini ham inobatga olish kerakligini qayd etadi.

Slee (2011) inklyuziv ta'limni ijtimoiy adolatni ta'minlash vositasi sifatida ko'rib, bu yondashuvda ta'lim tizimini o'zgartirish, stereotiplarni yo'qotish va barcha o'quvchilarni bir makonda o'qitishni taklif qiladi.

Inklyuziv ta'limda muvaffaqiyatga erishish uchun bir qator tamoyillar va pedagogik strategiyalar ishlab chiqilgan. Xususan:

- Moslashuvchan o'qitish usullari: Nogironligi bor bolalar uchun maxsus metodika va resurslardan foydalanish orqali o'qitish jarayonini moslashtirish. Rose va Shevlin (2010) ta'kidlashicha, o'qituvchilar o'quvchilarning individual ehtiyojlarini inobatga olib, darsni shunga mos ravishda tashkil etishlari kerak.
- Kooperativ o'qitish: Barcha o'quvchilarni jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida his qilishlari uchun kooperativ o'yinlar, guruhli ishlar va jamoaviy o'qitish usullaridan foydalanish. Johnson va Johnson (2014) kooperativ o'qitish usullari o'quvchilarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali ekanligini ta'kidlaydi.
- Differensial o'qitish: Har bir o'quvchining o'ziga xos ehtiyojlari va qobiliyatlarini inobatga olib, o'qitish jarayonini individualizatsiyalash. Bu metodologiya orqali o'quvchilar o'z qobiliyatlarini to'liq ro'yobga chiqaradilar.

XALQARO TAJRIBALAR TAHLILI

Dunyo bo'ylab inklyuziv ta'limning amalga oshirilishi turlicha ko'rinishga ega. Rivojlangan davlatlarda inklyuziv ta'lim muvaffaqiyatli yo'lga qo'yilgan bo'lsa-da, rivojlanayotgan mamlakatlarda bir qator qiyinchiliklar mavjud.

Skandinaviya davlatlari inklyuziv ta'lim sohasida yetakchi bo'lib, ular barcha bolalar uchun teng imkoniyatlarni yaratishni davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlaydilar. Masalan, Finlyandiyada barcha maktablar inklyuziv bo'lib, o'quvchilar qobiliyatlariga qarab o'qitiladilar.

Yaponiyada maxsus ehtiyojlari bor o'quvchilar uchun moslashtirilgan o'quv dasturlari va o'qituvchilarning malakasini oshirish tizimi muvaffaqiyatli yo'lga qo'yilgan.

AQShda inklyuziv ta'lim qonunchilik darajasida kafolatlangan bo'lib, barcha maktablar nogironligi bor bolalarni qabul qilishlari va ularga moslashtirilgan o'quv dasturlarini taqdim etishlari shart.

UNESCO (2020) ma'lumotlariga ko'ra, rivojlanayotgan davlatlarda inklyuziv ta'limni amalga oshirishda moddiy-texnik baza yetishmasligi, malakali o'qituvchilar kamligi va ijtimoiy stereotiplar asosiy to'siq bo'lib qolmoqda[2.32].

O'zbekistonda inklyuziv ta'lim sohasida islohotlar amalga oshirilmoqda. 2020-yilda qabul qilingan yangi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunda inklyuziv ta'lim tushunchasi qonunchilik darajasida mustahkamlandi. Shuningdek, Prezident qarori (2021) asosida maxsus ehtiyojlari bor bolalar uchun moslashtirilgan ta'lim muassasalari tashkil etilmoqda.

Shunga qaramay, O'zbekistonda inklyuziv ta'limni to'laqonli amalga oshirishda qator muammolar mavjud:

Ta’lim infratuzilmasi yetarlicha moslashtirilmagan: Nogironligi bor bolalar uchun maxsus moslamalar va texnologiyalar yetishmaydi.

Malakali pedagoglar tanqisligi: Maxsus ehtiyojlari bor o‘quvchilar bilan ishlash ko‘nikmalariga ega o‘qituvchilar soni yetarli emas.

Ijtimoiy stereotiplar: Jamiyatda hali ham nogironligi bor bolalarning imkoniyatlari cheklangan degan qarashlar mavjud.

TAHLIL VA NATIJALAR

Inklyuziv ta’limda muvaffaqiyatga erishish quyidagi omillarga bog‘liq:

Qonunchilik va siyosiy qo‘llab-quvvatlov: Inklyuziv ta’limni qo‘llab-quvvatlovchi qonunlar va siyosatlar muvaffaqiyatning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. O‘zbekistonda 2020-yilda qabul qilingan "Ta’lim to‘g‘risida"gi qonun [1.23] inklyuziv ta’limni rivojlantirish uchun mustahkam asos yaratdi.

Pedagogik metodlar va yondashuvlar: Nogironligi bor bolalar uchun moslashtirilgan pedagogik strategiyalar va o‘quv materiallarini qo‘llash muvaffaqiyatga erishishning muhim sharti hisoblanadi.

Ijtimoiy integratsiya va psixologik qo‘llab-quvvatlash: Inklyuziv ta’lim nafaqat bilim olish, balki o‘quvchilar o‘rtasida ijtimoiy integratsiyani ta’minlaydi. Shu bilan birga, bolalarning psixologik holatini inobatga olgan holda moslashuvchan ta’lim muhitini yaratish zarur.

Ota-onalar va jamoatchilik ishtiroki: Inklyuziv ta’lim muvaffaqiyati uchun ota-onalar va jamoatchilikning qo‘llab-quvvatlovi muhim ahamiyatga ega.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Inklyuziv ta’lim nogironligi bor bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratib, ularning jamiyatda muvaffaqiyatli integratsiya bo‘lishiga yordam beradi. O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish uchun quyidagi takliflar beriladi:

Pedagogik kadrlarni tayyorlash: O‘qituvchilarni inklyuziv ta’lim usullariga o‘qitish va malakasini oshirish.

Infrastrukturani yaxshilash: Maxsus o‘quv jihozlari va moslashtirilgan o‘quv materiallarini ta’minlash.

Jamiyatda inklyuziv madaniyatni rivojlantirish: Nogironligi bor bolalarga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish.

Adabiyotlar tahlili natijalari shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv ta’lim muvaffaqiyati quyidagi omillarga bog‘liq:

Qonunchilik va siyosiy qo‘llab-quvvatlov: Inklyuziv ta’limni qo‘llab-quvvatlaydigan qonunlar va davlat siyosati muvaffaqiyatning asosiy omillaridan biridir.

O‘qituvchilar malakasini oshirish: Inklyuziv ta’lim usullarini yaxshi o‘zlashtirgan pedagoglarni tayyorlash zarur.

Jamiyatda inklyuziv madaniyatni rivojlantirish: Nogironligi bor bolalarga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish va stereotiplarni yo‘qotish muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonuni (2020).
2. UNESCO. (2020). Global Education Monitoring Report: Inclusion and Education.
3. Ainscow, M., & Miles, S. (2008). Inclusive Education. International Journal of Inclusive Education.
4. Florian, L. (2014). What Counts as Evidence of Inclusive Education?
5. Slee, R. (2011). The Irregular School: Exclusion, Schooling and Inclusive Education.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA DIDAKTIK O‘YINLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Sodiqova Mohruxsor Muhammadsohibzoda
ChDPU “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 3-kurs talabasi.

ANNOTATSIYA

Maqolada ta’lim jarayonida didaktik o‘yinlardan foydalanishning ahamiyati va ularning o‘quvchilarning rivojlanishiga ta’siri haqida so‘z yuritilgan. Didaktik o‘yinlar orqali o‘quvchilarning darsga qiziqishi oshiriladi, ularning bilim o‘zlashtirish jarayoni yengillashtiriladi va shaxsiy kamoloti rivojlantiriladi. O‘yinlar bolalarning ijodiy qobiliyatini, mustaqil fikrlashini, hamkorlik qilish ko‘nikmalarini oshirishga yordam beradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun o‘yinlar ayniqsa muhim bo‘lib, ularning aqliy va jismoniy faoliyatini rivojlantirishda katta rol o‘ynaydi. Didaktik o‘yinlar o‘quvchilarni hozirjavoblikka, tashabbuskorlikka va fanga qiziqishni oshirishga undaydi.Maqolada turli didaktik o‘yinlar misollari keltirilgan, masalan, “Kim tez bajaradi”, “Zanjir”, “Zukkolar” va “Bu qaysi shakl?” kabi o‘yinlar. Bu o‘yinlar orqali o‘quvchilarning matematik, nutqiy va mantiqiy qobiliyatlari rivojlantiriladi. O‘yinlar o‘quvchilarning diqqatini jamlash, ularning bilimlarini mustahkamlash va amaliyotda qo‘llash imkoniyatini beradi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf, o‘quvchi, didaktik o‘yin, aqliy rivojlanish, amaliy faoliyat, qobiliyat, rag‘bat.

ABSTRACT

The article discusses the importance of using didactic games in the educational process and their impact on students' development. Through didactic games, students' interest in lessons increases, the process of acquiring knowledge becomes easier, and their personal growth is enhanced. Games help develop children's creative abilities, independent thinking, and teamwork skills. For primary school students, games are particularly important as they play a significant role in developing their mental and physical abilities. Didactic games encourage students to be responsive, proactive, and increase their interest in science.

The article provides examples of various didactic games, such as "Who Can Do It Faster," "Chain," "Flags," and "What Shape Is This?" These games help develop students' mathematical, verbal, and logical abilities. Games enable students to focus, reinforce their knowledge, and provide opportunities to apply it in practice.

Key words: primary class, student, didactic game, mental development, practical activity, abilities, motivation.

Yurtimizda ta’lim sifatini yanada oshirish, uni keng targ‘ib qilish maqsadida bugungi kunda ta’lim jarayonida turli xil pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, didaktik o‘yinlardan foydalanib kelinmoqda. Bu dars jarayoniga yangicha innovatsiyalar bilan yondashmoq deganidir. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad dars jarayonini har tomonlama mazmunli qilish, o‘quvchilarning qiziqishini oshirishdan iborat.

Dars jarayonida didaktik o‘yinlardan foydalanishning asosiy maqsadi o‘quvchilar diqqat-e’tiborini darsga jalb etishdir. Didaktik o‘yinlar o‘quvchilarning ma’naviy va axloqiy kamolotida, ularning barkamol inson bo‘lib kamol topishida ulkan tarbiyaviy ta’sir qudratiga ega. Didaktik o‘yinlar davomida

bolalar jamoa bo‘lib ishlashga, birgalikda ijod qilishga, hamkorlikda ishlashga va mustaqil ishlashga o‘rganadilar. Bu jarayonda o‘quvchilarda intizomlilik, inoqlik va o‘z navbatida, erkin fikr yurita olish ko‘nikmalari kuzatiladi. Ma’lumki, 1-sinfga qabul qilinib, maktab ostonasida ilk qadam qo‘ygan bolaning faoliyatida o‘yin asosiy o‘rinni egallaydi. O‘yin ularning eng sevimli mashg‘uloti bo‘lib, ular har qanday mashg‘ulotni o‘yin bilan uyg‘unlashtirishga harakat qiladilar.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ta’lim olishlarida dars jarayonini didaktik o‘yinlar asosida tashkil etish va shu o‘yinlarni ko‘rgazmali qurollar bilan boyitish o‘quvchilarni hozirjavoblikka, zehnli bo‘lishga, har bir ishda tashabbus ko‘rsatishga va fanga chuqur qiziqish bilan nazar solishga undaydi. Shuningdek, dars jarayonida olgan nazariy bilimlarini amaliyotda tadbiq qilishga va yanada ko‘proq o‘qishga undaydi. Natijada, o‘quvchilarning kelajakda komil inson bo‘lib voyaga yetishishida g‘oyat katta tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadi. [2]

Didaktik o‘yinlar hamma vaqt o‘qituvchi uchun o‘quvchilarning bilim o‘zlashtirishi yoki o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga qo‘llash ko‘rsatkichi hisoblanadi. Chex pedagogi Y.A.Komenskiy o‘yinni bola faoliyatining asosiy shakli ekanligini ta’kidlab, aynan, o‘yin bolaning tabiati va qiziqishlariga mos kelishini aytgan edi [1]. Olim o‘yin bolaning aqliy qobiliyatlarini har tomonlama o‘stirishi, uning tevarak-atrof haqidagi tasavvurlarini kengaytirishi, nutqini o‘stirishini ta’kidlaydi. Shuningdek, bolaning tengdoshlari bilan birgalikda o‘ynashi uni tengdoshlariga yaqinlashtiradi. O‘yin harakati jarayononida o‘quvchilarning bilish faolligini oshirish o‘quvchilarning o‘z qobiliyatini namoyon qilish, o‘yin maqsadiga erishish uchun o‘z bilimi, ko‘nikma va malakalarini qo‘llashga imkoniyat yaratiladi.

O‘yin qoidasi o‘yin jarayonini to‘g‘ri tahkil etishga yordam beradi. U o‘quvchilar xulqi, ularning o‘zaro munosabatlarini tartibga soladi.

O‘yin – bola hayotining uzviy qismi. O‘yin orqali bola atrof-muhit, tabiat hodisalari, manzaralar, buyumlar, o‘simliklar, hayvonlar dunyosi bilan tanishadi. Boshlang‘ich ta’lim davrida o‘quvchilarning aqliy va jismoniy faoliyatini tashkil qilishda didaktik o‘yinlar alohida ahamiyatga ega. Darslarda didaktik o‘yinlardan foydalanish o‘quvchilar zehnini o‘stirish, tez hisoblash ko‘nikmalarini oshirishda ham muhim ahamiyatga ega. Didaktik o‘yinlar jarayonida o‘quvchilar o‘yin qoidalariga qat’iy rioya qilishga o‘rganadilar, inoqlik his-tuyg‘ulari, dunyoqarashlari shakllanib boradi.

Ta’lim jarayonida didaktik o‘yinlar o‘quvchilarning xususiyatiga ko‘ra tashkil etilishi kerak. Bu esa ularga bilim berishni yengillashtirishga, ko‘rgazmalilikni ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilarni toliqtirmaslik, zeriktirmaslik imkonini yaratadi.

Didaktik o‘yinlarni xilma-xil tarzda tashkil qilish mumkin. Masalan, qo‘g‘irchoq, o‘yinchoq, rasmlar va tarqatmalar, turli geometrik shakllardan ham foydalanish mumkin. Didaktik o‘yinlar maqsadiga ko‘ra, 4 omilni o‘z ichiga oladi: 1. O‘yinning vazifasi. 2. O‘yinning harakati. 3. O‘yinning qoidasi. 4. O‘yinning yakuni. [3]

Har bir didaktik o‘yinni boshlashdan oldin o‘quvchilarga o‘yinning qoidasi, mazmuni, yakuni nimadan iborat ekanini o‘qituvchi tomonidan tushuntiriladi. O‘quvchilar uni tushunib, anglab, shu asosda harakat qiladilar. Boshlang‘ich ta’limda didaktik o‘yinlarga axborotlarni tashuvchi manba sifatida qaraladi. Dars jarayonida didaktik o‘yinlarni tashkil etish o‘quvchilar o‘rtasida muloqot qilish, diqqatni jamlash va o‘z navbatida hozirjavoblik kabi xislatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘yindan muntazam ravishda foydalanish ta’limda tabiiy sharoitni yaratadi. Bu esa o‘quvchilarni dars davomida erkin faoliyat olib borishlariga imkon yaratadi. O‘yindan samarali va olib borilayotgan darsning mazmuniga mos holda foydalanish o‘quvchiga dars davomida berilayotgan manbalarni mustaqil o‘zlashtirishini, ijodiy tafakkurini o‘stiradi. Shu bilan birga, o‘quvchilarning yashirin imkoniyatlari va fanga bo‘lgan qiziqishini ochib beradi.

Didaktik o‘yinlarga “Do‘koncha”, “O‘z o‘rningni top”, “Kim tez bajaradi”, “So‘zdan so‘z toping”, “Zanjir”, “Doiraviy misollar” singari o‘yinlar kiradi.

"Kim tez bajaradi" o'yini. O'yin maqsadi: hozirjavoblik, topqirlik malakalarini oshirish. O'yin jihozi: 2 ta savatcha, ifodalar yozilgan (12-6; 2+8; 7+5; 4+8; 10-3 va hokazo) olma shaklli karton qog'ozlar. Stol ustiga "olmalar" yoyib qo'yiladi. Doskaga 2 o'quvchi chiqadi. Ular "olmalar"dagi ifodalarning natijalarini aytib savatga sola boshlaydilar. Ifodaning qiymatini to'g'ri topmagan o'quvchi ularni savatga sola olmaydi. Qaysi o'quvchi savatga ko'p "olma" tergan bo'lsa, o'sha o'quvchi g'olib bo'ladi. [4]

"Zanjir" o'yini. Bu o'yinda o'qituvchi bir so'z aytadi. Shu so'zning tugagan harfidan boshab bolalar so'zni davom ettiradi. O'yin orqali bolalarning barchasi darsga jalb etiladi.

"Zukkolar" o'yini. O'yinning maqsadi: ko'paytirish va bo'lishga doir amallar yechish malakalarini mustahkamlash. O'yin jihozi: uchta bayroqcha. O'yinning borishi: qatorlararo o'tkaziladi. Qatorlar nomi doskaga yoziladi va o'quvchilar soni teng bo'linadi. O'qituvchi har bir qatorning oxirida o'tirgan o'quvchiga bayroqchani beradi. O'qituvchi son aytadi. Masalan: 1-qatorga 6 soni, 2-qatorga 4 soni, 3-qatorga 5 soni. Bayroqchalarni olgan o'quvchi 6 • 2= 12 deb bayroqchani oldingi partadagi o'quvchiga uzatadi. 12 • 2 = 24; 24 : 3 = 8; 8 • 5= 40; 40 : 4 = 10. O'quvchilar natija qaysi son bilan tugasa, shu son bilan boshlanadigan ifoda tuzishi kerak bo'ladi. Bayroqcha 1-partaga kelganda oxirgi o'quvchi 6 soni hosil bo'ladigan ifoda bilan o'yinni yakunlashi kerak bo'ladi. Qaysi qatorning bayroqchasi birinchi partaga tez yetib kelsa, o'sha qator g'olib bo'ladi. Go'lib qatorning nomi yozilgan joyda bayroqchalar biriktirib qo'yiladi. [4]

"Bu qaysi shakl?" o'yini. O'yinning maqsadi: geometrik shakllar bilan tanishtirish. Ularga ta'rif berish malakasini oshirish. Og'zaki nutqni rivojlantirish. O'yin jihozi: konvertlarga solingan geomatrik shakllar. O'yinning borishi: doskaga bir o'quvchi chiqadi. Konvertdagi shaklni qaysi ekanini ko'rib olib, o'quvchilarga murojaat qiladi. "Qo'limdagi geometrik shaklning uch tomonida uch burchagi bor, uning tomonlari har xil uzunlikda bo'lishi ham mumkin. Bu qaysi shakl?". Shaklga to'g'ri ta'rif bergan va shaklning nomini to'g'ri topgan o'quvchi rag'batlantiriladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, didaktik o'yinlardan foydalanilganda o'quvchilarning darsga qiziqishi ortadi, diqqatni jamlashi rivojlanadi, dars materiallarini o'zlashtirishi yengillashadi, shu bilan birga, ularning fikri, atrof muhitga munosabati, sinchkovlik qobiliyati oshib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. – T., 2004

2. Ibragimov R. Boshlang'ich maktab o'quvchilarida bilish faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari. – T., 2001

3. G'afforova T. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: "Tafakkur", 2011. – 160 b.

4. Toxirov J., Muhammedova G. Matematika darsida innovatsiya. – T., 2012

BO‘LAJAK INKLYUZIV TA’LIM O‘QITUVCHILARDA INNOVASTION PEDAGOGIK FAOLIYATNI SHAKLLANTIRISH PEDAGOGIK OMILLARI

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИННОВАЦИОННОЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

PEDAGOGICAL FACTORS OF FORMATION OF INNOVATIVE PEDAGOGICAL ACTIVITY OF FUTURE TEACHERS OF INCLUSIVE EDUCATION

Boqiyeva Sevinch

Sodiqov Komil, Madartov Bekzod, Erkinova Durdona

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Pedagogika fakulteti , Maxsus pedagogika kafedrasi, Surdopedagogika yo‘nalishi 3-bosqich 22/2-guruh talabalari

ANNATOTSIYA

Mazkur maqolada inklyuziv ta’lim tizimi tushunchasi, uning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati, shuningdek, bu tizimni jamiyat orasida keng miqyosda targ‘ib qilish uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlar yoritiladi. Inklyuziv ta'lim barcha o'quvchilarga, shu jumladan, nogironligi bo'lganlar va ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklarga duch kelganlar uchun teng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan ta'lim tizimi sifatida ko'rib chiqiladi. Maqolada ta'lim muassasalarining moslashuvchanligini oshirish, o'qituvchilarning malakasini oshirish, jamiyatda inklyuzivlikni targ'ib qilish va davlat hamda xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash masalalari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, ta'lim tizimi, nogironlik, teng imkoniyatlar, o'qituvchilarning malakasi, jamiyatda inklyuzivlik, ijtimoiy adolat, ta'lim muassasalari, individual o'quv rejalari, psixologik yordam, jamiyatda targ'ibot.

АННОТАЦИЯ

В данной статье будет освещена концепция системы инклюзивного образования, ее место и значение в обществе, а также меры, необходимые для популяризации этой системы в обществе в больших масштабах. Инклюзивное образование рассматривается как система образования, направленная на обеспечение равных возможностей для всех учащихся, включая людей с ограниченными возможностями и тех, кто сталкивается с социально-экономическими трудностями. В статье обсуждаются вопросы повышения гибкости образовательных учреждений, повышения квалификации учителей, содействия инклюзивности в обществе и поддержки государственного и частного секторов.

Ключевые слова: инклюзивное образование, система образования, инвалидность, равные возможности, квалификация учителей, инклюзивность в обществе, социальная справедливость, образовательные учреждения, индивидуальные учебные планы, психологическая помощь, защита интересов в обществе.

ABSTRACT

This article discusses the concept of an inclusive education system, its role and importance in society, as well as the measures necessary to widely promote this system among society. Inclusive education is considered as an educational system aimed at creating equal opportunities for all students, including those with disabilities and those facing socio-economic difficulties. The article discusses the issues of

increasing the flexibility of educational institutions, improving the skills of teachers, promoting inclusion in society, and supporting the state and private sectors.

Keywords: inclusive education, education system, disability, equal opportunities, teacher qualifications, inclusion in society, social justice, educational institutions, individualized education plans, psychological support, advocacy in society.

Kirish

Inklyuziv faoliyat mazmunida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-madaniy kompetentligi muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchining kasbiy madaniyati takomillashishi inklyuziv ta’lim samaradorligi uchun xizmat qiladi. Kasbiy madaniyatning rivojlanishi xulq- atvor tarbiyasti bilan bevosita bog‘liq hisoblanadi. Kasbiy-madaniy kompetentlik intizom, mas’uliyat, mehnatsevarlik kabi asosiy prinsiplarga tayanadi.

Hozirgi zamon inklyuziv ta’lim o‘qituvchising asosiy fazilatlaridan biri o‘z kasbiga sadoqatliligi, g‘oyaviy e’tiqodliligi, o‘z kasbini sevishi, bu kasbga bo‘lgan cheksiz sadoqat o‘qituvchining boshqa kasb egalaridan ajralib turadi. Chunki maktabda ta’lim tarbiya ishining yuqori saviyada olib borilishi faqat o‘qituvchiga, uning kasbiy tayyorgarligiga bog‘liq.

Inklyuziv ta’limda foliyat olib boradigan o‘qituvchi shaxsiga qo‘yiladigan talablardan birishuki, u o‘zi o‘qitayotgan predmetlarni chuqur bilishi, uning metodikasini o‘zlashtirib olgan bo‘lishi zarur. Predmetni va uning nazariyasini chuqur bilishi, uni qiziqarli etib o‘quvchilarga yetkaza olishi bolalarni shu predmetga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. O‘qituvchi obro‘sini ko‘taradi. O‘quvchilar o‘qituvchi bilimining bu bilimlarni bolalarga yetkaza olish imkoniyatlarini qadirlabgina qolmay balki uning shu predmetga bo‘lgan qiziqishini, uning fidoyiligini ham taqdirlashadi.

O‘qituvchining yuksak madaniyati, uning teran bilim doirasi ta’lim tarbiya ishlarini muvaffaqiyatli kechishiga yordam beradi. Hozirgi zamon inklyuziv ta’lim o‘qituvchisi ayniqsa, boshlang‘ich inklyuziv sinf o‘qituvchisi milliy qadiryatlarimizni bilibgina qolmay, uni keng ota onalar jamoatchiligi ichida, sinfda otashin targ‘ibotchisi ham bo‘lishi kerak.

Inklyuziv ta’lim o‘qituvchisi kasbiga xos bo‘lgan muhum fazilatlardan, talablardan biri-bolalarni sevish, ularning hayoti bilan qiziqish, har bir shaxsni hurmat qilishdan iboratdir. Bolani sevgan, butun kuch va bilimini bolalarning kelajagi buyuk Vatanga sodiq fuqaro qilib tarbiyalashga safarbar qila oladigan odamgina haqiqiy o‘qituvchi bo‘la oladi. Bolaga befarq, uning kelajagi bilan qiziqmaydigan, o‘qituvchilik kasbiga loqayd odam haqiqiy o‘qituvchi bo‘la olmaydi.

Inklyuziv ta’lim o‘qituvchisi shaxsiga qo‘yiladigan umumiy talablar bilan boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi kasbining o‘ziga xosligi ayrim spetsifik talablarni keltirib chiqaradi.

Boshlang‘ich inklyuziv sinf o‘qituvchisi anatomiya, fizologiya, maktab gigienasi fanlaridan xabardor bo‘lmog‘i, o‘quvchilarf faoliyatini sh fanlar tavsiya asosida tashlik etishi lozim; (sinflarni gigienik talabga javob berishi, o‘quvchilar rejimi, ularni aqliy va jismoniy rivojlanishini kuzatish va to‘g‘ri yo‘naltirish); o‘qituvchi o‘z nutqini idora qilishi, ovozning baland-pastligiga ahamiyat berishi (ortiqcha qattiq (baland ovoz bilan) gapirish ham, sekin gapirish ham bolalarni charchatib qo‘yadi): nutqning jonli, ifodali bo‘lishiga e’tibor berish; bolalarni charchatib qo‘ymaslik maqsadida darsda ish turlarini tez-tez o‘zgartirib olishi; ota-onalar orasida pedagogik bilimlarni targ‘ib qilishi, ular bilan yaqindan aloqa o‘rnata olishi (bu faoliyat turi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining xulq-atvorini, mayillarini, jismoniy holatini o‘rganishga yordam beradi) va ularni tarbiyaviy ta’sir o‘tkazishga yordamlashishi kerak. Nihoyat u o‘z ustida tinmay ishlamog‘i lozim.

Adbiyotlar tahlili va metodologiyasi

Psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish tadqiqotchilarning kasbiy va pedagogik tayyorgarlikning mohiyatini aniqlashga turli yondashuvlarini aniqladi: shaxsning ichki kuchlari majmuasi, uning ichki salohiyat faoliyatning samaradorligiga ta'sir qilish (B.G.Ananiev), shaxsni kelajakdagi faoliyatga moslashtirish (Yu.K.Vasilyeva); shaxsiy xususiyatlarning sintezi (V.A.Krutetskiy.); kompleks shaxsiy ta'lim (L.V.Kondrashova); pedagogik fikrlash va harakat qilishning integral qobiliyati (A.I.Mishchenko); pedagogik faoliyatning eng yuqori mahsuldorligini ta'minlaydigan shaxsiy xususiyat (Yu.V.Yano-tovskaya); sub'ektning harakat strukturasi tasviriga ega ekanligini va uni amalga oshirishga doimiy ravishda ongni yo'naltirishini nazarda tutadigan maxsus individual holat.

F.M.Rekesheva kasbiy tayyorgarlik tushunchasini faoliyat (holat) nazariyasi kategoriyasi deb hisoblaydi va uni, bir tomondan, o'quv jarayonining natijasi, ikkinchi tomondan, biror narsaga munosabat sifatida tushunadi.

I.A.Zimnyaya, ularning umumiyligi sub'ektga faoliyatni ozmi-ko'pmi muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beradi degan farazni ilgari suradi.

Biz inklyuziv tayyorgarlikni (inklyuziv ta'limda ishlashga tayyorlik) shaxsning murakkab integral sub'ektiv sifati sifatida aniqlaymiz, bu bizga kasbiy va ilmiy-pedagogik kompetensiyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beradi va tegishli tayyorgarlikka asoslanadi. Muayyan faoliyat yoki funktsiyani bajarishga tayyorlikning mazmuni va tuzilishi faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Pedagogik faoliyatga tayyorgarlikning asosiy tarkibiy qismlari har qanday faoliyatni amalga oshirish imkoniyati asosida yotgan uchlikni aks ettiruvchi kognitiv, hissiy-irodaviy, motivatsion deb ataladi: "Men kerak - men qila olaman - xohlayman".

Bizning fikrimizcha, bo'lajak o'qituvchilarning inklyuziv tayyorgarligining tarkibiy va mazmuniy asosi tarkibiy qismlar bilan ifodalanishi mumkin, ularning har birining mazmuni bir qator mezon va ko'rsatkichlar bilan belgilanadi.

Natija

Bo'lajak o'qituvchilarning darsni modellashtirish va o'quv jarayonida o'zgaruvchan yondashuvdan foydalanishga tayyorligini tahlil qilganda, biz o'qituvchilarning mutlaq ko'pchiligi (64%) o'z faoliyatida o'quv jarayonining o'zgaruvchan shakllari - dialog, modellashtirish, mini-guruhlardan foydalanishi kuzatildi.

Bo'lajak o'qituvchilarning 86% o'quv materiali tushuntirilgandan keyin beriladigan savollarni afzal ko'rishlarini ta'kidladi.

Darsda eshittirishga yo'naltirilganlik hech qachon bilish predmetini o'stirishga, idrok etishning individual xususiyatlarini va o'quvchilarning qobiliyatlari xilma-xilligini hisobga olishga imkon bermaydi. Darsning ijodiy salohiyati o'qituvchining o'ziga xos ijodiy munosabatiga bog'liq. "Siz topshiriqlarning tayyor variantlaridan foydalanasizmi yoki o'zingiz tuzasizmi?" degan savolga 62% bo'lajak o'qituvchilar topshiriqlarni o'zlari tuzishini ta'kidladi.

Topshiriqlar nafaqat dastur talablarini inobatga olgan holda, balki inkyulziv ta'lim muhiti nuqtai nazaridan o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda individual differensial yondashuv asosida tuzilishi muhimdir. "Vazifalar to'plamini tuzish yoki tanlashda nimaga e'tibor qaratasiz" degan savolga so'rovda qatnashgan barcha o'qituvchilarning 64 foizi o'zgaruvchanlikning asosiy mezoni vazifaning murakkablik darajasi deb javob berishgan.

Rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolani umumiy sinfga kiritish o'qituvchidan pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirishni, o'quv jarayonini individuallashtirishni, o'quv materialini o'quvchining individual

imkoniyatlariga moslashtirishni va o‘quv dasturini amalga oshirishning individual rejasini tuzishni talab qiladi.

Ushbu bo‘lajak o‘qituvchi o‘zgarishlari professional yordamni talab qiladi. “Og‘ir pedagogik vaziyatlarda kimdan yordam so‘rashga tayyorsiz?” degan savolga Aksariyat o‘qituvchilar o‘qituvchi-psixolog deb nom berishgan (respondentlarning 41 foizi), o‘qituvchilarning 26 foizi o‘z hamkasblariga murojaat qilishadi va faqat 19 foiz o‘qituvchilar ota-onasi bilan bolaning muammolarini muhokama qilishini bildirdi.

Ota-onalarni inklyuziv ta’lim jarayoniga jalb qilish masalasi hozirda juda kam rivojlangan va tashkiliy va texnologik tavsifga muhtoj. Nogiron bolalarning ota-onalari psixologiyasi o‘ziga xos xususiyatlarga ega va o‘qituvchi va unga hamroh bo‘lgan psixolog uchun savollar tug‘diradi.

Inklyuziv jarayon ishtirokchilarini psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash masalalari alohida yondashuvni talab qiladi, lekin bir narsa aniqki, o‘qituvchilar o‘z-o‘zidan mavjud bo‘lmasligi kerak, ular doimiy ravishda uslubiy yordam va psixologik yordamga muhtoj, ayniqsa inklyuziya sharoitida ishlaganda. Maktablarning 94% inklyuziv bo‘lgan Italiyada ko‘pchilik o‘qituvchilar inklyuziyani qabul qilib, uni sinf hayotiga kiritishda jiddiy muammolarga duch kelishmoqda. Ular rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan talabalarni o‘qitish uchun barcha mas’uliyatni yordamchi o‘qituvchilarning yelkasiga yuklashni afzal ko‘radi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda inklyuziv ta’lim o‘qituvchisining innovatsion faoliyatini samarali amalga oshirish bir qator shart-sharoitlarga bog‘liq. Unga o‘qituvchining tayinli muloqoti, aks fikriga nisbatan beg‘araz munosabat, turli holatlarda ratsional vaziyatning tan olinishini uqtirishga tayyorligi kiradi. Buning natijasida o‘qituvchi o‘z bilim va ilmiy faoliyatini ta’minlaydigan keng qamrovli mavzu (motiv)ga ega bo‘ladi. O‘qituvchi faoliyatida o‘z-o‘zini faollashtirish, o‘z ijodkorligi, o‘z-o‘zini bilishi va yaratuvchiligi kabi mavzu (motiv)lar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o‘qituvchi shaxsining kreativligini shakllantirish imkoniyatini beradi.

Inklyuziv ta’limni o‘z-o‘zidan tashkil etib bo‘lmaydi. Bu jarayon qiymat, axloqiy darajadagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq. Zamonaviy maktabda inklyuziv ta’limni tashkil etish muammolari, birinchi navbatda, maktab ijtimoiy muassasa sifatida standart dasturda nazarda tutilgan sur’atlarda harakat qila oladigan bolalarga, pedagogik ishning tipik usullari mavjud bo‘lgan bolalarga qaratilganligi bilan bog‘liq.

Inklyuziv ta’limni rivojlantirishning dastlabki bosqichlaridayoq umumiy maktab o‘qituvchilarining (kasbiy, psixologik va uslubiy) alohida ta’limga muhtoj bolalar bilan ishlashga tayyor emasligi muammosi paydo bo‘ldi, o‘qituvchilarning kasbiy kompetentsiyalari yo‘q. Inklyuziv muhit, psixologik to‘siqlar va o‘qituvchilarning professional stereotiplari mavjudligi bilan tavsiflanadi.

Umumta’lim o‘qituvchilari korreksion pedagogika, maxsus va o‘quv psixologiyasi sohasidagi mutaxassislardan, birinchi navbatda, nogiron o‘quvchilar toifasida alohida ta’limga muhtoj bolalarni o‘qitishni individuallashtirish yondashuvlarini tushunish va amalga oshirishda ixtisoslashtirilgan kompleks yordamga muhtoj.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. “Inklyuziv ta’limning dolzarb masalalari: muammo va ularning yechimlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. “Lesson- Press” nashriyoti, Toshkent-2021.

2. Brandon T., Charlton J. The lessons learned from developing an inclusive learning and teaching community of practice // International Journal of Inclusive Education. – 2011. – Vol. 15. – № 1. – P. 165–178.

3. Fayzraxmanova A.T. Tolerantnoe otnoshenie k studentam s ogranichennimi vozmojnostyami zdorovya kak odno iz usloviy inklyuzivnogo obrazovaniya v visshem uchebnom zavedenii // Inklyuzivnoe obrazovanie – dostupnoe obrazovanie – bezbarernaya sreda: materiali vtoroy mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferensii, g. Yakutsk, iyun 2014 g. – Yakutsk: Izdatelskiy dom SVFU, 2014. – S. 214–217.

4. Hill D., Brown D. Supporting inclusion of at risk students in secondary school through positive behaviour support // International Journal of Inclusive Education. – 2013. – Vol. 17, Iss. 8. – P. 868–881.

5. Inklyuziv umumta'lim maktablari kamsituvchi munosabatlariga qarshi kurashish va jamoalarda qo'llab-quvvatlovchi muhitni yaratish, inklyuziv jamiyat qurish va barchaga ta'lim berishning eng samarali vositasi sifatida Salamanka bayonoti. (Ispaniya), 1994-yil 7-10-iyun.

6. *Leontev A.N.* Problemi razvitiya psixiki. 3-ye izd. M.: Izd-vo Mosk. un-ta, 1972; Rubinshteyn S.L. Osnovi obshey psixologii. – SPb., 1999.

7. Loshakova I.I., Yarskaya-Smirnova Ye.R. Integratsiya v usloviyax differensiatsii: problemi inklyuzivnogo obrazovaniya detey-invalidov // Sotsialno-psixologicheskie problemi vospitaniya atipichnix detey. Saratov: Ped izdatelstvo. Institut SDU, 2002.

8. Mastryukov B.S. Bezopasnost v chrezvichaynix situatsiyax: 3-ye izd., pererab. i dop. - M.: Izd. sentr «Akademiya», 2016. - 336 s.

9. Nazarova N. Integrirovannoe (inklyuzivnoe) obrazovanie: problemi genezisa i realizatsii // Sotsialnaya pedagogika. - 2010.

10. Qodirova F., Sh.Kobilova "Povishenie kachestva inklyuzivnogo obrazovaniya v usloviyax pedagogicheskogo innovatsionnogo klastrea" / PEDAGOGIK TA'LIM KLASTERI: MUAMMO VA YECHIMLAR. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya 2021-yil, 25-26 iyun. –B.109-115.

INKLYUZİV TA'LİMNİ TASHKİL ETİSHNİNG ZAMONAVİY PEDAGOGİK YONDASHUVLARİ

СОВРЕМЕННЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ОРГАНИЗАЦИИ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Kobilova Shaxnoza Xudayshukurovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Pedagogika fakulteti, Maxsus pedagogika kafedrasi v.b. dotsenti

Boltayeva Charos Ozimboy qizi, Axmedova Shaxodat Hamidovna

4-bosqich 21/1-guruh talabalari

ORCID ID: https://orcid.org/0009-0001-4091-1840

ANNATOTSIYA

Mazkur maqolada inklyuziv ta'lim barcha o'quvchilarga, shu jumladan, nogironligi bo'lganlar va ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklarga duch kelganlar uchun teng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan ta'lim tizimi sifatida ko'rib chiqiladi. Maqolada ta'lim muassasalarining moslashuvchanligini oshirish, o'qituvchilarning malakasini oshirish, jamiyatda inklyuzivlikni targ'ib qilish va davlat hamda xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash masalalari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, ta'lim tizimi, nogironlik, teng imkoniyatlar, o'qituvchilarning malakasi, jamiyatda inklyuzivlik, ijtimoiy adolat, ta'lim muassasalari, individual o'quv rejalari, psixologik yordam, jamiyatda targ'ibot.

АННОТАЦИЯ

В данной статье инклюзивное образование рассматривается как образовательная система, направленная на создание равных возможностей для всех учащихся, в том числе с ограниченными возможностями и тех, кто сталкивается с социально-экономическими трудностями. В статье рассматриваются вопросы повышения гибкости образовательных учреждений, повышения квалификации преподавателей, содействия инклюзивности общества, поддержки государственного и частного секторов.

Ключевые слова: инклюзивное образование, система образования, инвалидность, равные возможности, квалификация учителя, инклюзивность в обществе, социальная справедливость, образовательные учреждения, индивидуальная учебная программа, психологическая поддержка, продвижение в обществе.

ABSTRACT

In this article, Inclusive Education is considered as an educational system aimed at creating equal opportunities for all students, including those with disabilities and those facing socio-economic difficulties. The article discusses the issues of increasing the flexibility of educational institutions, improving the qualifications of teachers, promoting inclusiveness in society, and supporting the public and private sectors.

Key words: inclusive education, educational system, disability, equal opportunities, teacher qualification, inclusiveness in society, social justice, educational institutions, individual curriculum, psychological support, promotion in society.

Kirish

Inklyuziv ta'lim – bu har bir shaxsning imkoniyatlaridan qat'i nazar ta'lim olish huquqi va imkoniyatini ta'minlashga qaratilgan ta'limni tashkil etish usullari, metodlari va tizimlarini o'zida aks ettiradi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar inklyuziv ta'limning samarali va samarali bo'lishini ta'minlashga yo'naltirilgan. Ushbu yondashuvlar orasida quyidagilar muhim hisoblanadi.

Har bir o'quvchining shaxsiy ehtiyojlari va qobiliyatlarini inobatga olish. Bu, o'qitish jarayonida turli shaxsiy va ijtimoiy-emotsional ehtiyojlar asosida o'qitishni tashkil etishni talab qiladi. Ta'limning har bir o'quvchi uchun moslashtirilgan, ko'p darajali usullar va metodlar orqali amalga oshirilishi. Bu o'quvchiga moslashtirilgan materiallar va texnikalarni, shuningdek, o'qishni yaxshilash uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratishni qamrab oladi. Inklyuziv ta'limda ko'pincha guruhli ish metodlari qo'llaniladi, bu o'quvchilarning bir-biri bilan hamkorlikda ishlashga, o'zaro o'rganishga va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.Zamonaviy informatik vositalar (masalan, maxsus dasturlar, ta'lim platformalari)ni foydalanish inklyuziv ta'limda murakkab holatlarni yengishga yordam beradi va o'quvchilarga ko'proq mustaqillik, interaktivlik va qo'llab-quvvatlashni ta'minlaydi. Ma'lumotlarni taqdim etishning turli shakllari (vizual, audiovizual, yozishma) orqali o'quvchilarga moslashtirilgan uslublarni qo'llash.O'qituvchilar va psixologlar tomonidan maxsus qo'llab-quvvatlash xizmatlari va yordamlashishlar, masalan, psixologiya, logopediya yoki korreksion ta'lim sohasidagi mutaxassislar.Inklyuziv ta'lim faqat akademik bilimlar emas, balki ijtimoiy va emotsional rivojlanishga ham ahamiyat beradi. Bu jamoaviy ishlash, sabr-toqat, hamkorlik va turli xil o'quvchilar bilan munosabatlarni yaxshilashni o'z ichiga oladi.Ushbu yondashuvlar inklyuziv ta'limni tashkil etishda o'quvchilarning hammaning ehtiyojlarini hisobga olish, barcha uchun birdek imkoniyatlar yaratishni ko'zda tutadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

O'zbekiston Respublikasi Prizidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" , 2017-yil 1-dekabrdagi PF-5270-son "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab – quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 29- apreldagi PF-5712-son "Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kansepsiyasi to'g'risida", 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Inklyuziv ta'lim va uning pedagogik yondashuvlari sohasida bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan va bu sohadagi mutaxassislar turli nazariy va amaliy ishlarni yuritgan. Quyidagi olimlar va ularning izlanishlari inklyuziv ta'limga alohida hissa qo'shgan. Martin Xaydegger – Inklyuziv ta'limning nazariy asoslariga asos solishda muhim rol o'ynagan. Uning filosifiyasi va ta'limdagi insonning egalik, shaxsiyat va jamiyat bilan o'zaro bog'liqliklariga oid ishlari inklyuziv ta'lim konsepsiyasini shakllantirishda ahamiyatga ega bo'lgan. Tomlinson (Carol Ann Tomlinson) – U inklyuziv ta'limdagi farqli yondoshuvlarning nazariy va amaliy jihatlariga aniq ravishda ishlagan. Uning "differensial ta'lim" (differentiated instruction) haqidagi ishlari o'qitishda o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan yondashuvlar asosida ta'lim berishni ko'rsatadi. Syuzen Stoksli (Susan Stokes) – Inklyuziv ta'limga oid ishlari bilan tanilgan va pedagogikada shaxsga yo'naltirilgan ta'lim metodlarini joriy qilishga qaratilgan tadqiqotlar olib borgan. Uning ishi o'quvchilarning muammolarini aniqlash va ularga mos ta'lim strategiyalarini ishlab chiqishga qaratilgan.

Bu olimlar va ularning ishlari inklyuziv ta'limni tashkil etishda muhim nazariy va amaliy asoslarni shakllantirgan. Ularning izlanishlari ta'limdagi har bir o'quvchining ehtiyojlariga moslashtirilgan,

barcha uchun teng imkoniyatlar yaratishga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuvlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Natijalar

Inklyuziv ta’lim sohasidagi tadqiqotlar va amaliy izlanishlar bir qator muhim natijalarni taqdim etishga xizmat qilgan. Bu natijalar o‘quvchilarning ta’limga moslashtirilgan va har tomonlama rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan. Quyidagi asosiy natijalarni ajratish mumkin: Guruhli va jamoaviy o‘qitish usullari orqali o‘quvchilar ijtimoiy ko‘nikmalarni, hamkorlik va sabr-toqatni rivojlantiradilar. Inklyuziv ta’limda jamoaviy ishlashning muhimligi ko‘rsatilgan, bu usul o‘quvchilarga turli fikrlarni qabul qilish, o‘zaro yordam berish va ijtimoiy jihatdan muvozanatli bo‘lishga yordam beradi. Inklyuziv ta’limning natijasi sifatida yangi o‘qitish metodlari, yondoshuvlar va texnikalar ishlab chiqilgan. Masalan, differensial ta’lim (differentiated instruction) metodikasi, turli vositalar (digital platforma va maxsus o‘qitish dasturlari)ning qo‘llanilishi ta’limning samaradorligini oshirdi.Inklyuziv ta’lim o‘quvchilarning emotsional, ijtimoiy va psixologik holatini yaxshilashga ham yordam beradi. Ushbu ta’lim jarayonida o‘quvchilarda o‘zini va boshqalarni tushunish, boshqarish va ijtimoiy muammolarni hal qilish kabi muhim ko‘nikmalar rivojlanadi.

Shu tariqa, inklyuziv ta’limni tashkil etish va rivojlantirish sohasida olib borilgan tadqiqotlar va amaliy izlanishlar jamiyatdagi barcha odamlarga birdek ta’lim olish imkoniyatini yaratish, ijtimoiy adolatni ta’minlash va ta’lim sifatiga ko‘maklashishga xizmat qilmoqda.

Inklyuziv maktabda tahsil olayotgan o‘quvchilarning ijtimoiy hayot moslashuvchanligi	Tajriba guruhi				Nazorat guruhi			
	205 nafar o‘quvchilar		205 nafar o‘quvchilar		204 nafar o‘quvchilar		204 nafar o‘quvchilar	
	soni	%	soni	%	Soni	%	soni	%
Yuqori	35	17,1	62	30,2	32	15,7	35	17,2
O‘rta	59	28,8	96	46,8	56	27,5	58	28,4
Past	111	54,1	47	22,9	116	56,9	111	54,4
Jami	**205**	**100**	**205**	**100**	**204**	**100**	**204**	**100**

Xulosa

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar va metodlar orqali inklyuziv ta’lim tizimi ijtimoiy tenglikni, barchani qabul qilish va har bir o‘quvchining individual ehtiyojlariga moslashtirilgan ta’limni ta’minlashga yo‘naltirilgan.

Inklyuziv ta’limning samaradorligi, avvalo, o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishini, ijtimoiy ko‘nikmalarini va emotiv salomatligini yaxshilashga qaratilgan. Bu natijalar ta’limning umumiy sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Eng muhim natija shundaki, inklyuziv ta’lim muammolarni va to‘siqlarni yengib, har bir shaxs uchun teng imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi.

Shuningdek, inklyuziv ta’limni tashkil etishda o‘qituvchilarga talablar va yordam xizmatlarining mavjudligi muhim ahamiyatga ega. Pedagoglar maxsus metodika va amaliy vositalarga ega bo‘lishi kerak, bu o‘z navbatida ta’lim jarayonining barqaror va samarali bo‘lishini ta’minlaydi.

Inklyuziv ta’limdagi tadqiqotlar va amaliy ishlanmalar ijtimoiy taraqqiyotga, ta’limning barcha qatlamlarini qamrab olishga va odamlarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan imkoniyatlar yaratishga yo‘naltirilgan. Bundan tashqari, texnologiyalar va innovatsiyalar ta’lim tizimida o‘zgarishlar

yaratishga yordam bergan. Demak, inklyuziv ta'limning ustuvor maqsadi – har bir inson uchun teng ta'lim imkoniyatlarini yaratish va barcha jamoalarni birlashtirishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22-maydagi 304-son "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. - Toshkent, 2017-y., 21-son, 396-modda.

2. O'zbekiston Respublikasi Qonuni, "Ta'lim to'g'risida". – Toshkent, 2020-yil 23-sentabr // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagi PQ-2829-son "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. - Toshkent, 2017-y., 11-son, 156-modda.

4. Vigotskiy L. S. Osnovi defektologii: uchebnik dlya vuzov. Spesialnaya literatura. – Sankt-Peterburg: Lan, 2003. –S 81-82

5. Galiskix, Ye.O. Integrativniy podxod k professionalnomu sta- novleniyu uchitelya na etape vuzovskoy podgotovki / Ye.O. Galiskix // Vestnik VGPU. – 1999. – №2. – 271 s.

6. Gasanova R.R. Innovatsii i inklyuzivnaya model dopolnitelnogo obrazovaniya // Professionalnoe obrazovanie v sovremennom mire. 2022. T. 12, №3. -S. 411-415.

7. Gorina, L.N. Professionalnie kompetentnosti spesialista v oblasti ekologicheskoy i pojarnoy bezopasnosti / L.N. Gorina, N.Ye. Dani-lina, A.G. Nazarov // Izvestiya Samarskogo nauchnogo sentra RAN. 2012. T. 14. – № 2(4). – S. 888–892.

8. Gromiko Yu.V. Chto takoe klasteri i kak ix sozdavat // Almanax «Vostok». – 2007. – Vyp.1. // URL: http: // www. situation. ru / app / j_art_1178.htm

SHAXSNING EMOTSIONAL HOLATINI NEYROGRAFIKA VOSITASIDA MODELLASHTIRISH

Choriyev Javohir Alisher o'g'li
Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti,
Pedagogika va tillar fakulteti,Magistratura,Psixologiya yo'nalishi 1-bosqich talabasi
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0004-7644-4297

ANOTATSIYA

Ushbu maqolada shaxsning emotsional holatini neyrografika vositasida modellashtirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Neyrografika ijodiy vizualizatsiya orqali insonning ichki hissiy jarayonlarini anglash va boshqarish imkonini beruvchi metod sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqot davomida neyrografika usulining stress, tashvish va depressiyani kamaytirishga ta'siri baholanib, ishtirokchilarning emotsional barqarorligi oshgani aniqlandi. Shuningdek, vizual tasvirlash texnikalarining psixologik mexanizmlari va ularning ong hamda neyron bog'lanishlarga ta'siri tahlil qilindi. Olingan natijalar neyrografikaning psixoterapiya, shaxsiy rivojlanish va ta'lim jarayonlarida qo'llanishi mumkinligini ko'rsatdi. Neyrografika shaxsning ichki muvozanatini tiklash va emotsional intellektini rivojlantirishda samarali usul sifatida tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: neyrografika, emotsional holat, stress, psixologik barqarorlik, vizualizatsiya, san'at terapiyasi.

ABSTRACT

This article analyzes the possibilities of modeling an individual's emotional state using neurography. Neurography is considered a method that allows a person to understand and regulate their inner emotional processes through creative visualization. The study evaluates the impact of neurography on reducing stress, anxiety, and depression, revealing an increase in participants' emotional stability. Additionally, the psychological mechanisms of visual representation techniques and their effects on consciousness and neural connections are examined. The results indicate that neurography can be effectively applied in psychotherapy, personal development, and educational processes. Neurography is recommended as an effective method for restoring inner balance and enhancing emotional intelligence.

Keywords: neurography, emotional state, stress, psychological stability, visualization, art therapy.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются возможности моделирования эмоционального состояния личности с помощью нейрографики. Нейрографика рассматривается как метод, позволяющий человеку осознавать и управлять своими внутренними эмоциональными процессами через творческую визуализацию. В исследовании оценивается влияние нейрографики на снижение стресса, тревожности и депрессии, выявлено повышение эмоциональной стабильности участников. Также изучены психологические механизмы техник визуального представления и их влияние на сознание и нейронные связи. Полученные результаты показывают, что нейрографика может эффективно применяться в психотерапии, личностном развитии и образовательном процессе. Нейрографика рекомендуется как эффективный метод для восстановления внутреннего баланса и развития эмоционального интеллекта.

Ключевые слова: нейрографика, эмоциональное состояние, стресс, психологическая стабильность, визуализация, арт-терапия.

KIRISH

Neyrografika – insonning ruhiy jarayonlarini vizual tasvirlar orqali aks ettirish va o‘zgartirishga qaratilgan usul bo‘lib, u emotsional muammolarni chuqur anglash va ularni ijobiy transformatsiya qilishga yordam beradi. Ushbu usul 2014-yilda P. Piskarev tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, hozirgi kunda psixoterapiya, san’at terapiyasi va shaxsiy rivojlanish yo‘nalishlarida keng qo‘llanilmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, chizilgan shakllar va chiziqlar insonning ongsiz holatini ifodalashi mumkin bo‘lib, ular yordamida shaxs o‘z emotsional muammolarini anglab, ularni nazorat qilishni o‘rganishi mumkin.[8]

Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, hozirgi zamonda psixologik barqarorlikni ta’minlash muhim masalaga aylanmoqda. Ko‘plab tadqiqotlar shaxsning emotsional holatini boshqarishning turli usullarini taklif qilsa-da, vizual modellashtirish texnikasi hali to‘liq o‘rganilmagan. Aynan neyrografika orqali inson o‘z emotsiyalarini grafik ifodalar orqali anglay olishi va ularni ijobiy tomonga yo‘naltirishi mumkin. Bu esa psixologik holatni yaxshilash, ijodiy tafakkurni rivojlantirish va ongning yangi darajada ishlashiga turtki bo‘lishi mumkin.

Ushbu tadqiqot shaxsning emotsional holatini neyrografika vositasida modellashtirish imkoniyatlarini ilmiy asoslashga qaratilgan. Asosiy e’tibor neyrografikaning psixologik mexanizmlari, uning emotsional jarayonlarga ta’siri va shaxsning ichki resurslarini safarbar qilishdagi o‘rniga qaratiladi.

Tadqiqotning maqsadi:Shaxsning emotsional holatini boshqarishda neyrografika usulining samaradorligini tahlil qilish va uning psixologik mexanizmlarini aniqlash.

Tadqiqotning vazifalari

1. Neyrografikaning ilmiy-nazariy asoslarini o‘rganish va uning emotsional holatlarga ta’sir mexanizmlarini aniqlash.
2. Shaxsning emotsional holatini neyrografika orqali modellashtirishning psixologik jarayonlarini tahlil qilish.
3. Neyrografika yordamida shaxsning emotsional barqarorligini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.
4. Neyrografikaning shaxsning emotsional intellekti bilan bog‘liqligini aniqlash va ushbu bog‘liqlik asosida ilmiy xulosalar chiqarish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi

Ushbu tadqiqot shaxsning emotsional holatini vizual ifodalash va modellashtirish orqali uni o‘zgartirish imkoniyatlarining nazariy va amaliy jihatdan asoslanishiga qaratilgan. Neyrografikaning stress va tashvish darajasini kamaytirishga ta’siri hamda uning psixologik jarayonlarga ta’siri empirik tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Shaxsning emotsional holati va uning neyrografika usuli orqali modellashtirilishi zamonaviy psixologiya va neyropsixologiya fanlari kesishgan nuqtada turadigan dolzarb mavzulardan biridir. Ushbu bo‘limda shaxsning emotsional holatini o‘rganish, neyrografikaning nazariy asoslari, uning amaliy qo‘llanilishi va ilgari olib borilgan tadqiqotlar tahlil qilinadi.

Shaxsning emotsional holatini tushunish psixologiyaning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, turli yondashuvlar asosida izohlangan. Klassik psixologiya doirasida emotsiyalar haqida bir necha fundamental nazariyalar mavjud:Jeyms-Lange nazariyasi (1884) – emotsiyalar tananing fiziologik o‘zgarishlariga javoban shakllanadi. Ushbu nazariya emotsional jarayonlarning miya faoliyati bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi,Kanon-Bard nazariyasi (1927) esa emotsiyalar va fiziologik reaksiya mustaqil

ravishda sodir bo‘ladi deb takidlaydi,Shaxter va Singerning ikki faktorli nazariyasi (1962)- emotsiyalar kognitiv baholash va fiziologik javob natijasida yuzaga keladi deb xulosa qilgan.

Zamonaviy psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, shaxsning emotsional holati kognitiv jarayonlar, ongsiz reflekslar va tashqi muhit omillari bilan chambarchas bog‘liqdir (Gross, 2014).Neyrografika usuli ushbu nazariy yondashuvlar bilan uyg‘un ravishda ishlaydi, chunki u emotsional jarayonlarni vizual tasvirlar orqali modellashtirishga qaratilgan bo‘lib, bu orqali shaxs o‘z ichki tajribalarini anglash va boshqarish imkoniyatiga ega bo‘ladi.[11]

Neyrografika – bu shaxsning ichki holatini grafik tasvirlar orqali aks ettirish va transformatsiya qilishga yo‘naltirilgan ijodiy yondashuvdir. Ushbu metodning nazariy jihatlari P. Piskarev (2014) tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u asosan quyidagi psixologik yondashuvlarga tayanadi:*Gestalt psixologiyasi* (Koffka, Kohler, Wertheimer, 1920-yillar) - inson ongini yaxlit tizim sifatida tushunish,*art-terapiya* (Kramer, 1958) - ijodiy faoliyat orqali shaxsning emotsional muammolarini ochib berish va ularni hal qilish,*nevroplastiklik nazariyasi* (Doidge, 2007) - inson miyasi yangi neyron bog‘lanishlarini yaratish qobiliyatiga ega bo‘lib, vizualizatsiya jarayonlari ushbu jarayonni rag‘batlantirishi mumkin.[8]

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, chizish va vizual ijodkorlik faoliyati inson miyasi uchun kuchli terapevtik ta’sirga ega bo‘lib, stress va tashvish darajasini pasaytirishda muhim rol o‘ynaydi (Damasio, 2003). Neyrografik chizmalar orqali inson o‘z hissiyotlarini o‘zga shaklda ifodalashi va ongsiz murakkab tajribalarni qayta ishlashi mumkin.[1]

Neyrografika bugungi kunda quyidagi yo‘nalishlarda qo‘llanilmoqda:*psixoterapiyada* stress, depressiya va tashvish buzilishlarini bartaraf etish uchun neyrografik texnikalar ishlatilmoqda (Piskarev, 2018),*ta’lim va pedagogikada* bolalar va o‘smirlarning emotsional intellektini rivojlantirish, ularga o‘z hissiyotlarini vizual ifoda qilishga yordam berish (Goleman, 1995),*shaxsiy rivojlanish* kreativ tafakkurni rivojlantirish, muammolarga nostandart yondashuv yaratish va ichki uyg‘unlikka erishish.[8]

NATIJALAR

Ushbu tadqiqot shaxsning emotsional holatini neyrografika yordamida modellashtirish imkoniyatlarini aniqlash va baholashga qaratildi. Tadqiqot davomida neyrografika usulining emotsional boshqaruvga ta’siri empirik tekshiruvlar orqali o‘rganildi.

Tadqiqotda turli yosh va kasb vakillaridan iborat 30 nafar ishtirokchi qatnashdi. Ularga dastlab emotsional holatni baholash testlari (Spielberger tashvish shkalasi, Beck depressiya shkalasi, PANAS musbat va salbiy affekt shkalasi) o‘tkazildi. So‘ngra ular neyrografik mashg‘ulotlarda qatnashib, ma’lum algoritmlar asosida chizmalar chizishdi. Mashg‘ulotlar yakunida emotsional o‘zgarishlarni o‘lchash uchun qayta test o‘tkazildi.[10]

Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki:

- Tashvish darajasi sezilarli darajada kamaydi: Neyrografika mashg‘ulotlaridan oldin o‘rtacha tashvish darajasi (Spielberger shkalasi bo‘yicha) 52 ball bo‘lsa, mashg‘ulotlardan keyin 40 ballga tushdi ($p < 0.05$).
- Musbat emotsiyalar oshdi: PANAS testiga ko‘ra, ishtirokchilarning musbat affekt darajasi 17% ga oshdi, salbiy affekt darajasi esa 25% ga kamaydi.
- Stressga chidamlilik ortdi: Mashg‘ulotlardan keyin ishtirokchilar stressni boshqarish qobiliyatining oshganini bildirishdi. Ayniqsa, sub’ektiv baholashga ko‘ra, neyrografika yordamida o‘z emotsiyalarini tushunish va ularni ijobiy tomonga o‘zgartirish imkoniyati oshgan.

Ishtirokchilar tomonidan chizilgan neyrografik tasvirlar tahlil qilinganida dastlabki chizmalarda keskin va to‘g‘ri chiziqlar ko‘p bo‘lib, bu tashvish, ichki zo‘riqish va hissiy muvozanatsizlikni ifodalagan va mashg‘ulotlar davomida yumshoq, egri chiziqlar va silliq shakllar ko‘paydi, bu esa emotsional barqarorlik va ichki uyg‘unlik oshganidan dalolat beradi.Ishtirokchilarning 80% da chizmalardagi

ranglar jilosining ijobiy tomonga o‘zgarishi kuzatildi, bu ularning emotsional holati yaxshilangani bilan bog‘liq.

Neyrografika shaxsning emotsional holatini modellashtirish va boshqarishda quyidagi jihatlarda samarali ekanligi aniqlandi:o‘zini anglash darajasining oshishi - ishtirokchilar o‘z emotsiyalarini tushunish va ularni ifodalash qobiliyatining oshganini ta’kidlashdi, stress va tashvish darajasining kamayishi – ishtirokchilarning 75% da stress va tashvish belgilari pasaydi,ijodiy tafakkurning rivojlanishi – ishtirokchilar fikricha, neyrografika yangi yechimlar topish va ijodiy fikrlashga yordam bergan, ichki muvozanat va barqarorlik hissining shakllanishi – mashg‘ulotlardan so‘ng ishtirokchilarning o‘z-o‘zini qadrlash darajasi oshgani kuzatildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, neyrografika shaxsning emotsional holatini modellashtirish va boshqarish uchun samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu usul stress va tashvish darajasini kamaytirishga, ichki muvozanatni tiklashga va ijodiy tafakkurni rivojlantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, neyrografik tasvirlar orqali shaxsning ruhiy holatini ifodalash va o‘zgarish dinamikasini kuzatish mumkin.

MUHOKAMA

Ushbu tadqiqot natijalari shaxsning emotsional holatini boshqarishda neyrografika usulining samarali ekanligini tasdiqladi. Tadqiqot natijalari ilgari o‘tkazilgan psixologik va nevropsixologik tadqiqotlar bilan uyg‘un bo‘lib, neyrografika orqali stress, tashvish va salbiy emotsiyalarni kamaytirish mumkinligi ko‘rsatildi. Ushbu bo‘limda olingan natijalar boshqa tadqiqotlar bilan solishtirilib tahlil qilinadi va neyrografika usulining imkoniyatlari muhokama qilinadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, neyrografika yordamida shaxsning emotsional holatini nazorat qilish mumkin. Ishtirokchilarning stress va tashvish darajasi sezilarli darajada kamaygani bu usulning samaradorligini tasdiqlaydi. Ushbu natijalar ilgari Piskarev (2016) tomonidan neyrografika san’at terapiyasi vositasi sifatida taklif qilingan nazariy tamoyillarga mos keladi.[8]

Bundan tashqari, Gross (2015) tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar ham vizualizatsiya va san’at terapiyasi texnikalarining inson emotsional barqarorligiga ijobiy ta’sir qilishini ko‘rsatgan. Bizning tadqiqotimiz ham shuni tasdiqlaydiki, neyrografika orqali shaxs o‘z his-tuyg‘ularini vizual ifodalash orqali ularni tartibga solish imkoniyatiga ega bo‘ladi.[4]

Tadqiqot natijalari shuningdek Damasio (2003) ning nevroplastiklik bo‘yicha ishlanmalariga ham mos keladi. Damasio inson emotsiyalarini boshqarish uchun vizual va motor jarayonlarning ahamiyatini ta’kidlagan bo‘lib, bizning tadqiqotimiz ham neyrografika orqali emotsional boshqaruv mexanizmlari rivojlantirilishi mumkinligini ko‘rsatdi.[1]

Tadqiqot davomida ishtirokchilarning neyrografik tasvirlari tahlil qilindi. Dastlabki chizmalarda keskin, qattiq chiziqlar va burchakli shakllar ustunlik qilgan bo‘lsa, mashg‘ulotlar davomida egri va silliq chiziqlar ko‘paydi. Bu shaxsning emotsional o‘zgarishlarini vizual ifodalash imkonini beradi. Ushbu natijalar Arnheim (1969) ning "vizual tafakkur" kontseptsiyasi bilan bog‘liq bo‘lib, unga ko‘ra inson chizish orqali o‘z his-tuyg‘ularini anglab, ularni modellashtirishi mumkin.

Bundan tashqari, Freeman (2019) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda neyrografik tasvirlar orqali inson emotsional yuksalish yoki turg‘unlik jarayonlarini kuzatish mumkinligi aytilgan. Tadqiqotimiz ham shuni tasdiqlaydiki, chizmalar tahlili shaxsning emotsional rivojlanishini kuzatish imkoniyatini beradi.

Bizning tadqiqotimiz natijalari shuni ko‘rsatdiki, neyrografika mashg‘ulotlaridan so‘ng tashvish va stress darajasi sezilarli darajada pasaydi. Ushbu natijalar Spielberger (1983) ning tashvish darajasini pasaytirish bo‘yicha vizual texnikalar samaradorligi haqidagi nazariyasini tasdiqlaydi. Bundan tashqari,

Beck (1996) tomonidan ishlab chiqilgan depressiya shkalasi bo‘yicha baholashda ham neyrografika ishtirokchilarning psixologik farovonligini yaxshilaganligi aniqlandi.[10]

Neyrografikaning stress va tashvish darajasini pasaytirishdagi samaradorligi Kandel (2000) tomonidan ilgari surilgan nevroplastiklik nazariyasi bilan ham bog‘liq. Uning tadqiqotlariga ko‘ra, ijodiy faoliyat miyaning neyron bog‘lanishlarini mustahkamlashga yordam beradi. Tadqiqotimizda ham neyrografika mashg‘ulotlari davomida ishtirokchilarning hissiy barqarorligi oshgani va stressga chidamlilik ortgani kuzatildi.[5]

Muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, neyrografika shaxsning emotsional holatini modellashtirish va boshqarish uchun samarali metod bo‘lib, uning stress va tashvish darajasini kamaytirish, emotsional barqarorlikni oshirish va ijodiy tafakkurni rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi ilmiy jihatdan asoslangan.

XULOSA

Shaxsning emotsional holati inson hayoti va faoliyatining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, uning ichki dunyosini anglash, ruhiy barqarorlikni saqlash va tashqi muhit bilan samarali o‘zaro munosabat o‘rnatish jarayonida asosiy o‘rin tutadi. Insonning kundalik hayoti davomida duch keladigan stress, tashvish va boshqa salbiy emotsiyalar uni psixologik bosim ostida qoldirib, hissiy holatining izdan chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin. Zamonaviy psixologiyada ushbu jarayonlarni nazorat qilish, emotsional barqarorlikni ta’minlash va ichki uyg‘unlikni shakllantirish uchun turli yondashuvlar ishlab chiqilgan. Neyrografika shaxsning emotsional holatini boshqarish va modellashtirishga xizmat qiladigan innovatsion usullardan biri sifatida qaraladi. Ushbu tadqiqot neyrografika usulining shaxs psixologik jarayonlariga ta’sirini o‘rganish, uning emotsional boshqaruvdagi o‘rnini aniqlash va ushbu yondashuvning samaradorligini ilmiy asoslashga qaratildi.

Tadqiqot natijalari neyrografikaning shaxsning hissiy jarayonlariga samarali ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi. Tadqiqotda ishtirok etgan shaxslarning neyrografika mashg‘ulotlaridan oldingi va keyingi psixologik holati solishtirilganda, stress va tashvish darajasi pasaygani, emotsional muvozanatning oshgani kuzatildi. Neyrografika orqali chizilgan tasvirlar insonning ruhiy jarayonlarini ifodalashi, ichki ziddiyatlarni bartaraf etishi va ijobiy emotsiyalarni shakllantirishga yordam berishi mumkinligi aniqlandi. Tadqiqot ishtirokchilari neyrografika mashg‘ulotlari davomida o‘z fikrlarini yanada aniqroq idrok etish, his-tuyg‘ularini tushunish va ularni grafik tasvirlarga joylashtirish imkoniyatiga ega bo‘lishdi. Bu esa ularga o‘z ichki tajribalarini yanada chuqurroq anglash va boshqarish imkonini berdi.

Tadqiqot doirasida ishtirokchilarning chizgan tasvirlari tahlil qilindi va dastlabki bosqichda ularning chizmalarida keskin burchakli shakllar, to‘g‘ri chiziqlar va o‘tkir grafik elementlar ko‘p ekanligi kuzatildi. Ushbu tasvirlar ishtirokchilarning emotsional bosim ostida ekanligini, ichki ziddiyatlarga ega ekanligini ko‘rsatgan bo‘lsa, neyrografika mashg‘ulotlari o‘tkazilgach, tasvirlarda egri va yumshoq chiziqlar, muvozanatli geometrik shakllar ko‘proq uchray boshladi. Ushbu o‘zgarishlar shaxsning emotsional barqarorlikka erishayotganidan, ichki muvozanatini tiklayotganidan dalolat beradi.

Neyrografika orqali emotsiyalarni vizual ifodalash inson ruhiy olamiga chuqur kirib borishga yordam beradi. Ushbu yondashuv orqali inson o‘zining hissiy kechinmalarini chizma shaklida aks ettiradi va ularni ongli ravishda o‘zgartirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, chizish jarayoni shaxsda yangi neyron bog‘lanishlar hosil bo‘lishini rag‘batlantiradi, bu esa ruhiy salomatlikning yaxshilanishiga olib keladi. Bu xulosalar ilgari o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlar bilan ham mos keladi. Xususan, nevropsixologik tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, vizual tasvirlash va san’at terapiyasi shaxsning emotsional muammolarini tushunish va bartaraf etishda samarali usul hisoblanadi.

Tadqiqot davomida neyrografika mashg‘ulotlarining emotsional boshqaruvga ta’siri ham empirik jihatdan tahlil qilindi. Ishtirokchilarning tashvish darajasi Spielberger tashvish shkalasi bo‘yicha baholanganda, neyrografika mashg‘ulotlaridan oldin ularning tashvish darajasi o‘rtacha 52 ballni tashkil

qilgan bo‘lsa, mashg‘ulotlardan so‘ng bu ko‘rsatkich 40 ballga tushgani aniqlandi. Shuningdek, PANAS musbat va salbiy affekt shkalasi bo‘yicha o‘tkazilgan baholash natijalariga ko‘ra, neyrografika ishtirokchilarning musbat emotsiyalarini o‘rtacha 17% ga oshirgan, salbiy affekt esa 25% ga kamaygan. Ushbu raqamlar neyrografikaning stress va tashvish darajasini kamaytirish, shaxsning ichki muvozanatini tiklash va umumiy psixologik farovonligini oshirishda samarali vosita ekanligini ko‘rsatadi.[10]

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, neyrografika usulidan psixoterapiya, ta’lim va pedagogika, shaxsiy rivojlanish va ijtimoiy moslashuv sohalarida samarali foydalanish mumkin. Neyrografikaning psixoterapiyada qo‘llanilishi stress, depressiya, tashvish va boshqa ruhiy muammolar bilan ishlashda samarali natijalar berishi mumkin. Shuningdek, neyrografika ta’lim jarayonida o‘quvchilarning emotsional intellektini rivojlantirish, ularning ijodiy tafakkurini shakllantirish va o‘z his-tuyg‘ularini anglashiga yordam berishi mumkin. Neyrografika shaxsiy rivojlanish jarayonida ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, insonning o‘zini anglash darajasini oshirish, muammolarni hal qilish qobiliyatini kuchaytirish va yangi g‘oyalarni shakllantirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari umuman olganda neyrografika usulining emotsional boshqaruv va ruhiy barqarorlikni saqlashda samarali yondashuv ekanligini ko‘rsatdi. Biroq, tadqiqotning ayrim cheklovlari mavjud bo‘lib, bu kelgusida ushbu mavzuni yanada chuqurroq o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Birinchidan, tadqiqot ishtirokchilari soni cheklangan bo‘lib, katta populyatsiyaga umumlashtirish qiyin. Ikkinchidan, tadqiqot subyektiv baholash usullariga asoslangan bo‘lib, neyrografikaning neyrofiziologik ta’siri chuqurroq o‘rganilishi lozim. Uchinchidan, neyrografikaning uzoq muddatli ta’siri bo‘yicha qo‘shimcha tadqiqotlar talab etiladi.

Kelgusidagi tadqiqotlar neyrografikaning uzoq muddatli natijalarga ta’sirini, turli yosh guruhlari va ijtimoiy qatlamlar bo‘yicha samaradorligini chuqurroq o‘rganishga yo‘naltirilishi lozim. Ayniqsa, neyrofiziologik mexanizmlar nuqtayi nazaridan neyrografika jarayonida miyadagi o‘zgarishlarni aniqlash, neyron bog‘lanishlarning mustahkamlanish darajasini o‘rganish va neyrografikaning psixologik terapiyadagi o‘rnini yanada kengroq tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqot neyrografika usulining shaxs emotsional holatiga ta’sirini ilmiy jihatdan asoslash va uni psixologik amaliyotga joriy etish uchun zarur bo‘lgan nazariy va amaliy xulosalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Damasio, A.R. (2003). Spinozani izlab: Quvonch, qayg‘u va hissiyot miyasi. Nyu-York: Xarkort.
2. Friman, V.J. (2019). Idrok fizikasi va miya dinamikasi. Integrativ neyrofanda jurnal maqolasi.
3. Freyd, Z. (2010). *Ongsizlik psixologiyasi.* Moskva: AST, 423 bet.
4. Gross, J.J. (2015). Hissiyotlarni boshqarish: Konseptual va amaliy masalalar. Emotion Researcher jurnal maqolasi.
5. Kandel, E.R. (2000). Neyrofanning asosiy tamoyillari. Nyu-York: Makgrou-Xill.
6. Leontyev, D.A. (1997). *Semantik jarayonlarning dinamikasi.* // Psixologik jurnal, 18-jild, №6, 13–27-betlar.
7. Maslow, A. (2015). *Motivatsiya va shaxsiyat.* Sankt-Peterburg: Evroosiyo, 433 bet.

8. Piskarev, P.M**.** (2016). *Neyrografik metodni shakllantirishning zaruriy shartlari.* // Zamonaviy psixologiya metodologiyasi**,** 6-jild / tahr. Kozlova V.V., Karpova A.V., Mazilova V.A., Petrenko V.F. – Moskva-Yaroslavl: YarSU, LKIISI RAN, MAPN, 199 bet.

9. Rorschach, G. (2016). Psixodiagnostika: Idrokni o‘rganish uchun diagnostik eksperimentning metodologiyasi va natijalari (tasodifiy tasvirlarni talqin qilish). Moskva: Cogito markazi, 284 bet.

10. Spilberger, C.D. (1983). Davlat-shaxsiy tashvish inventarizatsiyasi (Y shakl) qo‘llanmasi. Palo-Alto, CA: Konsalting psixologlar nashriyoti.

INTERNET HAVOLALAR

11. https://www.guilford.com/books/Handbook-of-Emotion-Regulation/Gross-Ford/9781462549412

BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARI BILAN O‘QUVCHILARNING O‘ZARO HAMKORLIKDA IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Salomova Ra'no Vassiyevna
Denov tadbirkorlik va Pedagogika instituti bo'lim boshlig'i
ORCID ID: https://orcid,0009 0000 5544 597X

ABSTRACT

This article focuses on enhancing the creative abilities of primary school students through effective collaboration between teachers and students. It examines the importance of developing creative skills, the impact of teacher-student cooperation, and the key technologies used in the teaching process, such as project-based learning, case methods, and group work. The research findings indicate that the application of these methods significantly improves students' creative thinking and problem-solving skills. The article highlights effective approaches and practices for fostering creativity in primary education, emphasizing the importance of collaboration between teachers and students to achieve successful outcomes in the development of students' creative potential.

Keywords: primary education, creative abilities, teacher-student collaboration, teaching technologies, educational methods.

ANNOTASIYA

Ushbu maqola boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda o'qituvchilarning o'zaro hamkorligini mustahkamlashga qaratilgan. Maqolada ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning ahamiyati, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi samarali hamkorlikning ta'siri, shuningdek, ta'lim jarayonida qo'llaniladigan asosiy texnologiyalar, masalan, proekt metodi, keys-metod va gruppaviy ishlash kabi usullar to'g'risida tahlillar olib borilgan. Tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatdiki, ushbu texnologiyalar yordamida o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlari va muammolarni echish ko'nikmalari yaxshilangan. Maqola boshlang'ich ta'limda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun samarali usullar va tajribalarni nazarda tutadi, shu bilan birga ta'lim jarayonidagi o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlikning muhimligini namoyon etadi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, ijodiy qobiliyat, o'qituvchi va talaba hamkorligi, o'qitish texnologiyalari, ta'lim usullari.

Kirish

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning fikirlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini oshirish, har bir o'qituvchining asosiy vazifalaridan biriga aylandi. Boshlang'ich ta'limda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishni ta'lim jarayoniga integrasiyalashning ahamiyati katta. Bu maqolada o'qituvchilar bilan o'quvchilarning o'zaro hamkorligi asosida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning samaradorligi va unga ta'sir etuvchi texnologiyalar ko'rib chiqiladi.

Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning ahamiyati

Ijodiy qobiliyatlar – bu insonning yangi g'oyalarni topish, muammolarni faqat standart yo'llar bilan emas, balki yangi, innovasion usullar bilan hal qilish qobiliyatidir. Boshlang'ich ta'limda bu qobiliyatlarni rivojlantirish, o'quvchilarning tafakkuri, nutqi va jamiyatdagi o'rnini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish o'quvchining mustaqil ishlashga yordam beradi, bu esa o'qishdagi muvaffaqiyatni oshirishga olib keladi.

O'zaro hamkorlikning o'rni

O'zaro hamkorlik ta'lim jarayonida muhim o'rin tutadi. O'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi samarali hamkorlik, o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rag'batlantirishga, ularning o'z fikrlarini erkin bildirishga yordam beradi. Agar o'qituvchi o'quvchilar bilan ko'pdirektiv hamkorlik o'rnatsa, bu ijodiy qarorlarni qabul qilishga va yangi g'oyalarni ishlab chiqishga turtki bo'ladi.

Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishdagi asosiy texnologiyalar

1. Proekt metodi: bu metod, o'quvchilarga ijodiy va amaliyotga yo'nalgan vazifalarni berishni nazarda tutadi. Ushbu metodda o'quvchilar tomonidan muammoga echim izlash, yangi g'oyalarni amalga oshirishga qaratilgan ishlarni tashkil qilishga harakat qilinadi. Proektlar orqali o'quvchilar o'z fikrlarini jamiyatga foyda keltirish uchun yaratish va amalga oshirishga o'rganadilar.

2. Keys-metod: boshqa usullardan farqli o'laroq, keys-metod odamlarning Real hayotdagi muammolarni hal qilish uchun ishlatishga qaratilgan. Ushbu metodni qo'llash orqali o'quvchilar tanlangan sohadagi muammolarni hal qilish va ijodiy yondashuvlarni topishda ishtirok etadilar.

3. Gruppaviy ishlash: boshlang'ich ta'limda, o'quvchilarni birgalikda ishlashga, bir-birining g'oyalarini tinglashga va ularni o'rganishga yo'naltirish ham ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun samarali usuldir. Gruppaviy ishda har bir o'quvchi o'ziga xos qobiliyatlarni namoyon qiladi va boshqalar bilan hamkorlikda yangi qarorlar qabul qilinadi.

4. Kreativ ta'lim: kreativ ta'lim metodlari, o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Bu metodda o'quvchilar turli yo'nalishlardagi animasiyalar, shaxsiy tajribalar va ijodiy g'oyalar orqali muammolarni tahlil qilish va ularga echimlar topishga harakat qilishadi.

Kasbiy tayyorgarlik jarayonida kelajakdagi mutaxassislar fanlarning turli sohalarida bilimlarni shakllantiradilar. Ammo bu bilim barcha holatlar uchun retseptlar va algoritmlarni olish bilan cheklanmaydi. Muayyan vaziyatlarda aniq qarorlarni o'qituvchining o'zi qabul qiladi. O'qituvchilarni tayyorlashning eng muhim vazifalaridan biri bu ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirishdir. Pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish ijodkorlikka asoslangan. O'qituvchining ijodiy qobiliyatlarini, imkoniyatlarini rivojlantirmasdan, uning kasbiy mahorati haqida gapirish hech qanday ma'noga ega emas.

Har qanday shaxs o'z ahamiyatini, ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyatda muvaffaqiyatga daxldorligini anglashi, ijobiy o'z - o'zini kontseptsiyasiga ega bo'lishi muhimdir. Mutaxassislarni tayyorlashda bunga rahbarlik qilish kerak. O'quv jarayonida talabalarning ijodiy (ijodiy) qobiliyatlarini rivojlantirishni rag'batlantirish sinfda ishonch muhitini yaratmasdan, ko'rib chiqilayotgan masala bo'yicha o'z nuqtai nazarini ifoda etish imkoniyatini bermasdan, salbiy baho berishdn qo'rqmasdan mumkin emas.

Qoida tariqasida, o'qituvchilar o'zlarining kasbiy faoliyatlarida talabalar sifatida olgan avvalgi tajribalaridan, o'qituvchining xatti-harakatlari, his-tuyg'ulari, baholari, munosabatlari gamutining ta'sirini boshdan kechirganlaridan ozod emaslar ... bizning nuqtai nazarimizga ko'ra, potentsial o'qituvchining maktab hayotining mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarini to'liq tuzatish mumkin emas. universitet o'qituvchisi yoki kollej o'qituvchisi kamchiliklardan xoli emasligini istisno qiling. Ko'rinishidan, kelajakdagi o'qituvchiga maktabdan qolgan his-tuyg'ulari haqida ochiq gapirish, o'qituvchilar bilan muloqot qilish, bolalik davrida kattalar tomonidan o'rnatilgan munosabatlarni tanqidiy tushunishga yordam berish uchun imkoniyat berilishi kerak. [2, 12-sahifa].

Bu erda taniqli amerikalik psixoterapevt va psixoanalitik yo'nalish nazariyotchisi E. Bern tomonidan taklif qilingan shaxsiyatning uchta jihatini ko'rib chiqish o'rinli ko'rinadi. E. Bernning so'zlariga ko'ra, har qanday kattalarda uchta holat o'zini aniqlay oladi. Norasmiy ravishda ushbu holatlarning namoyon bo'lishi "ota-ona", "kattalar" va "bola"deb nomlanadi.

Kelajakdagi mutaxassis uchun kattalarni rivojlantirish muhimdir. O'zini kattalar kabi tutish-bu vaziyatni mustaqil va ob'ektiv baholash va fikrlash jarayonini ochiq fikr bilan bayon qilish, muammolar va xulosalarni shakllantirish demakdir. "Kattalar" holati hayot uchun zarurdir. Biror kishi ma'lumotni qayta ishlaydi va atrofdagi dunyo bilan samarali muloqot qilish uchun harakat qilish kerak bo'lgan vaziyatlarni bashorat qiladi. Voyaga etgan kishi ota-ona va bolaning harakatlarini nazorat qiladi, ular orasidagi vositachidir. "Ota-ona" holati bu bizning e'tiqodlarimiz, e'tiqodlarimiz va xurofotlarimiz, qadriyatlarimiz va munosabatlarimiz, ularning aksariyati biz o'zimiz qabul qilgan deb bilamiz, aslida ular biz uchun muhim bo'lgan odamlarni ichkariga kiritish orqali tashqaridan kiritilgan. Shuning uchun ota - ona bizning ichki sharhlovchimiz, muharririmiz va baholovchimizdir. Voyaga etganlar-men ma'lumotlarning mantiqiy tarkibiy qismini idrok etaman va qayta ishlayman, qarorlarni asosan qasddan va hissiyotsiz qabul qilaman, ularning realizmini tekshiraman. Voyaga etgan-men, ota-onadan farqli o'laroq, standart, aniq bo'lmagan vaziyatlarda moslashishga hissa qo'shaman. Va fikrlashni talab qiladigan, tanlash erkinligini beradigan va shu bilan birga qabul qilingan qarorning oqibatlarini anglash zarurligini ta'minlaydigan noyob vaziyatlarda. "Voyaga etganlar" holatining vazifasi bizning ota-onamiz va bolalarimizga xos bo'lgan ma'lumotlarni tekshirish va uni atrofdagi voqelik haqiqatlari bilan taqqoslashdir.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, hamkorlik sharoitida intellektual rivojlanish vazifalari yanada samarali hal qilinadi (G. S. Kostyuk, V. Yantos va boshqalar), notanish materiallar yaxshiroq o'zlashtiriladi (V. A. Koltsova va boshqalar). Birgalikda ishlash sharoitida refleksiv qobiliyatlar rag'batlantiriladi, xususan nazorat (o'zini o'zi boshqarish), baholash (o'zini o'zi baholash) (L. A. Aydarova, N. Kramskova, V. P. Panyushkin, G. A. Tsukerman). Shu bilan birga, o'quv hamkorligi ishtirokchilar faoliyatini tashkil etish va tartibga solish usullari bo'lgan turli xil texnikalar yordamida amalga oshiriladi. O'quv jarayonida hamkorlikni amalga oshirishning eng keng tarqalgan usuli bu muammoli masalani muhokama qilish, shakllantirish, muhokama qilishdir (A. A. Verbitskiy, R. Selman, M. Liberman va boshqalar). [15, 57-sahifa].

Har bir faoliyat aniq maqsadni nazarda tutadi. Unga erishish qobiliyati o'z qobiliyatlariga ishonch hissini shakllantiradi. Talaba uchun bu o'quv materialini muvaffaqiyatli o'zlashtirish, o'qituvchi uchun-kasbiy kompetentsiya hissi. Bu o'qituvchining o'zi ham, talaba uchun ham ijobiy o'z - o'zini anglash tushunchasi uchun juda muhim bo'lgan va bu uzoq muddatli oqibatlarga olib keladigan qo'shma faoliyatdagi o'zaro muvaffaqiyatdir. O'qituvchining ijobiy o'zini o'zi qadrlashi unga ishonch bag'ishlaydi, nafaqat o'zining ijodiy imkoniyatlarini ochib berishga yordam beradi, balki o'quvchilarda buni ko'proq ochib berishga yordam beradi.

Kadrlar tayyorlash jarayonida ijobiy o'z - o'zini kontseptsiyasini shakllantirish va mustahkamlash butun o'quv jarayonining muhim yo'nalishi hisoblanadi.

Bo'lajak mutaxassisning shaxsiy xususiyatlarini aniqlash, ularni o'zi uchun ham, uning kasbiy shakllanishining eng yaqin doirasi uchun ham aniq qilish turli vaziyatlarni modellashtirish, ularni sahna ko'rinishida o'ynashga yordam beradi. Talabani o'z xususiyatlarining namoyon bo'lishining sun'iyligidan ozod qilish juda muhim, chunki u haqiqiy shaxsiy tarkibga yaqinlik beradi, potentsial mutaxassisning tabiatini o'zgartiradi va shaxslararo munosabatlarga yolg'on olib keladi. Shuning uchun talabani ijodiy intilishlarida ozod qilish kerak - iloji boricha kamroq baholash hukmlari va har kim nimani his qilishi, nimani his qilishi haqida iloji boricha ko'proq ma'lumot. Boshqacha qilib aytganda, shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirishning ajralmas sharti bo'lgan shaxsiy va guruhli aks ettirish uchun ko'proq ma'lumot.

O'qituvchining kasbiy va shaxsiy o'sishiga va uning kelajakdagi obro'sini shakllantirishga hissa qo'shadigan ta'limning asosiy parametrlari sifatida quyidagilar xizmat qilishi mumkin: tayyor kasbiy va shaxsiy qadriyatlar to'plamini taqdim etishni istisno qilish; talabaning o'tmishdagi tajribasini yangilash

va psixologik to'siqlarni engib o'tish, bu kasbiy kompetentsiya atributlarini, uslubiy mahoratni va texnologik xilma-xillikni yanada ijodiy o'zlashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi o'qituvchilar); shaxsiy xususiyatlar va o'z - o'zini kontseptsiyasining batafsil informatsion diagnostikasi, bu sizga kasbiy ehtiyojlar oqimidagi shaxsiy o'zgarishlar nuqtai nazaridan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va ob'ektiv yondashuvni ko'proq amalga oshirishga imkon beradi; sinfda shaxslararo muloqot jarayonida qiymat almashinuvi va ishbilarmonlik hamkorligini rivojlantirish, rivojlanayotgan dialogik o'zaro ta'sir texnikasini takomillashtirish; kognitiv faoliyatni faol hissiy qo'llab-quvvatlash, pedagogik faoliyatni ratsional-intellektual falsafiy va badiiy o'zlashtirish bilan bir qatorda, hissiy - hissiy sohani faol rag'batlantirish va pedagogik madaniyat bilan tanishishning intuitiv-majoziy usullarini rag'batlantirish; faoliyatni tashqi ko'rinishi (shaxsning ichki mazmuni uning tashqi faoliyatiga aylantirilishi kerak), kelajakdagi o'qituvchilarning ijtimoiy shartli qobiliyatlarini rivojlantirish.

Shaxs-faoliyat yondashuvini talabalarning o'quv faoliyatining asosi deb hisoblash mumkin. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim qiziqishlarga rioya qilish va talabalarning individual imkoniyatlarining rivojlanish o'lchovini hisobga olishga imkon beradi. Ta'limga shaxsga yo'naltirilgan yondashuv bilan ta'lim mazmunining o'ziga xos xususiyatlari yaxlitlik, muammo, dolzarblikdir.

Mahoratning professional asoslarini o'zlashtirishning muvaffaqiyati ko'p jihatdan shaxsning yo'nalishiga, uning manfaatlariga, ehtiyojlariga bog'liq. Bu kelajakdagi mutaxassisning o'quv jarayonini idrok etishga va unda faol ishtirok etishga tayyorligini o'lchaydigan potentsial.

Shuni ta'kidlash kerakki, agar ko'rib chiqilayotgan pedagogik muammolar mavhum tarzda taqdim etilishi kerak bo'lsa, o'qitish juda murakkablashadi. Pedagogika universitetlari va kollejlari talabalari uchun nazariy kursni idrok etishning potentsial imkoniyatlari dastlab boshqacha. Tinglovchilarda oldingi pedagogik tajriba mavjudligini hisobga olish kerak.

Keysi: tadqiqot natijalari

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, o'qituvchilarning o'quvchilar bilan ishlashda samarali o'zaro hamkorlik va ijodiy metodlarni qo'llash, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini sezilarli darajada oshiradi. Misol uchun, 2023 yilda olib borilgan tadqiqotlar natijasida, proekt va keys-metodlarini qo'llagan sinflarda o'quvchilarning muammo echish qobiliyati va ijodiy fikrlash darajasi sezilarli darajada yaxshilandi.

Ijodkorlik darajasi	Ballar yig'indisi
Juda baland	40-34
Yuqori	33-27
Oddiy, o'rta	26-20
Past	19-15
Juda past	14-8

Sinov natijalariga ko'ra, so'rovda qatnashgan guruh talabalarining 50 foizi juda yuqori ijodkorlik darajasiga, 40 foizi yuqori darajaga va 10 foizi normal, o'rtacha ijodkorlik darajasiga ega ekanligini aniqladik.

Buning sababi shundaki, 322 guruh talabalari ijodkorlik bilan bog'liq ko'plab fanlarni o'rganadilar: informatika, pedagogik ijodkorlik, tasviriy geometriya va muhandislik grafikasi, pedagogika tarixi va ta'lim falsafasi va boshqalar.

Shunday qilib, ijodkorlikning bunday yuqori darajasi dastlab talabalarning ijodiy qobiliyatining yuqori darajasi bilan izohlanishi mumkin, chunki oliy o'quv yurtiga kirishda ular ijodiy kasbni tanladilar. Maxsus fanlarning mavjudligi talabalarning ijodkorligini yanada rivojlantirishga yordam berdi. Sinov natijalariga ko'ra, biz kasbiy Pedagogika institutining 322-guruh talabalari muammoga sezgirlik, qiyinchiliklarni afzal ko'rish, moslashuvchanlik, topqirlik, zukkolik, tasavvur, nostandart, shuningdek, "Avtomobillar, avtomobilsozlik"mutaxassisligi bo'yicha kasb-hunar ta'limi o'qituvchisi kasbi uchun zarur bo'lgan bir qator boshqa fazilatlarga ega ekanligini aniqladik.

Xulosa

Boshlang'ich ta'limda o'qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishdagi rolini yoqtirish muhimdir. O'zaro hamkorlik, yangi ta'lim usullari va ijodiy metodlarning samarali qo'llanilishi, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini yanada oshirishga yordam beradi. Shuningdek, har bir o'quvchiga shaxsiy yondashuv va guruhda ishlashni rag'batlantirish talab etiladi. Quyidagi texnologiyalar va usullar, ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali natijalarga erishish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1.Abdullayev, A. M. (2018). Boshlang'ich maktabda informatika fanini o'qitish metodikasi. Toshkent: O'zdtu.

2.Baymuhamedova, L. A. (2020). Talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda pedagogik o'zaro ta'sirning roli. Pedagogika fanlari jurnali, 2(3), 45-52.

3.Hamidova, N. T. (2019). Boshlang'ich maktabda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari. Toshkent: ilmiy nashriyot.

4.Jamshidova, M. Sh. (2021). Boshlang'ich maktab o'quvchilarini o'qitishning zamonaviy usullari va texnologiyalari. Moskva: Ma'rifat.

5.Petrova, I. N. (2020). Boshlang'ich ta'limdagi loyiha faoliyati. Moskva: Akademiya.

6.Isayeva, V. V. (2017). Ta'lim jarayonida maktab o'quvchilarida ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish usullari. Sankt-Peterburg: Piter.

7.Sultonova, G. A. (2022). Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qitish texnologiyasi va ijodiy ko'nikmalarni rivojlantirish. Zamonaviy ta'lim jurnali, 3 (1), 34-40.

8.Molchanova, E. P. (2021). Kompetentsiyaga asoslangan yondashuv sharoitida o'qitish metodikasi. Yekaterinburg: Ural nashriyoti.

9.Kuznetsova, A. Y. (2019). Ta'lim texnologiyalari doirasidagi pedagogik faoliyat. Sankt-Peterburg: Nutq.

INKLYUZIV TA'LIMDA PERIMETR, YUZA VA SIG'IM TUSHUNCHALARINI O'QITISH METODIKASI

Feruza Usmonovna Qodirova
professor, CHDPU, Maxsus pedagogika kafedrasi mudiri
Zahro-oy O'ktam qizi Tohirova
CHDPU magistranti

ANOTATSIYA

Inklyuziv ta'lim har bir o'quvchining ehtiyojlarini hisobga olgan holda matematik tushunchalarni o'zlashtirish uchun mos sharoit yaratishni talab etadi. Ushbu maqolada perimetr, yuza va sig'im kabi o'lchov tushunchalarini o'qitishda samarali metodlar yoritiladi. Differensial yondashuv, multisensor metodlar, ko'rgazmali va taktil qo'llanmalar, amaliy-ko'rgazmali mashg'ulotlar, interaktiv o'yinlar, raqamli texnologiyalar va assistiv vositalardan foydalanish inklyuziv sinfda ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Baholash va rag'batlantirish strategiyalarining moslashuvchanligi har bir o'quvchining muvaffaqiyatga erishishiga yordam beradi. Ilmiy tadqiqotlar va real misollar asosida ishlab chiqilgan tavsiyalar inklyuziv matematika ta'limini samarali tashkil etish yo'llarini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, differensial yondashuv, multisensor metodlar, ko'rgazmali ta'lim, taktil qo'llanmalar, amaliy-ko'rgazmali mashg'ulotlar, interaktiv o'yinlar, raqamli texnologiyalar, assistiv texnologiyalar, baholash va rag'batlantirish, matematik tushunchalarni o'qitish.

АННОТАЦИЯ

Bunday yondashuv o‘quvchilarning jinsiy identifikatsiyasini mustahkamlashga va ularni jinsiy tenglik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Masalan, qiz bolalarga robototexnika, dasturlash yoki kimyo fanlarida tadqiqotlar olib borish imkoniyatlarini yaratish orqali ularning STEM sohalaridagi qiziqishlarini oshirish mumkin. Bunday loyihalar orqali o‘quvchilar o‘zlarining potensiallarini ochishlari va kelajakda muvaffaqiyatli mutaxassislar sifatida faoliyat yuritishlari mumkin.

5. Tadqiqotchilik ko‘nikmalarining raqamli transformatsiyadagi roli

Hozirgi kunda raqamli transformatsiya global miqyosda keng tarqalgan tendentsiya hisoblanadi. Raqamli transformatsiya – bu axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini jamiyatning barcha sohalariga joriy etish jarayonidir. O‘quvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishda raqamli transformatsiya ham muhim rol o‘ynaydi.

Masalan, o‘quvchilar raqamli platformalar orqali o‘zlarining tadqiqotlarini amalga oshirishlari mumkin. Onlayn kutubxonalar, elektron resurslar va raqamli ma’lumotlar bazalari orqali o‘quvchilar yangi bilimlarni mustaqil ravishda egallashlari va ularni tadqiqotlarida qo‘llashlari mumkin. Bundan tashqari, o‘quvchilar raqamli vositalardan foydalanib o‘zlarining loyihalarini yaratishlari, natijalarni tahlil qilishlari va jamoada muhokama qilishlari mumkin.

Raqamli transformatsiya orqali o‘quvchilar bilim olishning yangi usullarini o‘rganadilar va ularning raqamli savodxonligi oshadi. Masalan, o‘quvchilar sun’iy intellekt, blokcheyn yoki big data texnologiyalari kabi zamonaviy sohalarda tadqiqotlar olib borishlari mumkin. Bunday loyihalar o‘quvchilarni zamonaviy texnologiyalar bilan qurollantirish bilan birga, ularda innovatsion yondashuvni ham rivojlantiradi

6. Tadqiqotchilik koʻnikmalarining jamoaviy faoliyatdagi roli

Oʻquvchilarda tadqiqotchilik koʻnikmalarini shakllantirish jarayonida jamoaviy faoliyat ham muhim rol oʻynaydi. Jamoaviy faoliyat orqali oʻquvchilar bir-biriga yordam berish, hamkorlik qilish va birgalikda muammolarni hal qilish koʻnikmalarini oʻrganadilar.

Masalan, oʻquvchilar guruhlarda ishlash orqali oʻzlarining tadqiqotlarini amalga oshirishlari mumkin. Guruh ishi orqali oʻquvchilar bir-birining fikrlarini tinglash, turli xil nuqtai nazarlarni tahlil qilish va umumiy natijaga kelish koʼnikmalarini rivojlantiradilar. Bunday yondashuv oʻquvchilarning kommunikativ koʻnikmalarini oshirishga va ularni jamoaviy faoliyatda samarali ishlay oladigan shaxslar sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Jamoaviy faoliyat orqali oʻquvchilar oʻzlarining individual qobiliyatlarini ham rivojlantiradilar. Masalan, bir oʻquvchi guruh ichida liderlik qilishi, ikkinchisi esa analitik fikrlash va natijalarni tahlil qilish qismiga qaror topishi mumkin. Bunday tarzda har bir oʻquvchi oʻzining kuchli tomonlarini ochib beradi va jamoaviy faoliyatda samarali ishlay oladigan shaxs sifatida tarbiyalanadi.

Tadqiqotchilik koʻnikmalarini oʻquvchilarda shakllantirish va rivojlantirish jarayoni zamonaviy ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biridir. Bu jarayonda tarixiy, milliy, ekologik, kasbiy, jinsiy tenglik va raqamli transformatsiya kabi turli aspektlarga e’tibor qaratish zarur. Oʻquvchilarning shaxsiy rivojlanishi, jamoaviy faoliyati va kelajakdagi kasbiy tanlovlarini aniqlashda tadqiqotchilik koʻnikmalari muhim rol oʻynaydi. Shuning uchun ham, tadqiqotchilik koʻnikmalarini shakllantirish pedagogik va psixologik nuqtai nazardan chuqur oʻrganish zarurdir

XULOSA

Oʻquvchilarda tadqiqotchilik koʻnikmalarini shakllantirish va rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon faqat pedagogik yondashuvlar bilan cheklanmaydi, balki psixologik asoslar hamda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni talab etadi. Oʻquvchilar tadqiqotchilik koʻnikmalariga ega boʻlganda, ular mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv va yangi bilimlarni tezroq oʻzlashtirish qobiliyatiga ega boʻladilar. Bunday koʻnikmalar ularga amaliyotda muammolarni hal qilish va innovatsion yechimlar ishlab chiqish imkoniyatini beradi.

Tadqiqotchilik koʻnikmalarini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish muhim rol oʻynaydi. Masalan, onlayn platformalar, elektron resurslar va mobil ilovalar orqali oʻquvchilar mustaqil ravishda bilimlarni izlash va tadqiqot olib borish malakalarini egallaydilar. Bundan tashqari, guruhlar boʻyicha ishlash va loyihalash texnologiyalari tadqiqotchilik ruhini tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, bu jarayonda ba’zi qiyinchiliklar mavjud boʻlishi mumkin. Masalan, oʻqituvchilarning zamonaviy usullarni toʻliq egallamaganligi yoki oʻquvchilarning motivatsiyasining pastligi bunday muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun ham, oʻqituvchilarni qayta tayyorlash va ularga yangi pedagogik-texnologik yondashuvlarni oʻrgatish zarurdir.

Natijada, tadqiqotchilik koʻnikmalariga ega boʻlgan oʻquvchilar kelajakda jamiyat talablariga javob bera oladigan, raqobatbardosh va innovatsion fikrlashga qodir kadrlar sifatida tarbiyalanadi. Shuning uchun ham, tadqiqotchilik koʻnikmalarini shakllantirish pedagogik va psixologik nuqtai nazardan chuqur oʻrganish va tizimli yondashuvni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdullaeva, M. (2020). Maktab oʻquvchilarda oʻquv-tadqiqotchilik koʻnikmalarini shakllantirish. Toshkent: Ilm-zuyo.

2. Akbarova, N. (2019). Oʻquvchilarning tadqiqotchilik koʻnikmalarini rivojlantirish usullari. ARES.UZ.

3. Boboeva, Z. (2018). Boshlang‘ich ta’limda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini tarbiyalash. Ta’lim va fan.

4. Karimov, S. (2021). Pedagogika va psixologiya (pedagogika) o‘quv-uslubiy qo‘llanma. Samarqand: Universitet nashriyoti.

5. Mirzaeva, L. (2022). Ta’lim oluvchilarda o‘quv-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish. Pedagogika jurnali.

6. Rahimov, A. (2020). Bo‘lajak o‘qituvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish masalalari. КиберЛенинка.

7. Rashidova, D. (2019). 577-son buyrug‘i asosida o‘quvchilarni psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash. Toshkent: Fan.

ИНКЛЮЗИВ ТАЪЛИМ ШАРОИТИДА БОШЛАНҒИЧ СИНФЛАРДА МАТЕМАТИКА ФАНИНИ ЎРГАТИШ

Чирчиқ давлат педагогика университети
"Махсус педагогика" кафедра ўқитувчиси
Ибадуллаева Шарофат Нуруллаевна
Муротов Самандар Ғайрат ўғли
Мухтаров Елдор Акрам ўғли
Қозиев Хайдарали Шукуржон ўғли
Усмонжонов Сардор Вохиджон ўғли

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада инклюзив таълим шароитида ўқувчилар билан ишлашнинг ўзига хослиги ва тамойиллари санаб ўтилган. Инклюзив таълим жараёнида фанларни ўқитишда амал қилиниши лозим бўлган тамойилларни ҳам белгилаб беради. Меъёрда ривожланаётган болаларга нисбатан, ривожланишида муаммолари бўлган болалар математик билимларни ўзлаштиришда қийинчилик сезадилар. Математика фанини ўқитишнинг вазифалари ва дифференциал ёндашувлари очиб берилган.

Калит сўзлар: бола, таълим, инклюзив таълим, тамойил, шакл, восита, вазифа, мақсад, дифференциал ёндашув.

АННОТАЦИЯ.

В данной статье перечислены особенности и принципы работы со студентами в условиях инклюзивного образования. Также определены принципы, которых следует придерживаться при преподавании предметов в процессе инклюзивного образования. По сравнению с нормально развивающимися детьми, дети с отклонениями в развитии испытывают трудности с усвоением математических знаний. Раскрыты задачи и дифференцированные подходы обучения математике.

Ключевые слова: ребенок, образование, инклюзивное образование, принцип, форма, инструмент, задача, цель, дифференцированный подход

ABSTRACT

This article lists the characteristics and principles of working with students in the context of inclusive education. It also defines the principles that should be followed in the teaching of subjects in the process of inclusive education. Compared to normally developing children, children with developmental problems experience difficulty in acquiring mathematical knowledge. The tasks and differential approaches of teaching mathematics are revealed.

Key words: child, education, inclusive education, principle, form, tool, task, goal, differential approach

Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси мамлакатда умумий ўрта ва мактабдан ташкари таълимни такомиллаштиришнинг устувор

йўналишларини белгилаш, ўсиб келаётган ёш авлодни маънавий-ахлоқий ва интеллектуал ривожлантиришни сифат жиҳатидан янги даражага кўтариш, ўқув-тарбия жараёнига таълимнинг инновацион шакллари ва усулларини жорий этиш каби муҳим мақсадларни кўзда тутади. Концепцияда белгиланган вазифалар қаторида математика фанини ўқитиш билан боғлиқ қуйидагилар кўзда тутилган: "Ўзбекистон Республикасининг 2030 йилга келиб, **PISA (The Programme for International Student Assessment)** Халқаро миқёсда ўқувчиларни баҳолаш дастури рейтинги бўйича жаҳоннинг биринчи 30 та илғор мамлакати қаторига киришига эришиш; узлуксиз таълим тизими мазмунини сифат жиҳатидан янгилаш; ўқитиш методикасини такомиллаштириш, таълим-тарбия жараёнига индивидуаллаштириш тамойилларини босқичма-босқич татбиқ этиш;халқ таълими соҳасига замонавий ахборот-коммуникация технологиялари ва инновацион лойиҳаларни жорий этиш".

Маълумки, умумтаълим мактабларида ўқитиладиган фанлар орасида математиканинг алоҳида ўрин олиши, ёшларни келажакда технологиялар замони учун мос интеллектуал жиҳатдан кучли этиб тайёрлашнинг муҳимлигини асослайди. Математика келажакда кутилаётган нанотехнологиялар учун қанчалик кўприк бўлса, инсон ҳаётидаги кундалик юмушлар учун ҳам шунчалик ҳаётий заруратдир. Шунинг учун ушбу фанни ўқитиш самарадорлигини ошириш борасида умумий педагогика ва фанларни ўқитиш методикаси соҳасида қатор илмий тадқиқот ишлари ва ислоҳотлар олиб борилмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 9 июлда қабул қилинган "Математика таълими ва фанларини янада ривожлантиришни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш, шунингдек, Ўзбекистон Республикаси фанлар академиясининг В.И. Романовский номидаги математика институти фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги 4387 –сонли Қарорида математика таълими ва фанларини янада ривожлантириш, фундаментал, қидирув ва амалий илмий тадқиқотлар олиб бориш, олий таълимдан кейинги таълим институтларининг фаолияти ва илмий кадрлар тайёрлаш самарадорлигини таъминлаш, илм-фан, иқтисодиёт тармоқлари ва ишлаб чиқаришнинг интеграциясини мустаҳкамлаш, жаҳоннинг етакчи илмий марказлари ва университетлари билан халқаро илмий-техник ҳамкорликни ривожлантириш бўйича комплекс чора-тадбирларни амалга ошириш мақсади белгиланди.

Санаб ўтилган ислоҳатлар тўлиқ маънода инклюзив таълим жараёнига ҳам даҳлдордир. Чунки мазкур таълим тури барча болаларнинг ижтимоий ҳаётда ўрин топишида энг самарали деб топилган. Соғлом болалар каби имконияти чекланган болалар учун ҳам математик уқувлар, ҳисоб-китоб малакалари зарурдир. Шу боис, биз олиб борган тадқиқот иши айнан инклюзив таълим шароитида болаларга математика фанини самарали ўқитишга бағишланади. Узлуксиз таълимнинг ҳар бир бўғинида математиканинг ўрни ва аҳамияти беқиёслиги қатор илмий ишлар, маданий мерослардa келтирилган фикрлардан аёндир. Зеро, тез суратларда ривожланаётган, ахборотлашаётган жамиятда самарали ва қулай фаолият юрита оладиган, вазиятни тез таҳлил қилиб, мантиқий фикрлай оладиган шахсни шакллантиришда математик билимлар зарурдир. Умумбашарий маданиятнинг таркибий қисми сифатида математика фанини ўқитишнинг ижтимоий зарурат эканлиги педагогик қарашларда асослаб берилган.

Ўқувчиларнинг математик ривожланиши деганда, элементар математик тасаввурлар ва улар билан боғлиқ мантиқий операцияларнинг шаклланиши натижасида шахснинг билиш фаолиятида содир бўладиган силжишлар ва ўзгаришларни тушунмоқ керак. Математик таълимга берилган бу таъриф ишимизда асос сифатида қабул қилинади. Адабиётлар таҳлили бошланғич синфларда ўқувчиларга математика ўқитишнинг асосий вазифаларини ажратиб олиш имконини бердики, бу вазифалар қуйидагилардан иборат деб белгиланди:

- атроф борлиқнинг фазо, вақт, миқдор билан боғлиқ катталикларида йўналиш топа билишни ривожлантириш;

- математик ривожланиш асосини ташкил қилган фазо ва вақт, тўплам, сон, катталик, шакл тўғрисидаги тасаввурларни шакллантириш ва ривожлантириш;

- санаш, ҳисоблаш, ўлчаш, моделлаштиришда кўникма ва малакаларни шакллантириш ва ривожлантириш;

- умумий ўқув малакларини шакллантириш ва ривожлантириш;

- математикага оид атамаларни ўзлаштириш;

- билишга бўлган қизиқиш ва лаёқатларни, мантиқий тафаккурни ривожлантириш, ўқувчиларнинг умумий интеллектуал ривожлантириш.

Ўтказилаётган тадқиқотда ўқувчиларнинг математик фаолияти болалар томонидан табиий ва ижтимоий олам манзарасини фаол, аввалдан хоҳлаб, онгли ўзлаштириш йўли билан математик тажрибани шакллантириш ва ўзгартиришга қаратилган фаолият сифатида кўриб чиқилади. Ишда ўқувчиларнинг бу фаолияти предметли-амалий, ўйин, меҳнат, нутқий фаолиятга, шунингдек ўқув фаолиятига асосланади. Математик материалдан фойдаланишга асосланган фаолият, бошқа предметларга асосланган материалга нисбатан, номаълумнинг ва олинган натижанинг кўпроқ даражада аниқлиги билан ажралиб туриши тажриба асосида исботланган.

Меъёрда ривожланаётган болаларга нисбатан, ривожланишида муаммолари бўлган болалар бир неча предметлар ўртасидаги майдон-макон муносабатларини аниқлашда қийинчилик сезадилар ва хатто шу йўналишда саволлар берилса, жавоб ҳам бера олмайдилар. Қачонки, шу нарсаларни кўрсатган ҳолда ва имо-ишораларда саволлар берилса, тўғри жавобга яқин маълум бир фикрларни қисқа ва узук-узук тарзда айтиши мумкин. Бу ҳолат мазкур болаларга бошланғич синфларда математика фанини ўргатиш ишлари оддий элементар тушунчаларни ўргатишдан бошланишини асослайди. Мазкур тоифа болаларнинг идроки тор, мақсадга йўналмаган ва фаоллиги паст. Айнан шу ҳолатлар улар томонидан математик билим, кўникма ва малакаларни эгаллашга салбий таъсир қилади. Яъни математик ўқув материални ўзлаштириш ва тушунишга тўсқинлик қилади. Кўплаб ўқувчилар бир турдаги предметларнинг хажмини таққослаш, содда арифметик топшириқларни ечиш шароитида уларни бирлаштира ёки ажрата олмайдилар. Шунинг учун бу болаларга математик ўқув топшириқлари нафақат математика дарсларида, балки бошқа дарсларда, жумладан, “Атрофимиздаги олам”, “Технология” каби фанларни ўқитишда ҳам интегратив тарзда олиб борилиши керак.

Инклюзив таълим шароитида математика ўқитишнинг ўзига хослиги қуйидаги ҳолатлар билан тавсифланади:

-болалар учун барча фанлардан ўқув материалларини тақдим этишнинг оптимал визуализациясига устуворлик беришга эҳтиёжнинг катталиги;

-болаларнинг фанлардан ўзлаштириш имкониятлари нутқий ривожланиш даражасига боғлиқлиги;

-фанлардан бериладиган ўқув топшириқларининг қийинлик даражаларини белгилашда индивидуализацияга таянишнинг муҳим шартлиги;

- ҳар бир ўқув фанни ўқитиш самарадорлиги тайёрлов даври мазмуни ва ташкил этилишига боғлиқлиги;

-математикадан давлат таълим стандартларининг белгиланишида фанлараро интеграциянинг ҳисобга олинганлиги.

Санаб ўтилган жиҳатлар инклюзив таълим жараёнида фанларни ўқитишда амал қилиниши лозим бўлган тамойилларни ҳам белгилаб беради. Бу тамойиллар: шахсга қўналганлик, ҳамкорлик, ўзаро иишонч, дифференциал ёндашув, индивидуал ёндашув ва б . .

Хулоса шуки, инклюзив таълим шароитида ўқитувчиларнинг эътибори болалардаги ривожланиш муаммоларига эмас, балки улардаги ҳар бир интилишга, қобилиятни аниқлашга ва йўналтиришга қаратилиши лозим.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1.Козлова С.А.,КуликоваТ.А. Дошкольная педагогика: Учеб. пособие для студ. сред. пед. учеб. заведений.-3-е изд.,исправ.и доп. - М.:Издательский центр «Академия»,2001. - 416 с.

2. Ф.У.Қодирова. Имконияти чекланган болаларн ўқитиш, тарбиялаш ва ижтиомий ҳаётга тайёрлаш. Тошкент, 2019, “Замин”.

ИНКЛЮЗИВ ТАЪЛИМ ШАРОИТИДА ИНТЕЛЛЕКТИДА ЕНГИЛ МУАММОЛАРИ БЎЛГАН БОЛАЛАР БИЛАН ИШЛАШ

Чирчиқ давлат педагогика университети
“Махсус педагогика” кафедра ўқитувчиси
Ибадуллаева Шарофат Нуруллаевна
Абдукаимов имомбой Абдуғани ўғли
Абдумавлонов Шердор Абдуманноп ўғли
Абдусаматов Отабек Бахтиёр ўғли
Абдусаматов Самандар Зафарович

АННОТАЦИЯ.
Ушбу мақолада енгил даражадаги ақли заиф болаларнинг таълим, тарбияси ва инклюзив таълимда ижтимоий мослашуви масалалари ёритилган. Асосан болаларни илк даврдан ташхис қилиш, ташхис натижалари асосида мос таълимга жалб этиш, сифатли таълим олишини таъминлаш, ижтимоий ҳаётга мослашувини назорат қилишга йўналтирилган комплекс таъсирнинг усуллари санаб ўтилган.

Калит сўзлар: ақли заифлик, ташхис, таълим, дифференциал, усул, восита, интеллект, инновация.

АННОТАЦИЯ
В данной статье освещены вопросы обучения, воспитания и социальной адаптации детей с легкой умственной отсталостью в условиях инклюзивного образования. В основном перечислены методы комплексного воздействия, направленные на диагностику детей с первого периода, привлечение их к соответствующему обучению по результатам диагностики, обеспечение получения ими качественного образования, контроль их адаптации к социальной жизни.

Ключевые слова: умственная отсталость, диагностика, образование, дифференциал, метод, инструмент, интеллект, инновация.

ABSTRACT
This article covers the issues of education, upbringing and social adjustment of children with mild mental retardation in inclusive education. Mainly, the methods of complex influence aimed at diagnosing children from the first period, involving them in appropriate education based on the results of diagnosis, ensuring that they receive quality education, and controlling their adaptation to social life are listed.

Key words: mental retardation, diagnosis, education, differential, method, tool, intelligence, innovation.

Бугунги кунда мамлакатимизда таълимнинг ҳар бир соҳаси каби махсус таълимнинг мазмунини такомиллаштириш, амалиётга инновацион технологияларни жорий этиш масаласи долзарб саналмоқда. Махсус таълим ривожланишида муаммолари бўлган болаларни ўқитиш, тарбиялаш ва ҳаётга тайёрлаш вазифаларини ҳал этади. Маълумки, у ёки бу турдаги ривожланиш муаммоларига эга болалар орасида мия фаолиятида органик бузилишлар оқибатида

интеллектида маълум четга чиқишлар, оғишларга эга болалар мавжуд бўлиб, улар ихтисослаштирилган таълим муассасаларида таълим оладилар. Жаҳон миқёсида бу каби болалар ер юзи аҳолисининг 3 % ини ташкил этади. Ақли заиф болалар ва ўсмирларнинг таълим олиши халқаро ва миллий ҳуқуқий-меъёрларга асосланади.

Мамлакатимизда бола ҳуқуқларини ҳимоя қилишнинг ҳуқуқий асослари яратилиб, бир қатор қонунлар қабул қилинди ва уларда бола ҳуқуқлари кафолатлаб қўйилди. Ўзбекистон Республикаси 1992 йилда “Бола ҳуқуқлари тўғрисида” Конвенция (20 ноябрь 1989 йил БМТ томонидан қабул қилинган)ни ратификация қилди. Ушбу Конвенция БМТнинг болаликни муҳофазалаш борасидаги энг универсал ҳужжатидир. Ўзбекистон Республикасининг “Бола ҳуқуқларининг кафолатлари тўғрисида» ги Қонунида боланинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини таъминлаш, ҳаёти ва соғлиғини муҳофаза қилиш, камситилишига йўл қўймаслик, шаъни ва қадр-қимматини ҳимоя қилиш ва бошқа қатор ижтимоий-сиёсий аҳамиятга эга вазифаларни амалга ошириш кафолатлаб қўйилган. Бундан ташқари охирги 5 йил мобайнида таълимни ислоҳ қилиш, фуқароларнинг бандлигини таъминлаш орқали фаровон ҳаёт кечириш шароитини таъминлаш масаласи давлат сиёсати даражасига кўтарилди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 1 декабрдаги “Ногиронлиги бўлган шахсларни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5270-сонли, 2019 йил 29 апрелдаги “Ўзбекистон Республикаси халқ таълими тизимининг 2030 йилгача ривожлантириш концепциянинг тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5712 сонли фармонлари, 2020 йил 13 октябрдаги “Алоҳида таълим эҳтиёжлари бўлган болаларга таълим-тарбия бериш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4860-сонли қарори ва бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган вазифалар мазмунида аҳолининг эҳтиёжманд қатламларига таълим хизматининг мослашган турларини, дифференциал ёндашувларга асосланган тизимни жорий этиш белгилаб қўйилган. Ўсиб келаётган ёшлар орасида ақли заиф болалар мавжуд бўлиб, уларнинг сифатли таълимга жалб этилиши борасида ҳам қатор ижобий ўзгаришлар юз бермоқда. Ногиронлиги бўлган болаларнинг жамиятнинг кундалик ҳаётига жалб қилиниши ва фаол иштирокини таъминловчи махсус ва инклюзив таълим тизими мазмуни ва шакллари такомиллаштирилмоқда. Натижада имконияти чекланган болаларни илк даврдан ташхис қилиш, ташхис натижалари асосида мос таълимга жалб этиш, сифатли таълим олишини таъминлаш, ижтимоий ҳаётга мослашувини таъминлашга йўналтирилган комплекс таъсирни ўз вақтида мақсадли амалга ошириш учун зарурий инфратузилма ҳамда кадрлар масаласини ҳал этиш имконияти кенгайди. Жумладан, ақли заиф болалар мактаблари учун ўқув режаларни оптималлаштириш, фан дастурларида ўқувчиларнинг ўзлаштириш даражаларини инобатга олувчи вариатив ёндашувларни сингдириш, мазкур тоифа болаларнинг эгаллаши лозим бўлган касб турлари бўйича таълим муассасаларида моддий-техника базани мустаҳкамлаш кабиларни мисол қилишимиз мумкин.

Бугунги кунда ақлий ривожланишида муаммолари бўлган инсонларнинг жамиятнинг турли ижтимоий, иқтисодий ва маданий муносабатларида фаол иштирок этишлари, фаровон турмуш кечиришлари ҳамда турли ҳаётий вазиятларга самарали ижтимоий мослашувини таъминлашда, уларнинг соғлом болалар орасида бўлишининг аҳамияти катталиги боис, айнан инклюзив таълимга бу тоифа болаларни жалб қилиш масаласи ҳам махсус педагогика ва халқ таълими тизими олидида турган долзарб вазифалардан саналмоқда. Ақли заиф болаларнинг педагогик-психологик ва ташкилий жиҳатдан мос таълимга жалб этилиши ҳамда уларда ижтимоий кўникмаларни интенсив ўстириб бориш устида илмий тадқиқот ишлари, лойиҳалар олиб борилмоқда.

Ақли заиф болаларда психик жараёнларнинг кеч ва суст ривожланиши билан боғлиқ равишда уларнинг таълим муддатлари белгиланиб, мос усул ва воситалар танланади. Мазкур йўналишда олиб борилган илмий тадқиқот ишимиз қуйидаги хулосани асослашга ҳизмат қилди. Яъни инклюзив шароитдаги таълим-тарбия ишлари оилаларда ҳам йўлга қўйилган бўлса ва давом эттирилса, ақли заиф бола инклюзив таълимга тайёр бўлади ва у янги муҳитга қийинчиликсиз мослашади. Инклюзив таълимда оилаларнинг иштироки муҳимдир. Чунки о*ила* – ижтимоийлашишнинг етакчи институти, бу орқали ақли заиф бола асосий ижтимоий тасаввурлар, ўзаро муносабатларни эгаллайди, аҳлоқий уқувлар ва кўникмаларни ўзлаштиради. Бу муҳитда соғлом боланинг шаклланишида қатор ҳусусиятлар ақли заиф боланикига нисбатан ўзгачароқдир. Айнан уларда маълум даражада ўз-ўзига баҳо ва мақсад қилиш, унга эришиш учун атрофдагиларга таъсир кўрсатиш кабиларни тақлид орқали ёки катталарнинг кўмагида эгаллаш имкониятига эгадирлар.

Я.А.Коменский “Оналар мактаби” асарида бола атроф оламни бевосита ўрганиши учун сезги ва ҳис қилишга таянсагина билимларни мукаммал ўзлаштиради деган хулосани асослайди.Демак, ақли заиф болага ҳам соғлом болаларга нисбатан чуқурроқ табақалашган ёндашувни амалга оширилса, ўқув материалини бола имкониятларига мос тайёрлаб берилса, албатта у ҳам инклюзив таълимда тўсиқларга учрамайди. Бундан ташқари бу болаларнинг таълимга бўлган эҳтиёжи ҳам мос равишда қондрилиши таъминланади. Болалар эҳтиёжини қондириш орқали таълим жараёнида уларнинг фаол бўлишларига эришиш мумкин. Шундагина барча болалар каби бу болаларда ҳам маънавий-ахлоқий сифатлар ривожланади ҳамда фуқаролик тарбияси, жамиятда ўзини тутиш маданияти шаклланиб боради.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1.Козлова С.А., КуликоваТ.А. Дошкольная педагогика: Учеб. пособие для студ. сред. пед. учеб. заведений.-3-е изд.,исправ.и доп. - М.:Издательскийцентр «Академия»,2001. - 416 с.

2. Махсус педагогика. Тошкент, 2025 йил.

3. Ф.У.Қодирова. Имконияти чекланган болаларн ўқитиш, тарбиялаш ва ижтиомий ҳаётга тайёрлаш. Тошкент, 2019, “Замин”.

ИНКЛЮЗИВ ТАЪЛИМГА ЭШИТИШИДА НУҚСОНИ БЎЛГАН БОЛАЛАРНИ НУТҚ УСТИДА ИШЛАШ ОРҚАЛИ ТАЙЁРЛАШ

Чирчиқ давлат педагогика университети
"Махсус педагогика" кафедра ўқитувчиси
Ибадуллаева Шарофат Нуруллаевна
Ғуломова Шахноза Шавкат қизи
Курсанбоев Самандар Хамиджон ўғли
Маматқулов Нодирбек Икром ўғли
Мингбойев Иброхим Саидали ўғли

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада ривожланишида муаммолари бўлган ёшлар орасида эшитишида муаммолари бўлган кар ва заиф эшитувчи болаларни ўқитишда тизимлиликнинг ўқувчилар тафаккурини ривожлантиришдаги аҳамияти очиб берилган. Хусусан, махсус коррекцион йўналтирилган педагогик жараёнга оид тажрибалар баён этилган.

Калит сўзлар: кар ва заиф эшитувчи, коррекцион таълим, махсус мактаб-интернат, тарбия, тафаккур, тизимлилик, мақсад, вазифа, ўқув фани, ўқитувчи, тажриба.

АННОТАЦИЯ

В данной статье раскрыта важность системности в развитии мышления учащихся при обучении глухих и слабослышащих детей среди молодежи с отклонениями в развитии. В частности, описан опыт, связанный со специальным коррекционно-ориентированным педагогическим процессом.

Ключевые слова: глухие и слабослышащие, коррекционное образование, специальная школа-интернат, воспитание, мышление, системность, цель, миссия, учебный предмет, педагог, опыт.

ABSTRACT

This article reveals the importance of systematicity in the development of students' thinking in the education of deaf and hard-of-hearing children among young people with developmental problems. In particular, the experiences related to the special correction-oriented pedagogical process are described.

Key words: deaf and hard of hearing, correctional education, special boarding school, education, thinking, systematic, goal, mission, academic subject, teacher, experience.

Ривожланишида муаммолари бўлган ёшлар орасида эшитишида муаммолари бўлган кар ва заиф эшитувчи болалар мавжуд бўлиб, улар махсус ўқув режа, ўқув дастурлари асосида мактаб таълимини эгаллайдилар. Улар учун таълим махсус коррекцион йўналтирилган педагогик жараён асосида ташкил этилиб, дефектологик маълумотга эга мутахассислар томонидан олиб борилади.

Кар ва заиф эшитувчи болалар мактабларининг мақсади ўқувчиларнинг сўзлашув нутқини ривожлантириш замирида:

- уларга ўқув режада кўзда тутилган ўқув фанлари бўйича билим, кўникма ва малакалар бериш;

-ўқувчиларни касбга йўналтириш;

-ўқувчиларда ижтимоий-ҳаётий кўникмаларни шакллантиришдан иборатдир.

Кар ва заиф эшитувчи болалар мактаб-интернатларида ўқувчилар фан асосларини ўқув фанлари бўйича дарсларда ўзлаштирсалар, тарбиячи томонидан олиб бориладиган тарбиявий машғулотларда ўзлаштирган билим, кўникма ва малакаларини мустаҳкамлайдилар.

Ўқувчилар нутқи устида тизимли иш олиб борилса, мазкур болалар 5-синфдан умумий таълимга жалб этилиши мумкин. Бироқ амалиётда бу натижага эришишга оид мисоллар мавжуд эмас. Чунки якка машғулотлар мазмунан ҳамда методик жиҳатдан етарлича тўғри ташкил этилмаяпти.

Якка машғулотларнинг вазифалари:

1. Ўқувчиларнинг товушли ҳодисалар ҳақидаги тасаввурларини аниқлаш ва кенгайтириш.
2. Эшитув сезгисини ўқитиш жараёнига ва атрофдагилар билан мулоқотга йўналтириш.
3. Ўқувчилар сўзлашув нутқини ривожлантириш, талаффузини шакллантириш бўйича педагогик жараёнга ҳамкорлик қилиш.

Кар ва заиф эшитувчи болалар махсус мактаб-интернатларида якка машғулотлар 2 та қисмга бўлиниб ташкил этилади.

1-қисмда ўқувчиларнинг талаффузи устида 10 дақиқа, 2-қисмда ўқувчиларнинг қолдиқ эшитиши устида 10 дақиқа иш олиб борилади.

Ўқувчиларнинг нутқий кўникма ва малакаларини ривожлантиришда машғулотлар якка ва ялпи (фронтал) тарзда ташкил этилади.

Эшитишни ривожлантириш бўйича фронтал машғулот турлари:

1.Ўқувчиларда эшитиш қолидиғидан максимал фойдаланиш кўникма ва малакаларини шакллантириш ва мустаҳкамлаш бўйича машғулотлар. Ушбу машғулотларда ўқувчилар товушларнинг манбаини фарқлашга, нутқий материал ҳарактери (ўғил бола товуши, қиз бола товуши, чақириқли нутқ, маслаҳат шаклидаги секин оҳангли нутқ, оталар нутқи, оналар нутқи, ёрдамга чақириш мазмунидаги нутқ...)ни аниқлашга ўргатилади. Машғулот учун ўқув материаллари кундалик ҳаётда кўп учрайдиган нонутқий воситалар (соат, телефон, ошхона жихозлари, машина сигнали ва унга хос бошқа овозлар, қурилиш ишлари овозлари, мусиқа воситалари ва б. .)ни эшиттириб фарқлатишга мўлжалланган мавзулардан ташкил топади.

2.Эшитиш ва эшитиб фарқлашга ўргатувчи аралаш машғулотлар. Ушбу машғулотнинг аралаш деб номланишига сабаб, унинг мазмунини нонутқий товушларни фарқлатишга ундовчи топшириқлардан ташқари ўқув фанларига оид сўзлардан ташкил топган нутқий материал ҳам ташкил этади.

3.Ўқувчиларнинг эшитиш идроки устида олиб борилган коррекцион жараённи мониторинг қилиш, уларнинг эшитиб-фарқлаш бўйича имкониятларини таҳлил қилиш, эшитиш динамикасини таққослашга мўлжалланган назорат машғулотлари. Мазкур машғулотлар одатда ўқув йилининг боши ва охири ҳамда ҳар бир катта бўлимдан сўнг ўтказилади.

Машғулотларда кенг қўлланиладиган иш турлари қуйидагилар:

-товуш манбаини аниқлаш; товуш йўналишини аниқлаш; сўзнинг товуш-бўғин ва ритмик таркибини фақрлаш.

Ўқувчиларга ўқув материаллари 3 усулда берилади: Биринчи усулда нутқий материаллар **фақат қулоққа** (режалаштирилган масофаларда, бу масофалар яқиндан узоққа қараб ўзгариши лозим) берилади. Бу иш усули “**Экрандан**” деб номланади ва натижаларни акс эттиришда ҳам “**Э”** ёки –экран- деб ёзиб борилади. Иккинчи усул нутқий материал **эшитиб-кўришга** берилади. Яъни ўқувчилар ўзига қарата айтилган мурожаатни лабдан ўқиб ҳам эшитиб фарқлашга

берилади. Ушбу усул натижасида олинган натижалар **“ЭК”** деб акс эттирилади. Учинчи усул **кўриш**, яъни сўзлар карточкада ёки унинг маъноси акс этган расм орқали намойиш этилади. Бу усул кар ва заиф эшитувчи болаларда чуқур муаммолар бўлганда ёки боланинг нутқи жуда камбағаллигида фойдаланилади. Ушбу усул аксарият ҳолларда турли эшитиш чегарасига эга ўқувчи учун маъноси тушунарли бўлмаган сўзларни эшиттиришда ҳам қўлланилади. Якка машғулотлар жараёнида асосий омил бўлиб, эшитиш орқали нутқни қабул қилиш имконияти ҳисобланади. Кар болада эшитиш муаммоси чуқурлиги сабабли, у нутқни мустақил эгаллай олмайди. Кар болалар билан олиб бориладиган коррекцион машғулотларда товуш тебранишларини ҳаво-суяк орқали ҳис қилдириб, тери-туюш орқали сездириб фарқлаш устида ишланади. Шунинг учун аксарият ўқитувчилар кар болаларга товушларни қўйишда тери орқали сезиш, ҳавони ҳис қилишга таянадилар. Ҳозирги кунда овоз кучайтириб берувчи аппаратлар мавжуд бўлмаган вазиятларда ҳам кар болаларга товушни сездириш орқали қўйиб, сўз ва жумлаларни лабдан ўқиттирган ҳолда ўқувчиларда нутқий мулоқот кўникмаларини шакллантириш тажрибаси кенг қўлланилмоқда ва бу йўл инклюзив таълимда бу болалар учун муҳим омилдир.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Файзиева У. “Алифбе”, “Талаффуз” дарсликлари. Тошкент, 2020.
2. “Мактаб ва ҳаёт” журнали, 2019 йил, №4 сони.

ИНКЛЮЗИВ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА МАТЕМАТИКА ФАНИНИ ЎҚИТИШ

Чирчиқ давлат педагогика университети
“Махсус педагогика” кафедра ўқитувчиси
Ибадуллаева Шарофат Нуруллаевна
Аллаёрова Дилафруз Хамидовна
Бахрамов Елдор Акрам ўғли
Ергашова Ойдин Баходир қизи
Ерманов Бердиёр Елёр ўғли

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада математика фанини ўқитишда тизимлиликнинг ўқувчилар тафаккурини ривожлантиришдаги аҳамияти очиб берилган. Турли тоифадаги ўқувчиларнинг математик фаолияти болалар томонидан табиий ва ижтимоий олам манзарасини фаол онгли ўзлаштириш йўли билан математик тажрибани шакллантириш ва ўзгартиришга қаратилган фаолият сифатида кўриб чиқилади. Хусусан, математика фанини ўқитишга оид тажрибалар баён этилган.

Калит сўзлар: таълим, тарбия, тафаккур, тизимлилик, мақсад, вазифа, ўқув фани, ўқитувчи, тажриба.

АННОТАЦИЯ

В статье подчеркивается важность систематизации в развитии мышления учащихся при обучении математике. Математическая деятельность учащихся разных категорий рассматривается детьми как деятельность, направленная на формирование и изменение математического опыта посредством активного сознательного освоения ландшафта природного и социального мира. В частности, описан опыт преподавания математики.

Ключевые слова: образование, воспитание, мышление, систематизация, цель, задача, предмет, педагог, опыт.

ABSTRACT.

This article reveals the importance of systematicity in the development of students' thinking in the teaching of mathematics. Mathematical activity of students of different categories is considered by children as an activity aimed at forming and changing mathematical experience through active conscious mastering of the landscape of the natural and social world. In particular, the experiences of teaching mathematics are described.

Key words: education, training, thinking, systematic, purpose, task, subject, teacher, experience.

Бугунги кунда замонавий узлуксиз таълим олдига таълим ва тарбия сифатини ошириш, фан асосларини пухта ўқитишнинг юқори илмий даражасини таъминлаш вазифаси қўйилган. Ушбу вазифа ўқитиш усулларини такомиллаштириш орқали ўқувчиларнинг фанларга оид билимларини ривожлантиришни ҳамда ўзлаштирган билимларни амалиётда самарали қўллаш кўникмаларини интенсив шакллантиришни кўзда тутади. Ҳар қандай педагогик жараён таълим олувчининг шахсий ва ижтимоий эҳтиёжлари кўлами даражасида ташкил этилсагина, у сифатли

таълим мезонларига асосланган ҳисобланади. Сифатли таълим мезонлари умумий ўрта таълимга қанчалик хос бўлса, тўлиқ маънода инклюзив таълимга ҳам даҳлдордир.

Бугунги кунда аксарият умумтаълим мактабларида ривожланишида муаммолари бўлган болаларнинг мавжудлиги сир эмас. Бу каби болалар билан индивидуал ишлаш фидоий ўқитувчилар зиммасига юкланиб келинмоқда. Шу боис 2021-2022 ўқув йилида режалаштирилаётган инклюзив синфларининг очилишига оид маълумотлар биз ўқитувчиларнинг амалиётда эришган ютуқларимизни оммалаштиришга эҳтиёжни юзага келтирди. Қуйида ўқувчиларга математикани ўқитишга оид методик кўрсатмалар санаб ўтилади.

Бизнинг амалиётимизда турли тоифадаги ўқувчиларнинг математик фаолияти болалар томонидан табиий ва ижтимоий олам манзарасини фаол, аввалдан хоҳлаб, онгли ўзлаштириш йўли билан математик тажрибани шакллантириш ва ўзгартиришга қаратилган фаолият сифатида кўриб чиқилади. Ишда ўқувчиларнинг бу фаолияти предметли-амалий, ўйин, меҳнат, нутқий фаолиятга, шунингдек ўқув фаолиятига асосланади. Математик материалдан фойдаланишга асосланган фаолият, бошқа предметларга асосланган материалга нисбатан, номаълумнинг ва олинган натижанинг кўпроқ даражада аниқлиги билан ажралиб туриши тажриба асосида исботланган.

Л.С.Виготский таъкидлаганидек, мактабгача ёшдаги бола учун фикрлаш кўриниб турган алоқаларни англаш демакдир, мактаб ўқувчиси учун эса бу ўз тасаввурларини англашдир. Математик ривожланиш давомида, нафақат муайян тасаввурлар ва тушунчалар шаклланади, балки рамзий (символик) структуралар ҳам шаклланади. Шунинг учун ақлий ривожланиш жараёнига нисбатан ёндашувларни аниқлаштириб, унинг бош йўналишларини ажратиб олиш ғоят муҳим. Тажрибамиз давомида болаларнинг ақлий ривожланишига оид турли назариялар ва тадқиқот дастурларини ўрганиб чиқдик ва бу бизга мазкур психологик-педагогик ҳодисани замонавий ёндашувлар нуқтаи назаридан англаш, бошланғич синфларда турли имкониятли ўқувчиларга математика ўқитиш йўлларини аниқлаб олиш имконини берди. Математикани ўқитиш жараёнида вазифаларнинг муваффақиятли бажарилиши масала шартига киритилган барча ҳолатларни ҳисобга олиш зарурлиги билан боғлиқ. Билиш фаолияти болаларнинг математик таълимида етакчи ўрин тутади. Бунда таълим ва билиш жараёнлари ўзаро ажралмас эканлигига эътибор қаратиш лозим. Билиш фаолияти предметли фаолиятдан натижасининг ўзига хослиги билан ажралиб туради, яъни бунда объект, унинг хусусиятлари, унинг асл борлиғи, моҳияти (объектнинг ўзи ўзгармаган ҳолда) ўз аксини топади. Илмий билишда объект модификацияси объектнинг муҳим хусусиятларини англашнинг асосий шартидир. Бу жараён билим олишнинг ўз воситаларига эга бўлган предметли-билиш фаолиятида амалга оширилади. Янги билимларни олишга бўлган эҳтиёж бундай фаолиятга туртки берувчи мотив вазифасини ўтайди. Янги билимларни олишга бўлган эҳтиёж эса бошқа фаолият (меҳнат, ўйин ва ҳ.к.) эҳтиёжлари эвазига рағбатлантирилади. Билиш фаолияти компонентларининг шаклланишини таҳлил қилиш шуни кўрсатадики, бошланғич синф ўқувчиларда билиш мотиви ва билиш жараёнининг йўналганлиги предметли фаолият эҳтиёжларига боғлиқ бўлса, катта ёшдаги ўқувчиларда билиш фаолияти мустақил мақсад қўйиш жараёни сифатида ажралиб чиқади.

Шундай қилиб, биз ногиронлиги бўлган болалар ривожланишининг цензитив даврида математика таълими нақадар катта ва алоҳида ўрин тутади деб ҳисоблаймиз. Боланинг математика ибтидолари тўғрисидаги тасаввурлари унинг атроф муҳит билан, катталар ва тенгдошлари билан ўзаро мулоқоти жараёнида оладиган тизимли билимлари асосида шаклланади. Тажрибамиз жараёнида биз “бола билимларининг тизимли” тушунчасига таянамиз ҳамда уни тузилиши назарий билимлар тузилишига ўхшаш бўлган билимлар мажмуи сифатида

олиб қараймиз. Тизимли билимлар болаларнинг математик тажрибасида турли функцияларни бажариши мумкин. Ушбу вазифаларни ўқитишнинг вазифаларига боғлаш мумкин:

1) тафаккурнинг тизимлилиги ва изчиллиги;

2) фикрлашнинг аниқлиги;

3) ўзлаштирилган математик билимлар ва ҳаёт ҳодисалари ўртасида алоқа ўрната олиш;

4) сонларни эслаб қолиш, хотира.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, энг муҳими ўқитувчилар ҳар бир болани севиши, унинг имкониятларини пайқаши ва албатта, манбаларни ўрганган ҳолда инклюзив муҳитда дарсларни ташкил этишни ўз олдига мақсад қилиб қўйиши лозим.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1.Козлова С.А., КуликоваТ.А. Дошкольная педагогика: Учеб. пособие для студ. сред. пед. учеб. заведений.-3-е изд.,исправ.и доп. - М.:Издательскийцентр «Академия»,2001. - 416 с.

2. Махсус педагогика. Тошкент, 2025 йил.

3. Ф.У.Қодирова. Имконияти чекланган болаларн ўқитиш, тарбиялаш ва ижтиомий ҳаётга тайёрлаш. Тошкент, 2019, “Замин”.

INKLYUZIV TA'LIM UZLUKSIZLIGINI TA'MINLASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРЕЕМСТВЕННОСТИ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS OF ENSURING THE CONTINUITY OF INCLUSIVE EDUCATION

Sh.X.Kobilova

ChDPU Pedagogika fakulteti, Maxsus pedagogika kafedrasi v.b.dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ORCID ID: https://orcid.org/0009-0001-4091-1840

ANNOTATSIYA

Inklyuziv ta'limning uzluksizligini ta'minlash turli ehtiyojlarga ega bo'lgan o'quvchilarning ta'lim jarayoniga ta'sir etuvchi pedagogik va psixologik omillarni har tomonlama tushunishni talab qiladi. Ushbu tadqiqot O'zbekistonda inklyuziv ta'limning nazariy va amaliy asoslarini o'rganib, uni samarali amalga oshirishning asosiy muammolari va strategiyalarini yoritadi. Ko'p tarmoqli yondashuvdan foydalangan holda tadqiqot pedagogik nazariyalar, psixologik tamoyillar va O'zbekiston ta'lim muassasalarining empirik ma'lumotlarini birlashtiradi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda inklyuziv ta'limning uzluksizligini ta'minlash siyosatni amalga oshirish, o'qituvchilar malakasini oshirish, yordamchi texnologiyalarni integratsiyalash va jamiyatda kengroq xabardorlikni o'z ichiga olgan ko'p qirrali yondashuvni talab qiladi. Bu sa'y-harakatlar chinakam qamrab oluvchi, barqaror va xalqaro standartlarga mos ta'lim tizimini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'lim, pedagogik omillar, psixologik moslashuv, maxsus ta'lim ehtiyojlari, o'qituvchilar malakasini oshirish, O'zbekiston, ta'limning uzluksizligi, qulaylik, yordamchi texnologiya, ijtimoiy inklyuziya.

KIRISH

Inklyuziv ta'lim global ta'lim islohotlarida asosiy paradigma sifatida paydo bo'lib, uning maqsadi barcha o'quvchilar uchun, ularning qobiliyatlari yoki nogironligidan qat'i nazar, teng ta'lim olish imkoniyatlarini ta'minlash. O'zbekistonda inklyuziv ta'limga bo'lgan sadoqat ta'lim sohasida foydalanish imkoniyatlari va sifatini oshirishga qaratilgan 2021-yilga mo'ljallangan "Inklyuziv ta'lim to'g'risida"gi Prezident qarori kabi qonunchilik choralari orqali mustahkamlandi. Bunday tashabbuslarga qaramay, O'zbekistonda inklyuziv ta'limni samarali amalga oshirish, xususan, uning uzluksizligi uchun zarur bo'lgan pedagogik va psixologik omillarni hal qilishda bir qancha muammolarga duch kelmoqda. O'qituvchilarning tayyorgarligi muvaffaqiyatli inklyuziv ta'limning hal qiluvchi omilidir. Oxirgi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda o'qituvchilarning salmoqli qismi inklyuziv pedagogika bo'yicha maxsus tayyorgarlikka ega emas. Misol uchun, Milliy inklyuziv ta'lim markazi (2022) tomonidan o'tkazilgan so'rov shuni ko'rsatdiki, o'qituvchilarning 68 foizi ushbu sohada rasmiy tayyorgarlikdan o'tmagan. Kasbiy rivojlanishdagi bu bo'shliq turli xil ta'lim ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan moslashuvchan o'qitish metodologiyasini qabul qilishga to'sqinlik qiladi. Bundan tashqari, maktablarning atigi 35 foizi inklyuziv amaliyotni qo'llab-quvvatlash uchun zarur

resurslar bilan jihozlangan, bu esa ta’lim infratuzilmasiga katta sarmoya kiritish zarurligini ta’kidlaydi.[1]

Maxsus ta'limga muhtoj o'quvchilarning psixologik farovonligi ta'lim muhitidagi munosabatlar va qo'llab-quvvatlash mexanizmlari bilan chambarchas bog'liq. O‘zbekiston Psixologiya Jamiyati (2023) tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, MTga ega bo‘lgan o‘quvchilarning 54 foizi, birinchi navbatda, tengdoshlarining yetarli darajada integratsiyalashuvi va o‘qituvchilarning cheklangan qo‘llab-quvvatlashi tufayli yakkalanish tuyg‘usini boshdan kechirgan[2].

Xalqaro miqyosda Klaus Verner Wedell kabi olimlar maxsus ta'lim ehtiyojlarini nisbiy, o'quv maqsadlari va atrof-muhit kontekstiga bog'liq holda ko'rish muhimligini ta'kidladilar. Wedell inklyuziyaga xos bo'lgan murakkablik va dilemmalarni tan olgan holda, tashkiliy va pedagogik moslashuvchanlikni maksimal darajada oshiradigan ta'lim qoidalarini himoya qiladi. Xuddi shunday, Melani Killenning tadqiqotlari bolalarning axloqiy rivojlanishida ijtimoiy fikrlash va guruhlararo munosabatlarning rolini ta’kidlab, inklyuziv ta’lim sharoitlari ijtimoiy hamjihatlikni kuchaytirishi va tarafkashliklarni kamaytirishi mumkinligini ko’rsatadi.

Texnologik yutuqlar

Sun'iy intellektning (AI) paydo bo'lishi inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlashning yangi yo'llarini taqdim etadi. AI texnologiyalari ta'lim resurslarini individual ehtiyojlarga moslashtirishi, ma'lumotni soddalashtirishi va aqliy va rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan talabalar uchun ta'lim tajribasini boyitishi mumkin. Biroq, o'qituvchilar AI odamlarning o'zaro ta'sirini va umumiy talabalar orasida empatiyani kamaytirishi mumkinligidan xavotirda. Ushbu tashvishlarni hal qilish texnologik taraqqiyotning inklyuzivlik tamoyillariga mos kelishini ta'minlash uchun o'qituvchilarni har tomonlama tayyorlash va nogironlarni sun'iy intellekt muhokamalariga jalb qilishni talab qiladi.

Tadqiqotning maqsadlari

Ushbu tadqiqot O‘zbekistonda inklyuziv ta’limning uzluksizligiga ta’sir etuvchi pedagogik va psixologik omillarni tahlil qilishga qaratilgan. Tajribaviy ma’lumotlar, nazariy asoslar va ilg‘or jahon amaliyotlarini integratsiyalashgan holda tadqiqot inklyuziv ta’lim samaradorligini oshirish, barcha o‘quvchilarning adolatli va sifatli ta’lim tajribasini olishini ta’minlaydigan strategiyalarni aniqlashga intiladi.

ADABIYOT TAHLILI VA METODIKASI

Inklyuziv ta'lim butun dunyo bo'ylab ta'lim islohotlarining asosiy nuqtasi bo'lib, barcha talabalar, shu jumladan alohida ta'limga muhtojlar uchun teng ta'lim imkoniyatlarini ta'minlashga qaratilgan. O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni amalga oshirishda milliy siyosat va xalqaro majburiyatlar, masalan, YUNESKOning “Ta’lim-2030” Harakat asoslari asosida amalga oshiriladi. Biroq, bu siyosatlarni amalda qo'llash o'qituvchilarning tayyorgarligi, resurslarni taqsimlash va ijtimoiy munosabatlar bilan bog'liq muammolarga duch keladi.[3]

Angliyadagi Ta'lim siyosati instituti (EPI) tomonidan o'tkazilgan tadqiqot o'quvchilar o'rtasida MTni aniqlashda maktab turi, ijtimoiy-iqtisodiy kelib chiqishi va darsga qatnashmaslik kabi omillar ta'sirida sezilarli tafovutlar borligini aniqladi. Ushbu tadqiqot Angliyada joylashgan bo'lsa-da, u O'zbekiston kontekstiga ham tegishli bo'lishi mumkin.

Texnologiyalar, xususan, sun'iy intellekt (AI) integratsiyasi inklyuziv ta'limni yaxshilash uchun potentsial katalizator sifatida aniqlangan. AI ta'lim resurslarini individual ehtiyojlarga moslashtira oladi, ma'lumotni soddalashtiradi va aqliy va rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan o'quvchilar uchun ta'lim tajribasini boyitadi. Biroq, odamlarning o'zaro ta'siri va empatiyasining kamayishi bilan bog'liq tashvishlar o'qituvchilarni har tomonlama tayyorlashni va AIni rivojlantirish bo'yicha munozaralarga nogironlarni jalb qilishni talab qiladi.

Ushbu tadqiqotda O‘zbekistonda inklyuziv ta’limning uzluksizligiga ta’sir etuvchi pedagogik va psixologik omillarni tahlil qilish uchun aralash metodlar qo‘llaniladi. Tadqiqot dizayni so'rovlar va intervyular va fokus-guruhlar orqali sifatli tushunchalar orqali miqdoriy ma'lumotlarni to'plashni birlashtiradi.

Tarkibiy so'rov O'zbekistonning turli mintaqalari bo'ylab 500 nafar o'qituvchining tabaqalashtirilgan tasodifiy tanlab olish usulida o'tkazildi. So'rov quyidagilarni baholashga qaratilgan:

- O'qituvchilarning tayyorgarligi: Inklyuziv ta'lim amaliyotlarida olingan ta'lim darajasini baholash.

- Resurs mavjudligi: Inklyuziv ta'lim uchun o'quv qo'llanmalari va infratuzilmaviy yordam mavjudligini baholash.

- Munosabat omillari: O'qituvchilarning inklyuziv ta'limga bo'lgan munosabatini o'lchash va ularning muammolari.

So'rov ma'lumotlari naqsh va korrelyatsiyalarni aniqlash uchun tavsiflovchi va inferensial statistik ma'lumotlardan foydalangan holda tahlil qilindi. Chuqurroq tushunchaga ega bo‘lish uchun 30 nafar o‘qituvchi, jumladan o‘qituvchilar, maktab ma’muriyatlari va siyosatchilar bilan yarim tizimli suhbatlar o‘tkazildi. Bundan tashqari, ta'lim muhitining inklyuzivligi bo'yicha ularning nuqtai nazarini tushunish uchun o'quvchilarning ota-onalari bilan fokus-guruh muhokamalari o'tkazildi. Sifatli ma'lumotlar takrorlanadigan mavzular va kontekstual nuanslarni aniqlash uchun tematik tahlil qilindi.

Axloqiy ma’qullash O‘zbekiston Milliy universiteti institutsional nazorat kengashidan olingan. Konfidensiallik va tadqiqotdan istalgan bosqichda voz kechish huquqini ta'minlab, barcha ishtirokchilardan xabardor qilingan rozilik ta'minlandi.

Cheklovlar

Tadqiqot potentsial cheklovlarni tan oladi, jumladan:

- Tanlama tarafkashligi: Vakillik namunasini ta’minlashga qaratilgan sa’y-harakatlarga qaramay, ayrim hududlar yoki demografik guruhlar yetarlicha vakil qilinmasligi mumkin.

- O'z-o'zidan hisobot berish tarafdori: Ishtirokchilarning javoblariga, ayniqsa, inklyuziyaga bo'lgan munosabat kabi nozik mavzular bo'yicha ijtimoiy ma'qullik ta'sir qilishi mumkin.

Ushbu cheklovlarni bartaraf etish ma'lumotlar manbalarini uchburchagilash va topilmalarning haqiqiyligi va ishonchliligini oshirish uchun uslubiy qat'iylikni qo'llashni o'z ichiga oladi. Keng qamrovli metodologiyani qo‘llash orqali tadqiqot O‘zbekistonda inklyuziv ta’lim barqarorligiga ta’sir etuvchi omillarni chuqur anglash, shu orqali siyosat va amaliyotni axborotlashtirishga qaratilgan.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari O‘zbekistondagi inklyuziv ta’limning hozirgi holatini yoritib beradi, bunda asosiy e’tibor pedagogik tayyorgarlik, resurslarni taqsimlash va o‘qituvchilar va o‘quvchilarga ta’sir etuvchi psixologik omillarga qaratiladi.

So‘rov ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistondagi pedagoglarning salmoqli qismi inklyuziv ta’lim bo‘yicha cheklangan tajribaga ega. Shunisi e'tiborga loyiqki, o'qituvchilarning 51 foizi o'zlarining nogironligi bo'lsa, o'zlarini "dahshatli his qilishlari"ni aytishdi, bu ularning inklyuziv o'qitishga yondashuviga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan. Ushbu statistik ma'lumotlar pedagogik mahorat va nogironlikka nisbatan munosabatni o'zgartirishga qaratilgan kompleks kasbiy rivojlanish dasturlari zarurligini ta'kidlaydi.

Inklyuziv ta'limni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan resurslarning mavjudligi butun mamlakat bo'ylab bir xilligicha qolmoqda. 2022-yilda O‘zbekiston hukumati imkoniyati cheklangan bolalarni 225 ta asosiy maktabga integratsiyalash orqali muhim qadam tashladi. Ushbu taraqqiyotga qaramay, nomutanosibliklar, ayniqsa, maxsus materiallar va vositalardan foydalanish cheklangan qishloq

joylarida saqlanib qolmoqda. Resurslarning notekis taqsimlanishi inklyuziv ta'lim amaliyotlarini bir xilda qo'llashda qiyinchiliklar tug'diradi. Inklyuziv ta'lim muvaffaqiyatida ta'lim muassasalaridagi psixologik muhit hal qiluvchi rol o'ynaydi. Yuqorida aytib o'tilgan statistik ma'lumotlar, o'qituvchilarning yarmidan ko'pi nogironlik istiqboliga nisbatan salbiy his-tuyg'ularini bildirgan, bu kengroq ijtimoiy stigmani aks ettiradi. Ushbu stigma o'z-o'zini hurmat qilish va maxsus ta'lim ehtiyojlari (MT) bo'lgan talabalarning ijtimoiy integratsiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ushbu psixologik to'siqlarni bartaraf etish barcha talabalar uchun o'rganish uchun qulay muhitni yaratish uchun juda muhimdir.

Hukumat inklyuziv ta’limga intilayotgani siyosiy islohotlar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Masalan, UNICEF bilan hamkorlik inklyuziv ta'lim modellarini ishlab chiqish va o'qituvchilarni tayyorlashga yordam berdi. Biroq, siyosatni amaliyotga tatbiq etish uchun doimiy monitoring, jamoatchilik ishtiroki va barcha hududlarda inklyuziv ta'limning samarali amalga oshirilishini ta'minlash uchun etarli resurslarni ajratish kabi barqaror harakatlar talab etiladi. O'zbekiston inklyuziv ta'lim yo'lida maqtovga sazovor qadamlar qo'ygan bo'lsa-da, xulosalar inklyuziv ta'lim amaliyotlarining uzluksizligi va muvaffaqiyatini ta'minlash uchun doimiy kasbiy rivojlanish, resurslarni adolatli taqsimlash va jamiyatdagi munosabatni o'zgartirish zarurligini ta'kidlaydi.

MUHOKAMA

Mazkur tadqiqot O‘zbekistonda inklyuziv ta’limning uzluksizligiga ta’sir etuvchi pedagogik va psixologik omillarni har tomonlama tahlil qilishni taklif etadi. Topilmalar siyosatni ishlab chiqish va infratuzilmani rivojlantirishda sezilarli yutuqlarga erishilganligini ta'kidlaydi, shu bilan birga inklyuziv amaliyotlarni samarali amalga oshirishga to'sqinlik qilayotgan doimiy muammolarni ta'kidlaydi. O‘zbekiston ilg‘or siyosat va qonunchilik islohotlarini amalga oshirish orqali inklyuziv ta’limga qat’iy intilishini namoyish etdi. Hukumatning 2025 yilga borib maktablarning 51 foizida inklyuziv ta'limni ta'minlash maqsadi bu fidoyiligiga misoldir. Ushbu ulkan maqsad o'quv dasturlarini moslashtirish, o'qituvchilar malakasini oshirish va inklyuziv ta'lim muhitini rivojlantirishni o'z ichiga olgan ko'p qirrali yondashuvni talab qiladi. Biroq, siyosatning amaliyotga muvaffaqiyatli tarjima qilinishi tizimli muammolarni, jumladan, resurslarni taqsimlash va nogironlikka nisbatan jamiyatning munosabatini hal qilishga bog'liq.

Inklyuziv ta’limning samaradorligi o‘qituvchilarning tayyorgarligi bilan uzviy bog‘liq. Ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda o‘qituvchilarning katta qismi inklyuziv pedagogika bo‘yicha maxsus tayyorgarlikka ega emas. Bu kamchilik ustun bo'lgan noto'g'ri qarashlar bilan qo'shiladi, buni o'qituvchilarning 51% ga nisbatan salbiy fikr bildirganliklari dalolat beradi. Ushbu muammolarni yumshatish uchun o'qituvchilarni zarur ko'nikmalar bilan ta'minlaydigan va inklyuzivlikka yordam beradigan munosabat o'zgarishlarini rag'batlantiradigan kompleks kasbiy rivojlanish dasturlarini amalga oshirish zarur. Resurslarning adolatli taqsimlanishi inklyuziv ta’lim barqarorligi uchun muhim ahamiyatga ega. Hukumatning sa'y-harakatlariga qaramay, ayniqsa shahar va qishloq hududlari o'rtasida nomutanosiblik saqlanib qolmoqda. Nogiron bolalarning 225 ta asosiy maktabga integratsiyalashuvi muhim bosqichni ko'rsatadi; biroq, ko'plab muassasalarda ixtisoslashtirilgan materiallar va qulay sharoitlarning yo'qligi alohida ta'limga muhtoj talabalarni (MT) samarali qamrab olishga to'sqinlik qilmoqda. Ushbu infratuzilma kamchiliklarini bartaraf etish strategik investitsiyalar va davlat va xususiy sektorlarni safarbar qilishni talab qiladi.

MTga ega bo'lgan o'quvchilarning psixologik farovonligiga maktab iqlimi va ijtimoiy tushunchalar chuqur ta'sir qiladi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, o'qituvchilarning ko'pchiligi nogironlikka nisbatan salbiy his-tuyg'ularga ega ekanligi talabalarning integratsiyasi va o'zini o'zi qadrlashiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan chuqur stigmalarni aks ettiradi. Inklyuziv madaniyatni rivojlantirish uchun

stereotiplarga qarshi kurashuvchi va o'qituvchilar, talabalar va keng jamoatchilik o'rtasida empatiyani rag'batlantiradigan MTsibilizatsiya dasturlarini amalga oshirish juda muhimdir.

Texnologik innovatsiyalarning paydo bo'lishi inklyuziv ta'lim uchun ham imkoniyatlar, ham muammolarni keltirib chiqaradi. Sun'iy intellekt (AI) turli ehtiyojlarga ega bo'lgan talabalar uchun o'rganish tajribasini shaxsiylashtirish imkoniyatiga ega; ammo, odamlarning o'zaro ta'siri va empatiyasining kamayishi bilan bog'liq tashvishlar ehtiyotkorlik va muvozanatli yondashuvni talab qiladi. AI ilovalarining inklyuziv tamoyillarga mos kelishini ta'minlash manfaatdor tomonlarni, jumladan, nogironlarni loyihalash va amalga oshirish jarayonlariga faol jalb qilishni talab qiladi.

Ushbu tadqiqot natijalari inklyuziv ta'lim tashabbuslarining rivojlanishini kuzatish uchun doimiy izlanishlar zarurligini ta'kidlaydi. O'qituvchilarni tayyorlash dasturlari, resurslarni taqsimlash strategiyalari va texnologik aralashuvlarning ta'sirini o'rganuvchi uzunlamasına tadqiqotlar samarali amaliyotlar haqida qimmatli tushunchalar beradi. Bundan tashqari, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish ilg‘or tajriba almashishni osonlashtirishi va O‘zbekiston ta’lim tizimining barcha o‘quvchilarni qamrab olish salohiyatini oshirishi mumkin. O‘zbekiston inklyuziv ta’limni amalga oshirish yo‘lida tahsinga loyiq yutuqlarga erishgan bo‘lsa-da, mavjud muammolarni yengib o‘tish uchun barqaror sa’y-harakatlar talab etiladi. Inklyuziv ta’lim barcha talabalar uchun real voqelikka aylanishini ta’minlash uchun siyosat islohoti, kasbiy rivojlanish, resurs investitsiyalari, jamiyatni sezgirlashtirish va texnologik innovatsiyalarni o‘zida mujassam etgan yaxlit yondashuv zarur.

XULOSA

Tadqiqotda O‘zbekistonda inklyuziv ta’limning uzluksizligini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan pedagogik va psixologik omillar yoritilgan. Siyosat islohotlari va tarkibiy o'zgarishlar orqali sezilarli yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, o'qituvchilarning tayyorgarligi, resurslarni taqsimlash, jamiyatga munosabat va texnologik integratsiya kabi doimiy muammolarga ko'proq e'tibor berish kerak.

Tadqiqot shuni ta'kidlaydiki, o'qituvchilar malakasini oshirish inklyuziv ta'limni muvaffaqiyatli amalga oshirishda hal qiluvchi omil bo'lib qolmoqda. Natijalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistondagi o'qituvchilarning katta qismi maxsus ta'limga muhtoj talabalarni (MT) joylashtirish uchun zarur tajribaga ega emas. Shunday qilib, o'qituvchilarni inklyuziv pedagogika bo'yicha ham nazariy bilimlar, ham amaliy ko'nikmalar bilan qurollantirish uchun kompleks kasbiy rivojlanish dasturlariga ustuvor ahamiyat berish kerak. Bundan tashqari, resurslarning mavjudligi va infratuzilmadagi nomutanosiblik inklyuziv ta’limni keng joriy etishga to‘sqinlik qilishda davom etmoqda. Shahar joylari yaxshi jihozlangan maktablardan foyda ko'rsa-da, qishloq hududlarida ko'pincha zarur materiallar va jihozlar etishmaydi. Ushbu nomutanosibliklarni bartaraf etish barcha o'quvchilar uchun sifatli ta'lim olishdan teng foydalanishni ta'minlash uchun ham davlat, ham xususiy sektorlardan maqsadli investitsiyalarni talab qiladi.

Tadqiqot shuningdek, ta'lim muhitining inklyuzivligini shakllantirishda ijtimoiy munosabatlarning rolini ta'kidlaydi. Nogironlik haqidagi salbiy tasavvurlar, ayniqsa o'qituvchilar orasida, o'quvchilarning integratsiyasi va o'zini o'zi qadrlashiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, jamiyatda yanada inklyuziv fikrlashni rivojlantirish uchun milliy targ'ibot kampaniyalari va MTsibilizatsiya dasturlari amalga oshirilishi kerak.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekistonda inklyuziv ta'limni to'liq amalga oshirishga erishish yaxlit va barqaror harakatni talab qiladi. Inklyuziv ta’lim nafaqat nazariy intilish, balki barcha talabalar uchun amaliy va barqaror voqelik bo‘lishini ta’minlash uchun davlat siyosati, o‘qituvchilar malakasini oshirish, jamoatchilik ishtiroki va texnologik innovatsiyalarni o‘z ichiga olgan ko‘p tomonlama yondashuv zarur. Kelgusi tadqiqotlar mavjud strategiyalar samaradorligini baholashni davom ettirishi va butun mamlakat bo'ylab inklyuziv ta'limni yanada mustahkamlash uchun yangi metodologiyalarni o'rganishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayeva, N. (2021). **Inkluziv ta’limning nazariy va amaliy asoslari**. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti.

2. Bektoshov, A., & Xudoyberdiyev, S. (2020). **Maxsus pedagogika: Inkluziv ta’lim tamoyillari**. Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti Nashriyoti.

3. Ergashev, D. (2022). **O‘zbekistonda inkluziv ta’lim: Muammolar va istiqbollar**. *Pedagogik innovatsiyalar jurnali*, 4(2), 45-58.

4. Karimova, G. (2019). **Psixologik jihatdan moslashtirilgan ta’lim muhitini yaratish masalalari**. *O‘zbekiston Pedagogika Ilmiy Jurnali*, 3(1), 23-36.

5. O‘zbekiston Respublikasi Xalq Ta’limi Vazirligi. (2021). **O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi**. Toshkent: XTV.

6. Rashidov, U. (2020). **Zamonaviy inkluziv ta’limda pedagogik yondashuvlar**. *O‘zbekiston Pedagogika Ilmiy Jurnali*, 5(3), 67-79.

7. Saidov, B., & To‘rayev, N. (2021). **Maxsus ehtiyojga ega bolalar uchun ta’lim muhitini moslashtirish**. *Ta’lim va taraqqiyot*, 2(4), 88-102.

8. Tursunova, M. (2018). **Inkluziv ta’limning psixologik asoslari**. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.

9. UNESCO O‘zbekiston bo‘limi. (2022). **O‘zbekistonda ta’lim tizimida inklyuziya: tahlil va istiqbollar**. Toshkent: UNESCO.

10. Yuldasheva, S. (2023). **Maktabgacha va maktab ta’limida inklyuziv metodlarni joriy etish tajribasi**. *Ilmiy tadqiqotlar jurnali*, 6(1), 55-70.

ALOHIDA YORDAMGA MUHTOJ BOLALARNI INKLYUZIV TA'LIMDA OQITISH VA TARBIYALASHNING MUAMMOLARI

Tag'onova Guliza Bayramaliyevna
CHDPU, Maxsus pedagogika kafedrasi o'qituvchisi.
https://orcid.org/0009-0005-8161-5975
Mo'yidinova Zuhraxon, Safarboyeva Mastura, Mahmudova Sevinch
Maxsus pedagogika: Tiflopedagogika yo'nalishi 24.3 guruh talabasi

ANNOTATSIYA

Alohida ta'limga muhtoj bolalarga ta'lim tarbiya berish, ularni maktablarga jalb qilish, jamiyatga qo'shish masalasi bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Bugungi kunda yurtimizda alohida yordamga muhtoj bolalarning rivojlanish darajasi, imkoniyatlari, xususiyatlari va qobiliyatlariga ko'ra maxsus maktab, maktab internatlari yoki umumiy o'rta ta'lim tizimida ta'limni amalga oshirish maqsadida inklyuziv ta'lim tizimi amalga oshirilmoqda.

Kalit so'zlar: Ta'lim, alohida ta'limga muhtoj bola, maxsus ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, inklyuziv ta'lim, ijtimoiy ajratish, maktab, yaxlit, jins, maaktabgacha ta'lim muassasalari.

АННОТАЦИЯ

Вопрос обучения и воспитания детей с особыми образовательными потребностями, их привлечения в школы и интеграции в общество становится одним из самых актуальных вопросов сегодня. Сегодня в нашей стране внедряется система инклюзивного образования с целью осуществления образования в специальных школах, школах-интернатах или системе общего среднего образования в соответствии с уровнем развития, возможностями, особенностями и способностями детей, нуждающихся в особой помощи.

Ключевые слова: Образование, ребенок с особыми образовательными потребностями, специальное образование, общее среднее образование, инклюзивное образование, социальная изоляция, школа, целостный, пол, дошкольные образовательные учреждения.

ABSTRACT

The issue of teaching and educating children with special educational needs, their involvement in schools, and integration into society is becoming one of the most pressing issues today. Today, our country is implementing an inclusive education system aimed at implementing education in special schools, boarding schools, or general secondary education systems in accordance with the development level, capabilities, characteristics, and abilities of children in need of special assistance.

Keywords: Education, child with special educational needs, special education, general secondary education, inclusive education, social isolation, school, integral, gender, preschool educational institutions.

KIRISH

Sharq mutafakkirlari tomonidan XI–XII asrlardayoq milliy pedagogikaning ilmiy didaktik asoslari yaratildi, shaxsning biologik va ijtimoiy mavjudot ekanligining mohiyati tadqiq etildi hamda asoslab berildi. Bunga ayniqsa o'rta asrning buyuk mutafakkirlari Abu Rayon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Abu

Ali Ibn Sino, Alisher Navoiyning ilmiy ijodiy faoliyatlarining ijodiy ta'siri tufayli erishildi. Sharqning buyuk mutafakkir bobokalonlari ilm rivojining hech bir tomonini chetlab o'tmaganlar. Jumladan ularning ta'lim tarbiyaga oid qarashlari bugungi kunda ham pedagogikaning boy metodologik asosi bo'lib kelmoqda. Ularning nuqtai nazaridan maxsus pedagogikaga oid fikrlar ham chetlab o'tmagan.

1970-1980 yillarga kelib jahon miqyosida insonparvarlik va kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik g'oyasining ilgari surilishi alohida yordamga muhtoj bolalarga e'tiborning yanada yaxshilanishiga olib keldi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYALAR

Mazkur maqolani tahlil qilish jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan keng foydalanildi. Inklyuziv ta'limda nogiron bollalarni o'qitish va tarbiyalash muammolari haqida qisqacha tahlil olib borildi. Maxsus maktablarida inklyuziv ta`limni joriy etishning pedagogik psixologik tomonlarini ishlab chiqish MDX davlatlari olimlaridan L.S.Vigoskiy, R.M.Boskis, K.G.Korovin, V.I. N.N.Malofeev, N.G.Morozova, B.D.Korsunskaya, M.K.Sheremet, N.D.Shmatko kabi rus olimlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan. Babanskaya I.V., Balanova T.A., Shistyerova T.A., Bitova A.L., Fadina A.K., Garagozova A.E. va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida Rossiya va boshqa chet el mamlakatlarida inklyuziv ta'limni amalga oshirishning mintaqaviy tajribalari tadqiq etilgan. Azarova S.V, Anoxina E.A., Bukovskaya E.V., Volkova S.A., Paleskaya A.N., Polyanskaya E.S., Gorinenko E.N., Nekrilova M.I. va boshqalarning ilmiy qarashlarida umumiy va professional ta'limda inklyuziv ta'limning xavfsiz muhitini yaratish yuzasidan ilg'or ilmiy qarashlar ilgari surilgan. O'qituvchining faoliyatini samarali tashkil etish orqali inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirish, bu jarayonga ta'sir etuvchi omillar va tamoyillarning imkoniyatlari bo'yicha N.P. Valchuk, I.K.Vorobeva, I.Kukushina, T. Korolevskaya kabi MDH olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Inklyuziv ta'lim muammo va istiqbollarini tadqiq qilish, uning mazmun-mohiyati, vazifalari, tamoyillari yo'nalishida Shomaxmudova R. Sh, U.Yu.Fayzieva, F.U.Qodirova, R.A Suleymenova, G.D Xakimdjanovalar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Inklyuziv ta'lim tizimida quyidagi maqsad va vazifalarning hal etilishi talab etiladi:

- ta'lim muassasasida alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalar va o'smirlarning ta'lim olishlari uchun zaruriy psixologik-pedagogik, korreksion sharoitlarni yaratish, ularning imkoniyatiga yo'naltirilgan umumta'lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish orqali ruxiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirish;

- o'quvchilarning ta'limdagi tenglik huquqini kafolatlash;

- jamiyatning va oilaning faol ishtirokida alohida yordamga muhtoj bo'lgan va sog'lom bolalarning extiyojlarini qondirish, ijtimoiy hayotga erta moslashtirish;

- alohida yordamga muhtoj bolalar va o'smirlarni oilalaridan ajratmagan holda yashash huquqini ro'yobga chiqarish;

- jamiyatda alohida yordamga muhtoj bolalar va o'smirlarga nisbatan do'stona va mexr-muxabbatli munosabatni shakllantirishdir.

Inklyuziv ta'limning muammolari.

- Ko'plab davlatlarda inklyuziv ta'limni joriy etish bo'yicha davlat normativ xujjatlarida qayd qilinmaganligi;
- Alohida yordamga muhtoj bolalarga nisbatan salbiy munosabat;
- Alohida yordamga muhtoj bolalarning hamjamiyatda ko'rinmaslik muammosi;
- Alohida yordamga muhtoj bolalarning maktabda ko'rinmaslik muammosi;
- Moddiy mablag' muammolari;

- Ta’lim muassasalarini moslashtirish;
- Sinfda o‘quvchilar sonining ko‘pligi;
- Kambag‘allik;
- Jinsiy tafovutlarga qarab kamsitish;
- Imkoniyati cheklangan bolalarning boshqalarga qaramligi;
- Favqulodda vaziyatlar, mojarolar, qochoqlar;
- Kadrlar masalasidagi muammolar.

Haqli savol tug‘iladi, nima uchun imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'lim tizimiga jalb etish kerak? Yuqorida keltirilgan dalillarni hal etib inklyuziv ta'lim tizimiga o‘tishga qanday zaruriyat bor?

Darhaqiqat, bu ta’lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish oson kechmaydi. Ammo bu ta’lim tizimining nafli jixati juda ko‘p ular sirasiga qu‘yidagilar kiradi:

- Inklyuziv ta’lim qashshoqlik iskanjasidan qutilishga imkon beradi;
- Inklyuziv ta'lim barcha uchun ta'lim sifatini yaxshilaydi;
- Kamsitishlarni oldini oladi;

Inklyuziv ta’limning prinsiplari: 1. Insonning qadr qimmati, uning qobiliyati va yutug‘iga bog‘liq emas. 2. Har bir inson o‘ylash va xis qilish qobiliyatiga ega. 3. Har bir kishi eshitish va muloqot qilish qobiliyatiga ega. 4. Har bir kishi bir-biriga muxtoj. 5. Shaxsning to‘liq va haqiqiy ta’lim olishi faqat real hamkorlikda amalga oshadi. 6. Hamma kishilar o‘z tengdoshlarini qo‘llab quvvatlashga muxtoj. 7. Hamma ta’lim oluvchilarni yutuqga erishishiga ularning nimadir qila olmasligi emas, balki nimanidir qila olishidir. 8. Hamkorlik qilish kishi hayotini har tomonlama kuchaytiradi.

Inklyuziv ta’lim tizimi quyidagi ta’lim muassasalarni o‘z ichiga oladi: maktabgacha umuta’lim, umu o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim. Bu ta’lim muassasalarning maqsadi bolalarning ta’lim olishi va kasb-xunarga tayyorlashda ularning o‘rtasidagi to‘siqlikni bartaraf etib ochiq ta’lim muhitini yaratishdan iborat. Umumta'lim maktablarda alohida dastur va darsliklardan foydalanish imkoniyati bo‘lmaydi. Inklyuziv ta’lim tizimi integratsiyalashgan ta’lim tizimidan uzinig mazmun – moxiyati, maqsadi, vazifalari va harakat dasturi bilan farqlanadi.

Bolaning tarbiya va o‘quv faoliyatida orqada qolishi psixik funksiyalarni o‘zlashtirmaganligi natijasidir. Masalan, bolaning kiyim kiyishida ketma-ketlikning buzilishi uning xotirasi zaifligidan emas, balki ushbu jarayonni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan malakalarni egallamaganligi tufayli ro‘y beradi. Bunday psixik muammoni psixoreksiyalash usullari bilan birga bolaga kiyimlarni to‘g‘ri ketmaketlikda kiyish tasvirlangan rasmlar taqdim etilishi mumkin. L.S.Vigotskiy ijtimoiy muhit sog‘ligi imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun birinchi darajali ahamiyatga egadir, degan g‘oyani ilgari suradi. Xuddi shuningdek, u imkoniyati cheklangan bolalarning rivojlanishini ildizi yomon o‘simlikka o‘xshatadi. «Uning ingichkagina

ildizlari oziqlantiruvchi tuproqning qatlamlari va shakliga mos kelmaydi. Ular o‘z o‘zicha tuproqning oziqa beruvchi qatlamlariga yetib borolmay, quruq va zaharli qatlamga kirib qoladi. Bunday o‘simlik muvofiq sharoitlarda gullashi mumkin edi, biroq odatdagi sharoitda taraqqiyotning cho‘qqisiga yetmasdan, bujmayib so‘lib qoldi», deydi. Binobarin, ta’lim-tarbiya tizimini har bir millat va elatning o‘ziga xos tomonlari, milliy an’analari, urf-odatlari, davlatning maqsad-vazifalari hamda tarbiyalanuvchilarning ruhiy va jismoniy rivojlanishidagi xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Imkoniyati cheklangan bolalarda kattalar bolaning rayiga, mustaqil bo‘lishiga qarshi turmasdan, mumkin qadar istagi,

intilishiga yordam bersalar, uning shaxsini shakllantirish jarayonidagi qiyinchiliklar o‘z-o‘zidan barham topadi. Imkoniyati cheklangan bolada o‘jarlik, qaysarlik, itoatsizlik xususiyatlari paydo bo‘lishi bu kattalarning haddan tashqari paypaslaganliklari oqibatida vujudga keladi. Psixolog olima L.M.Krijanovskaya imkoniyati cheklangan bolalarning inklyuziv ta’lim tizimida ta’lim-tarbiya berishda

psixologik korreksiyalash metodlari orqali tarbiyalash yo‘llarini keng yoritib bergan. Uning fikricha, inklyuziv ta’lim tizimida ta’lim-tarbiya ishlarining samarali bo‘lishi, yaxshi yutuqlarga erishishda maktab psixologi, pedagog, tarbiyachi va ota-onalar hamkorligi uzviy bog‘langan bo‘lishi lozim. Inklyuziv ta’lim tizimida jahon miqyosida amaliyotga joriy qilish borasida bugungi kunga qadar ham juda ko’plab muammolar va to’siqlar mavjud. Ular

jumlasiga quyidagilar kiradi: Salbiy munosabat; Hamjamiyatda ko’rinmaslik; Moddiy mablag’ muammolari; Jismoniy moslashtirish; Sinfdagi o’quvchilar soni; Qaramlik; Jinsiy belgilarga qarab kamsitish; Favqulodda vaziyatlar, mojorolar va qochoqlar. Salbiy munosabat-maxsus ehtiyojli bolalarning umumta’lim muasasalari tizimida ta’lim tarbiya olishlari uchun eng katta to‘siq bo‘lsa kerak. Salbiy munosabat muammosining mazmuni shundaki, ota-onalar, hamjamiyat a’zolari, o‘qituvchilar, umumta’lim muassasalari hodimlari, boshqaruv organlaridagi hatto maxsus ehtiyojli bolalrning o‘zlaridagi umumta’lim muassasalarida ta’lim tarbiya olishlariga nisbatan qashiliklari va buni istamasliklaridir. Bunga sabab nogironlarga nisbatan insonlardagi noto‘g’ri fikr, ular to‘g‘risida ma’lumotlarning yetishmasligi, nogiron bolalarning chegaralangan muhitda o‘sganligi va boshqalardir. Hamjamiyatda ko‘rinmaslik muammosining mazmuni shundaki, ko‘pincha ko‘plab maxsus ehtiyojli bolalar otaonalar tomonidan qattiq bekitiladi. Ularni uyga qamab hech kimga ko‘rsatmaydilar, ro‘yhatga olish jarayonida nogiron bolasi to‘g‘risida hech bir ma’lumot berilmaydi. Natijada ko‘plab nogiron bolalar hamjamiyatda ishtirok etishdan mahrum bo‘ladilar. Ular to‘g‘risida hech bir ma’lumotni bo‘lmasligi ta’lim-tarbiya muassasalariga qatnamasliklariga olib keladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Inklyuziv ta’limni amaliyotga joriy etish ustida olib borilgan tajribalardan shu narsa o‘z isbotini topdiki, har qanday imkoniyati cheklangan bolalarni nuqsonini ilk yoshdan o‘z vaqtida aniqlab mutaxassislarga murojaat qilinsa va maktabga tayyorgarlik ishi o‘z vaqtida olib borilsa albatta ko‘zlangan maqsadga erishish mumkin. Ya’ni inklyuziv ta’limning samarasi yuqori darajada bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Выготский Л.С. Дефект и сверхкомпенсация. // «Проблема дефектологии».
М., 1996. –С. 42.
2. Крыжановская Л.М. Психологическая коррекция в условиях инклюзивного образования. Пособие для психологов и педагогов. – М.: «Владос», 2013. 83-б.
3. Maktablar hamma uchun – Save the children – 2002y. 20\23 bet
4. Pulatov Sh.N.Sankhya-ancient Indian philosophical school. //PUSTAK BHARATI RESEARCH JOURNAL// JAN-June. ISSUE Toronto, Canada. No: 1-2, 2020.

AQLIY RIVOJLANISHIDA KAMCHILIGI BO‘LGAN BOLALARNI INKLYUZIV TA’LIMGA JALB QILISHDA YARATILADIGAN SHART SHAROITLAR

Tag‘onova Guliza Bayramaliyevna
CHDPU, Maxsus pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi.
https://orcid.org/0009-0005-8161-5975
Yusufboyeva Durdona, Dushanova Fotima, Bozorova Farg‘unda
O‘zbek tili va adabiyotiyoti yo‘nalishi 23/3- guruh

ANNOTATSIYA

Inklyuziv iborasi yurtimizga yaqin yillarda kirib kelganligiga qaramay hozirgi kunda maktabgacha ta’lim va maktab ta’limi muasassalarida keng qo‘llanilib amaliyotga tadbiq qilinib kelinmoqda. Ko‘plab iqtidori, aqli bilan barchani lol qoldira oladigan bolalarni ijtimoiylashuvda kelib chiqayotgan muammolari tufayli yolg‘izlikda hayotlarini behuda sarflaganlarini ko‘rmoqdamiz. Aynan shu muammoni hal qilish biz pedagog va psixologlarning oliy maqsadimiz bo‘lishi kerak. Yurtimiz kelajagini yoshlar qo‘lida ekanligini unutmay, vatanimizda tug‘ilib ulg‘ayib kelayotgan barcha yoshlarni jamiyatga tayyorlashni vazifamiz ekanligini unutmaylik.

Kalit so’zlar: Inklyuziv ta’lim, alohida yordamga muhtoj bola, aqliy rivojlanishi sustlashgan bola, inklyuziv ta’limga jalb qilish.

АННОТАЦИЯ

Несмотря на то, что термин "инклюзив" вошел в нашу страну в последние годы, в настоящее время он широко используется в дошкольных и школьных образовательных учреждениях и внедряется в практику. Мы видим, как многие дети, которые могут поразить всех своими талантами и интеллектом, тратят свои жизни в одиночестве из-за проблем, возникающих в процессе социализации. Решение именно этой проблемы должно быть нашей высшей целью как педагогов и психологов. Давайте не будем забывать, что будущее нашей страны в руках молодежи, и что наша задача - подготовить всех молодых людей, которые родились и растут на нашей родине, к обществу.

Ключевые слова: Инклюзивное образование, ребенок, нуждающийся в особой помощи, ребенок с задержкой умственного развития, вовлечение в инклюзивное образование.

ABSTRACT

Despite the fact that the term "inclusiveness" entered our country in recent years, it is currently widely used in preschool and school educational institutions and is being implemented in practice. We see how many children, who can amaze everyone with their talents and intellect, spend their lives alone due to problems arising in the process of socialization. Solving this very problem should be our highest goal as teachers and psychologists. Let us not forget that the future of our country is in the hands of young people, and our task is to prepare all the young people who were born and grow up in our homeland for society.

Keywords: Inclusive education, child in need of special assistance, child with delayed mental development, involvement in inclusive education.

KIRISH

Respublikamizda olib borilayotgan barcha islohotlarning maqsadi davlatimz kelajagiga mustahkam poydevar qurishdan iborat. Bu poydevor sog‘lom, yetuk va barkamol shaxslarni tarbiyalab voyaga yetkazish natijasida yaratiladi. Shuning uchun ham mustaqilligimizning dastlabki yillarida «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va «Ta’lim to’g’risida»gi Qonun qabul qilindi. 2020-yilda yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risidagi qonun” va bosh qomusimiz Konstitutsiyada ham alohida yordamga muhtoj bo‘lgan bolalarni inklyuziv ta’limda ta’lim –tarbiya olishlari huquqiy jihatdan mustahkamlanib qo‘yildi. Ta’lim sohasidagi bu islohotlar bugungi kunda o’z samarasini bermoqda. Mazkur huquqiy me’yoriy hujjatlar doirasi maxsus ehtiyojli bolar ta’lim-tarbiyasini ham qamrab olgan. Maxsus ehtiyojli bolalar ta’lim tarbiyasi masalasi bugungi kunda eng dolzarb masalalar sirasiga aylanib bormokda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bugungi kunda yurtimizda alohida yordamga muhtoj bolalarni ta’lim-tarbiya olishlari uchun ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 4860-sonli “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori va Vazirlar mahkamasining 638-sonli qarori alohida yordamga muhtoj bolalarni ta’lim olishini qonunan mustahkamlab berdi. Ushbu qarorga ko‘ra inklyuziv ta’lim sinflari va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarga quyidagi toifadagi bolalar qabul qilinadi:

- eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar (eshitish qobiliyatining yo‘qotilishi 60 Db gachabo‘lgan rivojlanishida qo‘shimcha buzilishlar bo‘lmagan bolalar);
- ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar (ko‘rish qobiliyatining buzilishi 0,1 gacha bo‘lgan rivojlanishida qo‘shimcha buzilishlar bo‘lmagan bolalar);
- somatik kasalliklar (psixofizik va nutqning rivojlanish darajasi yoshiga mos kelmaydigan bolalar);
- nutqida og‘ir nuqsonlar bo‘lgan bolalar (alaliya, dislaliya, afaziya, rinolaliya, dizartriya, psixik-nutqiy rivojidagi sustlik, duduqlanish);
- tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo‘lgan bolalar (bolalar tserebral falaji, skolioz, poliomiyelit, miopatiya, osteomiyelit, amputatsiya, bo‘y o‘sishining yetishmovchiligi — pakanalik);
- aqliy rivojlanishi saqlangan holda tayanch-harakat tizimidagi buzilishi bo‘lgan bolalar;
- aqliy rivojlanishi saqlangan yoki ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar (o‘zi harakat qila oladigan yoki qo‘shimcha moslamalar va nogironlik aravachasida harakatlana oladigan bolalar tserebral falaji);
- intellektual rivojlanishning potensial buzilmagan imkoniyatlari bilan ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar;
- hulq-atvor va ruhiyatning qo‘pol buzilishlarisiz autistik spektri buzilgan bolalar;
- intellektual rivojlanishi saqlanib qolingan, tutqanoq holatida bo‘lgan bolalar (agar bola antikonvulsant dorisini qabul qilganda, tutqanoq 1 oyda 1 martadan oshmagan paytda).

Inklyuziv ta’lim maxsus ehtiyojli bolalarga doimo o’z oilasi mahallasi va qarindosh-urug’lari davrasida bo’lishga imkon beradi. Bolalarni oilasidan, uyidan uzoqda bo’lgan iternatlarga joylashtirish ularning uyi, oilasi hamjamiyat hayotiga ishtirok etish huquqiga to’sqinlik qiladi. Uyidan, oilasidan, ota-ona mehridan uzoqda bo’lgan bola diydasi qattiq bo’lib o’sadi. Chunki oila tarbiyaning bosh markazidir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Aqliy rivojlanishi sustlashgan bolalarning yengil darajalari inklyuziv sinflarga jalb qilinar ekan sinfda ular uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib berish, sinfdagi tengdoshlarining sog‘lom munosabatini ta’minlash lozimdir. Jumladan:

- Aqliy rivojlanishida muammosi bo‘lgan bolalar diqqatini tarqoqligini xisobga olib partada ortiqcha narsalar bo‘lmasligi kerak;

- Aqliy rivojlanishida muammosi bo‘lgan bolalar tez charchab qolishini xisoa olgan xolda, ular harakatda bo‘lish imkonini beruvchi topshiriqlar berib turish («daftarlarni yig‘», «doskani tozala» kabi);

- Xar bir darsda jismoniy daqiqa o‘tkazishni unutmaslik;

- Aqliy rivojlanishida muammosi bo‘lgan bolalarni sinfdagi eng a’lochi o‘quvchi bilan birga o‘tkazish;

- O‘qituvchi aniq talaffuz va baland ovozda lekin baqirmasdan gapirishi tavsiya etiladi.

- Darsda asosiy ko‘rgazmalilikka tayanish;

- Aqliy rivojlanishida muammosi bo‘lgan bolaga topshiriklarni kismlarga bulib berish;

- Bolani rag‘batlantirishni unutmaslik;

- Bola topshiriqni bajarayotganda unga qo‘shimcha yoki amaliy ko‘rsatma ham berish;

- O‘yin metodlariga maksimal darajada tayanish;

- Sinf jamoasiga aqliy rivojlanishida muammosi bo‘lgan bolaning ham xissasi qo‘shiladigan topshiriqlar berish;

- Doimiy ravishda aqliy rivojlanishida muammosi bo‘lgan bolani nazorat ostiga olish.

Inklyuziv ta’lim, bolalarga o‘zaro muloqot qilish, ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish va o‘zlarini qabul qilish imkoniyatini beradi. Yengil darajadagi aqli zaif bolalar uchun bu juda muhim, chunki ular ko‘pincha ijtimoiy izolyatsiya va kamchiliklarni his qiladilar. Inklyuziv muhitda o‘qish, ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi va ijtimoiy adaptatsiyasini yaxshilaydi.

Natijada ular:

1. Akademik muvaffaqiyat: Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv sinflarda o‘qiyotgan yengil darajadagi aqli zaif bolalar, an’anaviy sinflarda o‘qiyotganlarga qaraganda ko‘proq akademik muvaffaqiyatga erishadilar. Bu, ularning qo‘llab-quvvatlanishi va o‘zaro yordam olish imkoniyatidan kelib chiqadi.

2. Ijtimoiy ko‘nikmalar: Inklyuziv sinflarda o‘qish, bolalarning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Boshqa bolalar bilan birga o‘qish orqali, yengil darajadagi aqli zaif bolalar do‘stlik, muloqot va hamkorlik kabi ko‘nikmalarni o‘zlashtiradilar.

3. O‘ziga bo‘lgan ishonch: Inklyuziv muhitda o‘qiyotgan bolalar o‘zlariga bo‘lgan ishonchini oshiradilar. Ular o‘zlarini qabul qilingan va qadrlangan his qiladilar, bu esa ularning shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi.

4. Ota-onalar va o‘qituvchilar fikri: Ota-onalar va o‘qituvchilar inklyuziv ta’limning foydali tomonlarini yuqori baholaydilar. Ular bolalarning rivojlanishida ijobiy o‘zgarishlarni ko‘radilar va bu jarayonda qo‘llab-quvvatlashni davom ettirishga tayyorlar.

Inklyuziv ta’limni samarali tashkil etishimiz uchun quydagilarga e’tibor qaratishimiz muhimdir:

1. Maxsus dasturlar: Ko‘plab maktablar yengil darajadagi aqli zaif bolalar uchun maxsus dasturlar ishlab chiqdilar. Ushbu dasturlar individual yondashuvni ta’minlaydi va har bir bolaning ehtiyojlarini inobatga oladi.

2. O‘qituvchilarni tayyorlash: Inklyuziv ta’limni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o‘qituvchilarni tayyorlash muhimdir. Ular maxsus ehtiyojlari bo‘lgan bolalar bilan ishlashda zarur bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari kerak.

3. Oila va maktab hamkorligi: Oila va maktab o‘rtasidagi hamkorlik inklyuziv ta’limda muhim rol o‘ynaydi. Ota-onalar maktabdagi jarayonlarga faol jalb qilinishi, bolalarning rivojlanishini kuzatish va qo‘llab-quvvatlash imkoniyatini yaratadi.

XULOSA

Yengil darajadagi aqli zaif bolalarni inklyuziv sinflarga jalb qilish, ularning akademik va ijtimoiy rivojlanishini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu tajribalar va natijalar, kelajakda inklyuziv ta'limni yanada rivojlantirish va kengaytirish uchun asos bo'lishi mumkin. Aqliy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb qilish uning jamiyatga qo'shilishiga, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishiga, ijtimoiy-maishiy hayotga moslashishiga ko'mak beradi. Bundan tashqari bolalarni nutqni rivojlantirishga, shaxslararo munosabatga kirishishiga, lug'at boyligi oshishiga, bog'langan nutqi shakllanishiga ko'mak beradi. Bundan ko'rinib turibdiki inklyuziv ta'lim alohida yordamga muhtoj bolalar hayotida katta ahamiyatga egadir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):

9. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2020 yil 13 oktyabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-son Qarori. https://lex.uz/docs/5044711

10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 12.10.2021 yildagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 638-son qarori.

11. Саламанкская декларация и документы ООН и ЮНЕСКО.

12. Н.Н.Малофеев, Н.Д.Шматко. Базовые модели интегрированного обучения // Дефектология. 2008. № 1. С. 71–78.

13. Н.Н.Малофеев, Е.Л.Гончарова, О.С.Николская, О.И.Кукушкина. Спесиалный федералный государственный стандарт общего образования детей с ограниченными возможностями здоровя: основные положения консепсии // Дефектология. 2009. № 1. С. 5–19

14. G'aniyeva A.T. Ta'lim tizimida inklyuziv ta'limni samaradorligini oshirishning o'zbekiston va xorijiy ta'lim tajribasi. Science and innovation ISSN: 2181-3337 INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL. 2022y. №4.https://doi.org/ 10.5281/zenodo.6981487.

15. Gaynutdinova L.R. Baholash mezonlari Ota onalar va o'qituvchi pedagoglar uchun tavsiya. T: 2022 y,28 b.

16. F.U.Qodirova, D.A.Pulatova "Inklyuziv ta'lim: nazariya va amaliyot" darsligi, Chirchiq, 2022.

INKLYUZIV TA'LIM TIZIMINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA HAMKORLIK MASALALARI

Tag'onova Guliza Bayramaliyevna
CHDPU, Maxsus pedagogika kafedrasi o'qituvchisi.
https://orcid.org/0009-0005-8161-5975
Ulasheva Dilnura, Umarqulova Rushana, Rajabboyeva Gulsevar
O'zbek tili va adabiyotiyoti yo'nalishi 23/5- guruh

ANNOTATSIYA

ushbu maqolada inklyuziv ta`lim, uning bugungi kundagi ahamiyati, inklyuziv ta'limni samarali tashkil etishda amalga oshiriladigan hamkorlik masalari, hamkorlikning alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolaning ta'lim tarbiya olishidagi ahamiyati yoritilgan. Alohida yordama muhtoj bo'lgan bolalarni ijtimoiylashuvida, jamiyatga qo'shilishida inklyuziv ta'limning tutgan o'rni haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta`lim, alohida yordamga muhtoj bo`lgan bola, hamkorlik, ota ona, o`qituvchi, jamiyat.

АННОТАЦИЯ

в данной статье рассматривается инклюзивное образование, его значимость на сегодняшний день, вопросы сотрудничества в эффективной организации инклюзивного образования, а также важность такого сотрудничества для получения образования детьми, нуждающимися в особой помощи. Обсуждается роль инклюзивного образования в социализации и интеграции в общество детей с особыми потребностями.

Ключевые слова: инклюзивное образование, ребенок с особыми потребностями, сотрудничество, родители, учитель, общество.

ABSTRACT

This article examines inclusive education, its current significance, issues of collaboration in the effective organization of inclusive education, and the importance of such collaboration for the education of children requiring special assistance. The role of inclusive education in the socialization and integration of children with special needs into society is discussed.

Keywords: inclusive education, child with special needs, collaboration, parents, teacher, society.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekistoyilgacha rivojlantirish kontseptsiyasida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash bo'yicha:

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'lim oladigan ta'lim muassasalari binolariga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'qitiladigan ta'lim muassasalarini zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarni o’qitish uchun inklyuziv ta’lim tizimini tashkil etish, umumta’lim muassasalarini maxsus moslamalar (ko’tarish qurilmasi, pandus, tutqich va boshqalar), shuningdek tegishli kadrlar (maxsus pedagog, bolalarni ruhiy-pedagogik kuzatish bo’yicha mutaxassislar) bilan ta’minlash;

- jamoatchilik o’rtasida alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv o’qitishning mazmun-mohiyati haqida tushuntirish ishlarini olib borish;

- o’quvchilarning jismoniy va aqliy talab-ehtiyojidan va ta’lim muassasalarining geografik joylashuvidan kelib chiqqan holda alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalar o’qitiladigan ta’lim muassasalarini optimallashtirish;

- alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarning moslashishi va integratsiyasi uchun maktab-internatlarni bosqichma-bosqich maxsus jihozlar bilan ta’minlash;

- alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan har bir bolaning inklyuziv ta’lim olish huquqini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish kabi vazifalar belgilangan.

Inkyuziv ta`limning alohida e`tirof etadigan jihatlardan biri bu alohida ta`limga ehtiyoji bo`lgan bolalarni oilasi, ota-onasi bag`ridan uzoqlashmagan holda, o`ziga yaqin bo`lgan umumta`lim muassasalarida ta`lim olishlari kafolatlaydi. Ona birinchi navbatda alohida ta`limga ehtiyoji bo`lgan bolaning inklyuziv ta`limda maktab, sinf sharoitiga adaptatsiya bo`lishida muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Inklyuziv ta’limning samarali tashkil etilishi bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar va ilmiy manbalar mavjud. Ushbu maqolada foydalanilgan adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv ta’lim masalalari turli yo‘nalishlarda o‘rganilgan bo‘lib, pedagogik, psixologik va ijtimoiy jihatlar muhim o‘rin egallaydi.

X.N. Muzaffarova va D. Tangirovaning “Inklyuziv ta’lim” o‘quv-metodik qo‘llanmasida inklyuziv ta’lim tizimining nazariy va amaliy asoslari bayon etilgan. Ushbu qo‘llanma pedagoglar uchun muhim resurs bo‘lib, alohida ta’lim ehtiyojiga ega bolalar bilan ishlash strategiyalarini o‘z ichiga oladi.

L.R. Muminova, R.Sh. Shomahmudova va Z.M. Ahmedovaning “Inklyuziv ta’lim” asari esa inklyuziv ta’limni milliy va xalqaro tajribalar asosida rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu tadqiqotlarda maktablar va maxsus ta’lim muassasalarida amalga oshirilayotgan ishlar, pedagogik yondashuvlar va maxsus metodikalar ko‘rib chiqilgan.

Inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘yicha xalqaro tadqiqotlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Simayeva va Sitryuk tomonidan olib borilgan “Inklyuziv ta’lim muhiti” mavzusidagi izlanishlar nogironligi bo‘lgan bolalarni umumiy ta’lim tizimiga moslashtirishning samarali mexanizmlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Ushbu tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, maxsus jihozlangan maktab muhitlari va zamonaviy pedagogik yondashuvlar inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Maqolada inklyuziv ta’limning samarali tashkil etilishi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar va hujjatlar tahlil qilindi. Tadqiqot metodologiyasi quyidagi asosiy yondashuvlarni o‘z ichiga oladi:

1. Tahliliy metod – Inklyuziv ta’limga oid mavjud normativ-huquqiy hujjatlar, davlat dasturlari va ilmiy manbalar o‘rganilib, ularning samaradorligi tahlil qilindi.

2. Taqqoslash usuli – O‘zbekiston va xalqaro tajribalar asosida inklyuziv ta’lim tizimining rivojlanish bosqichlari taqqoslandi, ularning o‘ziga xos xususiyatlari aniqlab berildi.

3. Empirik tadqiqotlar tahlili – Ilgari amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar va amaliy tajribalar o‘rganilib, inklyuziv ta’lim modelining amaliyotga tatbiq etilishi baholandi.

4. Normativ-huquqiy hujjatlar tahlili – O‘zbekiston Respublikasida inklyuziv ta’lim bo‘yicha qabul qilingan Prezident farmonlari va hukumat qarorlari (jumladan, PF-5712 va PQ-4860) asosida milliy ta’lim siyosatining huquqiy asoslari ko‘rib chiqildi.

5. Amaliy tavsiyalar ishlab chiqish – Olingan ma’lumotlar asosida inklyuziv ta’limni yanada takomillashtirish bo‘yicha xulosa va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Ushbu metodologik yondashuvlar asosida maqolada inklyuziv ta’limni samarali tashkil etish bo‘yicha mavjud tajribalar tahlil qilindi va ularni takomillashtirish uchun muhim takliflar ishlab chiqildi.

MUHOKAMA

Inklyuziv ta’limni samarali tashkil etish masalasi bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi tomonidan inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘yicha bir qator huquqiy va tashkiliy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, PF-5712 va PQ-4860 qarorlari asosida alohida ta’lim ehtiyojiga ega bo‘lgan bolalar uchun zarur shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda.

Maqolada ta’kidlanganidek, inklyuziv ta’lim samaradorligi bir qator omillarga bog‘liq. Birinchidan, bu pedagog va maxsus mutaxassislarning malakasiga, ikkinchidan, ota-onalar, maktab va jamiyat o‘rtasidagi hamkorlik darajasiga, uchinchidan, ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasiga bog‘liqdir. Barcha manfaatdor tomonlarning samarali hamkorligi natijasida inklyuziv ta’lim jarayonining sifatini oshirish mumkin. Biroq, inklyuziv ta’limni to‘laqonli amalga oshirishda hali ham ba’zi muammolar mavjud. Masalan, barcha umumta’lim maktablari ham jismoniy imkoniyati cheklangan bolalar uchun yetarli infratuzilmaga ega emas. Bundan tashqari, maxsus pedagog va psixolog kadrlarning yetishmovchiligi, ota-onalar va o‘qituvchilar o‘rtasida yetarlicha hamkorlikning yo‘qligi muammolari mavjud. Shuning uchun, inklyuziv ta’limni yanada rivojlantirish uchun davlat va jamiyatning uzviy hamkorligi, pedagog kadrlarni maxsus tayyorlash va ta’lim tizimini zamonaviylashtirish lozim.

NATIJA

Inklyuziv ta’lim tizimi imkoniyati cheklangan bolalarga teng huquqli ta’lim olish imkoniyatini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, uning muvaffaqiyati davlat, pedagoglar, ota-onalar va jamiyat o‘rtasidagi hamkorlikka bog‘liq. O‘zbekistonda bu borada bir qator islohotlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, tizimni yanada takomillashtirish uchun quyidagi yo‘nalishlarda ishlash zarur:

- Ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, maxsus jihozlar bilan ta’minlash;
- Inklyuziv ta’lim sohasida maxsus pedagog, logoped va psixologlarning malakasini oshirish hamda ularni yetarli darajada tayyorlash;
- Ota-onalar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, ta’lim jarayoniga oilaning faol ishtirokini ta’minlash;
- Jamiyatda inklyuziv ta’limga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish va aholining bu boradagi xabardorligini oshirish.

Shunday qilib, inklyuziv ta’limni rivojlantirish va uni yanada samarali qilish uchun davlat siyosati, ta’lim muassasalari va jamiyat o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarur. Shu orqali alohida ta’lim ehtiyojiga ega bo‘lgan bolalarning sifatli ta’lim olishi va jamiyatga to‘laqonli integratsiyalashuvi ta’minlanadi.

XULOSA

Inklyuziv ta’lim tizimi jamiyatning barcha a’zolariga teng imkoniyat yaratishga qaratilgan bo‘lib, ayniqsa, alohida ta’lim ehtiyojiga ega bo‘lgan bolalar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston

Respublikasida ushbu yo‘nalishda olib borilayotgan islohotlar natijasida imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta’lim jarayonini qulay va samarali tashkil etish bo‘yicha qator tashabbuslar amalga oshirilmoqda.

Maqolada ta’kidlanganidek, inklyuziv ta’limni samarali tashkil etish uchun davlat tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlar bilan bir qatorda, ota-onalar, pedagoglar, psixologlar va jamiyatning faol ishtiroki ham muhim rol o‘ynaydi. Maxsus pedagogik yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar va zamonaviy metodikalardan foydalanish bolalarning ta’lim jarayoniga moslashuvchanligini oshirishga yordam beradi.

Shuningdek, inklyuziv ta’lim tizimida mavjud muammolarni bartaraf etish, jumladan, moddiy-texnik bazani mustahkamlash, maxsus kadrlar tayyorlash va jamoatchilik orasida ijobiy munosabatni shakllantirish kabi masalalar ustida doimiy ishlash talab etiladi.

Umuman olganda, inklyuziv ta’lim tizimini takomillashtirish orqali har bir bola o‘z qobiliyat va imkoniyatlariga qarab ta’lim olish huquqiga ega bo‘lishi, jamiyatga integratsiyalashuvi va kelajakda mustaqil hayot kechirishga tayyorgarlik ko‘rishi ta’minlanadi. Shu bois, inklyuziv ta’limni rivojlantirish davlat va jamiyat oldidagi eng muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. X.N.Muzaffarova, D.Tangirova “Inklyuziv ta`lim” o‘quv-metodik qo`llanma 2011y

2. L.R.Muminova, R.Sh.Shomaxmudova, Z.M.Axmedova “Inklyuziv ta’lim”.

3. Xamidova, M. (2024). Inkluziv ta’limda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish va talabalarda fuqarolik kompetensiyani shakllantirish. Kasb hunar ta'limi, 1(8), 156-158.

4. Abdunazarov, A., & Xamidova, M. U. (2021). Imkoniyati cheklangan bolalarni media vositalardan to‘g‘ri foydalanishga o‘rgatishning ijtimoiy ahamiyati. Sovremennыy podxod, 1(2), 413-415.

5. Simaeva I. N., Sitryuk V. V. Inklyuzivnoe obrazovatelnoe prostranstvo // Vestnik Baltiyskogo federalnogo universitetaim. Ya. Kanta. - 2014. - №5. S. 31-39.

6. Г.Шоумаров «Развитие инклюзивного образования в Узбекистане» стр.7-9 журнал «Бола ва замон» №4 2008г

7. 2010 Инклюзивная практика в дошкольном образовании. Современный образовательный стандарт / Т. В. Волосовец, А. М. Казьмин, В.Н. Ярыгин. – М.: Мозаика-Синтез, 2011.

ALOHIDA YORDAMGA MUHTOJ BO‘LGAN, UZOQ MUDDAT DAVOLANISHGA MUHTOJ BOLALARNI INKLYUZIV TA’LIM, UY TA’LIMI VA “MEHRLI MAKTAB”LARGA JALB ETISH

Tag‘onova Guliza Bayramaliyevna
CHDPU, Maxsus pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi.
https://orcid.org/0009-0005-8161-5975
Yusupova Zebiniso, Karimova Sevinch, Abduvaliyeva Ruhshona Malik qizi
O‘zbek tili va adabiyotiyoti yo‘nalishi 23/5- guruh

ANNOTATSIYA

Bola shaxsining tarkib topishi hayotining birinchi kunlaridanoq boshlanadi. Bola har kuni ko‘rgan va eshitganlari asosida borliqqa va tevarak-atrofdagi kishilarga o‘z munosabatini bildiradi, kattalarning xatti-harakatlari, ishlariga, sodir bo‘layotgan voqealarga bolaning beradigan bahosi, kishilarga bo‘lgan munosabati - bularning hammasi bola ma’naviy qiyofasining shakllanishiga ta’sir etadi.

Kalit so’zlar: maxsus ta`lim, alohida yordamga muhtoj bo`lgan bolalar turlari, uy ta`limi, mexrli maktab.

АННОТАЦИЯ

Формирование личности ребенка начинается с первых дней жизни. На основе того, что ребенок видит и слышит каждый день, он выражает свое отношение к действительности и окружающим людям. Оценка ребенком поведения взрослых, их действий, происходящих событий, его отношение к людям - все это влияет на формирование духовного облика ребенка.

Ключевые слова: специальное образование, виды детей, нуждающихся в особой помощи, домашнее обучение, школа с любовью

ABSTRACT

The formation of a child's personality begins from the first days of life. Based on what a child sees and hears every day, they express their attitude towards reality and the people around them. The child's evaluation of adults' behavior, their actions, ongoing events, and their attitude towards people - all of this influences the formation of the child's spiritual character.

Keywords: special education, types of children requiring special assistance, home schooling, school with love

KIRISH

Mamlakatimizda bolalarning jismoniy yoki ruhiy rivojlanishidagi nuqsonlarning oldini olish yuzasidan ko‘pgina choralar ko‘rilmoqda, bu sohada anchagina yutuqlarga ham erishildi. O‘zbekistonda aholini davolash-profilaktikasi kengaygani hamda meditsina sohasidagi katta yutuqlar munosabati bilan imkoniyati cheklangan bolalar soni nisbatan kamaydi. Bolalarning chechak, o‘lat, tif, vabo, traxoma, qizamiq va bolalarga xos boshqa yuqumli kasalliklar orqasida imkoniyati cheklangan bo‘lib qolish hodisalari uchrab turadi. Irsiy omillar hamda intoksikatsiya va organizm shakllanayotgan paytda bosh miya, analizatorlarning zararlanishiga olib boradigan boshqa sabablar tufayli bolaning imkoniyati cheklangan bo‘lib qolish hollari hali ham uchrab turadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Buyuk allomalarimizdan Abu ali Ibn Sino maktabdagi ta'lim tarbiya jarayoniga katta e'tibor beradi. Ushbu masalaga "Kitob tadbir al-manzil" kitobida "Bolalarga madrasada ta'lim-tarbiya berish" nomli alohida bo'lim bag'ishlangan. Ibn Sino unda birinchi o'rinda bolalarni maktabga qamrab olish haqidagi ijtimoiy muammoga to'xtalib o'tadi. Uo'zining bu asarida maktabga hamma odamlarning bolalari olinishi shart, hamma bolalar bir joyda jam bo'lib ta'lim -tarbiya olishlari kerakligini alohida ta'kidlangan. Ibn Sino bolalarni alohida o'qitilishi ma'qullamagan.

Farobiyning "Aql ma'nolari haqida" asarida aql masalalari chuqur talqin qilinadi. U aql bir tomondan ruhiy jarayon, ikkinchi tomondan tashqi ta'sir ta'lim-tarbiyaning natijasi ekanligini uqtiradi.

Farobiy o'z asarlarida ta'lim-tarbiyaning muhimligi, unda nimalarga e'tibor berish zarurligi, ta'lim-tarbiyaning usullari haqida fikr yuritadi. "Fozillar shahri aholisining fikrlari", "Baxt va saodatga erishuv to'g'risida", "Ixso alg'ulum", "Ilmlarning kelib chiqishi", "Aql ma'nolari to'g'risida" kabi asarlarida ijtimoiy-tarbiyaviy qarashlari o'z ifodasini topgan.

Allomalarimizning pedagagik, tibbiy-pedagogik qarashlari Markaziy Osiyo ududida XI–XII asrlardayoq imkoniyati cheklangan bolalar ta'limiga o'ziga xos yondosuvlar va katta tajribalar bo'lganligidan dalolat beradi.

MUHOKA VA NATIJA

Alohida ta`limga ehtiyoji bo`lgan bolalar maxsus maktab muassasaalari hamda maxsus internatlarda ta`lim tarbiya olishlari uchun sharoitlar imkoniyatlar yaratilgan ekan shu bilan birgalikda jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan, uzoq vaqt davolanishga muhtoj va tibbiy ko'rsatmalarga ko'ra doimiy yoki vaqtincha umumiy o'rta ta'lim muassasalariga qatnay olmaydigan bolalar uchun uyda yakka tartibda ta`lim olishlari tashkil etilgan. O'quvchilarning ta'lim olish huquqini ta'minlash maqsadida maktabning tegishli sinfida o'qiyotgan bolalardan ikki yoshga oshgan o'quvchilarni ham ushbu sinfda uyda yakka tartibda ta'lim olishga jalb qilishga ruxsat etiladi. Uyda yakka tartibda ta'lim berishning asosiy maqsadi o'quvchilarning ta'lim olishga bo'lgan huquqlarini ta'minlash hamda ularning ta'lim olishlari uchun zarur sharoit yaratishdan iborat. Quyidagilar uyda yakka tartibda ta'lim berishning asosiy vazifalari hisoblanadi .

- o'quvchilarning umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari hamda ular asosida ishlab chiqilgan (aqli zaif bolalar uchun) maxsus ta'lim talablariga muvofiq bilim olishlarini ta'minlash;

- barkamol, jismonan va ma'naviy sog'lom shaxsni voyaga yetkazish, o'quvchilarda madaniy ma'rifiy qadriyatlarni, fuqarolik va vatanparvarlik hislarini shakllantirish;

- ta'lim berish jarayonida o'quvchilarning sog'lig'ini himoyalovchi dars jadvaliga rioya etilishini ta'minlash.

O'quvchilarning uyda yakka tartibda ta'lim olishini tashkil etish Vazirlar Maahkamasining 638 - sonli 4-ilovasiga asosan "Jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan hamda uzoq vaqt davolanishga muhtoj bolalarning uyda yakka tartibda ta'lim olishlarini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qaroriga asosan tashkil etiladi. Maktab direktorlari maktab joylashgan hududda yashaydigan o'quvchilarni aniqlaydilar, ro'yxatga oladilar hamda ularni uyda yakka tartibda ta'lim olish uchun jalb qilish choralarini ko'radilar. O'quvchini uyda yakka tartibda ta'lim olishini belgilash uning doimiy yashash joyidagi tuman (shahar) davolash-profilaktika muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan tibbiy-maslahat komissiyasining tibbiy xulosasiga asosan tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limi tomonidan amalga oshiriladi.

Yurtimizda ko'plab alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarning ta'lim-tarbiya olishlari, ular bilan olib boriladigan korreksion ishlar yo'lga qo'yilgan bo'lib endilikda bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi markazida davolanayotgan bolalar uchun maktabgacha ta'lim va tarbiya hamda

umumiy o‘rta ta’lim berish tizimini joriy qilish bo`yicha chora-tadbirlari ishlab chiqilib hukumat tomonidan 2022-yilning 5-may sanasida 234-sonli qarori imzolandi. Qarorga ko‘ra, Bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi markazida davolanayotgan bolalarga maktabgacha ta’lim va tarbiya hamda umumiy o‘rta ta’lim berish jarayonlarini samarali tashkil etish uchun ”Mexrli maktab” davlat muassasasi tashkil etildi. Mehrli maktab yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lib, Xalq ta’limi vazirligi huzurida tashkil etiladi. Mehrli maktabda quyidagi maktabgacha guruhlar faoliyat ko‘rsatishi mumkin:

1) maktabgacha ta’lim gospital guruhlari – statsionar davolanayotgan, sog‘lig‘i sababli maktabgacha ta’lim tashkilotlariga bora olmaydigan 2 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun davolash-profilaktika muassasalarida tashkil etilgan guruhlar;

2) ilk rivojlanish yoshidagi bolalarga mo‘ljallangan o‘yin guruhlari – 1,5 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun statsionar davolash-profilaktika muassasalarida tashkil etiladigan guruhlar.

Ularda parvarish qilish va nazorat qilish ishlari ota-onalarning faol ishtirokida tashkil etiladi. Imkoniyati cheklangan, uzoq muddat davolanishga muhtoj bo‘lgan bolalarni umumta’lim maktablariga, uy ta’limiga, Mehrli maktablarga jalb qilish ularni ta’lim olish huquqini ta’minlagan holda tengdoshlari qatorida bilim olishini ta’minlaydi. Eng avvalo ular:

- jamiyatga qo‘shiladi,
- tengdoshlari bilan muloqotda bo‘ladi,
- ijtimoiy-maishiy hayotga moslashadi,
- kasb-hunarga yo‘naltiriladi,
- boqmandalikdan xalos bo‘ladi.

Shu sababdab ham bolalarni ta’lim jarayoniga jalb qilish juda muhimdir.

XULOSA

Alohida ta’lim ehtiyojiga ega bo‘lgan bolalar uchun yaratilgan maxsus ta’lim tizimi ularning sifatli bilim olish huquqini ta’minlashga qaratilgan. Jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan, uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar uchun uyda yakka tartibda ta’lim berish yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bu ularning rivojlanishi va jamiyatga moslashishiga yordam beradi. Shuningdek, “Mehrli maktab” davlat muassasasining tashkil etilishi ta’lim ololmayotgan bemor bolalar uchun qo‘shimcha imkoniyat yaratdi. Ular nafaqat bilim oladi, balki ijtimoiy hayotga moslashadi, tengdoshlari bilan muloqot qiladi va kelajakda kasb-hunar egallashga yo‘naltiriladi. Ushbu tashabbuslar barcha bolalarning ta’lim olish huquqini ta’minlashga xizmat qiladi va jamiyatda inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirishga katta hissa qo‘shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Vazirlar Mahkamasining 638-sonli 12.10.2021 “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori.

2. R. Sh. Shomaxmudova. “Maxsus va inklyuziv ta’lim” uslubiy qo‘llanma. Toshkent-2011 yil.

3. L.R.Muminova. Inklyuziv ta’lim. Toshkent- 2014 yil.

4.Dehqonova, M. (2023). KORREKSION MASHG’ULOT RAHBARI OSTIDA RITMIKA HARAKATLARNI TAKRORLASH VA UNING SAMARADORLIGI. Молодые ученые, 1(1), 34-35.

5.Dehqonova, M., & Tagonova, G. (2022). Bolalardagi yozuv buzilishlari va ulardagi disgrafiyada o ‘ziga xos xatoliklarni paydo bo ‘lish mexanizmi. Yangi O'zbekistonda milliy taraqqiyot va innovasiyalar, 405-407.

6.Dehqonova, M., & Najmiddinova, N. (2022). ALOHIDA EHTIYOJGA EGA BO'LGAN BOLALARNING OILAGA MOSLASHISHI UCHUN MUHIM OMILLAR. YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY TARAQQIYOT VA INNOVASIYALAR, 90-92.

AUTIZM SINDROMLI BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN INDIVIDUAL MASHG`ULOTLAR.

Qodirova Feruza Usmanovna
CHDPU, Pedagogika fakulteti, Maxsus pedagogika kafedrasi p.f.d
https://orcid.org/0000-0001-7439-5306
Sayfullayeva Mashxura Qodir qizi
CHDPU, Maxsus pedagogika fakulteti, Magistratura 2 bosqich talabasi.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada autizm sindromli bolalarning o`ziga xos xususiyatlari, individual mashg`ulotlarning bolani rivojlantirishda tutgan o`rni, individual mashg`ulotlarni tashkil etishda o`yinning ahamiyati haqidagi so`z yuritilgan. Shu bilan birga maqolada autizm sindromli bolalarning rivojlanishi uchun zarur bo`lgan psixologik o`yin terapiyasi, mashg`ulotlarda qo`llash mumkkin bo`lgan samarali metodikalar haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so`zlar:** autizm spektri, o'yin, faol qiziqish, psixodiagnostika, psixokorreksiya, spontan nutq, visual aloqa, nutq yetishmovchiligi, ehtiyoj, psixologik yordam, mashg`ulot.

ABSTRACT

This article discusses the specific characteristics of children with autism syndrome, the role of individual activities in child development, and the importance of play in organizing individual activities. At the same time, the article provides information on psychological game therapy necessary for the development of children with autism syndrome, effective methods that can be used in classes.

Keywords: autism spectrum, play, active interest, psychodiagnostics, psychocorrection,
spontaneous speech, visual communication, nut deficiency, need, psychological help, training.

АННОТАЦИЯ

в данной статье рассматриваются особенности детей с синдромом аутизма, роль индивидуальных занятий в развитии ребенка и значение игры в организации индивидуальных занятий. В то же время в статье представлена информация о психологической игровой терапии, необходимой для развития детей с синдромом аутизма, и эффективных методиках, которые можно использовать на занятиях.

Ключевые слова: аутистический спектр, игра, активный интерес, психодиагностика, психокоррекция, спонтанная речь, зрительная коммуникация, ореховая недостаточность, потребность, психологическая помощь, обучение.

KIRISH.

Dunyoda bolalar umumiy sonining taxminan 10% da rivojlanish kamchiliklari kuzatilmoqda. Mazkur muammo ota-onalar, diqqat e'tiborini, shifokor va pedagog, psixolog, defektologlarning kompleks aralashuvini ta'lab etadi va bu, alohida yordamga muhtoj bolalarning kelajak hayotlarida ijtimoiy moslashuvning samarali bo`lishiga yordam beradi.

Bugungi kunda yurtimizda alohida yordamga muhtoj bo`lgan insonlarni ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy jihatdan himoya qilish bo`yicha juda ko`plab ishlar amalga oshirilmoqda, bolalar huquqlarini himoya qilish bo`yicha tegishli huquqiy ba`za shakllantirilgan. Jumladan, "Bola huquqlarining kafolatlari to`g`risida"gi qonunning 23-moddasida "Har bir bola bilim olish huquqiga ega", 25-moddasida "Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar jamiyat hayotida ishtirok etishda boshqa bolalar bilan teng huquqlarga egadir" deb ko`rsatilgan.

Rivojlanish kamchiliklari orasida autizm spektridagi buzilishlar alohida e'tiborga molik. Sababi, statistik ma'lumotlarga ko'ra, autizm spektrida buzilishlari bor bolalar 2000-yilda 10 000 nafar boladan 4 - 26 nafarida, 2005-yilda 250-300nafar bolaning, 2008-yilda har 150nafar bolaning birida uchraydi. AQSHning kasalliklarni nazorat qilish markazi 2012-yildan to 2020-yilga qadar har 88 nafar bolaga 1ta autizm holati, 2022-yilda esa har 44 nafar bolaning birida uchrashini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, ushbu rivojlanish buzilishining chastotasini tobora o'sib bormoqda. Shu munosabat bilan, autizm spektri buzilgan bolalarni ijtimoiylashuv muammolari dolzarb masalaga aylangan.

Autizm sindromli bolalar ta'lim-tarbiya sohasini tubdan isloh etish, uni mazmunini boyitish, zamon talablari darajasiga ko`tarish,, ularning jamiyatda ma'lum o`rin va rol egallashi ya'ni, ijtimoiy moslashuv samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy moslashuv-shunchaki yangi sharoitga moslashish emas, bu murakkab jarayon bo`lib, shaxs faoliyatining barcha jabhalarini o`z ichiga qamrab oladi. Ijtimoiy moslashuv uzluksiz davom etadigan jarayon bo`lib, o`zgarishlarga moslashish qobiliyati nafaqat sog`lom insonlar, balki imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ham hayotiy muhim ahamiyat kasb etadi.

Autizm sindromiga ega shaxslarning shaxs sifatida shakllanishi bir qancha o`ziga xos xususiyatlarga ega, ya'ni nuqson xususiyatidan kelib chiqqan holda insonning jamiyat hayotiga moslashuvining asosiy omili hisoblangan insonlar bilan mulaqot qilish imkoniyatlarining cheklanganligi, ijtimoiy munosabatlar, emotsional, kognitiv, harakatli va sensor qobiliyatlarning rivojlanishida ortda qolishi, xulq –atvorning o`ziga xosligi kabi va yana bir qancha muammolar autizm buzilishi bor bolalarning ijtimoiy moslashuv muammolarini tadqiq etish, ular uchun individual mashg`ulotlarni bolaning intelektual imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda tashkillashtirish va bunday mashg`ulotlarni rivojlantirib, boyitib borish zarurligini belgilab beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Autizm — bu rivojlanishning kompleks buzilishi bo'lib, ijtimoiy o'zaro munosabatlar, tilni o'zlashtirish va emotsional, kognitiv, harakatli va sensor qobiliyatlar hamda bu qobiliyatlarning rivojlanishida orqada qolishning butun bir qator muammolarini o'z ichiga oladi. Bu bilan bir qatorda ko'pincha xulqning o'ziga xos shakllari: o'z o'qi atrofida aylanish, o'yinchoqlarni bir qatorga tizish, so'zlarni maqsadsiz va ma'nosiz takrorlash kuzatiladi. Bunday simptomlar munosabatga kirishish, muloqot qilish va fikrlash qobiliyati bilan bog'liq juda asosiy muammolarning oqibati hisoblanadi. Autizmi bor yoki autistik sohasidagi buzilishlari bor bolada til, fikrlash va ijtimoiy ko'nikmalar undagi buzilishlar shu sohaning qaysi qismiga tegishli ekanligiga qarab farqlanadi. Kasalliklar klassifikatsiyasining 10-qayta ko'rib chiqilishiga ko'ra autizm belgilari quyidagicha tavsiflanadi:

1. Vizual aloqaning yo'qligi, mimika va imo -ishoralarni ijtimoiy jarayonda ishlata olmaslik, tengdoshlari bilan aloqa o'rnata olmasligi bilan namoyon bo'ladigan sifat buzilishidir.

2. Aloqa qilishdagi spontan nutqning shakllanishidagi kechikish yoki umuman yo'qligi, suhbatga kirisha olmaslik va uni tugatishni eplamaslik, takroriy steriotipik nutqning mavjudligi, o'yin faoliyatida ishtirok qilmaslik kabilar.

3. Qiziqish va faoliyatga nisbatan cheklangan takrorlanuvchi xatti-harakatlarning mavjudligi, narsalarning qismlariga nisbatan e'tiborni qaratish (avtomobil g'ildiragini to'xtamasdan aylantirish) bilan ifodalanadi.

Ilmiy adabiyotlarda autizm sindromi haqidagi ta'riflar J.M.Itar, E.Bleyler, L.Kanner, K.S.Lebedinskaya, X.Asperger, I.I.Mamaychuk, O.S.Nikolaskaya, B.P.Puzanov, Ving, Vilyamas va boshqalar,tomonidan berilgan. Fransuz olimi D.J.Itar birinchi bo`lib autizmli odamlarga e'tibor qaratgan bo`lib, uning xulosalariga asoslanib bunday bolalarni aqliy zaif bo`lgan bolalar guruhidan ajratish taklifini ilgari surgan.

Rossiyada autistik buzilishning tavsifini birinchi bo`lib bergan shaxs psixiatr S.S.Mnuxin deb hisoblangan. S.S.Mnuxin autizm belgilarini bolalarda organik miya shikastlanishi bilan bog`liq deb tasvirlab bergan. Rossiya defektologiya sohasida bolalik davri autizmini korreksiyalash bo`yicha to`liq nazariy va amaliy yondashuv ishlab chiqilgan bo`lib, bu ustida K.S.Lebedinskaya, O.S.Nikolskaya, E.R.Baenskaya, M.M.Libling kabi olimlar izlanishlar olib borganlar. Hozirgi vaqtda chet elda L.Ving, K.Lord, M.Rutter, D.L.Robbinslar autizmni paydo bo`lishi va uning namoyon bo`lishining o`ziga xos xususiyatlarini o`rganmoqdalar. Bundan tashqari, o`qitish va diagnostika usullari takomillashtirilmoqda. E.R.Baenskaya, M.M.Libling, O.S.Nikolaskaya, V.V.Lebedinskiy tadqiqotlarida, autizmni maktabgacha yoshdagi bolalarning hissiy sohasidagi muhim kasalikllar deb bilganlar.

L.S.Pechnikova o'z izlanishlarida erta bolalik autizmi bo'lgan bolalarga onalarning munosabatini o'rgangan. Uning fikricha, bolaning aqliy jihatdan rivojlanishida ota-onalarning munosabatlari asosiy rol o'ynaydi. Onalarning kasal bolasiga nisbatan munosabatini shakllanishida psixologik omillar va mexanizamlar yetarlicha o'rganilmaganligi ta'kidlaydi. L.S.Pechnikovaga ko'ra, onaning bola bilan ko'p vaqtini birga o'tkazishini inobatga olish, bunda ota-ona determinantlarini o'rganish muhimdir. Autizmning klinik, etiologik va potogenligiga qarab, uning dunyodan izolyatsiyalanganligi, tashqi ta'sirlarga paradoksial reaksiyalarni yo'qligini tushunish va ota-onalarning munosabatlarini ahamiyat berish maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumki, autizm sindromli bolalar irqi, dini va oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy holatidan qat'iy nazar, butun dunyoda tug'iladi. Amerika statistikasining 2021 va 2023 yillarda chop etilgan ma'lumotlari buni tasdiqlaydi. Biroq, so'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Qo'shma Shtatlarning ba'zi mintaqalarida afro-amerikalik va ispan oilalaridagi bolalar kamroq va kechroq tashxislanadi va ularda aqliy zaiflik tashxisi ko'proq uchraydi. Mumkin tushuntirishlar shundan iboratki, qashshoqlik, erta tug'ilishning yuqori ko'rsatkichlari va afro-amerikalik oilalar diagnostika xizmatlaridan kamroq foydalanishadi va yordam dasturlariga kamroq kirishadi. Autizmni aniqlash jarayoni yaxshilangan va aholining barcha guruhlari uchun xizmatlardan foydalanish imkoniyati kengroq bo'lgan shtatlarda bu tendentsiya ko'rinmaydi. Ushbu ma'lumotlarni muhokama qilar ekan, tadqiqot mualliflari kam ta'minlangan ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar uchun monitoring va yordam dasturlarini ishlab chiqish uchun qo'shimcha resurslarni sarflash zarur degan xulosaga kelishdi. Bizning yurtimizda ayni paytda autizmni davolash bo'yicha real harakatlar Respublika bolalar ijtimoiy moslashuv markazi (RBIMM) va xususiy markazlar tomonidan amalga oshirilib kelmoqda. Respublika bolalar ijtimoiy moslashuv markazi hozirgi kunda autist bolalarga bepul xizmat ko'rsatayotgan asosiy davlat muassasasi hisoblanadi.

NATIJALAR.

O'yin - bu bolaning qobiliyatlarini rivojlantiradigan yoqimli jismoniy yoki aqliy faoliyat bo'lib,muzokara yuritish, muammolarni hal qilish, qo'l epchilligi, chaqqonlik,qaror qabul qilish va guruhda ishlash kabi ko'nikmalarni bolada rivojlantiradi. O'yin miyaning barcha sohalari, tuzilmalari va funksiyalariga ta'sir ko'rsatadi. O'yin terapiyasi shuningdek, bolalarga turli xil o'zaro munosabat usullarini his qilish tajribasini orttirishga yordam beradi. Autizm spektri buzilishiga ega bo`lgan bolalar

har biri o‘ziga xosligi sababli, o‘yin terapiyasi kabi turli xil mashg`ulotlar yoki mashg`ulotlarda qo`llaniladigan turli metodikalar va o`yin usullari autizmli bolalarning ijtimoilashuviga va o`z qobig`idan chiqishiga yordam beradi. Mashg`ulotda qanday usul bolaga ko‘proq mos kelishini aniqlash uchun bolaning imkoniyatlarini to‘g‘ri baholash zarur.

O‘yin yoqimli, ichki rag‘batlantiruvchi, jarayonga yo‘naltirilgan, erkin tanlangan jismoniy yoki aqliy faoliyatdir. Unda bola asosan xavfsiz muhitda faol ishtirok etadi. Mashg`ulot davomida o`yin terapiydan foydalanish avvalo bolaning qiziqishini ortishiga, mashg`ulotga o`zi hohlab qatnashishi uchun asos bo`lib xizmat qiladi. Autizm spektr buzilishga ega bo`lgan bolalar bilan ishlashda dastlab bolani kuzatish, qaysi predmet yoki o`yinchoqlar uning uchun sevimli ekanini aniqlab olish maqsadga muvofiq. Bola yolg`iz qolganida nima bilan shug`illanishini kuzatish bolaga mashg`ulot o`tish jarayonida qanday usul va uslublar qo`llash, o`yin terapiyaning qaysi turi eng maqul ekanini aniqlashga yordam beradi. Bola bilan muomalaga kirishishda asosiy maqsad boal ishimchini qozonish bo`lib bu davr amalga oshirilgandan so`ng bolaga ota-onasi yoki defektolog tomonidan sensorli o`yinlar taklif qilinishi mumkin. Bolalardan farqli o'laroq, autizm sindromiga chalingan bolalarda obyektiv dunyoni o'rganish bosqichi uzoq vaqt davom etadi , bu yerda ularning o'yinchoqlar va predmetlar harakatlarining asosiy xusussiyatlari o`ziga tortadi. Atrof-muhitdan turli xil hissiy effektlarni olish istagi autistik bolaning obyektlarga faol qiziqishini oshiradi: bola hidlashni, og’ziga solishni, aylanadigan yoki buraladigan predmetlarni burishni, otishni, taqillatishni yaxshi ko'radi. Ammo bolalar ko'rsatmalar va qoidalarga, ushbu obyektning funksional maqsadiga muvofiq harakat qilishdan yoki funksiyasiga ko`ra o`ynashdan bosh tortadilar, chunki bu narsalarning ijtimoiy maqsadi ular uchun hissiy xususiyatlaridan kamroq ahamiyatga ega.

Sensorli o'yinlar - bu o'yinlarning maqsadi autism sindomli bolaga yangi hissiy ma'lumot (sezgilar) berishdir. Bu sezgilar judayam hayratlanarli va xilma-xil bo'lishi mumkin:

- taktil sezgilar (tegish, his qilish orqali: turli teksturali materiallar, turli shakl va o'lchamdagi narsalar - to'plar, kublar, sharlar, lentalar va arqonlar yordamida).

- motor-harakat sezgilari (raqsga tushish, sakrash, yugurish, yurish yordamida).

- ta'm sezgilari (ta'mi boshqacha bo'lgan taomlar va mahsulotlar).

- hid bilish sezgilari (atrofdagi olamning tanish, sevimli, yoqimli, qadrdon, yangi va noma'lum hidlari).

- eshitish (shitirlash, xirillash, shivirlash, yovvoyi tabiat va musiqa asboblari tovushlari).

- vizual (yorqin ranglar, ularning aralashuvi, bir-birini to’ldirishi).

Sensorli o'yinlarning ham ko'p turlari mavjud:

- bo'yoqlar bilan olib boriladigan o'yinlar: "rangli suv", ho'l varaqqa chizish, "sehrli bo'yoqlar";

- suv bilan o'yinlar: suv sepish, suv quyish, "quvnoq tomchi", "dengizda suzib yuruvchi kemalar", idishlarni yuvish, qo'g'irchoqlarni cho’miltirish, suv havzasiga boorish sovun pufakchalari bilan o'yinlar: “Iliq shabada esmoqda”, “Quvlab yetish va ushlash”;

- soyalar va yorug'lik bilan o'yinlar: "quyoshli quyon", "chiroq", "yorug'lik", "sham";

- muz bilan o'yinlar: "Muzni eritish", "Rangli muz", "Muz figuralari", "Qor malikasi";

- don mahsulotlari va qum bilan o'yinlar: "Xazina", "Mittilar xazinalari". "Yomg'ir. Do'l", "Qushlarni don bilan boqish", "Keling, bo'tqa pishiramiz", "Qo'llarimizni donga yashiramiz".

- plastilin bilan o'yinlar: biz maydalaymiz, chimchilaymiz, surtamiz, bosamiz, to'pga aylantiramiz, shakllar yasaymiz, bo'laklarni kesib tashlaymiz, "Plastilindan rasm tayyorlash";

- ovozli o'yinlar: “Tinglang va nomlang”, “Men musiqachiman”, hushtak, nay, akkordeon va boshqalardan foydalaniladi.

- ritmli o'yinlar: qarsak chalish, oyoq bilan tappillatish, raqsga tushish, qo‘shiq aytish,

“Quvnoq davra raqsi”, “Hayvonlar mashqi” va boshqalar.

Birgalikda rasm chizish - bu bola va kattalarning birgalikda bola va uning oilaviy hayotiga xos bo’lgan turli xil predmetlarni, vaziyatlarni chizadigan maxsus o'yin usuli. Birinchi navbatda bola uchun judayam ahamiyatli bo'lgan narsalar chiziladi, sundan so’ng bolaga yoqadigan narsalar "uning xohishiga ko'ra" chiziladi va shu orqali bolada ijodkorlikka qiziqish kuchaytiriladi. Bunda har xil materiallar ishlatiladi: bo'yoqlar, qalamlar, markerlar, rangli qalamlar. Chizmaning o'zi hajmi, shakli, rangi va fazodagi holati bo'yicha farqlanadi. O’yin davomida kichkina rassomni teztez rag'batlantirish kerak. Har bir o'yin turi o'ziga xos vazifani bajaradi. Stereotipik o'yin bola bilan o'zaro munosabatlarning asosidir. Agar uning xatti-harakati nazoratdan chiqib ketsa, bolaning e'tiborini qayta yo'naltirish imkoniyatini beradi. Sensorli o'yin yangi hissiy ma'lumotlarni beradi va bola bilan aloqa o'rnatishga yordam beradi. Birgalikda rasm chizish autistik bolaning faol bo'lishi va uning atrofidagi dunyo haqidagi tushunchasini rivojlantirish uchun ajoyib imkoniyatdir.

MUHOKAMA.

Autizm spektr buzilishiga ega bo`lgan bolalarning individual mashg`ulotlarda yuqorida ko`rsatilgan o`yin turlaridan foydalanish, ularda xulq-atvorning nisbatan yaxshilanishiga, nutqini rivojlantirishga, ijtimoiylashuviga, jamoaga qo`shila olish, og`zaki nutqni tushinish, ko`rsatmalarga amal qilish kabi ko`nikmalarni shakllantiradi. Albatta mashg`ulot mavzusini tanlashda bolaning individual xususiyatlari inobatga olinishi shart. Masalan bolada shovqin va yuqori chastotali ovozlarga nisbatan kuchli qo`rquv yoki o`zini yomon his qilish holatlari, himoya funksiyasining ishlashi kabilar kuzatilsa, u holda bunday musiqali va shovqinli o`yinlarni o`tkazish tavsiya etilmaydi.

Autik bolaning muammolarini ko‘rib chiqishda shu xulosaga kelish mumkin-ki, uning reabilitatsiyasida asos - bolaning butun hayotini davolashni tashkil etishdir. Bunda asosiy ish uning yaqinlariga, oilasi yoki uning o‘rnini bosuvchilarga yuklanadi, ularga esa mutaxassislar jamoasi yordam berishi lozim. Metodikalarni qo’llash davomida ularning yuqori va quyi sezuvchanlik darajalarini ham diagnostika qilish muhim jihat hisoblanadi. Bu borada har bir bolaga individual yondashish hamda ularda namoyon bo‘lgan sensor dezintegratsiyaning darajasiga qarab maqsadga yo‘naltirilgani korreksion dasturlarni ishlab chiqish va ulardan samarali foydalanish ushbu muammoni sezilarli darajada bartaraf etishga yo’l ochib beradi.

XULOSA.

Mashg`ulotlar davomida o`yin orqalimashg`ulot o`tish juda samarali. Har bir o'yin turi o'ziga xos vazifani bajaradi. Stereotipik o'yin bola bilan o'zaro munosabatlarning asosidir. Bolaning xatti-harakati nazoratdan chiqib ketsa, uning e'tiborini qayta yo'naltirish imkoniyatini beradi. Sensorli o'yinlar yangi hissiy ma'lumotlarni beradi va bola bilan aloqa o'rnatishga yordam beradi. Birgalikda rasm chizish bolaning faol bo'lishi va uning atrofidagi dunyo haqidagi tushunchasini rivojlantirish uchun ajoyib imkoniyatdir. O’yin bola hayotidagi asosiy rol o`ynovchi vositadir. Bolaning asosiy faoliyati bo’lgan o’yin faoliyati orqali uning barcha fiziologik, psixologik rivojlanishi ta’minlanadi. O’yin shu qadar universal, shu qadar ko’p qirrali va nihoyatda qudratli faoliyatdirki, bog’cha yoshidagi bolalarni o’yindan boshqa yo’l bilan kamolga yetkazishni tasavvur qilish qiyin

O‘yin terapiyasi autism spektor buzilishi bor bolalarni davolashda samarali vosita hisoblanadi. Biroq, o‘yin terapiyasi va mashg`ulotlar uzluksiz bo‘lishi kerak, chunki uni to‘xtatish bolaga salbiy ta’sir ko`rsatishi mumkin ya’ni egallangan ko`nikmalar unitilishi, qiziqish va hohishning so`nishi kuzatilishi mumkin.

Individual mashg`ulotlarda qo`llaniladigan har bir metodikalar uzluksizligi, bolaning yoshiga mos va intelektual xususiyatlarini hisobga olib tashkillashtirilishi autizm sindromli bolalarning o`z dunyosidan chiqishiga, nisbatan ijtimoiylashishiga olib keladi. Har bir mashg`ulot uchun puxta tayyorlangan metodiklalar bolada qiziqish uyg`otishi va o`z navbatida natijalar ko`rsatishiga asos bo`lib xizmat qiladi. O‘yin terapiya odatda kompleks aralashuvning bir qismi sifatida o‘tkaziladi, shuning uchun ishtirokchining xulq-atvoridagi yaxshilanish uchun mashg`ulotlarda o‘yin terapiyasini qo`llash muhim. Bu bolaning ijtimoiy ko‘nikmalarini va bo‘shashgan muhitda muloqotni yaxshilashga yordam beradi. Atrof-muhitga moslashish , ota-onalariga nisbatan yaqinlashadi, farzand va ota-ona o‘rtasidagi aloqni va taranglikni kamaytiradi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI (REFERENCES)

1. F.U. Qodirova, I.Q.Sayfullayeva “Autizm sindromli bola bilan islash metodikasi” CHIRCHIQ 2022
2. Mohammed Al-Beltagi “Play therapy in children with autism: Its role, implications, and limitations”. World Journal of Clinical Pediatrics 2023.
3. S.M. Usmonjonova “Autizm sindromli bolalarni psixologik va pedogogik jihatdan o`rganish ta’limni samarali tashkil etish asosi sifatida”. Konferensiya materiallari. 2024-yil iyul
4. Франкл В. Логотерапия и экзистенциальный анализ: Статьи и лекции. Пер. с нем. – М.: Альпина нон-фикшн, 2016. – 344 с.
5. Лебединский В.В. Нарушения психического развития в детском воз-расте: учеб.
6. Пособие для студ. высш. учеб, заведений. 5-е изд., стер. - М.: Ака-демия, 2008. - 144 с
7. Мамайчук И.И. Помощь психолога детям с аутизмом. - СПб.: Речь, 2007 – 288с.
8. . Карвасарская И.Б. В стороне. Из опыта работы с аутичными детьми. - М.: Теревинф, 2003. - 70 с.

INKLYUZIV TA'LIMNING UMUMIY TUSHUNCHASI ,UNING AHAMIYATI VA GLOBALLASHUV JARAYONIDA INKLYUZIV TA'LIM

Abdumalikova Halima Ubaydulla qizi
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti ''ta'lim va
tarbiya nazariyasi va metodikasi'' yo'nalishi
1-bosqich magistranti abdumalikova halima

ANNOTATSİYA

Ushbu maqolada inklyuziv ta'limning umumiy tushunchasi, uning jamiyatimizda tutgan roli va globallashuv jarayonidagi o‘rni o‘rganiladi. Inklyuziv ta'limning ta'lim tizimlaridagi ahamiyati, ta'limda tenglikni ta'minlash, jamiyatdagi tengsizliklarni kamaytirish hamda nogironligi bo‘lgan bolalar uchun imkoniyatlar yaratish masalalari muhokama qilinadi. O‘zbekistonning huquqiy asoslari va xalqaro standartlar doirasida inklyuziv ta'limning rivojlanish jarayoni tahlil qilinadi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'limni rivojlantirish borasidagi qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar ham ko‘rib chiqiladi.

Maqolada inklyuziv ta'limni rivojlantirish borasidagi amaliy natijalar, jumladan, qonunchilik bazasining mustahkamlanishi, o‘quv muassasalarini moslashtirish, pedagoglar tayyorlash tizimining yo‘lga qo‘yilishi va jamiyatda inklyuziv madaniyatni shakllantirish borasida erishilgan yutuqlar keltirilgan. Shu bilan birga, mavjud muammolar, jumladan, infratuzilmaning yetarlicha rivojlanmaganligi, malakali kadrlar yetishmovchiligi va uning rivojlanishiga to'siqlar kabi masalalar ochib berilgan

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta'lim, nogironlik, ta'lim tizimi, tenglik, ijtimoiy inklyuziya, globallashuv, qonun, O‘zbekiston, huquqiy asoslar.

KIRISH

Inklyuziv ta'lim – bu barcha o‘quvchilarga, shu jumladan nogironligi bo‘lgan bolalar va boshqa ijtimoiy guruhlar uchun ham teng ta'lim imkoniyatlarini taqdim etishga qaratilgan ta'lim tizimi. Uning maqsadi – bolalarning shaxsiy imkoniyatlarini hisobga olib, ta'limni shaxsiylashtirish va jamiyatdagi ijtimoiy tengsizliklarni kamaytirishdir. Inklyuziv ta'lim nafaqat akademik, balki ijtimoiy va emotsional rivojlanish uchun muhimdir.Bu ta'lim yondashuvi o'quvchilarning ta'limiy ehtiyojlarini qondiribgina qolmay,balki ularning emotsional va ijtimoiy rivojlanishiga ham yordam yordam beradi.inklyuziv ta'lim jamiyatning barcha a'zolarini birlashtirishga xizmat qiladi.Hozirgi vaqtda dunyo miqyosida inklyuziv ta'lim eng kerakli sohalardan biri bo'lib bormoqda,chunki har bir bola o'z shaxsiy,jismoniy va ijtimoiy imkoniyatlariga qarab ta'lim olishga haqli.Xususan bu narsa O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasida ham mustahkamlab qo'yilgan.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot inklyuziv ta'limning umumiy tushunchasi ,uning ahamiyati va bugungi globallashuv jarayonida inklyuziv ta'lim muammolarini o‘rganish maqsadida amalga oshirildi.Inklyuziv ta'limning umumiy tushunchasi va ahamiyatini o'rganishda mavzuga oid bir qancha adabiyotlar, O'zbekiston Respublikasidagi qonunlar, normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek xalqaro tajriba asosida tahlil o'tkazdi;

1. Nazariy tahlil:

PROCEEDINGS BOOK

Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi,ushbu mavzuga doir bir qancha darslik hamda adabiyotlar, davlat dasturlari, xalqaro konvensiyalar va strategik hujjatlar o‘rganilib, ular inklyuziv ta’limning rivojlanishiga ta’sir ko’rsatgan omillar sifatida tahlil qilindi.

2. Tajriba va kuzatuv:

Davlat ta’lim muassasalarida amalga oshirilgan inklyuziv ta’lim loyihalari, maxsus jihozlangan sinflar va moslashtirilgan o‘quv-uslubiy materiallar o‘rganildi. Bu kuzatuv orqali amaliyotda duch kelinayotgan qiyinchiliklar va muammolar aniqlandi.

3.Taqqoslash usuli:

O‘zbekistondagi inklyuziv ta’lim tizimi xalqaro tajribalar va ta’lim bilan taqqoslanib, muvaffaqiyatli model va yondashuvlar tahlil qilindi. Taqqoslash esa mavjud kamchiliklarni bartaraf etish uchun samarali takliflar ishlab chiqishga yordam berdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Davlatimizda inklyuziv ta’lim tizimining rivojlanishi va amaliyotiga doir ilmiy adabiyotlarda bir nechta tadqiqotlar mavjud. Ushbu adabiyotlar, inklyuziv ta’limning nazariy asoslari, uning jamiyatdagi ahamiyati, shuningdek, xalqaro va milliy tajribalar o‘rganilishi asosida quyidagi tahlilni amalga oshirildi

1.Madatov Ilhom. ’’Inklyuziv ta’lim’’ kitobida inklyuziv ta'limning asosiy tushunchalari, pedagogik yondashuvlar, hamda nogironligi bo‘lgan bolalarga ta'lim olishda yordam beruvchi metodikalar keng yoritilgan. Madatovning ishlari inklyuziv ta'lim tizimi va pedagogik metodlarni ishlab chiqish bo‘yicha muhim adabiyotdir.

2. NamDU ARM maqolalarida O‘zbekiston ta'lim tizimida inklyuziv ta'limni tatbiq etishda mavjud muammolar, imkoniyatlar va amaliy yondashuvlar tahlil qilinadi. Ushbu maqolalar O‘zbekistonning ta'lim tizimiga inklyuziv ta'limni joriy etishda metodologik va amaliy nuqtai nazardan yordam beradi.

3. Lex.uz PQ-4860 13.10.2020 – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bo‘lib, u nogironligi bo‘lgan shaxslarning ta'lim olish huquqlarini ta'minlashni, shuningdek, inklyuziv ta'limni rivojlantirishni ko‘zda tutadi. Ushbu qaror inklyuziv ta'lim tizimini mustahkamlashda huquqiy asos yaratadi.

4.O’zbekiston davlat pedagogika universitetiva boshqa ilmiy muassasalarda inklyuziv ta’limni rivojlantirishga bag’ishlangan bir qator dissertatsiyalar va maqolalar chop etilgan.Jumladan M.SH. G’ayipov (5) tomonidan inklyuziv ta’lim tizimining pedagogik asoslari

6.D.Z. Mustafoyeva esa pedagoglarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratadi.

NATIJA.

O‘zbekiston Respublikasida inklyuziv ta’lim tushunchasi va uning rivojlanishiga doir olib borilgan tadqiqotlar va amaliy kuzatishlar quyidagi asosiy natijalarga olib keldi:

1. Qonunchilik bazasining mustahkamlanishi:

O‘zbekiston Reespublikasi hukumati tomonidan inklyuziv ta’limni rivojlantirishga qaratilgan huquqiy va normativ hujjatlar qabul qilindi. 2020-yilda “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi qonun va 2017–2021 yillarda amalga oshirilgan "Harakatlar strategiyasi" ta’lim sohasida inklyuziv yondashuvni mustahkamlashga yo‘naltirilgan.’’Mamlakatimizda alohida yordamga muhtoj bolalar ochiq ta’lim tizimining rivojlantirish chora tadbirlari rejasi’’ ishlab chiqildi. Bu hujjatlar dasturida alohda yordamga muhtoj bolalarni umumta’lim tizimiga kiritishning tashkiliy asoslari yoritib berildi.

2. Ta’lim infratuzilmasining rivojlanishi:

Maxsus ta’limga oid infratuzilma, jumladan, o‘quv binolari, maxsus jihozlar va moslashtirilgan o‘quv-uslubiy materiallar ishlab chiqildi. O‘zbekistonning ayrim hududlarida nogironligi bo‘lgan bolalar uchun maxsus ta’lim sinflari va o‘quv markazlari tashkil etildi. Ammo, bu jarayon barcha hududlarda bir xilda amalga oshirilmagan, ayrim joylarda infratuzilma hali rivojlanmagan.

3. Pedagogik kadrlar tayyorlash tizimining takomillashuvi:

O‘zbekiston ta’lim tizimida inklyuziv ta’limni amalga oshiruvchi pedagoglarni tayyorlash uchun maxsus kurslar va dasturlar tashkil etilgan. Pedagoglar uchun inklyuziv ta’lim bo‘yicha malaka oshirish dasturlari ishlab chiqilgan. Biroq, malakali mutaxassislarning yetishmasligi hali ham muammo bo‘lib qolmoqda. O‘qituvchilar va tarbiyachilarga inklyuziv ta’lim metodikalari bo‘yicha yanada kengroq treninglar va amaliyotlar kerak.

4. Jamiyatda inklyuziya madaniyatining shakllanishi:

Respublikamizda inklyuziv madaniyatni va unga bo’lgan ijobiy qarashlarni aholi orasida keng targ’ibot-tashviqot qilish, hamda ushbu ishlarni ommaviy axborot vositalarida (televediniya, radio, gazeta va jurnallarda) namoyish qilish.Imkoniyati cheklangan shaxslarning boshqa insonlar orasida o’zini erkin his qilishi uchun ta’lim,sport, san’at va madaniyat sohalarida ularga qulay shart – sharoitlar yaratilgan va yaratilmoqda.

5. Erishilgan amaliy natijalar:

Ayniqsa, inklyuziv ta’limni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ayrim hududlarda sezilarli yutuqlar kuzatildi. Masalan, Toshkent, Samarqand, Farg‘ona va boshqa yirik shaharlarda inklyuziv ta’lim tizimi yaxshi rivojlanayotgan bo‘lsa, qishloq hududlarida hali ham jiddiy infratuzilma va kadrlar tayyorlash muammolari mavjud. Shuningdek, nogironligi bo‘lgan bolalar uchun maxsus dasturlar va psixologik yordam xizmatlari tashkil etilgan.

6. Ijtimoiy stereotiplar va madaniyat muammolari:

Inklyuziv ta’limni keng joriy etishda ijtimoiy stereotiplar va nogironligi bo‘lgan shaxslar bilan ishlashdagi murakkabliklar sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatmoqda. Jamiyatning ba'zi qatlamlarida nogironlar va imkoniyati cheklangan bolalarga bo‘lgan munosabatda oldingi salbiy fikrlar saqlanib qolmoqda. Bu esa inklyuziv ta’lim tizimining samarali amalga oshirilishiga to‘siq bo‘layotgan omil hisoblanadi.[6]

MUHOKAMA

O‘zbekiston Respublikasida inklyuziv ta’lim tizimining rivojlanishi so‘nggi 10 yilda sezilarli o‘zgarishlarga yuz tutdi. Mamlakatimizda inklyuziv ta’limni amalga oshirishga qaratilgan davlat dasturlari va qonunchilik bazasi mustahkamlandi. Bu esa imkoniyati cheklangan shaxslar va nogironligi bo‘lgan bolalar uchun ta’lim olish imkoniyatlarining kengaytirilishiga yordam berdi. Shu bilan birga, inklyuziv ta’limni joriy etishda hali hal etilmagan muammolar va to‘siqlar mavjud. Tadqiqot davomida tahlil qilingan natijalar va mavjud holatlar shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv ta’lim tizimining samarali ishlashi uchun quyidagi masalalar alohida e’tiborga molikdir:

O‘zbekistonning ayrim hududlarida inklyuziv ta’lim tizimi uchun zarur infratuzilma hali yetarlicha rivojlanmagan. Maxsus sinflar va o‘quv materiallari mavjud bo‘lsa-da, ular hamma ta’lim muassasalarida joriy etilmagan. Infratuzilma masalalari inklyuziv ta’limning to‘liq va samarali amalga oshirilishiga jiddiy to‘siq bo‘lmoqda. Ayniqsa, qishloq joylarida imkoniyati cheklangan bolalar uchun maxsus sharoitlar yetarli emas.

Malakali va oliy ma’limotli pedagoglarning yetishmasligi hozirgi kungacha muammo bo‘lib qolmoqda. Inklyuziv ta’limda ishlash uchun o‘qituvchilarning maxsus pedagogik bilim va ko‘nikmalariga ehtiyoj bor.Respublikamiz ta’lim tizimida pedagogik kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish tizimi mavjud

bo‘lsa-da, bu tizim hali ham keng qamrovli emas va ko‘p o‘qituvchilar inklyuziv ta’limning aniq metodik bilim hamda tajribaga ega emaslar. Bu esa ta’lim sifatini pasaytirishi mumkin.

Nogironligi bo‘lgan bolalar va imkoniyati cheklangan shaxslarga nisbatan ba'zi ijtimoiy stereotiplar va salbiy munosabatlar mavjud. Bu jamiyatda inklyuziv ta’limning rivojlanishiga qarshi bo‘lgan umumiy to‘siqlarni keltirib chiqaradi. Stereotiplar va diskriminatsiya asosida yuzaga keladigan salbiy munosabatlar, ayniqsa, nogironligi bo‘lgan bolalarni jamiyatga integratsiya qilishda sezilarli to‘siq bo‘ladi.

Inklyuziv ta’limning muvaffaqiyatli joriy etilishi uchun bizning jamiyatimizda keng targ‘ibot va xabardorlikni oshirish zarur. Pedagoglar xodimlar, ota-onalar va umumiy jamoatchilikni inklyuziv ta’limga oid bilimlar bilan tanishtirish, salbiy stereotiplarga qarshi kurashish muhimdir. Shuningdek, jamiyatning barcha qatlamlarini inklyuziv ta’limni qo‘llab-quvvatlashga undash kerak.

O‘zbekiston inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirishda xalqaro tajribalarni o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish muhimdir. Ko‘plab rivojlangan mamlakatlar inklyuziv ta’limni muvaffaqiyatli amalga oshirgan va bu tajriba O‘zbekistonda ham qo‘llanilishi kerak. Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish, o‘quvchilar va pedagoglar uchun yangidan yangi o‘quv dasturlarini ishlab chiqish inklyuziv ta’lim tizimini yanada samarali qilishga yordam beradi.[7]

O‘zbekiston Respublikasida inklyuziv ta’lim tizimining rivojlanishi muhim ijtimoiy o‘zgarishlarni keltirib chiqarmoqda, ammo tizimning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun ko‘plab masalalar hal qilinishi zarur. Infratuzilma, malakali kadrlar tayyorlash va ijtimoiy stereotiplarga qarshi kurashish bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi. Shuningdek, inklyuziv ta’limni respublikaning eng chekka hududlarida ham kengaytirish va takomillashtirish uchun davlat, ta’lim muassasalari va jamiyat o‘rtasida yaqin hamkorlik bo‘lishi kerak. Ushbu tizimning muvaffaqiyatli joriy etilishi jamiyatdagi barcha qatlamlarining birgalikdagi harakati bilan amalga oshirilishi mumkin.

XULOSA

O‘zbekistonda inklyuziv ta’lim tizimining rivojlanishi ancha muhim ijtimoiy va ta’limiy o‘zgarishlarga olib keldi. Inklyuziv ta’limning asosiy maqsadi imkoniyati cheklangan bolalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarga umumta’lim muassasalarida teng shart-sharoit yaratishdan iborat bo‘lib, bu jarayonni muhim ijtimoiy hodisa darajasida qo‘llab-quvvatlashning ahamiyati katta. O‘zbekiston Respublikasi tomonidan inklyuziv ta’limni kengaytirishga qaratilgan qonunchilik va normativ hujjatlar qabul qilindi, shu jumladan, 2017-2021 yillarda amalga oshirilgan "Harakatlar strategiyasi" ta’lim sohasida inklyuziv yondashuvni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan. Bu hujjatlar inklyuziv ta’limning huquqiy va tashkiliy asoslarini yaratish uchun muhim ahamiyatga ega.

Ammo, tizimni keng joriy qilishda bir qator muammolar mavjud. O‘zbekistonning bazi hududlarida inklyuziv ta’limga oid infratuzilma hali yetarlicha rivojlanmagan. Maxsus ta’lim sinflari va moslashtirilgan o‘quv materiallari faqat ayrim ta’lim muassasalarida mavjud, ayrimlarida esa yo’q. Bundan tashqari, malakali pedagoglar ishlab chiqarish tizimi hali to‘liq rivojlanmagan, bu esa inklyuziv ta’limning natijali ishlashiga to‘sqinlik qilmoqda. Pedagoglar xodimlar va o‘qituvchilarning inklyuziv ta’lim metodikalariga oid bilim va ko‘nikmalarini oshirish uchun maxsus dasturlar va treninglar ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, bu dasturlar keng qamrovli emas va barcha pedagoglarni qamrab olmaydi.

Ijtimoiy stereotiplarga qarshi kurashish ham muhim vazifadir. Jamiyatda nogironligi bo‘lgan shaxslar va imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan ba'zi salbiy munosabatlar mavjud. Bu stereotiplar jamiyatda inklyuziv ta’limni to‘liq joriy etish va imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyatga integratsiya qilishda sezilarli to‘siq bo‘ladi. Shuning uchun, jamiyatni inklyuziv ta’limga oid xabardorlikni oshirish va nogironligi bo‘lgan bolalarga nisbatan ijtimoiy adolatni targ‘ib qilish zarur.

Kelgusi istiqbollarni ko‘rib chiqishda, O‘zbekiston ta’lim tizimining inklyuziv yondashuvini rivojlantirishda to‘g‘ri qonuniy va tashkiliy asoslar yaratilgan bo‘lsa-da, bu tizimning samarali amalga oshirilishi uchun ko‘p ishlar qilish zarur. Maxsus sinflar, malakali pedagoglar, moslashtirilgan o‘quv materiallari va jamiyatda inklyuziv ta’limni qo‘llab-quvvatlovchi muhitni yaratish kabi masalalar eng dolzarb hisoblanadi. Inklyuziv ta’lim tizimi to‘liq rivojlanishi uchun jamiyatning barcha qatlamlarining faol ishtiroki, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va pedagogik kadrlarning malakasini oshirish bo‘yicha izchil ishlar talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1.BMT (1994). Nogironlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha Konvensiya. Birlashgan Millatlar Tashkiloti.

2. UNESCO (1995). Jomtean deklaratsiyasi: Ta’limni rivojlantirish. UNESCO.

3. O‘zbekiston Respublikasi (2017). Harakatlar strategiyasi: 2017-2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishga qaratilgan milliy dastur. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori.

4.Madatov Ilhom.’’ Inklyuziv ta’lim ’’ darslik Toshkent ; O’zbekiston Milliy Universiteti, 2018

5.Mustafoyeva, D. Z. (2020). Pedagoglarni tayyorlashda inklyuziv ta’limning o‘rni. Toshkent: O‘zbekiston davlat pedagogika universiteti nashriyoti.

6.O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Lex.uz

7.’’Ta’lim tog’risidagi qonun ’’ Lex.uz .2021

8. Lex.uz PQ-4860 13.10.2020- O’zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori

O‘QUVCHILARNI NUTQIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING NEYROPEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Jamoldinova Sayyora Nodirbek qizi
CHDPU pedagogika fakulteti “Pedagogika” kafedrasi o’qituvchisi
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0006-4669-0483
Yo‘ldoshboyev Muhammadyusuf Jasurbek o’gli
CHDPU pedagogika yo’nalishi 3-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq qobiliyatining asosi sifatida chet tilini o‘qishning texnik ko‘nikmalarini shakllantirish xususiyatlari neyropedagogika nuqtai nazaridan o‘rganiladi. Tadqiqotda neyrofiziologik ma’lumotlar asosida bolalarning chet tilini o‘qishni boshlang‘ich o‘zlashtirish jarayoni, yuzaga keladigan qiyinchiliklar va bu jarayonning tabiiy shakllanishi muhokama qilinadi. Maqolada miya tuzilmalari va ularning o‘qish jarayoniga ta’siri, shuningdek, o‘quvchilarning fonologik idroki va texnik o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishning samarali usullari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar:chet tili o‘qish, neyropedagogika, boshlang‘ich sinf, texnik o‘qish ko‘nikmalari, fonologik idrok, nutq rivojlanishi, neyrofiziologiya, o‘quvchilarning o‘qish qobiliyati, miya tuzilmalari, o‘qish texnologiyalari, vizual idrok, nutq eshitish apparati.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются особенности формирования технических навыков чтения на иностранном языке как основы речевой способности младших школьников с точки зрения нейропедагогики. В исследовании анализируется процесс начального освоения чтения на иностранном языке детьми, возникающие трудности и естественная организация этого процесса на основе нейрофизиологических данных. В статье рассматривается влияние мозговых структур на процесс чтения, а также эффективные методы развития фонологического восприятия и технических навыков чтения у учащихся.

Ключевые слова:чтение на иностранном языке, нейропедагогика, начальная школа, технические навыки чтения, фонологическое восприятие, развитие речи, нейрофизиология, способность к чтению у учащихся, структуры мозга, технологии чтения, визуальное восприятие, речеслуховой аппарат.

ABSTRACT

This article examines the features of developing technical reading skills in a foreign language as the foundation of speech ability in primary school students from the perspective of neuro-pedagogy. The study analyzes the initial process of acquiring reading skills in a foreign language by children, the difficulties they encounter, and the natural organization of this process based on neurophysiological data. The article discusses the impact of brain structures on reading, as well as effective methods for developing phonological awareness and technical reading skills in students.

Keywords:foreign language reading, neuro-pedagogy, primary school, technical reading skills, phonological awareness, speech development, neurophysiology, students' reading ability, brain structures, reading technologies, visual perception, speech-hearing apparatus.

KIRISH

Ma'lumki, og'zaki nutqning rivojlanishi ontogenezning dastlabki bosqichlarida kuzatiladi, yozma nutqning shakllanishi — o‘qish va yozish esa ancha kechroq sodir bo‘ladi va nerv komplekslarining o‘rnatilgan aloqalariga asoslanadi. O‘qish jarayoni yozish funksiyasining teskarisidir. U yozma belgilar tizimini (grafema, so‘z, jumla) izchil idrok etishdan boshlanadi. Ushbu belgilarni shifrlash, alohida harflar va so‘zlarning ma'nosini tushunish, ularni kattaroq ma'lumotlar birliklariga — butun iboralar va matnlarga birlashtirish, ularni operativ xotirada saqlash va murakkab semantik birliklarni ajratib ko‘rsatish bilan bog‘lash kerak.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun chet tilini o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish murakkab jarayon bo‘lib, bu jarayon bola miyasining rivojlanishi, fonologik idrok darajasi va neyrofiziologik omillar bilan chambarchas bog‘liq. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, har bir bolaning o‘zlashtirish darajasi individual bo‘lib, ularning miyasidagi neyron aloqalarining shakllanish darajasi, vizual va eshitish idrokining rivojlanishi, shuningdek, motivatsiya va psixologik tayyorgarlik darajasiga bog‘liq.

Chet tilini o‘qishga o‘rgatishda neyropedagogika tamoyillaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega, chunki bu yondashuv o‘quvchilarning miya faoliyati va rivojlanish xususiyatlarini inobatga olib, o‘qish jarayonini yanada samarali tashkil etishga yordam beradi. O‘qish jarayoni turli miya tuzilmalari tomonidan boshqariladi: vizual idrok, akustik tahlil, semantik tushunish va nutq motorikasi. Ushbu jarayonlarning uyg‘un ishlashi chet tilida o‘qish qobiliyatining muvaffaqiyatli shakllanishiga asos bo‘ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Chet tilini o‘qishning neyropedagogik xususiyatlarini o‘rganishda bir qator olimlar tadqiqotlar olib borgan. A.R. Luriya va L.S. Tsvetkova o‘qish jarayonining psixologik tuzilishini sensorimotor va semantik darajalarga ajratib tahlil qilgan[6]. Ularning fikriga ko‘ra, sensorimotor daraja idrokning tezligi va aniqligini ta’minlasa, semantik daraja o‘qilgan materialni anglash va tushunish jarayonini boshqaradi. Ushbu nazariya chet tilini o‘rganayotgan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qishning qanday shakllanishini tushunishda muhim ahamiyatga ega.

Z.N. Nikitenko esa tadqiqotlarida fonologik idrokning chet tilini o‘rganishda tutgan o‘rni haqida fikr yuritgan[5]. Uning ta’kidlashicha, agar bola fonemalarni eshitish va farqlash qobiliyatini yaxshi rivojlantirmasa, u chet tilida o‘qish va matnni tushunishda qiyinchiliklarga duch keladi. Shuning uchun chet tilida o‘qishga o‘rgatish jarayonida fonologik idrokni shakllantirishga alohida e’tibor qaratish lozim.Rossiya Fanlar Akademiyasining Fiziologiya ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida chet tilini erta o‘rgatish bolalarning miya faoliyatini ortiqcha yuklaydi va ularning umumiy aqliy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi aniqlangan. Bu esa boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga chet tilini o‘qitishda tabiiy va bosqichma-bosqich yondashuv muhimligini ko‘rsatadi.

A.N. Leontiev va I.A.Ilyin tadqiqotlarida ta’kidlanganidek, bolalar avvalo ona tilida o‘qish va yozishni yaxshi o‘zlashtirgandan keyingina chet tilida o‘qishga o‘tishlari lozim. Ularning fikriga ko‘ra, agar bola ona tilida o‘qish malakasini yetarlicha shakllantirmasa, chet tilidagi matnlarni o‘qish va tushunishda muammolarga duch keladi.Bundan tashqari, A.A. Petrikова chet tilini o‘qish jarayonida miyaning parieto-oksipital va temporal hududlarining roli haqida ilmiy ishlar olib borgan. U o‘qish qobiliyatining neyrofiziologik asoslarini tadqiq qilib, vizual idrok va nutq motorikasi o‘rtasidagi aloqalarni o‘rganib chiqqan.

Metodologiya:Tadqiqot davomida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining chet tilini o‘qish jarayonidagi neyropedagogik omillari tahlil qilindi. O‘quvchilarning texnik o‘qish ko‘nikmalarini baholash va rivojlantirish uchun eksperimental tadqiqot o‘tkazildi. Ushbu tadqiqot quyidagi metodlarga asoslandi:

Neyropsixologik baholash:O‘quvchilarning fonemik eshitish qobiliyati o‘lchandi.Nutqning semantik anglanishi va lug‘at boyligi diagnostik testlar yordamida baholandi.

Psixolingvistik tekshiruvlar:O‘quvchilarning vizual idroki va matnni semantik tushunish qobiliyati o‘rganildi.O‘qish jarayonida ko‘z harakati (okulomotorika) va harflarni tanib olish jarayoni kuzatildi.

Eksperimental ta’lim usullari:Chet tilini o‘qishga o‘rgatish uchun neyropedagogik texnologiyalar qo‘llandi.Bolalarning o‘qish jarayonidagi motivatsiya va e’tibor darajasi o‘rganildi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining chet tilini o‘qishga o‘rganish jarayonida neyropedagogik yondashuvning samaradorligini ko‘rsatdi. Eksperimental tekshiruvlar natijasida quyidagi asosiy xulosalar aniqlandi:

Fonologik idrokning rivojlanganlik darajasi chet tilini o‘qish tezligi va tushunishga bevosita ta’sir qiladi.Tadqiqot davomida fonemik eshitish qobiliyati yuqori bo‘lgan o‘quvchilar chet tilidagi matnlarni o‘qishda kamroq xatoga yo‘l qo‘ydi.Fonemik farqlash qobiliyati past bo‘lgan o‘quvchilar tovushlarni noto‘g‘ri idrok etishi va so‘zlarni chalkashtirishi kuzatildi.

Vizual idrok va akustik tahlil o‘rtasidagi bog‘liqlik.O‘quvchilarning miyaning chap yarim sharidagi parieto-oksipital hududlari vizual simvollarni eshitish va semantik tushunish bilan bog‘lashga faol ishtirok etdi.Vizual idrokning rivojlanmaganligi sababli ba’zi bolalar harflarni noto‘g‘ri o‘qish, ularni almashtirish yoki tanimay qolish holatlariga duch kelishdi.

Neyropedagogik yondashuvlar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni natijalari.Eksperimentdan so‘ng o‘quvchilarning o‘qish tezligi 25-30% ga oshgani va matn mazmunini tushunish darajasi yaxshilangani aniqlandi.Nutq eshitish apparati bilan bog‘liq ishlash mashqlari, fonemik tahlil va sintetik o‘qish usullarini qo‘llash o‘quvchilarning semantik anglash darajasini oshirishga yordam berdi.O‘qishdagi motivatsiya darajasi yuqori bo‘lgan o‘quvchilar matnni yaxshiroq tushunishdi va qiyin so‘zlarni tezroq eslab qolishdi.

O‘qish buzilishlari (disleksiya) va neyrofiziologik omillar.Tadqiqotda ba’zi bolalarda optik aleksiya (harflarni tanib olish qiyinligi) va sensorli aleksiya (tovushlarni farqlashdagi muammolar) belgilari aniqlangan.O‘quvchilarning temporal va frontal loblari rivojlanganligi o‘qish tezligi va tushunish jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi kuzatildi.

Chet tilida o‘qishga o‘rgatishda bosqichma-bosqich yondashuvning muhimligi.Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini chet tilida o‘qishga o‘rgatishda fonologik eshitish mashqlari, vizual belgilarni idrok etish va nutq motorikasi mashqlarini uyg‘unlashtirish samarali natija beradi[3].Bosqichma-bosqich yondashuvni qo‘llagan holda o‘qitilgan o‘quvchilarda o‘qish qobiliyatining yaxshilanganligi kuzatildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, chet tilida o‘qishga o‘rgatishda neyropedagogik yondashuvdan foydalanish o‘quvchilarning o‘qish jarayonini tezlashtirish va tushunish qobiliyatini oshirishga yordam beradi. O‘qish jarayonida fonologik idrok, vizual eshitish aloqalari va semantik anglash birgalikda rivojlantirilishi lozim. Neyropedagogik asoslangan metodlar yordamida ta’lim jarayonini tashkil etish o‘quvchilarning texnik o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, chet tilini o‘qishga o‘rgatishda neyropedagogik yondashuvdan foydalanish o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini sezilarli darajada yaxshilaydi**.** Ushbu natijalar ilgari

olib borilgan tadqiqotlar bilan hamohang bo‘lib, ayniqsa A.R. Luriya, L.S. Tsvetkova, Z.N. Nikitenko va A.A. Petrikова tomonidan ilgari surilgan g‘oyalarni tasdiqlaydi.

O‘quvchilarning chet tilini o‘qish jarayonidagi qiyinchiliklari, asosan, miyaning chap yarim sharining rivojlanish darajasi, vizual idrok va fonologik eshitish qobiliyati bilan bog‘liq ekanligi aniqlandi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki:fonologik idrok yaxshi rivojlangan o‘quvchilar chet tilidagi matnlarni tezroq o‘qiydi va tushunish darajasi yuqori bo‘ladi.Vizual idrok va fonologik anglash muammolariga duch kelgan o‘quvchilar esa harflarni ajratish, ularni eshitish orqali tanish va semantik ma’nosini tushunishda qiyinchiliklarga duch keladi.Bu natijalar Z.N. Nikitenko va A.A. Petrikova tadqiqotlariga mos keladi, chunki ularning ishlarida ham miyaning parieto-oksipital va temporal hududlarining o‘qish jarayonidagi muhim roli ta’kidlangan edi.[5]

Tadqiqotda neyropedagogik metodlardan foydalanish orqali o‘quvchilarning o‘qish tezligi va tushunish qobiliyati 25-30% ga yaxshilangani kuzatildi. Bu shuni ko‘rsatadiki:o‘qish jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etish va fonologik tahlil usullaridan foydalanish natijalarni sezilarli darajada yaxshilaydi,o‘quvchilarga matnni nafaqat talaffuz qilish, balki uni semantik anglash usullari ham o‘rgatilishi kerak,o‘qish jarayonida vizual, eshitish va nutq motorikasi birgalikda rivojlantirilishi lozim.A.N. Leontiev va I.A. Ilyin ta’kidlagan yondashuv bilan bog‘liq bo‘lgan bu natijalar bolalar avvalo ona tilida o‘qish va yozishni yaxshi o‘zlashtirgandan keyingina chet tiliga o‘tish lozimligini ta’kidlagan edi.

Tadqiqot davomida ba’zi o‘quvchilarda optik aleksiya (harflarni vizual tanib olish qiyinligi) va sensorli aleksiya (tovushlarni farqlash muammosi) kabi o‘qish buzilishlari aniqlandi. Bu shuni ko‘rsatadiki:o‘quvchilarni chet tilida o‘qishga o‘rgatishda individual yondashuv muhim ahamiyatga ega,har bir bolaning miya rivojlanishi va idrok qilish qobiliyatini hisobga olib, mos metodikalar tanlanishi lozim,chet tilida o‘qitishda ko‘rish, eshitish va talaffuzga asoslangan integrativ yondashuv qo‘llanilishi kerak.Natijalar Rossiya Fanlar Akademiyasining Fiziologiya ilmiy-tadqiqot instituti tadqiqotlari bilan ham mos keladi, chunki ularning ishlarida ham chet tilini erta o‘qitish miyaning ortiqcha yuklanishiga olib kelishi va o‘qish jarayonining tabiiy rivojlanishiga putur yetkazishi mumkinligi ta’kidlangan edi.Chet tilini o‘qishga o‘rgatishda quyidagi metodik yondashuvlar samarali bo‘lishi mumkin.Fonologik tahlil va sintez metodlari – o‘quvchilarning fonemik idrokini rivojlantirish orqali o‘qish qobiliyatini yaxshilash.Bosqichma-bosqich yondashuv - dastlab ona tilida o‘qish ko‘nikmalarini mustahkamlab, keyinchalik chet tilida o‘qishga o‘tish.Ko‘rish, eshitish va nutq motorikasini uyg‘unlashtirish - matnni faqat o‘qish emas, balki uni tinglash va talaffuz qilish orqali o‘rganish.Differensial yondashuv - har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olib, mos metodlarni tanlash.Bu tavsiyalar A.R. Luriya va L.S. Tsvetkova tomonidan ilgari surilgan sensorimotor va semantik darajalarni uyg‘un rivojlantirish tamoyiliga mos keladi.[6]

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini chet tilida o‘qishga o‘rgatishda neyropedagogik yondashuvdan foydalanish samarali hisoblanadi. O‘qish jarayoni miyaning turli funksional qismlari – chap yarim sharning parieto-oksipital, temporal va frontal hududlari faoliyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ushbu jarayonni tabiiy shakllantirish uchun fonologik idrok, vizual tahlil va semantik anglash qobiliyatlarini birgalikda rivojlantirish zarur.

Tadqiqot davomida o‘quvchilarning fonemik eshitish, texnik o‘qish va semantik tushunish qobiliyatlari o‘rganildi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, fonologik idrok rivojlangan o‘quvchilar chet tilidagi matnlarni tezroq va aniqroq o‘qiydi, aksincha, fonologik eshitish va vizual idrok qobiliyati past bo‘lgan o‘quvchilarda harflarni ajratish, so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish va matn mazmunini tushunishda muammolar kuzatildi. Bu esa o‘quvchilarning o‘qish jarayonidagi qiyinchiliklarini kamaytirish uchun ularning individual xususiyatlariga asoslangan metodlarni qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi.

Eksperiment natijalari neyropedagogik metodlar qo‘llanganda o‘quvchilarning o‘qish tezligi va tushunish qobiliyati 25-30% ga oshganini tasdiqladi. O‘qitish jarayonida fonemik tahlil, vizual idrokni rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlar va bosqichma-bosqich yondashuvdan foydalanish o‘quvchilarning o‘qish samaradorligini oshirdi. Bundan tashqari, ayrim o‘quvchilarda disleksiya belgilari aniqlangan bo‘lib, bu o‘qitish jarayonida individual yondashuv va maxsus metodlarni talab qilishini anglatadi.

Tadqiqot natijalari oldingi ilmiy ishlar bilan mos kelib, chet tilini erta bosqichda o‘rgatishda bolalarning neyrofiziologik rivojlanishini hisobga olish zarurligini yana bir bor tasdiqladi. Neyropedagogik yondashuv chet tilini o‘qishga o‘rgatishda eng samarali usullardan biri bo‘lib, bu metodni maktab ta’lim tizimiga joriy etish o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini oshirishga yordam beradi. Shu sababli, chet tilini o‘qishga o‘rgatishda bosqichma-bosqich yondashuv, fonologik anglashni shakllantirish va vizual hamda akustik idrokni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish zarur.

Umuman olganda, tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, chet tilida o‘qishga o‘rgatish jarayoni murakkab neyrofiziologik va pedagogik mexanizmlarga asoslanadi. Uni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun an’anaviy metodlarni neyropedagogik yondashuv bilan boyitish, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olish va o‘qitish jarayonida ko‘rish, eshitish va talaffuz mashg‘ulotlarini uyg‘unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. G‘ofurov U, Yo‘ldoshev N. Boshlang‘ich ta’limda ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
2. Rahimov H., To‘rayev F. Nutq va tafakkur rivojlanishi: Psixolingvistik asoslar. – Toshkent: Universitet, 2005.
3. Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012.
4. O‘rinboyeva G. Bolalar psixologiyasi va kognitiv rivojlanish. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2020.
5. Никитенко З.Н. Развитие обучения иностранному языку в начальной школе. Монография. Издательство "Глосса-пресс", Москва, 2010.
6. Лурия А.Р., Цветкова Л.С. Нейропсихология и проблемы обучения в общеобразовательных школах. Москва-Воронеж, 1997.
7. Соколова Л.В. Психофизиологические основы развития навыков чтения. Дисс. Архангельск, 2005.
8. Загородний Е.С. Принцип работы мозга. Москва, 2007.
9. Егоров Т.Г. Психология овладения навыками чтения. М.: Издательство Академии педагогических наук РСФСР, 1953.
10. Ананьев Б.Г. Анализ трудностей усвоения чтения и письма у детей. Изв. АПН РСФСР, 1995.

INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA KOMMUNIKATIV YONDASHUV ASOSIDA OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARIGA ADABIYOT O'QITISHNI PEDAGOGIK OMILLARI

Latipova Mamlakat Xudayarovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada Inklyuziv ta'lim sharoitida kommunikativ yondashuv asosida oliy ta'lim muassasasi talabalariga adabiyot o'qitishni modellashtirish, adabiyot o'qitishning pedagogik shart-sharoitlarini ta'minlash, uslubiy ta'minotini rivojlantirish inklyuziv ta'lim jarayonini real amaliy tadqiqot natijalariga muvofiq tashkil etish lozimligi xususida hamda bo'lajak filologlarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning tarkibiy, konseptual va metodik modelini takomillashtirish xususida so'z yuritilgan.

Tayanch so'zlar: Inklyuziv ta'lim, kommunikativ yondashuv, modellashtirish, kompetensiyani rivojlanganligi darajasini baholash mezonlari, ta'lim sifati va samaradorligi, adabiyot o'qitish, k
o
n
s
e
p
t
u
a
l
k
o
m
p
e
t
e
n
t
s
i
y
a

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается необходимость моделирования обучения литературе студентов высших учебных заведений на основе коммуникативного подхода в инклюзивном образовании, обеспечения педагогических условий обучения литературе, разработки методического обеспечения, организации инклюзивного образовательного процесса в соответствии с результатами реальных практических исследований, совершенствования структурно-концептуальной и методической модели формирования профессиональных компетенций будущих филологов.

Ключевые слова: Инклюзивное образование, коммуникативный подход, моделирование, критерии оценки уровня сформированности компетенций, качество и эффективность образования, преподавание литературы, концептуально-методический.

ABSTRACT

The article discusses the need to model the teaching of literature to students of higher education institutions based on a communicative approach in the context of inclusive education, to ensure the pedagogical conditions for teaching literature, to develop methodological support, to organize the inclusive educational process in accordance with the results of real practical research, and to improve the structural, conceptual and methodological model of the formation of professional competencies of future philologists.

Keywords: Inclusive education, communicative approach, modeling, criteria for assessing the level of development of competence, quality and effectiveness of education, teaching literature, conceptual and methodological.

Kirish

Jahonda bir qator ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida adabiyot o'qitishni modellashtirish, adabiyot fanidan inklyuziv ta'lim barish asosdida ta'limning sifat darajasini yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy-

gumanitar, umumkasbiy va ixtisoslik fanlarni integratsiyalash asosida bo‘lajak filologlarni ma’naviy, ma’rifiy, madaniy, tadqiqodchilik, pedagogik kompetensiyalarini shakllantirish, adabiyot o‘qitishning inklyuziv ta’lim traektoriyasini qurish orqali kasbiy-pedagogik faoliyatiga tayyorgarlash mexanizmini takomillashtirish, adabiyot o‘qitishda metodologik yondoshuvlarni va umumdidaktik tamoyillarni tadbiq qilish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shu bilan birga bo‘lajak filologlarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning tarkibiy, konseptual va metodik modelini takomillashtirish, raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga keng tatbiq etish, talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda har bir talabaga alohida moslasha oladigan uslubiy ishlarni yaratish hamda adabiyot o‘qitishda inklyuziv ta’limni loyihalashtirish zaruratini taqozo qiladi.

Mamlakatimizda bo‘lajak filologlarga adabiyot fanidan inklyuziv ta’lim berish orqali zaruriy kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish, inklyuziv ta’lim traektoriyasini modulli o‘qitish asosida qurish, o‘qitishning konseptual va metodik tizim modelini ishlab chiqish amalga oshirilmoqda. Konseptual metodik tizim modeli asosida adabiyotdan inklyuziv ta’lim berish amalga oshirilmoqda. 2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yettita ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Taraqqiyot strategiyasida “Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish” ustuvor vazifa etib belgilandi. Bu borada metodologik va kommunikativ yondashuvlar asosida bo‘lajak filologlarni ma’naviy, ma’rifiy, madaniy, tadqiqodchilik, pedagogik kompetensiyalarini shakllangantirish metodikasini ishlab chiqish kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adbiyotlarni tahlil va metodologiya:

Inklyuziv ta’lim sharoitida kommunikativ yondashuv asosida oliy ta’lim muassasasi talabalariga adabiyot o‘qitishni modellashtirish, oliy ta’lim muassasalarida adabiyot ta’limining rivojlanish jarayoni, qonuniyatlari va tendensiyalari hamda ta’lim oluvchilarni kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish muammolari M.Ayupova, N.Dadaxo‘jaeva, L.Muminova, D.Nurkeldieva, L.Nurmuxamedova, N.Raxmonkulova, U.Fayzieva, G.Shaumarov, F.Qodirova, V.Ya.Stoyunin, V.P.Ostrogorskiy, K.D.Ushinskiylar tomonidan o‘rganilgan.

L.Sh.Nurmuhammedovaning “Oilada nogiron farzandni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari” ilmiy tadqiqotlari doirasida oilada nogiron farzandi bor ota-onalarning o‘ziga xos xususiyatlari, qiyinchiliklari va ijtimoiy-pedagogik, psixologik ko‘rsatmalarga muhtojligi tahlil qilingan va bir qator ilmiy natijalar olingan [3**Hata! Başvuru kaynağı bulunamadı.**].

Sh.M.Amirsaidovaning tadqiqotlarida sharq mutafakkirlarining maxsus pedagogika faniga oid ilmiy fikrlari o‘rganilib, Abu Ali Ibn Sinoning maxsus pedagogika fani ravnaqi uchun xizmat qiladigan tibbiy-ilmiy, pedagogik va psixologik g‘oyalari tahlil qilinib, o‘quv jarayoniga tadbiq etish usullari ishlab chiqilgan [11].

M.P.Hamidova tomonidan olib borilgan “Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar so‘z boyligini oshirishning korretsion-pedagogik asoslari” nomli tadqiqot ishida umum va maxsus pedagogik tadqiqotlar asosida aqli zaif bolalarning nutqini ko‘rikdan o‘tkazish metodlari yaratilgan. Bolalarni ko‘rikdan o‘tkazish natijasida aqli zaif bolalar nutqining rivojlanmaganlik mezonlari ishlab chiqilgan. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning predmetlar haqidagi tasavvurlarini kengaytirish, hissiy–irodaviy sohalarini jalb etish bilan birga bilishga qiziqish va nutqiy motivatsiyani kuchaytirishga qaratilgan korreksion–pedagogik ish mazmuni va usullari ishlab chiqilgan [6].

D.A.Nazarova tomonidan maktabgacha yoshdagi zaif eshituvchi bolalar nutqini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy ishida ilk bor maktabgacha ta’limda zaif eshituvchi bolalarning nutqiy rivojlanish darajasini tadqiq qilish metodikasining moslashtirilgan varianti, maktabgacha yoshdagi zaif eshituvchi bolalar nutqini rivojlantirishning mazmuni, yangi interfaol usullari hamda shakllari, o‘rganilayotgan

bolalarning umumiy rivojlanishini ta'minlashda ularning o'ziga xos rivojlanish omilidan kelib chiqib, nutqini keng qamrovli rivojlantirish tizimi ishlab chiqilgan va asoslab berilgan [3].

M.F.Hakimovaning maxsus ta'lim muassasalarini mehnat ta'limi o'qituvchilar uchun aqli zaif o'quvchilarni kasb-hunarga tayyorlashga doir, ta'limning uzviyligini ta'minlash borasida pedagogik tavsiyalar ishlab chiqilgan va maxsus yordamga muhtoj o'quvchilarni kasb-hunarga tayyorlashning samarali tizimi yaratilgan [5].

F.Mirzayevaning "Jismoniy imkoniyati cheklangan o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvini ta'minlash va ularni kasb-hunarga o'rgatish metodikasini takomillashtirish" mavzusidagi dissertatsiya ishida quyidagi ilmiy yangiliklarga erishilgan [2]:

U.Y.Fayziyeva tomonidan 0-1 sinflarda zaif eshituvchi o'quvchilarni savodga tayyorlash va o'rgatish metodikasi ishlab chiqilgan bo'lib, birinchi marta zaif eshituvchi bolalarning ona homila oydagi davridan maktabgacha kelguncha davridagi umumiy rivojlanish jarayoni, eshitish qobiliyatining buzilish vaqti va sabablari o'rganib chiqilgan. Savodga o'rgatish paytida bolalarda tovushlarni talaffuz qilish qo'nikmalarini hosil qilish, so'z boyligini shakllantirish va boyitish, fonematik jarayonlarni tushunish darajasini aniqlash ustida izlanishlar olib borilgan bo'lib, o'zbek tilida birinchi marta zaif eshituvchi bolalarni savodga tayyorlash va ularga savod o'rgatish sistemasi ishlab chiqilgan [7].

Natijalar

Uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish, inklyuziv ta'lim sharoitida kommunikativ yondashuv asosida oliy ta'lim muassasasi talabalariga adabiyot faniga oid bilimlarning yetarli darajada egallanishi, davlat ta'lim standartlari o'quv fanlari bo'yicha ta'limning yakuniy natijalarini, shuningdek, bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi, ular asosida biz pedagogik tajriba-sinov ishlari jarayonida tadqiqotda ishtirok etayotgan talabalar va imkoniyati cheklangan talabalarning inklyuziv tayyorgarligini shakllantirish uchun ishlab chiqilgan didaktik modelni hamda pedagogik shart-sharoitlar majmui sifati va samaradorligini aniqlash maqsadida pedagogik tajriba-sinov ishlari o'tkazildi.

Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan sog'lom talabalar va imkoniyati cheklangan talabalarni "Adabiyot " fanidan metodik ko'rsatmalar, interaktiv o'quv-uslubiy majmualar yordamida o'qitishda ulardagi madaniy kompetensiyani rivojlanganlik darajasi bir necha yillar davomida pedagogik tajribadan o'tkazildi.

Tadqiqot davomida mavzuga oid ilmiy, falsafiy, psixologik, pedagogik va uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish, oliy ta'lim muassasasidagi ta'lim yo'nalishlarning malaka talablari va o'quv rejalari, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining me'yoriy xujjatlari, ish dasturlari, o'quv dasturlari, darsliklar, o'quv qo'llanmalar, maxsus adabiyotlar mazmuni ilmiy-uslubiy taxlil qilindi. Shu bilan bir qatorda oliy ta'lim muassasalarida pedagogik eksperement, so'rovlar o'tkazish, test o'tkazish, mutaxassislar va talabalar bilan suhbatlashish uchun amaliy usullari, o'z-o'zini baholash va ekspert baholash usullari, reyting, ekspert baholash, pedagogik tajriba-sinov, psixodiagnostika, tadqiqot natijalarini matematik-statistik qayta ishlash usullaridan foydalanildi.

Tajriba-sinov ishida inklyuziv ta'lim sharoitida sog'lom va imkoniyati cheklangan talabalarda adabiyot fanini kommunikativ yondashuv asosida o'qitish orqali ulardagi madaniy kompetensiyani rivojlanganligi darajasini baholash mezonlari va ko'rsatkichlarini tanlash, sog'lom va imkoniyati cheklangan talabalarda madaniy kompetensiyasining rivojlanganligining dastlabki darajasini aniqlash, sog'lom va imkoniyati cheklangan talabalarda madaniy kompetensiyasining rivojlantirishning pedagogik va didaktik shart-sharoitlarini amaliyotda joriy etish, sog'lom va imkoniyati cheklangan talabalarda madaniy kompetensiyasini rivojlantirishning o'quv-me'yoriy va o'quv-metodik ta'minotini amalga joriy etish va tajriba-sinov ishini o'tkazish natijasida olingan ma'lumotlarni tahlil etish kabi vazifalar to'liq bajarildi.

Tajriba-sinov ishlari jarayonida inklyuziv ta'lim sharoitida sog'lom va imkoniyati cheklangan talabalarda adabiyot fanini kommunikativ yondashuv asosida o'qitish orqali ulardagi madaniy kompetensiyani rivojlanganlik darajalari aniqlandi va o'tkazilgan tajriba ishlari samaradorligi matematik-statistik jihatdan aniqlandi (1-jadval).

1-jadval

Chirchiq davlat pedagogika universitetida olib borilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari

Inklyuziv ta'lim sharoitida sog'lom va imkoniyati cheklangan talaba-larning madaniy kompetensiyasini rivojlanganlik darajalari	Tajriba guruhi				Nazorat guruhi			
	Tajriba boshida 100 nafar talabalar		Tajriba oxirida 100 nafar talabalar		Tajriba boshida 98 nafar talabalar		Tajriba oxirida 98 nafar talabalar	
	soni	%	soni	%	Soni	%	soni	%
Yuqori	13	13,0	24	24,0	12	12,2	13	13,3
O'rta	20	20,0	45	45,0	19	19,4	23	23,5
Past	67	67,0	31	31,0	67	68,4	62	63,3
Jami	**100**	**100**	**100**	**100**	**98**	**100**	**98**	**100**

Tajriba-sinov guruhida qatnashgan inklyuziv ta'lim sharoitida sog'lom va imkoniyati cheklangan talabalarda adabiyot fanini kommunikativ yondashuv asosida o'qitish orqali ulardagi madaniy kompetensiyani rivojlanganlik darajalari tajriba boshida 13%, tajriba oxirida 24% yuqori darajani ko'rsatdi. O'rta daraja tajriba boshida 20% dan tajriba oxirida 45% o'sdi, past daraja esa 67% dan 31% ga kamaydi.

Nazorat guruhida qatnashgan inklyuziv ta'lim sharoitida sog'lom va imkoniyati cheklangan talabalarda adabiyot fanini kommunikativ yondashuv asosida o'qitish orqali ulardagi madaniy kompetensiyani rivojlanganlik darajalari tajriba boshida 12,2%, tajriba oxirida 13,3% yuqori darajani ko'rsatdi. O'rta daraja tajriba boshida 19,4% dan tajriba oxirida 23,5% o'sdi, past daraja esa 68,4% dan 63,3% ga kamaydi.

Xulosa

Ushbu tadqiqot "Inklyuziv ta'lim sharoitida kommunikativ yondashuv asosida oliy ta'lim muassasasi talabalariga adabiyot o'qitishni modellashtirish" bo'yicha olib borilgan tadqiqot ishida quyidagi xulosalarga kelindi.

Inklyuziv ta'lim sharoitida kommunikativ yondashuv asosida oliy ta'lim muassasasi talabalariga adabiyot o'qitishni modellashtirishga doir pedagogik, psixologik, falsafiy, ilmiy va ilmiy tadqiqot ishlari tahlil qilindi. Filologiya yo'nalishlarining malaka talablari, o'quv rejasi va fan dasturlari o'rganildi. Inklyuziv ta'lim sharoitida kommunikativ yondashuv asosida oliy ta'lim muassasasi talabalariga adabiyot o'qitishni modellashtirishda metodologik yondashuvlar shakllantirildi: aksiologik, tarixiy, ilmiy, ijodiy; umumdidaktik tamoyillar: uzluksizlik, uzviylik, mobillik, universallik, kasbga yo'nalganlik masalalariga e'tibor qaratish hamda filologiya yo'nalishida o'qitiladigan adabiyot fan dasturlarining mazmuni takomillashtirish lozim.

Inklyuziv ta'lim sharoitida adabiyot fanini o'qitishning baholash funksiyasi ta'lim jarayonini loyihalashtirish, ta'lim natijalarini oldindan ko'rish, inklyuziv ta'lim muhitining mavjud pedagogik

shart-sharoitlarini baholash, kasbiy pedagogik harakatning yo‘nalishlarini aniqlash, motivatsion, konativ, aqliy sa’y-harakatlarni bashoratlash va natijaga erishish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Amirsaidova Sh.M. “Maxsus pedagogika fani taraqqiyotida sharq mutafakkiri g‘oyalarining o‘rni va roli” . Ped. fan. nom... diss. – T., 2006.

2. Mirzaeva F.T. Jismoniy imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvini ta’minlash va ularni kasb-hunarga o‘rgatish metodikasini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi – T., 2017.

3. Nazarova D.A. Maktabgacha yoshdagi zaif eshituvchi balalar nutqini rivojlantirish. Nomz.dissertatsiya ishi. Toshkent-2009.

4. Petrova I.V. Praktiko-orientirovannoe obuchenie kak instru- ment formirovaniya professionalnix kompetensiy studentov stroitelnix spesialnostey / I.V. // Sibirskiy pedagogicheskiy jurnal – № 8 – 2010. – S. 293–302.

5. Shumilovskaya, Yu.V. Podgotovka budushego uchitelya k rabote s uchashimisya v usloviyax inklyuzivnogo obrazovaniya : diss ... kand. ped. nauk : 13.00.08 / Shumilovskaya Yuliya Valerevna. — Shuya, 2011. — 175 s.

6. Ushinskiy, K.D. Izbr. ped.sochineniya v 2-x tomax, / K.D. Ushinskiy - M. : Pedagogika, 1974. T.2. Problemi russkoy shkoli. - 438 s.

7. Fayzieva U.Yu. 0-1 sinflarda zaif eshituvchi o‘quvchilarni savodga tayyorlash va o‘rgatish metodikasi. Ped.fan.nom. ... diss. – T., 1994.

KASBGA YO'NALTIRILGAN AKADEMIK LITSEY O'QUVCHILARINING INTELLEKTUAL QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH. (INGLIZ TILI MISOLIDA).

Xodjibekova Dildora Sadriddinovn
Toshkent davlat Agrar universiteti akademik litseyi ingliz tili filologiyasi kafedrasi, ingliz tili fani bosh o'qituvchisi

ANNOTASIYA

Izlanuvchi (o'rta daraja) o'quvchi mavjud va toplangan tajribaga asoslanib topshiriq bo'yicha o'z intellektual qobiliyatini ko'rish ko'nikmasini namoyish etadi.

Intellektual qobiliyatni rivojlanganligini aniqlashning indikator ko'rsatkichlari; Kreativ (yuqori daraja) talaba muammoni aniqlaydi va shakllantiradi, o'z faoliyatini o'zi tashkil qila oladi. Ilmiy tadqiqot faoliyatini olib borish uchun vosita va metodlarni tanlay oladi.

Produktiv (past daraja) o'quvchi qo'yilgan loyihalash va tadqiqot ob'yekti va predmetini mustaqil aniqlash holatida emas. O'quvchi o'z intellektual qobiliyatini mustaqil tahlil qila olmaydi.

Kalit so'zlar: Intellektual, kognitiv, fundamental, individual, pedagogika, psixologiya.

Kirish

Dunyoda ingliz fanini o'qitishda mustaqil ta'limni samarali tashkil etish, texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarida intellektual qobiliyatni rivojlantirish jarayonini loyihalashning ilmiy- metodik asoslarini ishlab chiqish etish muhim sanaladi. Jumladan, jahonning eng ilg'or universitetlari va innovatsion ta'-lim markazlarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (e-learning platforms: Moodle, Ilias, Dokeos va boshqalar) va dasturlari vositasida ingliz fanini o'qitish sifati va samaradorligini oshirish, intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonini loyihalashing metodologik imkoniyatlarini ochib berish, metodologik tizim modelini ishlab chiqish, intellektual qobiliyatlar va fikrlash metodologiyasini o'zlashtirishning yaxlit jarayonini tashkil etish metodikasini ishlab chiqish, uslubiy-didaktik ta'minot mazmunini takomillashtirish, talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlanganlik darajalarini aniqlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Kognitiv mezon: bolajak mutaxassisning kasbiy madaniyati asosida yotuvchi umumilmiy, umumkasbiy, maxsus bilimlarni egallaganlik darajasini, uning intellektual qobiliyatliligi, yangi bilimlarni egallashi uchun ochiqligini va boshqalarni aks ettiradi

O'quv-bilish jarayonida talabalarni intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishning madaniyatlararo tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. D.Bruner turli madaniyatlar, millatlar sharoitida talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish xususiyatlarini o'rgandi. D.Bruner yondashuvining mohiyati shundan iboratki, insonning intellektual qobiliyatlarining rivojlanishi madaniyat va ma'rifat vositalarini o'zlashtirish jarayonida sodir bo'ladi . Intellektual qobiliyatlarning rivojlanishi ramzlashtirishning murakkab tizim usullarini o'zlashtirish va ulardan foydalanish bilan bog'liq; intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish manbalari bilishning texnik va texnologik vositalari bilan bog'liq; intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish omillari biologik omillar bilan emas, balki, birinchi navbatda, uning hayotining ijtimoiy-madaniy sharoitlarini shakllanganligi bilan belgilanadi

Ko'pgina maktab o'quvchilari deyarli ta'lim faoliyati ko'nikmalariga ega emas va shuning uchun ular akademik litseylarda bu ko'nikmalarni shakllantirishda ma'lum qiyinchiliklarni boshdan kechiradilar. Birinchi bosqichdanoq o'quvchilar o'quv yilining oxirigacha ko'pchilik yengib bo'lmaydigan jiddiy muammolarga duch kelishadi.

Maktablar amaliyotiga majburiy foydalanishni joriy etish ingliz tili asosiy fan bo'lmagan mutaxassisliklar bo'yicha o'rta maktab yoki akademik litseydan keying ta'limni rejalashtirishda maktab o'quvchilari tayyorgarligini oshirish;

Respublikamizda mustaqillik yillarida kadrlar tayyorlashning yangi tizimi yaratilib, mutaxassislar sifatiga qo'yiladigan zamonaviy talablarga javob beradigan yuqori malakali, raqobatbardosh, tanlangan ta'lim yo'nalishi bo'yicha mustaqil ishlay oladigan, mamlakatning ilmiy – texnik, ijtimoiy – iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga munosib hissa qo'shishga qodir, jadal ilgarilayotgan ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyot sharoitiga moslasha oladigan, yuksak madaniy va ma'naviy - axloqiy sifatlarga ega bo'lgan mutaxassislar tayyorlash izchil amalga oshirilmoqda.

Agrar sohasiga oid Akademik litsey ingliz tili fanini o'rganuvchi o'quvchilarda qishloq xo'jalik maxsulotlarini qishloq xo'jaligining unumdorligini oshirish uchun ishlab chiqarishning agrosanoat integratsiyasini, dehqonchilik va chorvachilikning texnologiyasini yaxshi o'zlashtirishlari, gen injeneriya, biorganik kimyo, biotexnologiya kabi kimyosini chuqur bilishlari va ingliz tilida tahlil qila olishlari kerak.

Bizning tushunchamizga ko'ra, intellektual qobiliyatlar jarayonning muhim yo'nalishlari birlashtirilgan ajralmas nuqtadir - bu yo'nalishlarni uyg'unlashtirish asosida o'quvchilarning aqlini, bilimini va qobiliyatlarini rivojlantirish - ko'pincha o'zaro bir biridan uzoq, turli komponentlari yashiringan qarama-qarshi tomonga yo'nalishdir. Ta'lim jarayonida rivojlanish jarayonining ikkala yo'nalishi ham zarur bo'lib, ular qarama-qarshiliklarning birligi va kurashi bilan bog'liq. Individual intellektual rivojlantirish talabalarni ta'lim olish jarayonida zamonaviy pedagogika, psixologiya, falsafa, metodikaning fundamental muammolari hisoblanadi.

kasbiy rivojlanish - o'sish, rivojlanish, shakllanish, kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy xususiyatlarni, qadriyat yo'nalishlarini, kasbiy bilimlarni, mahsuldorlik, bilimdonlik, kasbda o'zini o'zi ijodiy amalga oshirish ko'nikmalarni shakllantirish, ijtimoiy rivojlanish - barcha ijtimoiy, psixologik jarayonlarning rivojlanishi, bu orqali shaxs jamiyatning to'liq a'zosi sifatida ishlashga imkon beradigan qadriyatlar tizimini o'rganadi, individning ijtimoiy muhitga kirishishini ta'minlaydi, innovatsion rivojlanish – tizimning o'z komponentlarini takomillashtiruvchi tizimga yangi barqaror elementlarni, innovatsiyalarni kirituvchi maqsadli o'zgarish.

Xulosa:

Pedagogikada turli xil rivojlanish turlarining mavjudligi, jarayonning haqiqatini belgilab qo'yish, shaxsning o'zi rivojlanayotgan mavjudot sifatida murakkabligi, tizimliligi va ko'p qirraliligi bilan bog'liq.

O'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda biz turli muallifning uning kelib chiqishini tarixiy, ijtimoiy-madaniy kategoriya sifatida tushuntirishda yondashuvlari, tuzilmalari, mazmuni, tushunchalari, ob'ektlari asosida quramiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil ,qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak .—T: O'zbekiston, 2017-104 b.

2. Кузьмина Н.В. Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения. -М., 1990. - С. 78 .

3. Карморенко. В.Ю. Интеллект человека./В.Ю. Карморенко, Б.Е. Никитин, Г.Г. Андреев— Воронеж: ВГУ, 1990.— С.181-183

INKLYUZIV TA'LIM MUHITI ALOHIDA TA'LIM EHTIYOJLI BOLALARNING RIVOJLANISHI VA IJTIMOIY MOSLASHUVI SHARTI SIFATIDA

Egamberdiyeva Nigora Azizovna
CHDPU, Pedagogika fakulteti
Maxsus pedagogika kafedrasi o'qituvchisi
https://orcid.org/0009-0001-1670-7890
Sharipov Mirjalol Jamoladdin o'g'li
CHDPU, Maxsus pedagogika/logopediya
II bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bugungi kunda ahamiyati yanada ortib borayotgan inklyuziv ta'lim va undagi muhit hamda inklyuziv ta'limda alohida ta'lim ehtiyojli bolalarning rivojlanishi va ijtimoiylashuvi haqida batafsil yoritilgan. Shu bilan birgalikda maqola huquqiy-normativ hujjatlar, muammao va yechimlar hamda statistikalar bilan boyitilgan.

Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'lim, ijtimoiylashish, sog'lom muhit, maqsadga yo'naltirilgan samarali harakatlar, huquqiy normalar, metodologiya, statistika.

АННОТАЦИЯ

В статье подробно описывается инклюзивное образование, которое сегодня приобретает все большую актуальность, и среда в нем, а также развитие и социализация детей с особыми образовательными потребностями в условиях инклюзивного образования. В то же время статья обогащена нормативно-правовыми документами, проблемами и решениями, статистическими данными.

Ключевые слова: Инклюзивное образование, социализация, здоровая среда, целенаправленные эффективные действия, правовые нормы, методология, статистика.

ABSTRACT

This article provides a detailed description of inclusive education, which is becoming increasingly important today, and its environment, as well as the development and socialization of children with special educational needs in inclusive education. At the same time, the article is enriched with legal and regulatory documents, problems and solutions, and statistics.

Keywords: Inclusive education, socialization, healthy environment, goal-oriented effective actions, legal norms, methodology, statistics.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim jarayonining ajralmas qismi sifatida kundan-kunga ko'lami ortib borayotgan inklyuziv ta'lim sharoitida alohida ta'lim ehtiyojli bolalarni jamiyatga moslashtirish, ta'lim jarayolarida to'siqsiz ishtirok etish va o'zlashtirish, har tomonlama rivojlanish uchun mamlakatmizda bir qator huquqiy-normativ hujjatlar va bir qator tizimli dasturlar ishlab chiqilmoqda. Jumladan, inkluziv ta'limni ta'lim oluvchilarning ijtimoiy ehtiyojlari va shaxsiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda fan,

ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida tashkil etishning huquqiy-me'yorlari ishlab chiqilgan. "Alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'limni tashkil etish maqsadida ta'lim muassasalarini moddiy texnik bazasini mustahkamlash, o'quv dasturlarini moslashtirish, sog'lomlashtiruvchi sifatli ta'lim xizmatlar imkoniyatlarini oshirish va jarayonga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash" kabi muhim tizimli ishlar belgilangan.. Alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarni jamiyat hayotiga to'la-to'kis moslashuvi muammolari har doim ham eng dolzarb o'rinni egallab kelgan masalalardan biri bo'lib kelgan. Bolalar nogironligi ularning hayot faoliyatini cheklabgina qolmasdan, ijtimoiy dezadaptatsiyaga olib keladi. Bu esa o'z xulqi ustidan nazorat qila olmaslik, shuningdek o'z-o'ziga xizmat layoqati, oldinga intilish, mo'ljal olish, o'qish, muloqot va kelgusidagi mehnat faoliyatining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunda esa bolaning rivojlanishida o'zgarishlar bo'lishi uchun oila eng zarur omil hisoblanadi. Ota-onalar uchun tavsiyalar, pedagogik qo'llanmalar, dasturlar, samarali metodlar, zamonaviy yondashuv va izlanishlar natijasida jamiyat inklyuziv ta'limni mohiyatini teran anglamoqda, inklyuzivv ta'limli jamiyatga tayyor bo'lib bormoqda. Bu esa inklyuziv ta'limga jalb qilingan alohida ehtiyojga ega bolalarni ijtimoiylashuvi va rivojlanishiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Inklyuziv ta'lim nima degan savolga bugunki kunda jamiyatimizda bir qator tizimli ishlarning natijasi bilan javob bera olamiz. Inklyuziv ta'limni pedagogik-psixologik tashkil etish juda muhim masala bo'lib, bu masalalarni hal etishda ta'lim, sog'liqni saqlash va mahalla tashkilotlarining o'zaro hamkorligi talab etiladi.


ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarni jamiyatga moslashuvini ta'minlash va bunda o'quv jarayonini tashkil qilish to'g'risida juda ko'p tushunchalar shakllangan bo'lib bunday tushunchalar ichida eng ahamiyatlisi va muhimi -bu inklyuziya tushunchasi.

Inklyuzivlik - inglizcha so'z bo'lib, qo'shish,birlashtirish" ma'nolarini anglatadi. Ushbu termin alohida ta'lim ehtiyojida ega bo'lgan bolalarni umumta'lim maktablarida o'z sog'lom tengdoshlari bilan birgalikdagi ta'lim-tarbiya jarayonini ifodalaydi. Inklyuziv ta'lim jarayonida alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan o'quvchilar sog'lom bolalar bilan birga bir maktabda, sinfda o'qitiladi. Imkoniyati cheklangan bolalar maktabga qadam qo'ygan kunlaridan boshlab alohida qo'llab-quvvatlashga muhtoj bo'ladilar. Bunday qo'llab-quvvatlash ularning butun hayotlari davomida zarur hisoblanadi. Shuning uchun ham maktab ta'limining dastlabki bo'g'inlaridan boshlab, bunday o'quvchilarning ijtimoiy rivojlanishlari uchun qulay shart-sharoit yaratish talab etiladi. Imkoniyati cheklangan o'quvchilar bilan tashkil etiladigan ta'lim jarayoni inklyuziv ta'lim shakllarini aniqlash va uni umumiy ta'lim jarayoni bilan integratsiyalashni talab etmoqda. Bunday integratsiya ularning o'zlariga xos bo'lgan ta'limiy ehtiyojlariga mos kelishi lozim. Inklyuziv ta'lim - o'quvchilarning imkoniyatlari, individual-psixologik, jismoniy va o'zlashtirish xususiyatlarini inobatga olgan holda tashkil etiladigan ta'lim jarayonidir. Ushbu ta'lim imkoniyati cheklangan bolalarga umumta'lim jarayonidagi barcha tadbir-loyihalarga faol va muntazam qatnashish imkoni beradi. Natijada esa bolada yanada erkin harakatlar, tashabbushkorlik, kirishimlik shakllanadi va ko'rsatilgan individual yordam alohida ehtiyojli bolalarni ijtimoiylashtirishda hamda rivojlantirishda ijobiy natijalarni berib boradi.Olgan ko'nikmalarini umumlashtirish imkoniga ega bo'lishadi. S.A.Alexning fikricha, "inklyuziya - ijtimoiy munosabatlarni insonparvarlashtirish va imoniyati cheklangan shaxslarning birgalikdagi sifatli ta'lim olishga huquqlarini tan olish maqsadlarini tushunishning bir xil ma'noda bo'lishini nazarda tutuvchi ijtimoiy konsepsiya" hisoblanadi. Xorijda inklyuziv ta'limni joriy qilish tajribasining tahlili shuni ko'rastadiki, uning rivojlanishi turli mamalakatlarda nogiron bolalarning ta'lim olish huquqlarini amalga oshirishga, me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va manfaatdor doiralarda inkyuziyani tahkil qilish muammolari muhokama qilishga yo'naltirilgan fuqarolik munosabatini shakllanishidan boshlangan. Mamlakatimizda ham bu borada huquqiy-normativ hujjatlar qabul qilingan bo'lib, umummaqsad va vazifalarni amalga oshirishga xizmat qilmoqda.Respublikamizda ijtimoiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tomonidan

2007-yilda “O‘zbeksitonda inklyuziv ta’lim loyihasi” amalga oshirilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrdagi PF-5270-son “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida”, 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g’risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi tarqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-68-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g’risidagi” farmonlari, 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son “Alohida ta’lim ehtiyojhlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi qarori, O‘zbekiston Vazirlar Mahkamaisining 2021-yil 21-oktabrdagi 638-son “Alohida ta’lim ehtiyohjlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g’risida”gi qarori va boshqa huquqiy hujjatlarda ta’lim mazmunini modernizatsiyalash, jarayonni metodik va didaktik ta’minlash va kadrlar masalasi belgilab berilgan. Shu o‘rinda savol tug’iladi inklyuziv ta’lim jarayoniga alohida ehtiyojli bolalarning qaysi toifalar qabul qilinadi?

Inklyuziv ta’lim sinflari va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilinadigan bolalar:



Inklyuziv ta’lim sinflarida jami o‘quvchilar soni 30 nafardan oshmasligi kerak. Ushbu sinflarda umumiy o‘rta ta’lim dasturlari bo‘yicha ommaviy tarzda o‘qiyotgan o‘quvchilar bilan birga maxsus (korreksion) dasturlar asosida o‘qiyotgan alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar soni 3 nafardan oshmaydi. Inklyuziv ta’lim sinflariga faqat bir xil tibbiy tashxisdagi o‘quvchilar qabul qilinadi. Maktablarda inklyuziv ta’lim sinflar soni bir parallel sinflarda 2 tadan ortiq tashkil etilmaydi. O‘quvchilarning bilimlari ulardagi nuqsonlarning o‘ziga xosligini hisobga olgan holda davlat ta’lim standartlariga muvofiq baholanadi. Yuqorida keltirilgan alohida yordamga muhtoj bolalarni rivojlanishi va ijtimoiylashuv darajasining yuqori bo‘lishi uchun inklyuziv ta’lim muhiti ularga mos tarzda tashkil etilishi kerak.Bu masalada inklyuziv ta’lim ishtirokchilari zimmasiga katta ma’suliyat yuklanadi. Inklyuziv ta’lim jarayoni ishtirokchilari ta’limga qamrab olingan o‘quvchilari, umumta’lim maktab o‘qituvchilari, ota-onalar yoki ularni o‘rnini bosuvchi shaxslar, maktab direktori, sinf o‘qituvchisi,

maxsus o‘qituvchi, tyutor, mahalla va keng jamoachilik kompleks holda bolalarning har taraflama rivojlanishi maktab, mahallada imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan mehr-muruvvatli bo‘lishlarini ta’minlashdek muhim bir vazifa ular oldida doimo bosh maqsad bo‘lib turadi. Inklyuziv ta’lim alohida ta’lim ehtiyojiga ega bo‘lgan bolalar uchun rivojlanish va ijtimoiylashish sharti sifatida tahlil qilinar ekan, ushbu ta’lim mos muhitni o‘z tamoyillari asosida yaratishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Tamoyilla quyidagicha:

- ❖ Insonparvarlilik tamoyili. Inson Qadri uning layoqatlari va yutuqlariga bog’liq emasligi prinspi;
- ❖ Hurmat qilish va ijobiy munosabat. Har bir shaxsni his qilish va o‘ylash layoqatiga egaligi prinsipi;
- ❖ Individual yondashuv va muloqot. Har bir shaxsning muloqot qilish va tinglash huquqiga egaligi prinsipi;
- ❖ Bir birini to‘ldirish. Har bir shaxsning bir-biriga kerakligi prinsipi;
- ❖ Ta’limda aniq hamkorlik.Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonining aniq hamkorlik asosida amalga oshirilishi prinsipi;
- ❖ Qo‘lla-quvvatlash va do‘stona muhit. Har bir o‘quvchining o‘z tengdoshlarining qo‘llab-quvvatlovi va do‘stona munosabatlarga ehtiyojmandliligi prinsipi;
- ❖ Kompleks rivojlantirish. O‘quvchi hayotining barcha jabhalarini rivojlantirishni ta’minlashi zarurligi prinsipi.

Inkyuziv ta’lim yuqorida keltirilgan tamoyillar asosida yanada maqsadga muvofiq ravishda tashkil qilinadi va sa’y-harakatlar ijobiy natija beradi. Inklyuziv ta’lim muhitini o‘z maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda tahlil qiladigan bo‘lsak, rivojlanishning turli imkoniyatlariga ega bo‘lgan o‘quvchilar uchun har qanday kamsitishlardan holi bo‘lgan, barcha bolalarga bir xil munosabatda bo‘lishni ta’minlaydigan yagona moslashtirilgan ijtimoiy muhit bo‘lishi, ta’lim jarayoniga jalb qilingan sog’lom o‘quvchilar qatorida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalarning aqli va ijtimoiy salohiyatlarini rivojlantirish sharoitlari, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar bolalar atrofida ularning muammo va qiyinchiliklariga nisbatan bag’rikenglik va ularni hal qilishda birdamlik munosabati, o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishi, emotsional-irodaviy sohasi, bilish faoliyatini faollashtirishga qaratilgan turli xil o‘yinlar kabi mos muhitning mavjud bo‘lishi juda muhimdir. Inklyuziv ta’lim muassasalaridagi ta’lim jarayoni o‘qitishning zamonaviy shakl va metodlariga muvofiq tashkil etiladigan ko‘pqirrali yaxlit tizim doirasida amalga oshiriladi. Tamoyillardan kelib chiqqan holda bolani har tomonlama rivojlantirishni biz endi dars jarayonlarida qo‘llaniladigan metodlar orqali ko‘rib chiqamiz.

“FIKRIY HUJUM” METODI.

Mazkur metod o‘quvchilarning mashg‘ulotlar jarayonidagi faolliklarini ta’minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag‘batlantirish hamda bir xil fikrlash inertsiyasidan ozod etish, muayyan mazvu yuzasidan rang-barang g‘oyalarni to‘plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo‘lgan fikrlarni yengishga o‘rganish uchun xizmat qiladi. “Fikriy hujum” metodining asosiy tamoyili va sharti mashg‘ulotning har bir ishtirokchisi tomonidan o‘rtaga tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mutlaqo ta’qiqlash, har qanday luqma va hazilmutoyibalarni rag‘batlantirishdan iboratdir. Bundan ko‘zlangan maqsad o‘quvchilarning mashg‘ulot jarayonidagi erkin ishtirokini ta’minlashdir. Ta’lim jarayonida ushbu metoddan foydalanish o‘qituvchining pedagogik mahorati va tafakkur ko‘lamining kengligiga bog‘liq bo‘ladi. “Fikriy hujum” metodidan foydalanish chog‘ida o‘quvchilarning soni 10 – 15 nafardan oshmasligi maqsadga muvofiqdir.

“QORA QUTI” METODI.

Ta’lim jarayonida mazkur metodni qo‘llashdan maqsad o‘quvchilar tomonidan mavzuni puxta o‘zlashtirishga erishish bilan birga ularni faollikka undash, ularda hamkorlikda ishlash, ma’lum

vaziyatlarni boshqarish hamda mantiqiy tafakkur yuritish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Metoddan foydalanishda quyidagi harakatlar tashkil etiladi:

✓ o‘quvchilar juftlikka biriktiriladi;

✓ juftliklarga mavzu mohiyatini yorituvchi asosiy tushuncha (tayanch so‘zlar, sanalar, belgilar, raqamlar va ...)ni kartochkalarga qayd etish vazifasi yuklanadi;

✓ o‘qituvchi o‘quvchilar bilan hamkorlikda guruhlar tomonidan topshiriqning bajarilishini tekshiradilar;

✓ topshiriqni to‘g‘ri bajargan guruhning bir a’zosi o‘qituvchi rolini bajaradi va topshiriqning yechimini yozuv taxtasiga yozadi;

✓ sinf o‘quvchilari yozuv taxtasida qayd etilgan fikrni sharhlaydilar (tayanch so‘zlar, sanalar, belgilar, raqamlar va ... qanday ma’noni anglatishini aytadilar).

Ushbu metodlar bolaning har tomonlama rivojlanishi, atrofdagilari bilan bevosita muloqotga kirishishini, bilish faoliyatlarini faollashtirishni, jamoa bilan ishlashni, muammoli va har qanday vaziyatlarga nisbatan tanqidiy va ijobiy munosabat bildirishlarini ta’minlaydi.

NATIJALAR

“Inklyuziv ta'lim bo‘yicha Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlikda 2014-2016 yillarda amalga oshirilgan loyiha doirasida Respublikaning 5 ta hududida tajriba-sinov maydonchalari tashkil etildi. 153 nafar tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya va 1350 nafar pedagog xodim inklyuziv ta'lim xizmatlariga o‘qitildi. Ta'lim tizimiga inklyuziv amaliyotni tatbiq etish bo‘yicha pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutlarining o‘quv rejalariga 3 ta o‘qitish moduli kiritildi. 2000 dan ortiq imkoniyati cheklangan bolalar va ularning ota-onalariga inklyuziv ta'lim xizmatlari tashkil etildi.Bugungi kunda O‘zbekistonda 2022-yilda aholining 2,3 foizi yoki 845,3 ming kishi nogironligi bo‘lgan shaxslar deb topilgan shundan 142,3 ming nafar 18 yoshgacha bo‘lgan nogironligi bor bolalar tashkil etadi. “Hukumat vaziyatni yaxshilash choralarini ko‘rmoqda. Jumladan, hukumat tomonidan 2021-yilda ratifikatsiya qilgan Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyani amalga oshirish choralari ko‘rilmoqda”, - deyiladi.

Hukumatimiz tomonidan 2018-yildan 1-2 guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar (o‘quvchilar)ga oliy ta’lim muassasalariga kirishda 2% kvotalarini ajratilishi xam quvonarli holatdir. Albatta 4-5 yil davomida imkoniyati cheklangan yoshlar oliy ta’limga kirish imkoniyatlari oshdi va shu kunga qadar ta’lim muassasalarda o‘qib ma’lumotga ega bo‘lmoqda, soha bo‘yicha ish olib bormoqdalar.

2021-2022-o‘quv yilida respublikamizda tajriba-sinov tariqasida 31 ta inklyuziv hamda 4 ta korreksion sinflar tashkil qilindi. Shularda 82 nafar o‘quvchi inklyuziv sinfda, 31 nafari esa korreksion sinflarda ta’lim olishmoqda.

Ularga “Inklyuziv ta’lim” markazi tomonidan korreksion sinflar uchun moslashtirilgan adaptiv dasturlar, inklyuziv sinflar uchun “Milliy o‘quv dasturlari asosida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilarni inklyuziv ta’limda o‘qitish metodikasi” qo‘llanmasi har bir fan kesimida o‘qituvchi va maxsus defektolog o‘qituvchi faoliyati yoritilgan dars ishlanmalar tayyorlanib berib borilmoqda.

2022-yil dekabr oyida Xalqaro nogironlar kuni munosabati bilan prezidentimiz murojaat yo‘llar ekan, inklyuziv jamiyatni barpo etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilishini aytgandi. “Ishontirib aytamanki, sizlar o‘zlaringizni yolg‘iz his etmasligingiz uchun bor kuch va imkoniyatlarni safarbar etamiz”, — degandi edi davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev. Shu bilan birgalikda mamalakatmizda inklyuziv ta'limni takomillashtirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini shakllantirish hamda ularga korsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilashga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 13 oktyabrda “Alohida ta'lim ehtiyojlari

bo‘lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi qarori qabul qilindi va qarorga muvofiq 2020-2025 yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. Konsepsiyani amalga oshirish bo‘yicha 2020-2021 yillarga mo‘ljallangan “Yo‘l xaritasi” tasdiqlandi. E'tiborli jihati shundaki, 2023-2025 yillarda inklyuziv ta'lim tizimi 51 foiz umumta'lim maktablarida joriy qilinishi belgilangan. Ushbu ta'lim shakliga 40 foiz imkoniyati cheklangan bolalar jalb qilinadi. Rivojlanishida turli nuqsonlari bo‘lgan hamda davolanish va sog’lomlashtirishga muhtoj bo‘lgan bolalarning ijtimoiy kafolatlarini ta'minlovchi sa'y-harakatlar, korreksion va reabilitatsion ishlar natijasida oxirgi besh yilda 500 nafarga yaqin mana shunday o‘quvchilarning umumiy o‘rta ta'lim maktablariga qaytishi ta'minlandi. Hozirda 5900 dan ortiq umumiy o‘rta ta'lim maktablarida inklyuziv ta'lim bilan 64 ming 700 nafarga yaqin o‘quvchilar qamrab olingan.Yaratilgan keng imkoniyatlar orqali tashkil qilingan inklyuziv va korreksion sinflar orqali ko‘plab alohida ta’lim ehtiyojli bolalar ommaviy maktablarda ta’lim-tarbiya jarayonida sog’lom tengdoshlari qatori ishtirok etmoqdalar. Inklyuziv ta’limning mamalakatmizda rivojlanishi uchun yaratilgan keng imkoniyatlarni birgina yangilangan Konstitusiyamizga “inklyuziv ta’limning alohida norma” sifatida kiritilishi bilan ham izohlashimiz mumkin.

MUHOKAMA

Biz ko‘pchilik qatorida inklyuziv ta’lim rivojlanishini nafaqat rivojlanishi balki renessans davrini o‘tashi tarafdorimiz biroq, bu tizimda ham bir qator muammolar bo‘lib ular quyidagicha:

- ota-onalarning imkoniyati cheklangan bolalarini maktablarga bermasdan, jamiyatdagi odamlardan yashirish holatlari va natijada boqimandalikning vujudga kelishi;
- jamiyatda maxsus ta’limga muhtoj odamlar uchun noto‘g’ri qarashlar mavjudligi va maktablarda darsliklar etishmasligi;
- pedagog o‘qituvchilarning maxsus bilim va psixologik malakaga ega emasligi;
- ta’lim dargohlarida imkoniyati cheklangan bolalarning harakatlanishi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlar yo‘qligi;
- olis hududlarda inklyuziv ta’limga bo‘lgan munosabatning qoniqarsizligi;
- imkoniyati cheklanganlar uchun transport vositalarining yo‘lga qo‘yilishdagi muammolar;
- maktabda o‘quvchilar tomonidan imkoniyati cheklangan bolalarni kamsitish holatlari;
- nuqsoni bor bo‘lgan bolalarni davolash uchun mutaxassislar va apparatlarning etishmasligi;
- ota-onalarda huquqiy bilimlarning etishmasligi, ya’ni nogiron bolaga qarayotganliklari uchun qanday imtiyozlar mavjudligini bilmaslik holatlari;
- imkoniyati cheklangan o‘quvchilarni hunarga o‘rgatishda yoki ularni ish bilan ta’minlashda mavjud bo‘lgan muammolar;
- ota-onalarning psixologik bilimlarni yaxshi bilmaslik jarayoni;
- chekka-chekka qishloqlardagi maxsus yordamga muhtoj bolalarni ham inklyuziv ta’limga qamrab olish jarayoni;
- nogironligi bo‘lgan shaxslarning harakatini yaxshilash uchun ko‘cha yo‘larida
- maxsus yo‘lakchalar tashkil etish;
- inshootlarning maxsus yordamga muhtoj bolalar uchun moslashtirilmaganligi kabilar.

Inklyuziv ta'lim tizimini samarali tashkil etish, barcha imkoniyati cheklangan o‘quvchilarni umumta'lim tizimiga qamrab olish hamda ijobiy natijalarga erishish uchun mavjud muammolar, ularni bartaraf etish yo‘llarini izlab topish hamda amalga oshirish lozim. Bizning fuqarolik jamiyatiga qadam qo‘yayotgan davlatimizda bunday to‘siqlarni o‘z-o‘zini boshqarishning milliy modeli bo‘lgan mahallarda hal etish

mumkin. E'tiborsizlik, yashirish, mablag' masalasi, sharoitga moslashmaslik, kambag'allik, sinfda o'quvchilar sonining ko'pligi, kamsitish, qaramlik, kutilmagan holatlar kabi to'siqlarni mahallalarda bemalol bartaraf etsa bo'ladi, Jamiyatda insonlar orasida nogiron bolalar haqida bilimlarning yetishmasligi oqibatida maxsus ehtiyojli bolalar ta'limdan chetda qolib ketmoqdalar. Bundan tashqari nogiron bolaning qobiliyatlari, huquqlari va ehtiyojlari muntazam ravishda qadrlanmasa, bolalarda o'ziga va qobiliyatlariga nisbatan salbiy munosabat shakllanib boradi. Har qanday jamiyatda har bir bola noyob, maxsus ehtiyojli bolalar esa boshqa bolalar singari huquq, ehtiyoj va intilishlarga ega degan dalilni idrok etish zarurati mavjuddir. Ushbu bilimlarni chuqurlashtirish bu imkoniyati cheklangan ish olib borish bola, oila, hamjamiyat darajasida hamma uchun muhimdir. Inklyuziv ta'lim-davr talabi hisoblanadi. Inklyuziv ta'limdagi mazkur muammolarni hal etishning yo'llari haqida fikr yuritamiz: nogironligi bo'lgan bolalarning oilasi va maktab jamoasi sheriklikda ish olib borishi kerak; jamiyatdagi odamlarning imkoniyati cheklangan bolalar haqidagi noto'g'ri qarashlarini yo'qotishlari; nogiron bolalarning maktab jamoasi va o'quvchilar tomonidan kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik; jamiyatda nogiron shaxslar borligini va ularni hamma qatori inson ekanligini to'g'ri qabul qila olishimiz; imkoniyati cheklangan insonlar vaqtini mazmunli o'tkazishlari uchun ularga mo'ljallab sport klublar, kasb-hunarga tayyorlov kurslarning ochilishi; olis hududlarga ham inklyuziv ta'limning kirib borishini ta'minlash; pedagog xodimlarning bilim saviyasini oshirib borish; maktablarga kelib-ketishlari uchun maxsus avtomobillar qatnovini yo'lga qo'yish zarurligi; olis hududlardagi yo'llar asfalt qilinmaganligi sababli nogiron bolalarning harakatlanishi birmuncha qiyinroq. Ular harakatlanishiga yordam beruvchi maxsus vositalar ishlab chiqish kerakligi; ota-onalar uchun maxsus, imkoniyati cheklanganlar psixologiyasi to'g'risida seminar-treninglar tashkil etilishi; shifokorlar tomonidan imkoniyati cheklangan insonlarni uy sharoitida parvarishlash bo'yicha zarur yo'l-yo'riqlar berilishi uchun maxsus punktlar faoliyatini yo'lga qo'yish; nogiron bolasi bor ota-onalarga uzluksiz nafaqa pullarini berish tizimini joriy etish.

Shu bilan birgalikda asosiy bo'lgan dars jarayonida bir qator tizimli ishlar yo'lga qo'yilishi kerak. Ular quyidagicha:

- Differensiyalashtirilgan ta'lim. O'quvchilarning turli ta'lim ehtiyojlari va uslublarini qondirish uchun turli xil o'quv strategiyalari, materiallari va tadbirlarini taqdim etish;
- Hamkorlikda o'qitish. Turli ehtiyojga ega bo'lgan o'quvchilar uchun individual til o'rganish rejalarini ishlab chiqish uchun maxsus ta'lim o'qituvchilari, til bo'yicha mutaxassislar va tyutorlar bilan hamkorlikda ishlash. Ta'limni moslashtirish.
- Kasbiy rivojlanish. O'qituvchilarga chet tilini o'rganishda turli ehtiyojlarga ega bo'lgan o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha bilim va ko'nikmlarni oshirish uchun doimiy treninglar va malaka oshirish imkoniyatlarini taqdim etish;
- Til o'qitishda madaniy xilma-xillikni integratsiyalash uni turli qatlamdagi o'quvchilar uchun inklyuziv va dolzarb qilish;
- Individual qo'llab-quvvvatlash;
- Munatazam hamkorlik. Ota-ona, tarbiyachi, maxsus pedagog va tibbiyot hodimlari o'rtasida bola haqidagi o'zgarishlar, uning holati haqida doimiy hamkorlik.

Biz yuqoridagi yondashuvlar asosida inklyuziv ta'limda alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalarning ertaroq ijtimoiylashishiga, kasbiy rivojlanishiga va nafaqat jamiyatda balki madaniyatlararo muloqot qilishiga erishamiz. Ularning jamiyatga moslashishi juda muhim rol o'ynaydi. Chunki, "Inson faqat jamiyat bilan uzviylikdagina hayot mazmunini anglashi mumkin" – deydi Albert Eynshteyn.

XULOSA

Butunjahon va mamlakatimizda ham inklyuziv ta'lim kirib borganidan keyin uning mazmun-mohiyatini tushunishning o'zi uzoq yillar talab qilganini yaxshi bilamiz.Biroq bu yo'lda hech kim orqaga

qaytmagan, chunki inklyuziv ta'lim imkoniyati cheklangan bolalar, ular uchun qo'yigam maqsadlarni amalga oshirishda iklyuziv ta'lim-universial ahamiyatga ega ekanligi bilan izohlanadi. Jamiyatimiz bunga tayyor bo'lib bormoqda. Alohida ta'lim ehtiyojigga ega bo'lgan bolalarning ota-onalari va ularni o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan farzand kelajagi uchun qo'yilgan eng yaxshi va ishonchi qadam ularning ishonib bolalarni iklyuziv ta'limga berayotganliklari va talab qilayotganliklaridir. Bu esa ushbu ta'lim haqidagi bilimlarning quyi bo'g'inlarga ham yetib borishi ta'minlaydi.Inklyuziv ta'lim muhiti alohida ta'lim ehtyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun yuqorida aytganimizdek adaptatsion va dars jarayonlari transfarmatsion shaklda tashkil etilishi muhim hisoblanadi. Dars jarayonida rivojlantiruvchi, o'yinli, syujetli texnologiyalardan keng foydalanish ta'limga jalb qilingan alohida ehtiyojli bolalarning toifalariga mos tarzda tashkil etilish, zamonaviy texnologiya va tajribalarni qadriyatlarimizga uyg'unlashtirish ham maqsadlarimizga ijobiy natijalar bilan erishishimizni ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. F.U.Qodirova, M.A.Umaraliyeva, Z.Sh.Matupayeva M.D.Omonova. Inklyuziv va korreksion ta'limda clil texnologiyasi. O'quv qo'llanma. T.: "Sarbon LLS", 2024.

2. F.U.Qodirova, D.A.Pulatova "INKLYUZIV TA'LIM: nazariya va amaliyot" Chirchiq-2022. 252- bet

3. Nargiza Qahhorova Abdumo'minova "INKLYUZIV TA'LIM: XALQARO TAJRIBA VA AMALIYOT, ERISHILGAN NATIJALAR, MUAMMO VA ULARNING YECHIMLARI" International scientific journal "Science and Innovation"

4. N.B.Goipova "Inklyziv ta'lim. Gospital pedagogika" Namangan, 2024, 252 bet.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagiPF-5712-son Farmoni https://lex.uz/ru/docs/-4312785

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrdagi PF-5270-son "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmon https://lex.uz/docs/-3436192

7. O'zbekiston Vazirlar Mahkamaisining 2021-yil 21-oktabrdagi 638-son "Alohida ta'lim ehtiyohjlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori https://lex.uz/ru/docs/-5679836

8. Shahnoza MAMATUROPOVA, O'zA https://uza.uz/oz/posts/51-foiz-maktabda-inklyuziv-talim-tizimi-joriy-etiladi

9. ШОМАХМУДОВА Р.Ш. ИНКЛЮЗИВ ТАЪЛИМ (Халқаро ва Ўзбекистондаги тажрибалар)

ИНКЛЮЗИВ ТАЪЛИМ МУАММОЛАРНИ ҲАЛ ҚИЛИШДА ТАЛАБАЛАРНИНГ МУСТАҚИЛ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ИНТЕРФАОЛ МЕТОДЛАРИ

Элдор Дўсярович Умаров

Ассистент, Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги ТАТУ Самарқанд филиали Компъютер инжиниринги факулътети, Самарқанд, Ўзбекистон

https://orcid.org/ 0000-0001-5957-6862

АННАТАЦИЯ

Педагогик технологияга ўқитувчи маҳоратига боғлиқ бўлмаган ҳолда педагогик муваффақиятни кафолатлай оладиган ўқувчи шахсини шакллантириш жараёни лойиҳаси аввалдан режалаштирилган натижаларга олиб борувчи ва бажарилиши шарт бўлган тартибли амаллар тизими, ўқитувчининг ўқитиш воситалари ёрдамида талабаларга муайян шароитда таъсир кўрсатиши ва бу фаолият маҳсули сифатида улардан олдиндан белгиланган шахс сифатларининг интенсив шакллантириш жараёни каби сифатлар берилади.

Калит сўзлар. Инклюзив таълим, мустақил таълим, аралаш таълим, таълим методлари, дастурий ишланма, педагогик технология.

ABSTRACT

Pedagogical technology is characterized as a process of forming a student's personality that can guarantee pedagogical success without depending on the teacher's skills, a system of systematic actions that lead to pre-planned results and must be performed, a process of intensive formation of predetermined personal qualities in students by the teacher using teaching aids in certain conditions, and as a result of this activity.

Keywords. Inclusive education, independent education, mixed education, educational methods, software development, pedagogical technology.

КИРИШ

Қатор адабиётларда берилган фикрига хам қўшилган ҳолда педагогик жараённи техника имкониятлари ва инсон тафаккури асосида уйғунлашган педагогик жараёндир, деган фикрга келиш мумкин. Демак, педагогик технологияни ўқитувчининг шахсни ривожлантиришга қаратилган ва маълум кетма-кетликдаги фаолияти сифатида қараш мумкин[1].


Таълим жараёнида қўлланиладиган ҳамкорлик технологиялар қаторига модулли ўқитиш, муаммоли ўқитиш, дизайн фикрлаш, масофавий таълим, аралаш таълим, “Скарабей” каби технологияларни киритиш мумкин. Улар қўлланилиши ва мақсадига кўра, фарқли бўлиб, масалан, модулли ўқитиш технологияси мажмули (ўзаро функционал алоқадорликдаги бир бутунликни ташкил қилувчи қисмлар бирикмаси) ёндошувни ифодалайди. Унинг мазмунида жараённи лойиҳалаш алгоритми, фан мазмунига кўра илмий, назарий ва ўқув фани сифатида бир бутун деб қараб, катта модулларга ажратиш унинг мақсадларини аниқлаш, вақт тақсимоти, таянч тушунчалар ва назорат саволларини белгилаш, қўлланиладиган ахборот коммуникация технологиялар, таълим контентлари ва улардан фойдаланиш кетма-кетлигини белгилаш кабилар акс этади.

Талабаларнинг тажрибасидан фойдаланиш, рефлектив кузатишлари, фаол ижодий изланиш ва фикрий тажриба ўтказиш имкониятларини оширишда “Скарабей” технологиясидан фойдаланиш тавсия этилади [2]. Унинг моҳиятини фикрлар ҳужуми ташкил этади. Бунда мавзу бўйича ўрганиладиган саволлар ўртасидаги алоқадорлик, саволга чуқурроқ муносабат, мавзу бўйича талабаларда янги ғоялар пайдо бўлишига имконият яратилади.

Масофавий таълим технологияларида ахборот технологиялари, телекоммуникация технологиялари ва техник воситаларига асосланган таълим тизимига асосланса, аралаш таълим технологиялари анъанавий, масофавий ва мустақил таълим фаолиятларининг уйғунлигидаги таъминлашга қартилган инновацион ёндашувлар сифатида таълим жараёнига кириб бормоқда. Аралаш таълим жараёнида талабаларнинг масофавий ва мустақил фаолияти устувор ҳисобланади.

Талабаларнинг мустақил фаолиятини ташкил этишнинг интерфаол методлари таълим жараёнидаги фаол иштироки, шахсий ривожланиши ҳамда ўқув жараёни самарадорлиги ва таълимнинг сифатини яхшилашга кўмаклашади.

Аралаш таълим



1-расм. Аралаш таълим технологиясида мустақил фаолият механизми

Мустақил таълимни рақамлаштириш асосида таълим, ишлаб чиқариш муносабатлари шунингдек, муаммоли ўқитиш методи (Problem-Based Learning, PBL) талабаларни амалий муаммоларни ҳал қилишга ёрдам беришга қаратилган бўлиб, ҳаётий муаммоларни тадқиқ қилиш ва уларга ечим топишга йўналтирилган[3]. Хусусан, инклюзив таълимга оид муаммоларни ҳал қилишда ташкилий ва психо-педагогик муаммоларни аниқлаш мақсадида гуруҳлар ўртасида дискуссия ташкил қилиш қатор олимлар томонидан тадқиқотларга тортилган Педагогик мониторинг методи таълим жараёнини таҳлил қилиш ва баҳолаш фаолияти бўлиб, маълум муаммоларини аниқлаш орқали ўқувчига индивидуал ёрдам кўрсатишга қаратилган. Лойиҳали ўқитиш (Project-Based Learning) эса, талабаларга аниқ бир мавзуда ишлаб чиқариш ва ёрдам беришга йўналтирилган метод ҳисобланади. Логопедларни инклюзив таълимга тайёрлашда,

проект асосида ўқитиш методи талабаларга лойиҳа ишлаб чиқиш ва уларни амалга оширишда ёрдам беради.

Талабаларни индивидуал фаолиятига йўналтириш қаратилган замонавий технологиялар шахснинг самарали ривожланишини таъминлашга, уларнинг АКТ саводхонлигини оширишга ва когнитив ривожланишини таъминлашга ёрдам беради. Ушбу методикаларнинг ҳар бири талабаларнинг таълим олишга бўлган муносабатини ўзгартиради, уларни мустақил фикрлашга ва амалий кўникмаларга эга бўлишга ундайди. Логопедикада бу усуллар асосан логопедик фаолиятда, яъни жисмоний, руҳий ва сўзлаш қобилияти паст болаларга ёрдам беришда муҳим аҳамиятга эга.

Логопедлар учун динамик таҳлил, уларнинг иш фаолиятидаги ўзгаришларни ва профессионал ривожланиш жараёнларини баҳолаш, ўқитиш методларини самарали ишлашга мувофиқлаштириш учун муҳимдир. Бу таҳлил натижалари орасида болалар билан олиб бориладиган ишларнинг самарадорлиги, уларнинг нутқидаги ўзгаришлар ва педагогик малака даражаси назарда тутилиши керак. Динамик таҳлил илмий тадқиқотларда, профессионал фаолиятни баҳолашда муҳим ҳисобланади ва у орқали индивидуал ва гуруҳда ишлаш самарадорлигини аниқлашга ёрдам беради.

Таҳлиллар ҳамда олиб борилган тадқиқот амалиётимизга таёнган ҳолда замонавий таълимда ахборот-коммуникация технологияларининг (АКТ) роли ортиб бораётгани, билимларни баҳолаш ва назорат қилиш жараёнларини автоматлаштириш, ўқитувчи ва талабалар ўртасидаги ҳамкорликни янги босқичга кўтариш заруриятини туғдиради, деган фикрга келиш мумкин. Шунингдек, илғор мобиль иловаларга таянган ҳолда талабалар билимини аниқлаш, статистик ва динамик таҳлилларини **(аниқлаш, статистика, динамика -АСД)** юритишда қўл келувчи "АСД-таҳлили" деб номланган махсус платформалардан фойдаланиш узлуксиз таълим тизимининг муҳим омил бўлади деган фикрдамиз. Биз томонимиздан таклиф этилаётган мобил илова – талабаларнинг билимларини баҳолаш ва назорат қилишга йўналтирилган замонавий ахборот-технологик восита бўлиб, унинг асосий вазифаси талаба билимларининг динамик таҳлил қилинишини таъминлаш ва уларнинг академик натижаларини кузатишдан иборат. Илова, билимларни баҳолаш жараёнини автоматлаштириш, талабаларнинг ҳар бир иши ва натижаларини аниқ ва тезкор таҳлил қилиш имконини беради[4].

МУҲОКАМА. Бу ёндашувлар ҳар томонлама педагогик самарадорликка, болаларнинг нутқини ва психологик ҳолатини яхшилашга ёрдам беради. Динамик таҳлил болалар билан ишлашда логопедларнинг амалий ва назарий кўникмаларини ёритиб, уларнинг касбий ривожланишини баҳолаш ва самарали ўқитиш стратегияларини ишлаб чиқишга кўмаклашади. Шу асосда логопедлар ўз фаолиятларидаги ўзгаришларни кузатиб, болалар нутқидаги ижобий ўзгаришларни аниқлашлари, уларнинг индивидуал эҳтиёжларига мос келган таълим олиш ва ишлаш имкониятларини яратади.

Узлуксиз таълим тизими жараёнида ахборот технологияларини ўзлаштириш талабаларнинг босқичли амалий лойиҳа топшириқларни бажариш, талабаларнинг мустақил фаолиятини ташкил этишнинг назарий ёндашувлари ва амалга ошириш методларини ишлаб чиқишни талаб қилади.

ХУЛОСА. Талабалар билимини баҳолаш, назорат қилишни мобил иловалар орқали амалга ошириш соҳаларда маълумот тўплаш, таҳлил қилишнинг самарали усули бўлиб, курс ва гуруҳлар кесимида статистик, динамик маълумотларни олишни осонлаштиради. Сўровнома ўтказиш таълим сифати ва талабалар ҳаётини яхшилаш, инновацион ёндашувларни жорий этиш ҳамда муаммоларни ҳал қилиш учун муҳим восита бўлиб, АКТ га оид махсус тестлар ўтказиш, тест (расмли) жавобларни танлаш асосида тегишли сўралган тартибда тўлдириш асосида амалга оширилади.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. О.Д.Рахимов, О.М.Турғунов, Қ.О.Мустафаев, Ҳ.Ж.Рўзиев Замонавий таълим технологиялари /Тошкент, “Фан ва технология нашриёти”, 2013й., 200бет

2. И.Я. Лернер “Проблемное обучение и развитие критического мышление”. 1980

3. Зинченко, В.П. (1985). Психология и педагогика: динамический подход. М.: Наука.

4. E.D.Umarov. Mustaqil ta’limni raqamlashtirish orqali talabalarni inklyuziv ta’limga tayyorlash va bilimini baholash, Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў. Илимий-методикалық журнал. 2025 2-сан. Нөкис 2025

5. E.D.Umarov. Collaborative technologies of preparing students for inclusive education in the process of independent education. Social transformation: challenges and innovations in a changing world: International Scientific and Current Research Conferences. Published:February25, 2025| Pages:57-61

https://orientalpublication.com/index.php/iscrc/article/view/1796

6. E.D.Umarov. J.E.Usarov. Inklyuziv ta`limda darslarni tashkil etishning zamonaviy metodlari. "Pedagoglarning ehtiyojlarga asoslangan uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimi: ilg‘or tajribalar va rivojlanish istiqbollari. Sirdaryo. *2024-yil 7-8-noyabr.*

ФОРМИРОВАНИЕ ИНКЛЮЗИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГОВ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Плиева Руслана Владимировна

Старший преподаватель кафедры «Методики начального образования» Гулистанского Государственного Университета

АННОТАЦИЯ

Даная статья посвящена исследованию современного состояния инклюзивного образования в республике Узбекистан . Актуальность исследуемой проблемы обусловлена обеспечением равного доступа к образованию всех обучающихся и, соответственно, включением детей с ОВЗ в учебно-воспитательный процесс общеобразовательных учреждениях . Одним из главных условий реализации инклюзивного образования является наличие специально подготовленных педагогов, владеющих различными образовательными и коррекционно-развивающими технологиями работы с детьми. Цель исследования заключается в раскрытии содержания работы по формированию инклюзивной компетентности педагогов общеобразовательных учреждений Ведущим методом к исследованию данной проблемы является обобщение опыта работы по изучению и формированию инклюзивной компетентности педагогов к работе с детьми с ОВЗ в общеобразовательных учреждениях . В статье выделены профессиональные компетенции педагогов.

Ключевые слова: формирование, подготовка, инклюзивная компетентность, педагог, дети с ограниченными возможностями здоровья, повышение квалификации, инклюзивное образование.

ВВЕДЕНИЕ

Одним из основных принципов создания единого образовательного пространства является доступность качественного образования, в том числе и для детей с ограниченными возможностями здоровья (ОВЗ).

В последние годы в Республике Узбекистане государством уделяется большое внимание вопросу развития инклюзии в образовании. Так, в 2020 году был принят Закон «О правах лиц с инвалидностью» , а в 2021 году была ратифицирована Конвенция ООН о правах инвалидов. Руководством страны принимает ряд мер по развитию инклюзивного образования, причем данные меры носят и социокультурный просветительский характер, так как для действительной реализации инклюзивности необходимо наличие у членов общества понимания данного понятия. Однако же всё ещё наблюдаются ряд проблем, связанных с инклюзивным образованием в нашей республике, что нами и будет рассмотрено далее.

Прежде всего необходимо сказать, что инклюзивное образование – это одна из форм обучения, при которой каждый ученик независимо от физических, умственных, эмоциональных и языковых особенностей имеет возможность учиться и получать знания в общеобразовательных учреждениях. Инклюзивное образование дает ученикам с особенностями право на полноценное обучение, а учителям необходимо улучшить свои компетенции, чтобы адаптировать в образовательную среду детей с ОВЗ

Анализ исследований ведущих специалистов показал, что одна из проблем реализации инклюзивного образования порождается противоречием между необходимостью его внедрения и недостаточной готовностью педагогов к работе с детьми с ограниченными возможностями здоровья в общеобразовательных организациях. Ее преодоление в значительной мере связано с

формированием инклюзивной компетентности у психолого-педагогических кадров образовательных учреждений. Исследования С. В. Алехиной , О.С. Кузьминой , Ю.В. Мельник и др. показали, что профессиональная компетентность педагога инклюзивного образования напрямую связана с ценностными установками, которые позволяют определить то, что является важным и значимым в учебно-воспитательном процессе общеобразовательного учреждения. Специалисты подчеркивают, что, прежде всего, педагог должен владеть не только знаниями специальной педагогики и коррекционной психологии, но, в первую очередь, принять философию инклюзивного образования. С.В. Алехина указывает, что должно быть переосмысление педагогом своего собственного функционального назначения и его роли в процессе формирования инклюзивных образовательных основ. И.Н. Хафизуллина под инклюзивной компетентностью учителей понимает интегративное личностное образование, обусловливающее способность осуществлять профессиональные функции в процессе инклюзивного обучения, с учетом разных образовательных потребностей учащихся и обеспечивая включение ребенка с ограниченными возможностями здоровья в среду образовательной организации и создание условий для его развития и саморазвития. С.В. Алехина, М.А. Алексеева и Е.Л. Агафонова отмечают, что педагоги общеобразовательных учреждений нуждаются в специализированной комплексной помощи со стороны специалистов в области специальной педагогики, коррекционной психологии и т.д.

Е. В. Иванов пишет: «Инклюзивный подход в настоящее время представляет собой ни что иное, как социальный заказ достигшего определенного уровня экономического, культурного, правового развития общества и государства, где, исходя из принципов гуманизма и толерантности, происходит переосмысление отношения к гетерогенным группам населения, с признанием не только равенства их прав, но и осознанием обязанности обеспечить им равные со всеми другими людьми возможности, в том числе и в получении образования ».

Теоретико-методологической основой исследования являются:

Основополагающие идеи концепции формирования инклюзивной готовности будущих педагогов базируются на понимании сущности феномена «инклюзивная готовность педагога» и требований, которым он должен удовлетворять. Готовность будущих педагогов к работе в условиях образовательной инклюзии должна удовлетворять следующим требованиям:

- теоретические основы компетентностоного подхода, определяющие профессиональную компетентность педагога как способность решать профессиональные проблемы и типичные профессиональные задачи, возникающие в профессиональной деятельности (О. А. Акулова, И. С. Батракова, Е. И. Казакова, В. А. Козырев, Е. В. Бондаревская, Б. С. Гершунский, Н. В. Кузьмина, Л. И. Митина, В. А. Сластенин и др.);

- концепция интегрированного обучения детей с особыми образовательными потребностями и ограниченными возможностями здоровья (Н. Н. Малофеев, Н. Д. Шматко)

- основы акмеологии и андрогогики (А. А. Бодалев, А. А. Деркач, Н. В. Кузьмина и др.)

- аспекты теории непрерывного педагогического образования (Э. Ф. Зеер, С. И. Змеев, В. Г. Онушкин и др.)

-ориентироваться на социализацию всех детей, в том числе и детей с особыми образовательными потребностями (ООП), как средство и результат их включения в образовательное пространство и социум; обеспечивать профессионально-педагогическую уверенность, определять эффективные модели сотрудничества, взаимодействия и общения педагога со всеми участниками процесса инклюзивного образования

Концепция формирования инклюзивной готовности будущих педагогов представляет собой систему научно обоснованных взглядов, отражающих понимание компетентностной сущности инклюзивной готовности как образовательного эффекта и стратегию действий по ее формированию в образовательном пространстве учреждения высшего образования на основе компетентностного подхода . Образовательная ситуация в республике и образовательное пространство учреждений высшего образования удовлетворяют вышеперечисленным требованиям и способны создать условия для формирования готовности будущих педагогов к работе в условиях инклюзивного образования. В основу концепции формирования инклюзивной готовности будущих педагогов в образовательном пространстве учреждения высшего образования положены группы общепедагогических и специфических принципов. Среди общепедагогических следует назвать следующие принципы:

принцип гуманизации, определяющий в качестве основного приоритет ценности жизни ребенка;

принцип ценностного отношения к личности каждого ребенка в образовательном и социальном пространстве (создание среды толерантного общения и взаимодействия, признание права на «инаковость» («он – Другой») и уважительное отношение к индивидуальным особенностям каждого);

принцип признания демократических идей в образовательном пространстве (свобода и право выбора учреждения образования всеми обучающимися и возможность получения образования всеми детьми);

принцип научного обеспечения процесса формирования инклюзивной готовности будущих педагогов (описание концептуальной основы процесса формирования инклюзивной готовности, ее компонентов, компетентностного содержания и т. д.);

принцип системности, определяющий процесс формирования инклюзивной готовности педагогов как систему работы, направленную на развитие каждого ее аспекта (психологического и педагогического) и структурного компонента (когнитивного, эмоционального, мотивационно-конативного, коммуникативного, рефлексивного) посредством овладения необходимыми знаниями, умениями, способами деятельности, компетенциями и способностью их использовать в профессионально-педагогической деятельности;

принцип целостности, раскрывающий содержательную преемственность в овладении теоретическим и практическим содержанием учебных дисциплин, последовательность формирования знаний, умений, компетенций;

принцип мультидисциплинарности, предполагающий межпредметную интеграцию содержания учебных дисциплин, позволяющую рассматривать идеи инклюзивного образования многопланово и разноаспектно.

Специфическими принципами формирования инклюзивной готовности являются:

принцип принятия социальной модели инвалидности в качестве приоритетной, при которой нарушение развития, ребенка рассматривается как вариант проявления индивидуальности;

принцип превентивной адаптации будущих педагогов к новым условиям профессионально-педагогической деятельности (моделирование в образовательном пространстве вуза условий реальной педагогической деятельности и работы в условиях инклюзивного образования);

принцип социальной поддержки и взаимодействия (участие всех заинтересованных сторон (участников инклюзивного образовательного пространства и всего социального окружения) в планировании, продвижении идей и реализации инклюзивного образования);

принцип диагностики профессионально-педагогических затруднений и их профилактики (выявление «узких мест» индивидуальной инклюзивной готовности будущих педагогов и их компенсация);

принцип формирования командного стиля профессионально-педагогического мышления и решения задач (совместное обсуждение и решение задач обучения, коррекции нарушений и минимизации затруднений ребенка с ООП с учителем-дефектологом, педагогом-психологом, социальным педагогом и др.).

Разрабатываемая концепция обеспечивает стратегическое решение задачи формирования инклюзивной готовности педагогов в образовательном пространстве учреждения высшего образования

РЕЗУЛЬТАТЫ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИХ ОБСУЖДЕНИЕ

Анализ работ специалистов и изучение нормативно-правовых документов (закон «Об образовании РУ» Концепция инклюзивного образования до 2025г. К ним относятся следующие компетенции: принятие детей с ограниченными возможностями здоровья, выявление особенностей психофизического развития детей, владение специальными методиками обучения и коррекционно-развивающими технологиями, способность создавать единую образовательную среду, умение составить адресную программу развития ребенка с особыми образовательными потребностями, способность и готовность к формированию толерантного отношения общества к детям различных нозологических групп и др. Выделение ключевых компетенций стали основой для определения содержания работы с педагогами общеобразовательных учреждений Преподаватели кафедры применяли разнообразные формы работы по повышению компетенций педагогических кадров образовательных организаций: лекции-дискуссии, семинары диспуты, консультации, круглые столы, деловые игры, решения проблемных ситуаций и др. При проведении групповых консультаций мы уделяли особое внимание формированию представлений педагогов о сущности инклюзивного образования, о роли учителя в данном инновационном процессе и т.д. На индивидуальных консультациях решали проблемы, связанные с определением специфики организации обучения и воспитания в условиях инклюзии, совершенствованием традиционных методик, ускоряющих и облегчающих процесс овладения знаниями, подбором и использованием разнообразных коррекционных средств обучения и т.д. Проведение круглых столов по проблемам моделирования инклюзивной образовательной среды и применения методов коррекционной работы способствовало определению путей и средств эффективности процесса образования. В ходе обсуждения актуальных проблем, связанных с внедрением инклюзивного образования, педагоги отмечали, что результативность работы будет зависеть от системы сотрудничества с учениками и родителями, а также от глубоких знаний психологических особенностей детей, что, в свою очередь, требует повышения квалификации, переподготовки и постоянного самообразования. Педагоги активно участвовали в работе региональных научно-практических семинаров. Такая работа способствовала обмену мнениями в контексте решения проблем инклюзивного образования в общеобразовательных школах. Такая форма организации работы является одной из оптимальных, т.к. педагоги имели возможность обсудить наиболее интересующие их вопросы, относительно коррекционной направленности процесса обучения, с педагогами-дефектологами. Проведение семинаров, лекций, дискуссий, диспутов способствовало свободному обмену мнениями о путях разрешения той или иной проблемы, раскрытию взаимосвязи теории и практики, а также рассмотрению обсуждаемых вопросов с позиций современной науки. Особое значение в подготовке педагогов в ходе проведения семинаров уделялось деловым играм. Именно такая форма организации обучения способствовала воссозданию реальных ситуаций, в которых изображались определенные фрагменты действительности. Одним из показателей профессиональной компетентности учителя является его способность к самообразованию, поэтому данной форме мы уделили особое внимание. При планировании работы были учтены трудности и образовательные запросы педагогов. Данная работа включала в себя подготовку библиографии по интересующим вопросам в области инклюзивного образования, анализ специальной педагогической литературы, посещение уроков специалистов и обобщение их передового опыта и т.д.

ВЫВОДЫ

Таким образом, особое место в структуре подготовки педагогов, работающих с детьми с ограниченными возможностями здоровья в общеобразовательных организациях, уделяют формированию их инклюзивной компетентности. Планирование и осуществление работы в данном направлении напрямую зависит от интересов и запросов со стороны специалистов, участвующих в процессе организации совместного обучения. Обозначенные организационные формы работы и методы обучения педагогов в системе повышения квалификации кадров способствуют формированию у них готовности к работе с детьми с особыми образовательными потребностями. Проведенное исследование подтвердило высокую актуальность заявленной проблемы и необходимость дальнейшей разработки вопросов относительно формирования профессиональной готовности педагогов к инклюзивному образованию детей с ограниченными возможностями здоровья.

ЛИТЕРАТУРА

1.Постановлением Президента Республики Узбекистан Республики Узбекистан № ПФ-6155 от 3 февраля 2021 г

2. Pedagogy of cooperation in improving the quality of education: international experience and modern approaches International scientific-practical conference, November 13, 2023 от инклюзивного образования к инклюзивному обществу Л.Р. Муминова

3. “Ijtimoiy sohani rivojlantirishning dolzarb muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Проблемы инклюзивного образования и адаптации к ним Плиева Р., ГулДу

4 Специальная педагогика: учеб. Пособие для студ. Высш. Учеб. Заведений / под ред. Назаровой. –М. : Издательский центр «Академия», 2009. –359 с.

3. Рудь Н. Н. Инклюзивное образование: проблемы, поиски, решения. Методическое пособие. – М.: УЦ «Перспектива», 2011.– С. 4.

4. Алехина, С. В. Готовность педагогов как основной фактор успешности инклюзивного процесса в образовании / С.В. Алехина, М. Н. Алексеева, Е.Л. Агафонова // Психологическая наука и образование. – 2011.– Т. 16, № 1. – С. 83–92.

5. Алехина, С. В. О мониторинге инклюзивного процесса в образовании/ С.В. Алехина // Инклюзивное образование: методология, практика, технологии : материалы международной научно-практической конференции. – Москва, 2011. – С.20–22. 3. Кузьмина, О.С. Актуальные вопросы подготовки педагогов к работе в условиях инклюзивного образования / О.С. Кузьмина // Вестник Омского университета. – 2013. – № 2 (68). – С. 191–194.

6. Хафизуллина, И.Н. Формирование инклюзивной компетентности будущих учителей в процессе профессиональной подготовки: автореферат дис. … канд. Пед. Наук / Ильмира Наильена Хафизуллина. – Астрахань, 2008. – 22 с.

7. Шомахмудова Р.Ш. Махсус ва инклюзив таълим: халқаро ва миллий тажрибалар Т.2011.

INKLYUZIV TA'LIMDA ZAMONAVIY KO'NIKMALAR: O'QITUVCHI VA O'QUVCHILARDA

Qodirova Feruzaxon Usmanovna

Professor, Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti, Chirchiq, O'zbekiston

ORCID ID: https://orcid.org/0000-0001-7439-5306

Djadigerova Dilfuza Marat qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Pedagogika fakulteti Maxsus pedagogika: Surdopedagogika yo'nalishi, 1-bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Maqolada aks etgan inklyuziv ta'lim va uning o'qituvchi hamda o'quvchilardagi tajribaviy o'zgarishlari aniqlanar ekan tadqiqot ishi avvalo aniq manbaalar asosida izlanilgan bo'lib, muallifning shaxsiy tajribalari bilan bayon etilgan. Maqolada inklyuziv ta'lim va unga yurtimiz hamda jahondagi munosabatlarning ilmiy asoslari keltiriladi. Dunyo va yurtimiz ilmiy izlanuvchilarining olib brogan ishlari, izlanishlari, ilmiy tadqiqotlari va tajriba sinov ishlari yuzasidan olib borilgan kuzatuvlar davomida olingan xulosalar asosida maqolaga aniq fikrlar va faktlar keltiriladi. Maqoladagi xorij olimlarining olib brogan ishlaridagi asosiy g'oyalar isbotlangan faktlar bilan keltiriladi. Bundan tashqari inklyuziv ta'lim sohasida ta'lim olayotgan talabalar bilan birgalikda alohida ehtiyojga ega bo'lgan o'quvchilar (fuqarolar) ta'limi va ularning o'rgatilayotgan mavzularni o'zlashtirish darajasi o'rganiladi. Olingan xulosalar va tajriba sinov ishlari asosida inklyuziv ta'limning alohida ehtiyoji mavjud bo'lgan bolalar va shu sohada ta'lim beruvchi pedagog-kadrlar uchun qanchalar ahamiyatli ekanligi aniqlandi. Inklyuziv ta'lim sharoitlarini tashkil etish va maxsus ehtiyojli o'quvchilarga ta'lim berishda qaysi metodlarning eng muhim ahamiyat kasb etishi haqida so'z boradi. Bu metodlar yoki resurslar yordamida ta'lim bergan va ta'lim olgan o'quvchilarning ko'rsatkichlari o'rganiladi va tahlil etiladi. Tajriba-sinovning tahliliy ko'rsatkichlari xalqaro tajribalar, xorijlik ilmiy tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida olib borilgan tajriba-sinov ishlari va olingan xulosalar hamda natijalar bilan solishtiriladi. Maqolani o'qigan har bir izlanuvchi inklyuziv talimda texnologiyalarning o'rni haqida batafsil ma'lumotga ega bo'ladi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, zamonaviy ko'nikmalar, raqamli savodxonlik, universal dizayn (UDL), differensial o'qitish va moslashuvchan baholash, inklyuziv o'qitish strategiyalari.

ABSTARCT

This article explores inclusive education and its experiential changes among teachers and students. The research is based on verified sources and supplemented by the author's personal experiences. The article presents the scientific foundations of inclusive education and the attitudes toward it both in our country and globally. It includes well-founded conclusions drawn from observations of studies, research, scientific investigations, and experimental trials conducted by both national and international researchers. The main ideas presented in the works of foreign scholars are supported by proven facts.

Additionally, the education of students with special needs alongside other learners and their ability to master the given subjects is examined. Based on the findings and experimental studies, the significance of inclusive education for children with special needs and the teachers working in this field is clearly identified. The article discusses the key methodologies essential for organizing inclusive education and teaching students with special needs. The effectiveness of these methods and resources in teaching and

learning is analyzed, and the performance of students is evaluated accordingly. The analytical results of the experimental study are compared with international experiences, the research of foreign scholars, and the conclusions and outcomes obtained in their studies. Every researcher reading this article will gain detailed insights into the role of technology in inclusive education.

Keywords: Inclusive education, modern skills, digital literacy, universal design for learning (UDL), differentiated instruction and adaptive assessment, inclusive teaching strategies.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается инклюзивное образование и его влияние на преподавателей и учеников с точки зрения опыта. Исследование основано на проверенных источниках и дополнено личным опытом автора. В статье представлены научные основы инклюзивного образования, а также отношение к нему как в нашей стране, так и во всем мире. На основе наблюдений за исследованиями, научными работами и экспериментальными испытаниями отечественных и зарубежных ученых представлены конкретные выводы и факты. Основные идеи, изложенные в работах зарубежных исследователей, подкреплены доказанными фактами. Кроме того, изучается процесс обучения учащихся с особыми потребностями совместно с другими студентами, а также степень усвоения ими учебных тем. На основе полученных выводов и экспериментальных исследований определена значимость инклюзивного образования как для детей с особыми потребностями, так и для педагогов, работающих в данной сфере. В статье рассматриваются ключевые методики, имеющие важное значение для организации инклюзивного обучения и преподавания учащимся с особыми образовательными потребностями. Анализируется эффективность этих методов и ресурсов, а также оцениваются показатели учащихся. Аналитические показатели экспериментального исследования сравниваются с международным опытом, научными работами зарубежных исследователей, а также сделанными выводами и полученными результатами.

Каждый исследователь, читающий данную статью, получит детальную информацию о роли технологий в инклюзивном образовании.

Ключевые слова: Инклюзивное образование, современные навыки, цифровая грамотность, универсальный дизайн обучения (UDL), дифференцированное обучение и адаптивное оценивание, стратегии инклюзивного преподавания.

Kirish (Introduction)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrda tasdiqlangan “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. dagi PQ-4860-sonli qarorida inklyuziv ta’lim va uning ishtirokchilari haqida batafsil to‘xtalib o‘tilgan bo‘lib, qarorga ko‘ra bir nechta ishlarning ijrosini ta’minlash bayon etilgan edi.[1] Ushbu qarorning ijrosini ta’minlash maqsadida 2020-2025-yillar davomida amalga oshirilishi kerak bo‘gan rejalarning “Yo‘l xaritasi” tuzildi. Inklyuziv ta’lim oluvchilar manfaatlarini o‘zida aks ettiruvchi “Inklyuziv ta’lim konsepsiyasi” tasdiqlandi va ommaga taqdim etildi.[2] Shundan so‘ng inklyuziv ta’lim tushunchasi ta’lim tizimimizga yangi bosqich sifatida kirib keldi. Endilikda ta’limda alohida ehtiyoji bo‘lgan yoshning hech bir iqtidori chetda qolib ketmaydi. Aksincha uning salomatligi va so‘lom turmush tarzi hamda jamiyatdagi ahamiyati uchun barcha kerakli sharoitlar yaratiladi.

Inklyuziv ta’lim zamonaviy ta’lim tizimlarida eng dolzarb masalalardan biri sifatida ko‘riladi. Bu yo‘nalish barcha o‘quvchilarga, ularning jismoniy, aqliy yoki ijtimoiy holatidan qat’i nazar, teng ta’lim olish imkoniyatini taqdim etishga qaratilgan. UNESCOning 2023-yilgi “Global Ta’lim Monitoring

Hisoboti"ga ko‘ra, dunyoda 258 million bola va o‘smir maktabdan tashqarida qolmoqda, ularning katta qismi nogironligi yoki ijtimoiy cheklovlari tufayli ta’limga ega bo‘lolmaydi.[3] O‘zbekistonda ham inklyuziv ta’lim so‘nggi yillarda davlat siyosatining muhim qismiga aylandi. 2022-yilda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun inklyuziv ta’limni qo‘llab-quvvatlashni belgilab, bu sohada muhim islohotlarni boshlab berdi.[4] Biroq, O‘zbekiston Xalq Ta’lim Vazirligining 2023-yilgi ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakatdagi umumta’lim maktablarining faqat 15% i inklyuziv ta’lim uchun yetarli infratuzilma va malakali o‘qituvchilarga ega.[5] Bu statistika inklyuziv ta’limni rivojlantirishda jiddiy muammolar mavjudligini ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METADOLOGIYA.

Inklyuziv ta’limning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan o‘qituvchilar va o‘quvchilarning zamonaviy ko‘nikmalarga ega bo‘lishiga bog‘liq. An’anaviy ta’lim usullari ko‘pincha turli ehtiyojli o‘quvchilarning talablariga javob bera olmaydi. Masalan, eshitish qobiliyati past bo‘lgan o‘quvchilar uchun oddiy darslar samarasiz bo‘lishi mumkin, ammo raqamli vositalar (masalan, subtitrli videolar yoki maxsus ilovalar) bu muammoni hal qilishga yordam beradi. Xuddi shunday, autizm spektri buzilishiga ega o‘quvchilar uchun moslashuvchan o‘qitish strategiyalari va guruhda ishlash ko‘nikmalari ijtimoiy integratsiyani oshirishi isbotlangan. [6] Shu bois, zamonaviy ko‘nikmalar – raqamli savodxonlik, muammolarni ijodiy hal qilish, muloqot va hamkorlik – inklyuziv ta’limda muhim vosita sifatida qaralmoqda.

Xalqaro tajriba ham bu g‘oyani tasdiqlaydi. Masalan, Finlyandiyada inklyuziv ta’lim tizimi o‘qituvchilarning doimiy malaka oshirish kurslari va raqamli texnologiyalardan keng foydalanish tufayli dunyodagi eng muvaffaqiyatli tizimlardan biri hisoblanadi.[7] AQShda esa “Universal Design for Learning” (UDL) deb nomlangan yondashuv turli ehtiyojli o‘quvchilar uchun moslashuvchan ta’lim muhitini yaratishda muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda. O‘zbekistonda bu kabi tajribalarni joriy etish hali boshlang‘ich bosqichda bo‘lib, zamonaviy ko‘nikmalarni rivojlantirishga e’tibor berish zaruriyati tobora oshib bormoqda.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi inklyuziv ta’limda zamonaviy ko‘nikmalarni o‘qituvchilar va o‘quvchilarga singdirishning ta’lim jarayoniga ta’sirini o‘rganishdir. Tadqiqotda quyidagi savollarga javob izlanadi:

1. Raqamli vositalar va moslashuvchan o‘qitish usullari inklyuziv sinflarda o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini qay darajada oshiradi?
2. O‘qituvchilarning zamonaviy ko‘nikmalarga ega bo‘lishi ularning turli ehtiyojli o‘quvchilar bilan ishlash qobiliyatiga qanday ta’sir qiladi?
3. O‘quvchilarda muloqot va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish ularning sinfdagi faolligi va ijtimoiy moslashuviga qanday yordam beradi?

Bizning gipotezamiz shuki, zamonaviy ko‘nikmalar inklyuziv ta’limda o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini va sinfdagi faolligini oshiradi, shu bilan birga o‘qituvchilarning moslashuvchanligini va samaradorligini yaxshilaydi. Ushbu tadqiqot O‘zbekiston ta’lim tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish uchun amaliy strategiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari nafaqat mahalliy kontekstga, balki xalqaro tajribaga ham asoslanib, kengroq miqyosda foydalanish imkonini beradi.

Tadqiqot O‘zbekistonning Toshkent va shahridagi 5 ta umumta’lim maktabida o‘tkazildi. Ushbu maktablar inklyuziv ta’limni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha davlat dasturi doirasida tanlandi. Tadqiqotda jami 150 nafar o‘quvchi va 35 nafar o‘qituvchi ishtirok etdi. O‘quvchilarning yoshi 10-16 yosh oralig‘ida bo‘lib, ulardan 50 nafari imkoniyati cheklangan edi. Imkoniyati cheklangan o‘quvchilar quyidagi guruhlarga bo‘lingan edi:

- 20 nafari eshitish qobiliyati past;

- 15 nafari ko‘rish qobiliyati zaif;
- 15 nafari autizm spektri buzilishi yoki boshqa rivojlanishdagi og‘ishlarga ega. O‘qituvchilar orasida tajribasi 3 yildan 25 yilgacha bo‘lgan pedagoglar bor edi, ularning 60% i ilgari inklyuziv ta’lim bo‘yicha maxsus tayyorgarlikdan o‘tmagan edi.

Tadqiqot 16 haftalik eksperimental dastur asosida o‘tkazildi va ikki asosiy bosqichdan iborat edi:

1. O‘qituvchilar uchun trening dasturi:
   - Muddat: 6 hafta.
   - Hajm: Har bir o‘qituvchi uchun 30 soat nazariy va 30 soat amaliy mashg‘ulotlar.
   - Mavzular:
     - Raqamli vositalardan foydalanish: Google Classroom, Microsoft Teams, Kahoot va maxsus o‘quv ilovalari (masalan, eshitish qobiliyati past o‘quvchilar uchun subtitrli darslar).
     - Inklyuziv o‘qitish strategiyalari: Universal Dizayn (UDL), differensial o‘qitish va moslashuvchan baholash usullari.
     - Emotsional intellekt: O‘quvchilarning turli ehtiyojlarini tushunish va ularga individual yondashish.
   - Metodika: Trening davomida o‘qituvchilar guruhlarga bo‘linib, har bir guruh real sinf muammolarini hal qilishga oid loyihalar tayyorladi. Masalan, ko‘rish qobiliyati zaif o‘quvchilar uchun audio darslar yaratildi.
2. O‘quvchilar uchun mashg‘ulotlar:
   - Muddat: 10 hafta.
   - Hajm: Har hafta 4 soatlik maxsus darslar.
   - Mavzular:
     - Muloqot ko‘nikmalari: Guruh loyihalari orqali hamkorlik qilish (masalan, umumiy prezentatsiya tayyorlash).
     - Muammolarni hal qilish: Raqamli o‘yinlar (Minecraft Education) va simulyatsiyalar yordamida ijodiy yechimlar topish.
     - O‘z-o‘zini boshqarish: Vaqtni rejalashtirish va o‘qishga motivatsiya oshirish uchun kundalik rejalar tuzish.
   - Metodika: Har bir dars inklyuziv muhitga moslashtirildi. Masalan, eshitish qobiliyati past o‘quvchilar uchun vizual materiallar, autizmli bolalar uchun esa aniq va tuzilgan topshiriqlar ishlatildi.

Ma’lumotlar yig‘ish uchun quyidagi usullar qo‘llanildi:

- Testlar: Tadqiqot boshida va oxirida o‘quvchilarning matematika, o‘qish va tabiatshunoslik bo‘yicha o‘zlashtirish darajasi o‘lchandi. Testlar imkoniyati cheklangan o‘quvchilar uchun moslashtirildi (masalan, ko‘rish qobiliyati zaiflar uchun yirik shriftli variantlar).
- So‘rovnomalar: O‘qituvchilar va o‘quvchilarning zamonaviy ko‘nikmalardan foydalanish bo‘yicha fikrlari 5 ballik Likert shkalasi asosida yig‘ildi. Ota-onalardan ham qo‘shimcha mulohazalar olindi.
- Kuzatuvlar: Tadqiqotchilar har hafta sinflarga tashrif buyurib, o‘quvchilarning faolligi, o‘qituvchilarning moslashuvchanligi va sinf muhitini qayd etdi.
- Intervyular: 10 nafar o‘qituvchi bilan yarim tuzilgan suhbatlar o‘tkazilib, ularning tajribasi va qiyinchiliklari o‘rganildi.

Ma'lumotlar SPSS 26 dasturida tahlil qilindi. O'rtacha foizlar, t-test (natijalarning statistik ahamiyatini aniqlash uchun) va standart og'ishlar hisoblandi. Tadqiqotning ishonchliligi Cronbach's Alpha koeffitsienti (0.87) bilan tasdiqlandi.

Natijalar (Results)

Tadqiqot natijalari quyidagi asosiy topilmalarni ko'rsatdi:

1. O'quvchilarning o'zlashtirish darajasi:
   - Tadqiqot boshida umumiy o'quvchilar guruhining o'rtacha o'zlashtirish darajasi 60% edi. 16 hafta oxirida bu ko'rsatkich 81% ga yetdi.
   - Imkoniyati cheklangan o'quvchilar guruhida o'zlashtirish darajasi 52% dan 74% ga ko'tarildi.
   - Fanlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki, matematikada o'sish 18% ni, o'qishda esa 15% ni tashkil etdi.
2. O'qituvchilarning ko'nikmalari:
   - Treningdan oldin o'qituvchilarning raqamli vositalardan foydalanish darajasi o'rtacha 55% deb baholandi. Treningdan keyin bu ko'rsatkich 88% ga oshdi.
   - Inklyuziv o'qitish strategiyalarini qo'llash darajasi 92% ga yetdi, buni o'qituvchilarning o'z-o'zini baholashi va kuzatuv natijalari tasdiqladi.
3. O'quvchilarning faolligi va ijtimoiy ko'nikmalari:
   - Sinfdagi faollik 65% dan 83% ga oshdi. Ayniqsa, guruh loyihalari imkoniyati cheklangan o'quvchilarning hamkorlik qilishini 70% ga oshirdi.
   - Muammolarni hal qilish ko'nikmasi o'quvchilarning 78% ida sezilarli yaxshilandi (test natijalariga ko'ra).
4. So'rovnoma natijalari:
   - O'qituvchilarning 90% i zamonaviy ko'nikmalar o'quvchilarning turli ehtiyojlariga moslashishni osonlashtirganini bildirdi.
   - O'quvchilarning 82% i raqamli vositalar va guruh ishi o'qishni qiziqarli qilganini ta'kidladi.
   - Ota-onalarning 75% i farzandlarining sinfdagi faolligi va o'ziga ishonchi oshganini qayd etdi.

Jadval 2: O'quvchilarning o'zlashtirish darajasi (foizda)

Jadval 2: O'quvchilarning o'zlashtirish darajasi (foizda)

Guruh	Tadqiqot boshida	Tadqiqot oxirida	O'sish (%)
Umumiy o'quvchilar	60%	81%	21%
Eshitish qobiliyati past	53%	75%	22%
Ko'rish qobiliyati zaif	50%	73%	23%
Autizm spektri	54%	74%	20%

Grafik 1: O'qituvchilarning raqamli ko'nikmalari o'sishi
(Tahlil davomida grafik qo'shish mumkin: oldin 55%, keyin 88%.)

Muhokama (Discussion)

Tadqiqot natijalari zamonaviy ko‘nikmalarni inklyuziv ta’limda joriy etishning o‘quvchilar va o‘qituvchilar uchun katta foyda keltirishini tasdiqladi. Raqamli vositalar, masalan, Google Classroom va maxsus ilovalar imkoniyati cheklangan o‘quvchilar uchun ta’limni qulay va samarali qildi.[8] Masalan, eshitish qobiliyati past o‘quvchilar uchun subtitrli videolar va vizual materiallar o‘zlashtirish darajasini 22% ga oshirdi. Bu natijalar UNESCOning 2022-yilgi hisobotida keltirilgan raqamli texnologiyalarning inklyuziv ta’limdagi ijobiy ta’siri haqidagi xulosalar bilan mos keladi.[9]

O‘qituvchilarning moslashuvchan o‘qitish strategiyalari va emotsional intellektni rivojlantirishi sinf muhitini yanada qo‘llab-quvvatlovchi holga keltirdi. Masalan, differensial o‘qitish usuli har bir o‘quvchining ehtiyojiga qarab darsni moslashtirishga imkon berdi, bu esa autizmli o‘quvchilarning faolligini oshirdi. Xalqaro tajribada ham shunga o‘xshash natijalar kuzatilgan: AQShda UDL yondashuvi o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini o‘rtacha 15% ga oshirgani qayd etilgan.[10]

O‘quvchilar orasida muloqot va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarining rivojlanishi ularning ijtimoiy integratsiyasiga katta hissa qo‘shdi. Guruh loyihalari va raqamli o‘yinlar o‘quvchilarning bir-biri bilan hamkorlik qilishini osonlashtirdi, bu esa ayniqsa imkoniyati cheklangan bolalar uchun muhim edi. Bu holat Brown va McCart tadqiqotidagi “ijtimoiy ko‘nikmalar inklyuziv ta’limda muvaffaqiyat kaliti” degan xulosani tasdiqlaydi.

XULOSA

Results and Statistics

The results of the study showed notable improvements in student performance, motivation, and engagement after incorporating pedagogical technologies into the primary school mathematics curriculum. The data collected from the pre-test and post-test assessments, surveys, and teacher interviews provide detailed insights into the effectiveness of these innovations in primary education.

1. Impact on Student Performance:

A significant improvement in academic performance was observed in the experimental group, which participated in technology-enhanced lessons, compared to the control group, which continued with traditional teaching methods.

Pre-test Results:

Experimental group (n = 150): Average score = 72%

Control group (n = 150): Average score = 70%

Post-test Results:

Experimental group (n = 150): Average score = 88%

Control group (n = 150): Average score = 74%

Improvement:

Experimental group: 88% - 72% = 16% increase

Control group: 74% - 70% = 4% increase

The experimental group outperformed the control group by 12% in terms of overall improvement in scores. This suggests that the integration of digital tools, such as interactive whiteboards and gamified learning platforms, directly contributed to better academic outcomes.

Summarizing the results of the research

Category	Experimental Group (Technology-Enhanced)	Control Group (Traditional Method)	Difference
Pre-test Performance	72%	70%	+2%
Post-test Performance	88%	74%	+12%
Improvement in Performance	16%	4%	+12%
Student Motivation (Survey)	85% (Enjoyment and Interest Increased)	45%	+40%
Student Motivation (Survey)	80% (More Motivated to Participate)	50%	+30%
Student-Teacher Interaction	13 interactions/lesson (30% increase)	10 interactions/lesson	+30%
Problem-Solving Skills	85% could solve complex problems	67%	+18%
Teacher Feedback (Training)	80% agree that technology helped students	-	-
Time Efficiency (Preparation)	3 hours/week	4 hours/week	-25%

This table illustrates the key findings in terms of student performance, motivation, interaction, and teacher feedback. The experimental group showed a higher improvement in various metrics compared to the control group, highlighting the positive impact of using pedagogical technologies in primary school mathematics education.

2. Student Motivation and Engagement:

The survey data indicated a marked increase in student motivation and engagement in the experimental group.

Motivation and Engagement Survey Results:

Experimental Group:

85% of students reported an increase in enjoyment and interest in mathematics lessons.

80% of students felt more motivated to participate and engage in learning activities.

Control Group:

45% of students reported an increase in enjoyment.

50% of students reported feeling more motivated.

These results clearly show that the use of pedagogical technologies significantly increased students' motivation and engagement with mathematics. The experimental group was almost twice as likely to express enjoyment and motivation compared to the control group.

3. Student-Teacher Interaction:

The study also observed an increase in student-teacher interactions in the experimental group, which used interactive technologies in their lessons. Teachers reported more dynamic classroom discussions and increased participation from students.

Interaction Data:

Traditional classroom (Control group): 10 student interactions per lesson on average.

Technology-enhanced classroom (Experimental group): 13 student interactions per lesson on average, representing a 30% increase.

This increase in interaction suggests that technology facilitated a more collaborative and engaging learning environment, where students were more comfortable participating and asking questions.

4. Teacher Feedback:

Interviews with teachers provided insights into the effectiveness of using pedagogical technologies in mathematics education.

Teacher Perception:

80% of teachers in the experimental group agreed that using technology improved student understanding of mathematical concepts.

60% of teachers found that digital tools and resources allowed them to provide more personalized learning experiences.

However, 20% of teachers reported challenges related to a lack of training in using technology effectively and limited access to resources.

This indicates that while the majority of teachers recognize the benefits of technology in enhancing the teaching and learning process, there remains a need for further professional development and training to fully capitalize on these tools.

5. Improvement in Mathematical Problem-Solving:

The experimental group showed a significant improvement in mathematical problem-solving skills as a result of the technology-based approach.

Problem-Solving Skills:

In pre-test assessments, only 60% of students in the experimental group were able to solve complex word problems accurately.

After the intervention, 85% of students in the experimental group successfully solved similar problems, marking a 25% improvement in problem-solving ability.

In contrast, the control group saw a much smaller increase in problem-solving skills, improving by only 5% (from 62% to 67%).

This significant improvement in problem-solving skills among students in the experimental group highlights the effectiveness of technology in fostering critical thinking and application of mathematical concepts.

6. Time Efficiency:

Teachers in the experimental group reported that the integration of pedagogical technologies allowed for more efficient lesson planning and delivery.

Time Efficiency:

Traditional teaching: Teachers spent an average of 4 hours per week preparing and managing classes.

Technology-enhanced teaching: Teachers spent an average of 3 hours per week preparing and managing classes, representing a 25% reduction in time spent on preparation and class management.

This reduction in time suggests that technology helped streamline the teaching process, allowing teachers to focus more on individual student needs and less on administrative tasks.

Conclusion of Results:

The statistical data from this study clearly demonstrates that the integration of pedagogical technologies into primary school mathematics education has a positive impact on student performance, motivation, engagement, and problem-solving abilities.

Key Results:

16% improvement in student academic performance in the experimental group.

85% of students in the experimental group reported increased motivation and enjoyment.

30% increase in student-teacher interaction in technology-enhanced classrooms.

25% improvement in problem-solving skills in the experimental group.

25% reduction in time spent on class preparation by teachers using digital tools.

These results suggest that pedagogical technologies, such as interactive learning platforms, digital tools, and gamification, can significantly enhance the learning experience and lead to improved academic outcomes in primary education. However, the need for ongoing teacher training and the provision of sufficient technological resources must be addressed to ensure the widespread and effective implementation of these methods.

Conclusion

The research highlights the potential of pedagogical technologies to enhance the teaching and learning of mathematics in primary education. By integrating interactive tools, gamification, and personalized learning approaches, mathematics education can become more engaging and effective. However, further efforts are needed to ensure that teachers receive adequate training and resources to make the most of these innovations. Overall, the study supports the idea that modern pedagogical methods can significantly improve students' mathematical skills and foster a positive attitude toward learning.

Recommendations for Future Research:

Investigate long-term effects of technology-enhanced mathematics education on students' academic success in higher grades.

Explore the potential of specific digital tools and platforms in fostering conceptual understanding in mathematics.

Study the impact of teacher collaboration and sharing best practices in the use of pedagogical technologies.

LITERATURE:

1.Gagné, R. M., Wager, W. W., Golas, K. C., & Keller, J. M. (2005). Principles of Instructional Design (5th ed.). Wadsworth Publishing.

2.Hattie, J., & Timperley, H. (2007). The power of feedback. Review of Educational Research, 77(1), 81-112.

3.Mayer, R. E. (2009). Multimedia learning (2nd ed.). Cambridge University Press.

4.Puentedura, R. R. (2013). SAMR: A framework for integrating technology into teaching and learning. International Society for Technology in Education (ISTE).

5.Siemens, G. (2005). Connectivism: A learning theory for the digital age. International Journal of Instructional Technology and Distance Learning, 2(1), 3-10.

NEYRAPEDAGOGIKA ASOSIDA O‘QUVCHILARNI TANQIDIY FIKRLASH QOBILYATINI RIVOJLANTIRISH

Raxmanova Muqaddas Qaxramonovna
ChDPU Pedagogika fakulteti v.b professori
L.X.Raxmatullayeva
Pedagogika yo’nalishi 2-kurs talabasi
L.R.To‘xtamurodova
Pedagogika yo’nalishi 2-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola neyropedagogika asosida o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish usullarini tahlil qiladi. Unda shaxsiy yondashuv, muammoli ta’lim, o‘yinlar, texnologiyalar va innovatsion metodlar orqali o‘quv jarayonini samarali tashkil etish yo‘llari ko‘rsatilgan. Tanqidiy fikrlashni tahlil qilish, baholash va ijodiy qaror qabul qilish jarayonlari sifatida aniqlash bilan birga, o‘quvchilarning kognitiv rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi usullar tavsiya etiladi. Maqola zamonaviy ta’limda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning dolzarbligini asoslaydi. Talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayon modelini ishlab chiqish va uning individual yondashuv asosida amalga oshirilishini tadqiq etish masalalari yoritilgan. Zamonaviy ta’lim tizimida ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish va rivojlantirish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu jarayon talabalarning mustaqil fikrlashi, innovatsion g‘oyalar ishlab chiqishi hamda muammoli vaziyatlarni tahlil qilishida asosiy omil sifatida qaraladi. Maqolada individual ta’lim usullari, neyropedagogika, neyrofidbek texnologiyalari, shuningdek, 5M metodining o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Ushbu metodlar ijodiy fikrlashni shakllantirish, yangicha yondashuvlarni rivojlantirish va innovatsion yechimlar ishlab chiqishda samarali ekanligi ta’kidlanadi. Shuningdek, pedagogik modelni ishlab chiqishda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish muhimligi qayd etiladi. Tadqiqot natijalari talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun samarali instrumentlardan foydalanish imkoniyatlarini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: tanqidiy fikrlash, neyropedagogika, ta’lim, kognitiv rivojlanish, argumentatsiya, muammoli ta’lim, savol berish.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются методы развития критического мышления учащихся на основе нейропедагогики. Рассматриваются способы эффективной организatsii учебного процесса через персонализированный подход, проблемное обучение, игры, технологии и инноватsionные методы. Помимо определения критического мышления как процесса анализа, оценки и творческого принятия решений, в статье предлагаются методы, оказывающие положительное влияние на когнитивное развитие учащихся. Обоснована актуальность развития критического мышления в современном образовании. В исследовании также рассматривается разработка модели педагогического процесса, направленной на развитие творческих способностей студентов с учетом индивидуального подхода. Формирование и развитие творческих способностей имеют важное значение в современной системе образования, так как способствуют развитию самостоятельного мышления, генератsii инноватsionных идей и анализу проблемных ситуатsiй. В статье анализируются роль и значение индивидуализированных методов обучения,

нейропедагогики, технологий нейрофидбека, а также метода 5M. Подчеркивается их эффективность в формировании творческого мышления, развитии новых подходов и создании инноватsионных решений. Кроме того, акцентируется важность личностно-ориентированного подхода и использования информатsионно-коммуникатsионных технологий при разработке педагогической модели. Результаты исследования раскрывают возможности использования эффективных инструментов для развития творческих способностей студентов.

Ключевые слова: критическое мышление, нейропедагогика, образование, когнитивное развитие, аргументатsия, проблемное обучение, постановка вопросов.

ANNOTATION

This article analyzes methods for developing students' critical thinking skills based on neuro-pedagogy. It presents ways to effectively organize the learning process through a personalized approach, problem-based learning, games, technologies, and innovative methods. In addition to defining critical thinking as a process of analysis, evaluation, and creative decision-making, the article recommends methods that positively influence students' cognitive development. The relevance of developing critical thinking in modern education is substantiated. The study also explores the development of a pedagogical process model aimed at enhancing students' creative abilities through an individualized approach. The formation and development of creative abilities are of great importance in modern education, as they serve as key factors in fostering students' independent thinking, generating innovative ideas, and analyzing complex situations. The article examines the role and significance of individualized learning methods, neuro-pedagogy, neurofeedback technologies, and the 5M method. These methods are emphasized as effective tools for fostering creative thinking, developing new approaches, and generating innovative solutions. Additionally, the importance of a learner-centered approach and the integration of information and communication technologies in the development of a pedagogical model is highlighted. The research results provide insights into effective tools for enhancing students' creative abilities.

Keywords: critical thinking, neuro-pedagogy, education, cognitive development, argumentation, problem-based learning, questioning.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Tanqidiy fikrlash – bu mustaqil ravishda axborotni tahlil qilish, mavjud dalillarga asoslangan xulosalar chiqarish va muammolarni samarali hal qilish qobiliyatidir. Ushbu ko'nikmalarni rivojlantirish uchun neyropedagogika yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi.

Neyropedagogika – bu ta'lim jarayonida inson miyasi va asab tizimining ishlash xususiyatlarini o'rganib, o'quv jarayonini yanada samarali tashkil etishga yo'naltirilgan fan sohasi hisoblanadi. Ushbu yondashuv orqali o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish ularning miyasining kognitiv imkoniyatlariga mos metodlarni qo'llash orqali amalga oshiriladi. Bu jarayon bir necha muhim bosqichlarni o'z ichiga oladi.

1. Miyaning imkoniyatlarini tushunish va qo'llash

O'quv jarayonining samaradorligini oshirish uchun inson miyasi qanday ishlashini tushunish va ushbu bilimlarni o'quv jarayoniga tatbiq etish lozim. Bunda quyidagi tamoyillar asosida ish olib borish mumkin:

1.1. Miyadagi o'ng va chap yarim sharlarning faoliyatini inobatga olish

Miya ikki asosiy yarim shardan iborat bo'lib, ularning har biri turli kognitiv jarayonlarga javobgardir:

- Chap yarim shar – mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, til va matematik qobiliyatlar uchun javobgardir.
- O‘ng yarim shar – ijodiy fikrlash, emotsional idrok va tasavvur qilish jarayonlariga mas’uldir.

O‘quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun ikkala yarim sharning faoliyatiga mos tarzda mashg‘ulotlarni tashkil etish kerak. Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun – aniq tahlil qilish talab etiladigan savollar, masalalar va muammolarni qo‘yish. Masalan, sabab va oqibat munosabatlarini tahlil qilish, statistik ma’lumotlarga asoslangan xulosalar chiqarish kabi topshiriqlarni berish.

- Ijodiy fikrlashni rag‘batlantirish uchun – ochiq savollar berish, turli vaziyatlarga ijodiy yechim topishga yo‘naltirilgan topshiriqlarni ishlab chiqish.

Bunday yondashuv natijasida o‘quvchilar turli muammolarni hal qilish jarayonida analitik va ijodiy tafakkurlarini uyg‘unlashtirib, tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishlari mumkin.

1.2. E’tiborni rag‘batlantirish va diqqatni boshqarish

O‘quvchilarning e’tiborini jalb qilish va uni uzoq vaqt davomida saqlab qolish tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun muhim omildir. Chunki tanqidiy fikrlash jarayoni chuqur kontsentratsiyani talab qiladi. Buning uchun quyidagi usullar qo‘llanishi mumkin:

- Faol o‘yinlar va interfaol metodlardan foydalanish – interfaol muhokamalar, rolli o‘yinlar va guruhli loyihalar orqali o‘quvchilarning faolligini oshirish.
- Vizual materiallar bilan ishlash – grafikalar, jadvallar va diagrammalardan foydalanish orqali o‘quvchilar axborotni chuqurroq tahlil qilishga undash.
- E’tiborning pasayishini oldini olish uchun turli texnikalarni qo‘llash – masalan, "Pomodoro" usuli (ma’lum vaqt davomida ishlash va qisqa tanaffuslar qilish) orqali o‘quvchilarning diqqatini optimal darajada ushlab turish.

2. Axborotni chuqur tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish

Tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun o‘quvchilarga axborotni mustaqil tahlil qilish imkoniyatini yaratish muhimdir. Bunda quyidagi yondashuvlar samarali hisoblanadi:

- Savol berish texnologiyasi – "Nima uchun?", "Qanday qilib?", "Qaysi asosga ko‘ra?" kabi savollar orqali o‘quvchilarning mantiqiy tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish.
- Dalillarga asoslangan fikrlash – har qanday xulosani asoslash uchun aniq dalillar keltirish talab qilinadigan topshiriqlarni ishlab chiqish.
- Taqqoslash va tahlil qilish – turli mavzular yoki voqealarni solishtirish orqali o‘quvchilarga mustaqil xulosa chiqarish imkoniyatini berish.

3. Neyropedagogika asosida muammoli ta’lim metodlarini qo‘llash

Muammoli ta’lim – bu o‘quvchilarning faolligini oshirish, ularga mustaqil ravishda muammolarni aniqlash va yechim topish imkoniyatini beradigan yondashuvdir. Neyropedagogika asosida ushbu metodni rivojlantirish uchun quyidagi strategiyalar qo‘llanilishi mumkin:

- Tahliliy munozaralar – o‘quvchilarga muayyan mavzular bo‘yicha bahs yuritish va o‘z fikrlarini dalillash imkoniyatini berish.
- Tadqiqot va eksperiment usuli – o‘quvchilarni ilmiy tadqiqotlar olib borishga undash, ularga o‘z kuzatuvlari va xulosalarini chiqarish imkoniyatini yaratish.
- Case-study (holatlar tahlili) metodidan foydalanish – hayotiy yoki tarixiy voqealarni o‘rganish va ulardan saboq chiqarish.

Neyropedagogika ta'lim jarayonini samarali tashkil qilish, o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish va ularning miyaning tabiiy imkoniyatlarini to'g'ri boshqarishiga yordam beradi.

Asosiy xulosalar:

1. O'ng va chap yarim sharlarning faoliyatini inobatga olish orqali tanqidiy fikrlashning turli jihatlarini rivojlantirish mumkin.
2. E'tiborni rag'batlantirish va uni boshqarish orqali o'quvchilarning axborotni chuqur tahlil qilishiga erishiladi.
3. Muammoli ta'lim metodlari o'quvchilarning mustaqil fikrlash va dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Shunday qilib, neyropedagogika asosida ta'lim jarayonini tashkil qilish orqali o'quvchilarni zamonaviy dunyoda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan tanqidiy fikrlash ko'nikmalari bilan ta'minlash mumkin.

2. Tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish bosqichlari

Tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish zamonaviy ta'lim jarayonining eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, bu jarayon bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Neyropedagogika asosida o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish uchun quyidagi asosiy bosqichlarni ajratish mumkin:

O'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishda eng muhim jihatlardan biri – ularni faqat tayyor javoblarni qabul qilishga emas, balki mustaqil savollar qo'yishga ham o'rgatishdir. Savol berish ko'nikmasi fikrlash jarayonining faollashishiga va miyadagi neyron bog'lanishlarining yanada mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Savollar berish orqali o'quvchilar mavzuni chuqurroq tushunib, muammoni har tomonlama o'rganishga intilishadi. Bu jarayonda quyidagi savol turlaridan foydalanish mumkin:

- "Nima uchun?" – sabab va oqibat munosabatlarini tushunishga yordam beradi.
- "Qanday qilib?" – muammoni hal qilish yo'llarini aniqlashni o'rgatadi.
- "Boshqacha bo'lishi mumkinmi?" – muqobil fikrlash va ijodiy yondashuvni shakllantiradi.

O'quvchilarning fikrlash jarayonini chuqurlashtirish uchun quyidagi texnikalar qo'llanilishi mumkin:

- Sokratik metod – muhokamalar davomida savollar berish orqali mantiqiy xulosa chiqarishga o'rgatish.
- "Teskari savol" usuli – o'quvchilarga muammoni boshqa nuqtai nazardan ko'rish imkoniyatini berish.
- "Kim? Qayerda? Qachon?" texnikasi – muammoni kengroq doirada tahlil qilishga yordam beradi.

Ushbu yondashuv o'quvchilarning tanqidiy fikrlash jarayonini faollashtirib, ularning mantiqiy mulohaza yuritish ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

Neyropedagogika asosida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun miyadagi neyronlararo bog'lanishlarning mustahkam bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun maxsus metodlar va mashqlardan foydalanish lozim.

- Tezkor savol-javob mashqlari – o'quvchilar berilgan savollarga tezkor javob qaytarishlari kerak.
- Miya hujum usuli (brainstorming) – muammoga oid turli yechimlarni qisqa vaqt ichida ilgari surish va tahlil qilish.

- Assotsiativ fikrlash mashqlari – o‘quvchilar so‘zlar yoki tushunchalar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni topish orqali fikrlashni rivojlantiradi.
- Kontekstual fikrlash mashqlari – ma’lum bir vaziyatga mos holda muammoni tushuntirish.
- Grafik va vizual tasvirlash usullari – diagramma va jadvallar orqali axborotni tahlil qilish.

Bunday mashqlar o‘quvchilarning axborotni tez va sifatli qayta ishlash qobiliyatlarini rivojlantirib, tanqidiy fikrlash jarayonini faollashtirishga xizmat qiladi.

Tanqidiy fikrlashning muhim jihatlaridan biri – fikrni mantiqiy asoslash va dalillash qobiliyatini rivojlantirishdir. O‘quvchilarga o‘z fikrlarini himoya qilish va dalillar bilan isbotlashni o‘rgatish uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

Muhokama jarayoni o‘quvchilarning fikr yuritish va dalillash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Buning uchun:

- Jamoaviy bahs (debate) usuli – o‘quvchilar ikki guruhga bo‘linib, qarama-qarshi fikrlarni himoya qilishadi.
- Munozara (disputation) texnikasi – mavzu bo‘yicha turli fikrlarni keltirib, dalillar asosida isbotlash.
- Tahliliy taqqoslash usuli – turli ma’lumotlarni solishtirish va ularning farqlari hamda o‘xshashliklarini aniqlash.
- Skript yozish texnikasi – o‘quvchilar o‘z fikrlarini izchil dalillar bilan ifodalash uchun qisqa matnlar yozishadi.
- Ilmiy maqolalarni tahlil qilish – tadqiqot natijalariga asoslangan hujjatlar bilan ishlash orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish.
- Dalillar piramidasi usuli – asosiy g‘oya, asoslovchi argumentlar va isbotlovchi faktlardan iborat tizimli fikrlash modeli.

Ushbu texnikalar orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini mantiqiy asoslash va dalillash ko‘nikmalarini shakllantirib, tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishlari mumkin.

Tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish murakkab va bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan jarayon bo‘lib, bu jarayonda neyropedagogika tamoyillaridan foydalanish samaradorlikni oshiradi.

1. Savol berish qobiliyatini shakllantirish – o‘quvchilarni faqat javob izlashga emas, balki savollar berishga o‘rgatish orqali fikrlash jarayonini faollashtirish.

2. Miyaning neyron bog‘lanishlarini mustahkamlash – tezkor fikrlash va axborotni qayta ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

3. Argumentatsiya va dalillash qobiliyatlarini rivojlantirish – mantiqiy fikrlashni shakllantirish va asoslangan xulosalar chiqarish.

Shunday qilib, tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish nafaqat o‘quvchilarning ilmiy salohiyatini oshiradi, balki ularning turli muammolarga mustaqil va kreativ yondashishiga ham yordam beradi. Neyropedagogika yondashuvi asosida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish kelajak avlodning raqobatbardosh va innovatsion fikrlovchi mutaxassislarga aylanishiga xizmat qiladi.

3. Ta’limda tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi usullar

Kognitiv o‘yinlar va texnologiyalarni qo‘llash: Mantiqiy fikrlashni rag‘batlantiruvchi onlayn dasturlar va ilovalar orqali o‘quvchilarni qiziqtirish. Ko‘rgazmali va interaktiv metodlar: Turli vizual vositalar (diagrammalar, grafalar) yordamida murakkab tushunchalarni soddalashtirish va chuqurroq o‘zlashtirish. Refleksiya va tahlilni rag‘batlantirish: Har bir mashg‘ulot yakunida o‘quvchilarni o‘z faoliyatini baholashga o‘rgatish.

4. Motivatsiya va emosional barqarorlikni ta’minlash

Neyropedagogika o‘quvchilarning stress darajasini kamaytirish orqali ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatini yaxshilashga yordam beradi. Emosional barqarorlikni ta’minlash uchun qulay o‘quv muhitini yaratish muhim. Neyropedagogika va tanqidiy fikrlashning aloqasi Neyronlararo bog‘lanishlar: Tanqidiy fikrlash uchun miyadagi neyron tarmoqlarning faolligi juda muhim. O‘quv jarayonida miyaga yangilikni doimiy kiritib turish neyronlar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni kuchaytiradi. Masalan, murakkab topshiriqlarni hal qilish, yangi fikrlarni mantiqiy asoslash miyada plastiklikni oshiradi.

Ikkilamchi jarayonlar: Tanqidiy fikrlash miyaning prefrontal korteks qismida shakllanadi. Ushbu jarayonni qo‘llab-quvvatlash uchun vazifalarni mantiqiy tahlil qilish, qaror qabul qilish va mas’uliyatli baholash kabi amaliyotlarga urg‘u beriladi.

2. Tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish strategiyalari

A. O‘quv faoliyatini shaxsga moslashtirish. Neyropedagogika asosida ta’lim individual o‘quvchining kognitiv xususiyatlarini hisobga oladi: Vizuallar uchun diagrammalar, grafiklar va tasvirlarni keng qo‘llash. Audialar uchun muhokamalar va audio ma’ruzalar tashkil etish. Kinestetiklar uchun amaliy mashg‘ulotlar va tajriba asosida o‘rganishni tashkil qilish.

B. O‘quv muhitini optimallashtirish. Rang va yorug‘likning ta’siri: Neyropedagogika o‘quv muhitining rangi va yorug‘ligi o‘quvchining diqqatini jamlash va fikrlash faoliyatiga ta’sir qilishini o‘rganadi. Masalan, ko‘k va yashil ranglar ijodiy va tanqidiy fikrlashni rag‘batlantiradi. Tanaffuslar va dam olish: Miyani ortiqcha yuklamaslik uchun qisqa tanaffuslar o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi.

C. Savol berish madaniyatini shakllantirish. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda o‘quvchilarni muammolarni turli nuqtai nazardan ko‘rishga undash muhim. Bu savollar yordamida amalga oshiriladi:

"Bu fikrni tasdiqlovchi dalillar nima?"

"Qanday qarama-qarshi fikrlar mavjud?"

"Muammoni boshqa nuqtai nazardan qanday hal qilish mumkin?"

3. Mashqlar va texnologiyalar orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish

A. Amaliy mashqlar.

B. “Tahlil qil va solishtir”: O‘quvchilar ikki xil voqea, hodisa yoki tushunchani solishtirib, farqli va o‘xshash jihatlarini aniqlaydilar.

C. “Ijobiy va salbiy tomonni o‘rgan”: Berilgan g‘oyaning ijobiy va salbiy jihatlarini ko‘rsatib, o‘z pozitsiyasini dalillash mashqi.

D. “Qaror qabul qilish daraxti”: Bir muammo bo‘yicha turli yo‘llarni baholab, eng samarali yechimni tanlash.

B. Texnologiyalar yordamida o‘qitish. Mind mapping dasturlari: Mindomo, X Mind, yoki Coggle orqali g‘oyalarni tahlil qilish va ularni mantiqiy tartibga solish.

Simulyatsiya va o‘yinlar: O‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun Minecraft, CodeCombat, va Civilization kabi o‘yinlarni qo‘llash.

Interaktiv platformalar: Kahoot va Quizizz orqali tanqidiy savollarni tuzish va ularga javob berishni rag‘batlantirish.

4. O‘quv dasturida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun metodlar

A. Problemali ta’lim. Bu uslubda o‘quvchilarga aniq yechimga ega bo‘lmagan muammolar beriladi. Masalan:

“Aholi ko‘payishi global muammolarga qanday ta’sir qiladi?”

“Iqlim o‘zgarishini to‘xtatish uchun qanday innovatsiyalar kerak?” O‘quvchilar ushbu savollarga dalillar va muhokamalar asosida javob topishga harakat qiladilar.

B. Debatlar va muhokamalar

Debat o‘tkazish orqali o‘quvchilar o‘z nuqtai nazarini himoya qilish va boshqalarning fikrini tanqidiy baholashni o‘rganadilar. Bu miyaning mantiqiy fikrlash va tilga javobgar qismlarini rag‘batlantiradi.

C. Refleksiya va o‘z-o‘zini tahlil qilish

Mashg‘ulot so‘ngida o‘quvchilar o‘z ishlarini baholaydilar:

Qaysi fikrlar noto‘g‘ri bo‘lishi mumkinligini tahlil qilish.

O‘zlarini qoniqtirgan va qoniqtirmagan jihatlarni aniqlash.

5. Neyropedagogikadan foydalanishning ijobiy tomonlari

Kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish: O‘quvchilarni o‘qish jarayonida nafaqat bilim olishga, balki ularni tahlil qilishga va qayta ishlashga o‘rgatadi. Ijodkorlikni rivojlantirish: Yangi yechimlarni izlash orqali ijodiy fikrlash rivojlanadi.

1. Tanqidiy fikrlash nima va uning komponentlari

Tanqidiy fikrlash bu o‘quvchilarni aniq, asosli va mustaqil qarorlar qabul qilishga o‘rgatadigan fikrlash jarayonidir. U quyidagi asosiy komponentlarni o‘z ichiga oladi:

1. Tahlil qilish: Ma’lumotni o‘zaro bog‘liq bo‘lgan qismlarga ajratish.

Misol: Matnni tahlil qilib, asosiy g‘oyalarni ajratish.

2. Baholash: Fikrlar, dalillar va qarorlarni to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlash.

Misol: Berilgan dalil qanchalik ishonchli ekanini o‘rganish.

3. Muammolarni hal qilish: Yechimlarni qidirish va tanlash.

Misol: Yashil energiyaga o‘tishning eng samarali usulini aniqlash.

4. Ijodkorlik: Muammoga innovatsion yechimlarni taklif qilish.

Misol: Katta shaharlarda transport muammolarini texnologiyalar yordamida hal qilish

2. Neyropedagogikaning asosiy tamoyillari tanqidiy fikrlashda

Neyropedagogika tanqidiy fikrlashni shakllantirish uchun quyidagi tamoyillarga asoslanadi.

1. Individual yondashuv:

Har bir o‘quvchining miyasi o‘ziga xos ishlaydi. Neyropedagogika har bir shaxsning kognitiv qobiliyatini aniqlash va mos ta’lim metodikasini tanlashni tavsiya qiladi. Masalan, ba’zi o‘quvchilar vizual ko‘rgazmalarga tezroq javob berar ekan, boshqalari uchun eshitish yoki harakat orqali o‘rganish samaraliroq bo‘lishi mumkin.

2. Miyadagi plastiklikni oshirish:

Miyadagi yangi neyron bog‘lanishlarni kuchaytirish uchun doimiy ravishda intellektual mashqlar va turli xil vazifalarni taklif qilish kerak.

3. Qiziqish va e’tibor:

O‘quvchilarni jalb qilish uchun qiziqarli, hayotiy vaziyatlar va muammolarni muhokama qilish kerak. Bu miyani faol holatda saqlaydi va fikrlash qobiliyatini kuchaytiradi.

3. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda o‘yin va faoliyat turlari

A. Mashg‘ulotlarda o‘yinlardan foydalanish

1. Rollarni o‘ynash (Role-play):

Masalan: “Agar siz sayyora ekologiyasini himoya qiluvchi tashkilot rahbari bo‘lsangiz, qanday ishlarni amalga oshirasiz?”.

Ushbu faoliyat o‘quvchilarga fikrlarini asoslash imkonini beradi.

2. “Sabab va natija” o‘yini:

Masalan: Biror voqeaning sababini aniqlash va uning natijalarini tahlil qilish.

Bu usul orqali mantiqiy fikrlash va dalillar keltirish qobiliyati rivojlanadi.

3. Loyiha usuli (Project-based learning):

Katta hajmdagi muammolarni kichik guruhlarga bo‘lib, birgalikda hal qilish. Masalan, atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha loyiha yaratish.

B. Tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi texnikalar

1. 6 shlyapa usuli (Six Thinking Hats):

Har bir shlyapa o‘ziga xos fikrlash uslubini ifodalaydi:

Oq: Dalillarga asoslangan fikrlash.

Qizil: His-tuyg‘ularni inobatga olish.

Qora: Salbiy jihatlarni ko‘rib chiqish.

Sariq: Ijobiy tomonlarni tahlil qilish.

Yashil: Yaratilish va ijodkorlik.

Ko‘k: Hammasini boshqarish va umumlashtirish.

2. Teskari fikrlash (Reverse Thinking):

Oddiy muammoni teskari yo‘nalishda hal qilish usuli. Masalan: “Agar muammo yechilmasa, nima bo‘ladi?”

3. “Nima bo‘lardi agar...” texnikasi:

O‘quvchilarni turli vaziyatlarni oldindan tahlil qilishga undaydi. Masalan: “Agar yerda suv tugasa, nima bo‘ladi?

4. Tanqidiy fikrlashni o‘rgatishda muhitning roli

1. Emotsional muhit:

Stress va qo‘rquv miyaning fikrlash jarayoniga to‘sqinlik qilishi mumkin. Shuning uchun qulay va do‘stona o‘quv muhitini yaratish zarur.

2. Jismoniy muhit:

O‘quv sinfida yorug‘lik, havo sifati va ovoz darajasi kabi omillar diqqatni jamlash va fikrlash qobiliyatiga ta’sir qiladi. Tanqidiy fikrlashni shakllantirish texnologiyasi quyidagilarni o’z ichiga oladi: bilimlarni izlash va mustaqil o’zlashtirishga urg’u berish; talabalarning oldingi tajribasi va bilimlaridan faol foydalanish; o’zaro munosabatlarning barcha darajalarida o’z nuqtai nazarini, o’z pozitsiyasini ifodalashni, fikr almashishni rag’batlantirish; xulosalar, hukmlar, pozitsiyalarni asoslash uchun sharoit yaratish; yangi bilim va tajribani sinab ko’rish va qo’llashga urinishlarni rag’batlantirish. Tanqidiy fikrlashni shakllantirish texnologiyasi quyidagilarni o’z ichiga oladi: bilimlarni izlash va mustaqil o’zlashtirishga urg’u berish; talabalarning oldingi tajribasi va bilimlaridan faol foydalanishi o’zaro munosabatlarning barcha darajalarida o’z nuqtai nazarini, o’z pozitsiyasini ifodalashni, fikr almashishni rag’batlantirish; xulosalar, hukmlar, pozitsiyalarni asoslash uchun sharoit yaratish; yangi bilim va tajribani sinab ko’rish va qo’llashga urinishlarni rag’batlantirish.

Xulosa qilib, Neyropedagogika asosidagi yondashuv tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda nafaqat nazariy bilimlarni o‘rgatadi, balki o‘quvchilarni amaliy hayotiy muammolarni mustaqil hal qilishga tayyorlaydi.

Bu jarayon innovatsion metodlar, zamonaviy texnologiyalar va individual yondashuvni joriy qilishni talab etadi. Mazkur fikrlar zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning kognitiv rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabridagi PF-158- son "O'zbekiston-2030 strategiyasi to'g'risida" farmoni

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60- son ―Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi farmoni

3. O'zbekiston Respublikasining "YOshlarga oid davlat siyosati to'g'risi"dagi Qonuni. 2016-yil 14-sentyabr. 790

4. Azizxojayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat Toshkent-2002 [3. 66]

5. Muslimov N, Usmonboyeva M, Sayfurov D, To'rayev A. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari Toshkent-2015 [1.5], [1.17]

6. Tillaeva G. Ijtimoiy muhit va yoshlar tarbiyasi. – T.: Falsafa va huquq instituti, 2009. 166-b

7. Raxmanova M. Q. Individual o'qitish texnologiyasi asosida o'quvchilarning faolligni rivojlantirish // Mug'allim həm үzliksiz bilimlendirio' 2023 y.№6/3 246-252

8. Raxmanova Muqaddas Qaxramonovna Problems of Improving Social Competence of Students in the Process of Higher Pedagogical Education// Central asian journal of literature, philosophy and culture 12 Dec 2022 B.48-52

9. Mukaddas Rakhmanova "Scientifik and pedagogical bases of preparation of students for development of social activity in the procrss of professional and pedagogical education" B.283-287

10.Raxmanova M.Q Kasbiy ta'lim jarayonida talabalar ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishda interfaol ta'limning nazariy-amaliy jihatlari // «Mug'allim həm үzliksiz bilimlendirio'» 2022. №3/3. B. 30-34

11.Raxmanova M.Q. Pedagogik texnologiyalar asosida talabalar ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish / Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari. Xalqaro miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallari to'plami – Jizzax: O'zMU Jizzax filiali, 2022-yil 14-15-oktyabr. B. 583-586

12.. Y J.E.Usarov, M.Q.Raxmanova Yoshlarning inteliektual salohiyati va faolligini rivojlantirishda pedagogik psixologik omillari / Fan, Ta'lim va amaliyotintegratsiyasi ISSN: 2181-1776 2021 №4 Aprel. B.78-82

13.N.J. O'quvchilarda ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish omillari. "Fan va texnika mazmunini takomillashtirishda xorijiy tajribalardan foydalanish muammo va yechimlari" Jizzax-2021 336-338.

14.Umirova N.J. Bo'lajak pedagoglarda kasbiy kompetentlikni shakllantirysh. "Pedagogik ta'lim, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarning ilmiy-nazariy asoslarini yaratish va uni amaliyotga joriy etish'' Jizzax-2023

15.Umirova N.J. O'quvchilarda ijtimoiy kompetensiyalarning rivojlantirganligini baholash ko'rsatkichlari. Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods. May, 2024. 105-109.

O'RTA OSIYO MUTAFAKKIRLARINING ASARLARIDA BOSHQARUV HAQIDAGI FIKRLARNING YORITILISHI

Eshmamatova Gulmira
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
26/6-guruh

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O'rta Osiyo mutafakkirlarining asarlarida boshqaruv tamoyillari va siyosiy g'oyalarning yoritilishi tahlil etiladi. Asarlardagi boshqaruv jarayonlariga oid fikrlar va ularning zamonaviy boshqaruv nazariyalariga ta'siri o'rganiladi. Bunda mutafakkirlarning insonparvarlik, adolat va davlat boshqaruvi borasidagi qarashlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: O'rta Osiyo mutafakkirlari, boshqaruv, siyosiy g'oyalar, davlat boshqaruvi, adolat, insonparvarlik.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется освещение принципов государственного управления и политических идей в трудах мыслителей Центральной Азии. Изучаются размышления о процессах управления в произведениях и их влияние на современные теории управления. В статье будут проанализированы взгляды мыслителей на гуманность, справедливость и государственное управление.

Ключевые слова: мыслители Центральной Азии, управление, политические идеи, государственное управление, справедливость, гуманность.

ANNOTATION

This article analyzes the coverage of governance principles and political ideas in the works of Central Asian thinkers. The ideas in the works regarding governance processes and their influence on modern governance theories are studied. In this, the views of the thinkers on humanity, justice, and public administration are analyzed.

Keywords: Central Asian thinkers, governance, political ideas, public administration, justice, humanity.

KIRISH

O'rta Osiyo mutafakkirlari o'z asarlarida boshqaruv masalalariga alohida e'tibor qaratganlar. Ularning asarlarida davlat boshqaruvi, adolat, inson huquqlari va ijtimoiy tartibga oid qimmatli fikrlar o'z ifodasini topgan. Bunday fikrlar hozirgi zamon siyosiy va boshqaruv nazariyalarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan. Jumladan, Abu Nasr Forobiy, Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Nizomulmulk va boshqa mutafakkirlarning qarashlari davlatni boshqarish tamoyillari bilan chambarchas bog'liqdir[1].

Ushbu maqolada O'rta Osiyo mutafakkirlarining asarlarida boshqaruv haqidagi fikrlarning tahlili hamda ularning bugungi boshqaruv tamoyillariga ta'siri ko'rib chiqiladi.

[1] Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. // Toshkent. –"O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2012. 160 bet

ADABIYOTLAR TAHLILI VA MUHOKAMA

Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asarida davlat boshqaruvi va uning axloqiy asoslari yoritilgan. Forobiy insonparvarlik va adolat asosida boshqariladigan jamiyatni ideal jamiyat deb hisoblagan. Shu bilan birga, Beruniy ilm-fan va boshqaruv o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ta’kidlagan. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg‘u bilig" asarida esa adolatli va bilimdon hukmdor obrazi yaratilgan bo‘lib, unda davlat boshqaruvining ahloqiy tamoyillari keng yoritiladi. Nizomulmulkning "Siyosatnoma" asarida esa davlat boshqaruvi, amaldorlarning vazifalari va adolatni ta’minlash yo‘llari haqida muhim fikrlar berilgan. Ushbu asarlar boshqaruv tizimining insonparvarlik, adolat va ijtimoiy tartibga asoslanishi lozimligini ta’kidlaydi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O’rta Osiyo mutafakkirlarining asarlarida ilgari surilgan boshqaruvga oid g‘oyalar bugungi boshqaruv tamoyillari bilan uyg‘unlashadi. Mutafakkirlarning qarashlari asosida davlat boshqaruvida adolat, inson huquqlari va qonun ustuvorligi asosiy tamoyillar sifatida belgilangan. Amaliy jihatdan, bu g‘oyalar bugungi zamonaviy boshqaruv tizimlarida qo‘llanilmoqda. Misol uchun, davlat boshqaruvida shaffoflik, hisobdorlik va korrupsiyaga qarshi kurash kabi tamoyillar Forobiy va Nizomulmulk asarlarida ilgari surilgan qarashlarga mos keladi.[2]

Sohibqiron bobomiz bu maslahatga amal qilganliklarini ularning davlati gullab yashnaganidan ham bilishimiz mumkin. Amir Temur davlatni boshqarishda doimo to‘rt narsaga amal qilgan. Ularning birinchisi kengash, ikkinchisi mashvarat-u maslahat, uchinchisi xushyorligu-mulohazakorlik va to‘rtinchisi ehtiyotkorlikdir. Chunki kengash va mashvaratsiz saltanatni, barcha qilgan ishlari va aytgan gaplari xato bo‘lgan ahmoq odamga qiyoslash mumkin.

Har sohada yetuk bo‘laman degan rahbarlar uchun bu kitob juda kerakli manbaa hisoblanadi. Birgina Amir Temur bilan cheklanib qolmasdan bu sohadagi Abu Nasr Farobiy fikrlariga ham to‘xtalib o‘tsak. Bilamizki, Abu Nasr Farobiy har sohada ilg‘or O‘rta Osiyoning ulug‘ turkiy mutafakkiri va qomusiy olimi bo‘lgan. Farobiy davlatni boshqarishda, qonunlarga amal qilishda, kishilararo munosabatlarda odob-axloq va xulq qoidalariga rioya qilishda, ta’limtarbiyada aql hukmidan kelib chiqqan holda harakat qilish kerak, deb hisoblaydi. Shundan bilishimiz ma’lumki, Farobiy davlat boshqaruvida xulq, odob-axloq masalalarini birinchi o‘ringa qo‘ygan. Uning yetuk asarlaridan hisoblangan kitobida boshqaruv haqida ko‘pgina fikrlar keltirib o‘tadi. Asarni o‘qish chog‘ida Farobiyning fikri odamni o‘ziga jalb etadi. Har bir inson tabiatan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko‘p narsalarga muhtoj bo‘ladi, u bir o‘zi bunday narsalarni qo‘lga kirita olmaydi, ularga ega bo‘lishi uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug‘iladi. Bunday jamoa faoliayti bir butun holda ularni har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo‘lgan narsalarni yetkazib beradi. Shuning uchun inson shaxslari ko‘paydilar va yer aholi yashaydigan qismiga o‘rnashdilar, natijada inson jamoasi vujudga keldi. Albatta, boshqaruv jarayonida rahbar o‘z xodimlariga tayanadi, ularga ishonadi. Chunki, xodimlarsiz rahbar, rahbarsiz xodimlarni tasavvur qilish qiyin. Farobiy shaharni ijtimoiy uyushishini yetuk shakli insoniyat kamolotga erishishning zaruriy vositasi deb hisoblaydi. Butun insonlarni o‘zaro hamkorlikka xalqlarni tinchlikka chaqiradi.

Bizning dunyo tan olgan mutafakkir bobolarimiz juda ko‘p. Ulardan yana biri turkiy shoir, davlat arbobi Yusuf Xos Hojibdir. U o‘zining “Qutadg‘u bilig” ya’ni (“Saodatda eltuvchi bilim”) asari bilan islomiy va turkiy adabiyotni boshlab bergan. Bu asar Turkiy xalqlar madaniyatining noyob namunasi hisoblanadi. Odamzod naslining ulug‘ligi bilimdan. Inson dunyoga kelar ekan, u erishgan barcha

[2] Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig (Saodatga eltuvchi bilim). // T – Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi 2007. 200 bet

narsalari ichida faqatgina olgan bilimini o‘zida qoldirishi mumkin bo‘larkan. Bilimli, ilmli insonni dunyodan o‘tgandan keyin ham shu bilimi bilan xalqiga qanday foyda keltirgan bo‘lsa avlodlari uni shunday eslashar ekan. Yusuf Xos Hojib ham bejizga asosiy urg‘uni bilimga bermagan.

Rahbar o‘z faoliyatida o‘ziga har sohaning bilimdoni bo‘lgan xodimlarni yig‘ib ular bilan maslahatlashgan holda ish olib borishi kerak. Bunga misol sifatida “Qutadg‘u bilig” asarida podshoh Kuntug‘di biror bir ish qilishda doimo vaziri Oyto‘ldi bilan maslahatlashib ish olib boradi. Yusuf Xos Hojib “Agar xalqning boshchisi yaxshi bo‘lsa, uning xizmatchilari barchasi yaxshi bo‘ladi. Agar beklar o‘zlari yaxshi bo‘lsalar, barcha xalq boydii, olam guliston bo‘ladi”, – deydi. Bugungi kunda bizga shunday rahbarlar kerakki, xodimlar rahbardan qo‘rqqanidan emas uni hurmat qilganidan, o‘z ishini sevganidan ishga kelsin. Ana shundagina o‘sha rahbar o‘zi o‘ylagan maqsadiga yetadi.

Tashkilot esa yuksaladi. Biz yuqorida to‘xtalib o‘tgan mutafakkirlarimizga, ularning asarlariga e’tiborimizni kuchaytirishimiz kerak. Maktablar uchun alohida shunday asarlar, yetuk shaxslar darsliklarini yaratish, kutubxonalarda bu asarlarni yanada ko‘paytirishimiz kerak. Zero biz yoshlar kimlarning avlodlari ekanligimizni doimo his etaylik. Bu asarlar shunchaki tarix bo‘lib qolib ketmasin, ularni kelajakka tadbiq qilaylik. Axir nega tarixni o‘rganamiz tarixda qilgan xatolarimizni qaytarmaslik uchun emasmi. Butun dunyoga O‘zbekiston buyuklar yurti ekanligini bildiraylik. Ajdodlarimizni fikrlarini bugungi kunimizga tadbiq etadigan bo‘lsak, yurtimiz rivoji uchun hissa qo‘shilgan bo‘lardi. Bizning yurtimizda bunday dono insonlarning son-sanog‘i yo‘q, ularning merosini o‘rganish biz uchun ham farz ham qarz. Chunki tarixsiz kelajak yo‘q!

Xulosa O’rta Osiyo mutafakkirlarining asarlarida boshqaruv haqidagi fikrlar davlat boshqaruvining ahloqiy va huquqiy asoslarini belgilashda muhim o‘rin tutadi. Ularning qarashlari bugungi zamonaviy boshqaruv tamoyillari bilan uyg‘unlashib, adolat va inson huquqlari kabi muhim qadriyatlarning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Ushbu mutafakkirlarning asarlarini chuqur o‘rganish zamonaviy boshqaruv tizimlarini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. // Toshkent. –“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2012. 160 bet

2. Nizom-ul Mulk. Siyosatnoma (Siyar ul-Muluk)// Toshkent. –“Yangi asr avlod” nashriyoti, 2008. 240 bet

3. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig (Saodatga eltuvchi bilim). // T – Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi 2007. 200 bet

4. Mo‘minmirzo Xolmo‘minov. Buyuk sohibqironning davlat boshqaruvi borasidagi fikr-mulohazalari. Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies jurnali. 204-207-betlar. 2022/10/20.

5. Mo‘minmirzo Xolmo‘minov, Asilbek Qolqanatov. Mufassal mushohadalar me’moridan mufassal mushohadalar meroji. Oriental Art and Culture jurnali. Qo‘qon – 2022. https://scholar.google.com

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILAR IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ НАВЫКОВ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

PEDAGOGICAL CHARACTERISTICS OF DEVELOPMENT OF CREATIVE SKILLS OF FUTURE TEACHERS

Barnoyeva Sevara Uchqun qizi
Buxoro Davlat Universiteti tayanch doktoranti,
san’atshunoslik va pedagogika kafedrasi, Buxoro, O’zbekiston
https://orcid.org/0009-0001-0889-0955

ANNOTATSIYA

Maqola “Bo‘lajak o‘qituvchilar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari” mavzusiga bag‘ishlangan bo‘lib, o‘qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish jarayonini o‘rganadi. Ijodiy qobiliyatlar nafaqat pedagogning o‘z ishini samarali bajarishi, balki talabalarga yangi, original va samarali bilimlarni yetkazishda ham muhim omil hisoblanadi. Ushbu maqolada o‘qituvchining ijodiy faoliyatini rivojlantirishning pedagogik metodlari, o‘qitish jarayonida ijodkorlikni qo‘llashning ahamiyati, shuningdek, o‘qituvchining ijodiy qobiliyatlarini o‘stirishda ta'lim tizimining roli keng yoritilgan.

Maqolada ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar, shuningdek, o‘qituvchining pedagogik ijodkorlikni o‘z faoliyatida qanday qo‘llash mumkinligi haqidagi bilimlar va amaliy maslahatlar taqdim etiladi. O‘qituvchining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun innovatsion pedagogik texnologiyalar, yangi o‘quv metodikalarini joriy etish va talabalarning ijodiy salohiyatini kengaytirishga yo‘naltirilgan uslublar tahlil qilinadi.

Maqola, o‘qituvchilarni professional o‘sish va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda ilg‘or pedagogik tajribalar va metodikalarni qo‘llashning ahamiyatini ko‘rsatib beradi. Bu o‘qituvchining o‘zgaruvchan ta'lim muhitiga moslashuvi, yangiliklarni qabul qilishi va samarali o‘qitishning yuqori darajasiga erishish uchun zarurdir hamda o‘qituvchilarning ijodiy salohiyatini oshirish uchun zarur bo‘lgan pedagogik uslublar, innovatsion metodlar va texnologiyalar tahlil qilinadi. O‘qituvchining ijodiy yondashuvlari, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga qanday ta'sir qilishini ko‘rsatib o‘tadi. Shuningdek, maqolada pedagogning shaxsiy rivojlanishi, yangi bilimlarni o‘zlashtirish va ijodiy fikrlashni rag‘batlantirishning ahamiyati ta'kidlanadi. Maqola, ta'lim jarayonida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning nafaqat o‘qituvchi, balki o‘quvchilar uchun ham katta ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: ijodiy qobiliyatlar, pedagogik metodlar, innovatsion pedagogik texnologiyalar, ta'lim jarayoni, mustaqil fikrlash, pedagogik salohiyat, shaxsiy rivojlanish, ta'limda innovatsiya, o‘qituvchining ijodiy faoliyati.

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена теме «Педагогические особенности развития творческих способностей будущих учителей» и изучает процесс формирования и развития творческих способностей учителей. Творческие умения являются важным фактором не только эффективного выполнения педагогом своей работы, но и передачи учащимся новых, оригинальных и эффективных знаний.

В данной статье широко освещены педагогические методы развития творческой активности учителя, важность использования творчества в учебном процессе, а также роль системы образования в развитии творческих способностей учителя.

В статье представлены основные факторы, влияющие на развитие творческих способностей, а также знания и практические советы о том, как педагог может использовать педагогическое творчество в своей работе. В целях развития творческих способностей учителя анализируются инновационные педагогические технологии, внедрение новых методов обучения и методов, направленных на расширение творческого потенциала учащихся.

В статье показана важность использования передового педагогического опыта и методов в профессиональном росте и формировании творческих способностей учителей. Учителю необходимо адаптироваться к изменяющейся образовательной среде, принять инновации и достичь высокого уровня эффективного обучения, а также анализируются педагогические методы, инновационные методы и технологии, необходимые для повышения творческого потенциала учителей. Показано, как творческие подходы учителя влияют на развитие самостоятельного мышления и творческих способностей учащихся. В статье также подчеркивается важность личностного развития педагога, усвоения новых знаний и стимулирования творческого мышления. В статье показано, что развитие творческих способностей в образовательном процессе имеет большое значение не только для учителя, но и для учащихся.

Ключевые слова: творческие способности, педагогические методы, инновационные педагогические технологии, образовательный процесс, самостоятельное мышление, педагогический потенциал, развитие личности, инновации в образовании, творческая деятельность учителя.

ABSTRACT

The article is devoted to the topic "Pedagogical features of the development of creative abilities of future teachers" and studies the process of formation and development of creative abilities of teachers. Creative skills are an important factor not only for the pedagogue to perform his work effectively, but also for conveying new, original and effective knowledge to students. Pedagogical methods of developing the teacher's creative activity, the importance of using creativity in the teaching process, as well as the role of the educational system in the development of the teacher's creative abilities are widely covered in this article.

The article presents the main factors affecting the development of creative abilities, as well as knowledge and practical advice on how a teacher can use pedagogical creativity in his work. In order to develop the creative abilities of the teacher, innovative pedagogical technologies, introduction of new teaching methods and methods aimed at expanding the creative potential of students are analyzed.

The article shows the importance of using advanced pedagogical experiences and methods in the professional growth and formation of creative abilities of teachers. It is necessary for the teacher to adapt to the changing educational environment, to accept innovations and to achieve a high level of effective teaching, and pedagogical methods, innovative methods and technologies necessary to increase the creative potential of teachers are analyzed. It shows how creative approaches of the teacher influence the development of independent thinking and creative abilities in students. The article also emphasizes the importance of personal development of the pedagogue, assimilation of new knowledge and stimulation of creative thinking. The article shows that the development of creative abilities in the educational process is of great importance not only for the teacher, but also for the students.

Key words: creative abilities, pedagogical methods, innovative pedagogical technologies, educational process, independent thinking, pedagogical potential, personal development, innovation in education, teacher's creative activity.

KIRISH.

Bugungi kunda ta'lim tizimi doimiy o‘zgarib borayotgan jamiyat sharoitida yangilanishni va modernizatsiyani talab qilmoqda. O‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiruvchi, ular uchun ta'lim jarayonini samarali va qiziqarli qilishga harakat qiluvchi mutaxassisdir. Ijodiy qobiliyatlar nafaqat o‘qituvchining pedagogik faoliyatini samarali bajarishga, balki o‘quvchilarga yangi bilimlarni yangi usullar bilan yetkazishga imkon yaratadi. Shuning uchun, bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning shaxsiy va professional salohiyatlarini oshirish, ta'lim tizimining sifatini yaxshilash uchun alohida ahamiyatga ega.

Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish faqatgina nazariy bilimlarni o‘zlashtirish bilan cheklanmaydi. Bu, asosan, o‘qituvchining o‘z ishini yangi va original usullarda bajarish qobiliyatiga, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etishga, va o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuvlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan amaliy qobiliyatlarni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, ijodiy yondashuvlar o‘qituvchining faqat o‘z faoliyatini emas, balki o‘quvchilar bilan muloqotini, darslarni qanday o‘tkazishini, yangi g‘oyalarni qanday taqdim etishini ham ko‘rsatadi [5].

Maqolaning maqsadi, bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlarini tahlil qilish, pedagogning ijodiy faoliyatini samarali tarzda amalga oshirishga yordam beradigan metodlar, yondashuvlar va pedagogik texnologiyalarni ko‘rib chiqishdan iboratdir. Ushbu maqola o‘qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda pedagogik metodlarni tanlash, o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini oshirish, pedagogning professional o‘sishini ta'minlash va ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan maslahatlar va tavsiyalarni taqdim etadi. Maqolada ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi pedagogik omillar, o‘qituvchining innovatsion faoliyatini rag‘batlantirish va yangi pedagogik texnologiyalarni o‘quv jarayoniga qo‘llashning ahamiyati yoritiladi.

Zamonaviy ta'lim tizimi o‘qituvchidan faqat bilim berishdan tashqari, o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishni ham talab qiladi. Buning uchun o‘qituvchi o‘zining ijodiy qobiliyatlarini doimiy ravishda oshirib borishi, yangi pedagogik uslublarni va innovatsion texnologiyalarni qo‘llashi zarur. Ijodiy qobiliyatlar o‘qituvchining faqat o‘z ishini samarali bajarishiga emas, balki o‘quvchilarning fikrlash, muammoni hal qilish va yangi g‘oyalarni yaratish kabi ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham bevosita ta'sir ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish pedagogikada keng o‘rganilgan va zamonaviy ta’lim jarayonida muhim o‘rin tutadi. Ijodiy qobiliyatlarning ta’limda o‘rni haqida turli olimlar va tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan izlanishlar mavjud.

A. A. Alekseev (1998) «Pedagogik ijodkorlik» asarida ijodiy faoliyatni o‘qituvchining o‘z ishida yangiliklarni kiritish va yangi g‘oyalarni ishlab chiqish orqali amalga oshiriladigan jarayon sifatida ko‘rsatadi. U o‘qituvchining ijodiy yondashuvini faqat o‘quvchilarning bilimini oshirishga qaratilgan emas, balki ularda ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan faoliyat sifatida ta’riflaydi. Alekseevning fikriga ko‘ra, o‘qituvchining pedagogik ijodiy yondashuvi o‘quvchilarga nafaqat tayyor bilimlarni berish, balki ularni yangi g‘oyalar yaratishga, mantiqiy fikrlashga, va amaliyotda o‘z fikrlarini ifoda etishga o‘rgatishdir [6].

Bundan tashqari, T. V. Kukharenko (2010) «O‘qituvchining ijodiy qobiliyatlari» nomli tadqiqotida o‘qituvchining ijodiy salohiyatini rivojlantirish uchun muhim psixologik omillarni ajratib ko‘rsatgan. Uning fikriga ko‘ra, ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun o‘qituvchi o‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatishi va ularni o‘z ijodiy salohiyatlarini o‘rgatishga rag‘batlantirishi lozim. Shu bilan birga, o‘qituvchining o‘z pedagogik faoliyatida innovatsion metodlar va texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishga bo‘lgan yondashuvlar muhim rol o‘ynaydi [8].

X. M. Sharipov (2005) ijodiy pedagogik faoliyatni shakllantirishning metodologik asoslarini o‘rganar ekan, o‘qituvchilarning ijodiy yondashuvlaridan samarali foydalanish uchun ta’lim jarayonida innovatsion metodlarni va texnologiyalarni joriy etish zarurligini ta’kidlaydi. U, shuningdek, o‘qituvchining pedagogik yondashuvi, muayyan metodlar va texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning ijodiy va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga imkoniyat yaratadi[12].

Tadqiqotning metodologik asoslarini tashkil etishda pedagogik, psixologik va didaktik yondashuvlar asos sifatida qabul qilindi. Mazkur tadqiqotda bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayonni chuqur tahlil qilish uchun bir nechta asosiy metodlar va usullar qo‘llanildi. Ushbu metodologiya o‘qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beruvchi samarali pedagogik yondashuvlarni aniqlashga xizmat qilgan.

1. Tahlil va tizimli yondashuv

Tahlil usuli yordamida o‘qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga doir mavjud adabiyotlar tahlil qilindi. Bu jarayonda o‘qituvchilarning pedagogik ijodkorligini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar, o‘qituvchilarni tayyorlashda qo‘llaniladigan innovatsion metodlar, pedagogik texnologiyalar va ularning amaliyotda qo‘llanilishi o‘rganildi. Shu bilan birga, o‘qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda pedagogik jarayonning tizimli yondashuvi ko‘rib chiqildi.

2. Eksperiment usuli

Eksperiment o‘tkazish orqali bo‘lajak o‘qituvchilarni ijodiy faoliyatda rivojlantirishga doir amaliy mashg‘ulotlar tashkil etildi. Ushbu eksperimentda o‘qituvchilarga zamonaviy pedagogik metodlar va innovatsion texnologiyalar yordamida ijodiy fikrlashni rivojlantirishni o‘rgatish maqsadida mashg‘ulotlar o‘tkazildi. Eksperiment natijalari bo‘yicha ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda qo‘llaniladigan metodlar samaradorligi aniqlanishi ko‘zda tutilgan.

3. So‘rovnoma va intervyu usuli

O‘qituvchilar va pedagogik sohada mutaxassislar bilan o‘tkazilgan so‘rovnoma va intervyular orqali ularning pedagogik ijodkorlikka doir fikrlari, ijodiy metodlar va texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha tajribalari o‘rganildi. O‘qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan usullar, bu usullarni qanday qo‘llash va ularning samaradorligi to‘g‘risida o‘tkazilgan intervyular orqali ma’lumotlar yig‘ildi.

4. Kuzatuv usuli

Bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatini kuzatish, ularning ta’lim jarayonida ijodiy yondashuvlardan qanday foydalanishlarini o‘rganish uchun kuzatuv usuli qo‘llanildi. Bu usul orqali o‘qituvchilarning o‘quvchilarga ta’lim berish jarayonidagi ijodiy faoliyatlari, ularning pedagogik metodlari va yondashuvlari aniqlanib, ijodiy faoliyatni rivojlantirishga oid tavsiyalar berildi.

5. Amaliy tadqiqot va tahlil

Amaliy tadqiqotlar o‘tkazish orqali o‘qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali bo‘lgan usullar va metodlar aniqlashga harakat qilindi. Tadqiqot natijalari, o‘quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan amaliy metodlar va pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning samaradorligini ko‘rsatdi.

MUHOKAMA.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari haqidagi tadqiqotda o‘qituvchining kasbiy faoliyatini samarali amalga oshirishi uchun ijodiy qobiliyatlarining ahamiyati katta ekani ko‘rsatildi. O‘qituvchining ijodiy yondashuvi nafaqat o‘quvchilarning bilimini oshirishda, balki ularning mustaqil fikrlash, kreativlik va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Shunday ekan, bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish pedagogik jarayonning ajralmas qismi bo‘lishi kerak [1].

Tadqiqotda ko‘rsatilganidek, bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik metodlar, texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar muhim ahamiyatga ega. Innovatsion ta’lim texnologiyalaridan, masalan, multimedia vositalari, gamifikatsiya va interaktiv metodlaridan foydalanish, o‘qituvchilarning ijodiy yondashuvini rag‘batlantirishda katta yordam beradi. Shu bilan birga, bu texnologiyalar o‘quvchilarning ta’lim jarayoniga faol jalb qilinishini ta’minlab, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon yaratadi. Bunday metodlarni qo‘llash o‘quvchilarning o‘quv jarayoniga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, bu esa o‘z navbatida, o‘quvchilarda mustaqil va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarining shakllanishiga yordam beradi.

Bundan tashqari, o‘qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda ularning shaxsiy rivojlanishi ham katta ahamiyatga ega. O‘qituvchining o‘zini o‘zi tarbiyalash, ijodiy fikrlashni rivojlantirishga intilishi, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan ishtiyoqi uning o‘quvchilarga yanada samarali ta’lim berishiga yordam beradi. Shu nuqtai nazardan, o‘qituvchining kasbiy rivojlanishi nafaqat o‘quvchilarning bilimini oshirishga, balki ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan faoliyatga aylanishi zarur [3].

O‘qituvchining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning amaliyotdagi qiyinchiliklari

Biroq, bo‘lajak o‘qituvchilarni ijodiy faoliyatga o‘rgatishda bir qator amaliy qiyinchiliklar ham mavjud. Birinchidan, ta’lim jarayonida innovatsion metodlarni va texnologiyalarni qo‘llash uchun o‘qituvchilarda zarur bilim va ko‘nikmalar bo‘lishi lozim. Ba’zi holatlarda, o‘qituvchilar ushbu metodlarni to‘liq o‘zlashtirmagan bo‘lishi mumkin, bu esa ta’lim sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ikkinchidan, ta’lim tizimining ba’zi qismlarida hali ham an’anaviy metodlarga ustunlik berilishi, ijodiy yondashuvlarni qo‘llashda qiyinchiliklar yaratadi. Shu bilan birga, ta’lim resurslarining yetishmasligi yoki zamonaviy texnologiyalarni joriy etish uchun zarur bo‘lgan infratuzilmaning zaifligi ham o‘qituvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishda muammo bo‘lishi mumkin [13].

Bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bugungi kunda ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biriga aylangan. O‘qituvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyati nafaqat o‘quvchilarga ta'lim berishda, balki ta'lim jarayonini yanada qiziqarli, samarali va yangicha usullar bilan tashkil etishda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli, bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

1. Ijodiy qobiliyatlarning o‘qituvchining professional sifatlaridagi o‘rni

Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning eng asosiy maqsadi – bo‘lajak o‘qituvchilarni har tomonlama mukammal, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qo‘llay olishga tayyorlashdir. Pedagogning ijodiy qobiliyatlari uning darslarda qanday usullardan foydalanishi, o‘quvchilarga qanday yondashuvi va ta'lim jarayonini qanday tashkil etishiga bevosita ta'sir ko‘rsatadi. Agar o‘qituvchi ijodiy fikrlashga ega bo‘lsa, u darsni yangicha, interaktiv usullar bilan o‘tkazish orqali o‘quvchilarning bilim olish jarayonini ancha samarali qiladi.

Misol uchun, bugungi kunda o‘quvchilarni faqat bilim bilan ta'minlash emas, balki ularga qanday qilib mustaqil fikrlashni o‘rgatish muhim. Ijodiy fikrlash orqali o‘quvchilarni o‘z fikrlarini erkin ifoda etish, muammolarni turli yo‘llar bilan hal qilishga o‘rgatish mumkin. Bu jarayonda o‘qituvchining ijodiy

qobiliyati o‘quvchilarga motivatsiya berishda, ularni darsga faol jalb etishda va o‘quv materialini qiziqarli tarzda taqdim etishda katta ahamiyatga ega.

2. Pedagogik metodlar va yondashuvlar:

Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun o‘qitish metodlarini yangilash zarur. O‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun darslarda o‘zaro ta'sirga asoslangan, faoliyatga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuvlar qo‘llanilishi kerak. Masalan, problemali o‘qitish, loyiha asosida o‘qitish, kreativ darslar o‘tkazish, multimediya texnologiyalaridan foydalanish – bularning barchasi ijodiy yondashuvning shakllaridir. Bu metodlar o‘qituvchiga nafaqat an'anaviy ma'lumotlarni uzatishda yordam beradi, balki o‘quvchilarga yangi bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida ijodiy usullarni qo‘llashga imkon yaratadi.

Pedagogik amaliyotda innovatsion texnologiyalardan foydalanish ham muhim o‘rin tutadi. Kompyuter texnologiyalari, interaktiv ta'lim platformalari va boshqa elektron resurslar o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. O‘qituvchilar bu texnologiyalarni darsda qo‘llash orqali o‘quvchilarga yanada kengroq imkoniyatlar yaratib bera oladi [11].

3. O‘qituvchilarni tayyorlashda shaxsiy yondashuv

Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda shaxsiy yondashuvni tatbiq etish ham ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Har bir o‘qituvchi o‘ziga xos uslubga ega bo‘lib, shaxsiy pedagogik ko‘nikmalarni rivojlantirishga intilishi kerak. Shaxsiy kreativlikning rivojlanishi o‘qituvchining o‘zining kasbiy faoliyatiga nisbatan mas'uliyatini oshiradi. Bu esa o‘quvchilarga yanada ilg‘or pedagogik texnikalar va metodlarni taqdim etishga yordam beradi.

Pedagoglar o‘z shaxsiy bilim va qobiliyatlarini rivojlantirishda doimiy ravishda yangi tajribalarni o‘zlashtirib borishlari, seminar va treninglarda qatnashishlari, o‘z ustida ishlashlari zarur. O‘qituvchining shaxsiy o‘sishi uning pedagogik yondashuvlariga, o‘quvchilarga bo‘lgan yondashuviga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi.

4. Ijodiy qobiliyatlarning o‘quvchilarga ta'siri

O‘qituvchining ijodiy qobiliyati nafaqat uning darslarni qiziqarli va samarali o‘tkazishi, balki o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga ham ta'sir qiladi. O‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlari va faoliyatlari o‘qituvchi tomonidan to‘g‘ri yo‘naltirilsa, ular o‘zlarini yanada mustaqil fikrli va innovatsion yondashuvlarga moyil bo‘lishlarini his qilishadi. O‘qituvchining ijodiy qarorlari o‘quvchilarga yangiliklarni ochish, yangi bilimlarni o‘zlashtirishda yordam beradi va shuningdek, ular o‘zgacha fikrlashni o‘rganadilar [10].

5. Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning ijtimoiy va madaniy ahamiyati

Ijodiy qobiliyatlar nafaqat individual rivojlanish uchun, balki jamiyatning rivojlanishi uchun ham muhimdir. Ijodkor insonlar ijtimoiy jarayonlarga yangicha yondashuvlar, yechimlar taklif etishadi, bu esa jamiyatni o‘zgarishga, rivojlanishga undaydi. O‘qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ayniqsa, yosh avlodni tarbiyalashda ularning dunyoqarashini kengaytirish, kreativ fikrlashni targ‘ib qilish, jamiyatda ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarni amalga oshirishga hissa qo‘shadi.

NATIJALAR.

Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning ahamiyati. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchining ijodiy qobiliyatlari uning ta'lim jarayonida muvaffaqiyatini sezilarli darajada oshiradi. O‘qituvchilar ijodiy yondashuvlarni qo‘llagan holda o‘quvchilarning bilish jarayonini qiziqarli, samarali va interaktiv tarzda tashkil etadilar. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarning ta'lim olishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va ularning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, kreativ yondashuvlarni rivojlantirishiga yordam beradi. Pedagogik metodlar va texnologiyalarni yangilash. Bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda yangi pedagogik metodlar va texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Masalan, loyiha asosida o‘qitish, muammoli o‘qitish metodlari, interaktiv o‘qitish texnologiyalari o‘qituvchining ijodiy fikrlashini oshiradi va o‘quvchilarga kengroq bilim olish imkoniyatlarini yaratadi[9] . O‘qituvchilar yangi texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar bilan tanishish orqali o‘z pedagogik malakalarini yanada takomillashtiradilar. Shaxsiy pedagogik rivojlanishning o‘quvchilarga ta'siriIjodiy qobiliyatlarni rivojlantirish jarayonida o‘qituvchining shaxsiy rivojlanishi ham muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchining o‘z ustida doimiy ishlashi, yangi pedagogik tajribalar bilan tanishishi va shaxsiy ko‘nikmalarini rivojlantirishi o‘quvchilarga yanada sifatli ta'lim berishga yordam beradi. Shaxsiy pedagogik rivojlanishning o‘quvchilarga ta'siri shundaki, ular mustaqil fikrlash, o‘z fikrlarini erkin ifoda etish va ijodiy yondashuvlarni qo‘llashni o‘rganadilar. Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishdagi ijtimoiy ahamiyat. Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning nafaqat individual, balki ijtimoiy ahamiyati ham katta. O‘qituvchilar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish orqali jamiyatda o‘zgarishlarni amalga oshirishga hissa qo‘shadilar. Ijodiy yondashuvlar o‘quvchilarga o‘zgaruvchan dunyoda muvaffaqiyatli bo‘lish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni o‘rgatadi. O‘quvchilar ijodiy fikrlash orqali jamiyatda dolzarb muammolarni hal qilishda faol ishtirok etadilar. Pedagogik kadrlarni tayyorlashda metodik va tashkilotchilik yondashuvlarining muhimligi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, pedagogik kadrlarni tayyorlashda metodik yondashuvlar va tashkilotchilik masalalariga alohida e'tibor qaratilishi zarur. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun maxsus kurslar, seminarlar va amaliy mashg‘ulotlar tashkil etilishi kerak. Bu jarayonlarda o‘qituvchining ijodiy yondashuvlarini rivojlantirishga yordam beradigan turli usullar va vositalar qo‘llanilishi lozim [4].

XULOSA.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar va tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ta'lim tizimida ijodiy yondashuvlar nafaqat o‘qituvchining o‘zini, balki o‘quvchilarning bilim olish jarayonini ham sezilarli darajada yaxshilaydi. O‘qituvchining ijodiy fikrlash qobiliyati uning pedagogik yondashuvlarini samarali tarzda tashkil etish, yangi metodlar va texnologiyalarni qo‘llashda muhim rol o‘ynaydi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik metodlar, innovatsion texnologiyalar va shaxsiy pedagogik rivojlanishning o‘rni katta. Pedagoglar ijodiy fikrlashga ega bo‘lganda, o‘quvchilarni faqat bilim olishga undash bilan cheklanmay, ularni mustaqil fikrlashga, ijodiy va innovatsion qarorlar qabul qilishga ham o‘rgatadilar. Bu o‘z navbatida, o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga, jamiyatda faol ishtirok etishga imkon yaratadi [2].

Tadqiqotlar va tajribalar shuni ko‘rsatdiki, pedagogik kadrlarni tayyorlashda ijodiy yondashuvlarni integratsiya qilish, o‘qituvchilarni doimiy ravishda malaka oshirish kurslari va amaliyotlar bilan ta'minlash zarur. Shuningdek, o‘qituvchining ijodiy qobiliyatlarini baholash tizimining o‘rnatilishi ham muhim ahamiyatga ega [7].

Umuman olganda, bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish nafaqat o‘qituvchining o‘ziga, balki jamiyatning ta'lim darajasiga, o‘quvchilarning ijodiy fikrlashiga, kelajakda yangi avlodni yetishtirishga katta ta'sir ko‘rsatadi. Ta'lim tizimining yanada ilg‘or, ijodiy va innovatsion yo‘nalishda rivojlanishi uchun pedagogik yondashuvlarni doimiy ravishda takomillashtirish zarur.

FOYDALANILGANADABIYOTLAR.

1. Abdullaeva, S. (2018). Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda ijodiy fikrlashni rivojlantirish. *Pedagogika va ta'lim texnologiyalari* jurnali, 23(1), 45-56.

2. Toshpulatov, A., & O‘rinbaev, B. (2020). Pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar. Tashkent: *O‘qituvchi*.

3. Olimov Sh. Sh., Durdiyev D.Q. Pedagogical technology. - Bukhara: “Sadriddin Salim Bukhari”

Durdona Publishing House, 2019. - 184 p.

4. SAMIYEVA, Shaxnoza, and Murodjon SAFAROV. "FORMATION AND DEVELOPMENT OF CREATIVE ABILITIES OF STUDENTS OF HIGHER EDUCATION." *EURASIAN JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY* 1.2 (2019).

5. Islomov, X. (2017). Ijodiy pedagogik metodlar: nazariya va amaliyot. *O‘zbekiston Pedagogika Akademiyasi nashriyoti.*

6. Alekseev, A. A. (1998). Pedagogik ijodkorlik.*Pedagogik ta'limda innovatsiyalar* jurnali, 17(4), 30-35.

7. Shayxov, I. (2016). O‘qituvchining shaxsiy pedagogik faoliyati: nazariya va amaliyot. Tashkent: *Fan va texnologiya.*

8. Kukharenko, T. V. (2010). O‘qituvchining ijodiy qobiliyatlari.*Ta'lim va taraqqiyot* jurnali, 15(2), 10-20.

9. Nazarova, M. (2021). Zamonaviy o‘qituvchilarni tayyorlashda pedagogik texnologiyalar. *Ta'lim sohasidagi yangiliklar* jurnali, 19(3), 50-61.

10. O‘rniyozov, R. (2018). Ijodiy fikrlashni rivojlantirishdagi metodik yondashuvlar. Tashkent: *O‘zbekiston davlat pedagogika universiteti.*

11. Mirzaeva, N. (2020). Innovatsion pedagogik texnologiyalar: o‘qitish jarayonini yangilash. *Pedagogika va innovatsiyalar* jurnali, 11(5), 14-18.

12. Sharipov, X. M. (2005). Ijodiy pedagogik faoliyatni shakllantirishning metodologik asoslari.*O‘zbekiston ta'limi* nashriyoti.

13. Jo’rayev N.S. O’quv motivlarini shakllantirish. – T: TDPU, 2008.- 62 b.

PEDAGOGIK PROGNOZLASHNING TA'LIM VA JAMIYAT RIVOJIDAGI AHAMIYATI

Ikrom Qodirov
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Pedagogika kafedrasi v b dotsenti

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada pedagogik prognozlashning kelib chiqishi, uning hayotimizda tutgan o'rni, - pedagogik prognozlash sohasidagi tarixiy va xalqaro tajriba, o'qituvchining kasbiy funksiyasida pedagogik prognozlashning ahamiyati, AQSh va Evropaning ta'lim makonida pedagogik prognozlashning amalga oshirilishi, pedagogik prognozlashning hozirgi holatini tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Prognoz, futurizm, kasbiy funksiya, tendensiya, ta'lim, axborot, innovatsiya, strategiya, tanqidiy futurism, evolyutsion futurism, ma'naviy futurizm.

KIRISH

Prognozlash, uzoq muddatli rejalashtirish va optimal boshqaruv muammolari hozirgi vaqtda barcha fanlar uchun har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda.

Jamiyat tomonidan ilmiy bashorat har qanday murakkab tizimni optimal boshqarish zanjirining zarur bo'g'ini ekanligini anglash kuchaydi.

Prognoz – yunoncha so'z bo'lib, kutilayotgan voqea yoki xodisalarning qanday kechishi, rivojlanishi va oqibatlarini mavjud dalillar, ma'lumotlarga asoslanib, oldindan aytib berish ma'nosini anglatadi. Nega inson uchun jamiyat faoliyati va umuman sivilizatsiya rivojiga oid maxsus o'zgarishlarda ham bashorat qilish zarurati nimada?

Javob sifatida shuni aytishimiz mumkinki, bashoratli boshqaruv – jarayonni optimal tarzda tashkil etish, ya'ni berilgan aniq sharoitlarda eng yaxshi natijalarni qo'lga kiritishga asoslanadi.

Hayotimizda texnologik taraqqiyot tufayli turli xil jarayonlar sezilarli darajada yuqori bosqichga ko'tarildi. Bu esa inson faoliyatining ko'p sohalarida xotirjamlik va osudalikni o'tmishda qoldirdi. Faoliyatda samaradorlikka erishish uchun oldinda nimalar borligini bilish va unga o'z vaqtida tayyorgarlik ko'rish muhimdir.

Kundalik hayotimizda ta'lim sohasida prognozlarni ishlab chiqish jarayonining qonuniyatlarini o'rganish bilan shug'ullanadigan yangi ilmiy fan – pedagogik prognostikaning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Rus olimi Gershunskiy B.S. prognozga oid quyidagi misolni keltiradi: "tasavvur qiling-a, siz old oynasi qora rangga bo'yalgan mashinani haydayapsiz... Uzoqqa keta olasizmi? Oldinda nima bo'lishini bilmasdan, yaqin kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha to'qnashuvlarni oldindan tasavvur qila olasizmi? Agar bu o'xshashlikni davom ettiradigan bo'lsak, avtomobilning tezligi oshgani sayin, toza old oyna endi avtopoygada samarali harakat qilish uchun yetarli shart-sharoitni ta'minlamaydi, balki haydovchining yonida navigator paydo bo'ladi, uning asosiy vazifasi marshrut va yo'l xaritasiga muvofiq, haydovchining harakatlarini tezda tuzatishdan iboratdir. Aytishimiz mumkinki, harakat aniq texnik tizimlarga ishonib topshirilgan[1].

"Prognozlash" tushunchasi yigirma asrdan ko'proq vaqt oldin, Gippokratning "Prognostika" deb nomlangan kitobi paydo bo'lgandan so'ng keng tarqalgan bo'lib, unda turli kasalliklarning kechishi va

natijalarini aniqlash usullari ko'rib chiqiladi[2].

XX-asrning 70-yillarining boshlariga kelib G'arbda ta'lim fu turizmi jadal rivojlandi. Ta'lim futurizmida o'qituvchi funksiyasining mazmuni L. Briggs tomonidan aks ettirilgan: "Eskirgan vazifalar va eskirgan vositalar bilan o'qitish modellaridan foydalanishni bartaraf etish uchun o'qitish texnologiyasi va futurizmni birlashtirish kerak"[3]. Amerikalik va yevropalik o'qituvchilar o'rganish modellari va rejalashtirish ustida ishlay boshlaydilar. Ular o'qituvchi faoliyatida prognozlash funksiyasini amalga oshirishning uchta asosiy yondashuvini ko'rsatadilar : qidiruv, me'yoriy va modellashtirish orqali. Shunday qilib, pedagogik bashoratni shakllantirish yanada rivojlandi: nazariya va metodika shakllana boshladi, uning yordamida o'qituvchilar prognozlash funksiyasini stixiyali bajarishga kirishdilar.

Ta'lim futuristlarining dastlabki ishlarida tadqiqotning ehtimollik darajasi hali ham juda past. Shu bilan birga, pedagogik prognozning shakllanishiga uchta asosiy futuristik yo'nalish ta'sir ko'rsatadi:

- tanqidiy futurizm;

- evolyutsion futurizm;

- ma'naviy futurizm .

Tanqidiy maktab tarafdorlari jamiyatdagi tez texnologik o'zgarishlar kelajak avlodlarning o'limiga olib keladi, deb hisoblashadi. Evolyutsion futurizm jamiyat rivojlanishidagi salbiy tendensiyalarni evolyutsion sakrash, xavfli, ammo tabiiy deb hisoblaydi, bu insoniyatning yangi sharoitlarga moslashishiga imkon beradi. Evolyutsion futuristlar ta'limning jamiyat taraqqiyotidagi ustuvor rolini tan oladilar. Ma'naviy futurizm insonni doimiy o'zgarish va rivojlanishda, futurizmning ushbu yo'nalishiga ko'ra, insoniyat o'zini olamning bir qismi sifatida tan olsa va olam birligini tushunish asosida ma'naviy birlashsa, omon qoladi.

Prognostik dunyoqarash quyidagi fazilatlar bilan tavsiflanadi: atrofdagi voqelik haqidagi har qanday kiruvchi ma'lumotni ko'rib chiqishga tayyorlik, global dunyoqarash, atrof-muhitga yo'naltirilgan fikrlash, butun insoniyat uchun g'amxo'rlik, bashorat qilish jarayoniga oqilona, pragmatik yondashuv, fikrlash qobiliyati, malakali tanlov, qiymat yo'nalishlari, optimizm , maqsadga muvofiqlik.

Ushbu davrda prognozlashning birinchi qoidalari ham shakllantiriladi, uning mavzusi o'qituvchidir. Ular o'qituvchining o'quv amaliyotida qaror qabul qilish jarayoniga ta'sir qilish qobiliyatida, uning faoliyatining ijobiy va salbiy oqibatlarini bashorat qilishda, ta'lim va tarbiya masalalarini hal etish, davlat ta'lim jarayonini to'g'ri baholashda, bashoratli faoliyatni amalga oshirishning texnikasi va usullarini ishlab chiqishda, muqobil usullarni munosib baholash imkoniyatida yotadi. Pedagogik prognozni amalga oshirishning muhim yo‘nalishlaridan biri yoshlarni o‘zgarayotgan jamiyat hayotiga tayyorlash, jumladan, ularni o‘qishga bo‘lgan rag‘batlantirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, o‘quvchilarda dunyoqarash va hayot falsafasini shakllantirishdir .

AQSHda Y. Kelli[4] ta’lim futurizmining asosiy maqsadi kelajak maktabini bashorat qilish emas, balki o‘quvchilar va talabalarga hayotdagi inqirozlarni yengishni, ya’ni ichki prognozlashni o‘rganishga yordam berish ekanligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, ta'lim futurizmi o'quvchilarga o'ziga xos, o'zgarmas bilimlarni emas, balki jamiyat hayotidagi o'zgarishlarni oldindan bilish va ularga moslashish ko'nikmalarini o'rgatish uchun mo'ljallangan. Keng uslubiy ma'noda ta'lim futurizmi zamonaviy jamiyatda insonning imkoniyatlarini kengaytirishi, odamlarning axborot asriga va ilg'or texnologiyalar jamiyatiga moslashishiga yordam berishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy tadqiqot jarayonida pedagogik prognozlash tushunchasining ko‘p tomonlama yondashuvga asoslangan umumiy ta'rifini ishlab chiqishda qiyosiy tahlil, tarixiylik, dialektika, induksiya va deduksiya metodlaridan, uning tarkibiy elementlari va omillarini aniqlashda analiz-sintez, guruhlash usullaridan foydalanilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Pedagogik prognozni amalga oshirish bilan bog'liq o'xshash tushunchalarni tavsiflash uchun turli mamlakatlar turli terminologiyadan foydalanadilar. Yevropa olimlari quyidagi atamalardan foydalanadilar. Bashorat - kelajakni bashorat qilish, aniqrog'i, o'zgarishlarni bashorat qilish maqsadida amalga oshiriladigan qarorlar va harakatlarning tizimli jarayoni [5] (J. Kliri, X. Levenbax), muayyan asbob-uskunalar yordamida kelajakka qarash [6] (F.Polak). Bashorat - kelajakni bashorat qilish uchun o'tmish va hozirgi zamon sintezi (F.Hood). Prognozlash - kelajak haqidagi ma'lumotlarni hosil qiluvchi bashoratning maxsus turi [7] (F.Hood, T.Saati). Amerika yondashuvida "prognozlash" tushunchasi kengroq kontekstni qamrab oladi, "bashorat" esa aniqroq ma'nolarga xizmat qiladi: " o'qituvchining muvaffaqiyatini bashorat qilish", "baholarni bashorat qilish". Bundan tashqari, Evropada "prognoz", "prognostik" tushunchalari qo'llaniladi. Prognostik – ilmiy ma’lumotlar va kashfiyotlarga asoslangan bashorat, “ilg‘or uslub va vositalar yordamida kelajakni sotsiodinamik usullardan foydalangan holda maqsadli yo‘naltirish orqali kelajakni o‘rganishni maqsad qilgan fan” (F.Polak). Prognostika qisqa - muddatli, o'ziga xos, qat'iy ma'lumotlarga asoslangan va statistik usullardan foydalanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, pedagogik prognozlash tushunchasiga quyidagi ta’rifni ishlab chiqdik. Pedagogik prognozlash - bu nafaqat pedagogik faoliyat davomida ro‘y berishi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlarni, balki boshqa sohalardagi rivojlanish tendensiyalarini va istiqbollarni o‘rganishga qaratilgan maqsadli rejalashtirilgan harakatlar majmuini tushunamiz.

20-asrning oxiriga kelib pedagogik prognozlash o‘qituvchining kasbiy vazifasi sifatida to‘rt yo‘nalish kontekstida ko‘rib chiqiladi: ijtimoiy-pedagogik [8] (I.V. Bestujev-Lada), nazariy-uslubiy [9] (B.S.Gersunskiy), eksperimental [10] (E.G. Kostyashkin), shaxsiyatga yo'naltirilgan [11] (A.M. Gendin) yo'nalishi. Ijtimoiy-pedagogik yo'nalish ijtimoiy sharoit va shart-sharoitlardan kelib chiqib, mamlakat ta’lim tizimining rivojlanish yo‘llarini bashorat qilishni maqsad qilib qo‘ygan. Asosiy usul sifatida o'qituvchilar o'tmish va hozirgi tendensiyalarning kelajagiga ekstrapolyatsiya qilishdan foydalanadilar. Nazariy va uslubiy prognozlashning o'rni shundan iboratki, o'qituvchilar uzluksiz kasbiy ta'lim tizimini prognozlash ob'ekti deb hisoblashadi.

Nazariy va uslubiy prognozlashda tasvirlangan umumiy prognozlash usullari o'qituvchidan bashorat qilish funksiyasini bajarish uchun maxsus tayyorgarlikni talab qiladi. E.G. Kostyashkin ishida taqdim etilgan eksperimental yo'nalish kelajak maktabini yaratish bo'yicha amaliy tadqiqotlarga asoslangan. Ko'pincha bu tajribalar maktab o'quvchilarining mehnat ta'limini yaxshilash bilan bog'liq bo'lib, sinfdan tashqari mehnat faoliyati, mehnat to'garaklari, texnik ijodkorlikni tashkil etish, atrof-muhitni muhofaza qilish ishlarida o'z ifodasini topadi.

Ta'lim muassasalarining vazifasi maktab o'quvchilari va talabalarni savodli bo‘lish bilan bir qatorda, to‘laqonli hayot kechirishini ta’minlaydigan kasbini tanlashga o'rgatishdir. Bunga erishish uchun olimlar o'quv dasturiga prognozlashni kiritishni taklif qilmoqdalar. Amerika va Evropa mamlakatlarida o'quv rejasiga prognozlashni kiritishning uchta usuli qo'llaniladi: fanni prognozga yo'naltirilgan mavzularga bo'lish, prognozni alohida fan sifatida o'rgatish (masalan, maxsus kurs sifatida), maktab o'quvchilari va talabalariga prognoz qilish ko'nikma va ko'nikmalarini o'rgatish.

Hozirgi vaqtda talabalarga kelajakda kasbiy faoliyatini ob'ektiv va ishonchli tashkil qilishda yordam beradigan bashoratli fikrlashni shakllantirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, pedagogik prognozlash - bu mehnat bozoridagi o'zgarishlarga muvofiq ta'lim muassasasining rivojlanish strategiyasini belgilash, jamiyatning muayyan sohalar bo'yicha mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojlarini aniqlash, ularni tayyorlash tizimini yanada takomollashtirish orqali jamiyat tomonidan talab qilinadigan malakali mutaxassislar tayyorlash imkoniyatlarini oshiradi.

Prognozlashning kasbiy funksiyasini va shu asosda yuzaga keladigan yangi shakllanish - bashoratli kompetentsiyani o'rganish uchun uslubiy vosita sifatida yordam beradi.

Ko'pgina omillarning ta'siri bizni to'liq ishonchli prognoz qilishimizga to'sqinlik qiladi, biz faqat ma'lum darajadagi ishonchlilik bilan prognoz qilishimiz uchun barcha omillarni hisobga olsak, prognozning aniqligi yuqori darajada bo'ladi

Shaxsning imkoniyatlarini kengaytirish jamiyat imkoniyatlarini kengaytiradi, agar jamiyatning salohiyati oshsa, bu shaxsning rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi, bu esa samaradorlikni oshishiga xizmat qiladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Гершунский Б. С. Образовательно-педагогическая прогностика. Теория, методология, практика: Учебное пособие / Б.С.Гершунский - М.: Флинта: Наука, 2003. - 68 с.

2. Карманчиков А.И. Логика педагогического прогнозирования. Монография.Ижевск: Удмуртский государственний университет.2012. ст. 4

3.Briggs, L.J. Instructional design: Present strength and limitations, and a view of the future *I* L.J. Briggs *I I* Educational Technology. - 1982. - N. 10. - P. 18-23.

4.Kelly, E.W. Curriculum power: Thinking futuristically, acting realistically. Paper presented at the Curriculum Advisory Council *I* E.W. Kelly. - Montgomery County: Information Analysis (070), 1985. - 22 p. - ED266056.

5. Cleary, J.P. The professional forecaster: The forecasting process through data analysis *I* J.P. Cleary, H. Levenbach. - Belmont, Calif.: Lifetime Learning Publications, 1982. - 402 p.

6. Polak, F.L. Prognostics: a Science in the making surveys and creates the future / F.L. Polak. - Amsterdam, New York: Elsevier Pub. Co., 1971. - 425 p.

7. Hood, F.F. Futurism 1984: An Overview. Prepared for the State Advisory Council on Vocational Education *I* F.F. Hood. - Virginia: Information Analysis (070), 1984. - 34 p. - ED248588.

8.Бестужев-Лада, И.В. Россия накануне XXI века. 1904-2004. От колосса к коллапсу и обратно / И.В. Бестужев-Лада. - М.: Рос. пед. агентство, 1997.-230 с.

9.Гершунский, Б.С. Дидактическая прогностика = Didaktika prognostika: некоторые актуальные проблемы теории и практики / Б.С. Гершунский, Я. Пруха. - Киев: Вища школа, 1979. - 240 с.

10.Скаткин, М.Н. Трудовое воспитание и профориентация школьников / М.Н. Скаткин, Э.Г. Костяшкин. - М.: Просвещение, 1984. - 192 с.

11.Гендин, А.М. Личность и прогнозирование: специфика и основные формы / А.М. Гендин *И* Вопросы прогнозирования и планирования развития личности. - Красноярск, 1985. - С. 3-24.

OILAVIY-QO‘SHNICHILIK JAMIYATIDA TARBIYAVIY ISHLARINI TIZIMLI RIVOJLANTIRISH

Jumaniyazova Zulfiya Aitbayevna
CHDPU pedagogika fakulteti “Pedagogika” kafedrasi o’qituvchisi
Turdiyev Umidbek Meyli o’g’li, Tabiiy fanlar fakulteti 2-bosqich

ANNOTATSİYA

Ushbu maqolada oilaviy-qo‘shnichilik jamiyatidagi tarbiyaviy ishlarini tizimli rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarini ta’minlash; oilaviy-qo‘shnichilik jamiyatidagi tarbiyaviy ishlarini tizimli rivojlantirishning texnologik modelini takomillashtirish; mahalla va oliy ta’lim muassasalari hamkorligida oilaviy-qo‘shnichilik jamiyatidagi tarbiyaviy ishlarini tizimli rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish; oilaviy-qo‘shnichilik jamiyatidagi tarbiyaviy ishlarini tizimli rivojlanganlik darajalarini aniqlash, taklif va tavsiyalar ishlab chiqish masalalari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Oilaviy-qo‘shnichilik jamiyati, ijtimoiylashuv, inklyuziv, nuqsonlik, maxsus pedagogika, ixtisoslashtirilgan ta’lim, reabilitatsiya, refleksiv baholash, hamkorlik, tarbiyaviy ishlar, pedagogik texnologiya, ijtimoiy integratsiya.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются вопросы создания организационно-педагогических условий для системного развития воспитательной работы в семейно-соседском обществе. Особое внимание уделяется совершенствованию технологической модели и методов развития воспитательной работы посредством сотрудничества с махаллами и высшими учебными заведениями, а также определению уровней системного развития данной сферы. Кроме того, разработаны предложения и рекомендации, направленные на повышение эффективности воспитательной деятельности в рамках семейно-соседского сообщества.

Ключевые слова: Семейно-соседское общество, социализация, инклюзивность, инвалидность, специальная педагогика, специализированное образование, реабилитация, рефлексивная оценка, сотрудничество, воспитательная работа, педагогическая технология, социальная интеграция.

ABSTRACT

This article examines the organizational and pedagogical conditions essential for the systematic development of educational initiatives within the family-neighborhood community. It focuses on enhancing the technological model and methodologies for educational work, particularly through collaboration with mahallas and higher educational institutions. Furthermore, the study outlines a framework for assessing the levels of systematic development and provides concrete proposals and recommendations to improve educational outcomes in these communities.

Keywords: Family-neighborhood community, socialization, inclusivity, disability, special education, special pedagogy, rehabilitation, reflective assessment, collaboration, educational work, pedagogical technology, social integration.

KIRISH

Dunyo hamjamiyatining globallashuv sari borayotgan hozirgi davrida ta'limning barcha bo‘g‘inlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jahonda ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy sohani rivojlantirish amaliyoti tendensiyasini yanada takomillashtirishda hamda oilaviy-qo‘shnichilik jamiyatidagi tarbiyaviy ishlarini tizimli rivojlantirishning pedagogik texnologiyalarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun ta'lim muassasalari va mahallalarning oilalar bilan hamkorligining ustuvor yo‘nalishlarini belgilangan holda oilaviy-qo‘shnichilik jamiyatidagi tarbiyaviy ishlarini tizimli rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini ta'minlash, texnologik modellashtirish, tarbiyaviy ishlarini tizimli rivojlantirishning pedagogik texnologiyalarini takomillashtirish, oilaviy-qo‘shnichilik jamiyatida tarbiyaviy ishlarini tizimli rivojlantirishning rivojlanganlik darajalarini baholash mexanizmini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Oilaviy-qo‘shnichilik jamiyatidagi tarbiyaviy ishlarini tizimli rivojlantirish uchun pedagogik shart-sharoitlarni ta'minlash, raqamli ta'lim texnologiyalari vositasida tarbiyaviy ishlarini takomillashtirish, texnologik modellashtirish, tarbiyaviy ishlar bo‘yicha metodik ta'minotni rivojlantirish, tarbiyaviy ishlarini tizimli rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish zaruriyatini ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Oilaviy-qo‘shnichilik jamiyatidagi ta'limi jarayonida umumdidaktik qoidalar va tamoyillardan tashqari xususiy yondashuvlar ham qo‘llaniladi. Bu yondashuvlar o‘quvchilarga umumta'lim fanlarini o‘zlashtirish imkoniyatini pasaytiruvchi, jamiyatga moslashuvchanlik muammolarni nisbatan bartaraf etish usul va vositalarini ko‘zda tutadi.[1] Maxsus ta'lim muassasasida oilaviy-qo‘shnichilik jamiyatidagi bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun sharoitlar yaratiladi.

L.S.Vigotskiyning nogironlik tushunchasini bir umrlik tamg‘a, azob va ishonchsizlik deb tushunadigan insonlarga nisbatan aytgan quyidagi fikri hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q: “Nuqsonlilik-bu ijtimoiy tushuncha bo‘lib, nuqsonlarning ustiga qurilgan narsadir... . ... oxir oqibat ijtimoiy tarbiya nuqsonlikning ustidan g‘alaba qozonadi. Insoniyat erta yoki kech ushbu nuqsonlikni yengadi. Eng muhimi, tibbiy, biologik jihatdan ham ko‘ra ertaroq ijtimoiy-pedagogik jihatdan yenga oladi” [2].

Xorijiy mamlakatlar olimlaridan L.Feerbax, I.G.Fichte, E.Erikson, V.Vildenband, Fisher, Ye.Meyman, Pen o Jyul kabi olimlar olib borgan ilmiy tadqiqotlari oilaviy munosabatlarini rivojlantirishda ma'naviy qadriyatlarning o‘rni bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borishgan.

Mamlakatimiz olimlaridan M.Ayupova, N.Dadaxo‘jayeva, L.Mo‘minova, D.Nurkeldiyeva, L.Nurmuhammedova, U.Fayziyeva, G.Shoumarov, F.Qodirova va boshqalar ijtimoiy sohani rivojlantirishda ta'lim va tarbiyaning roli va ta'limda pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish muammolari bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borishgan.

F.U.Qodirova inklyuziv ta'lim – o‘quvchilarning imkoniyatlari, individual-psixologik, jismoniy nuqson va o‘zlashtirish xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladigan ta'lim jarayoni ekanligini ta'kidlaydi. Shuningdek, inkluziv ta'lim davlat siyosati bo‘lib, imkoniyati cheklangan va sog‘lom bolalar o‘rtasidagi to‘siqlarni bartaraf etish, inklyuziv ta'limga muhtoj bolalarni rivojlanishidagi nuqsonlari yoki iqtisodiy qiyinchiliklaridan qat'i nazar, ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo‘naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo‘shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir [3] degan xulosalar berdi.

Metodologiya**:** Oilaviy-qo‘shnichilik jamiyatidagi tarbiyaviy ishlarini tizimli rivojlantirish uchun ishlab chiqilgan metodik modelni hamda pedagogik shart-sharoitlar majmui sifati va samaradorligini aniqlash maqsadida pedagogik tajriba o‘tkazish.

Birinchi bosqichida: Oilaviy-qo‘shnichilik jamiyatidagi tarbiyaviy ishlarini tizimli rivojlantirish ko‘rsatkichlari produktiv va repraduktiv darajalar oralig‘ida bo‘ladi. Shuni ta'kidlash kerakki,

aniqlovchi bosqichda mahallalar oilalarining nazorat guruhida ham tajriba guruhida ham bir xil natija ko‘rsishini ta’minlash.

Ikkinchi bosqichida: Qiyosiy tajriba o‘tkazish vaqtida tajriba hamda nazorat guruhlarida ta’limning samaradorlik darajasi o‘rtasidagi farq aniqlandi, ko‘rsatkichlar farqining ahamiyati baholanadi. Shu bilan birga o‘lchov ishlari nomlanishlar shkalasi bo‘yicha o‘tkazish.

Uchinchi bosqichda: Oilaviy-qo‘shnichilik jamiyatidagi tarbiyaviy ishlarini tizimli rivojlanganlik darajalari baholash mezonlari asosida aniqlandi. Imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashda topshiriqlarni bajarganlari sonini, nazorat guruhidagi topshiriqni bajarganlar soniga nisbati orqali bilimlarni puxta egallaganlik koeffisenti hisoblandi. O‘tkazilgan tajriba-sinov natijalariga ko‘ra tajriba guruhlarida o‘zlashtirish va sifat ko‘rsatkich nazorat guruhlariga nisbatan har doim yuqori bo‘ldi.

NATIJALAR

Tadqiqotimiz natijasida, tanlab olingan ishlari nihoyasida, oilaviy-qo‘shnichilik jamiyatidagi tarbiyaviy ishlarini rivojlanganlik komponentlarini (motivatsion-irodaviy, jarayonli-faoliyatiy, refleksiv-baholovchi) darajalarining samaradorligi tajriba boshida yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘ldi. Bu esa olib borilgan tadqiqot ishining samarali ekanligini ko‘rsatadi

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, YA.A.Komenskiy, J.J.Pysso, I.G.Пestalossi, I.Disterveg, K.D.Ushinskiylarning ilgari surgan g’oyalari: shaxsni rivojlanishida atrof-muhit ta’siri uzoq vaqtdan beri ijtimoiy-ta’limiy an’analarga ega, tarbiyada butun umr mustaqil o‘rganish qobiliyatidan foydalanish, buning uchun atrof olam va tashqi sharoitlarning imkoniyatlaridan foydalanish muhimligi haqidagi ta’kidlagan fikrlari o’z tasdig’ini topdi.

Yashash muhitini shaxs shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir qilish mexanizmi L.S.Vigotskiyning tadqiqotlarida chuqur o‘rganilgan [4]. Uning ta’kidlashicha, insonning psixik tabiati – bu ichkariga kirgan ijtimoiy munosabatlar birligi va shaxs vazifalari, uning tuzilishining dinamik qismlariga aylandi. Odamlar o‘rtasidagi tashqi ijtimoiy munosabatlarning ichkariga kirishi shaxsni shakllanishiga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shaxs shakllanishiga eng ko‘p ta’sir ko‘rsatadigan ijtimoiy muhit sharoitlarini, biz shaxs va oila-qo‘shnichilik munosabatlarining o‘ziga xos hamkorlik xususiyatlari sifatida ko‘rib chiqamiz. Unda aholi, turli guruhlar va kategopiyalar bilan ijtimoiy-tarbiyaviy ishlar uchun sharoit va imkoniyatlar, shuningdek keskin muammolar va qarama-qarshiliklarni yumshatish va bosqichma-bosqich hal qilish uchun maxsus shartlar va imkoniyatlar mavjud. Xuddi shu davrda ushbu jamiyatda oilaga yaqin, barcha toifadagi aholiga yordam ko‘rsatish, o‘sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalashning ulkan ijobiy manbai mavjud.

Oilaviy-xo‘jalik sohasida hamda shaxs va jamiyatning turli sharoitlariga moslashish sohasidagi tadqiqotchilarining ilmiy ishlari asosida (S.A.Belicheva, B.G.Bocharova, L.P.Bueva, B.Z.Vulfов, L.S.Vigotskiy, M.P.Guryanova, V.N.Gurов, L.S.Kalagina, L.A.Miller, A.N.Ostrouxov, O.G.Proxorova, O.A.Samorodova, G.G.Sillaste, V.S.Toroxtiy, T.A.Stepanova va boshqalar) aholi, oila bilan, umumiy tarbiya va bolalarni ijtimoiylashuv masalasi, bolalarni ijtimoiy ahamiyatga molik ishlarga va loyihalarga jalb etish, bolalarda tashabbuskorlik va ko‘ngillilikni rivojlantirish, ijtimoiy-ma’rifiy ishlarni hududlarga ko‘ra tuzish, oilaga yaqinlik, birgalikdagi faoliyat sohasiga, kattalar va bolalar munosabatlariga, turli yoshdagi odamlar, kasblar, ijtimoiy-madaniy soha, oilaviy-qo‘shnichilik jamiyatida ijtimoiy-tarbiyaviy siyosatni rivojlantirishda o‘zini o‘zi boshqarish jamiyati organlari va ijro etuvchi hokimiyat organlarining o‘zaro hamkorligini tashkil etish masalalari ko‘rib chiqilgan.

M.E.Duranova, A.Ya.Nayn, N.M.Yakovleva va boshqa tadqiqotchilar pedagogik sharoitlarni pedagogik jarayonning chora-tadbirlari (ob’ektiv imkoniyatlari) majmui sifatida belgilaydilar. Ta’lim va

tarbiyaning mazmuni, usullari (texnikasi) va tashkiliy shakllarini chora-tadbirlar majmui (kompleksi) deb hisoblaydi [5; 6.].

Oilaviy-qo‘shnichilik jamiyatidagi tarbiyaviy ishlarini tizimli rivojlantirishga kompetentli yondashuvni V.A.Bolotov, M.V.Bolina [7] va V.V.Serikov [8] bilim olish sharoitlarini kuzatish, ta’lim mahsulotini yaratish bilan bog‘laydilar. Mazkur yondashuvda mualliflar quyidagi komponentlarni ajratib ko‘rsatadilar: fan va faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlari; tushunchaga oid bilimlar; faoliyatning aprobatsiya qilingan usullari to‘plami; ma’lum qiyinchiliklar bo‘lganida bilishga oid va boshqa turdagi faoliyatni bajarish tajribasi; refleksiv faoliyat [9].

XULOSA

Oilaviy-qo‘shnichilik jamiyati fenomenini, uning o‘ziga xosligi va oilaning yashash joyida ijtimoiy tarbiya strategiyasining xususiyatlari, turli bo‘ysinuvdagi ijtimoiy institutlarning o‘zaro ta’sirini va yashash joyidagi aholi va uning tarkibiy birligi - oilaviy-qo‘shnichilik jamiyati bilan ijtimoiy-tarbiyaviy ishlar tizimini rivojlantirish jamiyatlarining o‘zaro hamkorlik mexanizmlarini pedagogik jihatdan asoslandi.

3. Абу Носир Форобий. Фозил одамлар шаҳри. –Т:, А.Қодирий, 1993й. - 223 б

4. Боймуродов Н. Раҳбар психологияси.-Т.: Янги аср авлоди. 2007й .

5. Маънавият асосий тушунчалар изоҳли луғати. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт – матбаа ижодий уйи,

6. Темур тузуклари (П. Аҳмедов таҳрири остида). -Т:. Ғ.Ғулом адабиёти ва саньати, 1996й. -344 б.

7. Комилов Н.Вазир қандай бўлиш керак.-Т.: Академия,1998 й.

8. Каримжонов А. Педагогик тизимни бошқариш асослари. Ўқув қўлланма – Т., 2008

PEDAGOGIK KONFLIKTLARNI BARTARAF ETISHDA KOMMUNIKATIV QOBILIYAT

КОММУНИКАТИВНЫЕ СПОСОБНОСТИ ПРИ РАЗРЕШЕНИИ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КОНФИКТОВ

COMMUNICATIVE ABILITY IN RESOLVING PEDAGOGICAL CONFLICTS

Sharaxmatova Anora
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi,
Pedagogika fakulteti. Chirchiq, O'zbekiston
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0009-7979-5021
Alimova Surayyo
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi,
Pedagogika fakulteti. Chirchiq, O'zbekiston

ANNOTATSİYA

Pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda kommunikativ qobiliyatlar muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi va talabalar o'rtasidagi samarali muloqot, nizolarni hal etishda asosiy omil hisoblanadi. Ushbu maqolada kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish usullari va konfliktlarni bartaraf etish strategiyalari ko'rib chiqilgan bo'lib, o'zaro anglashuvni oshirish, tinglash va muloqot qobiliyatlarini mustahkamlash orqali ta'lim jarayonini samarali va ijobiy qilish maqsad qilinadi. Natijalar, ta'lim muhitida ijobiy munosabatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu strategiyalarni qo'llash orqali ta'lim muhitini ijobiy tomonga o'zgartirish va konfliktlarni samarali hal qilish mumkin. O'zaro anglashuv va muloqot ta'lim jarayonining muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardandir. Tinchlik va hamkorlik muhitini yaratish, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish va o'quvchilarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Maqolada bu muhitni yaratish uchun qo'llaniladigan asosiy tamoyillar va strategiyalar batafsil yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: konflikt, nizo, strategiya, qobiliyat, muloqot, kommunikatsiya, tinglash, suhbat, stress, bosim, noverbal, samimiylik.

АННОТАЦИЯ

Коммуникативные навыки важны для разрешения педагогических конфликтов. Эффективное общение между преподавателями и учениками является ключевым фактором в решении конфликтов. В данной статье рассматриваются методы развития коммуникативных навыков и стратегии разрешения конфликтов, с целью сделать образовательный процесс эффективным и позитивным, за счет повышения взаимопонимания и укрепления навыков слушания и общения. Результаты способствуют формированию позитивных отношений в учебной среде. Используя эти стратегии, можно изменить среду обучения в положительную сторону и эффективно разрешать конфликты. Взаимопонимание и общение являются ключевыми факторами, определяющими успешность образовательного процесса. Создание атмосферы мира и сотрудничества имеет решающее значение для повышения эффективности образовательного процесса и развития социальных навыков обучающихся. В статье подробно описаны основные принципы и стратегии, используемые для создания этой среды.

Ключевые слова: конфликт, спор, стратегия, способность, диалог, коммуникация, слушание, беседа, стресс, давление, невербальность, искренность.

ABSTRACT
Communication skills are important for resolving pedagogical conflicts. Effective communication between teachers and students is a key factor in resolving conflicts. This article discusses methods for developing communication skills and conflict resolution strategies to make the educational process effective and positive by increasing mutual understanding and strengthening listening and communication skills. The results contribute to the formation of positive relationships in the learning environment. Using these strategies, it is possible to change the learning environment in a positive way and effectively resolve conflicts. Mutual understanding and communication are key factors determining the success of the educational process. Creating an atmosphere of peace and cooperation is crucial for improving the effectiveness of the educational process and developing students' social skills. The article describes in detail the basic principles and strategies used to create this environment.
Key words: conflict, dispute, strategy, ability, dialogue, communication, listening, conversation, stress, pressure, non-verbality, sincerity.

KIRISH

Ma’lumki, konfliktlar inson hayotining ajralmas tarkibiy qismi sifatida e’tirof etiladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan pedagogik konfliktlarni profilaktika qilish, korreksiyalash va bartaraf etish ko‘nikmalarini shakllantirib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik tadqiqotlarda o’rganilishicha, konfliktlarning quyidagi turlari mavjud [2]:

1. O'qituvchi-o'quvchi konfliktlari. Bu turdagi konfliktlar ko'pincha o'qituvchining ta'lim uslubi, baholash tizimi yoki dars o'tish usullariga nisbatan o'quvchilarning noroziligidan kelib chiqadi. Masalan, o'quvchilar o'qituvchining qattiq talablariga yoki darsda qo'llanilayotgan metodlarga norozi bo'lishi mumkin.

2. O'quvchi-o'quvchi konfliktlari. Ushbu konfliktlar o'quvchilar o'rtasida raqobat, ijtimoiy o'zaro aloqalar yoki shaxsiy muammolar tufayli yuzaga keladi. Masalan, bir o'quvchi boshqasining muvaffaqiyatidan norozi bo'lishi yoki o'zaro do'stlik munosabatlaridagi tushunmovchiliklar sababli konfliktlar paydo bo'lishi mumkin.

3.O'qituvchi-ota-onalar konfliktlari. O'qituvchilar va ota-onalar o'rtasida o'quvchilarning ta'limi va tarbiyasi bo'yicha kelishmovchiliklar paydo bo'lishi mumkin. Ota-onalar ba'zan o'qituvchilarning qarorlariga yoki dars jarayonidagi yondashuvlariga norozi bo'lishlari mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Zamonaviy psixologik-pedagogik yondashuvlar tahlili konfliktlarni motiv, nuqtai nazar, ehtiyoj, qiziqish, maqsadga qarama-qarshi yo‘nalganlik, to‘qnashuv tarzida talqin etilishini ko‘rsatdi. MDH davlatlari olimlari nizo tushunchasini emotsional jihat bilan bog‘liqlikda salbiy emotsiyalarga moyil subyektlar o‘rtasidagi qarama-qarshilikning murakkab shakli deya izohlashgan (A.Ansupov, A.Shipilov, E.Bogdanov, O.Gromova, O.Sherbakova) [1, 5]. Taniqli psixolog J.Brunerning "yangi qarashlar" g‘oyasiga asosan nizoli vaziyatlarga to‘g‘ri munosabat "perseptiv ximoya" vositasi sifatida, ya’ni insonning inson tomonidan adekvat idrok qilinishi bilan bevosita bog‘lab talqin qilinadi [3]. Albatta, bu o‘rinda insonlar o‘rtasidagi muomala, muloqot va munosabat mezonlari alohida o‘rin tutadi. Pedagogning kasbiy vazifalarini bajarish sifati va maktabning nizoli muhitga moyilligining o‘zaro aloqadorligini hisobga olgan holda tadqiqot doirasida o‘qituvchining salohiyat darajasi va mas’uliyatni yuqori darajada anglashi, uning muomala madaniyati konseptual asos sifatida olindi.

MUHOKAMA

Pedagogik konfliktlarning bir necha sabablari mavjud:

- tushunmovchiliklar: o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi muloqotdagi kamchiliklar;

- qadriyatlarning turli ekanligi: o'qituvchi va o'quvchilarning qarashlari, qadriyatlari va maqsadlari o'rtasidagi farqlar;

- stress va bosim: o'quvchilar ta'lim jarayonidagi stress va bosimni his qilishlari mumkin, bu esa konfliktlarga olib keladi;

- ijtimoiy omillar: o'quvchilarning ijtimoiy muhitidagi o'zgarishlar va bosimlar.

Pedagogik konfliktlarning yuzaga kelishi ta'lim jarayonida odatiy hol, ammo ularni bartaraf etish uchun eng maqbul yechim bu - kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish va muammolarni hal etish strategiyalarini qo'llashdan iborat. O'qituvchilar va o'quchilar o'rtasida samarali muloqot va o'zaro anglashuv ta'lim muhitini ijobiy tomonga o'zgartirishi mumkin.

Pedagogik konfliktlarni bartaraf etish uchun bir necha strategiyalar mavjud [7]:

1. Muloqot va tinglash. O'zaro muloqot va faol tinglash orqali tushunmovchiliklarni bartaraf etish mumkin..

2. Empatiya: o'quvchilarning his-tuyg'ularini tushunishga harakat qilish va ularni qabul qilish.

3. Muammolarni hal etish. Muammolarni birgalikda tahlil qilish va hal etish jarayonini tashkil etish.

4. Tinchlik va hamkorlik. Tinchlik muhitini yaratish va hamkorlikni rivojlantirish.

Pedagogik konfliktlar ta'lim jarayonida odatiy hol, ammo ularni bartaraf etish uchun kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish va muammolarni hal etish strategiyalarini qo'llash zarur. O'qituvchilar va o'quchilar o'rtasida samarali muloqot va o'zaro anglashuv ta'lim muhitini ijobiy tomonga o'zgartirishi mumkin.

Kommunikativ qobiliyat – bu insonning o'z fikrlarini aniq, tushunarli va samarali tarzda ifodalash, boshqa insonlarni tinglash va ularning fikrlarini tushunish qobiliyatidir. Ushbu qobiliyat ijtimoiy muloqot, ta'lim, ish joyida hamda shaxsiy munosabatlarda muhim ahamiyatga ega.

Kommunikativ qobiliyatning quyidagi komponentlari mavjud [5]:

1. Tinglash – bu faqat eshitish emas, balki boshqa insonning fikrlarini, his-tuyg'ularini va ehtiyojlarini tushunish jarayonidir. Aktif tinglash, ya'ni savollar berish va fikrlarni to'g'ri tushunishga harakat qilish, muhim ahamiyatga ega.

2. Ifodalash - o'z fikrlarini aniq va ravshan ifodalash, so'zlar va jumlalarni to'g'ri tanlash, fikrlarni tartibga solish – bu ifodalash qobiliyatining asosiy jihatlari. Bu nafaqat og'zaki, balki yozma muloqotda ham muhimdir.

3. Empatiya – bu boshqa insonning his-tuyg'ularini tushunish va ularga nisbatan hislatlar ko'rsatish qobiliyatidir. Bu qobiliyat muloqotda o'zaro anglashuvni mustahkamlashga yordam beradi.

4. Nonverbal muloqot – bu tanlovlar, mimikalar, harakatlar va boshqa belgilar orqali fikrlarni ifodalashdir. Bu turdagi kommunikatsiya ko'pincha og'zaki muloqotdan ko'ra kuchliroq bo'lishi mumkin.

Samarali kommunikativ qobiliyat ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish, yangi do'stlar orttirish va ijtimoiy tarmoqni kengaytirish uchun zarur. O'qituvchilar va talabalar o'rtasida samarali muloqot ta'lim jarayonining muvaffaqiyatini belgilaydi. O'qituvchilar o'z fikrlarini tushunarli qilib ifodalashlari va talabalar esa savollar berishlari orqali o'zlarini ifoda etishlari kerak.

Kommunikativ qobiliyat odamlar o'rtasida o'zaro anglashuvni ta'minlab, ijtimoiy, ta'lim va kasbiy sohalarda muvaffaqiyatga erishishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu qobiliyatni rivojlantirish orqali biz nafaqat o'zimizni, balki boshqalarni ham yaxshiroq tushunishga yordam beramiz.

XULOSA

Pedagogik konfliktlarni bartaraf etish jarayonida kommunikativ qobiliyatlar muhim rol o'ynaydi. O'qituvchilar va talabalar o'rtasida samarali muloqot o'rnatish, muammolarni ochiq va halol muhokama qilish, shuningdek, bir-birini tushunishga intilish, konfliktning oldini olishda va bartaraf etishda asosiy omillardir. Kommunikativ qobiliyatlar yordamida o'qituvchilar talabalarning ehtiyojlarini tushunib, ularning fikr-mulohazalariga e'tibor berishlari mumkin. Bu esa, o'z navbatida, ijobiy ta'lim muhitini yaratishga va o'zaro hurmatni oshirishga olib keladi.

Shuningdek, pedagogik konfliktlarni boshqarish strategiyalarini bilish va qo'llash, shuningdek, muammoli vaziyatlarda muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, ta'lim jarayonini yanada samarali qiladi. Bunday yondashuvlar orqali o'qituvchilar nafaqat konfliktlarni bartaraf etish, balki talabalarning rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Natijada, ta'lim jarayoni yanada muvaffaqiyatli va samimiy bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullaeva, N. (2020). Muloqotning pedagogik jihatlari: konfliktlarni hal etish usullari. Toshkent: Fan va texnologiyalar.

2. Jalolov, O. (2020). Pedagogik konfliktlarni boshqarish: nazariya va amaliyot. O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. Toshkent, 50-55.

3. Jumaniyozov, R. (2015). Muomala madaniyati. Risola. Toshkent.

4. Musurmonov, R., Sharaxmatova A. (2021). Oliy ta’lim muassasalarida pedagogik muloqot va uning ahamiyati xususida. Academic research in educational sciences.

5. Saidov, Sh. (2019). Kommunikativ qobiliyat va ta’lim jarayonida uning o‘rni. Toshkent: Fan va texnologiyalar.O’qituvchi.

6. Sharakhmatova, A. (2024). Adaptation to the credit-modular system of education as a pedagogical problem. Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical.

7. Sultonov, D. (2021). Pedagogik psixologiya: konfliktlarni bartaraf etish usullari. Toshkent: Fan va texnologiyalar.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI BASHORATLASH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Rustamov Bektosh Ximmatovich
ChDPU “Menejment” kafedrasi o‘qituvchisi
Miralibekova Sevinch Danabe qizi,
Husanova Ruxshona Azimjon qizi,
Turdiboyeva Gulsevar Alim qizi,
Toxtamuradova Malikabonu Dilmurod qizi,
Normuradova Dildora Elmurod qizi
Menejment yo‘nalishi 1-bosqich talabalari

ABSTRACT

In this article, the technology for the formation of predictive skills of future teachers was based on a scientific and theoretical treatise. The use of an individual approach involves taking into account the personal characteristics of prospective teachers and involves supporting existing internal resources to form predictive competence. The flexibility of predictive skills as an indicator of the formation of predictive skills by an experimental criterion characterizes their attitude to the change in the predictive situation in various experiments under the influence of temporal and other factors. In design and research activities, such factors include situations, conditions, processes, and unpredictable uncertain changes in the predictive object, leading to the absence of standard methods or predictive algorithms. Flexibility defines scientific prediction options; in various pedagogical situations it is presented as “a predictive experience in partially changed situations - a predictive experience in New conditions - a predictive experience with an element of uncertainty - a predictive experience in uncertainty”. Thus, the study developed the program for conducting all stages of the experiment as diagnostic tools for assessing the level of formation of the predictive skills of the future teacher, and it provides a diagnostic matrix that determines the compatibility of Components, criteria and indicators for determining and shaping and diagnosing the formation of predictive skills of the future teacher.

We can assume that increasing the professional training of students is possible due to the full pedagogical support of the process of forming the scientific predictive skills of the future teacher. This scientific prediction makes it possible to consolidate skills in professional practice. This can be done by involving prospective teachers in research activities. This process is most effective by predicting future career paths during seminars and practical training. This will change the attitude of students to their future professional activities.

Keywords: categories, forecasting skills, advanced educational system, subject-centrism, modernization.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning bashoratlash ko‘nikmalarini shakllantirish texnologiyasi ilmiy-nazariy jixatdan asoslab o’tildi. Shaxsiy yondashuvdan foydalanish bo‘lajak o‘qituvchilarning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish bilan bog‘liq bo‘lib, bashoratli kompetentsiyani shakllantirish uchun mavjud ichki resurslarni qo‘llab-quvvatlashni o‘z ichiga oladi. Bashorat qilish ko‘nikmalarining moslashuvchanligi eksperimental mezon bo‘yicha bashorat qilish ko‘nikmalarini shakllantirish ko‘rsatkichi sifatida ularning vaqtinchalik va boshqa omillar ta'siri ostida turli xil tajribalarda bashorat

qilish vaziyatining o‘zgarishiga munosabatini tavsiflaydi. Loyihalash va tadqiqot faoliyatida bunday omillarga vaziyat, sharoit, jarayon va bashorat qilish ob'ektidagi oldindan aytib bo‘lmaydigan noaniq o‘zgarishlar kiradi, bu esa standart usullar yoki bashorat qilish algoritmlarining yo‘qligiga olib keladi. Moslashuvchanlik ilmiy bashorat qilish variantlarini belgilaydi; turli pedagogik vaziyatlarda u “qisman o‘zgargan vaziyatlarda bashorat qilish tajribasi - yangi sharoitlarda bashorat qilish tajribasi - noaniqlik elementi bilan bashorat qilish tajribasi - noaniqlik sharoitida bashorat qilish tajribasi” sifatida taqdim etiladi. Shunday qilib, tadqiqot eksperimentning barcha bosqichlarini o‘tkazish dasturini kelajakdagi o‘qituvchining bashorat qilish ko‘nikmalarini shakllantirish darajasini baholash uchun diagnostika vositalari sifatida ishlab chiqdi hamda u - aniqlash va shakllantirish va bo‘lajak o‘qituvchining bashorat qilish ko‘nikmalarini shakllantirishni diagnostika qilish uchun komponentlar, mezonlar va ko‘rsatkichlarning muvofiqligini aniqlaydigan diagnostik matritsani taqdim etadi.

Talabalarning kasbiy tayyorgarligini oshirish bo‘lajak o‘qituvchining ilmiy bashoratlash ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonini to‘liq pedagogik qo‘llab-quvvatlash tufayli mumkin deb taxmin qilishimiz mumkin. Bu ilmiy bashoratlash mahoratni kasbiy amaliyotda mustahkamlash imkonini beradi. Buni bo‘lajak o‘qituvchilarni tadqiqot faoliyatiga jalb qilish orqali amalga oshirish mumkin. Bu jarayon seminarlar va amaliy mashg‘ulotlar davomida kelajakdagi kasbiy faoliyat yo‘llarini bashorat qilish orqali eng samarali bo‘ladi. Bu talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyatiga munosabatini o‘zgartiradi.

Kalit so‘zlar: kategoriyalar, prognozlash ko‘nikmalarini, ilg‘or ta’lim tizimi, sub’yekt-tsentrizm, modernizatsiya.

АННОТАЦИЯ

В данной статье научно-теоретически обоснована технология формирования прогнозных навыков будущих педагогов. Использование личностного подхода связано с учетом личностных особенностей будущих учителей и предполагает поддержку имеющихся внутренних ресурсов для формирования прогнозной компетентности. Гибкость прогнозных умений как показатель формирования прогнозных умений по экспериментальному критерию характеризует их отношение к изменению прогнозной ситуации в различных экспериментах под влиянием временных и других факторов. В проектно-изыскательской деятельности к таким факторам относятся непредсказуемые неопределенные изменения ситуации, условий, процесса и объекта прогнозирования, приводящие к отсутствию стандартных методов или алгоритмов прогнозирования. Гибкость определяет варианты научного прогнозирования; в различных педагогических ситуациях она представлена как “опыт прогнозирования в частично измененных ситуациях - опыт прогнозирования в новых условиях - опыт прогнозирования с элементом неопределенности - опыт прогнозирования в условиях неопределенности”. Таким образом, исследование разработало программу проведения всех этапов эксперимента в качестве диагностических средств оценки уровня формирования прогнозных умений будущего педагога, а также предоставляет диагностическую матрицу, определяющую соответствие компонентов, критериев и показателей для диагностики u - выявления и формирования и формирования прогнозных умений будущего педагога.

Можно предположить, что повышение профессиональной подготовки учащихся возможно благодаря полному педагогическому сопровождению процесса формирования у будущего педагога навыков научного прогнозирования. Это научное предсказание позволяет закрепить навык в профессиональной практике. Это можно сделать, привлекая будущих преподавателей к исследовательской деятельности. Этот процесс наиболее эффективен во время семинаров и практических занятий, прогнозируя будущие пути профессиональной деятельности. Это меняет отношение студентов к будущей профессиональной деятельности.

Ключевые слова: категории, навыки прогнозирования, продвинутая система образования, субъект-центризм, модернизация.

Mamlakatimiz ta'lim sohasini isloxatini amalga oshirishda o'qituvchi yuksak o'rinda turadi. O'qituvchi zimmasidagi barcha vazifalar kelajak avlodning beg'araz ta'lim olishi bilan bog'liq hisoblanadi. Shu jixatdan xozirgi yangi davrda insonning ta'lim, tarbiyasi, rivojlanishi va o'z-o'zini rivojlantirishdagi xolatini ortiqcha baholab bo'lmaydi. [1.1]Har qanday mamlakat fuqarosining farovonligi va muvaffaqiyati, shuningdek, firma va tashkilotlarning raqobatbardoshligi, birinchi navbatda, ushbu mamlakat fuqarolari oladigan ta'lim sifatiga, tarbiyasiga, yosh avlod rivojlanishi va o'z-o'zini rivojlantirishiga bog'liq. Faol rivojlanayotgan va o'z fuqarolarining ta'lim va tarbiyasi sohasida yangi va ilg'or yutuqlarga tayanadigan mamlakatlarda hayot sifati yuqori ekanligi tobora ayon bo'lmoqda.

Falsafa kategoriyalari asosida pedagoglarning prognozlash ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyasi haqida so'z yuritar ekanmiz ta'lim va tarbiya sifati hamda inson hayoti sifati o'rtasidagi munosabatlar modelini yanada mazmunli muhokama qilish va asoslash zarur. Yangi va ilg'or ta'lim tizimi va texnologiyalari o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, balki ular yangi pedagogik g'oyalar va tushunchalar asosida vujudga keladi va rivojlanadi.

Falsafa kategoriyalarini ilk bor, Arastu tomonidan ta'riflanib "Kategoriyalar" degan asarida ularni obyektiv voqelikning umumlashgan inikosi sifatida qarab, turkumlashtirishga harakat qilingan. Xususan, uningcha quyidagi kategoriyalar mavjud: "mohiyat" (substansiya), "miqdor", "sifat", "munosabat", "o'rin", "vaqt", "holat", "mavqe", "harakat", "azob-uqubat". Bu turkumlashtirish, o'z vaqtida ilmiy bilishda juda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Keyinchalik, Arastu "Metafizika" asarida "mohiyat", "holat" va "munosabat" kategoriyalarini ham izohlagan.

O'sha davrdan boshlab falsafa o'z qonunlari, tamoyillari, kategorial tushunchalariga ega bo'lgan fanga aylangan. Sharqda bu masalaga Forobiy, Beruniy va Ibn Sinolar ham katta ahamiyat berganlar.

XVII-XIX asrlarga kelib, falsafiy kategoriyalar tahlilida yangi davr vujudga keldi. Ya'ni, I.Kant qarashlarida kategoriyalar "sifat" (reallik, inkor, chegaralash), "miqdor" (birlik, ko'plik, yaxlitlik), "munosabat" (substansiya va xususiyat, sabab va harakat, o'zaro ta'sir), "modallik" (imkoniyat va imkoniyatsizlik, vokelik va novokelik, zaruriyat va tasodif) tarzida izohlangan. Kantdan farqli o'laroq, Xegel' esa mantiqiy kategoriyalarni: "borliq" (sifat, miqdor, me'yor), "mohiyat" (asos, hodisa, mavjudlik), "tushuncha" (ob'yektiv, sub'yektiv, absolyut g'oya) tarzida izohlandi. Demak, falsafadagi kategoriyalar fikrlash va harakat qilish, dunyoga yo'naltirish imkonini beruvchi vositadir. Shu bilan birga, toifalar inson uchun yaratiladi, ular dunyoni uning ramkasi sifatida tashkil qiladi, ya'ni ular "to'g'ri dunyo" va undagi harakatlar uchun "vosita"dir.

Falsafa fanining kategoriyalari haqidagi turli qarashlarni umumlashtirib aytganda, ularning mantiqiy tushunchalar sifatidagi quyidagi tavsiflari bor:

1) obyektiv voqelikning in'ikosi;

2) narsa va hodisalarning o'zaro bog'lanish va aloqadorligini mantiqiy umumlashtiruvchi usuli;

3) narsa va hodisalarning rivojlanishi bilan o'zgarib turuvchi mantiqiy tushuncha;

4) borliqning mavjudligidan kelib chiqadigan tarixiy — mantiqiy bilish darajalaridan biri.

Ko'pchilik mutaxassislar kategoriyalar olami, undagi narsa va voqealar, ularning asosiy va takrorlanib turuvchi aloqadorligini ifodalaydigan keng mazmundagi tushunchalardir, degan fikrga qo'shiladilar. Bu ma'noda borliq, vokelik, harakat, makon, zamon, miqdor, sifat va boshqalar falsafaning ana shunday kategoriyalaridir.

Falsafa kategoriyalari asosida pedagoglarning prognozlash ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyasi o'qituvchini bilimlarni tayyor, aniq mantiqiy sxemalar asosida uzatuvchi qilib tayyorlaydi.

Kasbiy funksiyalar tufayli o'qituvchining falsafiy madaniyati zamonaviy ta'lim turining asosiga aylanadi. Falsafiy madaniyat u yoki bu darajada insoniyat tomonidan to'plangan madaniy ma'nolarni

o‘zlashtirish, uslubiy tayyorgarlik va mafkuraviy o‘zini o‘zi belgilash qobiliyatidan iborat. Bu atrofimizdagi dunyoda mustaqil shaxsiy yo‘nalishni targ‘ib qiladi, odamlar bilan muloqot qilishning maqbul shakllarini aniqlashga yordam beradi: muloqot har doim ma’lum bir qadriyatlar tizimini amalga oshirishni, o‘z qadriyatlarini anglashni va ularni boshqalar bilan bog‘lash qobiliyatini nazarda tutadi. Biz bakalavrlarning qadriyatlari, ularning kasbiy rejalari va malaka oshirish istiqbollarini hisobga oldik. Ilmiy bashorat lash ko‘nikmalarini mustaqil ravishda mustahkamlash bilan biz har bir talaba bilan birgalikda ularni pedagogik jarayonga qo‘llash shartlarini o‘ylab ko‘rdik. Ilmiy bashoratlash muammolarni hal qilishda ularning mazmuni faoliyat yo‘nalishiga qarab tuzatildi. Masalan, biz bir guruh insonlar uchun gumanitar fanlarni tabiiy fanlar sikliga almashtirdik.

Shaxsiy yondashuvdan foydalanish bo‘lajak o‘qituvchilarning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish bilan bog‘liq bo‘lib, bashoratli kompetentsiyani shakllantirish uchun mavjud ichki resurslarni qo‘llab-quvvatlashni o‘z ichiga oladi.

Bashorat qilish ko‘nikmalarining moslashuvchanligi eksperimental mezon bo‘yicha bashorat qilish ko‘nikmalarini shakllantirish ko‘rsatkichi sifatida ularning vaqtinchalik va boshqa omillar ta'siri ostida turli xil tajribalarda bashorat qilish vaziyatining o‘zgarishiga munosabatini tavsiflaydi. Loyihalash va tadqiqot faoliyatida bunday omillarga vaziyat, sharoit, jarayon va bashorat qilish ob'ektidagi oldindan aytib bo‘lmaydigan noaniq o‘zgarishlar kiradi, bu esa standart usullar yoki bashorat qilish algoritmlarining yo‘qligiga olib keladi. Moslashuvchanlik ilmiy bashorat qilish variantlarini belgilaydi; turli pedagogik vaziyatlarda u “qisman o‘zgargan vaziyatlarda bashorat qilish tajribasi - yangi sharoitlarda bashorat qilish tajribasi - noaniqlik elementi bilan bashorat qilish tajribasi - noaniqlik sharoitida bashorat qilish tajribasi” sifatida taqdim etiladi. Tadqiqot muammosi bo‘yicha olib borilgan tahlilar shuni ko‘rsatdiki, taniqli nashrlarda bo‘lajak o‘qituvchining ushbu turdagi ko‘nikmalarini shakllantirishni tahlil qilish uchun yetarli darajada to‘liq diagnostika materiallari to‘plami berilmagan.

Ilmiy bashorat qilishda qarorlar qabul qilish qobiliyatini baholash uchun L.A.Shipilinaning [2.1]“Qaror tanlashda qiyinchiliklarga olib keladigan omillar” so‘rovi ishlatilgan. Metodologiya ishtirokchilar tomonidan boshqaruv qarorlarini qabul qilishni qiyinlashtiradigan sabablar sifatida tanlanadigan sakkizta ob'ektiv va sub'ektiv omillarni belgilaydi. Bo‘lajak mutaxasislarni tayyorlash jarayonida ushbu omillarni takrorlanish chastotasi kamayadi, bu esa pedagogik ta'sirlarning samaradorligini ko‘rsatadi.

V.D.Mendelevich tomonidan taxminiy izchillik (ilmiy bashorat qilish kompetensiya) testi umumiy bashorat qilish qobiliyatlarini baholash uchun ishlatilgan. [3.1]Belgilangan diagnostika usullariga professional yo‘naltirilgan qo‘shimcha sifatida biz bo‘lajak o‘qituvchining bashorat qilishning turli sohalarida ilmiy bashorat qilish faoliyati mahsulotlaridan foydalandik. Ular bajarilgan topshiriqlar soni, bajarilishning to‘liqligi va to‘g‘riligi, topshiriqga muvofiqligi, vizual talqinning mavjudligi, yechimning to‘g‘riligi, yechim variantlari soni, topshiriqni bajarishga munosabati, faolligi, tezligi, tashabbusi kabi yo‘nalishlar bo‘yicha baholandi. Shunday qilib, tadqiqot eksperimentning barcha bosqichlarini o‘tkazish dasturini kelajakdagi o‘qituvchining bashorat qilish ko‘nikmalarini shakllantirish darajasini baholash uchun diagnostika vositalari sifatida ishlab chiqdi hamda u - aniqlash va shakllantirish va bo‘lajak o‘qituvchining bashorat qilish ko‘nikmalarini shakllantirishni diagnostika qilish uchun komponentlar, mezonlar va ko‘rsatkichlarning muvofiqligini aniqlaydigan diagnostik matritsani taqdim etadi.

Bu esa asosan bashorat qilish obyekti haqida yangi ma’lumotlar paydo bo‘lishi bilan ilmiy bashorat qilishni tuzatishni talab qiladi. Shunday qilib, qisqa muddatda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning davlat ilmiy bashorat qilishi ikki marta: yarim yillik yakunlari bo‘yicha va uch chorak yakunlari bo‘yicha kelgusi yil uchun ilmiy bashorat qilish bazasi sifatida tuzatiladi. [4.1]Bashoratli tekshirish prinsipi ishlab chiqilgan ilmiy bashorat qilishlarning aniqligi, ishonchliligi va asosliligini tekshirishning majburiy tartibini ko‘rsatadi. ilmiy bashorat qilishni ishlab chiqish xarajatlari o‘zini oqlashi va undan

foydalanishda mijozga foyda keltirishi yoki boshqa har qanday holatda ijobiy ta'sir ko‘rsatishi kerak. Ushbu tamoyillar kelajakdagi o‘qituvchilar tomonidan ishlab chiqilgan bashoratli kompetentsiyani shakllantirishning akmeologik kontseptsiyasida aks ettirilgan biroq, tizimli bashorat qilish prinsipi va ilmiy bashorat qilishning tekshirilishi prinsipini qo‘llaniladigan prinsiplar to‘plamiga kiritilmagan.

Biz pedagogika va psixologiya yo‘nalishi bo‘yicha o‘qiyotgan talabalar uchun quyidagi ilmiy bashoratlash ko‘nikmalarini shakllantirish tamoyillarini shakllantirdik:

kasbiy maqsadga muvofiqlik prinsipi,

tizimlilik va izchillik prinsipi,

o‘zgaruvchanlik prinsipi va raqobatdosh motivatsiya prinsipi.

Bizning fikrimizcha, raqobat motivatsiyasi tamoyili pedagogik talabalarning ilmiy bashoratlash ko‘nikmalarini shakllantirishda eng muhim yo‘naltiruvchi tamoyildir. Shuni ta'kidlash kerakki, bashorat qilish qobiliyati kelajakdagi o‘qituvchining barqaror kasbiy o‘sishi va zamonaviy ta'lim tizimidagi raqobatbardoshligining muhim shartidir.

O‘qituvchining kasbiy xulq-atvori, uning o‘quvchilar, hamkasblari va o‘quvchilarning ota-onalari bilan muloqot qilish uslubi u faol o‘zlashtirgan madaniy merosini va shu asosda shakllangan pedagogik, ijtimoiy, axloqiy va intellektual qadriyatlar tizimini aks ettiradi. Bu muloqotning maqsadlarini tushunishda, vaziyatni baholashda, muayyan pedagogik usul va texnologiyalardan muayyan pedagogik vaziyatda shaxsiy, individual pozitsiyaga kasbiy xatti-harakatlarning o‘ziga xos usullarini tanlashda namoyon bo‘ladi. Shunday qilib, falsafa kategoriyalari asosida pedagoglarning prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirish texnologiyasi sub’yekt-tsentrizm, yagona bilimlar majmuasining tor bo‘linishi, dunyoning yaxlit tasvirini yo‘qotish, uning alohida, bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan bo‘laklarga bo‘linishi bilan ajralib turadi. Shuning uchun zamonaviy sharoitda o‘qituvchining falsafiy va pedagogik madaniyatini shakllantirish masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Ta’limni modernizatsiya qilishning zamonaviy sharoitida shaxsiy salohiyatni amaliy pedagogik tafsilotda mustahkamlash asosiy vazifalardan biridir. [5.1]Pedagogik bilimlar rivojlanishining hozirgi bosqichida ta’lim-tarbiya maqsadlarini anglab yetishi uchun o‘qituvchi falsafa kategoriyalari asosida prognozlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.

Falsafa kategoriyalari asosida pedagoglarning prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirish ta’lim sohasi va ijtimoiy muhitning rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari to‘g‘risidagi prognostik, doimiy yangilanadigan ma’lumotlar doimiy ravishda muayyan boshqaruv qarorlarini qabul qilish zonasida bo‘lishi kerak. [6.1]Yuqorida keltirilgan mualliflarning asarlari bitta umumiy xususiyatga ega. Ular o‘qitish tizimini boshqaruv birligi, o‘quvchi faoliyati tizimini esa boshqariladigan tizim sifatida ko‘rib chiqadilar. Shakllanish jarayoni bashorat qilish ko‘nikmalarini sifat jihatidan rivojlantirish bilan bir xil. Ta’kidlash joizki, ta’lim amaliyoti va uning zamonaviy talablari bo‘lajak o‘qituvchining ilmiy bashorat qilish ko‘nikmalarini va ularning faoliyatini yaxshilashga imkon beradigan kompleks dasturni ishlab chiqishni taqazzo etadi.

Mamlakatimizda ham, xorijda ham ta’lim sohasida strategiya, bashoratlash va uzoq muddatli rejalashtirish masalalariga qiziqish ortib borayotganiga qaramay, “ta’lim va pedagogik prognozlash” tushunchasining o‘zi hali yetarlicha aniq, umume’tirof etilgan ta’rifni olmagan. Shu bilan birga, bunday ta’rif muhim texnologik ahamiyatga ega, chunki ta’lim sohasidagi barcha prognostik faoliyatning yo‘nalishi ko‘p jihatdan uning mazmunli talqiniga bog‘liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.M.Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston strategiyasi.” Toshkent-2021y 112 b
2. Azizxo’jayeva N.N. “Pedagogik texnalogiyalar va pedagogik mahorat.” Toshkent. 2006y.

3. Allayarova M.M. “Badiiy-estetik tarbiya va ma’naviyat” (Monografiya) Samarqand – 2016.
4. Xonazarov K.X. Globallashuv va til falsafasi. Toshkent: Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2009. 136 b.
5. Ergashev SH. Qadimgi sivilizatsiyalar. – T; “O‘zbekiston”, 2016- yil 360 bet.
6. Rustamov B.X “Talabalarda kasbiy faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirishning innovatsion texnologiyasi,” Xalq ta’limi. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali. 2024 6-son (Noyabr-Dekabr).

ЖАДИДЛАР – СИЁСИЙ ҲАРАКАТ ВА ҒОЯЛАР АСОСЧИЛАРИ СИФАТИДА

Акбар Элмурадов
ЎзЖОКУ, "Сиёсий фанлар"
кафедраси ўқитувчиси

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақола Туркистон жадидларининг пайдо бўлиши ва унинг ривожланишига оид тарихий шарт-шароитлар ҳақида тасаввур уйғотади. Шунингдек, XIX аср охири XX аср бошларида Туркистон жадидлари томонидан ташкил этилган турли жамиятлар ва сиёсий партиялар фаолияти ҳамда уларнинг фаолиятига оид мулоҳазалар баён қилинган. Бундан ташқари, Туркистон жадидлари ташкил этган жамиятлар ва сиёсий партиялар фаолияти, уларнинг дастурларида кўтарилган ғояларнинг бугунги кундаги аҳамияти ҳақида сўз боради.

Мақолада жадидлар ҳаракатини мустақиллик учун курашчилар сифатида талқин этадиган олимлар фикрларини таҳлил этиб, атрофлича хулосаларга келинган.

Калит сўзлар: жадид, маориф, тус тузем, капиталистик, ислоҳотчилар, революция, большевиклар, матбуот, жамият.

Мамлакатда жадидларга оид тадқиқотчилар бошида турган, таниқли олим Бегали Қосимов жадидлар ҳаракатини нафақат "ислом модернизми" ёки "маърифатпарварлик ҳаракати", балки миллий мустақиллик учун кураш ҳаракати эканлиги тўғрисида қуйидаги фикрларни ёзган эди: "Жадидчилик ғоялари эрта баҳорнинг шиддатли шамоллари сингари пўпанак босиб, билжираб кетган ўрта асрчилик турмушини энг пастки қатламларигача очиб ташлади. ...Бу ғояларнинг асосида миллий уйғониш, миллий мустақиллик учун кураш ётар эди. Жадидчиликнинг моҳиятини Миллат ва Ватанни англашдан улар манфаати учун курашишгача бўлган қизғин ва ҳаяжонли жараён ташкил қилди. Айни пайтда, бу ҳаракат миллатни ҳам тарбиялаб борди. ...Хусусан, жадидларимиз миллатнинг яшамоғи, тараққий топмоғи учун, биринчи навбатда, озод, мустақил бўлмоғи лозимлигини англаб етдилар ва кенг халқни уйғотишга алоҳида эътибор бердилар. Дарҳақиқат, жадидчилик сиёсий ҳаракатлар билан боғланмаслиги мумкин эмас эди"[14].

Шунингдек, таниқли ўзбек олими Б.Дўстқораев ҳам жадидлар ҳаракати ҳақида бошқачароқ фикрлайди: Уларни ("жадидларни" демоқчи) "Нега биз мустақиллигимизни йўқотдик? Нима сабабдан биз мустабидлик занжирига тушиб қолдик? Мустабидлик занжиридан қутилиб, мустақиллик нашъасини топишнинг иложи топиладими? Бунинг учун нималар қилиш керак?" деган саволлар қизиқтирар эди"[15].

Албатта, жадидлар ҳаракати тўғрисида хорижий давлатларда, хусусан Россияда, Татаристонда, Туркияда кўплаб мақолалар ёзилди. Уларнинг бирида бу ҳаракат аксил-клерикал, "ислом модернизми" тарафдорлари ҳаракати ёки таълим тизимида "усул ул-жадид" ёки "янги усул"ни татбиқ этувчи ҳаракат сифатида талқин этилади. Яна бир оқим олимлар эса уни "маърифатпарварлар" оқими сифатида талқин этади. Жадидлар ҳаракатини мустақиллик учун курашчилар сифатида талқин этадиган олимлар сафи анча чекланган.

[14]Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. –Т.:"Маънавият", 2002. –Б. 4 ва 75.
[15]Дўстқораев Б. Ўзбекистон журналистикаси тарихи.-Т.: Ғ.Ғулом номидаги матбаа-нашриёт уйи.2009.-Б.108.

Бизнинг фикримизча, жадидлар ҳаракати – бу соф сиёсий ва мустақиллик ҳамда миллий давлат қуриш учун ўзларини фидо қилган илғор зиёлилар ҳаракати, деб ҳисоблаймиз. Улар маърифат, янги шаклдаги таълим, диний модернизм йўлида ҳам фаолият юритишларининг асл сабаби – улар миллий мустақил давлат қуриш учун зарур бўлган соҳалар ва йўналишлар эди. Улар жаҳондаги турли ижтимоий-сиёсий ҳаракатлардан мустақил ҳаракат сифатида пайдо бўлди, шу билан бирга, Россия ва Туркиядаги тараққийпарвар сиёсий ҳаракатлар ва партиялар тажрибасидан унумли фойдаланди.

Жадидчилик ҳаракатининг асл мазмун-моҳияти, унинг миллий мустақил давлат қуришга оид назарий қарашлари ва хатти-ҳаракатлари мамлакат Президенти Шавкат Мирзиёев томонидан очиб берилди: “Кўпчилик зиёлилар қаторида мен ҳам бир фикрни ҳамиша катта армон билан ўйлайман: мамлакатимизда Учинчи Ренессансни йигирманчи асрда маърифатпарвар жадид боболаримиз амалга оширишлари мумкин эди. Нега деганда, бу фидойи ва жонкуяр зотлар бутун умрларини миллий уйғониш ғоясига бағишлаб, ўлкани жаҳолат ва қолоқликдан олиб чиқиш, миллатимизни ғафлат ботқоғидан қутқариш учун бор куч ва имкониятларини сафарбар этдилар. Шу йўлда улар ўзларининг азиз жонларини ҳам қурбон қилдилар. Улар “Илмдан бошқа нажот йўқ ва бўлиши ҳам мумкин эмас” деган ҳадиси шарифни ҳаётий эътиқод деб билдилар. Миллий истиқлол, тараққиёт ва фаровонликка, аввало, маърифат орқали, дунёвий ва диний билим, замонавий илм-ҳунарларни чуқур эгаллаш орқали эришиш мумкин, деб ҳисобладилар”[16].

Кўриниб турибдики, XX асрнинг биринчи чорагида ижтимоий-сиёсий ҳаётнинг энг фаол иштирокчилари бўлган жадидчилик ҳаракати 1991 йилда қарор топган миллий мустақилликнинг бошланиш даври эди, десак муболаға бўлмайди. Чунки, янги миллий давлатчиликни шакллантиришда биринчи ва иккинчи Ренессанс асослилари – буюк аждодларимиз билан жадидлар назарий қарашлари ва амалий хатти-ҳаракатлари миллий меросларини мустақил давлат қуришга оид ислоҳотларимизда намоён бўлди. Айниқса, миллий давлатчилик ва фуқаролик жамиятини шакллантиришда маърифийлик, маънавий қадриятларнинг ўрни, кўп миллатлилик шароитида давлатнинг миллий сиёсати, таълимни ривожлантиришнинг сиёсий-иқтисодий ривожланишга таъсири, дунёвий давлатни шакллантириш каби соҳаларда жадидлардан мерос бўлиб қолган миллий тажриба ислоҳотларимиз диққат марказида турди.

Бошқача айтганда, Янги Ўзбекистон ва Учинчи Ренессанс пойдеворини шакллантиришда жадидлар мероси бу соҳадаги ислоҳотларнинг тарихий тажрибаси сифатида хизмат қилди. Айниқса, ҳозирги даврда жаҳолатга қарши маърифийлик воситасида курашишда ҳам бот-бот жадидлар тажрибасига мурожаат қилишимиз фикримизга далилдир.

Жадидларнинг газеталар ва журналлар нашр этиб уларда миллий мустақиллик ғояларини тарғиб этиши, маърифийликка даъватлари, қадимчи-хурофотчиларга қарши фаол курашлари, янги усулдаги мактаблар очиш ва уларда ўқитишга оид фаолиятлари, театр ва бадиий адабиётларда маърифийликни намойиш қилиш тажрибалари ривожланган ғарб давлатларига хос бўлган давлат ва фуқаролик жамиятини шакллантиришга қаратилган эди. Уларнинг бу соҳадаги фаолиятларида Россия империясининг Туркистондаги мустамлакачилик сиёсати очиб берилди, большевиклар сиёсатининг чоризм мустамлакачилик сиёсатидан ҳам манфур ва озчилик миллатларни истибдодда ушлашга мойиллигини очиб берди.

Жадидлар фаолияти, уларнинг ислоҳотларга оид ғоялари, янги уйғониш даври авлодини шакллантиришга оид хатти-ҳаракатлари ҳозирги Янги Ўзбекистон пойдеворини шакллантириш

[16]Мирзиёев Ш.М. Ўқитувчи ва мураббийлар кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. 2020 йил 1 октябрь// https://uzdaily.uz/uz/post/6653.

давридаги ёшларнинг дунёқарашини кенгайтиришда, уларнинг ижтимоий-сиёсий фаолликларини оширишда намуна сифатида хизмат қилмоқда.

Жадидчилик ҳаракатининг мамлакатимиз тарихидаги ва учинчи Ренессанс пойдеворини шакллантириш, миллий давлатчиликни ривожлантиришдаги юксак ўрнини ҳисобга олиб, Президент Шавкат Мирзиёев бу ҳаракат намояндаларининг Марказий Осиё ҳудудида миллий давлатчилик ва минтақавий ўзига хосликни, фуқаролик жамиятининг ривожланишига қўшган улкан ҳиссасини концептуал ва тизимли асосда атрофлича ўрганиш долзарб масала бўлиб қолаётганлигига урғу бериш асносида "Бугунги кунда Янги Ўзбекистонда инсон қадри улуғланадиган адолатли, эркин ва обод жамият, халқпарвар давлат, фаровон ҳаёт барпо этишга қаратилган ислоҳотларимиз жадид боболаримизнинг эзгу ғоя ва дастурларига ҳар жиҳатдан уйғун ва ҳамоҳанг" эканлиги, уларнинг фаолияти "барчамиз, аввало, ёшларимиз учун чинакам ибрат намунаси, уларнинг ҳаёти ва жасорати бугунги тинч ва осойишта кунларга осонлик билан эришилмаганини эслатиб, миллий истиқлолимизни, жонажон Ватанимизни кўз қорачиғидай асрашга доимо даъват этиб туриши"га[17] халқимиз диққат-эътиборини қаратди.

Таниқли олим И.Валлерстаиннинг фикрича, инсоннинг миллий тарихий хотираси сиёсий этиканинг категорияси сифатида инсонлар хулқининг шартли эканлигини белгилаб, ички гуруҳий айнанлашишни (идентиклашиш) қўллаб-қувватлашнинг марказий унсури сифатида намоён бўлади. Бу билан "ижтимоий турмушнинг шакллари қарор топади ва алмашиб туради. "Тарихий хотира"ни шу тарзда мулоҳаза қилсак, "сиёсий феномендир, шундай экан, у доимо – ҳозирги давр феномени ҳамдир"[18]. Миллий мафкуранинг меросийлик ҳодисаси эканлигига эътибор берсак, бу ҳақ фикрдир.

Президент Ш.М.Мирзиёевнинг шу фикрига асосланадиган бўлсак, жадидчилик дунёқараши ва ғоялари ҳозирги давр миллий мафкураси ва ғоясининг асосий илдизлари ва манбаининг бир қисмини ташкил этади.

Шунингдек, таниқли олдим К.Калхуннинг фикрича, миллий тарих миллий айнанлашувни шакллантиради. Тарих умумий тарихий тақдир тасаввурларини яратиб, миллатни интеграция қилади. Таниқли олим М.Хрох ва Р.Брубейкер фикрича, тарихий далилларга таяниш сиёсий аҳамиятга молик мақсадларга эришишга хизмат қилади[19]. Умуман олганда, тарихий ўтмишни очиб бериш миллат ва миллий ўзини ўзи англашнинг манбаи ва воситаси сифатида эътироф этишдир. Миллий тарих "миллат", "халқ" ва "этник гуруҳ" каби категорияларни тўлдиради.

Агар либерализмнинг асосий ғояси – "эркин шахс жамиятни ташкил этади, жамият шахснинг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қиладиган давлатни тузади", асосий қадриятлари – "шахснинг ҳуқуқ ва эркинликлари, демократия, ҳуқуқий давлат, ҳокимиятларнинг бўлиниши, қонун олдида тенглик, фикрлаш ва сўз эркинлиги" кабилардан иборат бўлса, жадидларнинг давлатчиликни қуришга оид қарашларида бу ғоялар ва қадриятларнинг аксарияти мужассам эди.

Президент Ш.М.Мирзиёевнинг фикрича, "Биз яратаётган янги Ўзбекистоннинг мафкураси эзгулик, одамийлик, гуманизм ғояси бўлади. Биз мафкура деганда, аввало, фикр тарбиясини,

[17]Мирзиёев Ш.М. "Жадидлар: миллий ўзлик, истиқлол ва давлатчилик ғоялари" конференция иштирокчиларига табриги. 11 декабрь 2023 й.// https://demokrat.uz/2023/12/11/mirziyoev-zhadidlar-millij-ozlik-istiqlol-va-davlatchilik-goyalari-konferencziya-ishtirokchilariga-tabrik-jolladi.
[18]Валлерстайн И. Конструирование народа: раса, нация, этническая группа // Балибар Э., Валлерстайн И. Раса, нация, класс: двусмысленные идентичности. -М.,2004.-С.92-93.
[19]Иқтибос манбаси: Герман Р.Э. История как средство создания нации: анализ этноконструктивистских теорий// https://www.gramota.net/articles/issn_1997-292X_2012_7-1_08.pdf.

миллий ва умуминсоний қадриятлар тарбиясини тушунамиз. Улар халқимизнинг неча минг йиллик ҳаётий тушунча ва қадриятларига асосланган"[20].

Кўриниб турибдики, жадидлар сиёсий партиялари дастурлари ва мафкураларида дунёвий давлатчилик ва таълим, маърифий жамият, ҳокимиятнинг учга бўлиниш принципи, парламентаризм, "қадимчилик"дан тозаланган ислом дини, халқ билан доимий равишда мулоқотда бўлиш, халқнинг дунёқарашини маърифий ва маънавий жиҳатлардан ошириб, сўнгра сиёсий-ижтимоий жараёнларга жалб этиш, уларнинг ижтимоий-сиёсий фаоллигини ошириш каби назариялар ва таълимотлар янги Ўзбекистон миллий ғоясининг манбаи ва илдизлари сифатида намоён бўлиши – тарихий заруратдир.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Алимова Д.А. Жадидчилик мустақиллик даври тарихчиси талқинида. // Ўзбекистон тарихи: янги нигоҳ. Жадидлар ҳаракатидан миллий мустақилликка қадар.-Т.:Эльдинур, 1998, 3-10-б.;
2. Аъзамхўжаев С. Туркистон Мухторияти. -Т.:Маънавият, 2000;
3. Исмоилбек Гаспринский. Ҳаёт ва мамот масаласи. – Тошкент: Маънавият, 2006. 210-б.
4. Жадидчилик: ислохот, янгиланиш, мустакиллик ва тараккиёт учун кураш (Туркистон ва Бухоро жадидчилиги тарихига янги чизгилар) Даврий туплам №1.Т.:Университет,1999.-Б.18.
5. Тоғаева Д. XIX асрнинг охири ва xx аср бошида жадидлар дунёқарашига таъсир этган омиллар // 29 июль 2022 й..-Б.18.

[20]Мирзиёев Ш.М. Мамлакат мафкурасининг асосий ғояси ҳақида. //https://www.gazeta.uz/uz/2021/01/19/selector/.

METHODS FOR DEVELOPING YOUTH THINKING IN THE CONTEXT OF MEDIA EDUCATION.

Rakhimova Khurzoda Kamulovna

Teacher of the Chirchik State Pedagogical University, faculty of pedagogical, Chirchik, Uzbekistan

ORCID ID: https://orcid.org/0009-0002-9301-2141

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada media ta’lim sharoitida yoshlarning tafakkurini rivojlantirish usullari tahlil qilingan. Media savodxonlikning ahamiyati, uning shakllanishi va rivojlanish jarayoni, hamda yoshlarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini oshirishdagi o‘rni tadqiq etilgan. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari va media texnologiyalarning yosh avlod ongiga ta’siri, internet va raqamli texnologiyalar orqali yoshlarning axborot qabul qilish madaniyati shakllanishi va o‘qituvchilarning bu jarayondagi roli muhokama qilingan. Maqolada yoshlarning media savodxonligini oshirish usullari, pedagogik yondashuvlar hamda zamonaviy ta’lim jarayonida medianing o‘rni haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: media ta’lim, media savodxonlik, tanqidiy tafakkur, axborot qabul qilish, axborot manbalari, raqamli texnologiyalar, yoshlar va media, ta’lim jarayoni, pedagogik yondashuvlar, ommaviy axborot vositalari, feyk yangiliklar, media manbalarni tahlil qilish, axborot xavfsizligi, ijtimoiy tarmoqlar, internet madaniyati.

KIRISH

Hozirgi globallashuv va raqamli texnologiyalar asrida axborot oqimi beqiyos darajada o‘sib bormoqda. Bugungi kunda ommaviy axborot vositalari, internet platformalari va ijtimoiy tarmoqlar jamiyat a’zolari uchun asosiy axborot manbai bo‘lib qolmoqda. Shu bilan birga, media muhitning shiddatli rivojlanishi va axborotning ommabopligi insonning media savodxonlik darajasiga yangi talablar qo‘ymoqda. Axborotni to‘g‘ri tahlil qilish, manbalarni aniqlash, tanqidiy fikrlash hamda dezinformatsiyadan himoyalanish kabi ko‘nikmalar har bir inson uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Media ta’lim va media savodxonlik tushunchalari zamonaviy ta’lim tizimining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Media ta’lim insonning axborotdan samarali va ongli foydalanishini ta’minlashga qaratilgan bilim, malakalar va qoidalar majmuini o‘z ichiga oladi. Ushbu ta’lim yo‘nalishi insonlarga axborotni tahlil qilish, manipulyativ usullarni ajratish va voqelikni obyektiv baholash imkonini yaratadi. Media savodxonlik esa nafaqat axborotni anglash va tahlil qilish, balki uni targ‘ibot va tashviqotdan ajratish, yolg‘on yangiliklarni aniqlash va axborot xavfsizligini ta’minlash kabi masalalarni ham qamrab oladi.

Ayniqsa, yosh avlod uchun media savodxonlik darajasini oshirish dolzarb ahamiyatga ega. Bugungi kunda yoshlar internet va ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalanishlari sababli, ularning axborotni tanqidiy baholash va to‘g‘ri xulosa chiqarish qobiliyati jamiyatning kelajagi uchun muhimdir. Bunday sharoitda ta’lim muassasalarida media savodxonlikni oshirishga qaratilgan maxsus dasturlar va o‘quv metodlarini joriy etish talab etiladi.

Ushbu maqolada media ta’lim va media savodxonlikning nazariy va amaliy jihatlari, ularning ahamiyati, asosiy tamoyillari hamda ta’lim tizimida qo‘llash imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, media savodxonlikni oshirishga qaratilgan xalqaro tajribalar, muammolar va yechimlar muhokama qilinadi.

Mamlakatimizda so‘ngi yillarda axborot xizmatlar tizimini takomillashtirish borasida muhim qadamlar qo‘yildi. Internet tufayli yangiliklar yorug‘lik tezligida butun dunyo bo‘ylab sayohat qilishi, yolg‘on,

fitna nazariyalari, noto‘g‘ri ma’lumotlar ham shunday bo‘lishi mumkin. Internetda yolg‘on haqiqiy dunyoga zarar yetkazishi mumkin. Ba’zilar soxta yangiliklar balosiga qarshi kurashish uchun texnologiya qoidalariga e’tibor qaratsada, eng kuchli himoya bu media savodxonligi kuchli bo‘lgan fuqarolarni shakllantirishdir.

Media savodxonlik hozir har qachongidan ham muhimroq.

Media savodxonlikning eng oddiy ta’rifi: turli shakldagi ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda kirish, tahlil qilish, baholash, yaratish va harakat qilish qobiliyatidir. Oddiy qilib aytganda media savodxonlik an’anaviy savod-xonlik poydevoriga asoslanadi va o‘qish hamda yozishning yangi shakllarini taklif qiladi. Media savodxonlik odamlarga tanqidiy fikrlovchi va ijodkor, samarali muloqotchi va faol fuqarolar bo‘lish imkonini beradi.

Savodxonlik so‘ziga o‘zbek tilining izohli lug‘atida (o‘rganuvchi, o‘quvchi) o‘qish, yozishni biladigan, xat savodli, savodxon odam ta’rifi berilgan.

Savodxonlikni aniqlash, izohlash, tushunish va muloqot qilish qobiliyati deb ta’riflashimiz mumkin. Savodxonlik ko‘nikmalariga samarali o‘qish, yozish, gapirish va tinglash qobiliyatlari kiradi.

Media atamasi lotincha “medium” ya’ni „vosita‘‘, „vositachi‘‘, „usul” turli ko‘rinishdagi kommunikatsiya va axborot vositalari tushunchasini anglatadi. Yanada aniqrog‘i “ommaviy axborot vositalari” degan ma’noni anglatadi [62]. Mazkur atama zamonaviy qo‘llanishida bir necha ma‘noga ega.

Birinchidan, “media” so‘zi “OAV”ni; radio, kitob, televidene, gazeta, internetni anglatadi.

Ikkinchidan, undan media kontentni – yangiliklar, reklama, e’lonlarni, elektron o‘yinlar va filmlarni belgilash uchun foydalaniladi.

Uchinchidan, u media kontentni ishlab chiqaruvchilar, jurnalistlar, fotosuratchilarni, media kompaniyalarni va hakozalarni ham bildirishi mumkin. Media savodxonlik haqida turli fikrlar bildirilgan. Media savodxonlikning zarurligi, maqsadi va ehtiyojlari kabi media ta’lim asosini tashkil etuvchi masalalar bilan bir qatorda yuradi. Turli xil olimlar tomonidan media savodxonlikning zamini, rivojlanish jarayoni va hozirgi holatiga oid turli nazariy va amaliy yondashuvlar ilgari surilgan.

Ijtimoiy faollikni shakllantirish – bu mustaqil shaxsni o‘zining mehnati, mahorati, ishbilarmonligi tufayli ko‘pgina ehtiyojlarni qondira oladigan bo‘lajak mutaxassisni voyaga yetkazishdir. Bu talabaning shunchaki o‘z ishini bajarish bilan cheklanmasdan, balki o‘z bilim va salohiyatini jamiyat manfaatlariga xizmat qilishga, ijtimoiy tartibni saqlashga va xalq farovonligini ta’minlashga yo‘naltirishni anglatadi. Buning natijasida, talabalar nafaqat o‘z kasblariga ega bo‘lish, balki ularni jamiyatdagi ijtimoiy masalalarga, mamlakat taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsatish va muammolarni hal etish borasida faol bo‘lishga tayyor bo‘lishadi.

Bunda talabaning axloqiy-psixologik xususiyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Axloqiy savodxonlik, ma’naviy qadriyatlar, insonparvarlik va yoshlar orasidagi o‘zaro hurmat talabalarning ijtimoiy faolligini shakllantirishga ko‘maklashadi. Yot g‘oyalarga, tabiat buzg‘unchilariga qarshi kurashish, ularga salbiy ta’sir etadigan ijtimoiy, ruhiy, iqtisodiy holatlarning oldini olish barqarorlik, tinchlikni saqlashning asosidir. Shunday qilib, talabalarda ijtimoiy faollikni shakllantirish nafaqat

ularning shaxsiy rivoji uchun, balki butun jamiyatning taraqqiyoti, tinchlik va barqarorlikni ta'minlash uchun ham juda muhimdir.

Ijtimoiy faollikni shakllantirish asosida talabalarida jamiyatga, tabiat va o'ziga o'zi ziyon yetkazmaydigan shaxsni shakllantirish, xalq tinchligini, saqlash uchun kurashga jalb etish; o'z faoliyatini, insoniyat, jamiyat, xalq manfaatlariga yo'naltirish, har bir talabani madaniy va ma'naviy jihatdan rivojlantirish va ularning bo'sh vaqti yetarli bo'lishiga erishish, ularning kuchli, adolatli, huquqiy, demokratik jamiyat qurishga bo'lgan xohish irodasini mustahkamlash, jamiyat va inson muhofazasini saqlashga intilishini har bir talaba turmush tarzining ajralmas qismiga aylantirish xususiyatlarini amalga oshirish oliy ta'lim muassasalarining asosiy vazifalari hisoblanadi. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda oliy ta'lim muassasalarining faoliyati muhim o'rin tutadi. Chunki, oliy ta'lim muassasalari oldida turgan asosiy vazifalardan biri talabalarda mutaxassislik haqidagi bilimlarni, aqliy salohiyatini takomillashtirish bilan birga ijtimoiy faollikni madaniyatni shakllantirishdir. Har bir xalqda, har bir jamiyatda ijtimoiy faollikni shakllantirish tizimi mavjud. Chunki, ijtimoiy faollikni inson salomatligini saqlashga, uning botiniy olamini ma'rifiy boyitishga xizmat qiladi. Shu ma'noda o'z haq-huquqini taniydigan, kuchli va qobiliyatga tayanib yashaydigan, atrof-muhitni muhofaza qilishda mustaqil munosabatda bo'ladigan, o'z shaxsiy manfaatlarini jamiyat manfaatlari bilan uyg'un holda tasavvur etadigan erkin shaxsni shakllantirish uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Mana shu mezonlarga asosan ijtimoiy faollikni shakllantirish jamiyatning taraqqiyoti, kelajagi, avvalo, uning ma'naviy poydevorini mustahkamlaydi.

Har bir talaba shaxsida ijtimoiy faollikni shakllantirish natijasida ularda ma'naviy- axloqiy qadriyatlarga sodiqlik, milliy-madaniy merosni e'zozlash, munosabat, o'zlikni anglash, insoniy komillikka intilish, fan va texnikaning zamonaviy yutuqlarini egallash komil topadi. Chunki, bo'lajak mutaxassislarning chin e'tiqodi, hushyorlik va mas'uliyati, yaxshini yomondan, aslni soxtadan farqlay olishi ijtimoiy faollikni shakllantirish darajasining mezoni sifatida maydonga chiqadi. Ijtimoiy faollik inson qalbining tub-tubidan qalqib chiqadigan eng toza, va ajib tuyg'u, inson hayotiga ma'no beradigan kuch, uni sharaflaydigan sifatlar majmuidir.

Ijtimoiy faollikni shakllantirish natijasida inson irodasi, ma'naviy olami, tafakkuri va dunyoqarashining zamon talablari asosida mushohada qilish rivojlanadi. Bu borada istiqlol yillarida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Birinchidan, ta'lim- tarbiyaning umumdavlat dasturi ishlab chiqilib, u hayotga joriy etildi. Ikkinchidan, yurtimizning tabiiy boyliklari ochilib, ular xalqqa yetkazilmoqda. Uchinchidan, qadimiy shaharlarimiz, obidalar bilan birga xalq ruhiyati ham qayta tiklandi, milliy qadriyatlar yangi hayot topdi.

Ijtimoiy faollikni shakllantirish mezonlari quyidagilardan iborat:

- talabaning bilimdonligi, ijtimoiy faolligi;
- OTMlarining ma'naviy sog'lomligi, talabalarning o'zini ruhan tetik va bardam tutishi;
- vatanparvarlikning turli ko'rinishlari kundalik turmushda tobora ko'proq namoyon bo'lib borayotganligi;
- talabada maxsus fanlar bo'yicha bilim saviyasini oshirishga intilishning kuchayishi, gazeta-jurnal, vaqtli matbuotga talab va taklifning ortib borishi;
- giyohvandlik va turli zararli odatlarning yoshlar o'rtasida kamayib borishi, bunda keng jamoatchilikning faol ishtiroki;
- ma'naviy bilimlarga intilish, shu sohalardagi adabiyotlarga nisbatan ehtiyojninng saqlanishi;
- talabalar faoliyatida ekologik muhitning shakllanishi.

Mas'uliyatlilik – ijtimoiy faollikni shakllantirish mezonlaridan biri hisoblanadi. Bunda talaba mas'uliyat tuyg'usi bilan yashash xususiyatini, faoliyat mahsulini to'liq tasavvur qilgan holda uning o'zi va o'zgalar uchun nima naf keltirishini anglay olish qobiliyati rivojlanadi. Mas'uliyatni his qilgan talaba

ishni doimo puxta rejalashtirib, uning oqibatlarini oldindan tasavvur qila oladi va zarur natijaga erishish uchun butun kuchi va salohiyatini safarbar etishga qodir bo‘ladi.

Ijtimoiy faollikni shakllantirishda, atrof-muhitga yondashuv, shuningdek, ijtimoiy munosabatlarni yo‘lga qo‘yish, ijtimoiy-ruhiy hodisalarga o‘z munosabatini bildirish milliy qadriyatlar mazmunini anglash, chuqur ma’lumotga ega bo‘lish, g‘oya va nazariyalar mohiyati bilan tanishish orqali hosil qilingan qarash, tasavvur, hissiyot va e’tiqodlar tizimidir. Shu jihatdan ham oliy ta’lim muassasalari talabalarida ijtimoiiy faollikni shakllantirish dolzarb muammolardan hisoblanadi. Talabalarning ijtimoiy faoliyatini tashkil etish bevosita ta’lim-tarbiya jarayoni tashkilotchilarining maqsadi talablari asosida ta’lim oluvchilarda bilim, iqtidor va ko‘nikma, dunyoqarash, shaxsiy qadriyatlar tizimini shakllantirishdir. Talabalarda faollikni tarkib toptirish bevosita o‘qituvchi faoliyati bilan bog‘liqdir.

Talabalarda faollikni shakllantirishda ijtimoiy-pedagogik, umumpedagogik texnologiyalardan foydalanish, uning modulini ishlab chiqish, interfaol metodlarni amalga oshirishda muhim o‘rin tutadi. Dars mashg‘ulotlarni dialektik, insonparvarlik, tabiat bilan uyg‘unlik tarzda amalga oshirilishi talabalarda insonparvarlik, tadqiqotchilik, ijodiy, ijtimoiy-madaniy jihatlarni rivojlantiradi. Ularda o‘z-o‘zini boshqarish mexanizmi axloqiy-estetik, harakatli-amaliy va ijodiy sifatlar kamol topadi. Talabalarda ijtimoiy faollikni shakllantirishda shaxsini rivojlantirishga, qo‘llab-quvvatlashga, moslashuviga, chiniqishiga pedagogik shart-sharoitlar yaratish o‘qituvchining tafakkuriga, mahoratiga bog‘liq hisoblanadi. Bunda o‘qituvchi ijtimoiy-pedagogik faoliyatida talabalarning ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlanishiga e’tibor qaratishi muhim o‘rin tutadi. O‘qituvchi o‘quv-tarbiyaviy va ijtimoiy jarayonini boshqarishda kichik guruhlar, individual - «maslahatchi» tizimlarini tashkil etishi, axborotlar (kitob bilan ishlash) ni mustaqil o‘rganish, kompyuterni individual boshqarish, o‘zaro o‘qitish, o‘z-o‘zini yo‘naltirish kabilarni amalga oshirishda muammoli izlanishlar, tadqiqotchilik ishlari, ijodiy, o‘yinli, loyihali, produktiv, o‘z-o‘zini rivojlantirish kabi o‘qitish metodlaridan foydalanish talabalarning ijtimoiy faolligini oshiradi. Buning natijasida interfaol, individual, hamkorlik pedagogikasi, o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘z-o‘ziga ta’lim berish jihatlarini takomillashtiradi.

Talabalar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish maqsadida o‘qituvchi materialni metodik va didaktik qayta tiklash, ijtimoiy-tarbiyaviy funksiyalarni kuchaytirishga qaratadi. Talabalarning ijtimoiy va madaniy bilim darajasini oshirish bilan birga ularning shaxsida chuqur ahamiyatga ega bo‘ladigan madaniy hodisalar, ijtimoiy voqealar, badiiy obrazlarni takdim etadi. Ijtimoiy faoliyatning xilma-xil turlari, shakl va metodlarini amalga oshirish bilan birga talabalarda izlanish, taqdim etilayotgan materiallarni chuqur o‘rganishga ehtiyoj, tashabbus, qiziqish va izlanish kabi yo‘nalishlar amalga oshiriladi. Talabalarda ijtimoiy faollikni shakllantirishda turli metodlar qo‘llash ham o‘z samarasini beradi.

Pedagogik fanlarda o‘quv-tarbiyaviy faoliyatida og‘zaki (ongga ta’sir etuvchi) - hikoya, kitob bilan ishlash, tushuntirish, ishontirish, taqqoslash, savollarga javob berish, axloq haqida suhbatlar, istiqbolni muhokama etish, ma’qullash yoki ma’qullamaslik kabi metodlar talabalar ongiga ta’sir etadi. Milliy an’analar, jamoaviy jipslik, bellashuv (individual va guruhli musobaqa), nazorat, jamoaviy fikr, jamoadagi o‘zaro uyg‘un kayfiyat, hisobotlar, yig‘ilish, erishilganlarni muhokama etish va baholash, do‘st (hamkor)ga, pedagogik jamoaga, ustozlarga yordam berish kabilar ham talaba shaxsini faollashtiradi. Ayniqsa, talabalarda axloqiy xatti-harakatlarni hosil qilish, tarbiyaviy vaziyatlarni tarbiyaviy (ijtimoiy-foydali faoliyat, kasallar, keksa kishilar va nogironlarga yordam ko‘rsatish, tabiatni muhofaza etish, voyaga yetmagan huquqbuzarlar bilan ishlash, shanbaliklarda ishtirok etish, badiiy ijodkorlik va boshqa) vazifalarni amaliy hal etish, tartiblilik, yaxshi muomala mashq qilish, ijtimoiy topshiriq, faoliyatni modellashtirish, ichki (psixologik) qiyinchiliklarni va ko‘ngilsizliklarni bartaraf etish, muammolarni hal etish yo‘llarini birgalikda izlash, tajribaga asoslanish, talab, trening, birgalikdagi faoliyatlarda ishtirok etish, boshqalarga yordam ko‘rsatish, o‘rtoqlar va jamoaga yordam berish, tajriba orttirish, tarkibiy qismlarini psixo-pedagogik testlar o‘tkazish kabilar muhim hisoblanadi.

Shuningdek, talabalar ijtimoiy faolligini tashkil etish, mas'ulligini oshirish kabilar ham ularning shaxsini rivojlantiradi. Bunda talabalar muhim ahamiyatga ega maqsadlarni namoyon etadilar. Ijtimoiy psixik holatlar, faoliyat va xulq-atvor, psixologik qo‘llab-quvvatlash, o‘git-nasihatlarni bosqichma-bosqich o‘z faoliyatlarida amalga oshirib mustahkamlaydilar. Ushbu omillar talabalarning ijtimoiy faoliyatining bir qancha yo‘nalishlari va qiziqishlarini amalga oshirish bilan birga ularni maqsadga yo‘naltiradi. O‘z-o‘ziga ta'lim berish odamlar bilan doimiy muloqotda bo‘lish, insonparvarlik, sevimli mashg‘ulotlarning o‘ziga xosliklarini tushunish, kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish, ko‘rgazma va konkurslarni tashkil etish orqali badiiy didni rivojlantiradi. Talabalar ijtimoiy faoliyati mazkur omillar asosida rivojlanadi.

Talabalar ijtimoiy faolligini shakllantirishda pedagogik vaziyatlarni modellashtirish, pedagogik faoliyatga taqlid qilish, pedagogik mutaxassislikning ijtimoiy masalalariga doir maxsus seminar tashkil etish, oliy ta'lim muassasasi fanlarini o‘qitish mazmunida bitiruv malakaviy ish va magistrlik dissertatsiyalariga pedagogik muammolarni ijtimoiylashtirishga doir bo‘limlarni kiritish, pedagogika, etika, estetika, madaniyatshunoslik, ekologiya bo‘yicha madaniy-insonparvar dasturlarning fanlararo bloklarini ishlab chiqish kabilar muhim hisoblanadi. Bu borada talabalarning o‘zlari o‘qituvchilar rahbarligida o‘quv munozarasi va konferensiya, «aqliy hujum» hamda tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi metodlar, «keys-stadi» (aniq namuna asosida o‘qitish), imitatsion modellashtirish, ssenariylar ishlab chiqish, bilimlar xaritasini tuzish kabi metod va shakllari o‘quv materialini faol o‘zlashtirish va asosiy tushunchalarni egallashga imkon beradi.

Talabalarda ijtimoiy faollikni shakllantirish hayot bilan, nazariyaning amaliyot bilan aloqadorligi oliy ta'lim muassasalari yordamida ta'minlanadi. Bunda maqsadga muvofiq muammoni aniqlash va shakllantirish, faoliyat vositalarini tanlash, uning moddiy-texnik va tashkiliy jihatdan ta'minlash usullarini o‘zlashtirish, amaliy natijalarga erishish va ularni tahlil etish talabalarning shaxsiy tajribalarini rivojlantiradi. Ijtimoiy faollikni shakllantirishda axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Chunki, AKT vositalari talabalarga voqea-hodisalar haqidagi ma'lumotlarni izlash va qayta ishlash, axborotni bir turdan boshqasiga ko‘chirish, ma'lumotlarni taqdim etish va axborotdan kerakli bilimlarni tanlab olish, faqat ob'ekt va hodisanigina emas, balki muammoli jarayonni o‘rganish, masofaviy muloqot, o‘z mehnati natijalarini rasmiylashtirish va taqdim etish uchun imkon yaratadi. Oliy ta'lim muassasasida talabalarning ijtimoiy faolligini shakllantirish uchun 120 nafar talaba bilan amaliy tadbirlar o‘tkazish natijasida kelgan xulosalar va samaralar quyidagicha bo‘lishi mumkin:

1. **Talabalarning bilim va ijtimoiy faollik darajasini baholash**: 120 nafar talaba o‘rtasida ijtimoiy faollikni shakllantirish maqsadida tadqiqot o‘tkazildi. Bu tadqiqotda talabalarning bilim darajasi, ularning jamiyatga va atrof-muhitga bo‘lgan munosabati va ijtimoiy faollikka bo‘lgan qiziqishi baholandi. Ta'lim dasturlarini o‘tkazish orqali ularning ijtimoiy va ma'naviy holatida ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Ta'lim jarayoniga integratsiyalashgan yo‘nalishlar, jumladan, vatanparvarlik, ekologik va ijtimoiy adolat kabi mavzular talabalarda yuqori motivatsiya uyg‘otdi.

2. **Talabalarni volontyorlikka jalb qilish**: 120 nafar talabadan 60 nafari volontyorlik faoliyatiga jalb etildi. Ular ko‘ngilli ravishda ekologik aksiyalar, ko‘chadagi kambag‘allarga yordam berish, urganish va xo‘jalik ishlarida ishtirok etishdi. Bu tadbirlar talabalarda jamiyatga xizmat qilish hissini kuchaytirdi va ularning ijtimoiy faolligini oshirdi. Volontyorlik faoliyati talabalarga o‘zlikni anglash, mas'uliyat hissini rivojlantirish va insoniy qadriyatlar haqida xabardor bo‘lishga yordam berdi.

3. **Ma'naviy tarbiya va qadriyatlarni shakllantirish**: 120 nafar talabani milliy va umumbashariy qadriyatlar, ma'naviy-axloqiy prinsiplar bo‘yicha tarbiyalash maqsadida maxsus seminarlar o‘tkazildi. Bu seminarlarda talabalarga jamiyatda axloqiy normalarga amal qilish, insoniy

qadriyatlarni e'zozlash va ularga sodiq bo'lish zarurligi tushuntirildi. Seminarlarda ishtirok etgan talabalarning ma'naviy o'sishi va ularning ijtimoiy faolligi ortishi kuzatildi.


4. E**kologik va jamiyatga oid faoliyatlarning tashkil etilishi**: 120 nafar talabadan 40 nafari ekologik faoliyatlarga jalb etildi. Talabalarning eng ko'p ishtirok etgan yo'nalishlari, tabiiy resurslarni himoya qilish, atrof-muhitni muhofaza qilish va atrofdagi turli iqlim xatarlariga qarshi kurashish bo'ldi. Bu jarayonlar talabalarning ijtimoiy faolligini o'stirish bilan birga, ularda ekologiyaga bo'lgan mas'uliyat hissini ham shakllantirdi.

5. **Talabalarning ijtimoiy faollikka bo'lgan munosabatini aniqlash**: Tadqiqot natijalariga ko'ra, 120 nafar talaba orasidan 80 nafari o'zining ijtimoiy faolligini yuqori baholagan. Ular o'z faoliyatida jamiyatga, xalq manfaatlariga va atrof-muhitga mas'uliyat bilan yondashishga harakat qilishni maqsad qilib qo'ygan. Bu talabalarning shaxsiy taraqqiyotida ijtimoiy faollikni yuqori darajada qaror topganini ko'rsatadi.

6. **Faoliyatning natijalarini baholash**: 120 nafar talabaning 100 nafari o'z faoliyatini jamiyat manfaatlari uchun xizmat qilish deb his etdi. Bu talabalarning ijtimoiy faollikka bo'lgan motivatsiyasi va u bilan bog'liq fikrlari to'g'ri shakllanganini ko'rsatadi. Ular yangi g'oyalar va loyihalarni ishlab chiqishga, jamiyatda ijobiy o'zgarishlar qilishga intilmoqda.

7. **Talabalarning shaxsiy rivoji va bilim darajasini oshirish**: 120 nafar talabadan 50 nafari o'quv jarayonida o'z faolligini jamiyatning taraqqiyotiga qaratgan holda o'tkazishni maqsad qilib qo'ydi. Ular o'zlarini jamiyatdagi ijtimoiy va iqtisodiy masalalarga mas'ul deb hisoblaydi. Bu jarayon talabalarning shaxsiy darajada rivojlanishini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga sodiqlik va ijtimoiy faollikni mustahkamlashini ko'rsatadi.

Natija: 120 nafar talabaning ijtimoiy faolligini shakllantirish orqali ularning ma'naviy va axloqiy qadriyatlarga bo'lgan munosabati, jamiyatga bo'lgan mas'uliyatlari va atrof-muhitga bo'lgan e'tiborlari rivojlandi. Bu talabalar jamiyat taraqqiyotiga ijobiy hissa qo'shish, inson huquqlari va adolatni ta'minlash, atrof-muhitni muhofaza qilish kabi yo'nalishlarda faol ishtirok etmoqdalar. Ular nafaqat mutaxassislik, balki ijtimoiy mas'uliyatni ham anglaydigan shaxslar bo'lib voyaga yetishmoqda.



Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, 120 nafar talabada ijtimoyi faoliyatni shakllantirish jarayoni davomida ularning bilim darajasi, axloqiy qadriyatlari va jamiyatga bo'lgan mas'uliyati sezilarli

darajada oshgan. Talabalar, o‘quv jarayonida o‘z faoliyatlarini ijtimoiy masalalarga qaratib, jamiyatning rivojiga hissa qo‘shishga intilmoqdalar. Volontyorlik, ekologik faoliyatlar, axloqiy seminarlar va madaniy dasturlar orqali talabalar o‘zlarini jamiyatga xizmat qiluvchi, mas'uliyatli va ijtimoiy faol shaxslar sifatida rivojlantirdilar. Shunday qilib, o‘quv jarayonida ijtimoyi faoliyatni shakllantirish, talabalarda nafaqat professionallik, balki ijtimoiy mas'uliyat va axloqiy qadriyatlarni ham mustahkamlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabridagi PF-158-

17. son “O‘zbekiston-2030 strategiyasi to‘g‘risida” farmoni

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60- son ―Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi farmoni

19. O‘zbekiston Respublikasining “YOshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risi”dagi Qonuni. 2016-yil 14-sentyabr. 790

20. Tillaeva G. Ijtimoiy muhit va yoshlar tarbiyasi. – T.: Falsafa va huquq instituti, 2009. 166-b

21. Raxmanova Muqaddas Qaxramonovna Problems of Improving Social Competence of Students in the Process of Higher Pedagogical Education// Central asian journal of literature, philosophy and culture 12 Dec 2022 B.48-52

22. Mukaddas Rakhmanova “Scientifik and pedagogical bases of preparation of students for development of social activity in the procrss of professional and pedagogical education” B.283-287

23. Raxmanova M.Q Kasbiy ta’lim jarayonida talabalar ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishda interfaol ta’limning nazariy-amaliy jihatlari // «Mug‘allim həm үzliksiz bilimlendirio‘» 2022. №3/3. B. 30-34

24. Raxmanova M.Q. Pedagogik texnologiyalar asosida talabalar ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish / Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari. Xalqaro miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali, 2022-yil 14-15-oktyabr. B. 583-586

25. . Y J.E.Usarov, M.Q.Raxmanova Yoshlarning inteliektual salohiyati va faolligini rivojlantirishda pedagogik psixologik omillari / Fan, Ta’lim va amaliyotintegratsiyasi ISSN: 2181-1776 2021 №4 Aprel. B.78-82

26. . M.Q.Raxmanova, U.A.Ismadiyarova. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni maktabga tayyorlashda aqliy tarbiyaning roli. Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 Uzbekistan www.ares.uz. B.514-522

27.Kukushin B.C. Teoriya i metodika vospitatelnoy rabotы. - Rostov-na-Donu: Mart, 2002.

TA'LIM KLASTERI SHAROITIDA ZAMONAVIY O'QITUVCHI NUFUZINI OSHIRISHDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Xakimova Iroda Xayrullayevna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Menejment kafedrasi o'qituvchisi
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0008-4191-3240

ABSTRACT

This research focuses on improving the effectiveness of student learning and enhancing teacher influence by examining the impact of personalized teaching methodologies in modern education. The aim of the study is to explore how personalized teaching methods can improve teacher reputation and student performance within the context of educational clusters. The empirical research conducted in these clusters showed that the use of digital platforms, interactive software, and online courses increased teachers' influence by 25% and student performance by 28%. Furthermore, the study identified key challenges, including insufficient technical resources and the lack of teacher qualifications, as obstacles to effective implementation of personalized teaching methods. The findings suggest that continued professional development for educators and the expansion of technological tools in the teaching process are essential for further enhancing educational outcomes.

Keywords: personalized learning, modern teacher, methodology, education cluster, digital technologies, pedagogical factors.

ABSTRAKT

Ushbu tadqiqot zamonaviy ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan metodikalarning samaradorligini oshirishga qaratilgan. Tadqiqot maqsadi o'qituvchilarning nufuzini oshirish va talabalarning ta'lim samaradorligini yaxshilash uchun shaxsga yo'naltirilgan metodikalarning ta'lim jarayoniga ta'sirini o'rganishdir. Ta'lim klasteri sharoitida olib borilgan empirik tadqiqot natijalari asosida, raqamli platformalar, interaktiv dasturlar va onlayn-kurslar o'qituvchilarning nufuzini 25% ga, talabalarning samaradorligini esa 28% ga oshirishga yordam bergani aniqlandi. Bundan tashqari, texnik ta'minot va pedagoglarning malakasidagi etishmovchiliklar shaxsga yo'naltirilgan metodikalarni qo'llashdagi asosiy qiyinchiliklar sifatida belgilandi. Ta'lim vositalarining samaradorligini oshirish uchun o'qituvchilarga yangilangan pedagogik metodikalarni qo'llashni davom ettirish, malaka oshirish va ta'lim vositalarini kengaytirish zarurligi aniqlandi.

Kalit so'zlar: shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, zamonaviy o'qituvchi, metodika, ta'lim klasteri, raqamli texnologiyalar, pedagogik omillar.

Kirish

Zamonaviy ta'lim tizimida pedagogning roli katta ahamiyatga ega. Muttasil rivojlanayotgan texnologiyalar va ta'lim jarayonidagi o'zgarishlar o'qituvchilardan yangi va samarali pedagogik usullardan foydalanishni talab qilmoqda. Bugungi kunda ta'limda shaxsga yo'naltirilgan metodikalarga e'tibor katta ahamiyatga ega, chunki ular o'quvchilarning individual xususiyatlariga mos keladi va har bir talaba uchun maksimal natijalarga erishishga imkoniyat yaratadi. Bu, o'z navbatida, o'qituvchilarning nufuzi va ularning professional ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – o'quvchining ehtiyojlariga va qiziqishlariga asoslangan individual yondashuvdir. Bu yondashuv ta'limning maqsadlariga erishishda o'quvchilarning faolligini oshirish,

ularning motivasiyasini ko'tarish va o'qish jarayonini shaxsiy va ijtimoiy rivojlanish uchun yanada samarali qilishga ko'maklashadi. Ushbu tadqiqotda ta'lim klasteri sharoitida zamonaviy o'qituvchining nufuzini oshirish va talabalarning ta'lim samaradorligini yaxshilash maqsadida shaxsga yo'naltirilgan metodikalarning samaradorligini o'rganishga intilish qilingan.

Tadqiqotning asosiy maqsadi zamonaviy pedagogik usullarni qo'llash orqali o'qituvchilarning shaxsga yo'naltirilgan metodikalarga bo'lgan munosabatini, shular orqali talabalarning o'qish samaradorligini qanday oshirish mumkinligini tahlil qilishdir. Ta'limning shaxsga yo'naltirilgan usullar bilan qo'llanishi o'quvchilarning individual yondoshuvlariga moslashgan holda o'qitishni ta'minlaydi, shu bilan birga, ularning o'qishdagi samaradorligini oshiradi.

Shuningdek, tadqiqot zamonaviy ta'lim texnologiyalari, raqamli platformalar va interaktiv dasturlarning oqituvchilar va talabalarning samaradorligiga qanday ta'sir ko'rsatgani, shu bilan birga, muammolar va qiyinchiliklarning bartaraf etish uchun qanday strategiyalarni qo'llash zarurligini ko'rsatishga intiladi. Ushbu tadqiqot natijalari ta'lim muassasalarida shaxsga yo'naltirilgan metodikalarni samarali joriy qilish uchun muhim yo'nalishlarni aniqlashga yordam beradi.

Metodologiya

Tadqiqotda zamonaviy o'qituvchi nufuzini oshirishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim metodikasining samaradorligini o'rganish maqsadida quyidagi metodologik usullar qo'llanildi:

Tadqiqotda o'qituvchilar, talabalar va ta'lim muassasalari rahbarlaridan iborat bo'lgan 5 ta maktab va 3 ta ta'lim klasteri ishtirok etdi. Ushbu guruhlarda umumiy 100 nafar pedagog, 200 nafar talabalar va 50 nafar ta'lim muassasalari rahbarlari tadqiqotga jalb qilindi.

So'rovnomalar: oqituvchilarning shaxsga yo'naltirilgan ta'lim metodikalariga bo'lgan munosabati va ularning amaliy va ilmiy tadqiqotlarga asoslangan pedagogik usullarga ega ekanligi haqida ma'lumot yig'ish uchun so'rovnomalar tuzilgan. So'rovnomalar o'qituvchilarning kundalik ish faoliyatida shaxsga yo'naltirilgan metodikalarni qanday qo'llayotganini o'rganishga qaratildi.

Intervyular: ta'lim muassasalari rahbarlari va o'qituvchilar bilan shaxsga yo'naltirilgan metodikalarning samaradorligi, ularni ishlatishdagi qiyinchiliklar va innovasion pedagogik yondoshuvlar haqida intervyular olindi.

Amaliyot tadqiqotlari: o'quvchilar bilan amaliy darslar va treninglar tashkil etildi, bu orqali shaxsga yo'naltirilgan metodikalarning pedagogika jarayoniga ta'siri tahlil qilindi.

Hujjatlarni tahlil qilish: oqituvchilar va ta'lim muassasalari rahbarlarining shaxsga yo'naltirilgan metodikalardan foydalanishini baholash uchun hujjatlar va o'quv dasturlari tahlil qilindi.

Tadqiqotda olingan ma'lumotlar statistik tahlil va mazmunli tahlil usullari orqali ishlangan. Har bir ishtirokchi guruhi (o'qituvchilar, talabalar va ta'lim muassasalari rahbarlari) bo'yicha natijalar jamlandi. Maqsadga erishish uchun o'qituvchilarning shaxsga yo'naltirilgan metodikalarga bo'lgan munosabatini o'rganish hamda ularning ish faoliyatida bundan qanday foydalanishini aniqlash asosiy vazifa bo'lgan.

Tadqiqot 6 oy davomida olib borildi. Bu muddat mobaynida turli maktablar va ta'lim klasterida 30 ta praktik dars va trening tashkil etildi, 50 ta intervyu olindi va 300 nafar ishtirokchi bilan so'rovnomalar olib borildi. Tadqiqot natijalari 3 bosqichda yakunlandi: boshlang'ich aniqlash, o'rganish va tahlil, amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish.

Kvantativ tahlil: so'rovnomalar natijalari va statistik ma'lumotlar asosida o'qituvchilarning shaxsga yo'naltirilgan metodikalarga bo'lgan munosabati tahlil qilindi. Tadqiqotda reyting shkalasidan foydalanildi, u har bir o'qituvchining metodikalarga nisbatan ta'sirini va qo'llash darajasini aniqlashga yordam berdi.

Kachestveni tahlil: intervyular va amaliy tadqiqotlar orqali olingan ma'lumotlar mazmunli tahlil qilindi. Ushbu tahlil o'qituvchilarning shaxsga yo'naltirilgan metodikalarni ishlatishda qanday qiyinchiliklar

bilan duch kelishgani va ularni takomillashtirish uchun qanday takliflar bildirganliklari haqida ma'lumot berdi.

Tadqiqotning empirik qismida 10 ta ta'lim muassasasida shaxsga yo'naltirilgan metodikalar qo'llanilgan. Bu vaqtda o'qituvchilarning shaxsga yo'naltirilgan usullardan foydalanishdagi qobiliyatlari va ularning amaliy natijalari kuzatildi. Amaliyotlar orqali natijalar olindi, masalan, o'qituvchilarning samaradorligi va o'quvchilarning bilim darajasi oshdi.

Tadqiqot natijalari

Tadqiqot natijalari olingan ma'lumotlar va statistik tahlillar asosida shakllantirilgan. Quyidagi ma'lumotlar va tablisalar o'qituvchilarning shaxsga yo'naltirilgan metodikalarni qo'llashdagi samaradorlik va muammolarni aniqlashga yordam berdi.

Tadqiqot ishtirokchilari orasida o'tkazilgan so'rovnoma va intervyular natijalari asosida quyidagi statistik ma'lumotlar olindi.

Жадвал 1

Shaxsga yo'naltirilgan metodikalarning samaradorligini

Ta'lim vositasi	O'qituvchi nufuzi oshishi (%)	talabalarning samaradorligi oshishi (%)	uqish va o'qishga bo'lgan qiziqish (1-5)
Raqamli platformalar (interaktiv dasturlar)	30%	25%	4.5
Interaktiv doskalar	20%	22%	4.2
Videolar va animasiyalar	18%	20%	4.1
Internet-resurslar va onlay kurslar	25%	28%	4.6

Raqamli platformalar va interaktiv dasturlarni qo'llash o'qituvchilarning nufuzini 30% ga oshirgani aniqlandi. Talabalarning 25% ga samaradorligi oshgan va ularning o'qishga bo'lgan qiziqishi 4,5 ballga ko'tarilgan.

Interaktiv doskalarning samaradorligi 20% ga oshdi, talabalarning samaradorligi 22% ga ko'tarildi va ularning o'qishga qiziqishi 4,2 ballga etdi.

Videolar va animasiyalardan foydalanish o'qituvchi nufuzini 18% ga oshirdi. Bundan tashqari, talaba samaradorligi 20% ga oshdi va o'qishga qiziqish 4,1 ballga kamaygan.Internet-resurslar va onlay kurslar o'qituvchilarning nufuzini 25% ga oshirgan, talabalarning samaradorligi esa 28% ga oshgan va o'qishga qiziqish 4,6 ballga etgan.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, shaxsga yo'naltirilgan metodikalarni qo'llashdagi asosiy qiyinchiliklar quyidagi jihatlarda namoyon bo'ldi:

Жадвал 2

Ta'lim klasteridagi shaxsga yo'naltirilgan metodikalarni qo'llashdagi muammolar

Muammo	Xodimlar (nifoz)	ta'lim vositasining imkoniyati	ta'limdagi o'quvchilarga ta'sir
Texnik ta'minotning etishmasligi	15%	10%	12%

Muammo	Xodimlar (nifoz)	ta'lim vositasining imkoniyati	ta'limdagi o'quvchilarga ta'sir
O'qituvchilarning malakasi va tayyorgarliklari	20%	18%	19%
Ota-onalar bilan ishlash	10%	7%	9%
Metodik resurslarning mavjudligi	5%	6%	4%

Texnik ta'minotning etishmasligi 15% aniqlangan. Bu ta'lim muassasalarining raqamli resurslarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishdagi etishmovchiliklarni ko'rsatadi.

O'qituvchilarning malakasi va tayyorgarliklari 20% etishmasligi tufayli, shaxsga yo'naltirilgan metodikalarni samarali joriy etishda qiyinchiliklar mavjud.

Ota-onalar bilan ishlash bo'yicha kamchiliklar 10% tashkil qiladi. Ota-onalarning shaxsga yo'naltirilgan ta'limga nisbatan qolgan munosabatlarini tushuntirish va ularning ishtirokini oshirish talab etiladi.

Metodik resurslarning mavjudligi 5% muammo ko'rsatgan, bu ta'lim vositalari va materiallarining kamligini anglatadi.

Shaxsga yo'naltirilgan metodikalar o'qituvchilarning samaradorligini 25% ga oshirgan.

O'quvchilarning ta'limdagi samaradorligi 22% ga oshdi.

O'quvchilarning o'qishga qiziqishi 4.5 ballga ko'tarildi.

Texnika va ta'lim vositalarining etishmasligi va pedagoglarning malakasi shaxsga yo'naltirilgan metodikalarning samarali qo'llanishini chekladi.

Tablisalar orqali olingan natijalar shaxsga yo'naltirilgan ta'lim metodikalarining o'qituvchi nufuzi va talabalarning samaradorligiga katta ta'sir ko'rsatganini ko'rsatadi. Lek, texnik va pedagogik omillar bu prosesni muvaffaqiyatli amalga oshirishga ta'sir qiluvchi muhim omillar sifatida belgilanadi.

Xulosa

Tadqiqot zamonaviy ta'lim klasteri sharoitida shaxsga yo'naltirilgan metodikalarni qo'llash orqali o'qituvchilarning nufuzini oshirish va talabalarning ta'lim samaradorligini yaxshilashning muhimligini ko'rsatdi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim usullari ta'lim jarayonida o'quvchilarning individual ehtiyojlarini e'tiborga olishga yo'naltirilgan bo'lib, ularning faolligini, motivasiyasini va o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishga yordam beradi. Ta'limda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, masalan, raqamli platformalar, interaktiv dasturlar va onlay kurslar o'quvchilarning samaradorligini va o'qituvchilarning nufuzini sezilarli darajada oshirishga hissa qo'shdi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'qituvchilarning shaxsga yo'naltirilgan metodikalarga bo'lgan munosabati va ularning tayyorgarligi ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omillardan hisoblanadi. Shu bilan birga, texnik ta'minotning etishmasligi va pedagogik tayyorgarlikning hali etdi emaganligi shaksga yo'naltirilgan metodikalarni samarali joriy qilishda asosiy to'sqinliklarni tashkil etadi. Ushbu muammolarni hal qilish uchun ta'lim muassasalarida o'qituvchilarni zamonaviy pedagogik usullar bilan tanishtirish, ularning malakasini oshirish va texnikaviy bazani yangilash zarur.

Shu sababli, zamonaviy pedagogik metodikalarni samarali joriy qilish uchun pedagoglar uchun davomiy professional rivojlanish dasturlari, innovasion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish va ta'lim muassasalarida texnik resurslarni mukammallashtirish muhim hisoblanadi. Tadqiqot natijalari

yordamida ta'lim tizimidagi bugungi kundagi muammolar va ularni hal qilish yo'nalishlari aniqlandi, bu esa ta'limni yanada samarali, shaxsga yo'naltirilgan va innovasion qilishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1.Antipova, T. M. (2020). "Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim metodikalari: nazariy va amaliyotdagi ilg'or tendentsiyalar". Ta'lim va innovasiyalar jurnal, 3(4), 45-58.

2.Hamidova, N. Z. (2021). "Raqamli ta'lim texnologiyalari va ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri". Ta'limdagi innovasiyalar jurnali, 7(2), 112-127.

3.Usmanova, F. A. (2022). "Zamonaviy ta'lim metodikalarini qo'llash va ularning pedagogikadagi ahamiyati". Pedagogika va ta'lim metodikalari jurnali, 5(1), 98-110.

4.Salimova, L. T. (2019). "Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning kontseptual asoslari va ularning ijtimoiy-pedagogik natijalari". Ta'limning hozirgi tendentsiyalari jurnali, 4(3), 78-91.

5.Savchenko, V. V. (2021). "Interaktiv o'qitish texnologiyalari va ta'limdagi shaxsga yo'naltirilgan usullar". Oliy ta'lim muassasalaridagi innovasiyalar jurnali, 6(5), 43-57.

6.Kozimova, Sh. N., & Abdurazoqova, L. T. (2023). "Ta'lumot va kommunikasiya texnologiyalari asosida ta'lim samaradorligini oshirish". Ta'limdagi yongiliklar jurnali, 9(1), 34-50.

7.Bakirov, N. N. (2020). "Interaktiv texnologiyalar va shaxsga yo'naltirilgan ta'limning pedagogik asoslari". Ta'lim va pedagogika jurnali, 15(2), 134-145.

8.Томсон, M. (2022). Personalized Learning: A New Approach to Education. New York: Educational Press.

9.Meyer, H., & Smith, J. (2019). Educational Technologies: Enhancing Classroom Teaching with Digital Tools. London: Oxford University Press.

10.Rodríguez, A., & González, S. (2020). "The Impact of Interactive Learning Methods in the Development of Students' Critical Thinking." Journal of Educational Research, 24(4), 22-35.

11.Resh, M. (2021). Emerging Trends in Digital Learning in Early Education. Cambridge: Cambridge University Press.

12.Garrison, D. R., & Vaughan, N. D. (2020). Blended Learning in Higher Education: Framework, Principles, and Guidelines. San Francisco: John Wiley & Sons.

БЎЛАЖАК ПЕДАГОГЛАРНИ КАСБИЙ ФАОЛИЯТГА ТАЙЁРЛАШ ЮЗАСИДАН ИШ ОЛИБ БОРГАН МУТАХАСИСЛАРНИНГ ХУЛОСАЛАРИ

Ибадуллаева Шарофат Нуруллаевна
Чирчиқ давлат педагогика университети
"Махсус педагогика" кафедра ўқитувчиси

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада бўлажак педагогларни касбий фаолиятга тайёрлаш юзасидан иш олиб борган бир қанча мутахассисларнинг хулосалари билан танишасиз ва мутахассисларни касбий инновациялар муҳитига тез мослашувчанлигини таъминлашда ўқитиш тизимида трансформациялашган ёндашувлардан фойдаланиш эҳтиёжини кучайтириш бўйича тадқиқот натижалари баён етилган.

Калит сўзлар: илмий хулоса, педагогик амалиёт, тадқиқот, тажриба махсус педагог, самарадорлик, сифат, кўникма, малака, бўлажак педагог.

АННОТАЦИЯ

В данной статье вы познакомитесь с выводами ряда экспертов, работавших над подготовкой будущих педагогов к профессиональной деятельности, и результатами исследований по усилению необходимости использования трансформированных подходов в системе образования для обеспечения быстрой адаптации специалистов к среде профессиональных инноваций.

Ключевые слова: научный вывод, педагогическая практика, исследование, опыт специального педагога, эффективность, качество, умения, компетентность, будущий педагог.

ABSTRACT

In this article, you will get acquainted with the conclusions of several experts who worked on the preparation of future pedagogues for professional activities, and the results of research on strengthening the need to use transformed approaches in the education system to ensure the rapid adaptability of professionals to the environment of professional innovations.

Key words: scientific conclusion, pedagogical practice, research, experience of a special pedagogue, efficiency, quality, skills, competence, future pedagogue.

Ёш мутахассисларни касбий инновациялар муҳитига тез мослашувчанлигини таъминлашда ўқитиш тизимида трансформациялашган ёндашувлардан фойдаланиш эҳтиёжини кучайтирмоқда. Одатда, узлуксиз таълим амалиётининг таълим бериш шакл ва воситаларини ўзгартиришга бўлган эҳтиёжи давлатнинг ижтимоий буюртмаси ва модернизацияланиш даражасига қараб белгиланади. Бундан ташқари глобаллашув жараёни ҳамда ахборот муҳитининг жамият ҳаёт тарзига айланиши олий таълим тизимида ҳам ўқитишнинг шакл-шамойилини тубдан ислоҳ қилишни тақозо этмоқда.

Бўлажак мутахассисларни касбий амалиётга тайёрлаш ва ўз фани доирасида ўқитиш методикаларидан самарали фойдаланишга ўргатиш жараёни кенг қамровли бўлиб, нафақат педагогик нуқтаи назардан, балки психологик ҳамда ижтимоий жиҳатдан ҳам ёндашишни тақозо этади.

М.Қ.Зарипованинг илмий ишида бўлажак ўқитувчиларни инновацион-педагогик фаолиятга мослашув босқичлари тадқиқ этилган бўлиб, бунда мотивацион, когнитивлик, интегративлик, рефлексивлик каби касбий йўналганлик мезонларининг амалий фаолият тузилмаси билан интегралллик даражалари белгилаб берилган.

Х.Т.Муминов ногирон талабаларнинг касбий кўникма ва малакаларини шакллантиришнинг омиллари ва тамойилларини тадқиқ этган. Натижада амалиётга талабаларнинг жисмоний ва ўзлаштириш имкониятларига мос ҳолда ёндашишнинг методик тавсиялари жорий этилган.

М.М.Қодиров ўзининг бўлажак технология таълими ўқитувчиларининг касбий сифатларини шакллантиришга бағишланган тадқиқот ишида талабаларда шаклланиши лозим бўлган сифатларни ажратиб берган бўлиб, улар қуйидагилар: мотивацион, конструктив, ташкилотчилик, бошқарувчилик, меҳнатсеварлик, интизомлилик, технологик. Мазкур сифатлар бўлажак махсус педагогларда ҳам тўлақонли шаклланиши мақсадга мувофиқдир. Чунки у ёки бу ногиронликка эга бўлган болалар билан ишлашга тайёр бўлишда барча санаб ўтилган сифатлар талаб этилади.

С.Ж.Тўраев “Дастурий воситалар асосида талабаларни касбий фаолиятга тайёрлаш методикасини такомиллаштириш” мавзусидаги тадқиқот ишида касбий фаолиятга тайёрлашнинг мазмунли, технологик ва ташхислаш каби ташкилий функционал компонентлари ўрганилган. Натижада талабаларнинг мустақил равишда ўз устида ишлашини таъминлашнинг ахборотли контенти яратилган. Бу ишни таҳлил қилиш асосида биз амалиёт даврида мустақил ишлашга талабаларни ундайдиган воситалар ҳам муҳим омил экан деган хулосага келдик.

С.Р.Зохидованинг илмий тадқиқот ишида бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларини касбий ижтимоийлаштириш жараёнларини такомиллаштиришнинг дидактик имкониятлари тадқиқ этилган. Бунда аудитория ва аудиториядан ташқари машғулотларида ҳамда амалиётни ўташ жараёнларида талабаларнинг касбий мослашувчанлигини оширишга доир тавсиялар жорий этилган. Ўз-ўзидан кўриниб турибдики, машғулотлар ва амалиёт жараёнларида талабаларга ўзини намоён этишга ундовчи ёндашувлардан фойдаланиш самара беради. Бизнинг тадқиқот ишимизда ҳам айнан амалиёт даврида талабаларнинг ўзига хос хусусиятларини инобатга олувчи механизмларни моделлаштиришга устуворлик бериш кўзда тутилди.

Л.Б.Ахмедова томонидан “Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларининг дидактик-методик компетентлигини ривожлантириш” мавзусида тадқиқот иши олиб борилган бўлиб, дидактик-методик компетентликнинг тузулмаси қадриятли-мотиватцион, изланувчан-ахборотли, рефлексив, процессуал-фаолиятли, дидактик-технологик, когнитив-баҳолаш компонентларини интегратив яхлитлаш асосида ривожлантирилган. Мазкур тадқиқот ишида илгари сурилган ғоя сифатида қуйидагиларни олиш мумкин:

1) дидактик-методик компетентлик педагогик назарияларга оид билимларнинг амалиётда қўлланилиши асосида намоён бўлади;

2) ўқитиш ва ўргатиш усулларини ўзлаштириш касбий фаолиятнинг бир томони бўлса, мазкур усулларнинг амалиётда қўлланилишини амалиётда бевосита кузатиш ва қўллаш иккинча ва ҳал қилувчи томонидир.

А.А.Назаров талабаларни умумкасбий фанлар негизида инновацион касбий фаолиятга тайёрлашда соҳага оид парадигмаларни интегратив ёндашув асосида трансформациялашнинг дидактик имкониятларини ўрганган. Тадқиқот натижасида олий таълим муассасаларида бўлажак мутахассисларнинг касбий компетенцияларини шакллантиришнинг мультипредметлилик ва яхлитлик тамойиллари аниқланган. Мазкур тадқиқотни ўрганиш орқали махсус педагогларни касбий фаолиятга тайёрлашнинг умумий ва хусусий тамойилларини аниқлаш мақсадга мувофиқ деган хулосага келинди. Маълумки, махсус педагогика йўналишидаги қатор миллий ва хорижий тадқиқотларда хусусий тамойиллар сифатида қуйидагилар ажратиб берилган: коррекцион

йўналганлик, компенсацияга таяниш, коммуникативлик, шахсий потенциалга таяниш (Л.Муминова, У.Файзиева, Ф.Қодирова, З.Мамаражабова, Д.Якубжанова, Г.Абдуллаева ва бошқалар).

Бўлажак мутахассисларни касбий фаолиятга тайёрлашда амалда қўлланилган ва натижалари синалган ёндашувлардан фойдаланишга эҳтиёж туғилади. Хусусан, касбий фаолият самарадорлигини баҳолайдиган мезонлардан бири сифатида ижодий қобилиятнинг намоён бўлишида амалий йўналган ўқув муҳитида инновацион усуллар ва технологиялардан фойдаланиш тақозо этилади. Бу хусусда Д.Ш.Жўраева бўлажак ўқитувчиларнинг ижодий қобилиятларини ривожлантиришда муаммоли ёндашувнинг имкониятларини тадқиқ этган. Муаммоли ёндашувга асосланган ностандарт топшириқлар ижодий қобилиятларни ривожлантиришда қулай муҳитни таъминлайди. Талабаларда ижодий қобилиятни ривожлантириш касбий фаолиятга тайёрлашнинг муҳим шартидир. Бироқ шахснинг ижодий қобилияти фаол жараёнда намоён бўлади. Айнан амалиёт жараёни талабаларни касбий ижодга мотивациялашда кенг имконият яратади. Демак тадқиқотнинг таълимий тажриба-синов ишларини режалаштиришда айнан муаммоли таълим технологияларига эътибор қаратиш мақсадга мувофиқ бўлади. Шунинг учун тадқиқот доирасида инновацион технологиялардан фойдаланишда ОТМ профессор-ўқитувчилари фаолиятига қўйилувчи талаблар ва ўзига хос ёндашувлар бўйича олиб борилган тадқиқотлар ҳам таҳлил қилинди. Масалан, Г.Г.Азизованинг олий таълим муассасалари профессор ўқитувчиларининг касбий-педагогик фаолиятини такомиллаштиришга оид амалиётга татбиқ этган тавсияларида қуйидаги касбий компетентлик элементларига урғу берилган: ижтимоий фаоллик, қадриятлилик, очиқлик, ўзига хослик, узлуксизлик. Айнан мазкур элементлар ОТМ да назарий ва амалий машғулотларни интерфаол ёндашувлар асосида ташкил этишда зарурдир. Аудитория машғулотлари самарадорлиги эса, талабаларнинг амалиёт давридаги фаолияти натижалари билан баҳоланади. Чунки олий таълим даврининг ўзидаёқ талабаларда шаклланган касбий компетенцияларнинг даражалари педагогик амалиётда яққол намоён бўлади. Шунинг учун педагогик амалиётнинг самарадорлиги, яъни талабаларнинг касбий йўналганлигини юзага чиқарувчи таълим шаклларини модернизациялаш лозим. Бунда айнан профессор-ўқитувчилар инновацион фаолиятига устуворлик берилади. Қачонки, педагоглар модернизация жараёнига тайёр ва очиқ бўлсалар, шунда талабаларни касбий фаолиятга манзилли ва мақсадли тайёрлашга эришилади. Бунда талабаларнинг назарий билимларини амалиётда қўллашга ундовчи усул ва технологиялардан ўринли фойдаланиш муҳим шартлардан ҳисобланади.

Бўлажак мутахассисларни касбий фаолиятга тайёрлашда фанлараро алоқадорлик ҳам муҳим ўрин тутади. Ушбу алоқадорлик асосида талабаларнинг педагогик амалиёти мазмунан бойитилади. Улар билимлари асосида амалиётнинг турли ҳаракатларини тўғри ва самарали амалга оширадилар. Айнан шу масала А.А.Хасановнинг тадқиқот ишида ўрганилган. Олим касб-ҳунар коллежларида ўқувчиларни фанлараро алоқадорлик воситасида касбий фаолиятга тайёрлашнинг методик тизимини такомиллаштиришга доир тавсияларни амалиётга жорий этган. Унинг фикрича, кадрлар тайёрлаш тизимида ўқув режадаги умумкасбий ва махсус фанларнинг ички ва ташқи алоқадорлигини синергетик ёндашув асосида чуқурлаштириш касбий фаолиятга тайёрлашнинг мотивацион, когнитив, рефлексив ва танқидий баҳолаш каби дидактик имкониятларини кенгайтиради. Дарҳақиқат, фанларни ўзлаштириш асосида ўзлаштирилган билимлар касбий фаолиятга назарий тайёрлашнинг негизи ҳисобланади. Мазкур билимлар педагогик амалиётда қўлланилсагина, улар бўлажак мутахассислар хотирасида сақланади. Келажакдаги фаолиятда билимлардан самарали фойдаланишга туртки бўлади.

Педагогик амалиёт жараёнида талабаларнинг касбий фаолияти компоненти сифатида аҳлоқий маданиятга ҳам эҳтиёж юзага келади. Чунки ахлоқий меъёрларга риоя этиш педагогнинг муҳим

сифатидир. У ўқувчилар кўз ўнгида авторитет шахс сифатида намоён бўлишга эришиши лозим. Акс ҳолда педагог ўз ортидан ёшларни эргаштира олмайди. Аслида шахс қандай фаолият билан машғул бўлмасин ахлоқий маданият унинг ҳар бир ҳаракатида намоён бўлиши лозим. Шунда унинг янги шароитларга мослашиши ва самарали фаолият олиб бориши қулай кечади. Ахлоқий маданиятга доир методик тавсиялар Ё.О.Ерназарованинг “Шахс фаолиятида касбий ва ахлоқий маданият уйғунлиги” мавзусидаги тадқиқот ишида илгари сурилган. Олимнинг ишида Янги Ўзбекистон шароитида касбий ва ахлоқий маданият уйғунлигининг антропоген, перманент, синергетик, детерминистик, хсусиятлари очиб берилган. Бунадан шундай хулоса қилиш мумкинки, махсус педагогика йўналиши талабаларини касбий фаолиятга тайёрлаш жараёни ахлоқий маданиятни намоён этувчи педагогик вазиятларга ҳам эътибор қаратиш лозим. Айнан шундай ёндашувларга таълимий тажриба-синов ишларини шакллантиришда таяниш режалаштирилди.

Г.Т.Боймурадова томонидан олиб борилган тадқиқот ишида бўлажак бошланғич синф ўқитувчилари касбий-шахсий тайёргарлигини таъминлашнинг назарий-амалий асосларини ўрганиш асосида уларнинг касбий-шахсий тайёргарлигини таъминлаш долзарб педагогик муаммо еканлиги асосланган бўлиб, натижада касбий-шахсий тайёргарликни таъминлашнинг технологик тизими ишлаб чиқилган. Мазкур ишни ўрганиш давомида талабаларда касбий, шахсий, хусусий (махсус) компетенцияларни шакллантириш уларни келажакдаги фаолиятга тайёрлашнинг муҳим компонентлари эканлиги аниқланди. Санаб ўтилган компонентларга доир элементларнинг интегратив равишда шаклланишига педагогик амалиёт жараёнида эришилади. Педагогик амалиёт бўлажак махсус педагогларни касбий амалиётга ҳам шахсий, ҳам касбий, ҳам махсус компетенциялар доирасида самарали тайёрлайди. Шунинг учун айнан педагогик амалиёт талабаларни касбий фаолиятга комплекс тайёрлаш имконини берувчи механизм сифатида намоён бўлади. Бундан ташқари педагогик амалиёт талабаларда педагогик маҳоратни ривожлантиришда ҳам зарурий шароитларни яратувчи касбий етилиш маконидир.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Ибадуллаева.Ш.Н. Бўлажак махсус педагогларни касбга тайёрлашда амалиётниг аҳамияти / “Таълим ва тарбия жараёнида шахс креатив қобилиятини шакллантиришнинг долзарб масалалари” мавзусидаги республика илмий-амалий конференсия, 2023, Жиззах, 443-446. б.
2. Ибадуллаева Ш.Н. Бўлажак махсус педагоглар учун педагогик амалиётнинг вазифалари/“Таълим ва тарбия жараёнида шахс креатив қобилиятини шакллантиришнинг долзарб масалалари” мавзусидаги республика илмий-амалий конференсия, 2023, Жиззах, 67-69. б.
3. Ибадуллаева Ш.Н., Бўранбоева.Ш.Қ. Имконияти чекланган шахслар учун яратилган имтиёзлар / “Таълим тизимида янги методикалар ва улардан фойдаланишнинг амалий асослари” мавзусидаги республика илмий-амалий конференсия, 2023, Навоий, 320-323. б.
4. Ибадуллаева Ш.Н., Бўраиева.Д.А. Хозирги кунда ривожланиб бораётган сурдопедагогика / “Таълим тизимида янги методикалар ва улардан фойдаланишнинг амалий асослари” мавзусидаги республика илмий-амалий конференсия, 2023, Навоий, 228-231. б.

TARBIYA JARAYONI VA UNING MOHIYATI

Muhammadiyeva Nigora
Saparova Ayjan Abduseyt qizi
Omonboyeva Shirin O`ktam qizi
Chirchiq Davlat pedagogika Universiteti, Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya yo'nalishi talabalari

ABSTRACT

The article delves into the concept of "Tarbiya Jarayoni" (the process of education) and its essence, exploring its significance in shaping individuals and societies. It examines the multifaceted nature of education, emphasizing its role in intellectual, moral, and social development. The study highlights the interconnectedness of education with cultural, historical, and philosophical contexts, underscoring its transformative power. By analyzing the principles and methods of effective education, the article aims to provide a comprehensive understanding of how the educational process contributes to personal growth and societal progress.

Keywords: The educational process education process, moral development, intellectual growth, social transformation, cultural context, educational principles, personal growth, societal progress.

KIRISH

Ta'lim, insoniy taraqqiyotning asosiy ustuni sifatida, uzoq vaqtdan beri shaxslar va jamiyatlarni shakllantirishda o'zgartiruvchi kuch sifatida tan olingan. "Tarbiya jarayoni" tushunchasi nafaqat bilim olishni, balki axloqiy, intellektual va ijtimoiy qobiliyatlarni rivojlantirishni ham o'z ichiga oladi. Texnologiyaning tez rivojlanishi va globalizatsiya bilan ajralib turadigan davrda ta'limning o'rni tengsizlik, iqlim o'zgarishi va madaniy parchalanish kabi murakkab global muammolarni hal qilishda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yilda 258 milliondan ortiq bola va yoshlar maktabdan tashqarida qolgan, bu dunyo bo'ylab sifatli ta'limga kirishdagi doimiy tafovutlarni ko'rsatadi. Bu tafovut tez o'zgarib borayotgan dunyoda qamrovchanlik va dolzarblikni ta'minlash uchun ta'lim jarayonlarini qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish zaruratini ta'kidlaydi.

Tarbiya jarayonining mohiyati uning kognitiv, hissiy va axloqiy o'rganish o'lchovlarini birlashtirgan yaxlit yondashuvidadir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yaxlit ta'lim olgan shaxslar o'z jamoalariga ijobiy hissa qo'shish ehtimoli 30% ga ko'proq, bu 2022 yilda Jahon Banki tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar bilan tasdiqlangan. Bundan tashqari, ta'limning global iqtisodiy ta'siri chuqur bo'lib, har qo'shimcha o'quv yili shaxsning daromad olish imkoniyatini taxminan 10% ga oshirishi taxmin qilinadi. Biroq, ta'limning haqiqiy qiymati iqtisodiy ko'rsatkichlardan tashqarida; u madaniy merosni saqlash, ijtimoiy hamjihatlik va barqaror rivojlanishning asosidir.

Ushbu maqola Tarbiya jarayonining ko'p qirrali tabiatini o'rganishga, uning tarixiy ildizlarini, falsafiy asoslarini va zamonaviy qo'llanilishini tekshirishga intiladi. Global tendentsiyalar va statistik ma'lumotlarni tahlil qilish orqali bu tadqiqot ta'lim jarayonlarining kelajakdagi yo'nalishini va ularning jamiyat taraqqiyotiga ta'sirini bashorat qilishni maqsad qilgan. Masalan, ta'limda sun'iy intellektni joriy etish yillik 45% ga o'sishi kutilmoqda, bu an'anaviy o'qitish usullarini tubdan o'zgartirib, shaxsiylashtirilgan o'rganish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. 21-asrning murakkabliklarini engishda Tarbiya jarayonining mohiyatini tushunish chidamli va moslashuvchan jamiyatlarni shakllantirish uchun juda muhimdir.

PROCEEDINGS BOOK

ADABIYOT TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tarbiya jarayoni (ta'lim jarayoni) tushunchasi pedagogika, sotsiologiya va falsafa kabi turli sohalarda keng o'rganilgan. Al-G'azzoliy va Ibn Xoldun kabi mutafakkirlarning ta'limga oid tarixiy nuqtai nazarlari inson taraqqiyotining asosi sifatida axloqiy va intellektual rivojlanishning integratsiyasini ta'kidlaydi. Zamonaviy olimlar, jumladan Paulo Freire va Jon Dewey, bu g'oyani yanada rivojlantirib, ta'limni ijtimoiy o'zgarish va kuchaytirish vositasi sifatida himoya qilishgan. 2021 yilda "Journal of Educational Psychology" jurnalida chop etilgan tadqiqotga ko'ra, yaxlit rivojlanishni ustuvor qo'ygan ta'lim tizimlari faqat akademik yutuqlarga qaratilgan tizimlarga qaraganda 25% yuqori talabalar ishtirokini ko'rsatadi.

Yaqindagi tadqiqotlar texnologik yutuqlarga javoban moslashuvchan o'rganish metodologiyalarining ahamiyatini ta'kidlaydi. Masalan, 2023 yilda Jahon Iqtisodiy Forumi tomonidan e'lon qilingan hisobotga ko'ra, boshlang'ich maktab o'quvchilarining 65% hozirgi paytda mavjud bo'lmagan kasblarda ishlaydi, bu esa ko'nikma va tajribali o'rganishga o'tishni talab qiladi. Bundan tashqari, UNESCOning 2022 yilgi Global Ta'lim Monitoringi Hisobotida ta'limning Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (SDG) ga erishishdagi roli, ayniqsa qashshoqlikni kamaytirish va gender tengligini targ'ib qilishda ta'kidlangan. Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, o'z YaIMining kamida 6% ini ta'limga sarmoya kiritadigan mamlakatlar iqtisodiy o'sishda yillik 2,5% ga o'sishni ko'rsatadi, bu esa samarali ta'lim siyosatining keng qamrovli ta'sirini ko'rsatadi.

Biroq, bu yutuqlarga qaramay, muammolar saqlanib qolmoqda. 2023 yilda Brookings Institution tomonidan o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, past daromadli mamlakatlarning 40% qamrovli ta'lim tizimlarini joriy etishda jiddiy to'siqlarga duch kelmoqda, bu global tengsizliklarni yanada kuchaytirmoqda. Bundan tashqari, UNICEF ma'lumotlariga ko'ra, COVID-19 pandemiyasi dunyo bo'ylab 1,6 milliarddan ortiq o'quvchilarning ta'limini to'xtatdi, bu chidamli va moslashuvchan ta'lim tizimlarining zarurligini ta'kidladi. Bu topilmalar zamonaviy va kelajakdagi muammolarni hal qilish uchun Tarbiya jarayonini qayta ko'rib chiqish zaruratini ko'rsatadi.

Ushbu tadqiqot Tarbiya jarayonini har tomonlama tahlil qilish uchun sifatli va miqdoriy tadqiqot usullarini birlashtirgan aralash uslubdan foydalanadi. Birlamchi ma'lumotlar turli geografik va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlardagi o'qituvchilar, siyosatchilar va talabalar bilan so'rovnomalar va suhbatlar orqali to'plangan. Ikkilamchi ma'lumotlar esa UNESCO, Jahon banki va OECD kabi global hisobotlar, akademik jurnallar va statistik ma'lumotlar bazalaridan olingan.

Miqdoriy tahlil ta'lim tizimlari ichidagi tendentsiyalar va korrelyatsiyalarni aniqlash uchun regressiya tahlili va bashoratli modellashtirish kabi statistik vositalardan foydalanadi. Masalan, Xalqaro Talabalar Baholash Dasturi (PISA) ma'lumotlari ta'limga sarmoya kiritish va talabalar natijalari o'rtasidagi bog'liqlikni baholash uchun tahlil qilindi. Sun'iy intellekt va virtual realitet kabi yangi texnologiyalarning kelajakdagi ta'lim amaliyotiga ta'sirini bashorat qilish uchun mashina o'rganish algoritmlariga asoslangan bashoratli tahlillardan foydalanildi. Dastlabki natijalar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt asosidagi shaxsiylashtirilgan o'rganish platformalari 2030 yilga kelib o'rganish natijalarini 30% ga yaxshilashi mumkin.

Sifatli ma'lumotlar Tarbiya jarayonining falsafiy va madaniy o'lchovlarini o'rganish uchun tematik tahlil yordamida tahlil qilindi. Finlandiya va Singapur kabi yuqori natijalarga erishgan ta'lim tizimlariga ega mamlakatlarning holatlarini o'rganish orqali eng yaxshi amaliyotlar va innovatsion yondashuvlar aniqlangan. Bundan tashqari, ta'lim jarayonidagi qiyinchiliklar va imkoniyatlarni chuqurroq tushunish uchun o'qituvchilar va o'quvchilarning shaxsiy tajribalari haqida ma'lumot olish maqsadida fokus-guruh muhokamalari o'tkazildi.

NATIJALAR

OECD va Jahon banki ma'lumotlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ta'limga sarmoya kiritish va talabalar natijalari o'rtasida kuchli ijobiy bog'liqlik mavjud. YaIMining kamida 6% ini ta'limga ajratadigan mamlakatlar, masalan, Finlandiya va Janubiy Koreya, Xalqaro Talabalar Baholash Dasturi (PISA) bo'yicha doimiy ravishda eng yuqori natijalarni ko'rsatadi. Masalan, Finlandiyaning o'qituvchilarni tayyorlash va resurslarni adolatli taqsimlashga qaratilgan sarmoyasi natijasida o'rta maktabni tamomlash darajasi 95% ni tashkil etadi, bu global o'rtacha ko'rsatkichdan (69%) ancha yuqori. Bashoratli modellashtirish shuni ko'rsatadiki, past daromadli mamlakatlarda ta'limga sarflangan mablag'ni 1% ga oshirish qashshoqlik darajasini har yili 2,3% ga kamaytirishi mumkin.

Ta'limda texnologiyalarni joriy etish o'rganish natijalarini yaxshilashda katta potentsialga ega ekanligini ko'rsatdi. 2023 yilda HolonIQ tomonidan e'lon qilingan hisobotga ko'ra, global EdTech bozori 2023 yilda 227 milliard dollardan 2025 yilga kelib 404 milliard dollargacha o'sishi kutilmoqda, bu esa sun'iy intellekt asosidagi platformalar va virtual realitet vositalaridan foydalanish hisobiga amalga oshadi. Shaxsiylashtirilgan o'rganish uchun sun'iy intellektdan foydalangan holda o'tkazilgan dasturiy dasturlarning dastlabki ma'lumotlari talabalar saqlanib qolish darajasini 25% ga oshirganligini ko'rsatadi. Bashoratli tahlillarga ko'ra, 2030 yilga kelib dunyodagi ta'lim muassasalarining 70% talabalarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan o'rganish tajribasini taqdim etish uchun sun'iy intellekt asosidagi vositalardan foydalanadi.

Taraqqiyotga qaramay, jiddiy tafovutlar saqlanib qolmoqda. UNESCOning 2023 yilgi ma'lumotlariga ko'ra, 244 million bola va yoshlar maktabdan tashqarida qolmoqda, ularning 40% Sub-Sahara Afrikasiga to'g'ri keladi. Gender tengsizligi muammoni yanada kuchaytiradi, chunki dunyo bo'ylab 129 million qiz ta'lim olish imkoniyatidan mahrum. Statistik bashoratlar shuni ko'rsatadiki, agar hozirgi tendentsiyalar saqlanib qolsa, past daromadli mamlakatlarda universal boshlang'ich ta'limni amalga oshirish uchun 2060 yilgacha kutish kerak bo'ladi.

O'qituvchilar va siyosatchilar bilan suhbatlar Tarbiya jarayonida yaxlit yondashuvning ahamiyatini ta'kidlaydi, bu axloqiy, hissiy va ijtimoiy rivojlanishni akademik yutuqlar bilan birga olib borishni nazarda tutadi. Singapur holatlaridan ko'rinib turibdiki, xarakter ta'limi dasturlari o'tgan o'n yil ichida yoshlar orasidagi qonunbuzarlik darajasini 20% ga kamaytirishga yordam bergan. Fokus-guruh muhokamalarida ishtirok etganlar tez o'zgarib borayotgan dunyoga talabalarni tayyorlash uchun tanqidiy fikrlash, hamdardlik va madaniy ongni rivojlantirishga qaratilgan o'quv dasturlarining zarurligini ta'kidladilar.

Tarixiy va zamonaviy adabiyotlarning tematik tahlili ta'lim amaliyotlarini shakllantirishda madaniy va falsafiy tamoyillarning doimiy ahamiyatini ko'rsatadi. Masalan, Yangi Zelandiya kabi mamlakatlarda mahalliy bilim tizimlarini integratsiyalash Maori talabalarining ta'lim natijalarini yaxshiladi, 2018 yildan beri ularning bitiruvchilik darajasi 15% ga oshdi. Xuddi shunday, Skandinaviya mamlakatlarida hayot davomida o'rganishga qaratilgan yondashuv kattalar ta'limi dasturlarida ishtirok etish darajasini global o'rtacha ko'rsatkichdan 30% yuqori ko'rsatishga olib keldi.

COVID-19 pandemiyasi global ta'lim tizimlaridagi zaifliklarni ochib berdi, 1,6 milliard o'quvchi maktab yopilishidan zarar ko'rdi. Biroq, bu innovatsiyalarni jadallashtirdi, mamlakatlarning 90% masofadan o'rganish yechimlarini qabul qildi. O'qituvchilar raqamli tengsizlik kabi qiyinchiliklar saqlanib qolganiga qaramay, pandemiya ta'limni qayta ko'rib chiqish uchun imkoniyatlar yaratganini ta'kidladilar. Bashoratli tahlillar shuni ko'rsatadiki, shaxsiy va onlayn o'qitishni birlashtirgan gibrid o'rganish modellari 2030 yilga kelib 60% ta'lim muassasalari tomonidan qabul qilinadi.

Mashina o'rganish algoritmlaridan foydalangan holda, tadqiqot sun'iy intellekt va mashina o'rganishdagi yutuqlar Tarbiya jarayonini tubdan o'zgartirishini, real vaqtda baholash va moslashuvchan o'rganish yo'llarini taqdim etishini bashorat qiladi. 2035 yilga kelib ta'lim kontentining

80% raqamli platformalar orqali yetkazilishi kutilmoqda, bu xarajatlarni kamaytiradi va kirish imkoniyatini oshiradi. Bundan tashqari, global savodxonlik darajasi 2023 yildagi 87% dan 2030 yilga kelib 92% ga ko‘tarilishi kutilmoqda, bu esa kam ta’minlangan hududlarda amalga oshirilgan maqsadli chora-tadbirlar hisobiga amalga oshadi.

MUHOKAMA

Ta’limga sarmoya kiritish va talabalar natijalari o‘rtasidagi kuchli bog‘liqlik ta’limga doimiy moliyaviy sarmoya kiritishning ahamiyatini ta’kidlaydi. Finlandiya va Janubiy Koreya kabi mamlakatlar, YaIMining katta qismini ta’limga ajratadi va bu mamlakatlar o‘qituvchilarni tayyorlash, infratuzilma va resurslarni adolatli taqsimlashga qaratilgan strategik sarmoyalar ajoyib natijalarga olib kelishini ko‘rsatadi. Masalan, Finlandiyaning yaxlit rivojlanishga qaratilgan siyosati natijasida o‘rta maktabni tamomlash darajasi 95% ni tashkil etadi, bu global o‘rtacha ko‘rsatkichdan (69%) ancha yuqori. Bu inson kapitali nazariyasi bilan mos keladi, bu nazariya ta’limni iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy taraqqiyotning asosiy omili sifatida ko‘rsatadi. Bashoratli modellashtirish shuni ko‘rsatadiki, past daromadli mamlakatlarda ta’limga sarflangan mablag‘ni 1% ga oshirish qashshoqlik darajasini har yili 2,3% ga kamaytirishi mumkin, bu esa maqsadli sarmoyalarning o‘zgartiruvchi potentsialini ko‘rsatadi.

Biroq, ta’limdagi global tafovutlar, ayniqsa Sub-Sahara Afrikasi va chetlashtirilgan guruhlar orasida, hozirgi yondashuvlarning cheklovlarini ochib beradi. UNESCOning 2023 yilgi ma’lumotlariga ko‘ra, 244 million bola va yoshlar maktabdan tashqarida qolmoqda, gender tengsizligi esa bu muammoni yanada kuchaytiradi. Bu muammolarni hal qilish uchun nafaqat moliyalashtirishni oshirish, balki qamrovchanlik va kirish imkoniyatini ustuvor qo‘yadigan innovatsion siyosatlar ham zarur. Masalan, qishloq joylarda jamiyat asosidagi ta’lim modellarini qo‘llash istiqbolli natijalarni ko‘rsatdi, Afg‘onistonda o‘tkazilgan dasturiy dasturlar qizlarning maktabga qabul qilinish darajasini so‘nggi besh yil ichida 20% ga oshirdi.

Ta’limda texnologiyalarni joriy etish Tarbiya jarayonida paradigma o‘zgarishini anglatadi, bu shaxsiylashtirilgan va moslashuvchan o‘rganish uchun benzeri ko‘rilmagan imkoniyatlar yaratadi. EdTech bozorining tez o‘sishi, 2025 yilga kelib 404 milliard dollarga yetishi kutilmoqda, bu ta’lim natijalarini yaxshilash uchun raqamli vositalarga tobora ko‘proq tayanilishini ko‘rsatadi. Masalan, sun’iy intellekt asosidagi platformalar talabalar saqlanib qolish darajasini 25% ga oshirganligini ko‘rsatdi, bu esa ularning turli xil o‘rganish ehtiyojlarini qondirish imkoniyatini ko‘rsatadi. Bashoratli tahlillarga ko‘ra, 2030 yilga kelib dunyodagi ta’lim muassasalarining 70% sun’iy intellekt asosidagi vositalardan foydalanadi, bu an’anaviy o‘qitish usullarini tubdan o‘zgartirishi kutilmoqda.

Biroq, raqamli tafovut, ayniqsa past daromadli mamlakatlarda, jiddiy to‘siq bo‘lib qolmoqda. Xalqaro Telekommunikatsiya Ittifoqi (ITU) ma’lumotlariga ko‘ra, eng kam rivojlangan mamlakatlarda uy xo‘jaliklarining atigi 34% internetga kirish imkoniyatiga ega, rivojlangan mamlakatlarda esa bu ko‘rsatkich 87% ni tashkil etadi. Bu tafovutni bartaraf etish uchun raqamli infratuzilmani kengaytirish va qulay ulanish imkoniyatlarini ta’minlash bo‘yicha sa’y-harakatlar talab etiladi. Shaxsiy va onlayn o‘qitishni birlashtirgan gibrid o‘rganish modellari 2030 yilga kelib 60% ta’lim muassasalari tomonidan qabul qilinishi kutilmoqda.

Ushbu tadqiqotning sifatli tahlillari ta’lim amaliyotlarini shakllantirishda madaniy va falsafiy tamoyillarning doimiy ahamiyatini ta’kidlaydi. Yangi Zelandiyada mahalliy bilim tizimlarini integratsiyalash Maori talabalarining ta’lim natijalarini yaxshiladi, 2018 yildan beri ularning bitiruvchilik darajasi 15% ga oshdi. Xuddi shunday, Skandinaviya mamlakatlarida hayot davomida o‘rganishga qaratilgan yondashuv kattalar ta’limi dasturlarida ishtirok etish darajasini global o‘rtacha ko‘rsatkichdan 30% yuqori ko‘rsatishga olib keldi. Bu topilmalar konstruktivizm nazariyasi bilan mos keladi, bu nazariya bilim olishda kontekst va tajribaning ahamiyatini ta’kidlaydi.

COVID-19 pandemiyasi chidamli va moslashuvchan ta'lim tizimlarining zarurligini yanada ta'kidladi. Inqiroz 1,6 milliard o'quvchining ta'limini to'xtatdi, biroq bu innovatsiyalarni jadallashtirdi, mamlakatlarning 90% masofadan o'rganish yechimlarini qabul qildi. O'qituvchilar gibrid o'rganish modellari nafaqat dolzarb muammolarni hal qiladi, balki yanada moslashuvchan va qamrovchan ta'lim uchun imkoniyatlar yaratishini ta'kidladilar. Bashoratli tahlillarga ko'ra, 2035 yilga kelib ta'lim kontentining 80% raqamli platformalar orqali yetkazilishi kutilmoqda, bu xarajatlarni kamaytiradi va kirish imkoniyatini oshiradi.

Ushbu tadqiqotda amalga oshirilgan bashoratli tahlillar Tarbiya jarayonining kelajakdagi yo'nalishi haqida qimmatli tahlillarni taklif etadi. 2035 yilga kelib sun'iy intellekt va mashina o'rganishdagi yutuqlar real vaqtda baholash va moslashuvchan o'rganish yo'llarini taqdim etish imkonini beradi, bu esa ta'lim landshaftini tubdan o'zgartirishi kutilmoqda. Global savodxonlik darajasi 2023 yildagi 87% dan 2030 yilga kelib 92% ga ko'tarilishi kutilmoqda, bu esa kam ta'minlangan hududlarda amalga oshirilgan maqsadli chora-tadbirlar hisobiga amalga oshadi. Biroq, bu natijalarga erishish uchun hukumatlar, o'qituvchilar va texnologiya provayderlarini o'z ichiga olgan hamkorlik yondashuvi talab etiladi.

XULOSA

Tarbiya jarayoni bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot uning ko'p qirrali tabiatini chuqur o'rganib, shaxslar va jamiyatlarni shakllantirishdagi muhim rolini ta'kidladi. Miqdoriy tahlil, sifatli tahlillar va bashoratli modellashtirish usullarini qo'llash orqali tadqiqot ta'limning o'zgartiruvchi potentsialini ochib berdi, shu bilan birga uning samaradorligi va qamrovchanligini ta'minlash uchun hal qilinishi kerak bo'lgan muammolarni ham ko'rsatib berdi.

Tadqiqot natijalari ta'limga doimiy sarmoya kiritishning ahamiyatini ta'kidlaydi, YaIMining kamida 6% ini ta'limga ajratadigan mamlakatlar talabalar natijalari va iqtisodiy o'sish bo'yicha sezilarli yuqori natijalarga erishadi. Biroq, past daromadli mintaqalar va chetlashtirilgan guruhlar orasidagi doimiy global tafovutlar innovatsion va qamrovchan siyosatlar zarurligini ko'rsatadi. Sun'iy intellekt asosidagi platformalar va gibrid o'rganish modellari kabi texnologiyalarni joriy etish kirish imkoniyatini yaxshilash va o'rganish tajribasini shaxsiylashtirish uchun istiqbolli yechimlarni taklif etadi. Bashoratli tahlillarga ko'ra, 2035 yilga kelib ta'lim kontentining 80% raqamli platformalar orqali yetkazilishi kutilmoqda, bu an'anaviy o'qitish usullarini tubdan o'zgartirib, dunyo bo'ylab o'quvchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Ta'limning madaniy va falsafiy o'lchovlari ham yaxlit rivojlanishni rag'batlantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ldi. Mahalliy bilim tizimlarini integratsiyalash va hayot davomida o'rganishga urg'u berish ta'lim amaliyotlarida kontekst va moslashuvchanlikning ahamiyatini ko'rsatadi. Bu tahlillar Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (SDG) ga erishish, ayniqsa qashshoqlikni kamaytirish, gender tengligini targ'ib qilish va hamma uchun sifatli ta'limni ta'minlash kabi kengroq maqsadlar bilan mos keladi.

Xulosa qilib aytganda, Tarbiya jarayoni nafaqat bilim uzatish jarayoni emas, balki shaxslarni kuchaytirish va jamiyat taraqqiyotini rag'batlantirishning kuchli vositasidir. Uning to'liq potentsialini amalga oshirish uchun manfaatdor tomonlar ta'limga adolatli kirishni ustuvor qilishi, texnologik yutuqlardan foydalanishi va madaniy xilma-xillikni hurmat qilishi kerak. Shu bilan ta'lim 21-asr va undan keyingi davrlar uchun chidamli, qamrovchan va barqaror jamiyatlarni qurishning asosiy tayanchiga aylanishi mumkin. Ushbu tadqiqot natijalari hukumatlar, o'qituvchilar va texnologiya provayderlarini yaqin hamkorlikka va darhol chora ko'rishga chaqiradi, ta'limning o'zgartiruvchi kuchi hamma uchun, hech kim ortda qolmasligini ta'minlash uchun.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. l-G'azzoliy, A. H. (2005). Diniy ilmlarning tiklanishi. Islomiy matnlar jamiyati.
2. Dyui, J. (1916). Demokratiya va ta'lim. Makmillan.
3. Freire, P. (1970). Mazlumlar pedagogikasi. Davomiylik.
4. HolonIQ. (2023). Global EdTech bozori hisoboti 2023. https://www.holoniq.com saytidan olindi
5. Xalqaro elektraloqa ittifoqi (XEI). (2023). Global internetga kirish statistikasi 2023. https://www.itu.int saytidan olindi
6. OECD. (2023). Bir qarashda ta'lim 2023: OECD ko'rsatkichlari. OECD nashriyoti. https://doi.org/10.1787/19991487
7. PISA. (2022). Xalqaro talabalarni baholash natijalari dasturi 2022. OECD nashriyoti. https://doi.org/10.1787/19963777
8. YUNESKO. (2022). Global ta'lim monitoringi hisoboti 2022. YUNESKO nashriyoti. https://doi.org/10.54676/UNESCO.2022.GEM
9. YUNESKO. (2023). Hamma uchun ta’lim: Global monitoring hisoboti 2023. https://en.unesco.org/gem-report saytidan olindi
10. UNICEF. (2023). COVID-19 va ta'lim: global inqiroz. https://www.unicef.org/covid-19-education dan olindi
11. Jahon banki. (2022). Jahon taraqqiyot hisoboti 2022: Ta'lim va'dasini amalga oshirishni o'rganish. Jahon banki. https://doi.org/10.1596/978-1-4648-1096-1
12. Jahon iqtisodiy forumi. (2023). Ishlar kelajagi hisoboti 2023. https://www.weforum.org/reports/the-future-of-jobs-report-2023 dan olindi

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILAR KONFLIKTOLOGIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI

ЭФФЕКТИВНОСТЬ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕХАНИЗМОВ РАЗВИТИЯ КОНФЛИКТОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

EFFECTIVENESS OF IMPROVING MECHANISMS FOR DEVELOPING CONFLICT CULTURE OF FUTURE TEACHERS.

Jamoldinova Sayyora Nodirbek qizi
ChDPU pedagogika fakulteti “Pedagogika” kafedrasi o’qituvchisi
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0006-4669-0483

ANNOTATSIYA

O‘qituvchilik kasbi ta’lim sohasida muhim o‘rin tutadi, chunki o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki talabalarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Shunday qilib, o‘qituvchilarning konfliktsiz muloqot va samarali muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish, jamiyatning ta’lim tizimi uchun muhim ahamiyatga ega. Konfliktologik madaniyat — bu individual yoki guruhlar o‘rtasidagi nizolarni hal qilish, ularga qarshi kurashish, konstruktiv muloqotda bo‘lish va ijtimoiy harmoniya yaratish qobiliyatidir. Bo‘lajak o‘qituvchilarning konfliktologik madaniyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish jarayoni, o‘qituvchilarni jamiyatda talab qilinadigan ijtimoiy va professional ko‘nikmalar bilan ta'minlaydi. Bunday mexanizmlar o‘qituvchilarning pedagogik samaradorligini oshiradi, o‘quvchilarning psixologik salomatligini yaxshilaydi va ta'lim jarayonida umumiy ijtimoiy muhitni yaxshilashga olib keladi.

Kalit so‘zlar: Konfliktologik madaniyat, o’qituvchining ro’li, konfliktlarni hal qilish, samaradorlik, individual, professional ko’nikmalar, mexanizm, pedagogik samaradorlik, konfliktsiz muloqot, muloqot, samarali muammolar, psixologik salomatlik.

АННОТАЦИЯ

Профессия учителя занимает важное место в сфере образования, поскольку учитель является не только носителем знаний, но и оказывает большое влияние на личностное и социальное развитие учащихся. Таким образом, развитие у учителей навыков бесконфликтного общения и эффективного решения проблем имеет важное значение для образовательной системы общества. Культура конфликта – это способность разрешать конфликты между отдельными людьми или группами, бороться с ними, участвовать в конструктивном общении и создавать социальную гармонию. Процесс совершенствования механизмов развития конфликтологической культуры будущих учителей обеспечивает педагогов социальными и профессиональными навыками, необходимыми в обществе. Такие механизмы повышают педагогическую эффективность учителей, улучшают психологическое здоровье учащихся, улучшают общую социальную среду в ходе образовательного процесса.

Ключевые слова: Конфликтологическая культура, роль учителя, разрешение конфликтов, эффективность, личность, профессиональные навыки, механизм, педагогическая эффективность, бесконфликтное общение, общение, эффективные проблемы, психологическое здоровье.

ABSTRACT

The teaching profession plays an important role in the field of education, because the teacher is not only a provider of knowledge, but also has a great impact on the personal and social development of students. Thus, the development of teachers' skills in conflict-free communication and effective problem-solving is of great importance for the education system of society. Conflictological culture is the ability to resolve conflicts between individuals or groups, to combat them, to engage in constructive dialogue and to create social harmony. The process of improving the mechanisms for developing the conflictological culture of future teachers provides teachers with the social and professional skills required in society. Such mechanisms increase the pedagogical effectiveness of teachers, improve the psychological health of students, and lead to an improvement in the general social environment in the educational process.

Keywords: Conflictological culture, the role of the teacher, conflict resolution, effectiveness, individual, professional skills, mechanism, pedagogical effectiveness, conflict-free communication, communication, effective problems, psychological health.

KIRISH

Bo‘lajak o‘qituvchilar konfliktologik madaniyatini rivojlantirish mehanizmlarini takomillashtirish tajriba-sinov ishlari to‘rt bosqichda bo‘lib o‘tdi:

birinchi bosqich-pedagogik va sotsiologik psixologik adabiyotlarni tahlil qilish, ilmiy apparat va tadqiqot bazasini aniqlash;

ikkinchi bosqich-tekshirilayotgan bo‘lajak o‘qituvchilar guruhi ishtirokchilarining so‘rovi va yozma test natijalari diagnostikasi;

uchinchi bosqich-tekshirilayotgan guruhda bo‘lajak o‘qituvchilarning konfliktologik madaniyatini samarali rivojlantirish bo‘yicha taklif qilingan chora-tadbirlar majmuasi asosida shakllantiruvchi trening;

to‘rtinchi bosqich-tekshirilayotgan guruh ishtirokchilarining takroriy diagnostikasini amalga oshirish va tadbirlar majmuasini o‘tkazish, tajriba-sinov va nazorat guruhlari talabalari faoliyati samaradorligini tahliliy baholash.

Konfliktologik madaniyatning rivojlanishiga tashxis qo‘yish uchun biz Ye.I.Kirshbaum tomonidan ishlab chiqilgan mezon va ko‘rsatkichlarni asos qilib oldik va bo‘lajak o‘qituvchilarning konfliktologik madaniyatining quyidagi tarkibiy qismlarini ta’kidlab, ularni tadqiqotimizga moslashtirdik:

1-ratsional: konfliktning psixologik-pedagogik tabiati, uning tuzilishi va dinamikasi, turlari, mumkin bo‘lgan sabablari va samarali hal qilish usullari to‘g‘risida nazariy bilimlar miqdori;

2-hissiy: vaziyatdagi odamning hissiy holati konfliktdagi o‘zaro ta’sir;

3-xulq-atvor: amaliy ko‘nikma va qobiliyatlar tizimining mavjudligi konfliktlarning oldini olish va konstruktiv hal qilish.

Konfliktologik madaniyatning rivojlanish darajalarining batafsil tavsifi 1-jadvalda keltirilgan.

1 - jadval

Konfliktologik madaniyatning shakllanish darajalari

daraja-lar	**Konfliktologik madaniyatning komponentlari**		
	Ratsional komponent	**Hissiy-emotsional komponent**	**Xulq-atvor komponenti**
Yuqori daraja	Konfliktning tabiati haqidagi bilimlar tizimiga egalik. Konflikt uning dinamikasi, turlari va samarali yechimning konstruktiv usullarini qo‘llay oladi, konfliktlarsiz mavjudlikning imkonsizligini tushunadi. Konfliktni hal qilishning maqbul usulini topa oladi.	Empatiya rivojlanadi, ijobiy hissiyotga qaratilgan aloqani o‘rnatish qobiliyatiga ega. Raqibni hurmat qiladi. Konfliktlarni konstruktiv hal qilishda ijobiy his-tuyg‘ularni boshdan kechiradi. U o‘ziga egalik qiladi, hamkorlikka qaratilgan, bag‘rikenglik, shaxsiyat, do‘stlik kabi fazilatlarga ega.	Mavjud bilimlarni quyidagilarda qo‘llaydi. Konfliktlarning oldini olish va muvaffaqiyatli hal qilish. Konstruktiv yechimlarni izlashda faol. Xamkorlik muxitini yaratadi va saqlaydi, hamkorlikni, aks yettiruvchi raqibning munosabati va hissiyotlariga ega. Yechimni birgalikda izlashga yo‘naltirilgan. Konfliktarni muvaffaqiyatli hal qiladi va ularning oqibatlarini tahlil qiladi. Vaziyatdagi o‘zgarishlarga moslashuvchan munosabat bildiradi. Konfliktda u hamkorlik yoki murosa xatti-harakatlari strategiyasini qo‘llashga qaratilgan.
O‘rta daraja	U konflikt haqida ba’zi nazariy bilimlarga ega, ammo bu rasmiy xarakterga ega. Konfliktning tabiati, uning turlari, konfliktning mohiyati, uning kelib chiqish sabablari va yechimlarni ishlab chiqish usullari haqidagi mavjud bilimlarni amalda qo‘llamaydi. ziddiyatli vaziyatda betaraflikni kuzatish afzalroq deb qaraydi	Konfliktlarning o‘zaro ta’siri ruhiy zo‘riqish va raqibga nisbatan tajovuzkorlik holati bilan birga keladi. Konfliktli vaziyatni adekvat qabul qiladi, u lekin to‘siqsiz bo‘lishi mumkin Qo‘rquv va o‘ziga shubha har qanday holatda ham konfliktdan chiqish istagini keltirib chiqaradi.	Bu qo‘shma qidiruvga qaratilgan muammoni hal qilishi mumkin, lekin har doim ham nizolarni konstruktiv boshqarish uchun dalillarga ega emas. Konfliktda u tanqidiy bo‘lishi va raqibini masxara qilishi mumkin. O‘z harakatlarini aks ettirish qobiliyati kam rivojlangan. U konflikt orbitasiga boshqa odamlarni jalb qilishga harakat qiladi.Belgilangan xulq-atvor normalarini passiv qabul qiladi. Konfliktda to‘plangan tajribadan foydalanmaydi.
Past daraja	Konflikt haqida va unda qanday munosabatda	Hissiy holat nazorat qilinmaydi. Raqibga nisbatan	Konflikt ko‘lamini farqlamaydi. O‘zaro munosabatlarning bir

	bo‘lish haqida yetarli bilimga ega emas, Uning uchun ziddiyat-bu begonalashish va munosabatlarning uzilishiga olib keladigan janjal.	nafrat yoki istehzoli munosabatga ega. Raqibga hamdardlik yo‘q. Bu konflikt ishtirokchilarining psixologik va yosh xususiyatlarini hisobga olmaydi. Qo‘rquv va o‘ziga ishonchsizlik psixologik noqulaylik tuyg‘usini keltirib chiqaradi	sohasida yuzaga kelgan konfliktni boshqalarga o‘tkazadi. Psixologik jihatdan sherikni bostiradi, uning maqomini pasaytiradi. Tanlash, rad etish ichki ishonch bilan bilan bog‘liq xavfdan qochadi. Raqibning shartlarini so‘zsiz qabul qiladi.

ADABIYOTLAR.

Biz ushbu tadqiqot ishimizda quyidagi adabiyotlar tahlilidan foydalandik. Anketa E.E.Efimova tomonidan taklif qilingan anketa asosida ishlab chiqilgan E.E.Efimova [2].

I.M.Yusupov Empatiya (hamdardlik)ni o‘zingizni boshqa odamning o‘rniga qo‘yish qobiliyati, boshqa odamlarning xavotirlanishi, kayfiyatsizligiga nisbatan hissiy javob berish qobiliyati deb izoxlaydi.

“Tomas testi” metodikasi (N.V.Grishina tomonidan moslashtirilgan) usuli qo‘llanildi [3].

K.Tomas va R. Kilmennning fikriga ko‘ra, odam ushbu uslubni qarama-qarshi o‘zaro munosabatlarning maqsadi o‘z manfaatlarini qarshi tomonning manfaatlariga ziyon etkazadigan holatlarda ishlatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Ushbu tadqiqotning maqsad va vazifalariga muvofiq quyidagi usullar tanlandi:

1-Usul. 20 ta ochiq savoldan iborat so‘rovnoma, uning maqsadi bo‘lajak o‘qituvchilarning konfliktologiya sohasidagi xabardorlik darajasini aniqlashdir. Ushbu anketa Ye.E.Yefimova tomonidan taklif qilingan anketa asosida ishlab chiqilgan.

“Shaxsning hamdardlik (empatiya) salohiyatini sinash” (I. M. Yusupov tomonidan taklif qilingan metodika asosida) metodi. Tashxis yopiq javob berish ko‘rinishida oo‘zaki test shaklida amalga oshiriladi. Respondent 36 ta savolning har biriga javob berishi, javoblarga quyidagi raqamlarni kiritishi kerak: “Bilmayman” – 0, “yo‘q, hech qachon” – 1, “ba'zan” – 2, “tez – tez” - 3, “deyarli har doim” -4, “ha, har doim” - 5. Barcha fikrlarga javob berish kerak.

Amerikalik ijtimoiy psixolog K.N.Tomas tomonidan N.V.Grishinaning moslashtirilgan usuli yordamida ziddiyatli vaziyatlarga javob berishning odatiy usullari aniqlanadi. Bu Konflikt ishtirokchilarining o‘z manfaatlariga va raqib manfaatlariga yo‘naltirilishiga asoslanadi.

Ushbu texnikada ikkita asosiy o‘lchovga muvofiq belgilangan nizolarni tartibga solishning beshta usuli mavjud (hamkorlik va qat'iyatlilik). Mumkin bo‘lgan beshta variantning har biri ziddiyatli vaziyatda shaxsning xatti-harakati to‘g‘risida 12 ta hukm bilan birga keladi.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Ushbu tadqiqotning maqsad va vazifalariga muvofiq quyidagi usullar tanlandi:

1-Usul. 20 ta ochiq savoldan iborat so‘rovnoma, uning maqsadi bo‘lajak o‘qituvchilarning konfliktologiya sohasidagi xabardorlik darajasini aniqlashdir. Ushbu anketa Ye.E.Yefimova tomonidan taklif qilingan anketa asosida ishlab chiqilgan Ye.E.Yefimova [1].Ba’zi savollarga javoblar natijalari quyidagicha:

1. Konflikt nima?

- Respondentlarning 8 (73%) janjal, ziddiyat, kelishmovchilik, deb javob berdi; (18%) bo‘lajak o‘qituvchilar anglashilmovchilik, tajovuz deb javob berdi; (9%) o‘qituvchi –stress, noqulay vaziyat deb javob berdi.

2. Siz uchun ziddiyatli odam kim

Respondentlarning 6 (55%) bu tajovuzkor, hissiyotga beriluvchi;

4 (36%) o‘qituvchilar xech kimga yon bosmaydigan, odamlarni tushunmaydigan odam; 1 (9%) – xatolarini tan olmaydiganb munosabat urnatib bulmaydigan odam deb javob berishdi.

3. Konfliktni boshqarish mumkinmi?

- Respondentlarning 7 (64%) bu savolga javob berishga qiynalishdi;

3 (27% – tasdiqlovchi-ijobiy javob berdi; 1 (9%) kishi-salbiy javob berdi.

4. Konstruktiv konflikt nima?

- 1 (9%) kishi bu savolga javob bera oldi,qolgan 9 (82%) umuman javob bermadi yoki noto‘g‘ri javob berdi.

55. Oxirgi konfliktngizni tasvirlab bering va u qanday hal qilindi?

Bu savolga respondentlarning umumiy sonidan atigi 5 (45%) javob berdi.

Anketa natijalarini tahlil qilish bo‘lajak o‘qituvchilarning konflikt haqida noaniq xabardorligini ko‘rsatdi. Ular odatda taklif qilingan savollarga nisbiy javoblar bilan cheklanishdi. Ko‘pgina fikrlar javobsiz qoldi, masalan: konfliktlar dinamikasining asosiy bosqichlari, “Shaxslararo ziddiyat”, “Konstruktiv konflikt” tushunchalarini aniqlash kabilar.

Bundan tashqari, aksariyat bo‘lajak o‘qituvchilar nizolar turidagi farqlarni ko‘rmaydilar, ularni faqat pedagogik jarayonning istalmagan hodisasi sifatida ko‘rishadi. Haqiqiy bilim yetishmasligi pedagog ishidagi yeng muhim masalalar – konfliktlarni bashorat qilish va oldini olish, konfliktlarni hal qilish bo‘yicha amaliy ko‘nikma va malakalar kuzatildi, rivojlanish uchun asos bo‘lgan texnologiyalar qo‘llanildi.

“Shaxsning hamdardlik (empatiya) salohiyatini sinash” (I.M.Yusupov tomonidan taklif qilingan metodika asosida) metodi qo‘llanildi. I.M.Yusupov Empatiya (hamdardlik)ni o‘zingizni boshqa odamning o‘rniga qo‘yish qobiliyati, boshqa odamlarning xavotirlanishi, kayfiyatsizligiga nisbatan hissiy javob berish qobiliyati deb izoxlaydi.

“Tomas testi” metodikasi (N.V.Grishina tomonidan moslashtirilgan) usuli qo‘llanildi [135]. Amerikalik ijtimoiy psixolog K.N.Tomas tomonidan N.V.Grishinaning moslashtirilgan usuli yordamida ziddiyatli vaziyatlarga javob berishning odatiy usullari aniqlanadi. Bu Konflikt ishtirokchilarining o‘z manfaatlariga va raqib manfaatlariga yo‘naltirilishiga asoslanadi [135].

Ushbu texnikada ikkita asosiy o‘lchovga muvofiq belgilangan nizolarni tartibga solishning beshta usuli mavjud (hamkorlik va qat'iyatlilik). Mumkin bo‘lgan beshta variantning har biri ziddiyatli vaziyatda shaxsning xatti-harakati to‘g‘risida 12 ta hukm bilan birga keladi. Turli xil kombinatsiyalarda ular 30 juftga birlashtirilgan bo‘lib, ularning har birida respondent o‘z xatti-harakatlarini tavsiflash uchun eng tipik bo‘lgan hukmni tanlashga da'vat etiladi.

Har qanday strategiyaning aniq ustunligi yoki yo‘qligi ularning nomutanosibligidan dalolat beradi.

“Ziddiyatli vaziyatlarda o‘zini tutish strategiyasi” metodologiyasi bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazildi. “Ziddiyatli vaziyatlarda o‘zini tutish strategiyasi” metodologiyasi. N.V.Grishina tomonidan moslashtirilgan K.U.Tomas texnikasidan foydalangan holda konfliktda shaxsning beshta mumkin

bo‘lgan xatti-harakatlarini tasvirlaydi, vaziyatlar nizoga javob berishning odatiy usullari bilan belgilanadi[21].

Respondentning qancha raqobatlashishga moyil ekanligini aniqlashingiz mumkin va guruhda, jamoada, murosaga qadar, Konfliktlardan qochish yoki aksincha, ularni kuchaytirishga harakat qilish.

Ushbu uslub shuningdek har bir guruh a'zosining birgalikdagi faoliyatga moslashish darajasini baholashga imkon beradi [87].

Shaxsning har bir shkala bo‘yicha yiqqan ballari Konfliktli vaziyatlarda o‘ning xulq-atvor strategiyasida qay biri yuqori ekanligini aniqlash imkonini beradi.

Ifodalash darajasi	Ballar soni
Past	0-3
O‘rta	4-8
Yuqori	9-12

Hamkorlik. Ushbu strategiyadan so‘ng, Konfliktni hal qilishda va ularning manfaatlarini himoya qilishda, shu bilan birga, boshqa odam bilan hamkorlik qilishda kishi faol ishtirok etadi. Ushbu uslub boshqa yondashuvlar bilan solishtirganda ko‘p narsani va uzoq vaqt talab qiladi, chunki tomonlar birinchi navbatda ehtiyojlarni "Stolga qo‘yganlari uchun", har birining manfaatlari va qiziqishlarini ko‘rib chiqish, keyin ularni muhokama qilish kerak bo‘ladi. Bu uslub ayniqsa tomonlarning turli xil yashirin ehtiyojlari mavjud bo‘lganda samarali bo‘ladi. Bunday hollarda norozilik manbasini aniqlash qiyin. Avvaliga, ikkalasi ham bir xil narsani xohlayotganga o‘xshaydi yoki uzoq kelajak uchun qarama-qarshi maqsadlarga ega Konfliktning to‘g‘ridan-to‘g‘ri manbaini topish qiyin bo‘ladi. Biroq, farqlar mavjud tashqi deklaratsiyalar yoki nizo va uning ostidagi pozitsiyalar o‘rtasida ziddiyatli vaziyatning asl sabablari bo‘lib xizmat qiladigan manfaatlar yoki ehtiyojlar o‘rganilganda hammasi ravshan bo‘ladi [15, 28].

Konfliktni hal qilishda, agar umumiy murosasiz echimni topish kerak bo‘lsa, ushbu uslub qo‘llaniladi; boshqa tomon bilan uzoq muddatli, kuchli munosabatlarni saqlab turish; o‘zaro hamkorlikning maqsadi - birgalikdagi faoliyat tajribasini to‘plash; tomonlar bir-birlarining fikrlarini tinglashlari va hurmat qilishlari; mavzu bo‘yicha jamoaning birgalikdagi faoliyati va umumiy qarashlarni topish kerak bo‘ladi.

Raqobat. Raqobat uslubidan foydalanuvchi kishi juda faol va nizoni hal qilish uchun o‘z yo‘liga borishni afzal ko‘radi. U boshqa odamlar bilan ishlashga qiziqmaydi va ixtiyoriy qarorlarni qabul qilishga qodir. K.Tomas va R. Kilmennning fikriga ko‘ra, odam ushbu uslubni qarama-qarshi o‘zaro munosabatlarning maqsadi o‘z manfaatlarini qarshi tomonning manfaatlariga ziyon etkazadigan holatlarda ishlatadi.

Yarashish. Ushbu uslub o‘zaro imtiyozlar bilan ajralib turadi. o‘zaro kelishuv echimini ishlab chiqish. Natija:ikkala tomonning ehtiyojlarini qisman qondirish mavjud. Ushbu xulq-atvor uslubi ikkala tomon ham bir xil ishonarli dalillarga ega bo‘lsa va bir xil kuchga ega bo‘lsa ishlatiladi istakni qondirish Konflikt mavzusi uchun muhim emas; Konflikt ishtirokchilari hech bo‘lmaganda vaqtinchalik echim topishlari kerak chunki boshqasini ishlab chiqish imkoniyati yo‘q.

Moslashtirish deganda tomonlardan biri manfaatlaridan voz kechishni anglatadi, boshqa tomonning foydasiga, o‘z manfaatlariga to‘liq mos keladigan. K. Tomas va R.Kilmenn ushbu uslub natijaga

[21] Елисеев О. П. Практикум по психологии личности. СПб.: Питер, 2000. 560-b.

erishganda eng samarali bo‘lishiga ishonishadi. Ish bir tomon uchun o‘ta muhim, ikkinchi tomon uchun esa muhim emas.

Qochish Ushbu uslub insonning himoya qilmasligi haqiqatidadir sizning manfaatlaringiz; u boshqa tomon bilan ishlashga tayyor emas eng yaxshi qo‘shma echim va shuning uchun undan qochish Konfliktlarni hal qilishdan uzoqlashadi. K. Tomasning fikricha, Konfliktga yo‘l qo‘ymaslikda hech kim yo‘q tomonlar o‘z maqsadlariga erisha olmaydilar.

Qochish uslubi qarama-qarshilik manbai Konflikt mavzusiga aloqador bo‘lmagan hollarda qo‘llaniladi; tomonlardan biri tayyor emas muammoni o‘z foydasiga hal qilish; mavzu uchun vaqt kerak vaziyatni tahlil qilish va qaror qabul qilishdan oldin qo‘shimcha ma’lumot olish; Muammoni hal qilish xavfli, chunki Konfliktni ochiq muhokama qilish vaziyatni yomonlashtirishi mumkin; ishtirokchilar Konfliktni muvaffaqiyatli hal qilishlari mumkin; muammoni hal qilish qo‘shimcha muammolarga olib kelishi mumkin.

Har bir alohida javobga qarab diagnostika qilish to‘g`ri emas, muvofiq diagnostik jihatdan muhim bo‘lgan nuqtalarga sub'ektning javoblari umumiyligi uchun yempatiya vektorlari uchun ko‘rsatkichlar, shuningdek yempatiyaning umumiy darajasi aniqlanadi.

Javoblarni “ba’zan”, “tez-tez” va hokazo shaklida tanlash. sub'ektning har bir vaziyatga o‘z munosabatini bildirishini iloji boricha osonlashtirish istagi bilan belgilanadi.

Natijalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, 1da dominant xatti-harakatlar uslubi bo‘lajak o‘qituvchi (9%) – qochish; 1 respondentda (9%) – bu moslashuv; 4 o‘qituvchi (36%) – raqobat, 3 (27,3 %) o‘qituvchilar uchun dominant xulq – atvor uslubi hamkorlik bo‘lib chiqdi va 2 (18, 2%) - murosaga keladi.

XULOSA

Hamkorlik konfliktni hal qilishning eng samarali usulllaridan biri hisoblanadi. Biroq, har bir konfliktli vaziyatdagi xatti-harakatlar uslubi vaziyatga qarab turlicha samarali bo‘lishi mumkin. Ushbu uslubning muvaffaqiyatliligi ko‘plab omillar bilan bog‘liq bo‘lib, har bir shaxsning shaxsiy xulq-atvori va vaziyatga moslashuvchanlik darajasiga qarab o‘zgaradi. Konfliktli vaziyatda dominant xulq-atvor uslubini aniqlash uchun, tajribada o’tkazilgan usullarning biriga berilgan javoblar soni va ularning mosligi hisobga olinadi. Ushbu tadqiqot, bo‘lajak o‘qituvchilarning boshqaruv uslublarini tahlil qilishda shuni aniqladikki, boshqaruvning qat’iy va tartibli shaklini qo‘llashadi. **Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki:** konfliktlarni samarali hal qilishda hamkorlik samarali usul bo‘lishi mumkin, lekin har bir vaziyatda bu usulning samaradorligi aynan konfliktli vaziyat ishtirokchilari va ular qarorlarini qanday qabul qilishiga bog‘liq. Dominant xulq-atvor va boshqaruv uslublarini to‘g‘ri tanlash, har bir vaziyat uchun optimal yechimni topishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Ефимова, Е.Е. Формирование конфликтной компетентности будущего учителя / Е.Е. Ефимова. – СПб. : Алитейя, 2009. – 190 с.
2. Гришина, Н. В. Психология конфликта / Н. В. Гришина. – СПб. : Питер, 2010.
3. I.M.Yusupov “Empatiya (Hamdardlik)” Toshkent, 1997 yil.
4. Jamoldinova S.N., Musurmonov R, Jumanova F.U., Sharahmatova A.K. Pedagogik konfliktologiya elektron darslik/ O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirligi № DGU 20601. 19.12.2022.
5. Jamoldinova S.N., Konfliktli vaziyatlarda nizolashuvchan shaxs toifalari/“international research journal pedagogs” volume 6, issue 1, april 2022, 128-134 b
6. Jamoldinova, S. N. (2024).O’qituvchining konfliktologik tayyorgarligining kasbiy faoliyatidagi ahamiyati.TA’LIM VA TARAQQIYOT Ilmiy-uslubiy jurnal,1(6),44-50.
7. Jamoldinova, S. N. (2024). The role of the teacher’s professional competence in conflict situations. European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices, 2(11),15-18.

ZAMONAVIY DEMOKRATIK JAMIYATDA O'QITUVCHINING O'RNI VA VAZIFALARI

DUSTNAZAR OMONOVICH KHIMMATALIEV[1] , NILUFAR PARDA QIZI OMONOVA[2, *]

[1]Pedagogika fanlari doktori, Professor, Pedagogika fakulteti, Chirchiq Davlat Universiteti, Chirchiq, O'zbekistan, ORCID ID: https://orcid.org/0009-0006-2626-3345

[2]"Ta'lim muassasalari boshqaruvi" yo'nalishi magistri, Pedagogika fakulteti, Chirchiq Davlat Universiteti, Chirchiq, O'zbekistan,, ORCID ID: 0009-0004-3696-7608,

ANNOTATSIYA

Zamonaviy jamiyat pedagogik soha mutaxassislarini tayyorlash darajasiga yuqori talablarni qo'ymoqda. Mamlakat taraqqiyoti haqida so'z ketganida, avvalo, yosh avlod ta'lim-tarbiyasi masalasi muhim ahamiyatga ega. Aslida tarbiyaning asosida ta'lim yotadi, shu sabab bu so'z hamisha "tarbiya" jumlasidan oldinda keladi. Shunday ekan, o'qituvchi zimmasida tarbiyaga asos bo'luvchi ta'limni bera olish mas'uliyati birlamchi ahamiyatga ega**.** Davlatimiz rahbarining shaxsiy irodasi va tashabbusi bilan so'nggi yillarda bu kabi inson huquqlarini kamsituvchi ishlarga barham berildi. O'qituvchining maqomi va obro'sini ko'tarishga davlat siyosati darajasida qaralmoqda, ularning o'z kasbiy faoliyati bilan to'liq shug'ullanishlari uchun zarur sharoitlar yaratib berilmoqda. Yangi O'zbekiston sharoitida barcha sohalarda keng islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta'lim tizimidagi o'zgarishlar uchinchi Renessans davri poydevorini qurishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki mamlakatning porloq kelajagi aynan shu sohada erishilayotgan yutuqlar bilan chambarchas bog'liq. Dunyoning rivojlangan davlatlarida ta'limni rivojlantirish eng birinchi va eng muhim vazifa qilib belgilanishi bunga yaqqol misol bo'ladi. XXI asr zamonaviy axborot texnologiyalari jadal sur'atlar bilan rivojlanib borar ekan, hayotning barcha jabhalarida — sanoat, qurilish, kimyo, qishloq xo'jaligi, to'qimachilik kabi sohalarda yuksak taraqqiyotni yuzaga keltirish uchun ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish, bu borada yangiliklar yaratish hayotiy zaruratga aylandi. Bu jarayon endilikda dunyoda taraqqiyot yo'lini tutgan barcha mamlakatlarda e'tirof etilmoqda. Respublikamizda ham aynan shu jarayonga alohida e'tibor berilmoqda. Oliy ta'lim muassasasi tarkibida malakali mutaxassislarni shakllantirish jarayonini sifatli tashkil etish professor-o'qituvchilarning asosiy vazifasi hisoblanadi. Bo'lajak mutaxassislarni o'z mutaxassisligi bo'yicha ishlashga samarali tayyorlashni ta'minlash qulay o'quv muhitini yaratishga yordam beradigan professional standartlarni hisobga olgan holda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanmasdan mumkin emas.

Tarbiyaviy ish - bu shaxsni barkamol rivojlantirish muammolarini hal qilish uchun ta'lim muhitini tashkil etish va o'quvchilarning turli faoliyatini boshqarishga qaratilgan pedagogik faoliyat.

Kalit so'zlar: ta'lim, o'qituvchi, o'qitish, jamiyat, maktab.

Kirish

Qadim zamonlarda, mehnat taqsimoti bo'lmaganda, jamiyatning barcha a'zolari - kattalar va bolalar - oziq-ovqat olishda teng ravishda ishtirok etganlar, bu esa o'sha uzoq vaqtlarda mavjudlikning asosiy ma'nosini tashkil etgan. Oldingi avlodlarning to'plangan tajribasini bolalar yoshligidanoq mehnat faoliyatiga jalb qilingan holda, ovchilik, terimchilik, oziq-ovqat haqida bilimga ega bo'ldilar va turli ko'nikmalarni egalladilar. Ta'limotning ma'nosi vakillar tomonidan bajariladigan faoliyatda ma'lum bo'ladi, bu pedagogik deb ataladi. Bu insoniyat tomonidan to'plangan madaniyat va tajribani keksa

avloddan yosh avlodga o'tkazish, ularning shaxsiy rivojlanishi uchun sharoit yaratish va jamiyatlarda muayyan ijtimoiy rollarni bajarishga tayyorlashga qaratilgan alohida turdagi ijtimoiy faoliyatdir.

O'qitish - bu maktab o'quvchilarining asosan kognitiv faoliyatini boshqarishga qaratilgan mehribon ta'lim faoliyati.

O'qituvchining pozitsiyasi - bu dunyoga, pedagogik voqelikka va, xususan, pedagogik faoliyatga bo'lgan intellektual, irodali va hissiy jihatdan baholovchi munosabatlar tizimi.

Bugungi kunga qadar o'qituvchining kasbiy profilini shakllantirishda boy tajriba to'plangan, bu o'qituvchiga qo'yiladigan kasbiy talablarni uchta asosiy murakkab, o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi uchta asosiy kompleksga birlashtirishga imkon beradi:

1. umumiy fuqarolik fazilatlari;
2. o'qituvchilik kasbining o'ziga xos xususiyatlarini belgilovchi sifatlar;
3. fan (mutaxassislik) bo'yicha maxsus bilim va ko'nikmalar.

Adabiyotlar tahlili

O'qituvchi - bu nafaqat kasb, uning mohiyati bilimlarni etkazish, balki shaxsni yaratish, insonda insonni tasdiqlash kabi yuksak vazifadir. O’qituvchi faoliyatida mafkuraviy e’tiqod shaxsning boshqa barcha xossalari va xususiyatlarini belgilab beradi, uning ijtimoiy va axloqiy yo’nalishini, xususan, ijtimoiy ehtiyojlarini, axloqiy va qadriyat yo’nalishlarini ifodalaydi, jamoat burchi va fuqarolik mas’uliyatini his qiladi.

Y.A.Komenskiy o’qituvchi obrazini tasvirlar ekan, uning shaxsida quyidagi fazilatlar namoyon bo’lishi maqsadga muvofiqpigini ta’kidlaydi: vijdonli, ishchan, sabotli, axloqli, o’z ishini sevuvchi, o’quvchilarga mexr bilan muomala qiluvchi, ularda bilimga havas uyg’otuvchi, o’quvchilarni o’z ortidan ergashtiruvchi va diniy e’tiqodni shakllantiruvchi.

I.G.Pestalossi o’qituvchining kasbiy sifatlariga baho berish bilan birga, asosan, uning xalq ta’limi tarmog’ini takomillashtirishdagi roli hamda fan asoslarini egallashdagi ahamiyati va vazifalariga to’xtalib o’tadi.

A. Disterverg o’qituvchining ta’limdagi roliga yuqori baho berib, u o’z faoliyatini chuqur bilib, pedagogik mahoratini oshirib borishi o’quvchilarni qalbdan yoqtirishi natijasida yuzaga keladi deb uqtiradi. O’qituvchi bolalarning individual xususiyatlarini, qobiliyatini, faoliyatini mukammal bilishi uchun muayyan darajada psixologik bilimlarga ham ega bo’lishi kerakligini ta’kidlab o’tgan.

Zamonaviy o'qituvchi o'zi o'rgatgan fanning turli sohalarida, asoslarini chuqur bilishi, uning ijtimoiy-iqtisodiy, ishlab chiqarish va ijtimoiy muammolarni hal qilish imkoniyatlarini bilishi kerak. madaniy muammolar. Lekin buning o‘zi yetarli emas – o‘qitiladigan fanning uzoq va yaqin istiqbollarini ko‘rish uchun doimo yangi izlanishlar, kashfiyotlar va farazlar bilan yangilanib turish kerak.

• yuksak fuqarolik mas’uliyati va ijtimoiy faollik;
• bolalarga mehr-muhabbat, ularga o‘z qalbingni berish ehtiyoji va qobiliyati;
• haqiqiy aql-zakovat, ma’naviy madaniyat, boshqalar bilan hamkorlikda ishlash istagi va qobiliyati;
• yuqori professionallik, ilmiy-pedagogik tafakkurning innovatsion uslubi,
• yangi qadriyatlarni yaratish va ijodiy qarorlar qabul qilishga tayyorlik;
•doimiy ravishda o'z-o'zini tarbiyalash va bunga tayyor bo'lish zarurati;

Demak, o’qituvchidan nafaqat pedagogik mahoratni mukammal egallash talab etiladi, balki pedagogik amaliyotni to’gri va maqsadli tashkil qilish uchun chuqur ilmiy — nazariy ma’lumotlarga ham ega

bo'lish lozim. Buyuk rus adibi L.N.Tolstoy o'qituvchi fazilatining mukammalligini o'z mutaxassisligiga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishi bilan bir vaqtda bolalarga bo'lgan munosabatida, ularni xuddi o'z farzandlaridek jon-dilidan sevishida ekanligida ko'rgan. Ma'lumki, pedagogik mahorat tizimida o'qituvchining pedagogik odobi muhim mavqega ega. O'qituvchi pedagogik nazokasiz, kasb odobisiz yuksak cho'qqilar sari odimlay olmaydi.

Metodologiya

O'qituvchilik – inson jamiyati tarixi boshlangandan e'tiboran davom etib, shu bilan birga hamma vaqt jamiyat va jamoatchilik tomonidan e'tiborga loyiq e'zozlab kelingan kasbdir. O'tkir Hoshimov o'zining "daftar hoshiyasidagi bitiklar" asarida o'qituvchining jamiyatdagi o'rniga baho berib, quyidagi fikrlarni alohida ta'kidlab o'tadi: Dehqon nopob urug' sepsa, achchiq "hosili"ni bir o'zi "o'rib oladi" osha yili o'qituvchi bolaning qalbiga nobop urug' sepsa, achchiq "hosili"ni butun jamiyat o'rib oladi. Y.A.Komenskiy o'qituvchi obrazini tasvirlar ekan, uning shaxsida quyidagi fazilatlar namoyon bo'lishi maqsadga muvofiqpigini ta'kidlaydi: vijdonli, ishchan, sabotli, axloqli, o'z ishini sevuvchi, o'quvchilarga mehr bilan muomala qiluvchi, ularda bilimga havas uyg'otuvchi, o'quvchilarni o'z ortidan ergashtiruvchi va diniy e'tiqodni shakllantiruvchi. O'qituvchilik kasbining tarixiy taraqqiyoti tahlili o'qituvchining ham o'qitish, ham tarbiyalash faoliyati hamma davrlarda ham o'zaro aloqadorlikda ko'rib kelinganligi haqida fikr yuritish imkonin beradi. "O'qituvchi, –deydi al Forobiy, – aql-farosatga, chiroylik nutqqa ega bo'lishi va o'quvchilarga aytmoqchi bo'lgan fikrlarini to'la va aniq ifodalay olishni bilmog'i zarur." U o'z fikrini davom ettirib: "o'qituvchi va rahbarning vazifasi dono davlat rahbari vazifasiga o'xshaydi, shu sababli o'qituvchi eshitgan va ko'rganlarining barchasini eslab qolishi, aql-farosatga, chiroyli nutqqa ega bo'lishi, o'quvchilarga aytmoqchi bo'lgan fikrlarini to'la va aniq ifodalab berishni bilmog'i lozim. Shu bilan birga o'z or-nomusini qadrlashi, adolatli bo'lmog'i lozim. ana shundagina u insoniylikning yuksak darajasiga ega bo'ladi va baxt cho'qqisiga erishadi", – deb ta'kidlaydi. Umuman ta'lim sohasida mavjud yutuqlarga qaramasdan xalq ta'limida bir qator muammolar mavjud. Ayniqsa, hozirgi axborot asrida deyarli muntazam ravishda ijtimoiy tarmoqlarda maktablardagi ta'lim muammolari haqida xabarlar yoki materiallarni uchratish mumkin. Ular orasida vaqtinchalik tusga ega (masofaviy ta'limga o'tish, qonunchilikdagi o'zgarishlar) hamda tizimli (jamiyatda o'qituvchilarga munosabat, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar) muammolar mavjud. Ta'lim muassasalarida ta'limning barcha ishtirokchilari bilan shaffof muloqot muhitini yaratish, o'qituvchi imijini yuksaltirish, tizimdagi markazlashgan boshqaruv usulidan voz kechish, adolatli va sifatli ish mexanizmini yo'lga qo'yish lozimdir. Jamiyatimizda o'qituvchi kasbining mavqeini oshirish, ustozlik kasbiga nisbatan ijobiy qarashni shakllantirish kerak. Ta'lim tizimining uch tamoyili kafolatlangan natija asosidir. Bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlar ta'limni boshqarish tizimiga muhim talablar qo'yadi. Islohotlarni, o'zgarishlarni boshqarish uchun jamoada qabul qilingan tamoyillarni aniqlash zarur. Bular:

Birinchi tamoyil – sifat. Endilikda qilinadigan har bir ishga, birinchi navbatda, sifatga e'tibor qaratiladi. Bu juda dolzarb masaladir. Ta'lim sifati masalasida qilinishi kerak bo'lgan ishlar juda ko'p. Sifat – umumiy tushuncha tarzida insonlarning ehtiyoj va talablarini qondirish bilan asoslanuvchi mahsulot, material, ish turi, mehnat, xizmatlar va shu kabilarning xususiyatlari hamda xususiy belgilarining majmui bo'lib, ular qo'yilgan talablar va vazifalarga to'liq mos kelishi bilan baholanadi. Bunday moslik, asosan, standartlar, shartnomalar, kelishuvlar, iste'molchilarning talablari bilan aniqlanadi.

Ikkinchi tamoyil – adolat. "Adolat" deganda, ishlarni to'g'ri, insof bilan olib borish va odamlar orasida tenglikni joriy qilish tushuniladi. Bundan maqsad – xalq ishonchini qozonish. Adolat bo'lmasa, xalq ishonmaydi. "Adolat" so'zi arabcha (adl)dan olingan bo'lib, odillik, haqqoniylik, to'g'rilik ma'nolarini anglatadi. Har ishda odil bo'lishni bildiradi. Azaldan adolat o'rnatilgan joy gullab-yashnagan, xalq erkin bo'lgan. Adolat oyoqosti qilingan joyda esa, razolat hukm surib, jamiyat tubanlikka yuz tutgan. O'zbek

xalqi adolat mash'alasini baland ko'tarib, Vatanni obod qilib, tinch va osoyishta hayot kechirmoqda. Adolat – yuraklarga malham, kelajakka ishonch demakdir. Adolat faqat shiorlarda emas, amalda bo'lsagina ulkan natijalar namoyon bo'ladi. Ne baxtki, bugun buyuk Sohibqiron bobomiz Amir Temurning "Kuch – adolatda" degan shiorini baland tutganmiz. U, albatta, bizni nurli manzillarga, buyuk kelajakka eltadi.

Uchinchi tamoyil – shaffoflik. Ta'lim-tarbiya ishlarini zamon talablari asosida tashkil etish, unga ilg'or innovatsion g'oyalarni olib kirish, yoshlarning iste'dodlarini namoyon etishlari uchun yetarlicha shart-sharoitlar yaratib berish bilan birga soha rivojiga salbiy ta'sir etishi mumkin bo'lgan va zamonaviy ta'limning oyog'iga tushov bo'lib turgan illatlar: poraxo'rlik, tamagirlikning oldini olish, har ishda halol va vijdonan yo'l tutish, ta'lim muassasalarini haqiqiy ma'nodagi ma'rifat va halollik maskaniga aylantirishdir. Masalan, endi rahbar va pedagog xodimlarni tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishda ilg'or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizm tatbiq etiladi. Ta'lim muassasalarida ota-onalar bilan shaffof muloqot muhiti yaratish, o'qituvchi imijini yuksaltirish, tizimdagi markazlashgan boshqaruv usulidan voz kechish, adolatli va sifatli ish mexanizmini yo'lga qo'yish lozim. Albatta, bu davrda yuzaga kelgan turli boshqaruv maktablari, yo'nalishlari va nazariyalarining hammasini, hatto umumlashgan holda ham izohlab o'tish – murakkab masala. Taraqqiy etgan g'arb mamlakatlarida ishlab chiqarishning rivojlanishi hamda psixologiya, sotsiologiya kabi fanlarning ravnaqi boshqarish jarayonini ko'p hollarda ma'lum turdagi faoliyat qatnashchilarining o'zaro munosabatlari sifatida tushunishga olib keldi. Vaholanki, maqsadlarga erishish samaradorligi oxir oqibat kishilar o'zaro harakatlarining samaradorligi bilan uzviy bog'liqdir. Demak, o'qituvchidan nafaqat pedagogik mahoratni mukammal egallash talab etiladi, balki pedagogik amaliyotni to'g'ri va maqsadli tashkil qilish uchun chuqur ilmiy-nazariy ma'lumotlarga ham ega bo'lish lozim. Buyuk rus adibi L.N.Tolstoy o'qituvchi fazilatining mukammalligini o'z mutaxassisligiga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishi bilan bir vaqtda bolalarga bo'lgan munosabatida, ularni xuddi o'z farzandlaridek jon-dilidan sevishida ekanligida ko'rgan. Uning ta'kidlashicha, "agar o'qituvchi faqat ishiga havas qo'ygan bo'lsa, u yaxshi o'qutuvchi bo'ladi. Agar o'qituvchi bolaga faqat otasi va onasi kabi havas qo'ygan bo'lsa, u oldingi o'qituvchidan yaxshiroq bo'ladi. Bordiyu, ikkala xislatni ham o'zida mujassamlashtirsa, u holda u mukammal va mahoratli o'qituvchi bo'ladi".

Natija va Muhokama

So'nggi yillarda pedagogika institutlarida, universitetlarda, pedagogika bilim yurtlarida o'qituvchilar tayyorlashni yaxshilashga qaratilgan ko'pgina ishlar amalga oshirildi. Chunonchi, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorligini kuchaytirish, ixtisosga doir fanlarni chuqur o'rgatish va pedagogik mahoratni egallash, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashga o'rgatish masalalariga e'tibor kuchaydi. SHunindek, bo'lajak o'qituvchilarga pedagogika, ruhshunoslik, usuliyotga doir fanlarni o'rgatish ko'lami yanada kengaydi. Pedagogika oliy o'quv yurtlarida bir qancha ixtisosliklar bo'yicha besh yillik o'quv rejalari joriy etildi. Uzluksiz pedagogik ta'lim g'oyalari amalga oshirilmoqda. Shu munosabat bilan o'qituvchilar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ishi davlat va jamoatchilikning diqqat markaziga bo'ladi. Bu tadbirlar universitet va pedagogika institutlarining maxsus fakulьtetlarida, malaka oshirish institutlarida amalga oshirilmokda. O'qituvchilarni falsafiy jihatdan keng fikrlovchi, mulohazali bo'lishlariga e'tibor berilayotir. Sinfiy, tarbiyaviy qarashlarning biryoqlamaligidan, ayrim shaxs va guruhlar manfaatidan umuminsoniy qadriyatlar ustun turishi ta'kidlanmokda. O'zbekiston hukumati maktab o'qituvchilarining haftalik o'quv ishlari hajmini kamaytirdi, maoshini oshirdi. O'quvchilarning daftarlarini tekshirgani uchun, shuningdek, «Halq o'qituvchisi», «Xizmat ko'rsatgan o'qituvchi», «Metodist-o'qituvchi»larga va ilmiy darajasi bor o'qituvchilarga qo'shimcha haq to'lash joriy etildi. Pedagogika o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan talabalarning stipediyalari oshirildi, ovqatlanishi uchun, shaxsiy uylarda yashagani uchun ularga qo'shimcha pul to'lanadi.

Zamonaviy o‘qituvchi ijtimoiy psixolog bo‘lmasligi mumkin emas.Shuning uchun ham o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni yo‘lga sola olishi, bolalar jamoasida ijtimoiy-psixologik mexanizmlardan foydalanishni bilishi zarurdir.Ma’lumki pedagogik faoliyat– kishi mehnatining eng murakkab sohalaridan biridir. O‘qituvchi jamiyat tomonidan qo‘yilgan talablar bilan bir qatorda o‘z faoliyatida, tevarak-atrofidagi kishilar, maktab ma’muriyati,hamkasblari,o‘quvchilar va ularning ota-onalari undan nimalarni kutishini ham edan chiqarmasligi lozim.O‘qituvchining o‘z ishidan nimanidir kutayotganligining o‘ziyoq muhim ahamiyatga egadir,mana shu tariqa kutishlar, garchand jamiyat tomonidan o‘qituvchiga qo‘yiladigan talablarga mos kelsada,o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi.Lekin bu talablar hamma vaqt ham bir-biriga mos kelmasligi mumkin.Pedagogik maxoratni egallashda pedagogika va psixologiyaga doir bilimlar katta rol o`ynaydi. Ilmiy psixologik-pedagogik bilimlar sistemasining mavjudligi o`qituvchilarga faqat o`z sinfini hamda ayrim o`qituvchilarni o`rganishi va ularni to`g`ri harakterini tuzatishgina emas balki bolalar kollektivi va uning har a'zosining rivojlanishi istiqbollarini ham belgilash imkonini beradi. O`qituvchi tarbiyachining amaliy faoliyatini bu ko`plab pedagogik vazifalarini betuxtov xal qilishdir. O`zining kasbiga doir bilimlar zapasidan ijodiy foydalangan o`qituvchigina ularni muvaffaqiyatli xal etish mumkin.Ammo pedagogika va psixologiyaga doir bilimlar konkret tarbiyaviy jarayonlarda yuzaga keladigan barcha vazifalarga tayyor javoblar bera olmaydi. O`qituvchining faoliyati-ijodiy faoliyat va aynan bilimlarni ijodiy qo’llash mohir pedagogning o`ziga xos xususiyatini ko’rsatib turadi. Har bir bo`lajak o`qituvchi va maktabda ishlayotgan o`qituvchi o`zlarida pedagogik qobiliyatini o’stirish uchun zo’r ishtiyoqni namoyon qilishlari kerak. Pedagogik qobiliyat pedagogik faoliyatning shartigina emas, balki natijasi hamdir. Pedagogik mahorati o`qituvchida pedagoglik odobi nazokatning mavjudligi bilan xarekterlanadi.O`qituvchining umumiy ma'naviy tarbiyalanganligi pedagogik odobning asosidir. Pedagoglik odobi — bu o`quvchilarga nisbatan pedagogik etikani o`ziga xos amalga oshirilishidir. Pedagoglik odobi bu o`qituvchining yuksak insoniylik, insonga mehribonlik o`zini tuta bilish, sabr bardosh va har qanday vaziyatlardan ham xayrixohlik munosabatlarini o’rnata bilish kabilarni qamrab oluvchi ma'naviy xulq-atvoridir. Pedagoglik odobiga ega bo`lgan o`qituvchi va o`quvchilar ota-onalar, hamkasblari bilan bo`ladigan o`z munosabatlarini ustalik bilan boshqaradi. O`qituvchi o`quvchining tarkib topayotgan shaxsi bilan ish ko`radi. Uning bolalar bilan bo`ladigan barcha munosabati: insonga mumkin qadar ko`p talabchanlik va unga mumkin qadar ko`p hurmat printsipi asosida ko’rilishi kerak. O`qituvchining pedagoglik mahorati uning intelekti va madaniyatiga hamda kasbiga doir vazifalarni hal qilish qanchalik qo’lidan kelishini doimo tekshirib borishi, bola ongi hamda qalbiga eng yaxshi yo`llarini axtarish va izlab topishga ham bog`liq.O`qituvchi o`quvchiga o`zining xatti-harakati bilan ham turmush tarzi qiyofasi bilan ham ta'sir qiladi. Uning intelekti va madaniyati, haqgo’yligi va insoniyligi uning ma'naviy sifatlari o`quvchi tomonidan etalon sifatlari qabul qilinadi. Shuning uchun ham o`qituvchi u qaysi predmetni olib borishdan qat'iy nazar yoshlar uchun murabbiylik murabbiysi, taqlid uchun yuksak namuna, o’rnak bo`lishi kerak.

Ta’limda bo’layotgan islohotlarning barchasi bugungi kunda yurtimizning taraqqiyoti, rivojlanishi va davlatimiz o’z oldiga maqsad qilib qo’ygan fuqarolik jamiyatini qurishdagi eng asosiy vazifalardan biri desak mubolag’a bo’lmaydi. Mamlakatimizning muhtaram prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so’zlagan nutqida ham yoshlarning ta’lim va tarbiya masalalariga alohida to’xtalib o’tadi.Yurt taraqqiyoti,xalqning farovon bo’lishi o’sha mamlakatda yoshlarning ta’lim va tarbiyasiga berilayotgan e’tiborning darajasiga bog’liqdir.Shuningdek O’zbekistonda yoshlar va ularning ta’lim-tarbiya masalasi davlat siyosatining eng ustuvor vazifalaridan biriligi ham bejiz emas. Demokratik jamiyatda ta’lim tizimi-avvalo xalqning va o’qituvchilar shuningdek, ota-onalar boshqa jamoa azolarining o’zaro hamkorlik qilishiga, barkamol va erkin fikrlovchi yoshlarni o’z qarorlarini qabul qiliishiga imkon beruvchi tizim hisoblanadi. O’quv jarayonida ta’lim oluvchilarga erkin va tanqidiy fikrash huquqlari ta’min etiladi,shuningdek,ro’y berayotgan

jarayonlarga dadil munosabat bildirishni nazarda tutadi.O'quvchilarda tanqidiy firlash bu o'quvchilarni hamma narsani tanqid qilishlari emas,balki ma'lumotlarni tahlil qilish,asoslarini tekshirish va albatta vaziyatni mustaqil baholay olishlari va qaror chiqarishlaridir. Demokratik jamiyatda fuqarolar faolligini oshirishda va rivojlantirishda ta'lim hal qiluvchi rol o'ynaydi.U jamiyatda shaxslarning demokratik jarayonlarda faol ishtirokini.o'z huquq va majburiyatlarini tushunishini,jamiyatga salmoqli hissa qo'shishini ta'minlaydi.Demokratik jamiyatda ta'limning asosiy xususiyatlari xilmaxillilik,tenglik,inklyuziviylikni rag'batlantirish,ochiq muloqot va bahs-munozaralarni shakllantirish va shu kabilarni o'z ichiga oladi. Demokratik jamiyatda ta'lim tizimining xususiyatlaridan biri inklyuziv ta'lim bo'lib, bu ta'lim jamiyatda bolalarni bir-biridan ajratuvchi barcha to'siqlarni bartaraf etish,ularning yoshi, jinsi, diniy va ijtimoiy kelib chiqishi,rivojlanishda orqada qolishida va iqtisodiy ta'minlanganlik darajasidan qat'i nazar umumta'lim jarayonlariga to'liq uyg'unlashtiruvchi davlat siyosati.Inklyuziv ta'lim-nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etishga qaratilgan maxsus ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarni hamda o'smirlarni rivojlanishida uchraydigan nuqsonlari va kamchiliklarini iqtisodiy qiyinchiliklaridan qat'i nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayonlariga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, O'qituvchilik sharafli, lekin juda murakkab kasbdir. Yaxshi o'qituvchi bo'lish uchun pedagogik nazariyani egallashning o'zigina yetarli emas. Chunki pedagogik nazariyada bolalarni o'qitish va tarbiyalash umumiy qonun-qoidalar, umumlashtirilgan uslubiy g'oyalar bayon etildi. O'quvchilarning yosh, individual xususiyatlarini e'tiborga olish ta'kidlanadi. Maktab hayoti, amaliy pedagogik jarayon esa juda xilma-xildir. Pedagogik nazariyaga mos kelmaydigan vaziyatlar uchrab turadi. Bu esa o'qituvchidan keng bilimdonlikni, puxta amaliy tayyorgarlikni, yuksak pedagogik mahorat va ijodkorlikni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi qonuni // Xalq ta'limi. – T., 2024. – 2 fevral. – B. 1-2.

2. Подласый И.П. Педагогика. Книга 1. – М.: Владос, 2003.

3. Рўзиева Д., Усмонбоева М., Ҳолиқова З. Интерфаол методлар: моҳияти ва қўлланилиши: Методик қўлланма. – Т.: ТДПУ, 2013.

4. Сайидаҳмедов Н.С. Янги педагогик технологиялар. – Т.: Молия, 2003.

5. Муслимов Н.А., Усмонбоева М., Мирсолиева М. "Инновацион таълим технологиялари ва педагогик компетентлик" модули бўйича ўқув-услубий мажмуа. – Toshkent, 2016. p.147.

6. Сафарова Р., Мусаев У. ва бошқалар. Умумий ўрта таълим мазмунини прогностика қилишнинг назарий-амалий асослари. Тошкент: Фан, 2005. p.136

7. Файзуллаева Д.М. Касб таълими методикаси. Нутқ маданияти. Ўқув-услубий қўлланма. Toshkent, 2012.

8. Химматалиев Д.О. Касбий фаолиятга тайёргарлик диагностика қилишда педагогик ва техник билимлар интеграцияси. Монография. Тошкент, 2018. p. 168.

9. Химматалиев Д.О. Байбаева М.Х. Модулли ўқитиш имкониятларидан фойдаланиш. Монография. – Т.: Ўзбекистон, 2017. p. 132.

10. Химматалиев Д.О. Байбаева М.Х. Касб-ҳунар таълими тизимининг ўқув-тарбия жараёнини такомиллаштиришда инновацион таълим технологияларининг аҳамияти. Монография. – Т.: Ўзбекистон, 2016. p. 142.

11. Химматалиев Д.О., Байбаева М.Х., Фархутдинова М. Касб-ҳунар таълими тизимининг ўқув-тарбия жараёнини модернизациялашда инновацион таълим технологияларни қўллаш: услубий қўлланма. –Toshkent. 2015. p. 98.

12. Химматалиев Д.О. Фанлараро интеграция орқали техника олий таълим муассасаларида бўлажак касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш// Ilim ham jamiet (Fan va jamiyat). -Нукус, 2017. p. 54-56.

13. Химматалиев Д.О., Файзуллаев Р.Х., Муқумова Д.И., Сайфиева Ю.Ў., Махмудова З.О. Важность проблемно-модельного тренинга в учебно-воспитательной работе с будущими профессиональными преподавателями вузов / The Seventh International Congress on Social Sciences and Humanities, 2nd April, 2016, Vienna 2016. p. 70-75.

14. Химматалиев Д.О. Интеграция научных знаний при подготовке к профессиональной деятельности будущих учителей профессионального образования // Школа будущего. -Москва, 2016. p.50-54.

15. Химматалиев Д.О. Интеграция ва фанлараро алоқадорлик тушунчаларининг мазмун моҳияти// Kasb-hunar ta'limi. -Тошкент, 2016. p.13-16.

16. Химматалиев Д.О., Файзуллаев Р.Х., Мукумова Д.И. Формирование коммуникативных умений у будущих педагогов профессионального образования // Среднее профессиональное образование. Москва, 2016. p. 66-68.

17. D.O Khimmataliev, Sultanova D, Omonova N.P. Development of students' creative competencies based on individual approach in educational cluster conditions. *Science and innovation international scientific journal*, volume 2 issue 9 september 2023 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337 | https://doi.org/10.5281/zenodo.8345240

18. Khimmataliev D.O, Omonova N.P, Jumanova G.P, Mamatkulova G.B. Development of creative communicative skills of future educators as a pedagogical problem. *Science and innovation international scientific journal*, volume 2 issue 12 december 2023 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337 | https://doi.org/10.5281/zenodo.10323867

19. R. N. R. Akhlan, D. O. Khimmataliyev, N. P. Omonova. The importance and role of inclusive education in educational institutions. 14th Proceeding of International Conference on Special Education in Southeast Asia Region (ICSAR 2024). 2024 e-ISSN:2964-8963. https://DOI.org/10.57142/picsar.v3i1.557

20. G. Mukhamedov, G.X.Djumabaev, D. Makhmudova, J. Usarov, D.Khimmataliev. Basis of the parameters of the spin extractor tool on the interned spinning machine. E3S Web of Conferences 402, 14033 (2023), TransSiberia 2023. doi.org/10.1051/e3sconf/202340214033

21. Khodjayev B.K, Bobojonova N.K. The role and importance of independent education in the development of students' intellectual potential and socio-cultural competence. *Science and innovation international scientific journal*, volume 2 issue 3 march 2023 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337. center https://doi.org/10.5281/zenodo.7725922

22. Jabbor E. Usarov, Dustnazar O. Khimmataliev, Nishon S. Kiyamov, Feruza U. Kodirova, Shoira A. Abdujalilova, Samaridin B. Koraev, Nasiba Kh Elmurzaeva, Zokhidjon Kh. Saidov. Formation Of Pedagogical Clusters Of Scientific And Methodical Cooperation Educational Organizations Of Regions (In The Example Of The World Countries). https://www.pnrjournal.com/index.php/home/article/view/5569

23. Gafurdjan Mukhamedov, G.X.Djumabaev, Dilfuza Makhmudova, Jabbor Usarov, Dustnazar Khimmataliev. Basis of the parameters of the spin extractor tool on the interned spinning machine. E3S

Web of Conferences 402, 14033 (2023), TransSiberia 2023. https://doi.org/10.1051/e3sconf/202340214033

24. Keldiyorova, G. S., Qurbonova, N. N., Fatxullaxodjaev, M. Z., & Rixsiyeva, L. A. (2022). Didactic Functions and types of Role-Playing Games that Contribute to the Development of Communicative Foreign Language Speech Skills. Specialusis Ugdymas, 1(43), 10577-10582.

25. Hasanboev J., Hasanboeva O., Homidov H. Pedagogika tarixi. – T.: O‘qituvchi, 1997.

26. Келдиёрова, Г. С. (2021). Язык и стиль Эркина Вахидова. Молодой ученый, (41), 40-42.

27. Norboyev, F. (2023). PEDAGOGIK INNOVATSIYALAR TADBIQIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(9), 55-60.

28. Kaldibekova, A. S., & Norboyev, F. C. (2021). PEDAGOGIK INNOVATSION FAOLIYATDA PSIXOLOGIK TO’SIQLAR MUAMMOSI. Academic research in educational sciences, 2(CSPI conference 1), 611-615.

29. Норбоев, Ф. (2023). KREATIVLIK VA INNOVATSIYA BORASIDA ZAMONAVIY NAZARIYALAR. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(8).

KREATIV FIKRLASHNI O”RGATISH VA UNING METODOLOGIK HUSUSIYATLARI

Khaldarchayeva Gaukhar Serikbayevna
Chirchiq davlat Pedagogika universiteti, Turizm fakulteti
Fakultetlararo chet tillar Kafedrasi katta o’qituvchisi
https://orcid.org/0000-0002-8587

ANNOTATSIYA

Bu maqolada chet tili o’qitish metodikasi kommunikativlik tamoyiliga asoslangan bo’lib, interaktiv metodning asosiy hususiyati va afzalliklari haqida so’z boradi. Interaktiv metod o’zgaruvchan, doimiy shaklga ega bo’lmagan, doimiy tarzda yangilanib,kengayib boradigan metoddir. Shunday ekan interakiv metodni turiga, o’zining qandaydir alohida qolipiga emas balki 5ta asosiy prinsiplari yoritilgan. Ko’plab tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki til o’rganishda guruhda ishlash individual ishlashdan afzalroqdir. Guruhda til o’rganilganda,o’rgatilganda chuqur ma’lumot va fikr almashinuvi bo’lib, guruh a’zolari ichida kuchli aqliy va psixologik aloqa o’rnatilishiga sabab bo’ladi[22].

Guruhda ishlashning maqsadi muhokama jarayonida yangi so’z va fikrlar doirasini kengaytirish, talabalarning bir-birini tushunishini yaxshilashdir[23]. Guruhda ishlaganda talabalar boshqalarning fikrlarini eshitib tushunishni va o’z fikrini yetkazib bera olishni o’rganadi. Individual shug’ullanishda bunday natijaga erishib bo’lmasligi yoritilgan.

Kalit so’zlar: Kommunikatsiya, Kommunikativ metod, interfaol usullar, hamkorlikda ishlash, jarayon,prinsiplar,aloqa vositasi,grammatika,kontekst, hamkorlik.

АННОТАЦИЯ

В этой статье методика преподавания иностранных языков основана на принципе коммуникации, и рассматриваются основные особенности и преимущества интерактивного метода. Интерактивный метод — это метод, который не имеет фиксированной формы, он постоянно обновляется и расширяется. Таким образом, интерактивный метод не рассматривается как какой-то определенный тип или форма, а освещаются его 5 основных принципов. Множество исследований показывают, что при изучении языка работа в группе предпочтительнее индивидуальной работы. При изучении языка в группе происходит обмен глубокими знаниями и мыслями, что способствует установлению сильных интеллектуальных и психологических связей между участниками группы.

Цель работы в группе — расширить круг новых слов и идей в процессе обсуждения, улучшить взаимопонимание между студентами. Работая в группе, студенты учатся слушать и понимать мнения других, а также выражать свои собственные мысли. В индивидуальной работе достичь такого результата невозможно.

Ключевые слова: Коммуникация, Коммуникативный метод, Интерактивные методы, Сотрудничество, Процесс, Принципы, Средства коммуникации, Грамматика, Контекст, Сотрудничество.

[22] Johnson and Smith” English teaching forum” 1988
[23] Henry,Kayi,Cunningham “English teaching forum” 1992

ABSTRACT

This article discusses the methodology of foreign language teaching, which is based on the principle of communication, and examines the main features and advantages of the interactive method. The interactive method is one that does not have a fixed form; it is constantly updated and expanded. Therefore, the interactive method is not considered a specific type or form, but its five main principles are highlighted. Numerous studies show that when learning a language, working in a group is preferred over individual work. When learning a language in a group, there is an exchange of deep knowledge and ideas, which helps establish strong intellectual and psychological connections among group members.

The goal of group work is to expand the range of new words and ideas during discussions, improving mutual understanding among students. By working in groups, students learn to listen to and understand the opinions of others, as well as express their own thoughts. This result cannot be achieved in individual work.

Key words: Communication, Communicative method, Interactive methods, Collaboration, Process, Principles, Means of communication, Grammar, Context, Cooperation.

Psixologik ma'lumotlarga ko'ra til kommunikatsiya yoki aloqa vositasidir. Chet tili o'qitish metodikasi chet tilini o'qitishda kommunikativlik tamoyiliga asoslanadi[24].

Bu satrlarda aytib o'tilganidek metodika tilni o'qitishda aynan kommunikativlik tamoyiliga asoslanadi. Ammo til o'qitish metodikasida shu paytgacha ko'proq foydalanishda bo'lgan metodlarning ishlash prinsipining asosi kommunikatsiyaga emas, balki o'qish , dialoglar yodlash, grammatikani chuqur o'rganish kabilarga asoslangan. Bunday metodlar orqali til o'rganish juda ko'p vaqtni olar va til o'rganishdan asosiy maqsad bo'lgan muloqot qilish imkonini cheklar edi. Interaktiv metodni asosiy hususiyati va afzalligi shundan iboratki , u erkin, tabiiy muloqot tarafdoridir. Ya'ni talabalarning asosiy vaqti o'zaro aloqaga – kommunikatsiyaga sarflanadi. So'nggi paytlarda Kommunikativ metod va Interaktiv metod bir xil, ular bir metodligi tilga olinmoqda. Buning o'ziga hos sababi bor albatta. Interaktiv metodlarning barchasi o'quvchi, talabalarni ingliz tilida o'zaro aloqaga kirishishga o'rgatadi. Hattoki u ingliz tilida yozishni o'rgatuvchi dars mashg'uloti bo'lsada. Ammo Interaktiv metod kommunikatsiyani – o'zaro muloqotni o'rgatuvchi , kommunikativ metodga nisbatan kengroq tushunchadir. Ko'pchilik tadqiqotchilarning fikriga tayanadigan bo'lsak interaktiv va kommunikativ metodlarning quyidagi hususiyatlari ularning o'zaro juda yaqin tushunchalar ekanini isbotlaydi:

1. O'quvchi va talabalar grammatika va fonetikani kontekst(matn) orqali o'rganadilar;
2. O'quvchi va talabalar tilni tabiiy muloqot qilish yo'li bilan o'rganadilar;
3. Deyarli yoki umuman tarjima metodi qo'llanmaydi;
4. O'quvchi va talabalar o'qituvchi bilan muloqot chog'ida faqat ingliz tilidan

foydalanadi;

5. Xatolarni tuzatish talabaning o'ziga yoki uning jamoadoshiga topshiriladi;
6. Darslar doim talabalarni juftliklarga yoki jamoalarga bo'lgan holda olib boriladi.

Interaktiv metod o'zgaruvchan, doimiy shaklga ega bo'lmagan, doimiy tarzda yangilanib,kengayib boradigan metoddir. Shunday ekan interakiv metodni turiga, o'zining qandaydir alohida qolipiga emas 5ta asosiy prinsipipiga qarab aniqlash mumkin[25].

[24] O'.Hoshimov, I.Yoqubov "Ingliz tili o'qitish metodikasi" 19 bet
[25] David Nyuman "Kommunikativ til o'qitish" 1991

1. Tilni o'rgatishda o'ziga hos qiziqtiruvchi interfaol usullardan foydalanish;
2. Darsga oid ko'rgazmali qurollar tayyorlanishi va taqdim etilish;
3. Talabalarga faqat tilni o'zini emas, dars davomida o'rtaga tashlangan mavzu yoki masalani natijasini keltirib chiqarishlariga erishish;
4. Talabalar o'z tashqi bilim va tajribalarini muhim ma'lumotlar qatoriga qo'yish va ularga vaqt ajratish;
5. Nafaqat mashg'ulot xonasida balki undan tashqarida ham dars o'tkazishga harakat qilish.

Ushbu prinsiplarga asoslangan dars interaktiv dars hisoblanadi.

Kreativ fikrlash va Interaktiv metod orqali dars berish hususiyatlari va talablari

O'qituvchi muvofaqqiyatga erishishi uchun ular dars beradigan har qanday talabani talabiga javob beradigan ma'lumot va materiallarga ega bo'lishi lozim. Interaktiv metodni qo'llash ananaviy darslarda o'zini namoyish eta olmagan o'quvchi va talabalarga o'z qobiliyat va bilimini namoyish qilish imkonini beradi. Interaktiv metodning nafaqat ma'lum bir ma'lumotni taqdim etish balki, uning o'rganish jarayoni ham o'ziga xos.

Interaktiv metod orqali ingliz tilini o'rgatishning hususiyatlari

1. Har qanday bilimning tan olinishi. Iterfaol metodning asosiy talabi bu talabalarning faol bo'lishidir. Interaktiv metod orqali o'tkazilgan darsda talabalarning o'z hayotiy bilim va tajribalari hisobga olinadi. Shunchaki ma'lumot berish o'rniga o'qituvchi talabalarning bilimidan foydalanib darsni boyitadi. Talabalarga ma'lumot taqdim etish o'rniga o'qituvchi ularni mustaqil fikr bildirishga undaydi va bu bilan ularning dunyoqarashini boyitadi.

2. Jarayon. Mavzu taqdim etilganda talabalarni to'g'ri tomonga yo'naltirish uchun o'qituvchi mavzu haqida chuqur bilimga ega bo'lishi kerak. Talabalarga o'z bilimlari va mavzuga oid yangi ma'lumotlarni yig'ib o'rganib chiqishi uchun guruhda ishlash imkonini beriladi. Dars so'ngida ularga o'rgangan narsalarni rivojlantirishga va bir xulosaga kelishga imkon yaratiladi.

3.Afzalligi. Ineraktiv metodni qo'llab talabalar bilimi qay darajada ekanligini bilib olish oson. Shuningdek talabalar tilni qay darajada chuqur o'rganganini bilib olish va shunga ko'ra dars rejasini ishlab chiqish mumkin. Keyingi mavzuga qanday yondashish kerakligi oldindan ma'lum bo'ladi. Bir ko'rgazmali qurol tufayli talbalar faktlar, yangi so'zlarni osonroq qabul qiladi. Interaktiv o'qitish doimiy ravishda takomillashib, rivojlanib boradi.

Professor Elliot Aronson ham guruhda Interaktiv dars o'tishning quyidagi afzalliklarini sanab o'tgan:

- O'rganishning osonligi;
- O'qituvchiga ham bu metodda dars o'tish ancha qulayligi;
- Boshqa dars o'tish metodlari bilan bemalol qo'llanila olishi;
- Ilk darsdanoq o'z natijalarini ko'rsata boshlash;
- Qabul qilishning osonligi va qulayligi.[26]

4.Rejalashtirish. Interaktiv dars rejalashtirilayotganda vaqt, vaziyat-holatni, muhitni hisobga olish juda muhim. Bir vaqtning o'zida juda ko'plab topshiriqlar birvaqtda berilmasligi kerak. Chunki bu talabani ham o'qituvchining o'zini ham zeriktirib qo'yadi. Talabalar topshiriqlarni ketma-ket olishlari kerak. Shunda o'qituvchining o'zi ham butun mashg'ulot jarayonini kuzatish imkoniniga ega bo'ladi. Kichik

[26] E.Aronson "Jigsaw lesson" 2008

guruhlarga bo'lingach talabalar biroz shovqinliroq bo'lishlari mumkin. Shuning uchun bunday topshiriqlar darsning oxirrog'iga qoldirilishi kerak.

5.Til o'rgatuvchi mashg'ulot va o'yinlar. Qiziqarli o'yinlar orqali til o'rganish

talabalarga shodlik bag'ishlaydi. Shunga qaramasdan butun dars faqat o'yinlardan

iborat bo'lmasligi kerak. Interaktiv o'yinlar barcha yoshdagi talaba va o'quvchilarga qo'llanishi mumkin.

6.Interaktiv metod qo'llanishidagi muammolar. Barcha til o'rgatish metodlarida bo'lgani kabi interaktiv metodning ham o'ziga xos qiyinchiliklari mavjud[27].Ammo ular butun metodning samarasiga ta'sir qilmaydi va ularni oldini olish mumkin yoki bartaraf qilish mumkin.

Birinchi muammo. Hukmron talabadir. Bunday talaba hattoki interaktiv guruh darslarida ham boshqa talabalarga o'z bilimini namoyish etish yoki fikrini bildirish imkonini bermasligi mumkin. Buning oldini olish usuli har bir guruhga lider- sardor tayinlashdir. U barchaga adolatli bo'lib vazifalar bo'lib berishi va guruhdoshlarining faolligini ta'minlash mas'uliyatini olishi kerak.

Ikkinchi muammo bu boshqalardan bilim jixatdan orqada qolgan talabadir. Bunday talabalar guruhidagilarga o'z fikrini ingliz tilida yetkazib berishga qiynalishi, noto'g'ri tushuntirishi yoki umuman tushuntirolmasligi mumkin. Bunday holatning oldini olish maqsadida guruhlarda bir masala yuzasidan barchaning fikri eshitiladi va bilimi, fikri yoki so'z boyligi kam talaba o'z bilimini shu yo'l orqali boyitib to'ldirib boradi.

Uchinchi muammo bu a'lochi ilg'or talabalarning zerikib qolishidir.Albatta har qancha dars faol bo'lmasin agar u ba'zi talabalarning sa'viyasi uchun oson bo'lsa ular zerikib qoladi va bilimlarini oshirolmay bir yerda qotib qoladi. Buni oldini olish maqsadida nisbatan ilg'orroq talabalarga o'qituvchi keltirgan ma'lumotlarni kengaytirish, unga qo'shimcha ma'lumotlar qo'shish, mavzudagi masala yuzasidan kichik kompozitsiya yozish yoki mavzu yuzasidan guruhdoshlariga savollar tayyorlash kabi topshiriqlar topshirilsa hamma dars bilan band bo'ladi va hech kim zerikib qolmaydi.

Cooperation and Collaboration[28]

Hamkorlikda va Birgalikda ishlashning farqlari

Yaqin kunlargacha interaktiv metodda o'tilgan darslarni tashkil qilishda tuzilgan kichik guruhlarning ishlashida hech qanday farq ajratilmagan. Ya'ni hamkorlikda va birgalikda ishlash bir-biridan umuman farqlanmagan.

Guruhda mashg'ulot o'tkazishda "Cooperation va Collaboration" tushunchalarini ajratish juda muhim[29].

1. Cooperation- alohida maqsadlarga erishish uchun birgalikda guruh bo'lib harakat qilish.
2. Collaboration- birgalikda ishlash. Bir maqsadga erishish uchun birgalikda harakat qilish hisoblanadi. Birgalikda ishlashda butun guruhga bitta topshiriq beriladi.

Hamkorlikda ishlashda esa butun guruhga bir mavzuning qismlari alohida topshiriq sifatida beriladi[30]. Hamkorlikda ishlashda barcha guruh a'zolari bitta topshirqni birlashtirsada ularning alohida o'z topshirig'I bo'ladi. Masalan, ma'lum bir matnning boshlang'ich qismi bir talabaga, o'rtasi yana boshqa birontasiga, so'ngi uchinchi talabaga, yana bir talabaga tushunganlari yuzasidan xulosa chiqarish topshirilishi mumkin. Birgalikda ishlashda esa o'sha matn butunlay guruhga topshiriladi va topshiriqlar beriladi. Talabalar vazifa bo'lmasdan barchasini o'rtada bajarishadi. Bunda ular muhokama qilishni, munozara uyushtirishni o'rganishadi va so'zlashuvda erkin fikr bildira olish qobiliyati shakllanadi.

[27] Blaney,Aronson "Auditoriyada erkinlik" 2003
[28] Olga Kozar "English Teaching Forum" mag 2010 p16
[29] Smith "Cooperation and Collaboration" 1995
[30] Rochell and Teasley 1995

Olga Kozar guruhda interaktiv dars o'tishning aynan Collaboration-Birgalikda ishlash prinsipini afzalroq degan fikrni ilgari suradi va bunga Nelsonning (2008) "hamkorlikda ishlash bu bir maqsadda ammo bir-birining ishiga aralashmagan holda ishlashidir" degan fikrini ilova qiladi.

Ammo men Cooperation-Hamkorlikda ishlash prinsipi noto'g'ri degan fikrni to'g'ri emas deb hisoblayman . Chunki hamkorlikda ishlash prinsipining ham birgalikda ishlash prinsipida uchramaydigan juda muhim afzalligi bor. Bu birgalikda ishlash prinsipida tilni o'zlashtirishda orqada qolgan talabalar topshiriqlar bajarilishida ilg'or talabalarga orqa qilib darsga qatnashmasligi mumkin. Hamkorlikda ishlash prinsipida esa barchaning o'z topshirig'i bo'ladi va barcha uni bajarishga majbur. Shu yo'l bilan o'qituvchi barchani band qila olishi mumkin. Shu yo'l bilan barcha talabalar ingliz tilini o'rganishi mumkin.

Guruhda ishlashning individual ishlashdan farqi

Ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki til o'rganishda guruhda ishlash individual ishlashdan afzalroqdir. Guruhda til o'rganilganda,o'rgatilganda chuqur ma'lumot va fikr almashinuvi bo'lib, guruh a'zolari ichida kuchli aqliy va psixologik aloqa o'rnatilishiga sabab bo'ladi[31].

Guruhda ishlashning maqsadi muhokama jarayonida yangi so'z va fikrlar doirasini kengaytirish, talabalarning bir-birini tushunishini yaxshilashdir[32]. Guruhda ishlaganda talabalar boshqalarning fikrlarini eshitib tushunishni va o'z fikrini yetkazib bera olishni o'rganadi. Individual shug'ullanishda bunday natijaga erishib bo'lmaydi.

Guruhda ishlash darsini tashkil qilish qoidalari:

1. Eng avvalo talabalarning bunday darsga tayyorligiga ishonch hosil qilish;
2. Aniq, qisqa va tushunarli qoidalarni ishlab chiqish;
3. Barcha guruh a'zolarini faol qatnashishini ta'minlash kerak;
4. O'qituvchi talabalarning mavzu yuzasidan savollariga tayyor holda bo'lishi kerak;
5. Talabalar birgalikda ishlashga o'rganmagan bo'lishlari mumkni. Bunda mashg'ulotni to'xtatmasdan talabalar bunday darslarga o'rganmagunlaricha mashg'ulotni davom ettirishi kerak.

Guruhda mashg'ulot o'tkazish muvofaqqiyatli bo'lishi uchun quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

1.Topshiriqning til o'rganishdagi ahamiyati;

2.Qaysi yoki nechta nutq faoliyati shakli keng qo'llaniladi (yozish, o'qish,

gapirish, tinglab tushunish);

3.Mashg'ulot uchun talabalar guruh, juftlik yoki butun guruh ko'rinishida jalb qilinadimi;

4.Beriladigan topshiriq Interaktiv metodning qaysi turida o'tkaziladi;

5.Mashg'ulotning davomiylik vaqti;

6.Guruhlar prezentatsiyani og'zaki qilishadimi yoki yozma;

7.Prezentatsiya faqat o'sha guruh ichida bo'ladimi yoki katta auditoriyagami, ota- onalargami. Shu kabilar aniq bo'lishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (23.09.2020) / Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020., 03/20/637/1313 – son.

[31] Johnson and Smith" English teaching forum" 1988
[32] Henry,Kayi,Cunningham "English teaching forum" 1992

2.Abdullayeva N.J. Talabalarni kasbiy faoliyatga ijodiy yo‘naltirishda refleksiv texnologiyalardan foydalanish. NamDU ilmiy axborotnomasi // 2022.-№ 8.-B. 578-583.

3. Aronson E, Bridjmen, Jeffner “ O’zaro ta’sir natijasida o’zaro aloqaga kirishish va jamiyatda o’zni tutish” “Ta’limdagi izlanishlar va rivojlanish” jurnali, 1978, 12 son, 16-26 b.

4. Isroilova D.M. Nofilologik oliy o‘quv yurtlarida talabalarni fanlararo bog‘liqlikda kasbga yo‘naltirilgan ingliz tiliga o‘qitish (texnologiya fakulteti misolida): avtoreferat dok. filosofii (PhD). – Toshkent., 2020. – 144 s.

5. Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi. Chet tillar oliy o‘quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – T.: 2012. –B.429.

6. Борзова Л.П. Дидактические игры как одна из форм организации позанавательной деятельности учащихся при изучении материала на уроках истории (на материале истории России XIX в). – Дисс. …канд.пед. наук. – М., 2000. – 227 с.

7.Olga Kozar’’English Teaching Forum’’mag 2010 p16.

8.www.jigsaw.net

9.www.unr.edu/homepage/hayriyek

10.www.interactiveTFL.com

11.https://www.usaid.gov/uz/uzbekistan/press-release/usaid-reaffirms-its- commitment-strengthening-uzbekistans-education-system

TALABA SHAXSIY RIVOJLANISHIDA IJTIMOIY MADANIYATNING O‘RNI
СОЦИАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ В ЛИЧНОСТНОМ РАЗВИТИИ СТУДЕНТА

Jo‘raxonova Mohinur Odil qizi.
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti,
Pedagogika mutaxassisligi 1-bosqich magistranti, O‘zbekiston.

ANNOTATSIYA

Maqolada talabalrning shaxsiy rivojlanishida ijtimoiy madaniyatning roli haqida yoritilgan. Alohida e’tibor shaxsdagi madaniyatning shakillanishida ta’lim muassasalari va imkoniyatlarini inobatga olgan holda jamiyat hayotiga tezroq moslashish qobiliyatini shakllantirishga qaratiladi.

Kalit so‘zlar: Shaxs, jamoa, jamiyat, adaptatsiya, ijtimoiy madaniyat, rivojlanish, axloq, odob qoidalaridan jamiyatda foydalanish.

АННОТАЦИЯ

В статье освещена роль социальной культуры в личностном развитии студентов. Особое внимание уделяется формированию способности быстрее адаптироваться к жизни общества, учитывая образовательные учреждения и возможности, которые они предоставляют для формирования культуры личности.

Ключевые слова: Личность, команда, общество, адаптация, социальная культура, развитие, мораль, соблюдение норм поведения в обществе.

KIRISH

Ijtimoiy madaniyat, talabaning shaxsiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega, chunki u shaxsning axloqiy, estetik va ma’naviy qadriyatlarini shakllantiradi. Shaxsning jamiyatga moslashuvi va uning taraqqiyoti jamiyatda qabul qilingan madaniy me’yorlarga asoslanadi.

Ta’lim muassasalari ijtimoiy madaniyatni talabalarga o‘rgatishda asosiy vosita hisoblanadi. Ular o‘z talabalariga nafaqat ilmiy bilimlar, balki jamiyatda yashash va o‘z o‘rnini topish uchun zarur bo‘lgan madaniy ko‘nikmalarni ham taqdim etadi.

Shaxsiy rivojlanish ijtimoiy madaniyatni o‘zlashtirish va jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarurdir. Shaxsning ichki dunyosi va uning ijtimoiy atrof-muhiti o‘rtasidagi uyg‘unlik rivojlanishning asosi hisoblanadi.

Talabalar yangi ijtimoiy muhitga kirish, o‘zlarini jamiyatda erkin va muvaffaqiyatli his qilish uchun ijtimoiy madaniyatni o‘rganishlari kerak. Bu jarayon talaba shaxsining ijtimoiy adaptatsiyasini tezlashtiradi va uning o‘zini jamiyatda erkin his qilishiga yordam beradi. Ijtimoiy madaniyat, jamiyatda qabul qilingan axloqiy, estetik va ijtimoiy me’yorlar to‘plami sifatida talabalarga nafaqat bilim, balki ular bilan jamiyatda muvaffaqiyatli va samarali ishlash uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy ko‘nikmalarni ham beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Mavzu yuzasidan bir necha aspektlar ko‘rib chiqilidi, shuningdek, ijtimoiy madaniyat va shaxsiy rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish bilan shug‘ullanadigan olimlar asarlari tahlil qilindi. Ijtimoiy madaniyat va ijtimoiy tizimlar haqida ishlagan, shaxsiy rivojlanish va jamiyatdagi o‘rni haqida

asosiy tushunchalarni ishlab chiqqan olimlardan **Emile Durkheim**ni aytib o‘tish mumkin. Jean Piaget bolalar psixologiyasi sohasida ishlagan, lekin uning ijtimoiy o‘zgarishlar va rivojlanish jarayonlari haqidagi ishlari ham talaba shaxsiy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, Lev Vygotsky ijtimoiy madaniyat va kognitiv rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rgangan. Uning “ijtimoiy interaktsiya” modeli shaxsiy rivojlanishga katta ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekistonlik pedagog va psixolog olimlar E.G’oziev, M.Davlatshen, X.Xudoyqulov, D.Omonov. B.Xodjayevlarning shaxs shakillanishida ta’lim-tarbiya va ijtimoiy muhitning ta’siri yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari va asarlaridan mavzu masalasida foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ta’lim jarayonida, talabalar ijtimoiy madaniyatni o‘zlashtirish orqali, jamiyatdagi turli ijtimoiy guruhlar bilan o‘zaro aloqada bo‘lish, to‘g‘ri muloqot qilish va qabul qilingan me’yorlarga rioya qilishni o‘rganadilar. Madaniyat shaxsning ichki dunyosini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu, talabaning shaxsiy axloqiy qadriyatlari, dunyoqarashi, ishga bo‘lgan munosabati va shaxsiy mas'uliyatini o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy madaniyatning ta’siri, shuningdek, talabaning o‘zini jamiyatda qabul qilish, boshqalar bilan muloqot qilish va jamiyatda o‘z o‘rnini topishda sezilarli ahamiyatga ega. Shaxsiy rivojlanishning asosiy tarkibiy qismlari: axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy javobgarlik, o‘z-o‘zini anglash va jamiyatga moslashishdir.

Talabalar yangi ta’lim muhitiga kirish bilan birga, ijtimoiy madaniyatni ham o‘rganishlari kerak. Bu jarayon talabaning jamiyatdagi o‘z o‘rnini topishiga yordam beradi. Jamiyatga moslashish jarayoni ijtimoiy madaniyat orqali amalga oshiriladi, chunki talaba faqat bilim olish bilan cheklanmay, balki jamiyatda o‘zini qanday tutish, odamlar bilan qanday muloqot qilish va ularning ijtimoiy me’yorlariga qanday rioya qilishni o‘rganadi. Talabalar jamiyatning axloqiy va odobiy qoidalarini o‘zlashtirish jarayonida, ijtimoiy madaniyatni chuqur anglab, o‘z hayotida qo‘llashni o‘rganadilar. Bu, nafaqat ularning shaxsiy rivojlanishiga, balki jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishlariga ham yordam beradi. Jamiyatda faoliyat yuritayotgan har bir shaxs, o‘zining axloqiy qadriyatlari va jamiyatdagi madaniy me’yorlarga rioya qilish orqali jamiyatga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi.

Ijtimoiy madaniyat faqatgina shaxsiy rivojlanish uchun emas, balki butun jamoaning rivojlanishi uchun ham muhimdir. Talabalar ijtimoiy madaniyatni o‘rganish orqali, o‘zlarining jamiyatdagi o‘rnini tushunishadi, jamoaviy ishlash qobiliyatini rivojlantiradilar. Bu esa o‘z navbatida, jamoa ichida samarali va muvofiqlikda ishlashni, qarorlar qabul qilishni va ijtimoiy mas’uliyatni oshirishga yordam beradi.

XULOSA

Ijtimoiy madaniyat talabaning shaxsiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi, chunki u shaxsning axloqiy, ma'naviy va ijtimoiy qadriyatlarini shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi. Ta’lim muassasalari, o‘z navbatida, talabalar uchun bu qadriyatlarni o‘zlashtirish va amaliyotga tadbiq etish uchun zarur bo‘lgan muhitni yaratadi. Ijtimoiy madaniyatni o‘rganish, talabalarga jamiyatda muvaffaqiyatli adaptatsiya qilish, o‘zini jamiyatda erkin his qilish va boshqalar bilan hamkorlikda ishlash imkoniyatini beradi. Shaxsiy rivojlanish va jamiyatga moslashish jarayonlarida axloqiy me'yorlar, odob-axloq qoidalariga rioya qilish muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy madaniyatni o‘zlashtirgan talaba nafaqat shaxs sifatida rivojlanadi, balki jamiyatda ijobiy ta'sir ko‘rsatadigan faol fuqaroga aylanadi.

Shunday qilib, ta’lim tizimi talabalarga ijtimoiy madaniyatni o‘rgatishda asosiy rolni bajaradi va bu, o‘z navbatida, ular uchun jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan barcha ijtimoiy, axloqiy va madaniy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Андреева Г.М. Социальная психология. Учебник.- М.: Аспект Пресс, 1999.-376 с.
2. G'oziyev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
3. Karimova V.M., Akramova F.A. Psixologiya. Ma'ruzalar matni. TDIU.- 2005.- 201 bet.
4. Oila psixologiyasi. Prof. /. Shoumarov tahr. ostida.- T.: Sharq, 2001.

TA'LIM KLASTERI - MINTAQANI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH RESURSI SIFATIDA

Nurmamatov Behruzbek Ismandiyorovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Fizika va kimyo fakulteti, Kimyo kafedrasi, 4-bosqich talabasi.

O`narova Dilafruz

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Fizika va kimyo fakulteti, Kimyo kafedrasi, 4-bosqich talabasi.

Qurbonova Muattar Erkinovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Fizika va kimyo fakulteti, Kimyo kafedrasi, katta o`qituvchisi.

ANNOTATSIYA

Maqolada ta'lim klasterining hududni innovatsion rivojlantirishdagi o'rni ko'rsatilgan. Zamonaviy iqtisodiyotning muhim raqobatbardosh ustunligi sifatida hududiy ta'lim klasterlarini rivojlantirish zarurligi isbotlangan. Kasbiy standartlar talablariga rioya qilgan holda ta'lim klasterlari faoliyati samaradorligiga ta'sir etuvchi masalalar ko'rib chiqilgan. Ta'lim klasterlari faoliyati samaradorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari belgilab berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim klasteri, hududni rivojlantirish, innovatsion rivojlanish.

АННОТАЦИЯ

В статье показана роль образовательного кластера в инновационном развитии региона. Доказана необходимость развития региональных образовательных кластеров как важного конкурентного преимущества современной экономики. Рассмотрены вопросы, влияющие на эффективность деятельности образовательных кластеров с соблюдением требований профессиональных стандартов. Определены приоритетные направления повышения эффективности деятельности образовательных кластеров.

ABSTRACT

The article shows the role of the educational cluster in the innovative development of the region. The necessity of developing regional educational clusters as an important competitive advantage of the modern economy has been proven. Issues affecting the effectiveness of the activities of educational clusters in compliance with the requirements of professional standards were considered. Priority areas for increasing the effectiveness of educational clusters have been identified.

Tayanch so'zlar: ta'lim klasteri, hududiy rivojlanish, innovatsion rivojlanish.

O'zbekiston Respublikasining jadal rivojlanishining muhim sharti iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy va boshqa sohalarga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni tezkor joriy etish hamda fan va texnika yutuqlarini keng qo'llashdan iboratdir.

Mamlakatimizning barcha ijtimoiy va davlat hayoti sohalari shiddat bilan rivojlanayotgani sababli, amalga oshirilayotgan islohotlarni zamonaviy innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalar

asosida yaqindan qo‘llab-quvvatlash talab etilmoqda. Bu esa O‘zbekistonning jahon sivilizatsiyasi yetakchilari safiga tez va sifatli kirib borishini ta’minlaydi

Shu bilan birga, o‘tkazilgan tahlillar modernizatsiyalash, diversifikatsiyalash jarayonlarini innovatsion rivojlantirish, ishlab chiqarish hajmlarini oshirish hamda ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlarning tovar nomenklaturasini kengaytirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar yetarli darajada emasligini ko‘rsatdi. Xususan: aholining oliy ta’lim bilan qamrab olinish darajasi pastligi; oliy ta’lim muassasalarining o‘quv rejalari va dasturlarini belgilash, talabalarni qabul qilish kvotalarini aniqlash, moliyaviy mablag‘larni taqsimlashda mustaqil emasligi; vazirliklar va idoralar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik tegishli darajada yo‘lga qo‘yilmaganligi, mas’uliyatli.

Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun mas’ul tashkilotlarning samarasiz ishlashi, ilmiy-tadqiqot muassasalari va laboratoriyalar faoliyatini lozim darajada muvofiqlashtirmaslik; ilmiy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish darajasining pastligi; innovatsion menejment sohasida texnologiyalarni faol targ‘ib qilish va amaliyotga joriy etish imkonini beradigan yuqori malakali mutaxassislarning yetishmasligi kabi muammolar mavjud.

Bugungi iqtisodiy sharoitlar kasb-hunar ta’limi tizimining mintaqaviy va xalqaro mehnat bozori talablariga mosligini tanqidiy baholash zarurligini ko‘rsatdi. Ta’lim dasturlarining an’anaviy modeli asosan alohida tarmoqda mavjud bo‘lgan iqtisodiyotning umumiy masalalari va jarayonlariga e’tibor qaratgan edi. Ko‘plab kasb-hunar ta’limi muassasalari markazlashgan holda faqat xalq xo‘jaligining muayyan sohasi uchun mutaxassislar tayyorlagan.

Masalan, R.X. Xasanov klasterga quyidagicha ta’rif beradi: uzluksiz ta’lim bosqichlarining uzluksiz vertikal integratsiyasi va tuzilmalarning gorizontal muvofiqlashtirishi natijasida pedagogik jarayon ishtirokchilari faoliyatining yuqori darajadagi tashkiliy birlashuvi ta’minlanadigan ochiq ta’lim tizimi.

Amaliyot shuni ko‘rsatdiki, mintaqaviy ta’lim klasterlarini shakllantirish orqali ushbu ziddiyatlarni bartaraf etish mumkin ekan. Ta’lim klasteri tanlangan soha korxonalari bilan hamkorlik asosida birlashtirilgan, o‘zaro bog‘liq kasb-hunar ta’limi muassasalarining yig‘indisidir. Keng ma’noda, bu "ilm-fan – texnologiya – biznes" innovatsion zanjirida o‘qitish, o‘zaro ta’lim berish va o‘z-o‘zini o‘rgatish vositalari tizimi bo‘lib, asosan zanjir ichidagi gorizontal aloqalarga asoslanadi. Mintaqaviy ta’lim klasterlarini rivojlantirish zamonaviy iqtisodiyotning muhim raqobatbardosh afzalligi hisoblanadi va u haqiqiy sinergik samara beradi.

Ta’lim klasteri, qoida tariqasida, hududiy zona doirasida fundamental ilmiy va ilmiy-amaliy ishlanmalar, ta’lim loyihalari, yangi texnologiyalar va metodikalar, intellektual mahsulotlarni loyihalash va ishlab chiqarishni birlashtirish vazifasini hal qilishga yordam beradi. Bunday holda, ta’lim klasteri o‘zlari uchun ustuvor investitsiya yo‘nalishlarini belgilaydigan ish beruvchilar uchun juda jozibador bo‘ladi, chunki ular oldida amaliyotga yo‘naltirilgan bilimlarni ishlab chiqaruvchi sifatida namoyon bo‘ladi.Bu holda universitetning asosiy vazifalaridan biri innovatsion mahsulotni ishlab chiqarishdir. Shu sababli, ilmiy-tadqiqot universitetlari o‘z mintaqalarining ehtiyojlari va rivojlanish istiqbollariga muvofiq mutaxassisni shakllantirishda faol ishtirok etadilar. Ta’lim klasterlari ham ilmiy, ham innovatsion faoliyatda ta’lim oluvchilarning ijodiy salohiyatini faollashtirish imkonini beradi. Yuqorida sanab o‘tilganlarning barchasi tizim sifatida innovatsion iqtisodiyotning moslashuvchanlik, dinamiklik, o‘zgaruvchanlik, moslashuvchanlik, barqarorlik va bashorat qilish, uzluksizlik, yaxlitlik sifatlarini o‘zgartirishga yordam beradi.

Ushbu mavzuga bo‘lgan keng qiziqish, shuningdek, dunyoning rivojlangan mamlakatlari mintaqaviy iqtisodiyotini klasterlashtirishning ko‘plab ijobiy tajribasi bilan izohlanadi, ular butun mamlakat va uning alohida mintaqalari iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish uchun tarmoq tuzilmalaridan foydalanishning samaradorligini amalda isbotladilar. Mintaqaviy iqtisodiyotni klasterlashtirish bo‘yicha xorij tajribasi tahlili shuni ko‘rsatadiki, klasterlarni shakllantirish siyosati uzoq vaqt davomida olib

borilmoqda. Masalan, Daniyada 1992-yildayoq jami eksportning 60 foizini ta'minlagan mamlakatdagi barcha firmalarning 40 foizi klasterlarda ishtirok etgan. . Zamonaviy iqtisodiy klasterlarni yaratishning asosiy motivlari mintaqaviy iqtisodiyot darajasini oshirishga intilish, yuqori texnologiyali tarmoqlarni rivojlantirish, depressiv hududlarning iqtisodiy faolligini oshirish va yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashni tashkil etishdan iborat. Ushbu motivlarning barchasi u yoki bu darajada ta'lim klasterlariga nisbatan ham qo'llanilishi mumkin.

Ko'rib chiqilayotgan mavzuning nihoyatda dolzarbligi tufayli ta'lim klasterlari faoliyati samaradorligiga ta'sir ko'rsatadigan ba'zi masalalarni ko'rib chiqish zarur.

Faoliyatning birinchi yo'nalishi voqelikdagi bu hodisaning nisbatan yangiligi bilan bog'liq. Ta'lim klasteri faoliyatining asosiy xususiyati uning innovatsion yo'nalishni doimiy rivojlantirishga va ilmiy-ta'lim faoliyatining sifatiga yo'naltirilganligidir. Mutaxassislar tayyorlash jarayoniga klaster ta'limini joriy etish kasbiy ta'lim dasturlarini amalga oshirishning yangi pedagogik, tashkiliy, texnologik va iqtisodiy shart-sharoitlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Yaqin kelajakda ish beruvchilar tomonidan kadrlar siyosatini shakllantirish va xodimlarni boshqarishda, xodimlarni o'qitish va attestatsiyadan o'tkazishni tashkil etishda, mehnat shartnomalarini tuzishda, lavozim yo'riqnomalarini ishlab chiqishda va mehnatga haq to'lash tizimlarini belgilashda qo'llanilishi kerak bo'lgan kasbga o'qitish, kasb ta'limi va qo'shimcha kasb ta'limi o'qituvchisi. Ushbu kasbiy standartga muvofiq, assistent, o'qituvchi, katta o'qituvchi va dotsentning ta'lim olishi va o'qishiga qo'yiladigan talablar oliy ma'lumotga (mutaxassislik va undan yuqori) ega bo'lishdan iborat bo'lib, uning yo'nalishi (profili), qoida tariqasida, o'qitilayotgan o'quv kursi, fan (modul) ga mos keladi. Ma'lumoti mos kelmagan taqdirda, xodim oliy ta'lim negizida qo'shimcha kasbiy ta'limga ega bo'lishi - yo'nalishi (profili), qoida tariqasida, o'qitilayotgan o'quv kursi, fan (modul) ga mos keladigan kasbiy qayta tayyorlashdan o'tishi kerak. Kasbiy standart, shuningdek, har uch yilda kamida bir marta pedagogik faoliyat bo'yicha qo'shimcha kasbiy dasturlar bo'yicha o'qitishni tavsiya etadi.

Tashkiliy masalalar, birinchi navbatda, ta'lim jarayonini o'qitishni amaliyotga yo'naltirilgan tarzda tashkil etishdan iborat. Endi bu hamkorlikni tubdan yangi darajaga ko'tarish kerak, shunda bo'lajak ish beruvchi o'zining ishlab chiqarish va ilmiy-tadqiqot bazasida ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda va bo'lajak mutaxassisning kompetensiyalarini shakllantirishda ishtirok etish uchun haqiqiy imkoniyatga ega bo'ladi. Faqat shundagina o'qitish jarayonida alohida olingan mintaqalarning haqiqiy ehtiyojlari va istiqbollari hisobga olinadi. Ko'rib chiqilayotgan mavzu bo'yicha nashrlar va axborot-tahliliy materiallarni ko'rib chiqish shuni ko'rsatdiki, hozirgi vaqtda umuman klasterlar va xususan ta'lim klasterlari muammosiga bag'ishlangan ko'plab ishlar mavjud. Zamonaviy sharoitda ta'lim klasterlarini rivojlantirish qonuniyatlari va tamoyillarini o'z ichiga olgan nazariy ishlanmalar ham, turli mintaqalarda innovatsion ta'lim klasterlarini rivojlantirish tajribasini yoritishga bag'ishlangan amaliy sharhlar ham yetarlicha bo'lishiga qaramay, aynan ta'lim klasterining kompetentli bitiruvchisini shakllantirish samaradorligini tekshirish metodikasi masalasi yetarlicha ishlab chiqilmagan. Ta'lim klasterlarining mavjudligi va rivojlanishining dolzarbligini tasdiqlash uchun bunday tajriba-sinov nafaqat alohida klasterlarda, balki pedagogika oliy ta'lim muassasasining raqobatbardosh bitiruvchisini shakllantirish samaradorligi bilan ham taqqoslash zarur.

Keyingi muhim masala shundan iboratki, ta'lim klasterlari ishining samaradorligi faqat mustahkam ijtimoiy sheriklik mavjud bo'lgandagina mumkin bo'ladi, bu esa ma'lum shartlarga rioya qilgan holda amalga oshirilishi mumkin.

Birinchidan, bitta klaster doirasida bitta sohaning barcha ta'lim darajalarining uzviy bog'liqligini yaratish zarur. Ta'lim muassasalari integratsiyasining hozirgi sharoitida o'zaro kelishilgan ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish zarurati allaqachon yetilgan. Ko'p darajali kasbiy ta'lim ta'lim klasteri ishtirokchilari tomonidan amalga oshirilishi kerak, ular uzluksizlikni, turli darajadagi

ta'limning o'zaro bog'liqligini, shuningdek, tashkiliy va predmetli birlikni ta'minlaydi. Bir qator mualliflar ko'p darajali kasbiy ta'lim asoslanishi kerak bo'lgan tamoyillarni ko'rsatadilar - uzluksizlik, ochiqlik, tugallanganlik va yaxlitlik. Turli darajadagi ta'lim dasturlarining uzluksizligi o'qish muddatlarini optimal qisqartirishga imkon beradi, bu bilan talaba yoki tinglovchining O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi qonunining 4-moddasiga muvofiq o'zlashtirilayotgan ta'lim dasturi doirasida tezlashtirilgan (eksternat tartibida) o'qitishning individual o'quv rejasi bo'yicha o'qish huquqini ta'minlaydi. Ushbu shartga rioya qilish, shuningdek, ta'limning bir darajasidan ikkinchisiga o'tish jarayonida ta'lim oluvchining, shuningdek, bitiruvchining ish joyida moslashish vaqtini minimallashtirishga yordam beradi. Psixologlarning tadqiqotlariga ko'ra, yosh mutaxassisning yangi ish joyiga moslashishining minimal davri xodimning ham standart vazifalarni tezkor hal qilishga, ham strategik vazifalarni qabul qilishda ishtirok etishga qodir bo'lishi uchun yetarli bo'lib, 6-7 oyni tashkil etadi. Ta'lim klasteri doirasida uzviylikka rioya qilish bu muddatni 3-4 oygacha qisqartirish imkonini beradi.

Ikkinchidan, ta'lim klasteri ishtirokchilarining ta'lim dasturlari kasbiy standartlar talablariga qat'iy muvofiq ravishda ishlab chiqilishi kerak. Bunda turli darajadagi ta'lim dasturlari o'z tuzilishi va mazmuniga ko'ra muvofiqlashtirilishi lozim.

Uchinchidan, korxonalar va ta'lim klasterlari jamoalarining o'zaro munosabatlarida korporativlik tamoyili. Ushbu tamoyilga rioya qilish o'qilayotgan fanlar mazmunining takrorlanishiga yo'l qo'ymaydi. Tadqiqot ma'lumotlariga ko'ra, kunduzgi ta'limning alohida asosiy ta'lim dasturlari va qo'shimcha kasbiy ta'lim dasturlarini amalga oshirishda ushbu dasturlarning o'zaro bog'liqligi o'rtacha 83% ko'rsatkichga yetadi. Korporativlik tamoyiliga rioya qilish hisobiga bo'shaydigan vaqtni potensial ish beruvchilar bilan birgalikda ishlab chiqilgan kurslarni joriy etish orqali ta'lim oluvchilarning ta'limidagi bo'shliqlarni bartaraf etishga va (yoki) muayyan soha uchun bo'lajak kadrlarni yanada sifatli tayyorlashga yo'naltirish taklif etilmoqda. Hozirgi globallashuv sharoitida o'zining innovatsion faolligini maksimal darajada namoyon etayotgan mintaqalar raqobatdosh ustunlikka ega ekanligi shubhasiz. Mintaqaviy innovatsion rivojlanishda mintaqaviy ta'lim klasteri muhim rol o'ynashi mumkin. To'g'ri tuzilgan ta'lim klasteri modeli mintaqaviy mehnat bozorining doimiy o'zgaruvchan ehtiyojlarini hisobga olish imkonini beradi va raqobatbardosh va malakali mutaxassisni tayyorlash uchun sharoit yaratadi. Bunga ta'lim klasterlarining tanlovdagi mustaqilligi tufayli erishiladi. muayyan mintaqa uchun kadrlar tayyorlashning asosiy yo'nalishlarini qamrab oladigan kasbiy ta'lim dasturlari va uzluksiz o'quv rejalarini amalga oshirish.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori (qaror nomi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 8-sentyabrdagi 703-sonli qarori tahririda - O'R QHT, 2017-y., 37-son, 990-modda)

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-sentyabrdagi PF-5544-son Farmoni.//2019 - 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasi 1-bob. Umumiy qoidalar.

3. Mixaylova N.V. Mirovoy opit realizatsii protsessov klasterizatsii regionalnoy ekonomiki //Novie texnologii. - 2007. - No 4. - S. 105-107.

4. ROSNANO nanotexnologicheskiy slovar// URL: http://thesaurus.rusnano.com/ (data obrasheniya: 19.12.2016).

5. Xasanov R.X. Klaster yondashuvlaridan foydalangan holda mintaqaviy sanoat siyosatini amalga oshirish //Zamonaviy iqtisodiyot muammolari. 2009. No3.

6. Korchagin, Ye. A., Safin, R. S. Integratsiya kak osnova urovnevogo professionalnogo obrazovaniya v nauchno-obrazovatelnom klastere / Ye. //Vыsshee obrazovaniye v Rossii. - 2013. - No 6.- S. 19 - 25.

7. Yakovleva Ye.I. Sotsialno-aksiologicheskiy analiz globalizatsii: dis.... kand. filos. nauk: 09.00.11 N. Novgorod, 2005. - 159 b.

8. Yavorskiy O.Ye. Obrazovatelniy klaster kak forma sotsialnogo partnerstva texnikuma i predpriyatiy gazovoy otrasli: dis.... kand. ped. nauk. - Kazan, 2008. - 252 b.

IZONIKOTIN KISLOTANING -TOLUIDIN BILAN REAKTSIYASINI O‘RGANISH

Nurmatov Doston Urolovich
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Fizika va kimyo fakulteti,
kimyo kafedrasi, o`qituvchisi. Dostonnurmatov 9895@gmail.com
Abdushukurov Anvar Kabirovich
Mirzo ulug’bek nomidagi O’zbekiston Milliy universiteti,
kimyo fakulteti, organik kimyo kafedrasi professori
Allaev Jumakul XXX
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Fizika va kimyo
fakulteti, kimyo kafedrasi, dotsenti
Jumabaeva Gulbarchin Urazboy qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Fizika va kimyo fakulteti,
kimyo kafedrasi, 4-bosqich talabasi.

ANNOTATSIYA

Ma‘lumki, karbon kislotalarning aromatik aminlar bilan reaktsiyalari natijasida xona haroratida to‘rtlamchi ammoniy tuzlari hamda yuqori haroratda kislota amidlari sintez qilingan. Dastlab izonikotin kislota va m-toluidin bilan reaktsiyasi natijasida m-toluidiniy izonikatinat to‘rtlamchi ammoniy tuzi yuqori unum bilan sintez qilindi. Hamda yuqori temperaturada olib borilgan reaktsiya natijasida N-(m-tolil)izonikotinamid sintez qilingan moddalarning tuzilishi zamonoviy fizik-kimyoviy tadqiqot usullari bilan tekshirildi.

Kalit so‘zlar: m-toluidin, izonikotin kislota, amid, aromatik aminlar, m-toluidiniy izonikatinat, N-(m-tolil)izonikotinamid.

АННОТАЦИЯ

Как известно, в результате реакции карбоновых кислот с ароматическими аминами при комнатной температуре образуются четвертичные аммониевые соли, а при высокой температуре синтезируются амиды кислот. Впервые в результате реакции изоникотиновой кислоты с м-толуидином был синтезирован четвертичный аммониевый соль м-толуидиния изоникотината с высоким выходом. Кроме того, при проведении реакции при высокой температуре был синтезирован N-(м-толил)изоникотинамид, а строение полученных веществ было изучено с помощью современных физико-химических методов анализа.

Ключевые слова: м-толуидин, изоникотиновая кислота, амид, ароматические амины, м-толуидиний изоникотинат, N-(м-толил)изоникотинамид.

ABSTRACT

As is known, the reaction of carboxylic acids with aromatic amines at room temperature results in the formation of quaternary ammonium salts, while at high temperatures, acid amides are synthesized. For the first time, as a result of the reaction of isonicotinic acid with m-toluidine, the quaternary ammonium salt m-toluidinium isonicotinate was synthesized with a high yield. Moreover, when the reaction was

carried out at high temperatures, N-(m-tolyl)isonicotinamide was synthesized, and the structure of the obtained compounds was studied using modern physicochemical analysis methods.

Key words: m-toluidine, isonicotinic acid, amide, aromatic amines, m-toluidinium isonicotinate, N-(m-tolyl)isonicotinamide.

KIRISH

Aminlarni, xususan aromatik aminlarni karbon kislotalarning angidridlari va galogenangidridlari bilan N-atsillash (benzoillash) reaktsiyalaridan yuqori unumlar bilan kislota amidlarini olish mumkinligi adabiyot ma‘lumotlarini tahlilidan ko‘rish mumkin. Ammo, bugungi kunda har qanday murakkab tuzilishli organik moddani tayyor reagentlardan foydalangan holda qisqa vaqtda va kam bosqichli reaktsiyalar orqali, sintez qilish yo‘llarini topish kimyogarlar oldidagi muhim vazifalardan biri bo‘lib turibdi. Ta‘kidlash kerakki, kislota amidlarining sintezida ham mazkur jihatlarga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Natijada amidlar sintezida atsillovchi agentlar sifatida karbon kislotalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llash orqali yuqori unum bilan mahsulot sintez qilishning samarali usullari ishlab chiqilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI METODOLOGIYASI

Karbon kislotalarning aminlar bilan reaktsiyalarini o‘rganish bilan bog‘liq izlanishlarning natijalari reaktsiyalarning oraliq protonlangan to‘rtlamchi ammoniy tuzlari hosil bo‘lishi bilan borishi, ma‘lum sharoitda qizdirilganda esa kondensatlanishi natijasida kislota amidlari hosil bo‘lishini ko‘rsatadi [1;4-8, 2; 371-379 b., 3; 194-197 b.,].

Triftormetil guruhi saqlagan anion xolatidagi aromatik birikmalardan yangi uchlamchi amidlar sintez qilingan. Anion holatidagi aktiv triftormetil guruh saqlagan birikmalar uchlamchi amidlarni sintez qilish uchun suvli sharoitda ikkilamchi aminlar bilan reaktsiyaga kirishgan va 99% unum bilan uchlamchi amidni sintez qilingan [4; 2024-2027 b.]:


Xitoylik bir guruh olimlar ham kislota asosli kondensatlanish reaktsiyalari orqali bor kislotalaridan kislota amidlarini olishda muvaffaqiyatli natijalarni ko‘rsatishgan. Ularning dastlabki urinishlari asosida, 4-fenilbutan kislotasini benzilamin bilan 91% unumda, n-benzil-4-fenilbutiramid sintez qilishgan [5; 262-272 b.]:

Amid bog‘li birikmalar orasida izoniazid mikrobiologik skriningi past kontsentratsiyalarda patogen bakteriyalarning ayrim shtammlariga nisbatan juda yuqori faolligi aniqlangan. So‘ngra tuberkulyoz va sil kasali bo‘lmagan mikobakteriyalarga qarshi istiqbolli antimikrobakterial xususiyatlari kuzatilgan [6; 20450-20462 b.]:

MUHOKAMA

Mazkur ish ham yuqorida ta‘kidlab o‘tilgan izlanishlarning davomi bo‘lib, izonikotin kislotaning m-toluidin bilan tuzlarini olishga bag‘ishlangan. Tuz olish reaktsiyalari reagentlarning 1:1 mol nisbatida xona xaroratida qutbli organik erituvchi etanolda olib borildi. Amin va izonikotin kislota alohida idishlarda qutbli organik erituvchida eritilib, aralashtirildi va reaktsiya aralashmasi 5-6 kun davomida ochiq havoda qoldirildi. Erituvchi uchib ketishi bilan idish tubida tuz kristallari hosil bo‘ldi.

Izonikotin kislota tuzining xosil bo‘lishini quyidagi sxema orqali ko‘rsatish mumkin:




Olingan m-toluidiniy izonikatinat tuzi atsetonda yuvib tozalandi, suyuqlanish haroratlari aniqlandi va tuzilishi IQ-spektroskopiya usuli orqali o‘rganildi.


Olingan tuzlar qishloq xo‘jaligida pestitsidlar sifatida qo‘llash mumkin bo‘lgan biologik faollikni namoyon qilishi kutiladi.

Tadqiqotlarni davom ettirgan holda izonikotin kislotasining m-toluidin bilan reaktsiyasini yuqori haroratda qaynaydigan erituvchi dimetilformamid (DMFA) ning qaynash temperaturasida teskari sovutgich bilan jihozlangan kolbada magnitli aralashtirgichda 7 soat olib borildi va tegishli kislota amidi sintez qilindi.


Reaktsiya tenglamasi quyidagicha:




Olingan mahsulotni 40% li etanol-suv aralashmasidan qayta kristallandi, kaltsiy xloridli eksikatorda quritildi. Suyuqlanish harorati aniqlandi, IQ va YaMR spektrlari yordamida tuzilishini tasdiqlagan hamda tozaligi yupqakatlamli xromatografiya (YuQX) usuli yordamida tekshirildi.




N-(m-tolil)izonikotinamidning IQ spektri



N-(m-tolil)izonikotinamidning mass spektri



N-(m-tolil)izonikotinamidning YAMR-spektri



N-(m-tolil)izonikotinamidning ^{1}H ^{13}C YAMR-spektri

NATIJALAR

m-Toluidiniy izonikatinat (1)

Stakanga 0,69 g (0,005 mol) izonikotin kislota va 0,535 g (0,005 mol) *m*-toluidinning o‘zaro ta‘siridan 1,1393 g (93%) m-toluidiniy izonikatinat olindi. Suyuqlanish harorati 79-81°C. IQ-spektri (KBr, ν, sm^{-1}): 2859, 2599 ($^{+}NH_3$), 2084 ($^{+}NH_3$), δ 1657 ($^{+}NH_3$), 1611 (COO^{-}), 1385 (COO^{-}), 3423 (ON). ^{1}N YaMR spektri (400 MGts, CD_3COOD, δ, m.u., J/Gts): 7.87 (1H, dd, *J* = 7.9, 1.7, H-6), 7.43 (1H, s., N-2`), 7.39 (1H, d., *J* = 8.0, N-6`), 7.25 (1N, dd, *J* = 8.4, 7.3, 1.7, N-4), 7.18 (1N, t, *J* = 7.8, N-5`), 7.12 (1N, k.d., *J* = 7.5, N-4`), 6.88 (1N, t.d, *J* = 8.2, 1.2, N-5), 6.83 (1N, d, *J* = 7.2, N-3), 2.27 (3N, s, N-7`).

N-(m-tolil)izonikotinamid (2)

Teskari sovutgich bilan jihozlangan kolbada 1,277 g (0,010 mol) izonikotin kislota, 1,110 g (0,010 mol) m-toluidin, 10 ml dimetilformamid solindi va magnitli aralashtirgichda 7 soat davomida qizdirildi. Reaktsiya tugaganidan so‘ng dimetilformamid haydab olindi, quruq qoldiq 40% li etanol-suv aralashmasida qayta kristallandi. 0,770 g (64%) 2-modda olindi. Suyuqlanish harorati 122-124°S. R_f = 0,58 (benzol:atseton 1:3) Iq-spektri (KBr, ν, sm^{-1}): 3250 (NH), 1630 (S=O), 1265 (C-N), 1585 (C=C aromatik halqa).^{1}H NMR (600 MHz, METHANOL-D4L-D4) δ 9.05 (dd, *J* = 2.7, 1.5 Hz, 1H), 8.71 – 8.66 (m, 1H), 8.34 – 8.28 (m, 1H), 7.59 – 7.53 (m, 1H), 7.50 (s, 1H), 7.49 – 7.44 (m, 1H), 7.22 (td, *J* = 8.5, 3.5 Hz, 1H), 7.00 – 6.95 (m, 1H), 2.33 (dd, *J* = 5.5, 2.7 Hz, 3H). ^{13}C NMR (151 MHz, METHANOL-D4L-D4) δ 165.01, 151.39, 148.05, 138.55, 135.98, 131.49, 128.55, 125.33, 123.81, 121.49, 118.06, 48.09, 47.95, 47.38,

XULOSA

1. Izonikotin kislotasining m-toluidin bilan etanolda xona haroratidagi reaktsiyalari natijasida ammoniy to‘rtlamchi tuzi hosil bo‘lishi aniqlandi.

2. Izonikotin kislotasining m-toluidin bilan kondensatlanish reaktsiyalari yuqori haroratda qaynaydigan erituvchi DMFA ning qaynash temperaturasida teskari sovutgich bilan jihozlangan kolbada magnitli aralashtirgichda tegishli kislota amidi sintez qilindi.

3. Olingan m-toluidiniy izonikatinat tuzi va amidning individualligi YuQX bilan tekshirildi, barcha mahsulotlarning tuzilishi IQ- va ^{1}H YAMR va ^{13}C YAMR spektri yordamida o‘rganildi va tasdiqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Aghayan M.M., Tavana M.M., Boukherroub R. Sulfonated reduced graphene oxide as a highly efficient catalyst for direct amidation of carboxylic acids with amines using ultrasonic irradiation // Ultrasonics Sonochemistry. 29, 2016. -R. 371-379.

2. Tamaddon F., Aboee F., Nasiri A. ZnO nanofluid as a structure base catalyst for chemoselective amidation of aliphatic carboxylic acids // Catalysis Communications 16, 2011. -P. 194-197.

3. O‘Mahony G., Pitts A. K. Synthesis of tertiary amides from anionically activated aromatic trifluoromethyl groups //Organic Letters. – 2010. – T. 12. – №. 9. – S. 2024-2027.

4. Pingwah Tang. Boric acid catalyzed amide formation from carboxylic acids and amines: n-benzyl-4-phenylbutyramide (Benzenebutanamide, n-(Phenyl-methyl)-) // Organic Syntheses-2005, Vol. 81, -P. 262-272.

5. Morrison R., Boyd R. Organicheskaya ximiya. Per. s angl. Demyanovich V.M., Smita V.A. M.: Mir, 1974.

6. Zhang Q, Chen C. Direct acylation of aryl amines using dimethylformamide and dimethylacetamide as the acyl resources // Journal of Saudi Chemical Society. 2016, 20. -R. 114-119.

7. Sonawane R.B., Rasal N.K., Jagtap S.V. Nickel-(II)-Catalyzed N-Formylation and N-Acylation of Amines // American Chemical Society, Organic Letters. 2017, 19, -P. 2078-2081.

ПЕДАГОГИКА ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ЎҚИТУВЧИ-ТЬЮТОР-ТАЛАБА ТИЗИМИДА ТАЪЛИМ-ТАРБИЯНИ ТАШКИЛ ЭТИШ АФЗАЛЛИКЛАРИ

ПРЕИМУЩЕСТВА ОРГАНИЗАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ В СИСТЕМЕ ПЕДАГОГ-ТЬЮТОР-СТУДЕНТ В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

ADVANTAGES OF ORGANIZING EDUCATION IN THE TEACHER-TUTOR-STUDENT SYSTEM IN PEDAGOGICAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS

***Султанов Хайтбой Эралиевич*[1],**

[1]Профессор, Чирчиқ давлат педагогика университети, Санъатшунослик факультети, Чирчиқ, Ўзбекистон

[1]ORCID ID: https://orcid.org/0000-0001-6655-3167

***Байназарова Нилуфар Хикматуллаевна*[2]**

[2]Тьютор, Чирчиқ давлат педагогика университети, Санъатшунослик факультети, Чирчиқ, Ўзбекистон

[2]ORCID ID: https://orcid.org/0009-0001-3667-7166

***Қаюмова Зилола*[3]**

[3]Талаба, Чирчиқ давлат педагогика университети, Санъатшунослик факультети, Чирчиқ, Ўзбекистон

***Кудратова Нозлия Илхом қизи*[4]**

[4]Талаба, Чирчиқ давлат педагогика университети, Санъатшунослик факультети, Чирчиқ, Ўзбекистон

АННОТАЦИЯ

Мақолада замонавий шароитда талаба-ёшларнинг таълим тарбиясида вужудга келаётган муаммолар, тасвирий санъатда кластер ёндашувига асосланган ўқитувчи-тьютор-талаба тизимида ташкил этилган “ижодий муҳит”нинг аҳамияти, индивидуал таълимнинг талабалар маънавий тарбиясига таъсири ва самарадорлиги асослаб берилган.

Шу билан бирга олий таълим муассасаларида таълим-тарбияни ташкил этишда устоз-тьюторнинг ўрни, ушбу интеграцион ҳамкорликнинг талабаларни касбий-педагогик, илмий-тадқиқот, ижодий ва маънавий-маърифий соҳаларга йўналтиришдаги назарий ва амалий хусусиятлари тадқиқ қилинади.

Калит сўзлар: кластер ёндашуви, интеграция, тасвирий санъат, индивидуал таълим, тьютор, устоз-шогирд, ижодий муҳит, таълим-тарбия.

АННОТАЦИЯ

В статье обосновываются проблемы, возникающие в воспитании и обучении учащихся в современных условиях, значение «творческой среды», организованной в системе педагог-тьютор-студент на основе кластерного подхода в изобразительном искусстве, влияние и эффективность индивидуального обучения на духовное воспитание учащихся.

При этом исследуются роль преподавателя-тьютора в организации образования в высших учебных заведениях, теоретические и практические особенности этого комплексного сотрудничества в направлении студентов в профессионально-педагогические, научно-исследовательские, творческие и духовно-воспитательные сферы.

Ключевые слова: кластерная ориентация, интеграция, изобразительное искусство, индивидуальное обучение, тьютор, педагог-студент, творческая среда, образование.

ABSTRACT

The article substantiates the problems arising in the education and training of students in modern conditions, the importance of the "creative environment" organized in the teacher-tutor-student system based on the cluster approach in the fine arts, the influence and effectiveness of individual training on the spiritual education of students.

At the same time, the role of the teacher-tutor in the organization of education in higher educational institutions, the theoretical and practical features of this complex cooperation in directing students into professional pedagogical, scientific research, creative and spiritual educational spheres are explored.

Key words: cluster orientation, integration, fine arts, individual learning, tutor, teacher-student, creative environment, education.

Кириш. Педагогика олий таълим муассасаларида таълим-тарбияни ташкил этишда ўқитувчи-тьютор-талаба тизимидаги ҳамкорликнинг аҳамияти катта. Айниқса, ёшлар орасида бугунги турли ахборотлар оқимининг кўпайиши, миллийлигимизга хавф соладиган ёт маданиятларнинг оммалашиб бораётгани ҳамкорликда ҳал қилиниши керак бўлган долзарб муаммолардан бири бўлиб қолмоқда. Олий таълим муассасаси профессор-ўқитувчиларининг «устоз-шогирд» ишлари[33] бўйича белгиланган вазифалар ҳамда тьюторлик фаолиятини ташкил этиш тартиби тўғрисидаги намунавий Низомда кўрсатилган таълим ва тарбия жараёни уйғунлигини самарали ташкил этиш[34] бўйича тьюторнинг вазифалари ҳам асосан бир хил мақсадга йўналтирилган. Бу икки ҳужжатда ҳам ўқитувчи ва тьюторларга талабаларнинг таълим олиш даражасига таъсир кўрсатадиган шахсий ва академик муаммоларни бартараф этиш фаолияти устивор вазифалардан бири ҳисобланади. Шундан келиб чиқиб айтишимиз мумкинки, кластер ёндашувига асосланган ўқитувчи-тьютор ҳамкорлигида талаба билан ишлаш орқали олий таълим муассасаларидаги таълим-тарбия жараёни самарадорлигини ошириш мумкин.

Мақоланинг мақсади: олий таълим муассасаларида таълим-тарбияни ташкил этишда устоз-тьюторнинг ўрни, талабаларни касбий-педагогик, илмий-тадқиқот, ижодий ва маънавий-маърифий соҳаларга йўналтиришдаги афзалликларини ҳамда уни қўллашнинг назарий ва амалий хусусиятларини тадқиқ этишдан иборат.

Шунингдек, бу ёндашув аждодларимиздан мерос бўлиб келаётган "Устоз-шогирд" анъаналари асосида таълим-тарбияни ташкил этиш имкониятини кенгайтиради. Бу усул бугунги замонавий талаблар асосида индивидуал таълимни тўғри ташкил этишга ёрдам беради ва талабалар ўртасида ўзаро фаол муносабатларни рағбатлантиради. Бундай ёндашув ўқитувчи-тьютор-талаба тизимида узвийлик ва узлуксизликни таъминлайди. Ҳар бир иштирокчи фаол иштирок этиши учун жамоада интеграцион ҳамкорликка асосланган "ижодий муҳит" ушбу фаолиятнинг самарадорлигини таъминлайди. Бу ерда ўзаро ишонч ва самимий муносабатга қурилган ўқитувчи-тьютор ва талаба тизимидаги фаолият "ижодий муҳит"да янада кўпроқ натижа беради. Яъни, ҳамкорликка асосланган "Устоз-шогирд" муносабатлари такомиллашади, индивидуал таълим орқали талабага доимий академик ёрдам кўрсатилади, улардаги ўз-ўзини бошқариш

[33] Ўзбекистон Республикаси олий ва ўрта махсус таълим вазирининг 2018 йил 10 сентябрдаги 20-2018-сон буйруғи
[34] Ўзбекистон Республикаси олий ва ўрта махсус таълим вазирининг 2021 йил 30 сентябрдаги 412-сон буйруғи

муомала ва мулоқот кўникмаларини ривожлантириш имкониятлари яратилади. Бу тизим таълим сифатини ошириш ҳамда талабаларнинг ўқув жараёни, ҳаётий фаолиятида шахсий ютуқлари ва муваффақиятини оширишга ёрдам беради.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ. Олий таълим муассасаларида ўқитувчи-тьютор-талаба тизимидаги интеграцион ҳамкорлик индивидуал таълимни ташкил этиш, ўз-ўзини бошқариш, муомала ва мулоқот кўникмаларини ривожлантириш, академик ёрдам кўрсатиш каби бир қатор афзалликларга эга бўлади. Замонавий таълим тизимида таълим-тарбияни ташкил этиш бугунги технологиялар асрида глобал муаммолардан бири ҳисобланади. Бу кўпчилик олимларнинг илмий тадқиқотлари учун долзарб мавзуардан бўлиб қолмоқда. Масалан: И.И. Берсеновнинг фикрича, олий таълим муассасалари профессор-ўқитувчилари ва методистлари ҳамда кадрлар бўлими мутахассисларининг имкон қадар эҳтиёжларини инобатга олган ҳолда иш жойидаги барча манфаатдор томонларнинг самарали ўзаро ҳамкорлигига асосланган таълим дастурларини ишлаб чиқишни таъминлайди[35] [5,90,4]. Дарҳақиқат, замонавий талабларга мос ўзгарувчан дастурлар яратиш фақат ўқув дастурлари эмас, балки, индивидуал ёндашувга асосланган ўзаро ҳамкорлик муносабатлари учун ҳам муҳим аҳамият касб этади.

А.А. Белов ва В.Д. Труновалар ўзларининг ижтимоий сўровномалири натижасида талабаларнинг эҳтиёжлари асосида таълим-тарбия жараёнини индивидуаллаштириш, мослаштириш, амалиётга йўналтириш ва таълимга янги технологияларини татбиқ этиш зарурлигини таъкидлайди[36] [4,170,2]. Уларнинг илмий изланишларида олий таълим олишнинг аҳамияти, таълим-тарбия жараёни ва мазмуни амалиёт билан етарли даражада мувофиқ эмаслиги ҳақидаги талабаларнинг фикрлари таҳлил қилинади.

Н.П. Туровский томонидан университетда профессор-ўқитувчилар, академик гуруҳ мураббийлари, ётоқхона комендантлари, психологлар ҳамкорлигида талабаларнинг мустақил таълими ва тарбиялаши учун тўғри шарт-шароитларни яратиш[37] имкониятлари ўрганилади [10,30,5]. Тадқиқотчининг фикрича, мураббий индувидуал тартибда ташкилий, таҳлилий ва тадқиқот, ижтимоий ва коммуникатив йўналишларда талабаларга муаммоларни ҳал қилишга ижодий ёндашишни ўргатади. Шунингдек, улардаги қатъиятлиликни тарбиялайди ва оптимал ва самарали шаклларни танлаш орқали ижтимоий фойдали натижаларга эришишларига ёрдам бериши мумкинлигини эътироф этади. Тадқиқотчи М.Н. Тожибоев эса “Тютор-талаба” ҳамкорлиги ўзаро ҳурмат ва ишонч шаклига асосланишининг аҳамиятини эътироф этар экан, тьютор билан талабалар ҳамкорлигининг ҳар иккала субъэктлари фаолияти мақсадларининг уйғунлашуви ўзаро симпатия ва эмпатия, ўзаро ҳурмат ва қўллаб қувватлаш тамойилларини вужудга келтиради[38] [9,278,3].деган хулосага келади. Биз юқоридаги муаллифлар фикрларини умумлаштирган ҳолда миллий “Устоз-шогирд” анъаналари ва замонавий нндивидуал таълим уйғунлигига асосланган ўқитувчи-тьютор-талаба тизимида ташкил этиш таълим-тарбия самарадорлигини ошириши деб ўйлаймиз

[35] https://cyberleninka.ru/article/n/analiz-problem-v-organizatsii-uchebnogo-protsessa-vysshih-uchebnyh-zavedeniy-rossii-v-sovremennyh-usloviyah Берсенев И.И. (2025) Анализ проблем в организации учебного процесса высших учебных заведений россии в современных условиях *International Journal of Humanities and Natural Sciences*, vol. 1-1 (100), 87-90. -90

[36] Белов А.А.♦, Трунова В.Д. (2008). *Организация учебно-воспитательного процесса в современном вузе в оценках студентов.* Журнал Психология и педагогика: методика и проблемы практического применения .168-171 170

[37] Туровский Н.П. (2021) ОРГАНИЗАЦИЯ ВОСПИТАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В ВУЗЕ. *Международный научный журнал «ВЕСТНИК НАУКИ».* 8 (41) Т.1. -28-32. 30. 5

[38] Tojiboev M.N. (2022) Ta’lim jarayonida tyutor va talaba hamkorligining psixologik aspektlari. *CENTRAL ASIAN RESEARCH JOURNAL FOR INTERDISCIPLINARY STUDIES (CARJIS.* 2/2. 274-281. -278.3

Тадқиқот методологияси. Индивидуал таълимни ташкил этиш орқали фан ўқитувчилари билан бирга тьюторлар ҳар бир талабанинг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олиб, уларнинг шахсий ривожланиш траекторияси режасини ишлаб чиқишлари мумкин. Устоз шогирд анаъаналарига асосланган ушбу тизимда талабаларга кўпроқ шахсий эътибор қаратилади, муаммоли вазиятларда керакли ёрдам кўрсатилади. Қизиқиши, мойиллиги ва имкониятларига қараб соҳалар бўйича билим ва кўникмаларни торроқ доирада ўзлаштиришга йўналтириш, материални яхшироқ тушунишга ва қийинчиликларни енгишга ёрдам беради. Университетда ўқиш давридаёқ талабаларни касбий-педагогик, илмий-тадқиқот, ижодий ва маънавий-маърифий соҳаларга йўналтириш мумкин.

Ўз-ўзини бошқариш кўникмаларини ривожлантириш учун талабаларга келажакдаги касбий фаолияти учун муҳим ҳисобланган ўз вақтларини режалаштириш ва мустақил ишлашни ўргатиш лозим. Талабаларда ўз-ўзини бошқариш кўникмаларини ривожлантириш қуйидаги бир қатор усул ва ёндашувлар орқали амалга оширилиши мумкин:

- вақтни тўғри режалаштириш ва унинг амалга оширилишини домий назорат қилишни ўргатиш;

- мустақил таълимга йўналтириш;

- илмий ва ижодий лойиҳаларга жалб қилиш;

- мулоҳаза юритишни (таҳлил) ўргатиш.

Ўзбекистон Республикаси олий таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясидаги ёшларни илмий фаолиятга кенг жалб этиш, маънавий-маърифий ва тарбиявий ишлар таъсирчанлигини ошириш[39] муаммоларининг ечимида ҳам ҳам айнан ўқитувчи ва тьютор ҳамкорлик фаолияти муҳим ўрин тутади. Бу икки субъектнинг интеграцион ҳамкорлиги орқали талабадаги ўз-ўзини бошқариш, муомала, мулоқот ҳамда етакчилик кўникмаларини ривожлантириш осонлашади. Устознинг хайрихоҳлиги ҳамда қўллаб-қувватлашини ҳис қилиш талабада ушбу фаолиятни уддалашига нисбатан ишонч ва мотивацияни кучайтиради[40] [6,51,3]. Устоз ва шогирд ўртасидаги ўзаро манфаатли самимий муносабат талабанинг билим олиш вақтини тезлаштиради.

Бизнинг фикримизча, ўқитувчи-тьютор-талаба тизимида тасвирий санъат ва дизайн йўналиши талабаларидаги муомала ва мулоқот кўникмаларни ривожлантириш учун турли хил усул ва ёндашувлардан фойдаланиш мумкин. Масалан:

- жамоавий лойиҳалар, ижодий учрашув ва тадбирларда фаол иштирокини рағбатлантириш.

- ташкилий фаолиятга йўналтириш ва улардаги етакчилик қобилиятлари ривожланишига ёрдам бериш.

- мунозараларда қатнашиш ва омма олдидаги чиқишлари учун имкониятлар яратиш.

Бу усуллар талабаларга нафақат ўқишда, балки келажакдаги касбий фаолиятида ҳам бошқалар билан самарали муносабатда бўлиш учун зарур бўлган кўникмаларни шакллантиришга ёрдам беради. Лекин, бир хил ёндашув барча талабалар билан ишлашда тўғри келмаслиги аниқ. Талабаларга энг аввало ўзига нисбатан ишончсизлик, бирон ишни бажаришда юзага келадиган баҳона ёки инжиқликларни енгиш, вақтини тўғри режалаштириш ва олдинга қўйилган вазифани амалга оширилишини домий назорат қилишни ўргатишимиз керак.

[39] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сон Фармони
[40] Султанов Х.Э. Замонавий кластер ёндашуви ва “устоз-шогирд” анъаналари уйғунлигида тасвирий санъатдаги таълим-тарбия жараёнини ташкил этиш // “Замонавий таълим / Современное образование” илмий-амалий оммабоп журнали, 2024, № 9 (142). - 44-59 б.

Бу орқали талабалар берилган топшириқларни бажариш, имтиҳонлар, ижодий танловлар, шахсий ёки гуруҳли кўргазмаларга тайёргарлик кўриш учун ўз вақтларини мустақил бошқаришни ўрганади. Улардаги мақсадлар қўйиш ва белгиланган вазифалардаги устуворликларни белгилай олиш кўникмалари тарбияланади.

Чирчиқ давлат педагаогика университети тасвирий санъат, дизайн ва мусиқа йўналишларида талабаларни илмий ва ижодий лойиҳаларга фаол жалб этиб келинади. Санъатшунослик факультетида “Талаба талабага - Устоз, талаба талабага – шогирд” тамойилига асосланган “Ўргатиб-ўрганамиз” лойиҳаси, “Арт-терапия”, “Таълимда интеграция” лойиҳалари талабаларнинг фаоллашиши ва мустақил фаолиятлари учун қулай “ижодий муҳит” яратади. Ушбу лойиҳалар талабаларни касбий-педагогик, илмий-тадқиқот ва ижодкорликка йўналтиради, мустақил қарорлар қабул қилиш, топшириқларни тақсимлаш ва якуний натижа учун масъулиятни ўз зиммасига олишларини талаб қилади. Талабалар ўз билимларини бошқаларга ўргатиш жараёнида бўлажак педагог сифатида ўзларининг муваффақият ва муваффақиятсизликларини таҳлил қилишни ўрганадилар, бу уларга ўзларининг кучли ва заиф томонларини яхшироқ тушуниши ва кейинги ривожланишни режалаштиришга ёрдам беради.

Таҳлил ва натижалар. 2018 йил ташкил этилган “Талабалар ижодиёти клуби” талабаларни ташкилий фаолиятга йўналтириш ва улардаги етакчилик қобилиятлари ривожланишига ёрдам беради. Бу клуб фаолияти йилдан-йилга такомиллаштириб келинмоқда. Талабалар ижодиёти клубида интелектуал фаолият ва рационализаторлик, мусиқий тадбирлар, бадиий фаолият ташкилотчиси, спорт фаолияти, арт-терапия таълими, интеграцион фаолият, матбуот (блогерлик) ва ёш олимлар сектори фаолият кўрсатади. Ишлаб чиқилган Низом бўйича клуб раиси ва унинг ёрдамчилари бўлган 8 та сектор етакчилари уюшмани бошқаради. Талабаларнинг таълим-тарбия соҳасидаги фаоллигини ошириш, ташкилий фаолиятга йўналтириш ва улардаги етакчилик қобилиятлари ривожлантириш, мустақил равишда изланиш учун мотивация ҳосил қилиш, иқтидорли талабаларни турли илмий, ижодий йўналишларда бир жамоага бириктириш клубнинг асосий мақсади ҳисобланади.

“Талабалар ижодиёти клуби”га жалб этиш факультетда талабаларнинг касбий-педагогик, илмий-тадқиқот, ижодкорлик ва ташкилий йўналишларда фаоллашишини таъминлади. Дастлаб тасвирий санъат кафедраси қошида фаолиятини бошлаган “Талабалар ижодиёти“ клуби аъзолари ”Камалак-Арт” танлови, талаба ва ўқувчиларнинг бадиий кўргазмалари, ижодий танловлар ва “Қувноқлар ва зукколар” мусобақалари уюштиришда фаол иштирок этиб келади[41][8,257,2]. Талабалар томонидан олдинга сурилган инновацион ғоялар, уларнинг ташаббускорлиги, фаоллигига асосланадиган бундай лойиҳалар узлуксиз таълим тизими ривожи учун жуда муҳим. Кафедрада ташкил этилган барча тўгараклар, студиялар фаолиятига бошчилик қилиш, талабанинг ўқув ва шахсий фаолиятида вужудга келган муаммоларини ҳал қилишда ёрдам кўрсатиш[42] бўйича вазифалар амалиётда сезиларли натижалар бериб келаяпти. [7,14,1]. Клубнинг ҳар бир сектори етакчиси ўз йўналиши бўйича 10-15 нафар талаба билан ишлайди, мулоқот қилади, қандайдир тадбирни ташкил қилади. Бу улардан кўпчилик олдида тадбир мазмуни, мақсад ва вазифаларни аниқ етказиб бера олиш қобилиятларини талаб қилади. Бунинг устига етакчилар раҳбарият олдида (декан, декан ўринбосари, кафедра мудири ва тьюторлар) режа бўйича бажарилган ишлар ҳисоботини қилишлари керак. Ҳисоботлар талабаларга жамоа

[41] Султанов Х.Э., Турсунбоева М.О. “Талабалар ижодиёти” клуби фаолиятининг таълим кластери ҳамкорлигидаги аҳамияти //*International Scientific-Practical Conference Pedagogical education cluster: problems and solutions/* June 25-26, 2021. -255-260 б.

[42] Султанов Х.Э., & Муратов Х.Х. Педагогик таълим инновацион кластери орқали ўқув жараёни ва амалиётнинг самарали интеграциясини таъминлаш //Педагогика ва психологияда инновациялар| Инновации в педагогике и психологии| Innovations in pedagogy andpsychology/ №SI-3, -2020. -11-17 б.

олдида нутқ сўзлаш ва баҳслашиш қобилиятларини машқ қилишлари мумкин. Ундан ташқари ўқитувчи ва тьюторлар ижодий кўргазмаларда талабалар ўзиники ва бошқа тенгдошларининг ижодий ишларини шарҳлаши, таҳлил қилишлари учун имкониятлар беради. Мана шундай ташкил этилган интеграцион ҳамкорлик ва қулай "ижодий муҳит" талабаларни турли ўқув, илмий, ижодий, ташкилий фаолиятда бир жамоага бириктириш, таълим-тарбия соҳасидаги фаоллигини ошириши ўз исботини топмоқда. Ўқитувчи-тьютор-талаба тизимида жамоа фаолиятини мувофиқлаштириш, "Устоз-шогирд" анъаналарига асосланган нндивидуал таълимни ташкил этиш таълим-тарбия самарадорлигини ошириши мумкинлигини кўрсатади.

1 жадвал

Иқтидорли талабалар билан ўқитувчи-тьютор-талаба тизимида нндивидуал таълимни ташкил этиш бўйича жамоа фаолиятини мувофиқлаштириш

Ҳара кат	тадбирлар	натижа
Йўналтирувчи	Талабаларга касбий, ижодий, илмий, ташкилий йўналишларда фаолият кўрсатишлари учун ўқитувчи ва тьюторлар томонидан йил давомида тўғри йўналиш бериб борилди.	Талабаларнинг мустақил изланишлари, янги ғоялари қўллаб-қувватланди. ТИК фаолияти тизимлаштирилди, турли йўналишларда талабаларни фаоллаштиришга эришилди
Маслаҳатчи	Ўқитувчи ва тьюторлар томонидан доимий равишда талабаларнинг мураккаб муаммоли масалалар ечимига оид саволлари бўйича маслаҳат ва тавсиялар бериб борилди.	Маслаҳат ва тавсиялар орқали талабаларда пайдо бўлган мураккаб муаммолар ўз вақтида ҳал этилди. Бу уларнинг танлаган йўналишлари бўйича чуқурроқ кўникмаларга эга бўлиши учун имкон яратди.
Рағбатлантирувчи	Ўқитувчи ва тьюторлар томонидан талабаларни тўғри мақсад қўйиш ва унга эришишга ундаб, ютуқларини эътироф этган ҳолда рағбатлантирилишига катта эътибор қаратилди.	Жамоа томонидан бундай ёндашув, турли йўналишларда фаолият олиб бораётган талабаларга катта мотивация берди. Университет, факультет ва кафедраларнинг бренди яратилди.

ХУЛОСА ўрнида айтадиган бўлсак, олий таълим муассасаларидаги таълим-тарбияни самарали ташкил этишда ўқитувчи-тьютор-талаба тизимидаги интеграцион ҳамкорликнинг аҳамияти катта. Шунингдек:

- касбий-педагогик, илмий-тадқиқот, ижодий ва маънавий-маърифий соҳаларга йўналтириш талабаларга нафақат ўқишда, балки келажакдаги касбий фаолиятида ҳам бошқалар билан самарали муносабатда бўлиш учун зарур бўлган кўникмаларни шакллантиришга ёрдам беради.
- маслаҳат ва тавсиялар орқали талабаларда пайдо бўлган мураккаб муаммолар ўз вақтида ҳал этилди.

ЧДПУ Санъатшунослик факультетида жорий этилган “Талабалар ижодиёти” клуби фаолияти талабаларнинг ўқув фаолиятини мустақил режалаштириш ва етакчилик қобилиятларини шакллантиради.

ТАВСИЯЛАР

- ЧДПУ Санъатшунослик факультетида жорий этилган ўқитувчи-тьютор-талаба тизимидаги интеграцион ҳамкорлик тажрибасидан олий таълим муассасаларидаги таълим-тарбияни самарали ташкил этишда фойдаланиш мумкин.
- ушбу таълим муассасасидаги “Талабалар ижодиёти” клуби фаолияти тажрибаларини бошқа таълим муассасаларига жорий этиш мумкин.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сон Фармони.
2. Ўзбекистон Республикаси олий ва ўрта махсус таълим вазирининг 2018 йил 10 сентябрдаги 20-2018-сон буйруғи.
3. Ўзбекистон Республикаси олий ва ўрта махсус таълим вазирининг 2021 йил 30 сентябрдаги 412-сон буйруғи.
4. Белов А.А. & Трунова В.Д. (2008). Организация учебно-воспитательного процесса в современном вузе в оценках студентов. *Журнал Психология и педагогика: методика и проблемы практического применения.* 168-171. https://cyberleninka.ru/article/n/organizatsiya-uchebno-vospitatelnogo-protsessa-v-sovremennom-vuze-v-otsenkah-studentov
5. Берсенев И.И. (2025) Анализ проблем в организации учебного процесса высших учебных заведений россии в современных условиях *International Journal of Humanities and Natural Sciences*, vol. 1-1 (100), 87-90. https://cyberleninka.ru/article/n/analiz-problem-v-organizatsii-uchebnogo-protsessa-vysshih-uchebnyh-zavedeniy-rossii-v-sovremennyh-usloviyah
6. Султанов Х.Э. (2024) Замонавий кластер ёндашуви ва “устоз-шогирд” анъаналари уйғунлигида тасвирий санъатдаги таълим-тарбия жараёнини ташкил этиш. *“Замонавий таълим / Современное образование” илмий-амалий оммабоп журнали,* 9 (142). - 44-59 б.
7. Султанов Х.Э., & Муратов Х.Х. (2020). Педагогик таълим инновацион кластери орқали ўқув жараёни ва амалиётнинг самарали интеграциясини таъминлаш. *//Педагогика ва психологияда инновациялар| Инновации в педагогике и психологии| Innovations in pedagogy andpsychology*/ №SI-3, -11-17 б.
8. Султанов Х.Э., & Турсунбоева М.О. (2021) “Талабалар ижодиёти” клуби фаолиятининг таълим кластери ҳамкорлигидаги аҳамияти //International Scientific-Practical Conference Pedagogical education cluster: problems and solutions/ June 25-26. 255-260 б.
9. Tojiboev M.N. (2022) Ta’lim jarayonida tyutor va talaba hamkorligining psixologik aspektlari. *CENTRAL ASIAN RESEARCH JOURNAL FOR INTERDISCIPLINARY STUDIES (CARJIS*. 2/2. 274-281.
10. Туровский Н.П. (2021) ОРГАНИЗАЦИЯ ВОСПИТАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В ВУЗЕ. *Международный научный журнал «ВЕСТНИК НАУКИ».* 8 (41) Т.1. -28-32.

ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Raximova Ismigul Sadulla qizi
Egamberdiyeva Yulduz Dilshod qizi
JDPU Tabiiy fanlar fakulteti, Geografiya va Iqtisodiy bilim asoslari yo'nalishi
2-kurs talabalari

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim tizimidagi ahamiyati va ularning samarali qo‘llanilishi masalalarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Pedagogik texnologiyalar o‘qitish va o‘rganish jarayonini yaxshilash, talabalarning o‘quv motivatsiyasini oshirish va o‘quv natijalarini yuqori darajaga ko‘tarish uchun muhim vositalardan biri hisoblanadi. Maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy turlari, ulardan foydalanishning metodik asoslari va amaliy qo‘llanilish usullari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, texnologik innovatsiyalarning pedagogik faoliyatga ta'siri, talabalarga bilim berishda interaktiv metodlar va raqamli texnologiyalarning roli tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: zamonaviy pedagogik texnologiyalar, o‘qitish metodlari, raqamli texnologiyalar, interaktiv metodlar, ta'limda innovatsiyalar, pedagogika, o‘quv jarayoni, talaba motivatsiyasi, ta'lim samaradorligi, metodik asoslar.

ABSTRACT

This article is devoted to the study of modern pedagogical technologies in the education system and the study of their effective application. Pedagogical technologies are one of the important tools to improve the training and study process, increase students' educational motivation and raise the learning results. The article discusses the main types of modern pedagogical technologies, methodological use and methods of application use. Also, the effect of technological innovation on pedagogical activities, the students of the interactive methods and the role of digital technologies is analyzed.

Keywords: modern pedagogical technologies, teaching methods, digital technology, innovations, pedagogy, educational process, student motivation, methodical bases.

АННОТАЦИЯ

Эта статья посвящена изучению современных педагогических технологий в системе образования и изучению их эффективного применения. Педагогические технологии являются одним из важных инструментов для улучшения процесса обучения и обучения, повышения образовательной мотивации учащихся и повышения результатов обучения. В статье обсуждаются основные типы современных педагогических технологий, методологическое использование и методы использования применения. Кроме того, анализируется влияние технологических инноваций на педагогическую деятельность, студентов интерактивных методов и роли цифровых технологий.

Ключевые слова: современные педагогические технологии, методы обучения, цифровые технологии, инновации, педагогика, образовательный процесс, мотивация студентов, методические базы.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida pedagogik texnologiyalarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Texnologiyalarning o‘qitish va o‘rganish jarayonidagi roli o‘qituvchilar va talabalar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Bugungi kunda ta'lim jarayoni faqat an'anaviy metodlar bilan cheklanmaydi, balki innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali yanada samarali, interaktiv va talabalar uchun qiziqarli bo‘lgan o‘quv muhiti yaratilmoqda. Bunday texnologiyalar o‘qituvchilarga o‘z darslarini yangi usullar bilan olib borish, talabalarga esa o‘z bilimlarini yanada mustahkamlash imkonini beradi. Pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga samarali integratsiya qilish uchun pedagoglar nafaqat texnologiya vositalarini bilishlari, balki ularni ta'lim metodikalariga mos ravishda qo‘llashlari lozim. Shu sababli, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘rganish va ulardan foydalanish bugungi ta'lim tizimi uchun zaruriy shart bo‘lib qolmoqda. Ushbu maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayonida qanday qo‘llash, ularning samaradorligini oshirish uchun qanday metodik yondashuvlar mavjudligi haqida so‘z boradi. Maqolada, shuningdek, texnologiyalarning ta'limdagi innovatsion roli, o‘quv jarayonini yaxshilashga qaratilgan yondashuvlar va interaktiv metodlar tahlil qilinadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning eng asosiy maqsadi – ta'lim jarayonini individualizatsiya qilish, har bir talabaga uning imkoniyatlariga mos keladigan o‘qitish usullarini tanlash imkonini yaratishdir. Bu esa, o‘z navbatida, talabalar motivatsiyasini oshirishga va ularning o‘quv faoliyatini yuqori natijalarga erishishiga yordam beradi. Pedagogik texnologiyalar o‘qituvchilarga faqatgina dars berishning yangi usullarini o‘rganish imkonini bermaydi, balki ularni ta'lim jarayonining barcha jihatlarida interaktiv, samarali va innovatsion yondashuvlar orqali o‘qitish jarayonining sifatini oshirishga undaydi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim tizimiga integratsiya qilish, o‘qitishning samaradorligini oshirish bilan birga, talabalarning o‘zlashtirish darajasini ham sezilarli darajada yaxshilaydi. Bunday texnologiyalar yordamida ta'lim jarayoni interaktiv, ko‘p tomonlama va talabalarning faol ishtirokini ta'minlaydigan shaklga aylanishi mumkin. Misol uchun, multimedia vositalari, raqamli o‘quv platformalari, virtual laboratoriyalar va boshqa texnologik innovatsiyalar orqali o‘quvchilar nafaqat passiv ravishda darsni tinglashadi, balki turli interaktiv vazifalar va amaliy mashqlarni bajarishadi. Bu o‘z navbatida, o‘quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Texnologiyalarning ta'lim jarayoniga qo‘llanilishi o‘qituvchilarni yangi yondashuvlarni o‘rganishga majbur qiladi. Masalan, raqamli vositalar yordamida darsni individualizatsiya qilish, talabalarning o‘zining qiziqishlari va ehtiyojlariga mos ravishda o‘qitish imkoniyatlarini yaratadi. Bu, o‘z navbatida, har bir talabaga o‘z o‘qish jarayonini yaxshiroq boshqarish va o‘z maqsadlariga erishish imkonini beradi. O‘qituvchilar uchun esa bunday texnologiyalar darsni ko‘proq vizual, audio va interaktiv elementlar bilan boyitishga imkon yaratadi, bu esa o‘quvchilarning e'tiborini saqlash va ularni o‘qish jarayoniga yanada jalb etish uchun muhimdir.

Asosiy qism. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda katta ahamiyatga ega. Bu texnologiyalar o'qituvchilarga darslarni interaktiv tarzda tashkil etish, talabalarga esa o'z bilimlarini chuqur o'zlashtirish imkonini yaratadi. Biroq, texnologiyalarni to‘g‘ri va samarali qo‘llash uchun o‘qituvchilar nafaqat texnik vositalarni, balki ularni ta'lim jarayoniga qanday integratsiya qilishni ham yaxshi bilishlari kerak. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga kiritishning asosiy maqsadi – o‘quvchilarni ilg‘or metodlar va vositalar orqali o‘qitish, ularning o‘quv faoliyatini faollashtirish va ta'limning sifatini oshirishdir. Bugungi kunda ta'lim jarayoniga joriy etilayotgan texnologiyalar asosan multimedia vositalari, raqamli o‘quv platformalari, interaktiv doskalar, simulyatsiyalar, gamifikatsiya va boshqa ko‘plab innovatsion vositalardan iborat. Ularning har biri o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini oshirish, ularni o‘qishga yanada rag‘batlantirish, va darslarni yanada qiziqarli qilish uchun turli imkoniyatlar yaratadi. Multimedia texnologiyalari o‘quvchilarga dars materiallarini ko‘rgazmali ravishda taqdim etish imkonini beradi. Bu, o‘z navbatida, talabalarning o‘quv materialini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Masalan, rasm, video, audio va

animatsiyalar yordamida darsning ko‘p tomonlama yoritilishi talabalar uchun mavzuni tezroq va samaraliroq o‘zlashtirish imkonini yaratadi. Internet va onlayn platformalar esa o‘qituvchilarga o‘quv jarayonini masofaviy tarzda tashkil etish imkonini beradi. Bu texnologiyalar yordamida o‘qituvchilar har bir talabani alohida kuzatish, unga individual vazifalar va o‘quv resurslarini taqdim etish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Masofaviy ta'lim o‘zining qulayligi va tezkorligi bilan o‘quvchilarga o‘qishni mustaqil ravishda davom ettirish imkonini yaratadi.

Simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalar orqali talabalar amaliy bilimlarni o‘rganishadi. O‘quvchilarga amaliyot va laboratoriya mashqlarini simulyatsiya orqali bajarish imkoniyati yaratish, ayniqsa, resurslar va uskunalar yetishmasligi sababli amaliy mashg‘ulotlarga imkoniyati bo‘lmagan muassasalarda katta ahamiyatga ega. Bu usul talabalar uchun xavfsiz muhitda amaliyot o‘tkazish imkoniyatini yaratadi. Interaktiv doskalar va aqlli taxtalar esa darsni ko‘proq interaktiv tarzda o‘tish imkonini beradi. O‘qituvchilar o‘quvchilarga materiallarni taqdim etish jarayonida real vaqtda ularga savollar berish, fikrlar almashish va darsni faollashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Gamifikatsiya va o‘yinli metodlar ta'lim jarayoniga o‘yin elementlarini kiritish orqali o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi. O‘yinli vazifalar talabalarda ijodiy fikrlashni rivojlantiradi, shuningdek, ular muammolarni hal qilishda yangicha yondashuvlarni o‘rganadilar. O‘quvchilarning diqqatini saqlash va o‘qish jarayonini qiziqarli qilishda bunday metodlar alohida o‘rin tutadi. O‘yinli metodlar o‘quvchilarning o‘zaro hamkorlik qilishini, guruhda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi va ularning mustaqil fikrlashiga yordam beradi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etishning yana bir muhim tomoni – bu o‘qituvchilarning malakasini oshirishdir. Texnologiyalarni samarali qo‘llash uchun o‘qituvchilarni doimiy ravishda malaka oshirish kurslari va seminarlar bilan ta'minlash zarur. O‘qituvchilarning zamonaviy texnologiyalarni qanday qo‘llashni bilishlari ta'lim jarayonining muvaffaqiyatli bo‘lishida muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, pedagogik texnologiyalarni qo‘llash o‘qituvchilarning o‘z dars metodlarini yangilashiga, talabalarning ehtiyojlariga moslashishga va darslarni yanada sifatli tashkil etishga yordam beradi. Texnik resurslarning yetishmasligi ba'zi ta'lim muassasalarida o‘quv texnologiyalarini joriy etishda to‘siq bo‘lishi mumkin. Bunday holatlarda, davlat tomonidan texnik vositalarni ta'minlash, o‘qituvchilarga resurslarni yetkazib berish va ularni samarali ishlatish uchun sharoit yaratish zarur. Boshqa tomondan, texnologiyalarni to‘g‘ri ishlatish uchun o‘qituvchilarning individual yondashuvlari va ta'lim metodikalariga e'tibor qaratish zarur. Bu esa ta'limda texnologik innovatsiyalarni qo‘llashni samarali qilish va o‘quvchilarni to‘liq qamrab olish imkonini beradi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim tizimiga joriy etish nafaqat talabalarning o‘qish jarayonini yaxshilaydi, balki o‘qituvchilarning o‘z pedagogik faoliyatini yanada samarali tashkil etishlariga yordam beradi. Texnologiyalarning ta'limdagi roli faqatgina o‘qituvchining ishini yengillashtirish bilan cheklanmaydi, balki talabalarning o‘qish jarayonini yanada jonlantiradi, ularni o‘z o‘qishlarini mustaqil ravishda tashkil etishga undaydi. Zamonaviy texnologiyalar ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi va ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqadi.

Xulosa. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonini yangilash va uning samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ular o‘quvchilarga ta'lim materiallarini yanada qiziqarli va interaktiv tarzda o'zlashtirish imkoniyatini yaratadi, o'qituvchilarga esa darslarni individualizatsiya qilish va talabalarning ehtiyojlariga moslashtirishda yordam beradi. Multimedia texnologiyalari, onlayn platformalar, interaktiv doskalar, simulyatsiyalar, gamifikatsiya va boshqa vositalar orqali ta'lim jarayoni yanada jonli va samarali bo‘ladi. Biroq, zamonaviy texnologiyalarni ta'limda muvaffaqiyatli qo‘llash uchun bir nechta omillarni hisobga olish zarur. Bu omillar o‘qituvchilarning malakasi, texnik vositalarga bo‘lgan ehtiyoj, resurslarni samarali boshqarish va o‘quvchilarning yangi texnologiyalarga moslashish darajasiga bog‘liq. Ta'lim muassasalarida texnologiyalarni joriy etishda texnik resurslar va o‘qituvchilarning texnologik malakalarini doimiy ravishda oshirish, shuningdek, o‘quvchilarga zamonaviy texnologiyalarni samarali qo‘llashda yordam berish lozim. Ta'limda texnologiyalarni

muvaffaqiyatli qo‘llash o‘qituvchilar va o‘quvchilarning birgalikdagi sa'y-harakatlarini talab qiladi. Texnologiyalarni to‘g‘ri va samarali integratsiya qilish, ta'lim tizimini yangilash va modernizatsiya qilish uchun davlat va ta'lim muassasalari o‘rtasida yaxshilangan hamkorlikni ta'minlash zarur. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'limni yanada samarali va qiziqarli qilish imkonini yaratadi, ta'lim sifatini oshirishda muhim omil bo‘ladi va kelajakda o‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarish, ijodiy fikrlash hamda mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Ҳайдарова, С., & Юсуфов, Ж. (2021). КОМПЕТЕНЦИЯВИЙ ЁНДОШУВ АСОСИДА ГЕОГРАФИЯ ДАРСЛАРИНИ ТАШКИЛЛАШТИРИШ. *Журнал естественных наук*, *1*(2).

2. Usarov, J. E., Eshnayev, N. J., & Haydarova, S. A. (2020). Defects in scientific research of the problems of spiritual and moral crisis and its solution. *IEJRD-International Multidisciplinary Journal*, *5*(8), 6.

3. Gapparov, A., & Khaydarova, S. (2020). Population Systems In The Reclaimed Lands Of The Republic Of Uzbekistan. *Архив Научных Публикаций JSPI*.

4. Haydarova, S. (2021). GEOGRAFIYA DARSLARIDA ELEKTRON TAQDIMOTLARDAN FOYDALANISH. *Журнал естественных наук*, *1*(1).

5. Haydarova, S. (2021). Geografiyani o'qitishda kompetensiyaviy yondashuvning tatbiq etishning o ‘quvchi psixologiyasi bilan bog ‘liq jihatlari. *Журнал естественных наук*, *1*(1).

6. Haydarova, S. (2021). GEOGRAFIYA FANI O ‘QITUVCHISI KOMPETENTLIGI VA UNING ZAMONAVIY TALABLARI. *Журнал естественных наук*, *1*(1).

7. Haydarova, S. (2021). Фанни компетенциявий ёндошув асосида ўқитишнинг ўқувчи ёш психологик хусусиятларига боғлиқ жиҳатлари. *Журнал естественных наук*, *1*(1).

8. Haydarova, S., Mavlonov, X., & Muxamedov, O. (2021). Arid mintaqalarda yer resurslaridan foydalanishning o'ziga xos jihatlari (Jizzax viloyati misolida). *Журнал естественных наук*, *1*(1).

9. ABDUSALOMOVNA, H. G. F. O. Q., & KOMPETENTLIGI, V. U. Z. T. (2021). INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. *SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL*, *1*, 02.

10. COMPETENCIES, A. K. F. O. P. (2020). OF SCHOOLCHILDREN IN GEOGRAPHY. *INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION*, *1*, 5.

11. Gapparov, A., Haydarova, S., & Zaynutdinova, D. (2020). Мустақиллик йилларида Жиззах вилояти аҳолисининг демографик ривожланиши. *Архив Научных Публикаций JSPI*.

12. Haydarova, S., Kuldasheva, S., Abdullayeva, S., & Shokhrukh, K. (2021). Modern Technologies in Improving the Quality of Teaching. *Журнал естественных наук*, *1*(1).

13. ABDUSALOMOVNA, H. S. (2021). GEOGRAFIYA FANI O ‘QITUVCHISI KOMPETENTLIGI VA UNING ZAMONAVIY TALABLARI. *INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL*, *1*(02), 29-36.

14. Gapparov, A., Haydarova, S., & Kayumova, M. (2020). Жиззах вилоятида урбанизация жараени ва унга таъсир этувчи омиллар. *Архив Научных Публикаций JSPI*.

15. Abdusalomovna, K. S. (2020). FORMATION OF PRACTICAL COMPETENCIES OF SCHOOLCHILDREN IN GEOGRAPHY. *International journal of discourse on innovation, integration and education*, *1*(5), 384-387.

16. Nazarovna, T. Z., Azamkulovich, D. F., Jurayevna, M. N., & Abdusalomovna, H. S. (2016). Mortality and life expectancy rates of population of the Republic of Uzbekistan in the years after independence. *European science review*, (3-4).

17. Haydarova, S. (2021). methods of assessing the practical competense of scholchildren (on the example of geography). *Журнал естественных наук*, *1*(1).

18. Haydarova, S. (2021). O'QUVCHILARNING GEOGRAFIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHGA PEDAGOGIC-PSIXOLOGIK YONDOSHUV. *Журнал естественных наук*, *1*(3).

19. Усаров, Ж. Э., & Ҳайдарова, С. (2021). Фанни компетенциявий ёндошув асосида ўқитишнинг ўқувчи ёш психологик хусусиятларига боғлиқ жиҳатлари. *Science and Education*, *2*(Special Issue 1), 266-275.

21.Haydarova S., Usarov J., Eshnayev N. defects in scientific research of the problems of spiritual and moral crisis and its solution //Журнал естественных наук. – 2021. – Т. 1. – №. 1.

22.Haydarova S. et al. MIRZACHO'L O'LKASIDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKON1YATLARI //Архив Научных Публикаций JSPI. – 2020.

23.Haydarova S. GEOGRAFIYA FANI O 'QITUVCHISI KOMPETENTLIGI VA UNING ZAMONAVIY TALABLARI //Журнал естественных наук. – 2021. – Т. 1. – №. 1.

24.Nazarovna, T. Z., Azamkulovich, D. F., Jurayevna, M. N., & Abdusalomovna, H. S. (2016). Mortality and life expectancy rates of population of the Republic of Uzbekistan in the years after independence. *European science review*, (3-4).

25. ABDUSALOMOVNA H. S. GEOGRAFIYA FANI O 'QITUVCHISI KOMPETENTLIGI VA UNING ZAMONAVIY TALABLARI //INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL. – 2021. – Т. 1. – №. 02. – С. 29-36.

26. Eshbekovich U. J., Jumayevich E. N., Abdusalomovna H. S. Defects in scientific research of the problems of spiritual and moral crisis and its solution //International Engineering Journal For Research & Development. – 2020. – Т. 5. – №. 8. – С. 6-6.

27. Khaydarova, S. A. (2022). FORMATION OF PRACTICAL COMPETENCES OF SCHOOLCHILDREN IN GEOGRAPHY. *Journal of Geography and Natural Resources*, *2*(01), 50-57.

28. Usarov, J. E., Khimmataliev, D. O., Makhmudova, D. M., Abdusalomovna, H. S., & Nizamiddinovich, E. A. (2023). Pedagogical Foundations of the Student's Individual Training Trajectory. *Telematique*, *22*(01), 1259-1264.

29.Surayyo Khaydarova, Yulduz Khujamova, Munojat Toshbaeva, Dilshod Muhitdinov,

Gulkhayo Mamanazarova, Oygul Tukhtakulova and Nodir Karimov. The Vital Role of Libraries in Enriching tourism Experiences. Indian Journal of Information Sources and Services

ISSN: 2231-6094 (P) Vol.14, No.2, 2024, pp.11-16, © The Research Publication, www.trp.org.in, DOI: https://doi.org/10.51983/ijiss-2024.14.2.02.

KLASTER YONDASHUVINING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI PEDAGOGIK INNOVATSIYALAR ASOSI SIFATIDA

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ КЛАСТЕРНОГО ПОДХОДА КАК ОСНОВЫ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИННОВАЦИЙ

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE CLUSTER APPROACH AS A BASIS FOR PEDAGOGICAL INNOVATIONS

Allayorova Sarvinoz Baxtiyorovna

Teacher of the Chirchik State Pedagogical University, faculty of pedagogical, Chirchik, Uzbekistan
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0002-3992-4000

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ta’lim tizimida klaster yondashuvning nazariy va metodologik asoslari, ta’lim jarayonida nnovatsion go‘yalardan foydalanish borasida so‘z boradi. Dunyo bo’yicha rivojlangan davlatlar bugungi davr globallashuv sharoitida ijtimoiy sohalarning barqaror taraqqiyotini belgilashda ta’lim sohasini modernizatsiya qilishga alohida e’tiborini qaratmoqda. Albatta bu, ta’lim tizimiga yangi innovatsion yondashuvlar, samarali o‘zgarishlar va pedagogik texnologiyalarni faol tatbiq etish jarayonlari bilan bog‘liq ravishda kechadi.

Jahon amaliyotida ta’limning barcha turlari va bosqichlarida samaradorlikni oshirish va takomillashtirishning yangi mexanizmi sifatida qaralayotgan klaster modelini yanada rivojlantirish natijasida ta’lim paradigmalarining yangi imkoniyatlarini topish, sub’yektlarning manfaatli hamkorligini yo‘lga qo‘yish orqali ularning istiqbol natijalarini kafolatlash, shaxsning sifatli ta’lim olishiga xizmat qiluvchi yangicha yondashuv va metodlarni ishlab chiqish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Ta’lim jarayonini klaster asosida tashkil qilishning ijobiy jihatlari shundan iboratki, tegishli davlat, ta’lim muassasalari va tadqiqot laboratoriyalari hamda boshqa ishtirokchilar o‘rtasida konstruktiv va samarali hamkorlik qilish imkonini yaratadi. Ilmiy tadqiqot ishi jarayonlarida pedagogik klaster dasturini joriy qilish rivojlangan xorijiy davlatlarda keng tarqalgan. Masalan, Germaniya ta’lim jarayonida davlat ilmiy-tadqiqot institutlarining faoliyat doirasini belgilab, ularga tegishli vakolatlar beradi va zarur moddiy baza bilan ta’minlaydi. Ushbu davlatning ta’lim va fan vazirligi, sog‘liqni saqlash, biotexnologiya, axborot texnologiyalari, ekologiya va transport kabi sohalardagi klaster namunalarini olsak xalqaro bilim almashish va asosiy yangiliklarni , bundan tashqari, o‘quv va ilmiy dasturlarni qo‘llab quvvatlash jarayonini ko’rishimiz mumkin

Kalit so’zlar: ta’lim klasteri, logistika, ta’lim xoldingi, klasterli yondashuv, innovatsiya, pedagogik innovatsiya

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются теоретико-методологические основы кластерного подхода в системе образования, использование инновационных идей в образовательном процессе. Развитые страны мира уделяют особое внимание модернизации сферы образования в целях обеспечения устойчивого развития социальных сфер в современную эпоху глобализации. Конечно, это происходит в связи с процессами новых инновационных подходов к системе образования, эффективными изменениями, активным внедрением педагогических технологий.

В результате дальнейшего развития кластерной модели, которая в мировой практике рассматривается как новый механизм повышения и совершенствования эффективности всех видов и ступеней образования, все большую актуальность приобретает поиск новых возможностей образовательных парадигм, обеспечение перспективных результатов путем налаживания взаимовыгодного сотрудничества между субъектами, разработка новых подходов и методов, позволяющих человеку получать качественное образование.

Положительными сторонами организации образовательного процесса на кластерной основе является то, что она создает возможности для конструктивного и эффективного сотрудничества между соответствующими государственными, образовательными учреждениями и научно-исследовательскими лабораториями, другими участниками. Внедрение педагогической кластерной программы в научно-исследовательские процессы широко распространено в развитых зарубежных странах. Например, Германия определяет сферу деятельности государственных научно-исследовательских институтов в образовательном процессе, наделяет их соответствующими полномочиями и обеспечивает необходимой материальной базой. Если взять примеры кластеров в Министерстве образования и науки, здравоохранении, биотехнологиях, информационных технологиях, экологии и транспорте нашей страны, то можно увидеть процесс международного обмена знаниями и ключевыми инновациями, а также поддержку образовательных и научных программ.

Ключевые слова: образовательный кластер, логистика, образовательный холдинг, кластерный подход, инновации, педагогические инновации

ABSTRACT

This article discusses the theoretical and methodological foundations of the cluster approach in the education system, the use of innovative ideas in the educational process. Developed countries around the world pay special attention to the modernization of the education sector in order to determine the sustainable development of social spheres in the conditions of globalization today. Of course, this is associated with the processes of new innovative approaches to the education system, effective changes and active implementation of pedagogical technologies.

As a result of further development of the cluster model, which is considered a new mechanism for increasing and improving efficiency in all types and stages of education in world practice, it is becoming increasingly important to find new opportunities for educational paradigms, to ensure their promising results by establishing beneficial cooperation between subjects, and to develop new approaches and methods that serve the individual to receive quality education.

The positive aspects of organizing the educational process on a cluster basis are that it creates an opportunity for constructive and effective cooperation between the relevant state, educational institutions and research laboratories, as well as other participants. The implementation of a pedagogical cluster program in the processes of scientific research is widespread in developed foreign countries. For example, Germany defines the scope of activities of state research institutes in the educational process, gives them the appropriate powers and provides them with the necessary material base. If we take examples of clusters in such areas as the Ministry of Education and Science of this country, healthcare, biotechnology, information technologies, ecology and transport, we can see the process of international knowledge exchange and basic innovations, as well as the support of educational and scientific programs.

Keywords: Educational cluster, logistics, educational holding, cluster approach, innovation, pedagogical innovation

KIRISH:

Ta'lim sohasida klasterli yondashuvning o'ziga xos ijobiy sifatlari shundaki, tegishli ishlab chiqarish korxonalari, davlat, ta'lim muassasalari va tadqiqot laboratoriyalari hamda boshqa ishtirokchilar o'rtasida konstruktiv va samarali hamkorlik qilish imkonini beradi. Ilm-fan hamda ta'lim jarayonida uzoq vaqtdan beri va juda samarali ishlatilgan *Klaster yondashuvi,* unda bir butunga birlashtirilgan elementlar o'rtasidagi bir nechta munosabatlarni hisobga olish zarurati tug'iladi.Ta'lim jarayonini tashkil qilish ham yangi bosqichga ko'tarilmoqda, o'quvchilar fikrlash darajasi ham kengaymoqda, axborot olish osonlashmoqda, bunday o'sish jarayonida o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanmaslik darsning ham samaradorligini pasaytirib yuboradi.

Ta'lim klasteri rivojlangan xorijiy davlatlarda keng tarqalgan bo'lib, Germaniyada davlat ilmiy-tadqiqot institutlarining faoliyat doirasini belgilab,ularga tegishli vakolatlar beradi hamda zarur moddiy baza bilan ta'minlaydi. Ushbu mamlakat ta'lim va fan vazirligi sog'liqni saqlash, biotexnologiya, axborot texnologiyalari, ekologiya va transport kabi sohalarda xalqaro bilim almashish va asosiy yangiliklarni, bundan tashqari,o'quv va ilmiy dasturlarni qo'llab-quvvatlaydi.

Germaniyada biznes va akademik muhit o'rtasida yaqin aloqalar mavjud.Universitet professorlari ilmiy-tadqiqot instituti, ishlab chiqarish korxonalari bilan muntazam hamkorlik qiladi.[3]

Ta'lim klasteri tarmoqlari ishtirokchilarining o'zaro faoliyatini amalga oshiruvchi maxsus shaxslar(koordinatorlari)beligilangan bo'lib, ular, odatda, oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari orasidan tanlab olinadi. Ilmiy-tadqiqot instituti, universitet va ishlab chiqarish korxonalari bilan yaqin aloqalarni qo'llab turadi. Ta'lim klasterlarini yaratishning samaradorligi, eng avvalo, uning innovatsiyalarning amaliyotga tadbiqining ijobiy natijalarida aks etadi. Zero, oliy ta'lim muassasasida innovatsiyalarni yaratish, samarali natijasiga kafolat berishini ta'minlash maqsadida barcha zarur ilmiy-uslubiy salohiyatga ega mutaxassislar faoliyati yo'lga qo'yilishi zarur. Ta'lim klasterlari-an'anaviy sanoat klasterlaridan farqli ravishda yangi bilim va innovatsiyalar generatori sifatida mintaqada yuqori ta'lim darajasini ta'minlaydi. Klasterda o'zaro hamkorlikning barcha elementlari zarur malakaga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashning ko'p darajali tizimini tartibga soladi. Ish beruvchi ta'limga qo'yiladigan talablarni, ta'lim muassasalari-o'qitishga yondashuvlarni belgilaydi, mahalliy hokimiyat ta'limning ishlab chiqarish bilan integratsiyasini ta'minlaydi. Shu bilan birga,talabga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlash jarayonida ularning kasbiy moslashuvi boshlanadi.

O'quv klasteri yaratilishi natijasida "qizil","sariq" umumta'lim maktablari reytingini ko'tarish imkoni vujudga keladi. [7]

Bunday taraqqiyot zamonaviy, amaliy ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish majmualari va biznes markazlari yaratish, investitsiya resurslari va kommunikatsiya yo'nalishlarga jalb etish, bandlik darajasini oshirish, biznes tuzilmalar paydo qilish uchun shart-sharoit,rag'batlantirish, tadbirkorlikka olimlarni jalb qilish va boshqa yo'llar orqali amalga oshiriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mamlakatimizda oliy ta'limni modernizatsiyalash jarayonida innovatsion pedagogik logistikani ishlab chiqish va klasterli ta'lim muhitida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. 2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yettita ustuvor yo'nalishi bo'yicha Taraqqiyot strategiyasida "Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish" ustuvor vazifa etib belgilangan. Bu borada innovatsion pedagogik logistikani tashkil etishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish, talabalarni ijtimoiy-gumanitar fanlarga doir kompetensiyalarini shakllantirish alohida ahamiyatga ega. Shu sababli innovatsion pedagogik logistikani ishlab chiqishning pedagogik shart-sharoitlarini ta'minlash va o'qitish metodikalarini takomillashtirish zaruratini taqozo qiladi.[8]

Innovatsiyalarga har qanday tizim rivojini boshqarish usuli sifatida qarash ularning jamiyat hayotining barcha jabhalarida, jumladan, ta’lim sohasida ham paydo bo‘lishini rag‘batlantiradi. Innovatsiyaning kengligi va intensivligi shundayki, milliy ta’lim tizimining zamonaviy paradigmasini innovatsiyalar orqali rivojlanish deb atash mumkin (A.A.Bocharov). Ular ta'lim tizimining eng muhim atributiga, raqobatdosh ustunliklar va shaxs ijtimoiy muvaffaqiyatining asosiy shartiga aylanib bormoqda. Bu yo'l ta'limdagi innovatsiyalarni nazariy tushunishni, postindustrial jamiyatning xususiyatlari va qonuniyatlariga mos keladigan metodologiyani shakllantirish va ularni boshqarish usullarini belgilashni talab qiladi.[6]

Ushbu muammolarni hal qilish turli xil iqtisodiy sohalarda bir-biridan tashqi ko'rinishda farq qiluvchi amaliy faoliyatning shakllari va usullarini belgilaydigan ilmiy asoslarga murojaat qilish bilan bog'liq bo'lishi mumkin, ular rivojlanishning umumiy qonuniyatlariga va mexanizmlariga rioya qilgan holda ta'lim muammolarini samarali hal qilishda foydalaniladi. Bunday asoslarni bugungi kunda ta’lim klasterlarini yaratish va boshqarish orqali ta’lim tizimini rivojlantirish nazariyasi va amaliyotini o‘zida mujassamlashtirgan ilmiy yo‘nalish bo‘lgan klasterli yondashuv bilan bog‘lash mumkin.

NATIJALAR

Hozirgi vaqtda ta'limning konseptual sohasida iqtisodiyotdan umumiy toifalarni olish natijasida shakllangan "ta'limda klasterli yondashuv" va "ta'lim klasteri" atamalari keng qo'llaniladi (E.I. Sokolova). Ushbu tushunchalarning qo'llanilishi bir vaqtning o'zida bir nechta semantik kontekstlarda sodir bo'ladi, ular orasidagi farqlar klasterni tashkil etuvchi obyektlarning sifat xususiyatlari, ko'lami va ta'siri chegaralari bilan bog'liq. Masalan, “ta’lim klasteri” iborasi “ta’lim kompetensiyasi”, “ta’lim dasturi”, “ta’limni tashkil etish” va “ijtimoiy institutlar birlashmasi” ma’nolarida qo‘llaniladi. Bu “ta’lim klasteri” tushunchasining turli mazmun bilan to‘ldirilishiga, izohlash va amaliy qo‘llashdagi noaniqliklarga olib keladi.[4]

Turli kontekstlarga tegishli obyektlar bo'ysunish munosabatlari bilan tavsiflanadi: vakolatlar ta'lim tashkiloti hayotining elementi bo'lgan ta'lim dasturining bir qismi sifatida ishlaydi va u o'z navbatida ijtimoiy institutlar birlashmasining a'zosi bo'lishi mumkin. Bu ta'lim klasterlarining nafaqat sifat xususiyatlari, ko'lami va ta'siri bo'yicha, balki klasterlash darajalari bo'yicha ham farqlar haqida gapirishga imkon beradi. Ikkinchisi - sinergik ta'sirga erishish uchun uni tashkil etuvchi obyektlarning resurslarini birlashtirish orqali klasterni yaratish va o'zgartirishning boshqariladigan jarayoni bo'lib, u faoliyat natijasi va rivojlanish sharti bo'lgan innovatsiyalarni yaratishda namoyon bo'ladi. Ushbu darajalarning har birining mazmuni ta'lim va innovatsiyalarni differentsiyallashtirishda klaster yondashuvining mohiyatini tushunish uchun o'ziga xos asosni belgilaydi.[3]

Bu holat pedagogik innovatsiyalarni ishlab chiqish, sinab ko‘rish va rag‘batlantirishga samarali ta’sir ko‘rsatish yo‘llari va vositalarini aniqlashda katta qiyinchiliklar tug‘diradi. Ikkinchisi raqobatbardoshlik, talab va iqtisodiy jozibadorlik talablariga javob berishi kerak. Ularning paydo bo'lishi tizimli innovatsiyalarni, mavjud bilimlardan yuqori darajada foydalanishni, bir vaqtning o'zida bir nechta ta'lim subyektlarining kuchlari va resurslarini birlashtirishni talab qiladi (D.S.Berezovskiy, A.P.Petrov)[1].

Ushbu shartlarning kombinatsiyasi ta'lim xoldingining o'ziga xos xususiyati bo'lib, u umumiy ta'lim makonini yaratish uchun ta'lim organlari (yoki oliy ta’lim muassasi) homiyligida hamkorlik va gorizontal integratsiya asosida ta'lim va boshqa tashkilotlarning birlashmasi hisoblanadi.

MUHOKAMA

Masalan, Rossiyada viloyatlaridan ta'lim xoldingining namunasi - Ulyanovsk viloyatining ta'lim tashkilotlarida innovatsion jarayonlarni rivojlantirish dasturida (keyingi o'rinlarda IJR dasturi deb yuritiladi) ishtirok etuvchi tashkilotlarni o'z ichiga olgan ta'lim tizimidagi innovatsion infratuzilma hisoblanadi.

1992 yilda tashkil etilgan xolding tizim rivojlanishini ta'minlaydigan innovatsiyalarni yaratuvchi hududiy ta'lim klasteri sifatida rivojlangan. Xolding faoliyati davomida pedagogik innovatsiyalarni yaratishdan to sinovdan o‘tkazish va rag‘batlantirishgacha bo‘lgan butun jarayonni qamrab oluvchi innovatsion faoliyatni boshqarish bilan bog‘liq masalalar o‘ta dolzarbligicha qoldi.

Innovatsiyalarning butun hayotiy sikli davomida harakatlanish mexanizmi "logistika" tushunchasi bilan tavsiflanadi, bu turli tizimlarda resurslar harakatini boshqarish nazariyasi va amaliyotiga taalluqlidir. Ilmiy tilda logistika ushbu boshqaruv metodologiyasini taklif qilsa, amaliy ma'noda u tashkilotdagi jarayonlarning o'zaro ta'sirini uyg'unlashtirish va oqimlarni (har qanday resurslarning yo'naltirilgan harakati) boshqarishning universal vositasi sifatida namoyon bo'ladi (A.M.Gadjinskiy; V.P.Melnikov; Y.M.Nerush, A.Y.Nerush, V.A.Shumaev va boshqalar). [5]

Ta'lim tizimida ushbu mexanizmni o'rganish ikki nuqtai nazarni shakllantirish bilan birga keldi. Birinchisi ta'lim muassasasi yoki ularning birlashmasi bo'lgan ta'lim tizimi infratuzilmasi barqarorligini ta'minlash muammolarini hal qiluvchi ta'lim logistikasi (V.A.Denisenko; N.Yu.Sklyarova; O.A. Trofimova). Ikkinchi pozitsiya pedagogik logistika bilan bog'liq bo'lib, uning maqsadi ta'lim jarayonining samaradorligi va sifatini ta'minlashdan iboratdir (Z.N.Bulaxova, Yu.N. Shestakov; E.A.Jitnov; V.M.Livshits; A.L.Nosov).[2]

XULOSA

Xulosa o’rnida shuni aytishim mumkinki, pedagogik tizimni va u amalga oshirilayotgan ta'lim tashkilotini rivojlantirish masalalari ushbu logistika turlari doirasidan tashqarida qolmoqda. Ushbu o'zgaruvchanlikni hisobga olish klaster yondashuviga asoslangan ta'lim va pedagogik logistikani integratsiyalashgandagina amalga oshirish mumkin. Ushbu birikmaning natijasi pedagogik innovatsiyalar logistikasi bo'lib, u ham faoliyat mahsuli, ham ta'lim klasterlarini rivojlantirish omili bo'lgan pedagogik innovatsiyalar oqimini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.“Logistika asoslari” o‘quv qo‘llanma. J.R Qulmuxamedov, M.M. Aripjanov, K.M. Nazarov, F.R. Mirzayev, X.A. Mirgiyazov TOSHKENT – 2015

2. S.B Allayorova Ilmiy tadqiqot klasterning nazariy asoslari. Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta’limning trasnformatsiyasi”. Respublika ilmiy-amaliy anjumanining ilmiy maqolalar va ma’ruza tezislari to‘plami (2022 yil 18 noyabr). – Tashkent: “Imzo Print

3. S.B Allayorova Ta’limda innovatsion uslublarni ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etishning nazariy asoslari Scientific Bulletin of NamSU - Научный вестник НамГУ-NamDU ilmiy axborotnomasi. 2023-yil2-son https://lib.cspi.uz/index.php?newsid=7692

4. Xalqaro dastur talabalari asosida innovatsion ta'lim muhitini yaratish Barakayevich, Qorayev Samaridin; Baxtiyorovna, Allayorova Sarvinoz http://journal.bilig.uz/isepsmj/article/download/1004/974

5. Qodirov Ikrom Davronovich (2024). Person-centered educational technologies within the educational cluster. INTERNATIONAL CAPPADOCIA SCIENTIFIC RESEARCH CONGRESS, 1141-1146.

6. S.B. Allayorova (2024). Ta'lim klasteri muhitida pedagogik innovatsiyalar logistikasi. PEDAGOG, 7 (3), 155-163.

7. S.B. Allayorova (2024). Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o’qitishni takomillashtirishning klasterli muhiti. PEDAGOG, 7 (3), 148-154.

8. Alibek Kaldibekov (2024). Talabalarda kasbiy ko’nikmalarni xalqaro baholash dasturlari asosida rivojlantirish metodikasi. Муғаллим ҳәм узликсиз билимлендириу, 2 (2/2), 248-257.

MADANIYATLARARO MULOQOT KOMPETENSIYASINING MUHIM JIHATLARI VA AMALIY YONDASHUVLARI

Shahlo Qahramonovna Sharopova
Dotsent, Buxoro tabiiy resusrslarni boshqarish instituti,
Yer resurslarni boshqarish va ekalogiya fakulteti, Buxoro, O'zbekiston.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada madaniyatlararo muloqot kompetensiyasining mazmuni, uning tarkibiy qismlari va ta'lim jarayonidagi ahamiyati yoritiladi. Turli madaniyat vakillari o'rtasida samarali muloqot o'rnatishning dolzarbligi ta'kidlanib, kompetensiyani rivojlantirish bo'yicha amaliy yondashuvlar tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: madaniyatlararo muloqot, kompetensiya, lingvistik kompetensiya, sotsiolingvistik kompetensiya, ijtimoiy-madaniy yondashuv.

АННОТАЦИЯ

В данной статье освещается содержание межкультурной коммуникативной компетенции, ее составляющие и значение в образовательном процессе. Подчеркивается актуальность налаживания эффективного общения между представителями различных культур и рекомендуются практические подходы к развитию данной компетенции.

Ключевые слова: межкультурная коммуникация, компетенция, лингвистическая компетенция, социолингвистическая компетенция, социокультурный подход.

ABSTRACT

This article elucidates the content of intercultural communicative competence, its components, and its significance in the educational process. The relevance of establishing effective communication between representatives of different cultures is emphasized, and practical approaches to developing this competence are recommended.

Keywords: intercultural communication, competence, linguistic competence, sociolinguistic competence, sociocultural approach.

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida turli madaniyat vakillari o'rtasida samarali muloqot o'rnatish dolzarb masalalardan biridir. Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi insonning boshqa madaniyat vakillari bilan samarali muloqot olib borish, ularning qadriyat va urf-odatlarini tushunish qobiliyatini anglatadi. Bu kompetensiya zamonaviy ta'lim jarayonida muhim o'rin tutib, kommunikativ malakalarning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Kompetensiya tushunchasi lotincha *"competere"* so'zidan olingan bo'lib, "mos kelmoq", "loyiq bo'lmoq" degan ma'nolarni anglatadi. Kompetensiya – bu ma'lum bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llay olish layoqati bo'lib, u insonning shaxsiy va kasbiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari ushbu so'z keng ma'noda umumiy yoki muayyan keng qamrovli masalalarni yechishda mavjud bilim va ko'nikmalarni amaliy tajribada qo'llay olishni ham anglatadi. Demak, kompetensiya –kutilgan

natijaga olib keluvchi faoliyat, egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni amaliyotda qo‘llay olish layoqatidir.

Tilshunoslikda "kompetensiya" tushunchasi ilk bor XX asr o‘rtalarida amerikalik tilshunos N. Xomskiy tomonidan qo‘llanilgan. U kompetensiyani tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilgan va uni insonning tildan foydalanish jarayonida hosil bo‘ladigan bilim, ko‘nikma va malakalar majmui sifatida izohlagan. Uning izdoshlari bo‘lgan ba’zi bir olimlar esa ushbu tushuncha kompetensiyaviy yondashuv sifatida talqin etilgan. Bunda kompetentlilik va kompetensiyaviy yondashuv tushunchalari ta’limda natijaviylikni ko‘rsatuvchi omillar sifatida qayd etiladi.

“Kompetentlik”– subyekt va uning faoliyatiga berilgan tavsif bo‘lib, u ko‘pincha, turli ma’lumotlar beradigan lug‘aviy-me’yoriy adabiyotlarda “biror-nima haqida fikr yuritish, o‘z fikr-mulohazasini bildirish imkonini beradigan bilimlarni chuqur egallash” deya ta’riflanadi. Boshqacha aytganda, kompetentlik –avvalambor, ishni bajarish (maqsadga erishish) uchun nimalar zarur ekanligini tushunishning chuqur bilimlarga asoslangan darajasidir.

Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi shaxsning til bilishidan tashqari, boshqa madaniyatlarning o‘ziga xos xususiyatlarini tushunish, ularga moslashish va bag‘rikenglik tamoyillariga asoslangan holda samarali muloqot qilish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Bu kompetensiya quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

1. **Lingvistik kompetensiya** – chet tilida grammatik va leksik jihatdan to‘g‘ri so‘zlasha olish qobiliyati.
2. **Sotsiolingvistik kompetensiya** – nutqiy vaziyat va madaniy kontekstga mos keladigan ifodalarni tanlay olish qobiliyati.
3. **Pragmatik kompetensiya** – muloqot davomida turli nutqiy strategiyalardan foydalana bilish qobiliyati.
4. **Ijtimoiy-madaniy kompetensiya** – boshqa millatlar madaniyatiga hurmat bilan yondashish, ularning qadriyat va an’analarini tushunish.

Bugungi globallashgan dunyoda turli madaniyat vakillari o‘rtasida muloqot samaradorligini oshirish uchun ushbu kompetensiyalarni rivojlantirish juda muhimdir. Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi nafaqat chet tillarini o‘rganish jarayonida, balki xalqaro munosabatlar, biznes, ta’lim va diplomatiya sohalarida ham katta ahamiyatga ega. Ushbu kompetensiyani rivojlantirish quyidagi afzalliklarni ta’minlaydi:

- **Globallashgan dunyoga moslashish** – xalqaro munosabatlarda samarali ishtirok etish imkonini beradi;
- **Madaniyatlararo tushunish** – millatlararo bag‘rikenglik va hurmatni shakllantirishga yordam beradi;
- **Professional rivojlanish** – xalqaro bozor va ish o‘rinlarida raqobatbardoshlikni oshiradi;
- **Til bilish samaradorligini oshirish** – chet tilida erkin muloqot qilish qobiliyatini kuchaytiradi.

Ta’lim tizimida madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda quyidagi yondashuvlar qo‘llanilishi lozim.

- **Integratsion yondashuv** – chet tili darslarida til bilan bir qatorda o‘sha tilda so‘zlashuvchi xalqning madaniyatiga oid bilimlar ham berilishi kerak.
- **Interfaol metodlar** – rolli o‘yinlar, muhokamalar va loyihaviy ishlanmalar orqali madaniyatlararo muloqotni amaliy mashg‘ulotlar yordamida o‘rgatish.

- **Axborot texnologiyalaridan foydalanish** – onlayn kurslar, virtual muloqot platformalari va madaniyatshunoslik materiallari orqali ta’lim jarayonini boyitish.

Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasining rivojlanishi jamiyat va shaxs uchun quyidagi afzalliklarni ta’minlaydi:

- **Xalqaro hamkorlikni rivojlantiradi** – turli davlatlar o‘rtasida madaniy, ilmiy va iqtisodiy aloqalarni mustahkamlaydi.
- **Bag‘rikenglik va tushunishni oshiradi** – turli madaniyat vakillari o‘rtasida o‘zaro hurmat va hamkorlikni kuchaytiradi.
- **Shaxsning kasbiy imkoniyatlarini kengaytiradi** – xorijiy tillarni bilish va madaniyatlararo muloqot qobiliyatlari mehnat bozorida raqobatbardoshlikni oshiradi.

XULOSA

Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi bugungi globallashgan dunyoda har bir inson uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalardan biridir. Ushbu kompetensiyani rivojlantirish uchun ta’lim jarayonida madaniy komponentlarni o‘z ichiga olgan interfaol metodlardan keng foydalanish muhimdir. Bu esa shaxsning nafaqat til bilimi, balki madaniy tushunchasi va moslashuvchanligini ham oshirishga xizmat qiladi. Shu boisdan madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish zamonaviy ta’limning asosiy maqsadlaridan biri bo‘lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ashurov A.A.Texnika oliy ta’lim muassasalari bakalavr talabalari kommunikativ ingliz tili kompetensiyasining shakllanishida shaxsga yo‘naltirilgan yondasuyv. Ped.f.f.dok.(PhD) diss.avtoref. - T.2020.- 49 b.

2. Байденко В.И. Компетенции в профессиональном образовании (к освоению компетентностного подхода) // Высшее образование в России. – М.: 2004. – №11. – С. 3-13.

3. Бакиева Г.Х., Ирискулов М.Т., Ким Н.Н. English for Professional Development. –Ташкент, 2011.

4. Безукладников К.Э. Формирование лингводидактических компетенций будущего учителя иностранного языка: концепция и методика: дис. д-ра пед.наук: – Н. Новгород, 2009. – 403 с.

5. Хомский Н. Язык и проблемы знания. - Благовещенск, БГК им. А.И. Бодуэна де Куртене. 1999. 252 с.

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNI PEDAGOGIK DIAGNOSTIKAGA TAYYORLASH

ПОДГОТОВКА СТУДЕНТОВ ВУЗОВ К ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДИАГНОСТИКЕ

PREPARING STUDENTS IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS FOR PEDAGOGICAL DIAGNOSIS

Ilmiy rahbar: *Xalmatova Dilobad*
Chirchiq davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi,
Pedagogika fakulteti Chirchiq, O'zbekiston.
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0001-1224-8383
To'raqulova Shaxinabonu
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi,
Pedagogika fakulteti Chirchiq, O'zbekiston

ANNOTATSİYA

Ushbu maqolada pedagogik universitetda o'quv jarayoni diagnostikasining ahamiyati ochib berilgan. "Diagnostika" va "diagnos" tushunchalarini shakllantirishga e'tibor qaratilgan. Bugungi zamonaviy sharoitda davlat va jamiyat taraqqiyoti uchun Pedagogik oliy o'quv yurti intelektual, ma'naviyaxloqiy jihatdan yetuk, malakali bo'lajak o'qituvchi kadrlarni tayyorlashga e'tibor qaratmoqda.Pedagogik diagnostika – ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash hamda o'quv jarayonidagi muammolarni aniqlash uchun muhim vositadir. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarni pedagogik diagnostikaga tayyorlash kelajakdagi o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda talabalar pedagogik diagnostikaning nazariy asoslarini, baholash usullari va zamonaviy texnologiyalarni o'rganadilar. Shuningdek, amaliy mashg'ulotlar orqali test sinovlari, kuzatish, intervyu va refleksiya kabi metodlarni qo'llashni o'rganadilar. Raqamli ta'lim muhitida diagnostik vositalardan foydalanish kelajak pedagoglari uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularga ta'lim jarayonini chuqur tahlil qilish va individual yondashuvni shakllantirish imkonini beradi. Natijada, pedagogik diagnostika bo'yicha tayyorgarlik talabalarning tahliliy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, ta'lim jarayonini rejalashtirish va takomillashtirishda samarali qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Shu sababli, oliy ta'lim muassasalarida talabalarni pedagogik diagnostikaga tayyorlash zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismi hisoblanadi.

Kalit so'zlar: diagnostika, talaba, o'qituvchi, universitet, jarayon, o'qitish, rivojlantirish, takomillashtirish.

АННОТАЦИЯ

В статье раскрыта значимость диагностики учебно воспитательного процесса в педагогическом вузе. Обращено внимание на формулировку понятий «диагностика», «диагноз». Для развития государства и общества в современных современных условиях Педагогический университет ориентирует на подготовку интеллектуально, духовно и нравственно зрелых, квалифицированных будущих педагогов. Педагогическая диагностика – это важный инструмент для повышения эффективности образовательного процесса, оценки знаний, умений и компетенций студентов, а также выявления проблем в обучении. Подготовка студентов к педагогической диагностике в высших учебных заведениях способствует развитию их

профессиональных компетенций как будущих педагогов. В ходе этого процесса студенты изучают теоретические основы педагогической диагностики, методы оценки и современные технологии.Кроме того, на практике они осваивают такие методы, как тестирование, наблюдение, интервью и рефлексия. В условиях цифровой образовательной среды использование диагностических инструментов играет важную роль, помогая будущим педагогам глубже анализировать учебный процесс и разрабатывать индивидуальные подходы.В результате обучение педагогической диагностике развивает у студентов аналитическое мышление, помогает планировать и совершенствовать образовательный процесс, а также принимать эффективные решения. Таким образом, подготовка студентов к педагогической диагностике в вузах является неотъемлемой частью современной системы образования.

Ключевые слова: диагностика, студент, преподаватель, вуз, процесс, обучение, развитие, совершенствование.

ABSTRACT

The article reveals the importance of diagnostics of the educational process in a pedagogical university. Attention is drawn to the formulation of the concepts “diagnostics”, “diagnosis”. For the development of the state and society in today’s modern conditions, the Pedagogical University focuses on the training of intellectually, spiritually and morally mature, qualified future teachers. That’s why the issues of improving the system of pedagogical diagnostics of the educational process, as well as the functions of pedagogical diagnostics were covered.

Pedagogical diagnostics is an essential tool for improving the effectiveness of the educational process, assessing students' knowledge, skills, and competencies, and identifying challenges in learning. Preparing students for pedagogical diagnostics in higher education institutions contributes to the development of their professional competencies as future educators. During this process, students study the theoretical foundations of pedagogical diagnostics, assessment methods, and modern technologies.

Additionally, through practical training, they learn to apply methods such as testing, observation, interviews, and reflection. In the digital learning environment, the use of diagnostic tools is crucial for future teachers, enabling them to analyze the learning process in-depth and develop an individualized approach.As a result, training in pedagogical diagnostics enhances students' analytical thinking skills, helps them plan and improve the educational process, and supports effective decision-making. Therefore, preparing students for pedagogical diagnostics in higher education institutions is an integral part of the modern education system.

Key words: diagnostics, student, teacher, university, process, training, development, improvement.

KIRISH

Zamonaviy sharoitda uzluksiz ta’lim tizimida o‘quv va tarbiya ishlari sifatini oshirish usullaridan biri uni pedagogik diagnostika asosida qurishdir. Oliy ta’lim muassasi o‘qituvchilarining amaliyotini kuzatishlar o‘qituvchining diagnostik funktsiyasining rolini ko‘rsatadi, bu esa pedagogik hodisalarning xususiyatlari to‘g‘risida yuzaki xulosalarga olib keladi. Pedagogik oliy o‘quv yurti bo‘lajak o‘qituvchilarni pedagogik faoliyat muammolarini hal qilishning haqiqiy vositasiga aylantirish uchun ularni professional va pedagogik diagnostikani sifatli amalga oshirishga tayyorligini ta’minlashi shart. Jamiyatning intellektual, axloqiy, ruhiy jihatdan kuchli, malakali kadrlarga ega bo‘lishini taqozo etadi. Binobarin, malakali, har jihatdan yetukkadrlarni tayyorlashda uzluksiz ta’lim tizimining boshqa bosqichlari qatorida oliy ta’lim muassasalari ham alohida o‘rin tutadi.

Zamonaviy sharoitda diagnostika pedagogik jarayonning majburiy tarkibiy qismidir. Ta'lim muassasasining o'quv va tarbiyaviy ta'sirini o'rganish va samaradorligini aniqlash eng qiyin pedagogik muammolardan biridir.Bugungi kunda bo'lajak o'qituvchilar kasbiy diagnostika faoliyati maxsus o'qitilgan bo'lib, bu ularga ta'lim berish va tarbiya berish jarayonini haqiqatan ham samarali qilishiga yordam beradi.

Ta'lim va tarbiya amaliyotiga to'xtaladigan bo'lsak, o'quv jarayonini diagnostika qilish va tuzatish muammolariga bag'ishlangan ko'plab nashrlarga qaramay, amaldagi o'qituvchilar o'quv jarayonining natijalarini o'rganish uchun diagnostika vositalarini tanlashda katta qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar va uning samaradorligini oshirish jarayonida ta'lim sohasida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Shuning uchun o'qituvchining kasbiy faoliyati sohasi sifatida diagnostikaning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish muhimdir.

Talabaning shaxsiy rivojlanishining diagnostikasi va guruhni jamoa sifatida rivojlantirish zarur. O'qituvchi oila bilan birgalikda talaba tarbiyasi va barkamol rivojlanishini amalga oshiradi. Ta'lim va tarbiyaning muvaffaqiyati ushbu jarayonni amalga oshirishda qanday usullarni boshqarishi, oila bilan qanchalik yaqin va uyg'un munosabatda bo'lishiga bog'liq.O'qituvchi va oila o'rtasidagi samarali o'zaro aloqani tashkil qilishdan oilaning ta'lim salohiyati, ota-onalarning ta'lim muassasasi ishidan qoniqishi to'g'risida ishonchli ma'lumot olish mumkin. Shu munosabat bilan pedagogik ta'sir ko'rsatishning eng yetarli usullarini aniqlash uchun talabalarning shaxsiy, guruh xususiyatlarini aniqlash va hisobga olish muammolariga e'tiborni kuchaytirish tendentsiyasi kuzatildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA MUHOKAMASI

Umumiy va pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, diagnostika inson faoliyatining turli sohalarida keng qo'llanilgan. Bugungi kunda eng mashhurlari "tibbiy diagnostika", "psixodiagnostika", "nazorat diagnostikasi", "texnik diagnostika" va boshqalar. Diagnostika har qanday kasbiy faoliyatning ajralmas qismidir[1;5]. Masalan, ishlab chiqish jarayonida mahsulot sifati aniqlanadi, bu holda o'qituvchining kasbiy va pedagogik faoliyati ham bundan mustasno emas: har bir o'qituvchi o'qitish va tarbiya jarayoni natijalarini o'rganadi va tekshiradi, aloqani o'zlashtirish sabablarini tahlil qiladi.

MUHOKAMA

Diagnostika – bu mohiyatni ilmiy bilish va bitta hodisani tan olish o'rtasida joylashgan maxsus bilim turi. Bunday bilimlarning natijasi tashxis (gr. diagnoss – tanib olish, ta'rif) deyiladi. Diagnostika – mavjudotning fan tomonidan belgilangan ma'lum bir guruhga yakka holda ifodalanganligi, tegishli ekanligi to'g'risida xulosa. Ushbu tushunchazamonaviy pedagogika fanida keng namoyish etilgan. Biroq, pedagogikada diagnostika o'z mazmunini o'zgartirdi. Shunday qilib, masalan, psixodiagnostika shaxsni va uning individual jihatlarini nisbatan barqaror shakllanish sifatida baholashga intilsa, u holda pedagogik diagnostika, avvalo, talabaning shaxsini shakllantirish natijalariga, ushbu natijalarga erishishning maqbul yo'llarini izlashga qaratilgan va integral pedagogik jarayonning xususiyatlari. Diagnostikaning barcha turlarining o'xshashligi diagnostika faoliyatining maqsadli sozlashlarida namoyon bo'ladi. Diagnostikaning barcha turlari uchun amalda mavjud bo'lgan xususiyatlar, ob'yekt holati to'g'risida ma'lumot to'plash yoki amalga oshirilgan harakatlar samaradorligini baholash uchun tekshirish jarayoni, shuningdek, bashorat qilish va tavsiyalar berishdir. Taqqoslash amalga oshiriladigan me'yorning mavjudligi ham keng tarqalgan. Farq ob'yektlar va diagnostika predmetlarini taqqoslashda aniqlanadi.

Pedagogik diagnostikaning o'ziga xos xususiyati shundaki, u pedagogik faoliyatni optimallashtirishga va uni eng samarali qilishga yordam beradi. Diagnostikaning barcha turlari uchun umumiy narsa ob'yektni tizimli idrok etish, uni o'rganish va tavsiflashdir.

Diagnostika turlari: pedagogik, psixologik, sotsiologik, tibbiy, texnik, ilmiy va Boshqalar. O'qituvchi uchun diagnostika ob'yekti bu shaxsning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy mikro muhit va

ushbu muhitning alohida sub'yektlari bilan o'zaro aloqalar tizimida talabaning rivojlanayotgan shaxsidir, ya'ni pedagogik jarayon ishtiroqchilarining o'zaro ta'siri; shaxsiyat, uning aqliy xususiyatlari; ijtimoiy jamiyatlar va shaxsiyat jamiyatning bir qismi sifatida; biologik tizim sifatida talaba; texnik tizim, mashinalar, moslamalar, ularning bo'linmalari; har qanday tizimli guruhning o'ziga xos xususiyatlari.

Diagnostika predmeti: pedagogik o'zaro munosabat sub'yektlarining individualshaxsiy shakllanish tendentsiyalari; qobiliyatlar, shaxsiyat xususiyatlari, motivlar, psixologik me'yordan chetga chiqish va boshqalar; ijtimoiy jarayonlar ta'lim jarayonining umumiy tendentsiyalari; me'yordan chetga chiqadigan nuqsonlar va bu og'ishlarning sabablari; ob'yektning o'ziga xos xususiyatlarini, uning rivojlanish qonuniyatlari va qonuniyatlarini muntazam tavsiflash [2;6]

Psixologik diagnostika – bu shaxsning yoki psixologik tahlilga mos keladigan

boshqa narsalarning individual psixologik xususiyatlarini o'lchash. Uning maqsadi insonning psixologik xususiyatlarining hozirgi holati va ularning keyingi rivojlanish prognozi to'g'risida xulosa sifatida psixologik tashxis qo'yishdir.

Ijtimoiy diagnostika–bu uning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-huquqiy, axloqiypsixologik, tibbiy-biologik va sanitariya-ekologik holatini tavsiflovchi jamiyatdagi sabab-oqibat munosabatlari va munosabatlarini aniqlash va o'rganishning murakkab jarayoni. Uning maqsadi ijtimoiy tashxis qo'yish, ya'ni ijtimoiy sog'liqni saqlash holati to'g'risida ilmiy asoslangan xulosa tayyorlash va chiqarish. Ijtimoiy tashxis (baholash) – bu odamlar va sharoitlarning muammolarini, shuningdek, ularning munosabatlarini tabaqalashtirilgan parvarish qilish uchun zarur bo'lgan tabaqalashtirilgan, individual va aniq ta'rifi. Baholash mijozlar va ularning yashash sharoitlari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plashni, shuningdek, parvarish rejasini ishlab chiqish uchun ma'lumotlarni tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Axborot manbalariga epidemiologiya, ijtimoiy ishchi va mijoz o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish, shaxslar bilan suhbatlar, oilaviy va guruh mashg'ulotlari, o'lchov va kuzatuv usullari kiradi. Pedagogik diagnostika quyidagi funktsiyalarni o'z ichiga oladi:

1. Analitik – ta'lim jarayonida yaratilgan sharoit va natijalarning o'zaro bog'liqligi sabablarini o'rganish.

2. O'z-o'zini diagnostika qilish – talabaning assimilyatsiya darajasi, tarbiyasi va tarkibiy qismini aniqlash.

3. Baholash – pedagogik jarayon ishtirokchilari faoliyatini miqdoriy va sifatiy baholash prognozi.

4. Tuzatish – o'qituvchilar va talabalar ishidagi mumkin bo'lgan kamchiliklarni minimallashtirish.

5. Yo'naltirish – bu o'quv jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kamchiliklarni oldini olish uchun yangi maqsadlarni belgilash jarayoni.

6. Axborotlashtirish – pedagogik jarayon qatnashchilarini yutuqlar to'g'risida doimiy ravishda xabardor qilish. Pedagogik diagnostika ta'limni boshqarishda muhim ahamiyatga ega.

Bu o'quv jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi, ta'lim jarayonini to'g'ri tahlil qiladi, ta'lim faoliyati samaradorligini ob'ektiv ravishda belgilaydi yoki kamchiliklarni bartaraf etadi va pirovardida ta'lim sifatini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Boshqacha qilib aytganda, pedagogik diagnostika o'quv ob'ekti, ta'lim kontseptsiyalarini o'zlashtirish darajasini tahlil qiladi, kurs va o'quv dasturini o'zlashtirish darajasini baholaydi. Olingan ko'nikmalarni aniqlashga qaratilgan pedagogik diagnostika yoki diagnostika faoliyatining ayrim jihatlariga quyidagilar kiradi:

1) taqqoslash;

2) pedagogik tahlil;

3) bashorat qilish qobiliyati;

4) talqin qilish;

5) pedagogik diagnostika natijalarini talabalarga etkazish;

6) talabalarni turli xil diagnostika usullari to‘g‘risida xabardor qilish;

7) pedagogik diagnostika usullarini to‘g‘ri tanlash;

Pedagogik diagnostikaning eng muhim tarkibiy qismlari quyidagilardir:

a) rostlik (ob’ektivlik);

b) ishonchlilik;

v) voqelikka asoslangan.

XULOSA

Shunday qilib, zamonaviy ta’lim o‘qitish faoliyatini insonning shaxsiy va kasbiy rivojlanishida uning rivojlanishini boshqarish darajasiga qadar ma’lumot darajasidan yo‘naltirish bilan bog‘liq. Talabalarni pedagogik diagnostikaga tayyorlash – ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida ta’lim jarayonining sifatini oshirish va samarali baholash usullarini qo‘llashga yordam beruvchi muhim jarayondir. Bu jarayon orqali talabalar nafaqat baholashning nazariy asoslarini o‘rganadilar, balki amaliy ko‘nikmalarga ham ega bo‘ladilar.

Pedagogik diagnostika o‘qitish jarayonining muhim qismi bo‘lib, talabalar uchun nafaqat bilim darajasini aniqlash, balki o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini tushunish va ta’lim samaradorligini oshirish imkonini beradi. Zamonaviy ta’lim tizimida diagnostikaning an’anaviy va raqamli usullarini qo‘llash kelajakdagi pedagoglarning kasbiy mahoratini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.Shu bois, oliy ta’lim muassasalarida talabalarni pedagogik diagnostikaga tayyorlash ularning nazariy bilimlarini amaliyot bilan uyg‘unlashtirish, mustaqil tahlil qilish va samarali pedagogik faoliyat yuritish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1.Tolipov.O‘.Ro‘ziyeva D.Pedagogik texnologiyalar va pedagofik mahorat: Oliy ta’lim muassasalarining barcha yo‘nalishdagi magistratura mutaxassisliklari uchun o‘quv qo‘llanmasi. – T.: Innovatsiya-ziyo, 2019. – B. 3.

2.Абдраимова Б.Б. Бўлажак биология ўқувчиларини тайёрлашда педагогик диагностика методикасини такомилаштириш: Пед. фан. ... фалсафа д-ри (PhD) дис. Автореф. – Т., 2020. – Б. 11.

3.Воспитательный процесс: изучение эффективности: Методические рекомендации / Под ред. Е.Н. Степанова. – М., 2000

4.O.Jo‘rayev R. H. va boshqalar.Pedagogika fani konsepsiyasi.-Toshkent: O‘qituvchi, 2014.-232 b.260

5.Ernazarova.G. O.Tarbiyaviy ishlar metodikasi. -Toshkent.: “Fan va tehnologiyalar”, 2017. -210 b.

6.O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish buyicha harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 yil, 6-son,70-modda.

7.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (2018 yil 5 sentyabr) PF-5538-sonli Farmoni //https://lex.uz/ docs/3893445.

8.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-son (2020 yil 6 noyatr) Qarori // https://lex.uz/docs/5085887.

9.Abdullayeva Sh.A.Pedagogik diagnostika.-Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010 - 256 b.

10.Abdullayeva Sh. A. O‘quvchilami pedagogik tashxislashda qo‘llaniladigan metodlar//Xalq ta’limi, 2016 ,№3, 40-45 b.b.

11.Denyakina L.I.Pedagogicheskaya diagnostika- dvijushaya sila pedagogicheskogo kollektiva - Moskva: Universitet,200,198 s.

12.Frances C.Waksler.Studying the Social Worlds of Children - London. 1991. -176p.

13. Khalmatova, D.A., Inomova, Z.I. (2023). Independent creativity of students

improvement of activities based on competency approach. Conference Ural,1(1), 289-293.

14. Alimzhanovna, D. Kh., & Kyzi, I. Z. U. (2023). Improvement of independent creative activity of students based on the competence approach (in the example of pedagogy of higher educational institutions) Science and innovation, 2(Special Issue 5), 290-294

15. Khalmatova, D.A (2023). Pedagogical and psychological foundations of mixed education Teacher, 1(7), 253-262

16.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda)

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so'zi gazetasi 2020 yil 25 yanvar №19

18.O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.

19. https://daryo.uz.

O‘QUV JARAYONINI TASHKIL ETISHNING UMUMIY DIAGNOSTIKASI: TA’LIM OLUVCHILARNING BILIMLARINI XOLISONA NAZORAT QILISH VA BAHOLASH

GENERAL DIAGNOSIS OF EDUCATIONAL PROCESS ORGANIZATION. OBJECTIVE CONTROL AND ASSESSMENT OF STUDENTS’ KNOWLEDGE

ОБЩАЯ ДИАГНОСТИКА ОРГАНИЗАЦИИ УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА. ОБЪЕКТИВНЫЙ КОНТРОЛЬ И ОЦЕНКА ЗНАНИЙ СТУДЕНТОВ

Ilmiy rahbar:Xalmatova Dilobad
Chirchiq davlat pedagogika universiteti katta o’qituvchisi,
Pedagogika fakulteti Chirchiq, O’zbekiston
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0001-1224-8383
Maxsudova Laylo
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi,
Pedagogika fakulteti Chirchiq, O’zbekiston

ANNOTASİYA

O‘quv jarayonini tashkil etishning umumiy diagnostikasi ta’lim sifatini oshirish va ta’lim oluvchilarning bilim darajasini aniq baholashga xizmat qiladi. Bilimlarni xolisona nazorat qilish va baholash jarayonida zamonaviy pedagogik yondashuvlar, diagnostik vositalar va baholash mezonlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayon o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini tahlil qilish, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, shuningdek, ta’limni shaxsiylashtirish imkonini beradi. Xolis baholash tizimi ta’lim oluvchilarning motivatsiyasini oshiradi, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va adolatli ta’lim muhitini yaratishga yordam beradi. Diagnostika natijalari asosida o‘qituvchi o‘quv jarayonini optimallashtirish, ta’lim metodlarini takomillashtirish va individual yondashuvni shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shuningdek, baholash tizimida test sinovlari, yozma ishlar, og‘zaki savol-javob, kuzatuv va boshqa baholash usullari qo‘llaniladi. Xolisona nazorat va baholash ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish bilan birga, ta’lim oluvchilarning rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu sababli, bu jarayonni ilmiy yondashuv asosida tashkil etish ta’lim sifatini oshirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.Ushbu maqolamizda o‘quv jarayonini tashkil etilishining umumiy diagnostikasi haqida so‘z boradi. Hamda ushbu jarayonda ta’lim oluvchining bilimlarini xolisona nazorat qilish va baholash to‘g‘risidagi fikrlarimiz ham o‘rin olgandir

Ushbu maqolamizda o‘quv jarayonini tashkil etilishining umumiy diagnostikasi haqida so‘z boradi. Hamda ushbu jarayonda ta’lim oluvchining bilimlarini xolisona nazorat qilish va baholash to‘g‘risidagi fikrlarimiz ham o‘rin olgandir

Kalit so‘zlar: Ta’lim, kadr, kategoriya, bilim, yangilk, funksiya, baho, nazorat, diagnostika

ABSTRACT

General diagnostics of the organization of the educational process serves to improve the quality of education and accurately assess the level of knowledge of students. The use of modern pedagogical approaches, diagnostic tools and assessment criteria is of great importance in the process of objective control and assessment of knowledge. This process allows you to analyze the level of mastery of students, identify their strengths and weaknesses, as well as personalize education. An objective

assessment system Increases the motivation of students, develops their ability to think independently and helps create a fair educational environment. Based on the results of the diagnostics, the teacher has the opportunity to optimize the educational process, improve teaching methods and form an individual approach. Also, the assessment system uses tests, written work, oral questions and answers, observation and other assessment methods. Objective control and assessment serve to increase the effectiveness of the educational process, as well as ensure the development of students. Therefore, organizing this process on the basis of a scientific approach is one of the important conditions for improving the quality of education. This article will discuss the general diagnostics of the organization of the educational process. It also includes our thoughts on objective control and assessment of the learner's knowledge in this process.

This article deals with the general diagnosis of the organization of the educational process. And in this process, our thoughts on objective control and evaluation of the learner's knowledge may have been included.

Key words: Education, personnel, category, knowledge, innovation, function, assessment, control, diagnostics

АННОТАЦИЯ

Общая диагностика организации образовательного процесса позволяет повысить качество образования и точно оценить уровень знаний обучающихся. В процессе объективного контроля и оценки знаний важное значение имеет использование современных педагогических подходов, диагностических средств и критериев оценки. Этот процесс позволяет анализировать уровень обучения учащихся, выявлять их сильные и слабые стороны и персонализировать обучение. Объективная система оценки повышает мотивацию учащихся, развивает их навыки самостоятельного мышления и помогает создать справедливую среду обучения. На основании результатов диагностики у преподавателя появится возможность оптимизировать процесс обучения, усовершенствовать методику преподавания, сформировать индивидуальный подход. Система оценки также использует тесты, письменные задания, устные вопросы и ответы, наблюдение и другие методы оценки. Объективный контроль и оценка не только повышают эффективность образовательного процесса, но и обеспечивают развитие обучающихся. Поэтому организация этого процесса на основе научного подхода является одним из важных условий повышения качества образования. В данной статье будет рассмотрена общая диагностика организации образовательного процесса. Этот процесс также включает в себя наши представления об объективном контроле и оценке знаний обучающегося.

В данной статье рассматривается общая диагностика организации образовательного процесса. И в этот процесс могли быть включены наши мысли об объективном контроле и оценке знаний обучающегося.

Ключевые слова: Образование, персонал, категория, знания, инновации, функции, оценка, контроль, диагностика.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ta'lim tizimida nazorat va baholash mexanizmlari doimiy rivojlanib borayotgan muhim yo'nalishlardan biridir. O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini xolisona baholash uchun pedagogika, psixologiya, didaktika va zamonaviy texnologiyalarga asoslangan yondashuvlar qo'llaniladi.Tadqiqotchilar ta'lim jarayonini samarali tashkil qilishda diagnostika tizimining ahamiyatini ta'kidlaydilar. Jumladan:

L.S. Vygotskiy – o‘quvchilarning rivojlanish darajasi va nazorat jarayoni o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganib, “yaqin rivojlanish zonasi” tushunchasini ilgari surgan.

B.S. Bloom – ta’lim oluvchilarning bilimini baholash uchun “Taksonomiya” nazariyasini ishlab chiqib, bilim, tushuncha, qo‘llash, tahlil, sintez va baholash kabi bosqichlarni ajratgan.

J. Piaget – o‘quvchilarning bilimlarni qabul qilish jarayonida individual rivojlanish bosqichlari qanday ta’sir ko‘rsatishini o‘rganib chiqqan.

Yu.K. Babanskiy – pedagogik jarayonda baholash va nazorat qilish usullarining differensial yondashuvlari bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan.

O‘quvchilarning bilimlarini baholash va nazorat qilish jarayoni turli metodikalar asosida tashkil etiladi. Ular quyidagilardan iborat:

1. An’anaviy baholash usullari – testlar, yozma ishlar, og‘zaki so‘rovlar va amaliy topshiriqlar.

2. Innovatsion baholash usullari – portfolio, reyting tizimi, o‘z-o‘zini baholash va o‘zaro baholash.

3. Diagnostik baholash – formatif (oraliq) va summativ (yakuniy) baholash tizimlari orqali amalga oshiriladi.

4. Elektron baholash – raqamli texnologiyalar asosida bilimlarni avtomatlashtirilgan tarzda nazorat qilish.

Ko‘pgina tadqiqotlarda baholash tizimining shaffofligi va adolatliligi ta’lim sifati bilan bog‘liqligi ta’kidlanadi. Masalan, Guskey (2003) va Black & Wiliam (1998) ilmiy ishlanmalarida baholashning ta’lim jarayoniga ta’siri, motivatsiyani oshirish va o‘quvchilarni rag‘batlantirish muhimligi qayd etilgan.O‘quv jarayonida ta’lim oluvchilarning bilimlarini xolisona baholash ularning ta’lim sifatini oshirish va motivatsiyasini kuchaytirishda muhim rol o‘ynaydi. An’anaviy va innovatsion baholash usullarining kombinatsiyasi samaradorlikni oshirishi mumkin.Zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etilgan nazorat tizimlari shaffoflikni ta’minlab, o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, o‘quv jarayonida ta’lim oluvchilarning bilimlarini xolisona nazorat qilish va baholash quyidagi muhim jihatlarni o‘z ichiga oladi:

1.Xolisona baholash ta’lim sifati va o‘quvchilar motivatsiyasiga bevosita ta’sir qiladi

2.Baholash jarayonining adolatli va shaffof tashkil etilishi o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

3.Noxolis baholash esa aksincha, o‘quvchilarda adolatsizlik hissini paydo qilib, ularning o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqini pasaytirishi mumkin.

4.An’anaviy va innovatsion baholash usullarining kombinatsiyasi samarali natijalar beradi.

5.Yozma va og‘zaki nazorat, test sinovlari an’anaviy baholash usullari sifatida qo‘llanilmoqda.

6.Portfolio, reyting tizimi, o‘zaro baholash va raqamli baholash usullari esa zamonaviy yondashuv sifatida ta’lim jarayonida samaradorlikni oshirishga yordam beradi.

7.Elektron baholash tizimlari natijadorlik va shaffoflikni oshiradi.Raqamli platformalar orqali avtomatlashtirilgan baholash tizimlarining joriy etilishi ta’lim jarayonining tezkorligini ta’minlaydi va inson omiliga bog‘liq bo‘lgan subyektivlikni kamaytiradi.O‘quvchilarning natijalari aniq tahlil qilinib, ularning bilim darajasidagi o‘zgarishlarni kuzatish imkonini beradi.

Baholashning formatif va summativ usullarining uyg‘unligi ta’lim samaradorligini oshiradi

Formativ baholash (oraliq diagnostika) o‘quvchilarni davomiy nazorat qilish va ularga vaqtida tavsiyalar berish imkonini yaratadi.

Summativ baholash esa (yakuniy baholash) umumiy natijalarni tahlil qilish va o‘quvchilarning bilim darajasini ob’ektiv baholashga yordam beradi.

●Mustaqil o‘zini baholash ko‘nikmalarini shakllantirish zarurati

●O‘quvchilar o‘z bilimlarini mustaqil baholash imkoniyatiga ega bo‘lishlari uchun ularga tanqidiy fikrlash va o‘z-o‘zini baholash metodikalarini o‘rgatish lozim.

Bu ularning mustaqil ta’lim olish qobiliyatini rivojlantirib, o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasining uzluksiz ta’lim tizimi muassasalarining barcha shakl va turlarida o‘quv-tarbiyaviy jarayonni ilmiy-metodik jihatdan to‘la ta’minlagan holda erishish mumkin. Tarix ta’limi tizimi sohasiga tashqi tomondan doimo bo‘lib turadigan o‘zgarishlar amaldagi ta’lim tizimi oldiga fan, texnika, texnologiya, ishlab chiqarish madaniyat va kundalik pedagogik amaliyot talabalarining ko‘nikuvi muammolarini uzluksiz ravishda ko‘ndalang qo‘ymoqda [1].[43] Bugun barcha davlatlar ta’limga imkon qadar ko‘p yangilik kiritishga, uning sifatini oshirishga intilmoqda. Chunki ta’lim millat ko‘zgusi bo‘lib, jamiyat va davlatning yuksalib borishini ta’minlovchi, xalqga yaratuvchanlik, ijodkorlik xususiyatlarini baxshida etuvchi kategoriyadir. Uning mahsulasi intellektual rivojlangan, keng mushohada qiluvchi, yangilik yaratishga intiluvchan shaxsni tarbiyalash uchun ta’limning o’zi yangiliklarga boy bo‘lishi, uning mazmunida ijodkorlik ruhi va motivlari hukm surishi lozim. O‘quv-tarbiya jarayonida innovatsion faoliyat sub’ektining talablarini qondirishdan innovatsion faoliyat sub’ekti ehtiyojining majmuaviyligini anglash va shakllantirishgacha bo‘lgan amaliy faoliyati jarayonida yuzaga keluvchi sub’ektning yangilikni yaratish va o‘zlashtirishga bo‘lgan ehtiyoj va qiziqishlarini o‘zida ifoda etuvchi, undovchi kuch bo‘lmog‘i lozim. Bugungi kunda pedagogi diagnostikada o'qituvchilik kasbi va uning jamiyatda tutgan o'miga baho berishda layf kouching (ingliz tilida life- hayot, couching- rejalashtirish) ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining faoliyatini to‘g‘rii rejalashtiradigan mutaxassis faoliyatidan foydalanilmoqda. Ma’lumki, o‘qituvchi pedagogik jarayonni rejalashtiruvchisi, boshqaruvchisi hamda yo‘naltiruvchisi hisoblanadi. Uning kasbiy, shaxsiy faoliyatini uyg‘unlikda olib borishi muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchi guruh, sinfdagi o‘quvchilarga ta’lim va tarbiya berar ekan, shu bilan birgalikda jamiyat a’zosi bo‘lgan o‘z farzandlarini ham tarbiyalovchi ota-ona sifatida namoyon bo‘ladi. Demak, o‘z ish joyidagi faoliyati bilan birgalikda, oiladagi, jamoadagi ishlarini uyg‘unlikda olib borish uchun kun tartibini to‘g‘ri rejalashtirib olishga zarurat tug‘iladi. Shunday paytda o‘qituvchiga layf kouching yordam beradi.

Psixologik-pedagogik jihatdan o‘qitish va tarbiyalash mahorati bilan uzviy bog‘liqdir. Pedagog ta’lim oluvchilarning bilimlari va mahoratlarini xolisona baholash prinsiplari, metodlari va mexanizmlarini bilishi, standartlashtirilgan testlarni ishlab chiqish, ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirishini nazorat qilishning turli shakllarini samarali qo‘llash mahoratiga ega bo‘lishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasida Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ta’lim-tarbiyaning maqsadini yangi yo‘nalishga burdi. Demak, ta’lim-tarbiyaning maqsadi butunlay yangilandi, unga mos holda mazmunning ham, pedagogik jarayonning ham yangilanishi tabiiydir. Bu omil davlatimizning ijtimoiy siyosatini belgilab berganligi tufayli ta’limning yangi modeli yaratildi [2].[44]

Ta’lim muassasalarida o‘quv faoliyatni sifatli o‘quv jarayonini rejalashtirishda ta’lim oluvchilarni bilimlarini xolisona nazorat qilish va baholashning ham ahamiyati nihoyatda kattadir.

Nazorat va tuzatish funksiyasi o‘qituvchiga o‘quvchilar ta’lim va tarbiya jarayonida duch keladigan qiyinchiliklarni bartaraf qilish orqali pedagogik jarayonni boshqarish, shuningdek, ta’limning rivojlantiruvchi imkoniyatlaridan o‘qitish samaradorligini oshirishda foydalanishga yordam beradi.

[43] G‘afforov Ya. “Mahsus fanlarni o‘qitishda yangi pedagogik texnalogiyalardan foydalanish usullari”Toshkent-2021, ‘Sharof nur fayz’117-bet.
[44] Sh.A.Abdullayeva.,D.I.Ro’ziyeva. Pedagogik diagnostika va korrepsiya Toshkent-2018-yil, 90-bet.

Mazkur funksiya ekspert baholash asosida amalga oshiriladi hamda tashxislanayotgan ob'ektning muayyan standart, me'yor yoki modelga egaligini nazarda tutadi.

Baholash funksiyasi qo'lga kiritilgan pedagogik mezon va ko'rsatkichlar bilan taqqoslash asosida amalga oshiriladi. Mazkur funksiya amalga oshirish o'rganilayotgan pedagogik ob'ektning har bir aniq belgilangan vaqtdagi o'zgarishi darajasini belgilash va bu o'zgarishlarning o'qituvchining harakatlariga bog'liqligini ifodalaydi. Baholash funksiyasi har bir o'qituvchi faoliyatini sifat va miqdor jihatdan baholanilishiga xizmat qiladi. Pedagogik diagnostikada ilmiy- pedagogik tajriba sifatida amalga oshiriladigan baholash funksiyasi qo'lga kiritilgan natijalarni tahlil qilish, xolis ravishda qiymatini belgilash imkoniyatini yaratadi [3].[45]O'quvchilarning bilim darajasini oldindan aniqlash. Odatda, u o'quv yili boshida o'quvchilar tomonidan avvalgi o'quv yilida o'zlashtirilgan bilimlari darajasini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Bu kabi tekshirish, shuningdek, o'quv yilining o'rtasida yangi bo'lim (kurs)ni o'rganishga kirishilganda ham o'tkazilishi mumkin va o'rinli.

Har bir mavzuni o'zlashtirish jarayonidagi joriy tekshirishdir. Joriy tekshirish ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv dasturida belgilangan ayrim alohida elementlarni o'zlashtirish darajasini tashxislash imkonini beradi. Mazkur tekshirishning asosiy vazifasi alohida olingan muayyan vaziyatni o'rganishdir. Bunday tekshirish shakl va metodlari turlicha bo'lib, ular o'quv materiali mazmuni, murakkabligi, o'quvchilarning yoshi va tayyorgarligi, ta'lim bosqichi va maqsadlari, muayyan pedagogik sharoitlarga muvofiq belgilanadi.

Oraliq tekshirish bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish. O'quvchilarning o'quv materialining muayyan bob yoki bo'limlari bo'yicha o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, baholash shakli. Yangi mavzuni o'rganish bilan birga o'quvchilar avval o'zlashtirilganlarni takrorlaydilar [4].[46] Shu jihatlarni ham aynan baholash tizimini tashkil etilayotganda inobatga olish lozimdir.

XULOSA

Tarbiyaning mazmunida shaxsni har tomonlama tarbiyalash uchun zarur bo'lgan pedagogik shart-sharoitlarni yaratishga yo'naltirilgan faoliyat mohiyati namoyon bo'ladi. O'quvchilarning axloqiy tarbiyalanganlik darajasini tashxislash va natijalarni tahlil qilish bir qator afzalliklarni kafolatlaydi. Tashxislash orqali o'quvchining tarbiyalanganlik darajasi - unda ma'lum sifatning mavjudlik holati to'g'risidagi ma'lumot qo'lga kiritiladi. Qolaversa, tashxislash natijasida olingan natijalarga tayangan holda o'quvchida yangi ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalash, ana shu maqsadda individual ishlash dasturini ishlab chiqishga muvaffaq bo'linadi. Tarbiyalovchi vaziyatlar o'quvchilarda axloqiy sifatlarni shakllantirish va rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Shuningdek, tarbiyalovchi vaziyatlarga tahliliy yondashish pedagogik jarayonning yutuq va kamchiliklarini o'rganish imkonini beradi. Muvaffaqiyatli vaziyat o'quvchilarda ijtimoiy faollikni rivojlantirish, o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini tarbiya qilish, o'z-o'zini baholash va boshqarishda asosiy omillardan biri bo'lib qoladI [5][47] albatta bu omillar orqali o'quvchi ta'lim faoliyati davomida ancha rivojlanishini ham qayd etib o'tishimiz joizdir.

[45] D.O.Ximmataliyev, S.B.Allayarova, D.Xalmatova, R.R.Karimov, I.N.Buxorov, Sh.V.Usmonov, M.O'.Xakimova. Pedagogik diagnostika va korreksiya O'quv qo'llanma. – Toshkent: - 278 b.

[46] O'quvchilarning o'quv faoliyatini nazorat qilish shakl va metodlari – Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti
https://jdpu.uz/oquvchilarning-oquv-faoliyatini-nazorat-qilish-shakl-va-metodlari.

[47] Raxmatova X.A. Pedagogik diagnostika va korreksiya /Oliy ta'limning magistratura (5A110901-Pedagogika nazariyasi va tarixi) yo'nalishi uchun darslik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Action strategy for further development of the Republic of Uzbekistan. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan. Collection of legal documents of the Republic of Uzbekistan, 2017, No. 6, Article 70.

2. Mirziyoyev Sh.M. The rule of law is the guarantee of the development of human interests and the well-being of the people. "Uzbekistan", 2017.

3. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On additional measures to improve the public education management system" (September 5, 2018) No. PF-5538 //https://lex .uz/ docs/3893445.

4. Decision of the President of the Republic of Uzbekistan "On additional measures to further improve the education system" No. PQ-4884 (November 6, 2020) // https://lex. en/docs/5085887.

5. Abdullayeva Sh. A. Pedagogical diagnosis. -Tashkent: Science and Technology, 2010 - 256 p.

6. Ingenkamp Karlheinz. Der pedagogichen diagnostk. - Berlin: Lampres, 2001, 240b

7. Jorayev R.H. etc. The concept of pedagogic science. -Tashkent: Teacher, 2014.-232 p.

8.Ingenkamp Karlxayns. Pedagogichen diagnostik.-Berlin, 1991- 240 p.

9. Abdullayeva Sh.A. Methods used in pedagogical diagnosis of students//People's education, 2016, No. 3, pp. 40-45.

10. Khalmatova, D. A. (2023). Improvement of independent creative activity

of students based on competence approach. Science and Innovation, 2(5), 219-223.

11. Khalmatova, D. A. (2023). Pedagogical and psychological aspects of mixed education basics. Conference Ural, 1(1), 293-296

12. Xalmatova, D. A. (2023). Pedagogical and psychological foundations of

mixed education. Konferensiya Ural, 1(1), 297-300.

13. Khalmatova, D.A., Inomova, Z.I. (2023). Independent creativity of students

improvement of activities based on competency approach. Conference Ural,1(1), 289-293.

14. Alimzhanovna, D. Kh., & Kyzi, I. Z. U. (2023). Improvement of independent creative activity of students based on the competence approach (in the example of pedagogy of higher educational institutions) Science and innovation, 2(Special Issue 5), 290-294

15. Khalmatova, D.A (2023). Pedagogical and psychological foundations of mixed education G‘afforov Ya. “Mahsus fanlarni o‘qitishda yangi pedagogik texnalogiyalardan foydalanish usullari”Toshkent-2021, ‘Sharof nur fayz’117-bet.

16.Sh.A.Abdullayeva.,D.I.Ro’ziyeva. Pedagogik diagnostika va korrepsiya Toshkent-2018-yil, 90-bet

17.D.O.Ximmataliyev, S.B.Allayarova, D.Xalmatova, R.R.Karimov, I.N.Buxorov, Sh.V.Usmonov, M.O‘.Xakimova. Pedagogik diagnostika va korreksiya O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: - 278 b.

18.O‘QUVCHILARNING O‘QUV FAOLIYATINI NAZORAT QILISH SHAKL VA METODLARI – Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti

https://jdpu.uz/oquvchilarning-oquv-faoliyatini-nazorat-qilish-shakl-va-metodlari/

19.Raxmatova X.A. Pedagogik diagnostika va korreksiya /Oliy ta’limning magistratura (5A110901-Pedagogika nazariyasi va tarixi) yo‘nalishi uchun darslik

20.Abdullayeva Sh. A. Pedagogik diagnostika. -Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010 - 256 b.

21.Zunnunov A.M.Pedagogika tarixi.-Toshkent: Ma’naviyat, 2010.-308 b. Teacher, 1(7), 253-262

OLIY TALIM MUASSASASIDA TALABALARDA NUTQ SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI

ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ РЕЧЕВОЙ ГРАМОТНОСТИ У СТУДЕНТЫ ВЫСШЕГО УЧЕБНОГО ЗАВЕДЕНИЯ

Ilmiy rahbar:Xalmatova Dilobad
Chirchiq davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi,
Pedagogika fakulteti, Chirchiq, O'zbekiston
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0001-1224-8383
Teshaqulova Baxtigul Shovqiddin qizi
CHDPU Pedagogika yo'nalishi 3-bosqich talabasi

ANNOTATSİYA

Oliy ta'lim muassasalarida talabalar nutq savodxonligini rivojlantirish, ularning akademik muvaffaqiyatlari va professional faoliyatlari uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada, nutq savodxonligi tushunchasi, uning o'rni va ahamiyati keltiriladi. Talabalar uchun nutq savodxonligini rivojlantirishda ta'lim uslublarining ahamiyati, o'quv jarayonida faol ishtirok etish, muloqot ko'nikmalarini oshirish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish kabi jihatlar ko'rib chiqiladi. Maqolada shuningdek, o'qituvchilarning rolini, ta'lim dasturlarini va interaktiv metodlarni qo'llash orqali talabalar nutq malakalarini qanday qilib samarali oshirish mumkinligi haqida fikrlar bildiriladi. Nutq savodxonligini rivojlantirish, talabalarni nafaqat o'quv jarayonida, balki professional hayotda ham muvaffaqiyatli bo'lishlari uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar bilan ta'minlaydi. Maqola, oliy ta'limda nutq savodxonligini rivojlantirishga qaratilgan strategiyalar va amaliyotlarni tahlil qilish orqali, talabalar uchun samarali ta'lim muhitini yaratishning ahamiyatini ta'kidlaydi. Natijada, bu sohada amalga oshiriladigan ishlar, talabalar salohiyatini ochishga va ularning muvaffaqiyatli kelajagini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tayanch so'zlar. Nutq, til, so'z, gap, bilim, mimika, hulq-atvor, ko'nikma, ta'lim-tarbiya, ahloq, muomala, estetik tarbiya, qobiliyat, munosabat, nutq savodxonligi.

АННОТАЦИЯ

Развитие речевой грамотности студентов в высших учебных заведениях имеет важное значение для их академической успешности и профессиональной деятельности. В данной статье представлено понятие речевой грамотности, ее роль и значение. Рассматривается важность методов обучения в развитии речевой грамотности студентов, активного участия в процессе обучения, улучшения коммуникативных навыков и развития критического мышления. В статье также обсуждается роль преподавателей, образовательных программ и то, как эффективно улучшить речевые навыки студентов с помощью использования интерактивных методов. Развитие речевой грамотности дает студентам навыки, необходимые для достижения успеха не только в образовательном процессе, но и в профессиональной жизни. В статье подчеркивается важность создания эффективной среды обучения для студентов путем анализа стратегий и практик, направленных на развитие речевой грамотности в высших учебных заведениях. В результате работа, проводимая в этом направлении, служит раскрытию потенциала студентов и обеспечению их успешного будущего.

Ключевые слова . Речь, язык, слова, речь, знания, мимика, поведение, навыки, образование, нравственность, поведене, эстетическое воспитание, способность, отношение, речевая грамотность.

KIRISH

Bugungi kunda Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning xulq-atvor, bilim, fikr, tafakkur, xis-tuygu kabilarga oid ko'nikma va malakalarini takomillashtirish bevosita ularda nutq savodxonligini rivojlantirish bilan bog'liq hisoblanadi. Chunki, har bir inson ilmu fan va madaniyatni rivojlantirishda hamda dunyoni obod etishda uning yetukligi, oqillik va donoligi, bilimlari va vazifalarini amalga oshirishida nutq savodxonligini rivojlantirish muhim xisoblanadi. Nutq savodxonligi nutq tovushlarini, insonning so'zlash qobiliyati, o'z manfaatlarini qondirish, o'z fikr, o'ylarini, his-tuyg'ularini boshqalarga yetkazish, o'zidagi haqiqat va ilxom uchqunlarini o'zgalarda ham alangalatish, iroda bilan harakatlar qilish, ayrim nojo'ya xatti-harakatlarni to'xtatish, qiladigan ishlarni rejalashtirish, barcha harakatlarni aniq maqsadga bo'ysundirish vazifalarini amalga oshiradi.

Nutq savodxonligi xolatlarini his-tuyg'ular bilan boshqalarga ifodalab berish, irodali xarakterga ega bo'lish, ifodali so'zlash orkali odamlarga ta'sir etish, talabalarning fikri va harakatlariga ta'sir ko'rsatish jarayonlarini amalga oshiradi. Shu jixatdan xam talabalarga o'qituvchilarning yer yuzidagi barcha xalqlarning nutqi xaqida ma'lumot berish asosida xar bir millatning milliy urf- odatlari, tadrijiy ravnaqi, bosib o'tgan tarixiy yo'li, taraqqiyot bosqichlari, iqtisodi, madaniyati, fani va ma'naviyati hamda shu kabi jarayonlari bilan tanishtirish ta'lim-tarbiya, targ'ibot-tashviqot ishlarini takomillashtirishda katta imkoniyatlar yaratish bilan birga talabalarning munosabatini tubdan o'zgartiradi.

Shu bilan birga talabalarda olimlar, ziyolilar, adiblar, og'zaki va yozma adabiyotning asosiy ijodkorlari bo'lgan mutafakkirlarning mashaqqatli mehnatini, chuqur o'rganish muxim o'rin tutadi. Bu o'rinda tarbiyachi umummadaniyatni belgilovchi omil hisoblangan nutq savodxonligi muammolarini o'rganish, hurmat qilish, uning boyliklaridan bahramand bo'lish, unga mehr qo'yish har bir kishining farzi va qarziga oid milliy qadriyatlar xaqida ma'lumotga ega bo'lishi muxim o'rin tutadi.

Nutq savodxonligini rivojlantirishda so'zlashish madaniyatiga etibor qaratilgan va uni o'z-o'rnida qo'llash qudratli kuchga aylanishini, naqllar, rivoyatlar misolida tushuntirish, har bir so'z zamirida so'zlovchining ruhiyati beixtiyor zohir bo'lib turish, uning go'zalligi, nutq ravonligi, uning aniqligi va mazmundorligini aniq belgilashi bola shaxsini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Chunki, ushbu jarayonda talabaning aql-zakovati, fikr tuyg'ulari, bilimi va madaniyati, saviyasi, tafakkuri ma'lum darajada rivojlanadi. O'qituvchi bolalarga yaxshi so'z bilan kishilarning ishonchi, qalbini egallash, yaxshi so'z hayotning quroli bo'lib, unda olam-olam ma'no yotishi ekanligini misollar asosida ularga tushuntirishi, so'z, yuz va ko'z, tilning ko'rki hisoblanishi, "So'zning otasi aql, onasi til" , muomila madaniyatida so'z aqldan kuch, tildan ixtiyor olishi kabi gaplar bilan ularning so'z boyligini oshirishi nutqini jozibali hamda ko'rkam bo'lish imkoniyatini yaratadi. Buning uchun har bir o'qituvchi nutq savodxonligiga oid barcha asosiy tushuncha, atama va kategoriyalarni puxta bilishi, o'z o'rnida, ya'ni aralashtirmasdan, almashtirmasdan qo'llay olishi kerak. Chunki so'zning kuchi, ahamiyati, qiymatini bolalarni qanchalik rom etishi va ularning kayfiyatini qanchalik o'zgartirishng nutq savodxonligiga va so'zlash mahoratiga bog'liq.

Ushbu jarayonda talabalarga har bir so'zning o'ziga xos muayyan o'rni, anglatadigan aniq ma'nosi, hayotiy iboralari, purhikmat gaplarini o'rniga qo'yish, gapiradigan, teran fikrni qisqa, lo'nda qilib ifodalash mahoratini egallash ko'nikmalarini rivojlantirish uning muomalasida ifodalanishi ularning farosatli, fahmli, odobli, aqlli, es-hushli, madaniyatli bo'lishi imkoniyatini yaratadi.

ADABIYOTLAR TAXLILI VA METADOLOGIYA

Bu o‘rinda so‘z mulkining sohibqironi Alisher Navoiy “Hayratul-abror” asaridagi quyidagi matnini o‘qish bolalarning so‘z qudratini yanada oshiradi “So‘z gavharining sharofati shunchalar yuksakki, gavhardek qimmatbaho narsa ham unga sadaf bo‘la olmaydi... So‘z jon bo‘lib, ruh uning qolipidir. Tanada ruhi bor odam zoti unga ehtiyoj sezadi”[48]. Alisher Navoiy yana shunday deydilar: “Aqlli odam yolg‘on gapirmas, ammo barcha rost gapni ham aytaverish ham to‘g‘ri emas. Birovning ko‘zi g‘ilay, nogirondir, ammo u aybdor emasdir”... “Birovni nohaq xijolatga solmoq-o‘z nodonligini isbotlamoq va bir ko‘ngilni og‘ritmoqdir”.[49] Ushbu jarayonlar talabalarning nafaqat so‘z boyligini oshiradi, balki fikrlarini takomillashtirishga xizmat qiladi. Buyuk mutafakkir Mahmud Qoshg‘ariy ham so‘z qudratini yuksak baholab, inson til orqali o‘zining yaxshi va yomon fazilatlarini namoyon etadi, o‘zaro munosabatlar jarayonida shaxs sifatida shakllanadi,[50] -deb ta’kidlanadigan edilar.

Ota-bobolarimizdan meros bo‘lib kelayotgan yaxshi so‘z kishilarni bir-birlariga yaqinlashtiradi. Yomon so‘z esa do‘stni dushmanga aylantiradi. Insonlar o‘rtasida fitna-nizo uyg‘otadi. Siz suhbatdoshingizning qanday odam ekanligini so‘zidan bilib olasiz. So‘z eng johil kishilarni yumshata olish, odamlarni xayrli ishlarga chorlash kuchiga ega. Shu o‘rinda tarbiyachi bolalarga Alisher Navoiy qaysi asarida so‘z kudrati haqida fikr yuritadi? So‘z gavxar, so‘z sadaf tushunchalarini izohlab bering. So‘z jon, rux uning qolipidir kabi savollar bilan aloqa qilishiga, ya’ni gapirishga o‘rgatish jihatlariga etibor berish muhim. Chunki gapning bir jihati tovushdir. Ikkinchi jihati-nutqiy qalbiyatdir. Gap jamiyat mahsuli bo‘lib, ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Gap har bir narsaning mohiyatini aniqlashda uning vazifasini amalga oshirishda xizmat qiladi. Kishilar gap orqali fikr, istak, so‘roq yoki hayajonlarini ifodalaydilar. Demak, til orqali ifodalangan gap aloqa vositasi hisoblanadi.

Demak, har bir talabada birov bilan gaplashayotganda nihoyatda o‘ylab gapirishi, imkoniyatiga qarab va’da berish mas’uliyatini shakllantirish ularda ham bir so‘zga etibor berishi, ko‘p gapirmaslik, ko‘ngliga jarohat yetkazmaslik, shirinsuhan bo‘lishi, so‘zni yumshoqlik va kelishuv bilan aytishi, har bir ishni yaxshi so‘z orqali bajarish hususiyatlarini rivojlantiradi.

Shirin muomala har bir kishiga quvonch, bemorga malham va najot bag‘ishlaydi, sovuq so‘z esa odamni hasta qilishi mumkin. Shuni unutmaslik kerakki, muomala madaniyatini egallagan kishi el-yurt oldida baobro‘ bo‘ladi.Bu o‘rinda tarbiyachi bolalarga ulug‘ mutafakkir Firdavsiyning so‘zimizni odamlarga yodgorlik, yaxshilik qilib qoldiraylik. Shirinso‘z har birimiz uchun ham qarz, ham farz bo‘lib qolsin degan g‘oyalarini halqimizning “Aytilgan so‘z-otilgan o‘q”, “Og‘izdan chiqqan so‘z ot bilan quvib yetolmaysan” kabi naqllarini kasb jarayonida muomala orqali amalga oshirish ma’no mazmunini, shuningdek “So‘zning dami qilichdan o‘tkir”, “Hech bir insonning qalbini tig‘ bilan tilmaylik. Aksincha shirinsuhanlik, halollik, izzat-ikromni o‘z joyiga qo‘yaylik”, “Shirin so‘z ilonni inidan chiqaradi”, Muloyim so‘z va vahshiylarni ulfatga aylantiradi” kabi naqillari muhimdir.

Nutq savodxonligini rivojlantirishning xususiyatlaridan yana biri tafakkurdir. Ushbu jarayonda tarbiyachi bolalarda fikrini ifodalash, fikr yuritish, o‘ylash aqliy salohiyatini namoyon etish, o‘z tajribalarini o‘rganish va natijasida bilim ongni o‘sishiga alohida axamiyat berish ularni kamol topishida, fikrlarini aytishda yoki voqealarni bayon etishda, ifodalanishida, o‘ylash bilan so‘zlashda, ongini va bilimini amalga oshirishda nafakat aloqa vositasi bo‘libgina qolmay, balki unining tafakkurini rivojlantirish asosi xisoblanadi. Ushbu jarayonda ovoz chiqarib yoki ovoz chiqarmasdan (ichimizda) aytiladigan so‘zlar orqali fikr yuritiladi. Tafakkur vositasi bilan har xil mulohazalar bayon

[48] Alisher Navoiy “Hayrat ul abror “asari
[49] Alisher Navoiy “Mahbub-ul qulub”asari
[50] Mahmud Koshg’ariy “Devonu Lug’otit turk”asari

qilinadi. Bunda albatta, tarbiyachi bolalarning mulohazalari, fikrlarini rivojlantirishga nutq savodxonligini rivojlantirishga alohida ahamiyat beradi.

NATIJALAR

Nutq savodxonligining asosiy xususiyatlaridan yana biri nutq faoliyati xisoblanadi. Nutq faoliyati-bu insonning o‘rab turgan dunyoga bo‘lgan munosabati, o‘ziga xos xususiyatlari, aniq maqsadga qaratilgan o‘zgarishlar, kuzatishlar kabilarni tashkil etadi. Nutq faoliyatining asosiy ish turi nutq bo‘lib, u bolaning ma’naviy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Nutq faoliyati insonning muloqot, o‘qish faoliyatlari bilan chambarchas bog‘liq. Shaxsning rivojlanishi, aqliy kamolotini ro‘yobga chiqaradi.

Nutq faoliyati mazmunidagi turli harakat va sabablar, biron-bir maqsadga qaratilgan yo‘nalishlar va buning natijasida erishilgan yutuqlar inson nutq savodxonligini rivojlantirishda katta rol o‘ynaydi.

Ushbu jarayonda o‘qituvchi nutq faoliyatining mazmuni, shart-sharoitlari, vositalari asosida o‘quvchilarning axloqiy ongi, nutq madaniyati takomillashtirish uchun nutq faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish o‘quvchi faolligini, xatti-harakatlarining namunali bo‘lishiga erishish, bolalarning muomalasi yurish-turishi, turmush tarzi, mustaqilligini rivojlantirishda har bir o‘quvchining o‘ziga xos faoliyati, mustaqillik, mas’uliyat, intizom, uz jamoasiga bo‘lgan hurmat, so‘zini, fikrini boshqara olish, qat’iyatli bo‘lish, ko‘zlagan maqsadga erishish kabi axloqiy-irodaviy xislatlarni shakllantirishda o‘qish, nutq faoliyatlarida, kattalar, tengdoshlari bilan bo‘lgan o‘zaro munosabatlar o‘quvchining mustaqilligini oshiradi. Ushbu jarayonlar o‘qituvchidan ijodiy yondashishni talab etadi. Chunki o‘qituvchi o‘z o‘quvchilarining nutq faoliyatida ularni kuzatadi, savol-javoblar o‘tkazadi ijobiy tajribalarini ommalashtiradi.

Nutq faoliyati davomida talabaning shaxsi, xulq-atvori shakllanadi, rivojlanadi. Shunday ekan, o‘qituvchining vazifasi nutq faoliyati jarayonida talabalarga bajarilishi lozim bo‘lgan ishni ko‘rsatish va tushuntirishdan, vazifalar va talablar qo‘yishdan, tekshirish va tuzatishdan, ularni rag‘batlantirishdan iborat bo‘ladi. O‘qituvchi ushbu jarayonda talabalarga nutq savodxonligi haqidagi bilimlarni egallashga va faoliyat ko‘rsatishda istak tug‘dirish bilan birga uning yo‘nalishlarini ko‘rsatadilar. Nazorat qilib, nutq faoliyatni boshqarib turadilar.

Demak, talabalarning nutq savodxonligini rivojlantirishda nutq faoliyati, ta’lim jarayoni, ularning axloqi muhim vositalar xisoblanadi.Chunki, nutq faoliyatida o‘quvchilarda odamlarga nisbatan mehribonlik, g‘amxo‘rlik, mehr tuyg‘ulari shakllanadi. Shu sababli o‘qituvchi talaba shaxsida nutk savodxonligini rivojlantirishda ular bilan doimo munosabatda axloq, madaniyat o‘qish, mehnat, ijtimoiy foydali faoliyatlarga asoslanishi ularda belgilangan maqsadga erishish, o‘zini boshqarish, xohish bo‘yicha ishlash emas, o‘z-o‘ziga talabchan bo‘lish; hamma joyda aniq fikrga ega bo‘lish; o‘z-o‘zini tarbiyalash va kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlash; axloqiy tarbiyalanganligi, bilimlarni yaxshi egallaganligi, nutq savodxonligining rivojlanganligi, dovyuraklik va hal qiluvchanlik, talabchanlik, tashabbuskorlik va mustaqillik, o‘z-o‘zini iroda qilish va tuta bilish kabilarni takomillashtiradi. Bunda o‘qituvchi talabaning nutq savodxonligini rivojlantirish dasturi asosida kundalik tutishi va talabalardagi o‘zgarishlarni yozib borishi ularning hayotidagi, faoliyatidagi shart-sharoitlarini, turmush tarzini hatti-harakati, muloqoti va maqsadi egallagan bilimlari kabilar nutq faoliyatining, madaniyatining asosini tashkil etadi.

Shu jixatdan xam talabalarda nutq savodxonligini rivojlantirishda bilimlarni egallash hususiyati muxim úrin tutadi. Bilimlar talabaning nutq savodxonligini rivojlantirish ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, fan asoslarini egallash asosida koinotni zabt etishga intilish, e’tiqod, ongli intizom, tajriba faoliyatini yaxlit, bir butun holatda namoyon etish kabilar ularning aqlini mustahkamlaydi, izzatini oshiradi, kamolga yetkazadi, umrini boqiy qiladi.

MUXOKAMA

Demak bilim talaba uchun g‘oyat oliy va muqaddas bir fazilat hisoblanib, uning zehnini, fikrini qilich kabi o‘tkir qiladi. Har bir talabani, madaniyat, insoniyat, ma’rifat dunyosiga olib kiradi. Yomon odamlardan, buzuq ishlardan qaytaradi. Yaxshi xulq va odobli bo‘lishga, e’tiqodlarni oshirishga xizmat qiladi. Bilim kishilarni har yerda aziz va hurmatli qiladi. Kishi hayotidagi ishlarni haqiqiy to‘g‘ri yo‘lga soladi. Shuning uchun ham xalq orasia bilim orqali nutq madaniyatiga ega bo‘lgan ulug‘likka va orzu-istaklarga erishgan buyuk kishilar qadrlanadilar.

Nutq savodxonligini rivojlantirishda nutq his-tuyg‘ulari asosiy o‘rinni egallaydi. Nutq his-tuyg‘ulari, uning ta’sirchanligi asosan axloqiy bilimlar va e’tiqodlar, burch, milliy g‘urur bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib inson shaxsida namoyon bo‘ladi.

Nutq his-tuyg‘ulari shaxsning ma’naviy faoliyatida, voqea va hodisalarida, axloqyi jarayonida namoyon bo‘ladi. Nutq his-tuyg‘ulari kishilar xohish-irodasini axloqiy ong, axloqiy bilim asosida ifodalaydi. Nutq his-tuyg‘ulari insonlarning o‘z-o‘ziga, jamiyatga, hayotga bo‘lgan munosabatlarida namoyon bo‘ladi. Sevgi, ishonch, his qilish, qayg‘urish, ko‘ra olmaslik, o‘z-o‘zini sevish, g‘ururlik, manmanlik, o‘ziga bino qo‘yish kabi ijobiy va salbiy xususiyatlarga ega bo‘lgan nutq his-tuyg‘ulari kundalik turmushimizda ko‘plab uchraydi. Demak, nutq his-tuyg‘ulari o‘zining kelib chiqishi va ahamiyati bilan ijtimoiy xarakterga ega. Ulardan ko‘pchiligi ijobiy va salbiy sifatlari bilan ajralib turadi va har bir insonning qiyofasini namoyon etadi. Nutq his-tuyg‘ulari o‘z mazmuniga ko‘ra ishonch, ong, bilim bilan chambarchas bog‘liqdir. Buning uchun ukituvchi nutq his-tuyg‘ulari jarayonida ukuvchilarda intilish, yaxshi ko‘rish, burch, mas’uliyat, or-nomus kabi hislar kamol toptirish, kishilarning tajribalarida, qat’iy faoliyatlarida ko‘plab uchraydigan shaxs muammolarini bartaraf etishga imkoniyat yaratadi.

Shuni aytish kerakki, nutq his-tuyg‘ularini shakllantirish har bir talabaning shaxs sifatida rivojlanishida, o‘zini bilish yoki anglashda, boshqarishda, faoliyatida bilimlarni qo‘llashga suyanishini taqozo qiladi.

Nutq his-tuyg‘ulari talabani bilish, tushunish, tasavvur qilish kabi uning faoliyatidagi turli-tuman jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, faolligini, bilimini oshirish, talabalardan maxsus ish olib borishni, talaba shaxsiga ta’sir etishning o‘ziga xos usullaridan foydalanishni, talabaning turmush tarzi, hayot va nutq odobini tashkil etishni talab qiladi. Talabalarning nutq his-tuyg‘ularini tarbiyalashda sog‘lom muhit, zavqli vaziyatni vujudga keltirish muhimdir. Chunki ana shunday sharoitda talabalarda odamiylik, mehribonlik, g‘amxo‘rlik, ittifoq, xayrixohlik kabi fazilatlar kamol topadi. Inson hayotida namoyon bo‘ladigan xatti-harakatlarni, o‘z ongi bilan taqqoslaydi. Shuni aytish kerakki, nutq his-tuyg‘ulari ukuvchining xohish va irodasida, turmushida, jamoadagi vaziyatda, o‘qituvchi talablarini amalga oshirishda, talabaning o‘z o‘rni va mavqeini anglashida ifodalanish bilan birga nutq savodxonligining asosini tashkil etadi. Bu o‘rinda ukituvchilarning talabalar bilan o‘tkaziladigan muloqotlari muhim ahamiyatga ega. Chunki muloqot davomida talabalar nutq savodxonligi masalalariga bog‘liq bir qancha axborot oladilar. O‘qituvchi muloqotga kirishar ekanlar, o‘z ongida talabalarning nutq his-tuyg‘ularini, xulqlaridagi muayyan namunalarni tasavvur qilshi, ijobiy va salbiy tomonlarini urganishi o‘z xatti-harakatlari va munosabatlari, axloqiy norma vqa qoidalariga amal kilishi muxim urin tutadi.

Shu jixatdan xam talabalarda nutq savodxonligini rivojlantirishda xulq-atvor funksiyasi muhim o‘rinni egallaydi. Xulq-atvor nutq savodxonligining muhim qismi bo‘lib, u tartib-intizomda, hayot normalarini bajarishda, jamiyatga, mehnatga, odamlarga nisbatan bildiradigan munosabatda namoyon bo‘ladi.

Talabaning qay darajada nutq savodxonligiga ega ekanligini uning xulq-atvoridan bilish mumkin. Bu uning kiyinishida, xatti-harakatida, didi, fahm-farosatida namoyon bo‘ladi.

Talabaning xulq-atvor madaniyatini shakllantirish o‘qituvchidan axloqiy tarbiya ishlarini olib borishni talab qiladi. Albatta bunda o‘qituvchi talaba xulq-atvor madaniyatini tarbiyalashda uning ongiga, sinf jamoasiga asoslanishi kerak. Shu bilan birga talabaning nutq faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish samarali

natijalar beradi. Albatta bunda talabalarda xulq-atvor madaniyatini tarbiyalash, ularni nazorat qilish, xati-harakatlariga alohida ahamiyat berish bilan birga, doimiy talabchan bo‘lish maqsadga muvofiqdir.

Xulq-atvor talabaning nutq savodxonligi faoliyati davomida mustahkamlanadi. Nutq faoliyatida talabalarning ijobiy va salbiy, sodda va murakkab bo‘lgan, xulq-atvorini ko‘rish mumkin.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, talabalarning xulq-atvori nutq bilan belgilanmaydi. Chunki, bilimlar va tushunchalarning o‘zigina talabalarning xulq-atvori yaxshi bo‘lishining mezoni bo‘la olmaydi. Ichki xulq-atvorning nutq savodxonligiga asoslanishi va o‘z xatti-harakatida qo‘llashi talabaning eng yuksak darajasi hisoblanadi. Shunday paytda bilimlarni o‘zlashtiribgina qolmay, har qanday vaziyatda o‘zini madaniyatli tarzda tuta bilishi axloqiy tarbiyalanganligidan dalolat beradi. Shuning uchun ham o‘qituvchining vazifasi har bir talabadagi bilim va madaniyatlarini chuqur anglab, ularni kundalik hayotda amal qilishlariga erishishda ko‘maklashishi lozim. Xulq-atvor talabaning yurish-turish, xatti-harakat tarbiyalanganligini ko‘rsatadi.

Nutq savodxonligini rivojlantirish ahamiyati oddiy bilim bilan cheklanmay, ma’rifatni, ya’ni bilishning eng oddiy martabasini ham yukori boskichga kutarishga karatilgan bulishi kerak.

Dunyoga kelgan har bir bola haqiqiy inson bo‘lib yetishishi uchun juda ko‘p narsalarni bilishi kerak. U boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘ziga kerakli bilimni ko‘rib hamda eshitib va o‘qib o‘rganadi. Eshitib va o‘qib o‘rganish til va nutq savodxonligi vositasida amalga oshadi.

Nutq savodxonligining ma’rifiy ahamiyati shundaki, u tufayli jamiyat a’zolarining bilimi ommalashib boradi va rivojlantiriladi. Undan tashqari, nutq tufayli bilim avloddan avlodga og‘zaki va yozma tarzda qoldiriladi. Natijada yangi avlod o‘tgan avlodning ishini yangidan boshlamasdan, uni davom ettiradi. Bu bilan yanagi taraqqiyot ta’minlanadi. Natijada nutq savodxonligini rivojlantirish tufayli talabalar turli ma’lumotlarga ega bo‘ladilar. Yaьni xar bir talaba Oliy taьlimda bilim oladi.

Nutq savodxonligi shundaki, u so‘z yordamida umumiy tushunchalar hosil qilish. Xaq bilan nohaqni, yaxshi bilan yomonni bir-biridan farqlashni o‘rgatadi.

XULOSA

В статье рассматривается подготовка педагогов к профессиональной деятельности и научно-педагогические подходы, необходимые в этом процессе. Читая статью, исследователь не только познакомится с литературой, относящейся к профессиональной деятельности, и её анализом, но и получит представление об опыте научных исследований в данной области. Особое внимание уделяется компетентностному подходу в подготовке педагогов к профессиональной деятельности. Кроме того, анализируются понятия компетентности и профессиональной деятельности, а также исследуются их взаимосвязи. В статье рассматриваются различные виды компетентности, включая профессиональную, научную и технологическую, и их роль в подготовке педагогов к профессиональной деятельности. Помимо этого, обсуждаются проблемы, существующие в современной системе образования, а также возможные решения с использованием методик, основанных на литературных источниках. Проведённые научные исследования изучаются детально. В статье анализируются работы преподавателей Чирчикского государственного педагогического университета как результат научного исследования. Отдельное внимание уделяется обсуждению полученных результатов. Также подробно рассматриваются исследования учёных Узбекистана и зарубежных стран по теме подготовки педагогов к профессиональной деятельности. Выводы автора основаны на достоверных источниках.

Ключевые слова: Профессиональная деятельность, дидактические материалы и подходы, компетентностный подход, этапы профессиональной деятельности, девять интересных методов.

KIRISH.

Mamlakatimiz ta’lim tizimi rivojlanishi uzviy ravishda pedagog xodimlarning kasbiy kompitentligi va tajribasiga bog‘liq. Bo‘lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlovchi ta’lim muassasalari esa ushbu vazifaga mas’ul hisoblanadi. Jamiyatimizda pedagog maqomi qadimdan ulug‘langan bo‘lib, bugungi kunda uning muhim ahamiyatliligi oshib bormoqda. Asosisy sabab esa bugunning pedagoglari nafaqat o‘qituvchi, balki, maslahatchi, tarbiyachi va yo‘nalish beruvchi psixolog bo‘lishi ham talab etilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi Qonunida pedagogg kim ekanligi va uning maqomi haqida to‘liq ma’lumot berib o‘tilgan. Unga ko‘ra: “Ta’lim tashkilotida qonunchilik hujjatlariga muvofiq tuzilgan mehnat shartnomasi asosida ta’lim va tarbiya sohasida kasbiy faoliyatni amalga oshiruvchi hamda tegishli ma’lumotga, kasbiy tayyorgarlikka va ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan jismoniy shaxs pedagogdir. O‘zbekiston Respublikasida pedagogning maqomi tan olinadi. Pedagoglarning o‘z kasbiy faoliyatini yuritishi uchun tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratiladi,

ularning ijtimoiy himoyasi ta'minlanadi va huquqlari amalga oshirilishi uchun kafolatlar beriladi", - deya belgilanadi. Ya'ni qonuniy va normative hujjatlarda ham pedagogning kasbiy tayyorgarlik darajasi alohida ta'kidlab o'tiladi va uning kasbiy tayyorgarlikka oid barcha vaziyatlarida shart-sharoitlar yaratilishi belgilanadi. [1]

Keltirilgan masalalar tufayli ham kasbiy faoliyatga tayyorgarlik masalasi o'zining dolzarb masala ekanligini isbotlaydi va uchbu maqola bu dolzarb masalaning bir nechta yechimlarini topishni hamda ushbu yo'nalishda ilmiy tadqiqot olib borayotgan ilmiy tadqiqotchilarning ishlarini o'rganishni, tahlil qilishni maqsad qiladi. Ko'zlangan maqsadga erishish maqsadida bir nechta vazifalar belgilab olinadi. Ilmiy tadqiqotchilarning pedagoglar kasbiy faoliyatga tayyorlash borasidagi ilmiy tadqiqot ishlari o'rganiladi, o'rganilgan asarlar yordamida natija bergan metodologiyalar taklif sifatida kiritiladi va muammolarga yechim sifatida metodlar muhokama qilinadi. Aniq metodlar asosida ishlangan didaktik metariallardan na'munalar keltiriladi. Chuqur o'rganilgan mavzular, asarlar va ilmiy tadqiqot ishlari asosida turli xil yondashuvlar solishtiriladi va ular asosida yakuniy xulosa beriladi.

Maqolaning asosiy maqsadi sifatida kompitensiyaviy yondashuv va boshqa yondashuvlar asosida ta'lim tizimida pedagoglarni tayyorlashning samarali uslublari o'rganish nazarda tutiladi. Kompitensiyaviy yondashuvning pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi o'rni va bu jarayonlarni ommalashtirishdagi masalalar o'rganiladi. Kompitensiyaviy yondashuv qo'llanilgan jarayonlar o'rganiladi va natijalar tahlil qilinadi. Maqoladagi asosiy vazifa sifatida ilmiy tadqiqotchilarning tajribaviy ishlarida keltirilgan natijalarni taqqoslash va yosh izlanuvchi sifatida shaxsiy-xulosaviy taklifni berishdan iborat bo'ladi. Bu jarayonlar bir nechta bosqichni qamrab oladi. Ilmiy tadqiqot ishini bajarishda quyidagi metodlardan foydalaniladi:

1. Kuzatish va o'rganish
2. Tahlil qilish
3. Xulosalash

Pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda pedagogik yondashuvlar ilmiy-asosli manbaalar orqali tahlil qilinadi va maqolanig yakuniy xulosasi chiqariladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Bo'lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda maxsus tanlangan fanlarning ahamiyati juda katta. Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda "Pedagogika nazariyasi" "Pedagogik progmatika" va shu kabi boshqa fanlarning o'rni biz o'ylagandanda oshiq. Bu haqida bir nechta ilmiy maqolalarda ham isbot-dalillar keltirib o'tilgan. Jumladan, Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti stajor o'qituvchisi Matkarimova Nargiz Muxamataminovnaning "Bo'lajak pedagoglarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning mexanizmi (chet tillar misolida)" nomli maqolasida pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi eng asosiy masalalalar va ularning nazariy asoslari haqida fikr ilgari surilgan. Uning maqolasi asosan chet tili darslarini olib boruvchi va tashkil etuvchi pedagoglar malakasi haqida izlanishlarni o'z ichiga oladi. Dolzarb masala sifatida dars beruvchi pedagoglarning kasbiy faoliyatdagi ayrim kamchiliklari yoki zaruriy hisoblangan, ammo, ta'lim muassasalarida asosiy muammolardan biri bo'layotgan faoliyatni tashkil etishdagi muammolar hali hamon yechimini topgan emas. Uning bu fikrlaridan xulosa sifatida pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlash naqadar mas'uliyatli vazifa ekanligini bilish mumkin. N.Matkarimova bundan tashqari o'zining maqolasida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda bir nechta yondashuvlarni misol keltiradi. Ulardan eng muhimlari sifatida kompitensiyaviy yondashuvni ta'kidlab o'tadi.[2] Bundan tashqari, bir qancha izlanuvchi, tadqiqotchilar bu muammoni turli xil usullar bilan hal etish haqida ilmiy ishlarni o'tkazishgan va bugun ham shu masalada bosh qotirishmoqda. Shunday ishlardan yana birida pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda didaktik materiallarni va imkoniyatlarni ishga solish g'oyasi ilgari suriladi. Hamda didaktik imkoniyatlar asosida pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlash

strategiyasini puxta va aniq tizimlashtirish va tashkil etish fikri alohida ta'kidlanadi. Nordik International Universityning "ASR" (Academic scientific research) nomli jurnalida Toshkent shahar Politexnikumi direktor o'rinbosari Xasanov Mansur Abrarovichning "O'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash strategiyasini loyihalashtirishning didaktik imkoniyatlari" nomli maqolasida yuqorida keltirilgan didaktik yondashuv haqida fikr yuritadi.[3] Pedagogik faoliyatni tashkil etish albatta tizimli bo'lishi va bu jarayonlar har bir pedagogning kasbiy kompitensiyasini belgilab berishini inobatga olish zarur. Bu masalada ham izlanishlar olib borgan izlanuvchilarning ishlari bilan chuqur tanishish natijasida OXU II bosqich magistranti Orziyeva Muqaddas Saidovna "Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy innovatsion faoliyatga tayyorlashning pedagogik-psixologik tizimi" nomli tezisida keltirilgan ma'lumotlar o'rganildi. Ushbu tezisda pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning bosqichlari keltirib o'tiladi:

1. Kasbiy faoliyatga motivatsion yo'nalganlik;
2. Kasbiy faoliyat talablarini o'zlashtirish;
3. Kasbiy o'z-o'zini anglash, moslashish.

Keltirilgan 3 ta bosqich asosida pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonlari amalga oshiriladi. Ya'ni bu jarayon individuallashtirilgan muhitni ham talab etadi.[4] Pedagog olim V.A.Slastenin bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirishda: 1) mutaxassis ishlashi lozim bo'lgan aniq vaziyatlarni; 2) uning mehnat vazifalarini; 3) talab etiladigan bilim, malaka va ko'nikmalarni inobatga olish zarurligini ta'kidlab o'tadi Kasbiy sifatlar pedagogik faoliyat muvaffaqqiyatning muhim omillaridan biri bo'lib, ular maqsadga intiluvchanlik, qat'iyatlik, diqqatni taqsimlay olish, tirishqoqlik, kuzatuvchanlik, pedagogik takt va pedagogik xayolning rivojlanganligi, ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik, shaxsiy namuna ko'rsatish, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni yanada boyitishga bevosita hissa qo'shish kabi jihatlar bilan tavsiflanadi.[5]

Pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning eng kata maqsadi – mehnat bozorida muvaffaqiyat qozona oladigan kadrlarni tayyorlashdir. Pedagogning oldida nafaqat bilim berish vazifasi turadi, balki, pedagogik deontologiyaga ko'ra doimiy rivojlanib borish burchi ham aks etadi. Ilmiy tadqiqotchilar bu mavzuning ham naqadar ahamiyatli ekanligini ta'kidlashadi. Doimiy rivojlangan kadrlar mehnat bozorida hamisha ulkan zafarlarga erishishadi. Kasbiy faoliyatga tayyorlashda kasbiy kompitentlikning o'rni haqida Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi O.H.Bozorovaning 2024-yil "O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar" jurnalining 33-sonidagi "Kasbiy faoliyat va kasbiy kompetentlik: zamonaviy mutaxassisning asosiy jihatlari" nomli maqolasida to'liq ma'lumot berib o'tadi. Uning nazariyasiga ko'ra kasbiy kompitentlik tarkibiga quyidagilarni qamrab oladi: nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, kasbiy tajriba, shaxsiy fazilatlar (masalan, mas'uliyatlilik, kommunikativ qobiliyatlar), kasbiy etika va qadriyatlar.

Bu komponentlar o'z o'rnida uzluksiz jarayon sifatida tan olinadi va uni rivojlantirish uchun quyidagilar zaruriy omillar sifatida ta'kidlanadi: uzluksiz ta'lim va malaka oshirish, amaliy tajriba orttirish, o'z-o'zini rivojlantirish va mustaqil o'rganish, kasbdoshlar bilan tajriba almashish, yangi texnologiyalar va usullarni o'zlashtirish. [6]

Qo'llanilgan usullar sifatida ommalashib ulgurgan yuqoridagi omillar maqolaning metodologiyasi sifatida alohida belgilab o'tiladi. Bu usullarni qo'llash orqali kompitensiyaning darajasini sezilarli ko'rsatkichda ko'tarish mumkin.

Xorijiy mamlakat olimlarining akademik manbaalarini o'rganish davomida juda ko'p innovatsion uslublarni uchratish mumkinligi oydinlashadi. Maqola mavzusiga doir "yondashuvlar" asosida ilmiy izlanishlar olib brogan olimlardan AQSHning mashhur professori Richard M. Wolfning "Competency-Based Teacher Education: Principles and Practices" maqolasini misol keltirish mumkin. Ushbu

maqolada professor modulli o‘qitish, reflektiv amaliyot va baholash tizimlarini o‘rgangan va o‘zining g‘oyalarini taklif etgan. [7]

Juda ko‘p xorijiy mamlakat olimlarining ishlarida pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning kompitensiyaviy yondashuvlarini uchratish mumkin. Asil masala sababini kompitensiyaviy yondashuvning kam ekanligi yoki bundan umuman foydalanmaslik deb qabul qilishadi. Asosli manbaalarni toppish mushkul ammo ularning tajribalarida nazarda turilgan masalalar pedagoglarni kasbga tayyorlashda aossiy yechim bo‘lib xizmat qilishi mumkin. The O‘zbekiston Jahon tillari universiteti dotsenti Rahmonov Azizxon Bositxonovichning 2019-yil, “European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences” jurnali 7-jild, 12-to‘plamidagi, “The role of the competence approach in pedagogical education” maqolasida o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda komptensiyaviy yondashuvning ahamiyati va undan o‘rinli foydalanish va bir nechta metodlar haqida bayon etiladi.[8]

O‘rganilgan adabiyotlarda keltirilgan uslublar xilma-xilligi o‘rtasida eng muqobil tanlov sifatida olingan ma’lumotlar metadologiya bo‘limidan o‘rin egallaydi. Toshkent shahar Politexnikumi direktor o‘rinbosari Xasanov Mansur Abrarovichning “O‘quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash strategiyasini loyihalashtirishning didaktik imkoniyatlari” nomli maqolasida didaktik imkoniyatlar haqida fikr yuritganini yuqorida ma’lumot sifatida keltirib o‘tdik. Ammo, maqoladagi fikrlar shu bilan tugamaydi. Unda individual yondashuv asosida pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlash strategiyasini ishlab chiqish va o‘quv rejadagi fanlar va mavzularni dastlab chuqur o‘rganish hamda ular asosida kerakli didaktik materiallarni tuzish va amalga joriy etish masalasini qo‘yadi. Bu maqola kollejlar va texnikumlar misolida yozilgan bo‘lsada, o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda eng kata va dolzarb muammolarni ochib bera olgan. Bu yondashuv bugungi kunda o‘z tasdig‘ini topmoqda. Boshqa bir nechta izlanuvchilarning didaktik yondashuv asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash masalasini ilgari surgani bugungi kun axborot vositalari va izlanuvchilar uchun sir emas. [6]

Tahlil va natijalar.

Maqolada nazarda tutilgan adabiyotlardan xulosa qilib kompitensiyaviy yondashuvni eng ma’qul va munosib yondashuv sifatida keltirish mumkin. Buning asosiy sababi shuki, kompitensiyaviy yondashuv orqali o‘qituvchilar individual rivojlanishi, vaziyatlarga tog‘ri yechim berishni o‘rganishi va eng kerakli ko‘nikmalarni hosil qilishi kuzatilgan. Ma’lumki kompitensiyaviy yondashuv o‘z o‘rnida bir nechta kompitentlikka bo‘linadi: texnologik, kasbiy-professional. individual, maxsus, psixologik, informatsion, kommunikativ va boshqalar.[7] Pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlash masalasiga olimlar turlicha yondashishadi. Kompitensiyaviy yondashuv ham o‘z o‘rnida turlarga bo‘lingani uchun olimlarning ishlarida faqat bittasiga urg‘u berilishini kuzatish mumkin. Ilmiy tadqiqot ishlarini o‘rganish davomida xorijiy va yurtimiz olimlarining ishlari taqqoslandi. Ulardan bir nechta ishlardagi qo‘llanilgan metodlar va yondashuvlarning natijalari to‘g‘risida batafsil to‘xtalib o‘tiladi. Chirchiq Davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi Pulatova Dilfuza Azamkulovnaning “Bo‘lajak o‘qituvchi-defektologlarga ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borishni o‘rgatish kasbiy faoliyatga tayyorgarlik ko‘rish omili sifatida” nomli maqolasida mazkur universitetda ta’lim olayotgan bo‘lajak pedagoglarni, ya’ni talabalarni ilmiy tadqiqot faoliyatiga qiziqtirish orqali ulardagi kompitentlik qobiliyatlarini rivojlantirish tajribasi sinab ko‘riladi. “Chirchiq davlat pedagogika universitetining Pedagogika fakulteti “Maxsus pedagogika” kafedrasida an’anaga aylantirilgan “Ustoz-shogird” ish tizimi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bir professor-o‘qituvchiga 3 nafar magistr va 10 nafar bakalavr talabalar biriktirildi. Ushbu turda olib borilgan hamkorlikdagi ish natijasida 30 ga yaqin magistr va stajor-o‘qituvchilar, 100 dan ortqi bakalavr talabalari ilmiy-tadqiqot ishlari (maqola va tezislar) bilan Respublika va Xalqaro konferensiyalarda cop etildi”[8]. Mazkur maqolada yondashuv kompitensiyaviy, kompitentlik esa kasbiy-professional yoki ilmiy kompitentlik deyish mumkin. Bu orqali 130 nafar bo‘lajak pedagoglar kasbiy faoliyatga

kompitentliklarini rivojlantirish orqali tayyorlanishgan hamda o‘z o‘rnida bu yondashuv ulardagi individual qobiliyatlarini ham shakllanishiga va rivojlanishiga sababchi bo‘lgan.

Tanlab olingan ilmiy tadqiqot ishlaridagi ikkinchi maqolada keltirilgan fikrlar orqali yana bir turdagi g‘oyalarga guvoh bo‘lish mumkin. “Smekenseducation” web saytidagi ma’lumotlarga ko‘ra pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning 9 xil qiziqarli metodikalari mavjud ekan. Ulardan qo‘llanilgani va samarali natija berganlaridan biri bu “Choise board” ya’ni “Tanlovlar doskasi” bo‘ladi. Bu orqali o‘qituvchilar ta’lim jarayonlarini avvalgiga nisbatan qiziqarli va rangli qilishlari mumkin. Ushbu metodni bo‘lajak pedagoglarda ham sinab ko‘rish mumkin. Bu metodni qo‘llashda quyidagi afzalliklar ko‘zga tashlanadi:

- Tanlov erkinligi: O‘qituvchilarga o‘z ehtiyoj va qiziqishlariga mos keladigan PD faoliyatlarini tanlash imkonini berish ularga ko‘proq ishtirok etish va o‘rganish jarayonida faol bo‘lishga yordam beradi.
- Turli formatlar: PD jarayonida kitob yoki maqolalar o‘qish, video tomosha qilish yoki yaratish, podkast tinglash, onlayn kurslar o‘tish, hamkorlikdagi loyihalar ustida ishlash, dars rejalarini tuzish va jurnal yuritish kabi usullar mavjud bo‘lishi kerak.
- O‘yin elementlari: Tanlov taxtasi BINGO formatida bo‘lishi mumkin, bunda o‘qituvchilar ma’lum faoliyatlarni bajarib, qator yoki to‘liq taxtani to‘ldirishga harakat qilishadi.
- Moslashuvchan format: Google Docs, FigJam yoki bosma varaqalar orqali taqdim etilishi mumkin.[9]

Bu metod yordamida pedagoglarni kasbiy faoliyatga yo‘naltirish kompitensiyaviy yondashuv sifatida ochiqlanadi va isbotlanadi. Bu yondashuvlar aslida murakkab jarayon emas va xorijiy mamlakat pedagoglarida ushbu tajribalar o‘tkazilmoqda.

Muhokama.

Kompitensiyaviy yondashuv asosida kuzatilgan natijalar orqali quyidagi savollarni muhokama uchun tanlash mumkin:

1. Nima uchun talabalar soni 130 nafarni tashkil etdi?
2. Nima uchun barcha bitiruvchilarni qamrab olmadi?
3. Nima uchun aynan professional yoki ilmiy kompitentlik tanlab olindi?

Ko‘rilayotgan masalalarga quyidagicha javob berish mumkin:

1. Maxsus pedagogika kafedrasida tehsil oluvchi talabalarning eng qobiliyatlilari va kasbiy faoliyatni davom ettirishga qodir bo‘lganlari tanlab olingan.
2. Barchani birdek ilmiy faoliyatga qiziqtirish qiyin edi. Shu sababli kafedrada ta’lim olayotgan eng qobiliyatli, qiziqish shakllangan va maqsadlari mavjud bo‘lgan talabalar tanlab olingan. Avvalo, bu yondashuv asosida tashkil etilgan tanlov sog’lom raqobat ostida bo‘lib o‘tgan. Maqola va tezislarni tayyorlash davomida talabalarga ilmiy rahbarlar ko‘mak berishgan.
3. Kasbiy faoliyatga tayyorlashda yuqorida aytilganidek juda ko‘p uslublardan foydalanish mumkin. Ilmiy tadqiqot ishida tanlab olingan ilmiy faoliyat bilan mashg‘ul qilish tajribasi orqali talabalarda ilmiy savodxonlik ko‘nikmasi rivojlanadi, vaziyatlarga tanqidiy-tahliliy va asosli yondashish g‘oyasi paydo bo‘ladi, individual qobiliyatlari rivojlanadi, mustaqil ta’lim olish ko‘nikmasi mustahkamlanadi, jarayonlarni baholashda ilmiylikka asoslanish fikri shakllanadi va nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash tajribasi shakllanadi, amaliy tajribalarga tahliliy yondashish va uni muhokama qilish hamda kerakli va to‘g‘ri xulosani chiqarish ko‘nikmasi shakllanadi. Bunday kadr esa har qanday kompitentlikka moslashuvchi va vaziyatlarga tanqidiy-tahliliy yechim topuvchi malakali shaxsga aylanadi. Bundan keyingi faoliyatlar davomida, masalan, bugungi kunda Chirchiq davlat pedagogika

universitetining deyarli barcha fakultetlarida talabalarning ilmiy faoliyatiga bo‘lgan talab yuqori ko‘rsatkichni ko‘rsatadi. Bu haqida batafsil universitetning web-saytlarida ham tanishish mumkin. [9]

Keyingi ko‘rilgan ilmiy maqolada ko‘rsatilgan 9 xil qiziqarli metodlar yordamida pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini bir muncha yaxshilash yoki rivojlantirish mumkin. 9 xil metodlar sifatida tanlangan uslublar bo‘lajak va joriy pedagoglarning kasbiy kompitentligini oshirish bilan birgalikda ulardagi kreativlik qobiliyatini ham oshirishi isbotlandi. Tanlab olingan dastlab metod yordamida pedagoglar dars jarayonini tashkil etishda erkin fikr va mulohazalarga asoslanishni o‘rganishadi.

1.Choice, 2.On-demand learning, 3.Chalk Talk, 4.Walk & Talk, 5.Timed Mingle, 6.Digital assessments, 7.The ABC Chart, 8.Walk, Chalk, Talk, 9.Memory. Bu metodlar to‘g‘ri va aniq tashkil etilsa nafaqat pedagoglarda, balki, talabalarda ham kasbiy faoliyatga bo‘lgan tayyorgarlikni rivojlantirishi mumkin.

Xulosa.

Xulosa sifatida pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda kompitensiyaviy yondashuvning o‘rni muhim ekanligi va bu yondashuvlardan foydalanish davomida bo‘lajak pedagoglar bir qancha qobiliyatlarni shakllantirishlari mumkinligi aniq bo‘ladi. Pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlash har qachongidan ham muhim va buni bosqichma bosqich amalga oshirish juda muhim. Kasbiy faoliyatga tayyorgarlik ko‘rishda har bir bo‘lajak pedagog o‘zini muhim shaxs sifatida tayyorlashi va ma’suliyatni yelkasiga olishda kasbiy burchlari va fazilatlarini unutmasligi zarur. Yakuniy xulosa esa barchasini balansda ushlash ham bir kompitentlikdir. Bu odatni faqatgina tinimsiz o‘rganilgan ko‘nikmalar yordamida hosil qilish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Pedagogning maqomi to‘g‘risida 3-modda Qonunchilik palatasi tomonidan 2023-yil 1-avgustda qabul qilingan. Senat tomonidan 2023-yil 29-sentabrda ma’qullangan https://lex.uz/docs/-6786401

2. Matkarimova Nargiz Muxamataminovna. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Xitoyshunoslik fakulteti stajor o’qituvchisi. BO‘LAJAK PEDAGOGLARINI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING MEXANIZMI (ЧЕТ ТИЛЛАР МИСОЛИДА). Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7. 3, September, 2023 . https://ojs.nordicun.uz/index.php/nordic/article/download/1409/1032/4683

3. Xasanov Mansur Abrarovich, Toshkent shahar Shayxontohur tuman Politexnikumi, Ishlab chiqarish ta’limi bo‘yicha direktor o‘rinbosari. O‘QUVCHILARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH STRATEGIYASINI LOYIHALASHTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI. ASR jurnali.

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.14512262

4. Zamira Imomaliyevna Olimova, O`qituvchilarni pedagog kasb faoliyatiga tayyorlashning pedagogik-psixologik asoslari. https://azkurs.org/ozbekiston-respubilkasi-oliy-va-orta-maxsus-talim-vazirligi.html?page=3

5. Orziyeva Muqaddas Saidovna, OXU II bosqich magistranti. “Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy innovatsion faoliyatga tayyorlashning pedagogik-psixologik tizimi” https://universalpublishings.com/index.php/itfttdm/article/download/1699/3248

6. Bozorova O.H. Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi. “O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar” jurnali, 33-son, 20.10.2024. “Kasbiy faoliyat va kasbiy

kompetentlik: zamonaviy mutaxassisning asosiy jihatlari". file:///D:/15.01.24/Documents/Downloads/Bozorova+O.+H.pdf

7. Zahidov B., & Karimov, M. (2021). "O‘quvchilarni kasbiy tayyorgarlik jarayonida didaktik yondashuvlar". Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta'lim vazirligi.

8. Rakhmonov Azizkhon Bositkhonovich PhD / The Uzbek state world languages University, European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 7 No. 12, 2019 ISSN 2056-5852 Progressive Academic Publishing, UK Page 266 www.idpublications.org "The role of the competence approach in pedagogikal education" https://www.idpublications.org/wp-content/uploads/2019/10/Full-Paper-THE-ROLE-OF-THE-COMPETENCE-APPROACH-IN-PEDAGOGICAL-EDUCATION.pdf

9. Abdurasulova Shoira Kushakovna guliston davlat universiteti katta o'qituvchisi. "Kompitentlik va muloqot kompetensiyasining uzviyligi" "Raqamli ta'limning zamonaviy tendentsiyalari va ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga tadbiq qilish yo‘llari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi 125-bet. 25-oktabr 2023-yil. https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/0010/M-27.pdf

10. Pulatova Dilfuza Azamkulovna Chirchiq Davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi. Международный научный журнал № 5 (100), часть 1 «Научный импульс» Декабрь, 2022 413 "Bo‘lajak o‘qituvchi-defektologlarga ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borishni o‘rgatish kasbiy faoliyatga tayyorgarlik ko‘rish omili sifatida" file:///D:/15.01.24/Documents/Downloads/Pulatova+Dilfuza+Azamkulovna%20(1).pdf

11. https://cspu.uz/ Chirchiq davlat pedagogika universiteti web-sayti.

12. Michelle Schweikhardt 9 fun professional development activities for teachers

IXTISOSLASHGAN SAN'AT MAKTABLARIDA INFORMATIKA FANINI O'QITISH METODIKASINI ISHLAB CHIQISHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К РАЗРАБОТКЕ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНФОРМАТИКИ В СПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫХ ШКОЛАХ ИСКУССТВ

MODERN APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF METHODOLOGY FOR TEACHING INFORMATICS IN SPECIALISED ART SCHOOLS

Egamberdiyeva Nasiba Shavkat qizi

Qarshi ixtisoslashtirilgan san'at maktabi "Informatika" fani o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ixtisoslashgan san'at maktablarida informatika fanini o'qitishning ahamiyati, mazmuni va samarali o'qitish metodikalarini ishlab chiqish masalalari yoritilgan. Shuningdek, informatika fanining zamonaviy talablarga javob beruvchi o'quv dasturlari, innovatsion texnologiyalardan foydalanish va o'quvchilarni kasbiy ko'nikmalar bilan ta'minlash metodikalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, raqamli savodxonlik, differensial yondashuv, integrativ yondashuv, individuallashtirish, IT sohasi, fundamental, dasturlash tillari, sun'iy intellekt, ma'lumotlar bazasi, PBL, Gamification, Blended learning, STEM yondashuvi.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются важность, содержание и разработка эффективных методик преподавания информатики в специализированных художественных школах. Также были проанализированы учебные программы по информатике, соответствующие современным требованиям, использование инновационных технологий и методики предоставления студентам профессиональных навыков.

Ключевые слова: цифровые технологии, цифровая грамотность, дифференциальный подход, интегративный подход, индивидуализация, сектор ИТ, основы, языки программирования, искусственный интеллект, база данных, PBL, геймификация, смешанное обучение, STEM-подход

ABSTRACT

This article discusses the importance, content and development of effective teaching methods for teaching computer science in specialized art schools. It also analyzes the methods of developing computer science curricula that meet modern requirements, the use of innovative technologies and providing students with professional skills.

Keywords: digital technologies, digital literacy, differential approach, integrative approach, individualization, IT sector, fundamentals, programming languages, artificial intelligence, database, PBL, Gamification, Blended learning, STEM approach.

KIRISH

XXI asr – raqamli texnologiyalar asri. Informatika va axborot texnologiyalari (AT) hayotimizning barcha sohalarida muhim o'rin tutmoqda. Shu sababli, maktab ta'limining asosiy vazifalaridan biri – o'quvchilarning raqamli savodxonligini oshirish va ularga dasturiy ko'nikmalarni shakllantirishdan

iborat. Ayniqsa, ixtisoslashgan maktablarda informatika fanining mazmuni chuqurroq va amaliy jihatdan boy bo‘lishi talab etiladi. Ta’lim muassasalarida dars jarayonini sifatli tashkil qilish va o‘quvchilarni fanga qiziqtirish, mavzuni tushuntirishda zamonaviy axborot kommunikatsion va pedagogikaning innovatsion texnologiyalaridan foydalanish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Informatika va axborot texnologiyalari fanining mazmuni va uni o‘qitishni rivojlantirish, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida informatika fanini o‘qitish masalalari, asoslari, dasturlash muhitidan ta’lim tizimida foydalanish, informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitishni takomillashtirishning metodik tizimi, informatikadan interaktiv o‘quv majmualar yaratish va ulardan ta’lim jarayonida foydalanish axborot tizimlarini loyihalash, o‘quvchilarni kompyuter texnologiyalari bo‘yicha ta’lim olishga qaratilgan metodlar asosida virtual didaktik ishlanmalar tayyorlash, elektron axborot ta’lim resurslarini ishlab chiqishga, ta’lim jarayonida samarali foydalanish usullari, o‘quv jarayoni uchun dasturiy ta’minot ishlab chiqish masalalari bo‘yicha A. A. Abduqodirov, M. X. Allambergenova, M. M. Aripov, R. X. Ayupov, U. SH. Begimqulov, R.R. Boqiyev, U.Y.Yuldashev, F.M.Zakirova, Sh.A.Nazirov, N.I.Taylaqov, A.G‘.Hayitov, B.B.Mo‘minov, R.R.Boqiyev, M.M.Mamarajabov, M.Y.Eshnazarova, O.X.To‘raqulov, B.Z.To‘rayev, A.X.Pardayev, N.H.Avliyoqulov, M.D.Pardayeva, F.R.Muradova kabi olimlar tadqiqotlarida yoritilgan.

MDH olimlaridan A.I.Bashmakov, M.I.Belyayev, M.P.Lapchika, R.I.Nikolayevna, M.A.Goryunova, S.A.Beshenkov, V.P.Bespalko, A.A.Kuznetsov, YE.V.Chernobay, L.L.Bosova, D.G.Jemchujnikov, T.B.Zaxarova, N.N.Samilkina, I.V.Rojina, kabilar o‘z asarlarida ta’limda kompyuterlar va axborot texnologiyalaridan foydalanishni, ta’limni axborotlashtirish muammolari bo‘yicha, pedagogik jarayonni modellashtirish va loyihalash konsepsiyasi, ta’limni axborotlashtirish muammolari, informatika nazariyasi va ta’limda axborot texnologiyalaridan foydalanish, informatika fani o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatida axborot texnologiyalarni qo‘llashga tayyorlash, ta’lim jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari hamda pedagogik dasturiy vositalarga oid muammolarni o‘z tadqiqotlarida yoritib berganlar.

Turli ta’lim bosqichlarida ta’lim mazmunining differensiallashuvi asosida informatika kursining mazmunini ishlab chiqish masalalari A.A.Kuznetsov, L.L.Bosova, S.A.Beshchenkov, T.B.Zakharova, A.S.Lesnevskiy, N.V.Makarova, E.A.Rakitina, I.I.Raskina, I.G.Semakin, Z.V.Semenova va boshqalar tomonidan o‘rganilgan.

NATIJALAR

Ixtisoslasgan san’at maktablarida informatikaning mazmuni differensial va integrativ yondashuvlar asosida shakllantiriladi. Bu informatika fanining zamonaviy talablarga javob berishini ta’minlab, o‘quvchilarga kasbiy yo‘nalishlarini belgilash uchun mustahkam asos yaratadi.

Ixtisoslasgan san’at maktablarida informatika kursining mazmunini rivojlantirish nazariy jihatdan integratsiya va differensiallashuvning uyg‘unligini ta’minlashga asoslanadi. Bu tamoyil butun ta’lim tizimining mazmuniy xususiyatlarini belgilab beradi. Me’yoriy hujjatlar bilan mustahkamlangan differensial ta’lim tizimi bosqichma-bosqich o‘quv jarayonini tashkil etish imkonini beradi. Ushbu yondashuv doirasida fanlarning chuqurlashtirilgan o‘qitilishi o‘quvchilarning tanloviga asoslangan holda amalga oshiriladi [2].

Informatika fani ixtisoslasgan san’at maktablarida ikki darajada – bazaviy va chuqurlashtirilgan – o‘qitilishi mumkin. Pedagogik va psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim tizimida “differensial yondashuv” va “differensial ta’lim” tushunchalari farqlanadi. Differensial ta’lim tizimning boshqaruv, tashkiliy-huquqiy jihatlariga asoslangan holda o‘quvchilarga asosiy ta’lim dasturini qaysi yo‘nalishda va qaysi darajada o‘zlashtirishni tanlash imkonini beradi.

Shu bilan birga, differensial yondashuv – ta'limni individuallashtirishga asoslanadi, ya'ni har bir o'quvchining ehtiyojlari, qiziqishlari va qobiliyatlarini inobatga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etish imkonini beradi. Ushbu yondashuv turli usullarda amalga oshirilishi mumkin [3].

Zamonaviy ta'lim tizimida differensial ta'lim umumta'lim bosqichida kasb ta'limi orqali amalga oshiriladi. Tanlangan kasb o'quv rejasi mazmunini belgilaydi, ya'ni qaysi fanlar chuqurlashtirilgan darajada o'qitilishi aniqlanadi. Shu sababli, ixtisoslasgan san'at maktablarida ta'lim mazmunini farqlash amalga oshiriladi. Mazkur yondashuvning mohiyati "o'quvchilarning qiziqishlari, moyilliklari va qobiliyatlarini maksimal rivojlantirishga qaratilgan ta'lim mutaxassisliklarining shakllantirilishida" namoyon bo'ladi [4].

Kasb doirasida fanning turli darajalarda o'zlashtirilishi ko'zda tutiladi. Barcha fanlar ixtisoslasgan san'at maktablarida bazaviy darajada o'qitiladi, shu jumladan, qo'shimcha ta'lim dasturlari yoki boshqa ta'lim muassasalari bilan tarmoq hamkorliklari orqali bilim doirasini kengaytirishlari mumkin. Shu bilan birga, barcha ta'lim bosqichlarida differensial yondashuv amalga oshiriladi, chunki ta'lim tizimida o'quv jarayonini individual reja asosida tashkil etish imkoniyati qonunchilikda mustahkamlangan.

MUHOKAMA

Tanlangan ta'lim dasturi o'quvchilarning qiziqishlariga mos keladigan mazmun va faoliyat turlarini o'z ichiga oladi, bunda integrativ yondashuvning ahamiyati katta [5].

Ta'limining differensiallashuvida ikkita asosiy tamoyil muhim rol o'ynaydi:

1. **Fan sohasining ta'lim mazmuniga binar kirishi tamoyili** – bu tamoyil informatikaning umumiy ta'lim dasturida ikkita yo'nalishda aks etishini anglatadi: mustaqil o'quv fani sifatida va barcha fanlarni o'qitishda vosita (instrumental komponent) sifatida. Boshqacha aytganda, informatika nafaqat alohida o'quv fani, balki ta'limni informatsionlashtirish jarayonining ajralmas qismi hamdir.

2. **Pedagogik yetakchi funksiyaga asoslangan ta'lim mazmunining differensiallashuvi tamoyili** – bu tamoyilga ko'ra, ta'lim mazmuni ikkita asosiy komponentga bo'linadi: fundamental (ilmiy dunyoqarashni shakllantirish) va amaliy (kelajak kasbini tanlashga yo'naltirilgan kurslar).

Ixtisoslasgan san'at maktablarida informatika fanini o'qitish holati, me'yoriy hujjatlar, ilmiy tadqiqotlar va nashrlarning tahlili chuqurlashtirilgan informatika kursining tuzilmasini ishlab chiqishda quyidagi asosiy yondashuvlarni belgilash imkonini beradi:

1. IT sohasi ehtiyojlarini integrativ aks ettirish – IT sohasining turli tuzilmalari va faoliyat yo'nalishlarini inobatga olgan holda informatika fanining mazmunini shakllantirish.
2. Predmet kompetensiyalarining rivojlanishiga yo'naltirilgan yondashuv – o'quv natijalarining ierarxik tizimini shakllantirish, strukturaviy bog'liqlikni ta'minlash.
3. Informatika fanining ob'ektlari va ularni o'rganish usullari asosida ishlab chiqilgan yondashuv – informatika fanining nazariy va amaliy yo'nalishlarini uyg'unlashtirish.

Ushbu yondashuvlar informatika fanining zamonaviy talablarga mos kelishini ta'minlaydi va o'quvchilarga kasbiy yo'nalishini aniqlash imkonini beradi [7].

Informatika kursining mazmuni differensial yondashuv asosida ikki asosiy yo'nalishga ajratilishi mumkin: **fundamental va amaliy**. Fundamental yo'nalish informatikaning nazariy asoslarini, algoritmik tafakkurni shakllantirishni, axborot texnologiyalarining ilmiy negizlarini chuqur o'rganishni o'z ichiga oladi. Amaliy yo'nalish esa zamonaviy dasturlash tillari, axborot xavfsizligi, sun'iy intellekt, ma'lumotlar bazasi va boshqa komponentlarning real muhitda qo'llanilishiga yo'naltirilgan bo'lishi kerak[6].

O'qitish metodikasi o'quvchilarni amaliy ko'nikmalar bilan ta'minlashga yo'naltirilishi lozim. Quyida samarali metodikalar keltirilgan:

- **Loyiha asosida o‘qitish (PBL)**: O‘quvchilarga amaliy loyihalarni bajarish orqali real muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirish.
- **O‘yinlashtirish (Gamification)**: O‘quv jarayoniga o‘yin elementlarini kiritish orqali o‘quvchilarni qiziqtirish.
- **Blended learning (Aralash ta’lim)**: An’anaviy darslarni onlayn resurslar bilan birlashtirish.
- **Individual yondashuv**: Har bir o‘quvchining qobiliyati va qiziqishiga mos ta’lim dasturini ishlab chiqish.
- **STEM yondashuvi**: Informatikani matematika, fizika va texnologiya bilan integratsiya qilish [6].

XULOSA

Zamonaviy ta’lim mazmuni kasbiy tayyorgarlikni qo‘llab-quvvatlovchi texnologiyalarni o‘z ichiga olishi shart. Ta’lim jarayonida ilg‘or raqamli platformalar, dasturiy ta’minot muhitlari, axborot tizimlari va innovatsion yondashuvlardan keng foydalanish o‘quvchilarning kasbiy ko‘nikmalarini oshirishga xizmat qiladi. Shu tariqa, informatika kursining integrativ va amaliy mazmuni san’at sohasi mutaxassislarini yetishtirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, informatika kursining mazmuni nafaqat informatika fanining o‘ziga xos jihatlarini aks ettirishi, balki san’at sohasi uchun zarur bo‘lgan zamonaviy ko‘nikmalarni shakllantirishga ham xizmat qilishi lozim deb hisoblaymiz.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-fevraldagi PQ-3504-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarori. https://lex.uz/docs/-3546734.
2. Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-ҳунар таълимининг умумтаълим фанлари бўйича малака талаблари. «Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами», 2017 йил 10 апрель, 14-сон, 230-модда.
3. Арипов М.М., Ҳайдаров А. Информатика асослари. Коллеж ва лицейлар учун ўқув қўлланма. – Тошкент “Ўқитувчи”, 2002. - 432 б.
4. Боймуродов А.Х. Умумий ўрта таълим тизимида Информатика ва ахборот технологиялари фанини ўқитишнинг инновацион кластер модели: пед. фан. … фалс. док. (PhD) дисс. автореф. – Т., 2021. –49 б.
5. Жўраев В.Т. Электрон таълим муҳитида педагогик дастурий воситалардан фойдаланиш методикасини такомиллаштириш // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси авторефератн. – Тошкент, 2021. – 27 б
6. Исмоилов Т.Ж., Мажидова Х.Е. STEAM va SMART ta'lim texnologiyasi. Uslubiy qo'llanma. Жиззах-2022 yil, 54 bet.
7. Муслимов Н. А., Усмонбоева М.Ҳ., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. Инновацион таълим технологиялари. –Т.: Сано стандарт, 2015. –81 б.

ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ В ВУЗАХ

INNOVATIVE METHODS OF TEACHING RUSSIAN LANGUAGE AND LITERATURE IN UNIVERSITIES

Тохирова Лейли Рустамовна

Преподаватель факультета «Педагогика» Чирчикского государственного педагогического университета, Чирчик, Узбекистан

ORCID ID: https://orcid.org/0009-0002-1918-5044

Юлдашева Русана Рустамовна

Студентка 2-го курса факультета «Гуманитарные науки» Чирчикского государственного педагогического университета, Чирчик, Узбекистан

Кодирова Рисолат Хайрулла кизи

Студентка 2-го курса факультета «Гуманитарные науки» Чирчикского государственного педагогического университета, Чирчик, Узбекистан

АННОТАЦИЯ

Современное высшее образование переживает значительные трансформации, что требует внедрения инновационных методов преподавания. В условиях цифровизации, изменяющихся когнитивных способностей студентов и требований рынка труда традиционные подходы дополняются новыми методиками, направленными на развитие критического мышления, самостоятельности и креативности обучающихся. Данная статья рассматривает основные инновационные методы преподавания русского языка и литературы в высших учебных заведениях. Среди них выделяются модульное обучение, цифровые технологии, геймификация, проблемное и проектное обучение. Особое внимание уделяется интерактивным методам, которые способствуют повышению мотивации студентов и делают образовательный процесс более динамичным и вовлекающим. Анализируются успешные практики внедрения инновационных методик в образовательные программы университетов. Например, метод проблемного обучения позволяет студентам осваивать материал через решение практических задач, развивая аналитические способности. Проектная деятельность помогает применять полученные знания в реальной жизни, создавая научные и творческие проекты. Геймификация, включающая в себя игровые элементы, квесты и соревнования, повышает интерес к изучению предмета. Цифровые технологии также играют важную роль в модернизации обучения. Использование онлайн-платформ, интерактивных тестов, мультимедийных ресурсов и дистанционного обучения расширяет возможности для самостоятельного изучения материала. Метод перевернутого класса способствует более глубокому пониманию темы за счёт предварительного ознакомления с теорией и акцентирования внимания на практическом применении знаний в аудитории. Таким образом, внедрение инновационных методов преподавания русского языка и литературы способствует повышению эффективности образовательного процесса, адаптации студентов к современным условиям и развитию их профессиональных компетенций.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: инновационные методы, модульное обучение, цифровые технологии, геймификация, проблемное обучение, проектное обучение, интерактивные методы, критическое мышление, преподавание русского языка и литературы, высшее образование.

ABSTRACT

Modern higher education is undergoing significant transformations, which requires the introduction of innovative teaching methods. In the context of digitalization, changing cognitive abilities of students and the demands of the labor market, traditional approaches are complemented by new methods aimed at developing critical thinking, independence and creativity of students. This article examines the main innovative methods of teaching Russian language and literature in higher education institutions. Among them, modular learning, digital technologies, gamification, problem-based and project-based learning stand out. Special attention is paid to interactive methods that help to increase students' motivation and make the educational process more dynamic and engaging. The successful practices of introducing innovative methods into university educational programs are analyzed. For example, the problem-based learning method allows students to master the material through solving practical problems, developing analytical skills. Project activity helps to apply the acquired knowledge in real life, creating scientific and creative projects. Gamification, which includes game elements, quests, and competitions, increases interest in learning the subject. Digital technologies also play an important role in modernizing learning. The use of online platforms, interactive tests, multimedia resources and distance learning expands the possibilities for self-study of the material. The inverted class method promotes a deeper understanding of the topic by first familiarizing oneself with the theory and focusing on the practical application of knowledge in the classroom. Thus, the introduction of innovative methods of teaching Russian language and literature contributes to improving the effectiveness of the educational process, adapting students to modern conditions and developing their professional competencies.

KEYWORDS: innovative methods, modular learning, digital technologies, gamification, problem-based learning, project-based learning, interactive methods, critical thinking, teaching Russian language and literature, higher education.

ВВЕДЕНИЕ

Современное высшее образование находится в процессе постоянных трансформаций, обусловленных развитием цифровых технологий, изменением когнитивных особенностей студентов и возросшими требованиями рынка труда. В этих условиях традиционные методы преподавания русского языка и литературы в вузах требуют обновления и адаптации к новым образовательным реалиям. Важным направлением модернизации образовательного процесса становится внедрение инновационных методов, направленных на повышение мотивации студентов, активное вовлечение в учебную деятельность и развитие их аналитических, критических и творческих способностей.

Инновационные методы преподавания включают разнообразные подходы, среди которых модульное обучение, цифровые технологии, геймификация, проблемное и проектное обучение, интерактивные формы взаимодействия. Они позволяют студентам не только осваивать учебный материал, но и применять его в реальных ситуациях, развивая профессиональные и коммуникативные компетенции. Интерактивные технологии, такие как метод перевёрнутого класса, веб-квесты и мультимедийные платформы, делают образовательный процесс более динамичным и адаптированным к индивидуальным потребностям обучающихся.

Актуальность темы обусловлена необходимостью поиска эффективных стратегий преподавания, способных соответствовать вызовам современной образовательной среды. Важно учитывать, что студенты XXI века обладают иными познавательными особенностями, нежели предыдущие поколения: они ориентированы на цифровые технологии, привыкли к интерактивному взаимодействию и самостоятельному поиску информации. Это требует от преподавателей

применения новых методик, способствующих не только передаче знаний, но и формированию у студентов навыков критического мышления, самостоятельного анализа и творческого подхода к решению учебных задач.

Цель и задачи исследования:

Цель исследования - Анализ инновационных методов преподавания русского языка и литературы в вузах, их влияние на эффективность обучения и адаптацию студентов к современным образовательным требованиям.

Для достижения данной цели поставлены следующие задачи:

- Провести анализ научной литературы и методологических подходов к инновационному преподаванию русского языка и литературы.
- Изучить опыт отечественных и зарубежных исследователей в области внедрения современных методов обучения.
- Охарактеризовать ключевые инновационные методики преподавания (модульное обучение, цифровые технологии, геймификация, проблемное и проектное обучение и др.).
- Определить влияние интерактивных и цифровых технологий на мотивацию студентов и качество усвоения материала.
- Выявить успешные практики внедрения инновационных методов в образовательные программы университетов.
- Разработать рекомендации по оптимизации преподавания русского языка и литературы в вузах с применением инновационных технологий.

Таким образом, инновационные методы преподавания представляют собой важное средство повышения эффективности обучения, способствуют активизации познавательной деятельности студентов, развитию их самостоятельности и формированию профессиональных компетенций, необходимых в условиях современного общества.

АНАЛИЗ НАУЧНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ И МЕТОДОЛОГИЯ

Развитие инновационных методов преподавания русского языка и литературы в вузах является актуальной темой научных исследований. Европейские, российские и узбекские ученые рассматривают различные аспекты инновационных методик, включая когнитивные процессы, педагогические технологии и цифровые инструменты, направленные на повышение эффективности обучения.

Дж. Расселл (США) разработал принципы модульного обучения, включающие поэтапное усвоение материала, самоконтроль студентов и гибкость в организации образовательного процесса. Его методика активно применяется в языковом образовании, в том числе при обучении русскому языку.

М. Хольдшмид (Германия) исследовал влияние модульных технологий на развитие самостоятельности студентов. Его работы доказали, что использование цифровых инструментов в сочетании с модульным обучением повышает мотивацию студентов и способствует лучшему усвоению русского языка.

К. Курх (Великобритания) разработал теоретические основы модульных технологий в языковом образовании, акцентируя внимание на индивидуализации учебного процесса и внедрении интерактивных заданий для изучения иностранного языка.

Г. Оуенс (Канада) специализируется на разработке методик модульного обучения с применением мультимедийных технологий. Его исследования показывают, что сочетание видео- и аудиоматериалов при обучении русскому языку повышает уровень понимания и коммуникации студентов.

Диера Анваровна Обидова (Узбекистан) исследует методику обучения чтению в процессе изучения русского языка как неродного. В своих работах предлагает инновационные подходы, включая использование опорных сигналов, мнемотехники и интерактивных технологий для развития навыков чтения у студентов.

Л.А. Прийма в работе «Инновационные технологии в практике преподавания русского языка как иностранного в техническом университете» анализирует использование проектной методики, ролевых игр и кейс-методов для повышения эффективности обучения иностранных студентов.

Ш.Р. Абдулахадова в статье «Инновационные методы преподавания русского языка и литературы» рассматривает методику развития творческих способностей студентов через написание эссе, анализ художественных текстов и использование современных литературных дискуссий.

Диера Анваровна Обидова в своих исследованиях разрабатывает инновационные методы обучения чтению на русском языке, предлагая использование игровых технологий, интерактивных заданий и элементов сторителлинга в образовательном процессе.

Г.М. Саримсакова в статье «Методология преподавания русского языка в вузах Узбекистана: современные подходы и вызовы» предлагает интеграцию национально-культурного контекста в обучение русскому языку, что способствует лучшему восприятию материала студентами.

Ш.Р. Абдулахадова исследует методики, направленные на развитие критического мышления у студентов через анализ текстов, дебаты и сравнительный анализ русской и узбекской литературы.

Сайёра Мирхайдаровна Джалалова внедряет опорные технологии обучения русскому языку, используя визуальные и графические материалы, позволяющие студентам легче запоминать грамматические конструкции и лексику.

Диера Анваровна Обидова разрабатывает инновационные подходы к обучению чтению, предлагая мультимедийные интерактивные курсы, адаптированные под студентов с узбекским языком обучения.

Г.М. Саримсакова анализирует цифровизацию учебного процесса и разработку онлайн-курсов по русскому языку, что способствует доступности образования и индивидуализации обучения.

Таким образом, исследования зарубежных, российских и узбекских ученых-педагогов создают прочную научную основу для внедрения инновационных методов преподавания русского языка и литературы. Американские и европейские исследователи (Расселл, Хольдшмид, Курх, Оуенс) сосредотачиваются на развитии модульного обучения, цифровых технологий и мультимедийных средств, что способствует индивидуализации и повышению мотивации студентов. Российские ученые (Прийма, Абдулахадова, Саримсакова) акцентируют внимание на проектных методах, анализе художественных текстов и развитии творческих способностей студентов. Узбекские исследователи (Обидова, Джалалова, Саримсакова) интегрируют национально-культурный контекст, опорные технологии и цифровые образовательные ресурсы, адаптированные под особенности билингвальной среды. Комплексный подход к модернизации преподавания русского языка и литературы позволяет эффективно сочетать традиционные и современные методики, способствуя формированию у студентов аналитического мышления, коммуникативных навыков и высокого уровня владения языком.

РАССУЖДЕНИЕ

Современное образование переживает значительные трансформации, что требует постоянного обновления методов преподавания. В условиях цифровой трансформации, изменений в

Катталар ўзаро гаплашиб турганда болалар уларнинг орасига асло аралашмаслиги зарур.Ўтирганда ҳам турганда ва турганда ҳам секин,қўполлик қилмасдан туриб-ўтириш,оёқларини питирлатмай тинч ўтиришга ҳам ўргатиб боришимиз керак. Шу билан бирга,бола мактабга борганида ҳам ўзини мана шундай тутиши, ўқитувчининг сўзларини диққат билан тинглаши, топширилган вазифаларни ўз вақтида бажариши лозимлиги болага уқтирилиб борилади.Болага хеч қачон сен ёмон боласан, деб такрор ва такрор айтиш ярамайди. Бундай кўнгилсиз гапларни қайта – қайта эшитиш натижасида болада ҳам шундай тушунча пайдо бўлади. Натижада бола мен ёмонман, менга гапирманг деб жавоб берадиган бўлиб қолади.Бу ундаги ёмон хусусиятларнинг йўқолишига эмас, балки янада ривожланишига олиб келади. Болада пайдо бўлган айрим салбий хусусиятларни вақтида,ўрни келганда мана шу ишининг ёмонлигини тушунтириш ва қандай қилса яхши бўлишини кўрсатиш орқали йўқотиб бориш керак бўлади.Болалар асосан ёш хусусиятларига кўра катта бўлганлигини унга айтишларини яхши кўрадилар. Шу муносабат билан – сен катта бўлиб қолдинг, яқинда мактабга борасан, мактабга борадиган катта болалар бундай қилмайдилар, деб тушунтирилса, уларга яхши таъсир қилади.Шунингдек, кўчада юрганда ҳам одоб сақлаб юришга,бақирмасликка ўргатишимиз керак. Айрим вақтларда 5 – 6 ёшдаги болаларнинг йиғлаб онасидан бирон нарсани талаб қилаётганлигини гувоҳи бўламиз. Кўчада бола билан юрганларида ота-оналар мана шундай ҳол юз бермаслиги учун унинг олдини олиб,ёки боланинг талабини бажариш,бажариб бўлмайдиган бўлса, бунга чора кўриб, уни тезда йиғидан тўхтатиш чорасини кўриш керак. Акс ҳолда кўчага чиққанда хархаша қилиш болага одат бўлиб қолади.

Муҳокама

Оилада болалардан бирон нарсани ва тартибни,одатни талаб қилишдан олдин катталарнинг ўзлари намуна бўлишлари лозим.Агарда биз ота-оналар боладан одобли, хушмуомала бўлишни талаб қилсагу,аммо ўзларимиз бунга риоя қилмасак,болаларда бундай хусусиятларни тарбиялаш кийин бўлади.Ота-оналар болаларга атрофдагилар билан хушмуомала бўлиш ва катталарни ҳурмат килиш нимадан иборат эканлигини тушунтиришлари керак.

Болаларда хулқ маданиятни таркиб топтириш жараёни топшириқларни онгли равишда бажариш, кун тартиби, ўйин ва бошқа турли машғулотларни тўғри ташкил этиш, болалар фаолиятини, билишга қизиқишларини фаоллаштириш, ўзаро муносабатларни тўғри йўлга қўйишда намоён бўлади. Бу жараён болаларга энг муҳим гигиеник малакаларни сингдириш, фаолиятнинг турли кўринишларида ва турли вазиятларда, ўзаро муносабатларда маданий кўникмалар ҳосил қилиш, ахлоқий онг ва ахлоқий хис-туйғуларнинг маълум элементларини тарбиялашдан иборат бўлиб, булар атроф-муҳит билан танишиш орқали шаклланиб боради.

Хулқ-маданияти одоб қоидаларига тўғридан-тўғри риоя этиш эмас, балки маънавий-ахлоқий хис-туйғулар, тасаввурлар билан чамбарчас боғлиқ бўлиб, бевосита уларни мустаҳкамлаб боради. Чунки мактабгача ёшдаги болаларнинг психологик, физиологик хусусиятлари хулқ маданиятини шакллантириш учун қулай имконият вужудга келтиради. Мактабгача ёшдаги болалар ўта идроклилиги, фахми тезлиги, зукколиги билан ажралиб туради. Бу хусусият уларнинг нерв системасининг эгилувчанлиги, атрофдаги воқеа-ҳодисаларга ҳис-туйғуси, диққат-эътибори, тақлид қилиши ва тасаввур этиши сабаб бўлади.

Хулоса

Умумий хулоса сифатида шуни айтиш мумкинки, мактабгача ёшдаги болаларда миллий қадриятлар воситасида хулқ маданиятини шакллантириш муҳим педагогик муаммо бўлиб ҳисобланади. Чунки маданият-жамият ва инсон тараққиётининг муайян даражаси бўлиб, таълим-тарбия жараёнида инсон томонидан яратилган миллий қадриятлар воситасида ҳам шахсни маънавий камолотида, яъни хулқ маданиятини шакллантиришда ўз ифодасини топади.

АДАБИЁТЛАР

1. Ш.Мирзиёев. “Конституция-эркин ва фаровон ҳаётимиз, мамлакатимизни янада тараққий эттиришнинг мустаҳкам пойдеворидир”.Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 25 йиллиги муносабати билан ўтказилган тантанали маросимдаги нутқи. Тошкент. 2017 йил 7-декабр.
2. Мактабгача таълимга қўйиладиган Давлат талаблари. Тошкент-2017 йил 9 июнь, ХТВнинг 5-мҳ-сон буйруғи.
3. Г.Жалолова. Болангиз мактабга тайёрми. Т-2006 й.
4. Ш.Пўлатова. Мактабгача таълим педагогикаси.Т.-2007 й
5. К.Низомова. Мактабгача ёшдаги болаларни ижтимоий-ҳиссий ривожлантиришнинг ўзига хослиги. Т-2009 й

LOYIHA METODI ASOSIDA “TARBIYA” FANINI O’QITISH TUZILMASI VA TIZIMI

Yuldashova Dilnoza Abduxoshim qizi
Yunusova Nodirabegim Maxsud qizi
Usmonov Boburbek G‘anisher qizi
Mamatqulova Shaxlo Shuxrat qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Pedagogika fakulteti IV-kurs talabalari

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada umumta`lim maktabi o‘quvchilarida konfliktologik madaniyatni rivojlantirishga hizmat qiladi. Ushbu texnologiya asosida “Tarbiya” darsining o`qitilishi o`quvchilarning dars jarayonida mustaqil fikrlashiga, muloqot madaniyatining shakllanishiga, o`z fikrlarini erkin bayon etishga hamda ularda bahslashish madaniyatini tarbiyalashga, konstruktiv muloqot usullarini qo`llay olish ko`nikmasini rivojlantirishga hizmat qiladi.

Tayanch so`zlar: innovatsion texnologiya, loyiha metodi, tadqiqotchilik, baholash, mustaqil fikrlash, mustaqil qarorlar chiqarish, taqdimot qilish, loyihasi pasporti, texnologik xarita, loyiha ekspertizasi.

АННОТАЦИЯ

В данной статье она помогает развивать конфликтологическую культуру у учащихся общеобразовательной школы. Проведение «воспитательного» урока на основе данной технологии способствует самостоятельному мышлению учащихся в ходе урока, формированию культуры общения, свободного выражения своего мнения и развитию у них культуры аргументации, развитию умения поддерживать конструктивные способы общения.

Ключевые слова: инновационная технология, метод проектов, исследование, оценка, самостоятельное мышление, самостоятельное принятие решений, презентация, паспорт проекта, технологическая карта, экспертиза проекта.

ABSTRACT

In this article, she helps to develop a conflictological culture among students of a comprehensive school. Conducting an "educational" lesson on the basis of this technology contributes to the independent thinking of students during the lesson, the formation of a culture of communication, the free expression of one's opinion and the development of a culture of argumentation, the development of the ability to maintain constructive ways of communication.

Keywords: innovative technology, project method, research, assessment, independent thinking, independent decision-making, presentation, project passport, technological map, project expertise.

Kirish. Hozirda ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan, jahon pedagogikasining ilg’or metodlaridan samarali foydalanish dolzarb masalalardan bo’lib, loyiha metodi ta’lim ilg’or usullarini o’zida mujassamlashtirgan. Loyiha metodidan “Tarbiya” fani o’qituvchisi o’quv mashg’uloti jarayonida mavjud tajribani o’zlashtirish va ta’limning barcha bosqichlarida qo’llashdek muhim vazifa turadi. Loyihalash - oldindagi faoliyat modelini tuzish, mavjud sharoitlarda o’rnatilgan vaqt mobaynida yo’l va vositalarni tanlash uchun, maqsadga erishish bosqichlarini ajratish, ular uchun alohida vazifalarni shakllantirish, o’quv axborotini yetkazish vositasi va yo’llarini aniqlash usulidir. Umumiy o`rta ta`lim

maktablarida “Tarbiya” fanini o`qitishda loyihalar usuli bilim va malakalarni amaliy qo’llash, tahlil va baholashni nazarda tutuvchi majmuali o’qitish usulini amalga oshiradi. Ta’lim oluvchilar yuqori darajada, boshqa o’qitish usullaridan foydalanishga qaraganda, rejalashtirishda, tashkillashtirishda, o`z-o`zini nazorat qilishda, tahlil qilish va vazifani bajarish natijalarini baholashda ishtirok etadilar. O’quv loyihalar usuli ta’lim beruvchining ta’lim oluvchilarga muammoni, faraz, vazifalarni ifodalashda yordam beradi va tezkor boshqaradi. Loyihalarda o’qitish nafaqat natijalar, balki jarayonini o’zi ham qimmatlidir. Loyiha fanlararo, bir fan yoki fan tashqarisida bo’lishi mumkin.

“Tarbiya” fanini loyihalash ta’limning sifati va samaradorligini oshiradi, o`quvchilar loyiha ustida ishlashda loyiha rejasi asosida aniq maqsad uchun faoliyatlarini amalga oshiriladi. Natijada qatnashchilarda loyihani bajarilishi o’zining faoliyatiga bog’liq ekani tushunchasini anglash yuqori mas’uliyat hissini yuzaga keltiradi; loyihaning barcha bosqichlarini bajarish jarayonida fikrning tug’ilishidan yakuniy refleksiyagacha o’quvchilar tajriba orttiradilar; o’quvchilarda eng muhim o’quv ko’nikma va malakalari (tadqiqotchilik, baholash, mustaqil fikrlash, o`z-o`zini nazorat qilish, mustaqil qarorlar chiqarish, konstruktiv kommunikativlikni oshirish, taqdimot qilish) shakllantirish to’la boshqariladigan jarayonga aylanadi.

- Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review).

Loyiha usuli 19-asrning ikkinchi yarmida AQSH qishloq xo‘jaligi maktablarida paydo bo‘lgan va u “pragmatik pedagogika”ning nazariy tushunchalariga asoslanadi. Uning asoschisi amerikalik idealist faylasufi Jon Dyui (1859-1952) bo‘lgan.

Zamonaviy didaktikada loyiha usuli - bu o'quv jarayonini individuallashtirishga imkon beradigan, o'quvchiga o'z faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish va nazorat qilishda mustaqillik ko'rsatishga imkon beradigan kompleks o'qitish usulidir [1].

I.S. Sergeev loyiha usuli bo'yicha ish pedagogik faoliyatning yuqori darajadagi murakkabligini ta'kidlaydi[2].

Jahon pedagogik amaliyotida loyiha usuli printsipial jihatdan yangi emas, garchi bugungi kunda u XXI asrning pedagogik texnologiyalari deb atalsada.

100 yildan ortiq vaqt oldin o'qitishni o`uvchining shaxsiy qiziqishlari va maqsadlarini hisobga olgan holda, uning maqsadga muvofiq faoliyatiga asoslash taklif qilingan [3]. Sinfdan tashqari ishlarda loyihalar usuli ham o‘rganilgan [4]. Keyinchalik, mustaqillik davrida, bu g'oyalar maktabda qo'llanila boshlandi, lekin yetarli darajada o'ylangan va izchil emas edi.

- Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Loyha ishini tashkillashtirishda o`quvchilarning yoshi va sinfiga mos talablar qo`yilishi lozim.

Loyiha ishini quydagicha tashkil qilish mumkin.

Taqdimot (slayd, gazeta, kichik maqola, yoki (ESSE)): 10-sinf ”Tarbiya” fani Mavzu “Tinch va xotirjam yashash baxti”, “Dunyo dinlarida insonparvarlik g‘oyalari”, va.h.k. Vatanparvarlikni namoyish etish, shahar ko‘chalari, maktab, jamoat joylari va tadbirlardagi rasmlar hamda badiiy asarlardan foydalanish tavsiya etiladi. Volontyorlik faoliyati).

Loyiha ishi. *Taqdimot (video rolik): 11-sinf “Tarbiya” fani*

Mavzu: “Imkoniyatlar va tahdidlar”,.“Buzg‘unchi g‘oyalar”, va.x.k (Tinchlik, ezgulik, hamkorlik va insoniylikni namoyish etish. Darslikdagi topshiriqlardan foydalanish tavsiya etiladi. Tadbirlardagi volontyorlik tajribasi hisobga olinadi).

Loyha ishi bo‘yicha o‘quvchiga qo‘yiladigan talablar:

- Maqsadni aniq qo‘ya olishi va amalga oshirishga intilishi;
- Ma’suliyatni anglashi;

- Mustaqil tafakkurga ega bo‘lishi;
- Nizoli vaziyatlarda yechim topa olish ko`nikmasiga eda bo`lish;
- Bir-birini takrorlamaydigan g’oyalarni tadbiq qilishi;
- Kreativlik;
- Refleksivlik;
- Konstruktiv kommunikativlik;
- Nutq madaniyati;
- Jamoa bilan ishlash ko‘nikmalari (loyiha ishi 2-3 slayd shaklida, 3ta o‘quvchi yoki sharoitdan kelib chiqib guruhlarga bo‘linib, taqdimot tayorlash tavsiya etiladi);
- O‘quvchilar oldindan guruhlarga bo‘linib loyiha ishiga tayyorlanadilar.

z) bajarilgan ish bo’yicha foydalanilgan manbalar ro’yxati ko’rsatiladi.

Loyihalar ekspertizasining aniq tizimi g`olibni xolisona aniqlashtirib qolmay, loyihaning sifatini xolisona baholash, loyiha ustida ishlash elementlari monitoringini yaratadi. Loyihani ekspert baholashi uchun ekspert komissiyasi tuziladi. Ushbu komissiya tarkibiga zaruriy malakaga ega bo’lgan ota-onalarni, oliy o’quv yurtlari o’qituvchilarini, boshqa maktab o’qituvchilarini kiritish mumkin. Bajarilgan o’quv loyhasi natijalarini baholash jarayonida loyiha sifati, loyiha ustida ishlash jarayoni, ishning natijaviyligi, qiyinchiliklar va uni yengib o’tish yo’llariga e’tibor qaratiladi. Loyiha ishini baholash mezonlari har bir sinflar uchun moslashtirlgan xolda ishlab chiqildi.

Taqdimot (video rolik): 11-sinf uchun

Loyiha ishini baholash mezonlari		
1	G’oyasi va kreativlik uchun	20 ball
2	Video rolik tayyorlagani uchun	10 ball
3	Video rolikning tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligi uchun	10 ball
4	Jamoa bilan ishlash	10 ball
5	Plagiat uchun	-20 ball
	JAMI:	50 ball

Taqdimot (slayd, gazeta, kichik maqola, yoki (ESSE)): 10-sinf uchun

Loyiha ishini baholash mezonlari		
1	G’oyasi va kreativlik uchun	20 ball
2	Taqdimot tayyorlagani uchun	10 ball
3	Jamoa bilan ishlashi va tushuntirib berishi uchun	10 ball
4	Nutq madaniyati uchun	10 ball
5	Plagiat uchun	-20 ball
	JAMI:	50 ball

Loyiha ishini baholashda quydagilar hisobga olinadi:

1. G'oyasi va kreativlik uchun - 20 ball;

Bunda o`quvchining ijod turi, ijod darajasi, ijod qamrovi, ijodning davomiyligi, ijodning shakli, yaratilgan g`oyasi va ijod mahsulini ma'nosi va murakkabligi baholanadi. Ushbu baholash mezoni o`quvchining yaratuvchanligini va kreativligini oshirishga undaydi. Kreativlikning mohiyati - intellekt insonning aqliy salohiyati bo'lsa, kreativlik ana shu aqliy salohiyatni maqsadga yo'naltirilgan tarzda erkin ishlata olish qobiliyati hisoblanadi.

2. Taqdimot tayyorlagani uchun yoki Video rolik tayyorlagani uchun-10 ball;

Ushbu baholash mezoni o`quvchining ijodkorlikga, yaratuvchanlikga, AKT va smartfonlardan unumli foydalinishga undaydi.

Slayd taqdimotining afzalliklari quyidagilardan iborat:

taqdimot ketma-ketligi - o'zgaruvchan slaydlar yordamida tomoshabinlar e'tiborini jalb qilish oson;

rasmiy cheat varaqlaridan foydalanish imkoniyati - taqdimot nafaqat tomoshabinlar ko'rgan va eshitadigan, balki ma'ruzachi uchun eslatmalar - urg'ularni qanday joylashtirish, nimani unutmaslik kerak;

multimedia effektlari - taqdimot slaydlari shunchaki rasm emas, u animatsiya elementlarini, audio va video qismlarini o'z ichiga olishi mumkin;

nusxa ko'chirish qobiliyati - Taqdimotning nusxalari bir zumda yaratiladi, shuning uchun har bir kishi taqdimot materiallarini o'z qo'liga olishi mumkin;

tashish imkoniyati - Taqdimot disketi afishalar rulosidan ancha kichikroq va taqdimot fayli orqali osongina yuborilishi mumkin.

Taqdimot ostida auditoriya uchun yangi ma'lumotlarni uzatish yoki taqdim etishni nazarda tutadi, ya'ni an'anaviy ma'noda taqdimot ommaviy nutq uchun ko'rgazmali materialdir. Hamma biladiki, omma oldida nutq so'zlash imkoniyati ko'pchilik uchun shunchaki dahshatni falaj qiladi va kompyuter dasturi prezentatsiyani yaratish nutqni to'liq yoddan saqlamaslikka imkon beradi va taqdimot slaydlari nutqingizning konturi bo'ladi.

3. Video rolikning (loyha ishining) tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligi uchun- 10ball;

Videota'lim - bu yosh maktab o'quvchilarining badiiy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradigan zamonaviy texnologiyalarning vositalaridan biri hisoblanadi. Mustaqil tayyorlangan videoroliklar birinchidan o`quvchining ijod maxsuli hisoblanadi, ikkinchidan o`z dunyosini aks ettiradi.

Loyha ishida video rolik garchi so'zni bosma ravishda ko'paytirmasdan ijtimoiy hayotni ovoz va tasvir vositasida aks ettiradi. Loyha ishida video rolik ijtimoiy informatsiya yigish va tarqatish vazifasining 3 qirrasi bo'lmish tasvir, tahlil va ta'sir funksiyalarini to'la bajaradi, ya'ni u hayotdagi voqea va hodisalarni tasvirlaydi, ularni taxlil qiladi, hayotga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bu ta`sir tarbiyaviy ahamiyatga ega bo`lishi zarur. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchining o`zi ham ob`ekt, ham sub`ekt hisoblanadi. O`quvchilar loyha ishida videorolikning tarbiyaviy ahamiyatini yaratishda o`zlarining tarbiyalanganlik darajasidan kelib chiqib yaratishadi. O`quvchilar yosh hususiyatidan kelib chiqib yaratgan har qanday ijod maxsuli (matn, rasm, slayd, video va boshqalar) o`zi tengi yoshlar uchun bola tilda yozilganligi uchun tushunarli bo`ladi.

4. Jamoa bilan ishlashi va tushuntirib berishi uchun – 10ball;

Ushbu baholash mezoni o`quvchining jamoa bilan hamkorlikni olib borishga, muammoli vaziyatni individual yoki guruhiy hal qilishga, bahs - munozralarda jamoaviy harakat qilish va birgalikda muammolarga yechim izlashga undaydi.

Jamoa bilan samarali ishlashda sinergiya paydo bo'ladi, ya'ni konstruktiv energiya birligi. Bu a'zolarning sa'y-harakatlarini kuchaytirishga, harakat vaqtini qisqartirishga va natijalar samaradorligini oshirishga olib keladi.

Jamoa a'zolarining turli xil qarashlarini birlashtirish muammolarga yanada samarali yechimlarni yaratishga yordam beradi. Bundan tashqari, jamoaviy ish bilimlarni baham ko'rishga yordam beradi va individual va guruhli ta'limni rag'batlantiradi.

Umumiy o`rta ta`lim maktablarida “Tarbiya” fanini o`qitishda loyihalar usuli bilim va malakalarni amaliy qo’llash o`quvchining o‘quv va aqliy faoliyat ko‘nikmalari quydagi jadval asosida nazorat qilinadi **(**1-jadval**)**

1-jadval

№	**O‘quv va aqliy faoliyat**	**O‘quv va aqliy faoliyat ko‘nikmalari darajasiga qo‘yiladigan talablar**
1	**Bilish va tushunish**	Hislarini anglaydi va nazorat qila oladi; Konstruktiv kommunikativlik g‘oyalarini ilgari sura oladi; Kreativ sifatlarni namoyon qiladi; Ma’naviy tahdidlarni, nizolarni anglaydi va baholaydi; Ma’naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intiladi; O‘zini-o‘zi nazorat qila oladi; Daxldorlikni his etadi va faol ishtirok etadi; Konfliktlarni konstruktiv hal etish ko`nikmasiga ega bo‘ladi; Jamoa bilan hamkorlikda yaxshi ishlay oladi; Ichki sotsiofobiyasni va shaxsiy ichki nizolarini yenga oladi; O‘zining fuqarolik burch va huquqlarini biladi.
2	**Qo‘llash**	Ijtimoiy sharoitlarga moslasha oladi; Kreativligi, refleksivligi, nutq madaniyati ortadi o‘z-o‘zini rivojlantiradi, bilimini muntazam ravishda oshirib borishni tizimlashtira oladi; burch, majburiyat va huquqlarini biladi, ularga rioya qiladi; faol konfliktologik madaniyatga ega fuqarolik pozitsiyasini namoyon qiladi; ijtimoiy hayotga tayyorligini namoyon qila oladi; hissiyotlaı’ini boshqara oladi, nizoli vaziyatlarda o‘zini o‘zi idora qila oladi; muammolarrıi tinch yo‘l bilan ha1 etishga harakat qiladi; ichki nizolarini boshqara oladi; mustaqil tafakkurga ega bo‘ladi, o‘z xatti-harakatlarini tanqidiy baholay oladi; ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo‘1adi va targ‘ib qila oladi.
3	**Tahlil**	Hislarini anglaydi va nazorat qila oladi; Konstruktiv kommunikativlik g‘oyalarini ilgari sura oladi; Kreativ sifatlarni namoyon qiladi; Ma’naviy tahdidlarni, nizolarni anglaydi va baholaydi;

		Ma’naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intiladi; O‘zini-o‘zi nazorat qila oladi; Daxldorlikni his etadi va faol ishtirok etadi; Konfliktlarni konstruktiv hal etish ko`nikmasiga ega bo‘ladi; Jamoa bilan hamkorlikda yaxshi ishlay oladi; Ichki sotsiofobiyasni va shaxsiy ichki nizolarini yenga oladi; O‘zining fuqarolik burch va huquqlarini biladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Loyihalash metodi ta’lim jarayonining muhim jihatlaridan biri bo‘lib, o‘qituvchining o`quvchilar bilan individual ishlash imkonini beradi. O‘qituvchi dars vaqtidan unumli foydalanib, o`quvchilarning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ular bilan yakka tartibda yoki guruhiy ishlaydi. Bunda ularning “Tarbiya” fanini mohiyatini chuqurroq egallashlariga kengroq yo‘l ochib beriladi. Loyihalash ishlarini tashkil etishda didaktik vazifaning qo‘llanilishi va uni hal etish muammolari ko‘rib chiqiladi.

Biz tavsiya qilgan loyiha metodi asosida “Tarbiya” fanini o’qitish tuzilmasi va tizimi o`quvchilarning konfliktologik madaninyatining rivojlanishiga juda ham katta ta`sir ko`rsatadi.

Ta’lim oluvchilar loyiha ustida ishlash jarayonida olgan bilimlaridan, bilish jarayonida xizmat qiladigan amaliy maslahatlardan foydalanishsa, mustaqil tahliliy fikr yuritishga o‘rganadilar. Ularda yangi g‘oyalar topish, ijodiy fikrlashga, to‘g‘ri strategiya tanlash, aniq masala-muammolarni va muammoli nizolarni yechish ko‘nikmasi hosil bo‘ladi.

ADABIYOTLAR:

1. Василовская А.И. Метод проектов на уроках в начальной школе. Фестиваль педагогических идей. Available at: http://xn--i1abbnckbmcl9fb.xn-- B8/501897/

2. Сергеев И.С. Как организовать проектную деятельность учащихся. Москва, 2005.

3. Jon Dyui. Maktab va jamiyat [elektron resurs]. – kirish rejimi: http: www.gumer.info bibliotek_buks pedagog galag 28.php (kirish sanasi: 11/1/2016)

4. Шацкий С. Т. Школа для детей или дети для школы [Электронный ресурс].–Режим доступа: http://www.gumer.info/bibliotek_Buks/ Pedagog/galag/33.php (дата обращения: 01.11.2016).

5. Пахомова Н.Ю. Метод учебного проекта в образовательном учреждении. Москва, 2005.

6. Abdurahmonova P.D., Hasanova Sh.S., Abdulaeva Z.A. Internet - boshlang'ich maktabda chet tillarini o'rgatishning samarali vositasi sifatida. ilm-fan, madaniyat, ta'lim olami. 2016; 3 (58): 6 – 8.

BOLALAR BOG'CHASIDA MEDIA YARATISH
МЕДИАТВОРЧЕСТВО В ДЕТСКОМ САДУ
MEDIA CREATION IN KINDERGARTEN

***Айгуль Шилдебайкызы Стыбаева*[1]**

[1]кандидат педагогических наук, ассоциированный профессор,

заведующая детским садом «Қарлығаш 1» Медицинского центра Управления делами Президента Республики Казахстан, Астана, Казахстан

[1]ORCID ID: https://orcid.org/0000-0001-6743-168X

***A.Sh. Stybayeva*[1]**

[1]candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor, Head of the kindergarten «Karlygash 1» of the Medical Center of the Office of the President of the Republic of Kazakhstan,

[1]ORCID ID: https://orcid.org/0000-0001-6743-168X

***Куаныш Умирзакович Темиров*[2]**

[2] кандидат педагогических наук, старший преподаватель, Евразийский национальный университет имени Л.Н. Гумилева, Астана, Казахстан

[2]ORCID ID: https://orcid.org/0000-0001-7104-9483

***K.U. Temirov*[2]**

[2]candidate of Pedagogical Sciences, senior lecturer, ENU named by L.N. Gumilyov, Astana, Kazakhstan

[2]ORCID ID: https://orcid.org/0000-0001-7104-9483

***Химматалиев Дустназар Омонович*[3]**

[3] Doctor of Pedagogical sciences, professor, Chirchik State Pedagogical University, pedagogical faculty, Chirchik, Uzbekistan

ORCID ID: https://orcid.org/0009-0007-3942-1450

ANNOTATSIYA

Maqolada maktabgacha ta'limni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri – bolalar bog'chasida raqamli ta'lim makonini yaratish va undan bolalar media ijodkorligini rivojlantirishda samarali foydalanish yo'llari ko'rib chiqiladi. "Media Creative" maqolasining mualliflari turli xil media formatlari orqali mahsulot yaratish deb tushuniladi.

Kalit so'zlar: bolalar bog'chasi, maktabgacha yosh, media yaratish, media-makon.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается одно из перспективных направлений в развитии дошкольного образования – создание цифрового образовательного пространства в детском саду и пути его эффективного использования в развитии медиатворчества детей. Авторами медиатворчество понимается как создание продукта через различные медиа форматы.

Ключевые слова: детский сад, дошкольный возраст, медиатворчество, медиапространство.

ABSTRACT

The article examines one of the promising directions in the development of preschool education – the creation of a digital educational space in kindergarten and ways to effectively use it in the development of children's media creativity. The authors of the article understand "media creativity" as the creation of a product through various media formats.

Keywords: kindergarten, preschool age, media creation, media space.

Введение

Использование медиа образовательного пространства в обучении и воспитании детей дошкольного и школьного возраста является одним из актуальных проблем современной психолого-педагогической науки. С самого раннего возраста ребенок погружается в медиапространство и активно с ним взаимодействует. Это приводит к тому, что оно становится для него обычным и хорошо знакомым явлением. Вследствие этого, в указанных условиях можно разнообразить применение мультимедийного оборудования, так как дети очень быстро воспринимают цифровые технологии.

Однако, чрезмерное использование различных цифровых гаджетов с первых дней жизни ребенка чревато последствиями. Оно ведет к ухудшению их здоровья (снижению иммунитета, зрения, искривлению позвоночника и т.д.), несформированности коммуникативных навыков, нарушению социализации, их трудной адаптации в реальном мире. В связи с этим, воспитание культуры и гигиены общения с цифровыми устройствами, которые образуют медиапространство становится необходимым условием организации образовательного процесса в работе современного детского сада. Формирование продуманного информационного пространства, создание условий для эффективного использования цифровых технологий в учебно-воспитательном процессе дошкольной организации будет способствовать развитию творческих, познавательных и исследовательских навыков ребенка.

Анализ литературы и методология

Теоретический анализ научных источников показывает, что указанная проблема является одной из новых и малоизученных. В большинстве исследований акцент делается на медиаобразование или медиаграмотность, которые часто представляются как слова синономы. Прежде чем рассмотрим понятие медиобразование, обратим внимание на происхождение термина «медиа».

По мнению Федорова А.В., термин медиа происходит «от латинских medium (средство, посредник), media (средства, посредники) и в современном мире повсеместно употребляется как аналог термина СМК – средства массовой коммуникации (печать, фотография, радио, кинематограф, телевидение, видео, мультимедийные компьютерные системы, включая Интернет) и/или средства массовой информации» [3, 3 с.].

В свободной энциклопедии Википедия под медиаобразованием обозначается «изучение воздействия средств массовой и другой коммуникации (в том числе прессы, телевидения и радиовещания, рекламы, кинематографа, Интернета со всеми его приложениями) как в рамках подготовки работников этой сферы, так и применительно к тому, что необходимо знать всем для освоения инфокоммуникационных технологий, что выражается термином «медиаграмотность» [8].

По мнению L.Masterman [5], C.Worsnop [7], И. Жилавской, Д. Зубрицкой [2] медиаграмотность – это способность человека анализировать, оценивать видео и аудио информацию и умение передавать сообщения в разных формах [5,7].

Согласно исследованиям Н.Ф. Хилько, медиаобразование младших и средних школьников может осуществляться в форме медиатворчества, под которым он понимает процесс созидания медийной сферы и на его основе создание какого-либо продукта. В качестве такого продукта может выступать аудиозапись сказки, песни, мультфильм, фотоколлаж, видеорепортаж, видеоролик и т.д. [4].

Вопросам развития медиатворчества в дошкольном возрасте посвятили свои исследования D.Wilson, J.Cantor, C. Hoffner [6], А.Ю. Дейкина [1] и др. Однако, эти исследования не раскрывают все аспекты вышеуказанной проблемы, что побудило нас обратить внимание на его изучение.

Результаты

Исследование было начато в сентябре 2024 года на базе детского сада «Қарлығаш 1» Медицинского центра Управления делами президента Республики Казахстан. В эксперименте принимают участие 57 детей средних групп «Меруерт» (экспериментальная группа) и «Ақжелкен» (контрольная группа). Дети 3-3,5 лет были выбраны не случайно. Во-первых, вместе с кризисом трех лет «я сам» у детей наблюдается повышение самостоятельности и интереса к окружающей действительности, во-вторых, данные дети будут воспитываться в стенах детского сада ближайшие три года, что позволит повысить достоверность результатов исследования.

Материально-техническая база детского сада оснащена в соответствии с современными требованиями и позволяет организовывать вышеуказанные формы работы. В саду имеется музыкальный зал, «Летняя терраса» для проведения музыкально-развлекательных мероприятий, зал хореографии, два спортивных зала для активных игр, костюмерная, студия «Хромакей», STEAM лаборатория, кабинет сенсорного оборудования, парк профессий, зимний сад. В групповых помещениях, холлах и коридорах оформлены центры развития.

Детский сад имеет все условия для реализации эффективной работы в режиме эксперимента. Педагогический состав детского сада кроме воспитателей, представлен педагогами-специалистами: методист, педагог-организатор, учителя казахского и английского языков, хореограф, музыкальный руководитель, психолог и логопед. Педагоги ежегодно проходят различные формы повышения квалификации (курсы, семинары, мстер-классы, образовательные стажировки, воркшопы, тренинги, консультации, лекции, взаимопосещение организованной деятельности, участие в конференциях, обмен опытом с коллегами из других регионов и стран), обладают достаточно большим практическим опытом.

Определение исходного уровня сформированности медиатворческих способностей детей, в силу их возрастных особенностей, проводилось с помощью наблюдения, экспериментальных заданий (например, представь, что ты веселый клоун или нарисуй самое красивое дерево на свете) и осуществлялось по двум направлениям:

1) диагностика творческих способностей детей в изобразительной, музыкально-ритмической и театральной деятельности;
2) диагностика технических навыков работы с цифровыми гаджетами.

Результаты исследования по первому направлению показали довольно низкие показатели. Большинство детей не могли выполнить диагностические задания, т.е. словами, мимикой или движениями выразить то, что просил педагог. Причинами таких низких показателей явилась не сформированность связной речи у 43% детей, изобразительных навыков у 58% воспитанников, а также то, что группа была сформирована в августе 2024 года и у некоторых детей проходила адаптация к условиям детского сада, у остальных к условиям новой группы. Успехи наблюдались в основном в изобразительной деятельности. Что касается диагностики сформированности

технических навыков, то фактически все дети могли подключиться к интернету через смартфон или планшет, посмотреть мультфильм или поиграть в игру.

Экспериментальная деятельность по формированию медиатворческих способностей осуществляется ежедневно через следующие формы: организованная деятельность (занятие), проектно-исследовательская деятельность, режимные моменты, совместные проекты с родителями, социальное партнерство, кружковая деятельность, игровая деятельность, праздники и развлечения, экскурсии, семинары, консультации.

Для осуществления работы по развитию медиатворчества применяются такие мультимедийные средства, как мультстудия, мультимедийный интерактивный комплекс, смартфон, фотоаппарат, видеокамера, интерактивный пол (видеомэппинг), интерактивная доска, различные интерактивные световые панели, интерактивная песочница, виртуальный музей, теневой театр, мини-роботы (бибот, логобот, автобот), 3D ручка.

Критериями качества медиапространства, способствующего развитию медиатворчества детей детей выступают:

- соответствие медиаобразовательных ресурсов возрастным особенностям детей, т.е. они понятны и доступны для их восприятия независимо от уровня знаний, навыков и технических возможностей;
- соответствие медиаобразовательных ресурсов целям и задачам обучения;
- разнообразие материалов и заданий, т.е наличие в цифровых образовательных ресурсах различных материалов и заданий, которые дети могут выбрать самостоятельно, опираясь на свои интересы;
- обеспечение возможности оценки и обратной связи, чтобы родители и педагоги могли отслеживать динамику развития детей и регулировать процесс обучения;
- обеспечение интереса к получению новых знаний и проявлению творческих способностей через интерактивность и мотивированность;
- наличие возможностей, обеспечивающих эффективное достижение целей и результатов обучения.

Обсуждение

Экспериментальная работа по развитию медиатворческих способностей детей в детском саду реализовывается через следующие подходы и методы:

1. Интеграция медиа в образовательный процесс, т.е. включение в занятия, игровую деятельность таких заданий, как совместное создание вместе с педагогом видеороликов, аудиозаписей, фотопроектов, что делает обучение более увлекательным и интерактивным.
2. Использование технологий, т.е. обучение детей азам работы с такими цифровыми гаджетами, как диктофон, интерактивная доска, планшет, компьютер, смартфон для записи звука, редактирования и создания изображений, презентаций.
3. Обсуждение и анализ медиа информации. В ходе работы воспитатели обучают детей критически воспринимать информацию, обсуждают с ними их содержание, влияние на общество, а также учат различать медиа форматы.
4. Проектная деятельность, в которой дети могут работать в паре или по подгруппам создавая медиа продукты. Например, это может быть подготовка видео или радиопередачи, съемка видеообращения родителям или небольшого ролика на определенную тему, создание альбома или книги с иллюстрациями, фотографиями.
5. Творческие мастерские: проведение мастер-классов по разным видам искусства, включая рисование, аппликацию, лепку, конструирование, фотографирование, конечной целью которых

будет создание коллективных работ, коллажей, инсценировок. Такой подход позволит развить у детей художественные навыки и креативность.

6. Взаимосотрудничество с родителями. Вовлечение родителей в совместные медиа проекты, конкурсы, выставки, что способствует укреплению связи между детским садом и семьёй, просвещению родителей о пользе совместного времяпровождения, обучение их эффективным приемам работы с детьми.

Вышеуказанные подходы и методы помогут заложить основы медиатворчества детей, сформировать навыки, которые будут полезны в их дальнейшем обучении и жизни. Остановимся на навыках и умениях, которыми овладеют дети. Это, умение выражать свои мысли и чувства через различные медиа форматы (аудио, видео, фотографии, компьютерная графика, мультипликация), что способствует развитию креативного мышления; технические навыки, сформированные в ходе освоения различных технологий, которые актуальны в любом периоде жизни; социальные навыки и умение работать в паре, в команде, которые развились в совместной деятельности; умение анализировать полученную информацию и навык оценки ее содержания, что развивает критическое мышление; умение находить нужную информацию и получать новые знания из просторов интернета; навыки безопасного поведения в интернете, которые помогут ребенку защитить себя от негативного влияния виртуального пространства.

Следует также добавить, что в ходе эксперимента педагоги постоянно акцентировали внимание детей на соблюдении правил безопасного использования цифровых гаджетов, в частности, говорили о необходимости ограничения времени работы, гигиены зрения при просмотре видеоматериалов, сохранении правильной осанки при работе за планшетом или компьютером и т.д.

Заключение

Таким образом, проблема медиатворчества в детском саду является одной из актуальных проблем, так как она затрагивает развитие дошкольников в условиях современного информационного общества. Век бурного развития цифровых информационных технологий дает возможность и порождает необходимость использования медиа образовательных ресурсов в развитии детей, в том числе и творческом. Медиаобразование, как неотъемлемый компонент общей подготовки детей к жизни в новых информационных условиях, направлено на формирование умений восприятия, анализа и переработки медиа информации, овладение навыками работы с гаджетами и создание продукта различных медиа форматов. Данная медиа продуктивная деятельность способствует развитию творческих способностей детей, их креативности, навыков самовыражения и самореализации. В данной статье мы постарались отразить результаты, полученные за первые полгода. Наша экспериментальное исследование мы планируем продолжить до выпуска детей в мае 2027 года.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Дейкина, А.Ю. Развитие познавательных интересов дошкольников в процессе медиаобразования. Автореф. дис. на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Барнаул, 2000.

2. Жилавская, И., Зубрицкая, Д. История развития медиаобразования. – Москва: Изд. БГПУ, 2017. – 140 с.

3. Федоров, А.В. Словарь терминов по медиаобразованию, медиапедагогике, медиаграмотности, медиакомпетентности. – М.: МОО «Информация для всех», 2014. 64 с.

4. Хилько, Н.Ф. Психолого-педагогические особенности аудиовизуального творчества в медиаобразовании //Медиаобразование. - 2005. - №6 - С. 10-30.

5. Masterman, L. Principles of Media Education, (1998) URL: http://www.screen.com/mnet/eng/med/class/support /mediacy/edec/masterman.htm

6. Wilson, J., Hoffner, C., Cantor, J. (1987). Children's perceptions of the effectiveness of techniques to reduce fear from mass media. Journal of Applied Developmental Psychology

Volume 8, Issue 1, January–March, Pages 39-52.

7. Worsnop, C.M. (2004). *Media Literacy Through Critical Thinking.* Washington State Office of Superintendent of Public Instruction and NW Center for Excellence in Media Literacy, 60 p.

8. https://ru.wikipedia.org/wiki/Медиаобразование

TEXNOLOGIYA” FANI O‘QITISHDA TALABALDA MUHIM KASBIY SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Boymurodova Rayxon Azamadovna

Shaxrisabz davlat pedagogika universiteti tayanch doktranti

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada talabalarga “Texnologiya” fanini o‘qitishda muhim kasbiy sifatlarni shakllantirishning pedagogik texnologiyalaridan foydalanish hamda raqamli ta’lim muhiti ularning kasbiy sifatlarini shakllantirishda xizmat qilishi ta’kidlanadi.

Tayanch so‘z va tushunchalar: talaba, ta’lim, tarbiya, axloq, texnologiya, kasb, kasbiy sifat, yo‘nalish, raqamli ta’lim, pedagogik texnologiya.

Kirish. Bugungi kunda texnologiya fani nafaqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirish, balki talabalarning kasbiy sifatlarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan. Raqamli ta’lim muhiti esa ushbu jarayonni zamonaviy vositalar orqali samarali tashkil etishga yordam beradi. Ushbu maqolada texnologiya fanini o‘qitishda raqamlashtirish ta’lim muhiti ahamiyati va uning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. 1. Raqamli ta’lim muhitining nazariy asoslari,Kayumov A., Saidov I. "Raqamli ta’lim muhitini shakllantirish tamoyillari" (2022)

Mazkur asarda raqamli ta’lim muhiti tushunchasi, uning asosiy tamoyillari va uni ta’lim jarayoniga tatbiq etish usullari haqida batafsil ma’lumot berilgan. Mualliflar raqamli texnologiyalar yordamida ta’lim jarayonining moslashuvchanligini oshirishga e’tibor qaratgan.

Johnson L., Becker S. "The Digital Learning Environment and Its Role in Education" (2020). Ushbu tadqiqotda raqamli ta’lim muhitining afzalliklari va uning o‘quvchilarga ta’siri tahlil qilingan. Mualliflar masofaviy ta’lim va virtual laboratoriyalarning samaradorligini tadqiq etib, texnologiyalar o‘quv jarayonini qanday o‘zgartirayotganini yoritgan.

2. Texnologiya fanini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar Xolmirzayev B. "Texnologiya fanini o‘qitishda raqamli texnologiyalarning o‘rni" (2021). Ushbu maqolada texnologiya fanini o‘qitishda sun’iy intellekt, virtual laboratoriyalar va o‘yinlashtirish usullarining samaradorligi haqida so‘z boradi. Muallif o‘quvchilarni kasbiy jihatdan tayyorlashda interfaol ta’lim texnologiyalarining ahamiyatini ta’kidlaydi.

Brown P. "Innovative Approaches in Teaching Technology Education" (2019). Mazkur tadqiqotda zamonaviy ta’lim vositalari, jumladan, AR (kengaytirilgan reallik) va VR (virtual reallik) texnologiyalarining texnologiya fanini o‘qitishda qo‘llanishi haqida fikr yuritilgan.

3. Raqamlashtirish pedagogik imkoniyatlari va uning natijalari Turdaliyev O. "Pedagogik jarayonda raqamli texnologiyalarni joriy etish tajribasi" (2022). Muallif pedagogik jarayonda raqamli ta’lim vositalaridan foydalanish natijalarini tahlil qilib, ularning samaradorligi va talabalar bilimi hamda ko‘nikmalariga ta’sirini o‘rgangan.

Mayer R. "E-Learning and the Science of Instruction" (2021). Bu kitobda elektron ta’lim (e-learning) pedagogik tamoyillari va o‘qitish samaradorligini oshirish uchun eng yaxshi amaliyotlar tahlil qilingan. Muallif raqamli ta’lim muhiti o‘quvchilar bilimini mustahkamlashga qanday yordam berishini ko‘rsatib bergan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda texnologiya fanini o‘qitishda raqamli ta’lim muhitining ahamiyati va pedagogik imkoniyatlarini aniqlash maqsad qilingan. Tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta’minlash uchun turli metodologik yondashuvlar qo‘llanildi.

1. Tadqiqot empirik va nazariy tahlil asosida olib borildi. Nazariy qismda ilmiy adabiyotlar va ilg‘or pedagogik tajribalar o‘rganildi, empirik qismda esa real ta’lim muhitida raqamli texnologiyalarning samaradorligi baholandi.

2. Tajriba bosqichi – real ta’lim muhitida raqamli texnologiyalarni qo‘llash va natijalarni kuzatish.

3. Tahlil bosqichi – to‘plangan ma’lumotlarni qayta ishlash va xulosa chiqarish.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalari texnologiya fanini o‘qitishda raqamli ta’lim muhitining samaradorligini ko‘rsatdi. O‘quv jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish talabalar bilimini oshirish, amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish va motivatsiyani kuchaytirishda muhim rol o‘ynaydi.

Tadqiqot davomida raqamli ta’lim muhitini joriy etishda bir qator muammolar kuzatildi:

1.Texnik infratuzilmaning yetishmovchiligi – barcha ta’lim muassasalari zamonaviy texnologiyalar bilan ta’minlanmagan.

2.O‘qituvchilarning malaka darajasi – ba’zi pedagoglar raqamli vositalarni samarali qo‘llash bo‘yicha yetarli bilim va tajribaga ega emas.Internet tarmog‘iga bog‘liqlik – masofaviy ta’lim imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish uchun internet sifati yetarli bo‘lishi kerak.

Xulosa. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, texnologiya fanini o‘qitishda raqamli ta’lim muhiti muhim rol o‘ynaydi. Raqamli texnologiyalar talabalarning kasbiy sifatlarini shakllantirish, amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish va o‘qitish samaradorligini oshirishda katta imkoniyat yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Shomirzayev M. K. Developing Educational Technologies In School Technology Education //Next Scientists Conferences. – 2022. – P. 17.

2. Kayumov A., Saidov I. (2022). Raqamli ta’lim muhitini shakllantirish tamoyillari. Toshkent: Innovatsion ta’lim nashriyoti.

3. Xolmirzayev B. (2021). Texnologiya fanini o‘qitishda raqamli texnologiyalarning o‘rni. Pedagogika va innovatsiyalar jurnali, №3, 45-52-betlar.

4. Turdaliyev O. (2022). Pedagogik jarayonda raqamli texnologiyalarni joriy etish tajribasi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi ilmiy jurnali, №6, 30-38-betlar.

FIZIKA VA STORITELLING: MAKTAB TA'LIMIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Erlepesova Indira Baxadur qizi *– tayanch doktorant*
Orcid raqam: 0009-0006-8216-7438
Ajinyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются инновационные методы преподавания физики с использованием сторителлинга в школьном обучении. Подчеркивается, что применение сторителлинга позволяет сделать уроки физики более динамичными, интересными и доступными для учеников, способствует развитию творческого и критического мышления, а также улучшению академических результатов.

Ключевые слова. Инновационные методы, преподавание физики, сторителлинг, школьное обучение, интерактивные уроки, цифровые технологии, творческое мышление

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada maktab o‘quvchilari uchun fizikani o‘qitishda hikoyachilik (storytelling) usullaridan foydalanish orqali innovatsion metodlar ko‘rib chiqilgan. Maqolada hikoyachilik usuli darslarni yanada dinamik, qiziqarli va tushunarli qilish, shuningdek, ijodiy va tahliliy fikrlashni rivojlantirish va akademik natijalarni yaxshilashga yordam berishi ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar. Innovatsion metodlar, fizika o‘qitish, hikoyachilik, maktab ta’limi, interaktiv darslar, raqamli texnologiyalar, ijodiy fikrlash

ABSTRACT

This article examines innovative methods for teaching physics using storytelling in school education. It emphasizes that incorporating storytelling makes physics lessons more dynamic, engaging, and accessible to students, while also fostering creative and critical thinking and improving academic performance.

Keywords. Innovative methods, physics teaching, storytelling, school education, interactive lessons, digital technologies, creative thinking

Kirish

Zamonaviy ta’lim jarayonida fizika darslarida ta’limni nafaqat samarali, balki maktab o‘quvchilari uchun qiziqarli qilish bo‘yicha savollar tobora ko‘payib bormoqda. Qonun va formulalarni quruq yodlashga yo‘naltirilgan an’anaviy usullar ko‘pincha fanning imkoniyatlarini to‘liq ochib berishga qodir emas, o‘quvchilarda atrof-muhitni o‘rganishga jonli qiziqish uyg‘otmaydi. Aynan shu yerda nafaqat murakkab tushunchalarni tushuntirish, balki ularning real hayot bilan bog‘liqligini ko‘rsatish imkonini beruvchi innovatsion usullar yordamga keladi. Bunday usullardan biri so‘nggi yillarda pedagogik usullar arsenaliga mustahkam kirib borgan hikoya qilish san’ati - storitellingdir [1-3].

Storitelling o‘qitish usuli sifatida mavhum g‘oyalarni yorqin va esda qolarli obrazlarga aylantirish, hatto eng murakkab fizik hodisalar va qonunlarni jonlantirish imkonini beradi. O‘qituvchi hikoya qilish orqali nafaqat ma’lumotni uzatadi, balki o‘quvchilar bilan hissiy aloqa o‘rnatadi, ularni bilish jarayoniga jalb qiladi. Hikoyani jalb qilish o‘quvchilarga materialni yaxshiroq o‘zlashtirishga yordam beradi, chunki u

nafaqat mantiq orqali, balki his-tuyg‘ular, assotsiatsiyalar va vizual tasvirlar orqali ham eslab qolinadi. Hikoyalar, xoh u buyuk allomalar hayotidagi real voqealar bo‘lsin, xoh uydirmalar bo‘lsin, nazariya va amaliyot o‘rtasida o‘ziga xos ko‘prik vazifasini o‘taydi [4-6].

Albatta, fizika o‘qitishda storitellingni joriy etish o‘qituvchidan ma’lum ko‘nikmalar, ijodiy yondashuv va dars mazmunini hikoya qilish shakliga moslashtirish qobiliyatini talab qiladi. Nafaqat mavzuni o‘zlashtirish, balki his-tuyg‘ularni yetkazish, mantiqiy, qiziqarli va dinamik syujetlarni qurish qobiliyatiga ega bo‘lish kerak. Shu munosabat bilan pedagogik amaliyotni qayta ko‘rib chiqish zarurati haqida gapirish mumkin, bunda an’anaviy ma’ruza usullari o‘rnini o‘quvchi bilan muloqot va uning materialni hissiy idrok etishiga qaratilgan innovatsion, faol o‘qitish usullari egallaydi.

Ushbu ishda biz harakat qonunlari, elektr, termodinamika va fizikaning boshqa bo‘limlarini tushuntirish uchun ishlatiladigan hikoyalardan misollar ko‘rib chiqamiz.

Asosiy qism

Fizika o‘qitishda storitellingni muvaffaqiyatli qo‘llash asosida metodik ishlanma, pedagogik materiallarni tayyorlash va interfaol texnologiyalarni joriy etishni o‘z ichiga olgan kompleks yondashuv yotadi. Ushbu bo‘limda metodik jihatlar, fizika darslarida qo‘llaniladigan aniq hikoyalar va ssenariylardan namunalar, shuningdek, o‘qituvchilar uchun amaliy tavsiyalar batafsil ko‘rib chiqiladi.

Storitelling yordamida fizika darsini o‘zgartirish o‘qitish haqidagi an’anaviy tasavvurlarni qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Darsning ma’ruza va namoyish tajribalariga asoslangan klassik shakli asta-sekin o‘qitishning interfaol usullariga o‘z o‘rnini bo‘shatib beradi, bunda markaziy o‘rinni o‘quvchilarning hissiy ishtiroki egallaydi. Buning uchun pedagog nafaqat fanni chuqur o‘zlashtirishi, balki ma’lumotlarni syujet ko‘rinishida taqdim eta olishi ham zarur. Har bir hikoya tugun, rivojlanish va kulminatsiyaga ega mantiqiy tuzilishga ega bo‘lishi muhim, bu esa o‘quvchilarga nafaqat matnni tushunishga, balki eslab qolishga ham yordam beradi.

Hikoyalar ham haqiqiy, ham xayoliy bo‘lishi mumkin, bunda olimlarning haqiqiy tajribasi, ilmiy kashfiyotlar tarixi, buyuk aql egalarining tarjimayi hollari - bularning barchasi hikoyani shakllantirish uchun qimmatli materialga aylanadi. Masalan, Isaak Nyuton olma tushishini kuzatib, butun olam tortishish qonunini ta’riflashga qanday kelganligi haqidagi hikoya shubha, haqiqatni izlash va kutilmagan yorqinlik lahzalarini ta’kidlab, dramatizm elementlari bilan hikoya qilinishi mumkin. Bunday hikoya nafaqat fizika qonunini o‘zlashtirishga yordam beradi, balki o‘quvchilarni mustaqil kashfiyotlar va tajribalar o‘tkazishga undaydi.

Muhim jihat idrokning hissiy va kognitiv komponentlarini birlashtirishdir. Storitelling hissiy bog‘liqlikni yaratadi, buning natijasida o‘quvchilar materialni muhokama qilishda faolroq ishtirok etadilar, savollar beradilar va muammolarni hal qilishga ijodiy yondashadilar. Shunday qilib, pedagogik jarayon dialogik jarayonga aylanadi, bunda har bir o‘quvchi o‘quv jarayonida o‘z ishtirokini his qiladi.

Ushbu yondashuvni fizika darsida muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun bir qator ssenariy va usullardan foydalanish tavsiya etiladi. Ulardan biri "Kashfiyot tarixi" bo‘lib, dars buyuk olimlarning o‘z kashfiyotlariga qanday erishganliklari haqida hikoya qilish bilan boshlanadi. Bir nechta misolni ko‘rib chiqamiz:

1-misol: Energiyaning saqlanish qonunining paydo bo‘lish tarixi. O‘qituvchi darsni energiya tabiatini tushunish uchun XVIII asrda olimlar bosib o‘tgan mashaqqatli yo‘l haqida hikoya qilishdan boshlaydi. Hikoyada ixtirolar, turli maktablar vakillari o‘rtasidagi bahs-munozaralarning dramatik tarixini, shuningdek, dastlabki tajribalar "energiya" tushunchasining shakllanishiga qanday olib kelganini tasvirlash mumkin. Bunday hikoya illyustratsiyalar, diagrammalar va hatto qisqa rolli sahna ko‘rinishlari bilan birga keladi, bunda o‘quvchilar muhokama va tajriba lahzalarini takrorlaydigan

guruhlarga bo‘linadilar. Bu nafaqat nazariy asosni tushunishga yordam beradi, balki darsni esda qolarli qilish orqali hissiy muhit yaratadi.

2-misol: Yorug‘likning qo‘sh tabiati kashf etilish tarixi. Bu hikoya yorug‘likning ham to‘lqin, ham korpuskulyar xususiyatga ega ekanligini tushunish yo‘lini ochib beradi. O‘qituvchi Tomas Yung, Albert Eynshteyn va boshqa olimlar ishtirok etgan qarama-qarshi tajribalar, ilmiy munozaralar va tajribalar qanday qilib kvant nazariyasining shakllanishiga olib kelgani haqida gapirib berishi mumkin. Hikoyada haqiqatni doimiy izlash va yangi g‘oyalarga ochiqlik klassik fizika paradokslarini yengishga qanday yordam berganiga e’tibor qaratilgan.

3-misol: Albert Eynshteynning hayoti haqida biografik hikoya. Eynshteynning tarjimayi holi dramatizm, ilmiy kashfiyotlar va insoniy kechinmalarga to‘la. O‘qituvchi yosh Eynshteyn haqida, uning ilm-fanga qo‘ygan ilk qadamlari, u duch kelgan to‘siqlar va uning o‘ziga xos tafakkuri dunyo haqidagi tasavvurni qanday o‘zgartirgani haqida hikoya qiladi. Dars jarayonida o‘quvchilarga tarjimayi holning asosiy nuqtalarini o‘zlari o‘ynash, uning muvaffaqiyatiga qanday shaxsiy fazilatlar hissa qo‘shganligi va bu fazilatlar ularga fizikani o‘rganishda qanday yordam berishi mumkinligi haqida munozara o‘tkazish taklif etiladi. Bunday usul nafaqat tarixga sho‘ng‘ish, balki buyuk allomalarning motivatsion ko‘rsatmalarini o‘zlashtirish imkonini beradi.

Fizika o‘qitishda storitellingni qo‘llash bir qator shubhasiz afzalliklarga ega. Birinchidan, u darsni haqiqiy sarguzashtga aylantirish orqali o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishga yordam beradi. Ikkinchidan, hikoyaning hissiy tarkibiy qismi materialni yaxshiroq eslab qolishga va mavhum tushunchalarni haqiqiy voqealar bilan bog‘lashga yordam beradi. Uchinchidan, bunday yondashuv zamonaviy mutaxassislarni shakllantirishda muhim bo‘lgan ijodiy fikrlashni, ma’lumotlarni tahlil qilish va jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Biroq, innovatsion usullarni joriy etish ma’lum qiyinchiliklar bilan birga keladi. Shuni hisobga olish kerakki, barcha o‘qituvchilar ham yetarli darajada hikoya qilish qobiliyatiga ega emaslar, shuning uchun qo‘shimcha o‘qitish va uslubiy materiallarni tayyorlash talab etiladi. Pedagogik dastur moslashuvchan bo‘lishi va o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi hamda qiziqishlarini hisobga olgan holda dars mazmunini muayyan sinf sharoitlariga moslashtirish imkonini berishi muhimdir. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalarni joriy etish tegishli moddiy-texnik bazani talab qiladi, bu esa resurslari cheklangan maktablarda to‘siq bo‘lishi mumkin.

Storitellingga asoslangan innovatsion usullar maktablarda fizika fanini o‘qitishda yangi ufqlarni ochadi. Ular nafaqat materialni o‘zlashtirish sifatini oshirishga, balki o‘quvchilarda fanga bo‘lgan muhabbatni shakllantirishga, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, zamonaviy jamiyat oldida turgan vazifalarni hal qilishga tayyorlashga imkon beradi. Ushbu metodikalarni qo‘llash o‘qituvchilardan ijodiy yondashuv, moslashuvchanlik va doimiy takomillashuvni talab qiladi, bu esa pirovardida ta’lim darajasining oshishiga va kelajak muammolariga tayyor bo‘lgan yosh olimlar va muhandislarning yangi avlodini shakllantirishga olib keladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, fizika o‘qitishda storitellingni joriy etish ta’lim jarayonining an’anaviy tushunchasini sezilarli darajada o‘zgartirishga qodir bo‘lgan kuchli vositadir. Hikoyalardan foydalanishga asoslangan innovatsion yondashuv nafaqat bilimlarni yetkazishga, balki o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida hissiy aloqa o‘rnatishga, darsni yorqin va esda qolarli voqeaga aylantirishga yordam beradi. Maktab o‘quvchilari buyuk kashfiyotlar, ilmiy izlanishlarning mashaqqatli yo‘llari, olimlarning shaxsiy dramalari haqidagi hikoyalar prizmasi orqali fizikani quruq formulalar to‘plami sifatida emas, balki inson intilishlari, orzulari va kechinmalari bilan sug‘orilgan jonli fan sifatida ko‘ra boshlaydilar.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, storitelling shunchaki bilim berish usuli emas, balki shaxsning hissiy va intellektual rivojlanishiga qaratilgan butun bir o‘qitish falsafasidir. Uni fizika darslarida

qo‘llash orqali biz o‘quvchilarga nafaqat nazariy materialni o‘zlashtirish, balki atrof-muhit go‘zalligini ko‘rishni o‘rganish, fan va hayot o‘rtasidagi bog‘liqlikni his qilish, shuningdek, hozirgi zamonning eng murakkab muammolarini hal qilish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni rivojlantirish imkoniyatini beramiz. Aynan shunday yondashuv muvaffaqiyatli ta’limning kaliti bo‘lib, XXI asr chaqiriqlariga va doimiy ravishda yangi bilimlarni izlashga tayyor bo‘lgan mutaxassislarning yangi avlodlarini shakllantirishga qodir.

Yuqorida sanab o‘tilgan barcha afzalliklar va muammolarni hisobga olgan holda, ishonch bilan aytish mumkinki, fizikani o‘qitish jarayoniga storitellingni joriy etish shunchaki vaqtinchalik moda emas, balki ta’lim tizimini modernizatsiya qilish uchun zarur chora-tadbirdir. Global o‘zgarishlar va texnologiyalarning jadal rivojlanishi sharoitida aynan shunday innovatsion usullar o‘quvchilarni tayyorlashning yuqori sifatini ta’minlashga, ta’limni yanada insoniy va real hayotiy vazifalarga yo‘naltirilgan qilishga qodir. O‘qituvchi storitellingni qo‘llash orqali nafaqat bilim tashuvchisiga, balki o‘quvchilar qalbida qiziquvchanlik va ilhom uchqunini yoqishga qodir bo‘lgan haqiqiy fan olamiga yo‘lboshchiga aylanadi.

FOYDALANİLGAN ADABİYOTLAR

1. Грошева Н. Б., Купчинская Ю. А. Сторителлинг в образовании //Синтез науки и общества в решении глобальных проблем современности. – 2017. – С. 36-37.
2. Пяткова О. Б. Метод сторителлинга в обучении //Школьные технологии. – 2018. – №. 6. – С. 41-45.
3. Подорожная А. В., Сулейков А. В. Сторителлинг–преимущества и возможности в школьном образовании //Педагогический журнал. – 2022. – Т. 12. – №. 2А. – С. 365-370.
4. Шейдаи Н. Н. В. Цифровой сторителлинг в классе //Академия профессионального образования. – 2017. – №. 3. – С. 35-41.
5. Бондаренко Н. В. Storytelling як комунікаційний тренд і всепредметний метод навчання //Молодь і ринок. – 2019. – Т. 7. – №. 174. – С. 130-135.
6. Оспенникова Е.В. Шестакова Е.С. "Принцип историзма в обучении физике: содержание и модели реализации в средней общеобразовательной школе" Педагогическое образование в России, no. 4, 2010, pp. 67-75.

ТАРИХИЙ ГЕОГРАФИЯ ФАНИНИ ЎҚИТИШ БЎЙИЧА ИЛҒОР ПЕДАГОГИК ВА ХОРИЖИЙ ТАЖРИБАЛАР

Каримов Ризомат Адашвоевич,

Чирчиқ Давлат Педагогика университети, мустақил тадқиқодчиси

АННОТАЦИЯ

Географик билимлар тарихий билимлар билан биргаликда кўриб чиқилса аҳамияти ортади. Географияда тарихий ёндашув узоқ вақтдан бери қўлланилган. У ўрганилаётган объектлар ва ҳодисаларнинг ривожланиш шартлари ва хусусиятларини аниқлашга, уларнинг ривожланиш босқичлари ва босқичларини белгилашга ва шу орқали ҳозирги ҳолати ва кўринишини тушунтиришга, кейинги ривожланиш йўналишларини башорат қилишга ёрдам беради.

Тарихий географиянинг вазифаси ҳар бир ҳодиса синфи учун ажратилган табиий ва маданий келиб чиқиш ландшафтининг барча таркибий қисмларининг тарихий жиҳатдан ўзаро боғлиқлигини ўрганишдан иборат.

Тарихий-география фанини ўқитишда энг бой тарихий ва географик материаллардан фойдаланиш, амалий, мустақил, ривожлантирувчи таълимдан фойдаланиш талабаларда нафақат фанга когнитив қизиқишни ривожлантиришнинг самарали воситаси, балки мустақил фикрлаш, фаразлар, прогнозлар қўйиш ва ўз фикрини ҳимоя қилиш қобилиятини ривожлантириш воситаси сифатида самарали ҳисобланади.

Мақолада тарихий география фанини ўқитиш бўйича илғор педагогик ва хорижий тажрибалар ёритиб берилган.

Калит сўзлар. Антропогеография, тарих, минтақа, ҳудуд, ландшафт, маданият, жамият, табиат.

Ҳозирги вақтда таълимни инсонпарварлаштиришга талабаларни ривожлантириш воситаси сифатида қаралмоқда, бу эса тарихий ва маданий элементларнинг улушини оширишни назарда тутади. Инсонпарварлаштириш ғояси ҳар қандай география курсида тўлиқ акс эттирилиши мумкин.

Географик билимлар тарихий билимлар билан биргаликда кўриб чиқилса аҳамияти ортади. Географияда тарихий ёндашув узоқ вақтдан бери қўлланилган. У ўрганилаётган объектлар ва ҳодисаларнинг ривожланиш шартлари ва хусусиятларини аниқлашга, уларнинг ривожланиш босқичлари ва босқичларини белгилашга ва шу орқали ҳозирги ҳолати ва кўринишини тушунтиришга, кейинги ривожланиш йўналишларини башорат қилишга ёрдам беради. Тарихий-географик материалдан фойдаланиш географиянинг инсонпарварлик мазмунини кучайтириши ҳам бирдек муҳим.

Тарихий география фанини ўқитиш бўйича илғор педагогик ва хорижий тажрибалар шуни кўрсатадики, бу борада бир қанча амалий ишлар олиб борилган.

И.Г.Яцунский 4 та кичик фанни аниқлаган: тарихий, физик география, тарих аҳоли географияси, тарихий ва иқтисодий география ва тарихий-сиёсий география. Унинг фикрича, барча элементларни алоҳида ҳолда эмас, балки уларнинг ўзаро боғлиқлиги ва аниқлигида ҳамда ва географик жиҳатдан ўрганиш керак [11].

Тарихий география доирасида физик географлар Л.С.Берг, А.Г.Исаченко, В.С.Жекулинлар, антропогеография мактаблари В.П.Семенов-Тян-Шанский, А.А.Синицкий, Л.Д.Крубер,

иқтисодий географлар И.А.Витвер, Р.М.Кабо, Л.Э.Иофа, В.А.Пуляркин ва бошқаларнинг асарларини алоҳида таърифлаш мумкин.

Л.Н.Гумилёв ва унинг издошлари этник ва ландшафт ўртасидаги муносабат тушунчаси [2], этник гуруҳлар тарихини талқин қилган. Табиат ва жамият ўртасидаги муносабатларнинг умумий муаммолари тарихий жиҳатдан динамикаси Э.С.Кулпин асарларида кўриб чиқилган.

Буюк Британия, АҚШ ва бошқаларда тарихий география Биринчи жаҳон урушидан кейин тез ривожлана бошлади. Г.Дарби ва унинг мактаби олимларининг асарларида манбашунослик сезиларли даражада ривожланган. Бу даврларга оид материаллар (тарихий хроникалар, ер кадастр китоблари, бошқа расмий ҳужжатлар) кенг ўрганила бошланди. Дарби ва унинг шогирдлари маҳаллий (кенг миқёсли) тадқиқотлар билан бир қаторда Буюк Британиянинг қадимий тарихига оид кенг қамровли асарлар тайёрлашга муваффақ бўлдилар [3].

Германияда тарихий география шаклланиши ва ривожланишига немис тилининг асосчиси ва раҳбари Ф.Ратселнинг асарлари муҳим туртки бўлди. Антропогеографик мактабларда турли халқлар тарихига табиий омилларнинг таъсири ўрганилган. Шунингдек, Ратсел ва унинг шогирдлари асарларида маҳаллий ва минтақавий маданий мажмуаларнинг бутун дунё бўйлаб тарқалиши, тарихий аҳамиятга эга бўлган ўрни батафсил тасвирланган. Тегишли ҳудудларнинг ландшафт хусусиятлари билан узвий боғлиқликда халқлар маданиятини шакллантиришдаги алоқалар ўрганилган.

Ф.Ратселнинг шогирди Э.Семпле “Америка тарихи ва унинг географик шароитлари” асарини ёзган.

Жаҳон тарихий географиясининг ривожланиши учун Беркли (Калифорния) асосчиси Зауернинг маданий-ландшафт ва тарихий-географик асарлари катта аҳамиятга эга. Унинг фикрича, тарихий географиянинг вазифаси ҳар бир ҳодиса синфи учун ажратилган табиий ва маданий келиб чиқиш ландшафтининг барча таркибий қисмларининг тарихий жиҳатдан ўзаро боғлиқлигини ўрганишдан иборат. Бунда маданият табиий муҳит билан, табиий ҳудуд инсон фаолиятининг воситачиси («фон») ва уларнинг алоқаси натижасидаги маданий ландшафт билан ўзаро муносабатларнинг фаол принципи сифатида талқин қилинади.

Тарихий география - жисмоний, ижтимоий-иқтисодий, маданий, сиёсий фанларни ўрганадиган мураккаб фан ҳисобланади. Аксарият физик географлар тушунчасида тарихий география инсон пайдо бўлгандан кейинги "тарихий", яъни табиат (табиий муҳит) ривожланишининг охирги босқичини ўрганувчи фандир.

Тарихий география махсус билим соҳаси сифатида Уйғониш ва Буюк географик кашфиётлар даврида шакллана бошлади. Унинг шаклланишининг энг катта аҳамияти 16-асрда бўлган. 19-20-асрларда тарихий география фанининг предмети кенгайди, ўрганилаётган масалалар доираси иқтисодиётнинг тарихий географияси, тарихдаги жамият ва табиатнинг ўзаро таъсири, ўтмиш, тарихни ўрганиш, табиатдан фойдаланиш турлари ва бошқа муаммоларни қамраб олди.

Тарихийлик тамойилини амалга оширишнинг муваффақияти кўп жиҳатдан унинг мавзуни ўрганишдаги ролини тушунишга, унинг тарбиявий ва ривожланиш имкониятларини билишга боғлиқ. Тарихий-географик билимлар анъанавий равишда фақат ўзининг когнитив имкониятлари нуқтаи назаридан кўриб чиқилади, шу билан бирга унинг ривожланиш салоҳияти ноаниқлигича қолмоқда ва шунинг учун ҳам етарлича фойдаланилмайди.

Тарихий-география фанини ўқитишда энг бой тарихий ва географик материаллардан фойдаланиш, амалий, мустақил, ривожлантирувчи таълимдан фойдаланиш талабаларда нафақат фанга когнитив қизиқишни ривожлантиришнинг самарали воситаси, балки мустақил фикрлаш,

фаразлар, прогнозлар қўйиш ва ўз фикрини ҳимоя қилиш қобилиятини ривожлантириш воситаси сифатида самарали ҳисобланади.

Тарихий география фанини ўқитиш бўйича илғор педагогик ва хорижий тажрибалар, талабаларга тақдим этиладиган барча тарихий-географик вазифалар, услубий адабиётларга кўра, фанни ўқитишнинг мураккаблик даражасини ошириш тартиби беш турга бўлинади:

• Ўқитувчи таклиф қилган манбалардан тарихий-географик мазмунни танлаш.

• Ўқув материалини берилган схема бўйича гуруҳлаш.

• ўрганилаётган объектлар ва ҳодисаларни таққослаш, қарама-қарши қўйиш ёки баҳолаш.

• Мавқе ва хулосаларни исботлаш, умумлаштириш.

• географик объектлар ва ҳодисаларнинг ривожланишини баҳолаш ва прогнозлаш.

Кўпинча муаммони муваффақиятли ҳал қилиш учун талабаларнинг билим фаолиятига қўшимча саволлар ёрдамида раҳбарлик қилиш керак бўлиб, улар керакли хулосага келиш учун талабаларнинг мантиқий фикрлашларини бошқаради. Бундай ҳолда, муаммо ўқитувчи ва талабалар ҳақиқатни топишга интилаётган тенг ҳуқуқли шерик бўлган суҳбат орқали ҳал қилинади.

Талабаларнинг юқори мустақиллик ва фаолликни талаб қиладиган масалалар ечиши мустақил фикрлашни ривожлантиришда катта фойда келтиради. Тарихий география фанини ўқитиш муаммоларини ҳал қилиш учун муаммоли таълимни ташкил этиш самарали ҳисобланади.

Биринчидан, у талабалар учун очиқ бўлиши керак.

Иккинчидан, унга тарихий география фанининг методлари ёрдамида эришиш мумкин, уларга тушунтириш-иллюстратив, репродуктив, қисман кашфиёт, тадқиқот ва бошқалар киради. Услубий тавсияларга мувофиқ барча муаммоли тарихий-географик вазифалар тўрт турга бўлинган:

• Сабаб-натижа муносабатларини ўрнатиш вазифалари.

• Илмий фаразга асосланган топшириқлар.

• Қарама-қаршиликларни тушуниш ва улар билан ишлаш қобилиятини талаб қиладиган вазифалар.

• Парадокс вазифалари.

Замонавий мактабда талабанинг шахси асосан оғзаки маданият тизимида шаклланади. Бироқ, талабани ривожлантиришнинг кўпроқ сиғимли, ҳиссий жиҳатдан бой ва мажозий воситаси сифатида ишлайдиган бошқа кучли ахборот тизимлари мавжуд. Бундай тизимларга географик кўриниш - географик моделлар, уларнинг тарихий ва географик ўзига хослиги, уларнинг мавҳум табиати киради.

Педагогик адабиётларда моделлаштириш деганда тушунилиши керак бўлган реал ҳодиса ёки жараённинг айрим хусусиятларини такрорлаш мақсадида қандайдир ҳодиса ёки жараённинг тасвирини яратиш тушунилади. Географияда моделлар билан ишлаш қуйидагиларни ўз ичига олади: тарихий ва географик лойиҳалар, географик тавсифлар, назариялар ва гипотезалар, ҳаво ва космик фотосуратлар, жадваллар, профиллар, диаграммалар.

Географик моделлаштиришнинг энг кенг тарқалган тури картографик моделлаштиришдир, чунки у талабаларнинг тарихий ва географик билимларини баҳолашнинг энг яхши усули ҳисобланади. Контур харитада тарихий-географик ҳодисаларни моделлаштиришда нафақат болаларнинг билимлари мустаҳкамланиб, текширилади, балки шу билан бирга талабалар ўз билимларини турли вазиятларда қўллашни ўрганадилар, яъни талабаларнинг ижодий фаолияти тажрибаси ва уларнинг географик маданияти шаклланади.

Тарихий география фанини ўқитиш жараёнида ўқув картографик моделларидан фойдаланиш мақсади ва характерига кўра турли хил турлари ажратилади:

• Модел ўрнини босувчи.

• Моделни кўриш.

• Модел талқини.

• Тадқиқот модели.

Янги материални ўрганишда лойиҳа усулидан фойдаланиш мумкин, болалардан маълум мавзулар бўйича лойиҳалар яратиш сўралади, бу уларга кўриб чиқилаётган масалаларни тарихий ва географик жиҳатдан кўришга ёрдам беради. Лойиҳалар устида ишлашда талабалар уларни бажариш учун алгоритмдан фойдаланадилар.

Топонимика географик кашфиётлар натижаларини, мамлакат ҳудудининг жойлашиш ва ривожланиш жараёнини, муайян ҳудуднинг хусусиятларини, иқтисодий, сиёсий ва турмуш шароитларини ўрганади. Топонимика билан ишлаш турли шаклларда амалга оширилади:

• Муайян мавзуни ўрганишда исмларнинг келиб чиқиши ҳақида маъруза ва тезислар тайёрлаш.

• Тарихий ва географик викториналар ўтказиш.

• Топонимикадан билимга оид географик диктантлар

Масалан Самарқанд вилояти тарихий географиясини ўрганишда қуйидаги мавзуларда амалий дарсларни ўтказиш мумкин:

• Самарқанд вилоятининг ташкил топиш тарихи.

• Минтақанинг табиий кўриниши.

• Минтақанинг иқтисодий ривожланиш босқичлари

• Тадбиркорлик кеча, бугун.

Бу дарсларга тайёргарлик кўришда талабалар кенгайтирилган топшириқлар асосида мустақил равишда материал тайёрлайдилар, таҳлил қиладилар, умумлаштирадилар, ҳисоботлар тақдим этадилар. Талабаларнинг сўровлари бўйича ишнинг ушбу шакли улар учун қизиқарли, шунинг учун у тарихий географиянинг бошқа мавзуларини ўрганишда ҳам қўлланилади.

Тарихий география фанини ўқитиш бўйича илғор педагогик ва хорижий тажрибалар шуни кўрсатадики, талабаларнинг ўз туғилган шаҳри, вилояти тарихи ва географияси бўйича ўлкашунослик конференцияси шаклида ўтказиладиган дарслар, аҳоли хусусиятларига бағишланган мавзулар ва мамлакатнинг иқтисодий ривожланиши, дунёнинг замонавий сиёсий харитаси муаммолари, замонамизнинг глобал муаммолари масалалари уларда катта қизиқиш уйғотади. Талабалар билан саёҳат тарзидаги ўйин дарслари ва турли мамлакатларга туристик таклифномалар ёзиш топшириқлари қизиқарли бўлади.

Маълумки, ўлкашуносликка йўналтирилган сайёҳлик клуби ишини ташкил қилишда муқаддас жойлар, пойтахтлар, ноёб табиий ёдгорликларни зиёрат қилиш муҳим. Туристик саёҳатлар материаллари асосида фото ва видео ҳисоботларни яратиш мумкин.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Витвер И.А. Историко-географическое введение в экономическую географию зарубежного мира. 2-е изд. М., 1963.
2. Гумилев Л.Н. География этноса в исторический период/ Ленинград: "НАУКА", Ленинградское отделение, 1990.- 279 с.
3. Darby H.C. Historical geography of England before A. D. 1800. Camb., 1969

4. Иофа Л.Е. О значении исторической географии // География и хозяйство. М., 1961. № 1.
5. Историческая география: теория и практика. СПб., 2004.
6. Тошов Х.Р., Қодиров А.А. Бухородаги барҳаёт хотиралар. // Абдусами Солиев: инсон, олим, устоз. – Тошкент, 2019. -Б.314-315.
7. Файзуллаев М.А. Экономико-географические факторы развития сельского хозяйства в пустынной зоне Южного Узбекистана: Автореферат диссертации доктора философии по географическим наукам. Ташкент, 2017. 48 с.
8. Федорко В.Н. Экономико-географические основы совершенствования территориальной структуры природопользования в Узбекистане: Автореферат диссертации доктора философии по географическим наукам. Ташкент, 2018. 52 с.
9. Шульгина О.В. Историческая география России XX в.: Социально-политические аспекты. М., 2003
10. Шведов В.Г. Историческая политическая география. Владивосток, 2006.
11. Яцунский В. К. Историческая география как научная дисциплина // Вопросы географии. М., 1950. Сб. 20.
12. Қодиров А.А., Мирзаева И.Э. Ҳофизи Таниш Бухорийнинг географик қарашлари. // Иқтидорли талабалар ва ёш олимларнинг республика илмий амалий конференцияси материаллари. – Тошкент, 2007. - Б. 27-29.
13. Қодиров А.А., Раҳмонова С.Ж. География таълимининг ўқувчи шахсини ривожлантиришдаги аҳамияти. // «География фанининг назарий амалий муаммолари». Республика илмий-назарий-амалий конференцияси материаллари. – Бухоро, 2006. - Б. 200-201.

TALABALARNI KASBKORLIKKA O‘RGATISH

Esanova Sarvinoz Uktamovna
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada xalq hunarmandchiligi kasblariga o’rgatish asosida o‘quvchilar mehnat mahsulotlarini iste’molga chiqarishi va ushbu jarayonda tejamkorlik, uddaburonlik, ishbilarmonlik kabi fazilatlarni shakllantirish, ularni texnologik jarayonga tayyorlashning mazmuni yoritilgan.

Tayanch so‘z va tushunchalar: maktab, sinf, o‘quvchi, ta’lim, tarbiya, axloq, texnologiya, kasb, yo‘nalish, xalq hunarmandchiligi, ko‘nikma, mehnatsevarlik, tejamkorlik, ijodkorlik, tizim, milliylik, tarixiylik, mahalliylik.

Kirish. Har bir xalqning milliy madaniyati va merosi asrlar davomida shakllanib, o‘ziga xos an’ana va qadriyatlarga asoslangan [1]. Xalq hunarmandchiligi ana shunday madaniy merosning ajralmas qismi bo‘lib, unda milliy urf-odatlar, san’at va kasbiy mahorat mujassam etilgan. Hunarmandchilik faoliyati nafaqat moddiy madaniyat namunalarini yaratishga xizmat qiladi, balki yoshlarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish, mehnatsevarlik, milliy qadriyatlarga hurmat kabi fazilatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalq hunarmandchiligi asosida o‘qitishning pedagogik ahamiyati shundaki, bu jarayon interfaol va amaliy o‘qitish usullari orqali talabalarni mustaqil faoliyat yuritishga undaydi. Ayniqsa, STEAM yondashuvi (fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika integratsiyasi) bilan uyg‘unlashtirilgan holda hunarmandchilikni o‘qitish talabalar uchun yanada samarali bo‘lishi mumkin. Chunki bu yondashuv orqali an’anaviy hunarmandchilik zamonaviy innovatsion texnologiyalar bilan uyg‘unlashadi va yoshlarning kasbiy ko‘nikmalari kengayadi.

Ushbu maqolada xalq hunarmandchiligi orqali talabalarni kasbiy tayyorgarlikdan o‘tkazish va tarbiyalash jarayoni ilmiy-tahliliy asosda o‘rganiladi. Shuningdek, hunarmandchilikni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish imkoniyatlari, bu jarayonning ta’lim va tarbiya tizimidagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Talabalarni xalq hunarmandchiligi asosida kasbga yo‘naltirish va tarbiyalash masalasini yoritishda bir qator mahalliy va xorijiy tadqiqotlarga tayanish muhimdir. Xalq hunarmandchiligi tarixi, uning ta’lim va tarbiyada tutgan o‘rni, kasbiy ta’limdagi roli bo‘yicha o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, hunarmandchilik yosh avlodga nafaqat amaliy ko‘nikmalarni, balki milliy o‘zlikni anglash va qadriyatlarga hurmatni ham singdi.

Ko‘pgina tadqiqotchilar xalq hunarmandchiligining pedagogik jarayondagi ahamiyatini alohida ta’kidlaydilar. Masalan, Shomirzayev M.X. Texnologiya fanini o’qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar darsligida ham zamonaviy ta’lim tizimida xalq hunarmandchiligi orqali talabalarni kasbga yo‘naltirish va tarbiyalash masalasi dolzarbligi haqida to‘xtalib o‘tilgan [3].

Zamonaviy ta’lim texnologiyalari bilan integratsiya qilingan hunarmandchilik o‘qitish jarayonini yanada samarali qiladi. G‘arbiy Yevropa va AQShda STEAM yondashuvi asosida hunarmandchilikni o‘qitish bo‘yicha tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy hunarmandchilik fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematikani birlashtirgan holda innovatsion ta’lim vositasiga aylanishi mumkin. Hunarmandchilikni texnologik innovatsiyalar bilan uyg‘unlashtirish bo‘yicha o‘tkazgan tadqiqotida, talabalar lazer kesish va 3D printer texnologiyalaridan foydalangan holda an’anaviy

hunarmandchilik mahsulotlarini yaratish orqali kreativ fikrlash va texnik ko‘nikmalarni rivojlantirganliklarini aniqlagan [3].

Ushbu adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, xalq hunarmandchiligi orqali o‘qitishning ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyati yuqori bo‘lib, uni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish ta’lim samaradorligini yanada oshirishi mumkin. Keyingi bo‘limda ushbu masalalarni ilmiy asosda tahlil qilish uchun tadqiqot metodologiyasiga e’tibor qaratamiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot talabalarni xalq hunarmandchiligi asosida kasbiy tayyorgarlikdan o‘tkazish va tarbiyalash jarayonining samaradorligini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, sifatli va miqdoriy tadqiqot usullari uyg‘unlashgan holda olib borildi. Tadqiqotda xalq hunarmandchiligining pedagogik ahamiyatini aniqlash, uni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish imkoniyatlarini o‘rganish hamda hunarmandchilikni STEAM yondashuvi bilan uyg‘unlashtirish natijasida talabalarning ijodiy va kasbiy rivojlanishini baholash maqsad qilingan.

Tadqiqot jarayonida pedagogika, psixologiya va kasbiy ta’limga oid ilmiy-nazariy qarashlar tahlil qilindi. Xalq hunarmandchiligi va kasbiy tayyorgarlik bo‘yicha ilgari o‘tkazilgan tadqiqotlar o‘rganilib, ularning ta’lim va tarbiyadagi o‘rni baholandi. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari, jumladan, STEAM yondashuvi, kompetensiyaviy va interfaol o‘qitish metodlari asosida hunarmandchilikni o‘qitishning samaradorligi o‘rganildi.

Tahlil va natijalar Xalq hunarmandchiligi asosida o‘qitish talabalarni nafaqat kasbiy mahoratga, balki milliy qadriyatlarga hurmat, ijodiy tafakkur va mustaqil ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishiga xizmat qiladi. Hunarmandchilikni o‘qitishning turli metodlari qo‘llanilgan guruhlarni tahlil qilish orqali, innovatsion yondashuvlarning o‘quvchilarning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi.

Xalq hunarmandchiligi asosida o‘qitishning talabalar rivojlanishiga ta’siri quyidagi jihatlar bo‘yicha baholandi [2]:

Kasbiy ko‘nikmalar va amaliy malaka – talabalar hunarmandchilik jarayonida turli materiallar bilan ishlash, an’anaviy va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha aniq natijalarga erishdi. Ularning ishlari sifati o‘sdi, bu esa amaliy mashg‘ulotlarning ahamiyatini tasdiqlaydi.

Motivatsiya va kasbga qiziqishning oshishi – hunarmandchilik bilan shug‘ullangan talabalar kasbiy faoliyatga bo‘lgan munosabatlarida sezilarli o‘zgarishlar kuzatildi. Ular o‘z ishlariga ijodiy yondashishni o‘rgandilar va hunarmandchilikni kelajak kasb sifatida qabul qila boshladilar.

Jamoaviy ishlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalari – talabalar guruh bo‘lib ishlash orqali o‘zaro fikr almashish, muammolarni birgalikda hal qilish, o‘z loyihalarini samarali taqdim etish kabi muhim qobiliyatlarni shakllantirdilar.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, xalq hunarmandchiligi asosida o‘qitish nafaqat kasbiy ta’lim tizimida, balki umumiy ta’lim muassasalarida ham samarali tarzda qo‘llanilishi mumkin. Bu metodikani kengroq tatbiq etish orqali talabalar nafaqat hunarmandchilikka, balki innovatsion ishlab chiqarishga ham jalb etilishi mumkin.

Xulosa. Xalq hunarmandchiligi asosida kasbiy ta’lim berish talabalarning nafaqat mehnat ko‘nikmalarini, balki ijodiy fikrlash, milliy qadriyatlarga hurmat va kasbiy mahorat darajasini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

An’anaviy o‘qitish usullari hunarmandchilik asoslarini o‘rgatishda samarali bo‘lsa-da, zamonaviy innovatsion yondashuvlar, jumladan STEAM metodikasi orqali o‘qitish yanada yuqori natijalarni berdi. STEAM yondashuvi asosida o‘qigan talabalar nafaqat hunarmandchilik buyumlarini yaratish, balki ularning dizaynini modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish va mustaqil ijodiy yechimlar topishda ham faol bo‘lishdi.

Shuningdek, amaliy mashg‘ulotlarning bolalarning hunarmandchilik kasblariga bo‘lgan qiziqishini oshirishda alohida o‘rin tutishi kuzatildi. Hunarmandchilik o‘qitish jarayonida milliy madaniyatni singdirish orqali talabalarning o‘z tarixi va merosiga bo‘lgan hurmatini shakllantirish mumkinligi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni Toshkent shahri, 2017-yil 7- fevral PF - 4947.

2. Shomirzayev M. Kh. Technology of Educational Process in School Technology Education // The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2020. – №. 07. – С. 217.

3.Shomirzaev M.X. Texnologiya fanini o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar. Darslik.- T.:“TerDU NMMN” 2021, - B.47, 91.

“KLASTER” METODIDAN FOYDALANIB TALABALARNI KASHTACHILIK HUNARIGA O’RGATISH

Ermatova Mexriniso Bekmuradovna
Denov tadbirkorlik va pedagogik instituti, o‘qituvchisi

ANNOTATSİYA

Maqolada talabalarni kashtachilik vositalari orqali kasb-hunarga yo‘naltirishda “KLASTER” metodining mazmuni, uni kasb-hunar ta’limida joriy etishning samaradorligi hamda kashtachilik vositalari orqali talabalarni kasbiy rivojlanishga yo‘naltirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Tayanch so‘z va iboralar: Kashtachilik, kasb-hunarga yo‘naltirish, KLASTER metodi, an’anaviy san’at, kasbiy rivojlanish.

Kirish.Kashtachilik xalq amaliy san’atining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u nafaqat estetik qiymatga, balki milliy madaniyat va an’analarni asrab-avaylashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ta’lim tizimida kasb-hunar ta’limi jarayonida talabalarni kashtachilik vositalari orqali yo‘naltirish, ularda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish va kasbiy qiziqishni oshirish dolzarb masalalardan biridir. Shu nuqtayi nazardan, klaster metodidan foydalanish strategiyasi talabalarni kashtachilik sohasiga yo‘naltirishda samarali yondashuv sifatida e’tirof etiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Mamlakatimizda A.Xo‘jaev, R.H.Djuraev, U. Nishonaliev, N.Shodiev, I.T. Choriev, N.S. Sayidaxmedov kabi olimlar texnologiya fanida xalq hunarmandchiligini fanlararo takomillashtirishga bag‘ishlangan tadqiqot ishlarini olib borishgan. Shuningdek, milliy hunarmandchilik sohalarini o‘rganishning ta’lim-tarbiyaviy asoslari S.Bulatov, C.Hasanov, I.Karimov, O.Xudoyorova, A.Turdialiev, D.Zohidova, O.Jamoliddinovalar ilmiy-tadqiqot ishlarida yoritilgan.

Shuningdek, rossiyalik olimlardan V.D. Jukov, S.T. Tolstov, V.M. Masson, A.T.Trenojkin, S.R. Rusakina, N.N. Baranskiy, N.S. Mironenko, N.S. Falkova, Yu.G. Lipes, A.G. Nizalievning xalq hunarmandchiligining tadbirkorlik komponentlarini axborot texnologiyalari asosida fanlararo takomillashtirishning ba’zi jihatlari bo‘yicha olib borgan tadqiqot ishlarini misol tariqasida keltirish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda talabalarni kashtachilik vositalarida kasb-hunarga yo‘naltirishda klaster metodidan foydalanish strategiyasi ilmiy asosda o‘rganildi. Tadqiqotda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, kasb-hunar ta’limining innovatsion yondashuvlari va kashtachilik san’atining metodik asoslari tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida quyidagilarni amalga oshirishni maqsad qilib qo‘yadi:

– kasb-hunar ta’limida kashtachilik san’atini o‘rgatish jarayoni, klaster metodining mohiyati va uning ta’lim jarayoniga ta’siri bo‘yicha ilmiy-adabiyotlar, maqolalar va metodik qo‘llanmalar tahlil qilish;

– kashtachilik bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarda klaster metodidan foydalanish strategiyasining samaradorligi tajriba-sinov asosida o‘rganildi;

– talabalar, o‘qituvchilar va kashtachilik ustalari o‘rtasida so‘rovnomalar va intervyular o‘tkazilib, klaster metodining ta’lim jarayoniga ta’siri haqida fikrlar olish;

– kashtachilik bo‘yicha an’anaviy o‘qitish usullari va klaster metodidan foydalanish natijalarini o‘zaro solishtish;

-ularni umumta'lim maktablari jarayonida va uni bitirgandan so'ng turli xil yo'nalishlardagi kasb-hunarlarga tayyorlash kabidir.

Texnologik jarayon tayyorgarligining vazifalarini amalga oshirishda ta'lim va tarbiyaning rivojlantiruvchilik, ta'limiylik, tarbiyaviylik, amaliylik, ishlab chiqaruvchilik, yaratuvchilik, kasbiy yo'naltirilganlik kabi jihatlar nazarda tutiladi.

Hozirgi davrda talabalarni texnologik jarayonga tayyorlashning vazifalari quyidagilardan iborat:

– kasb-hunar ta'limi jarayonida kashtachilik san'ati bo'yicha o'qitish.

– klaster metodidan foydalanish orqali talabalarni kashtachilik sohasiga yo'naltirishning pedagogik strategiyalari.

– mavzuga oid ilmiy va metodik adabiyotlar o'rganildi, tadqiqot metodlari belgilandi.

– klaster metodini kashtachilik bo'yicha ta'lim jarayoniga tatbiq etish va uning natijalarini kuzatish ishlari amalga oshirish

– olingan natijalar statistik jihatdan qayta ishlanish va xulosalar chiqarish.

Ushbu metodologik yondashuv tadqiqotning ishonchliligini ta'minlash bilan birga, klaster metodi orqali kashtachilik san'atiga qiziqishni oshirishning samarali yo'llarini aniqlashga xizmat qildi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot davomida talabalarni kashtachilik vositalarida kasb-hunarga yo'naltirish jarayonida klaster metodidan foydalanishning samaradorligi o'rganildi. Ushbu bo'limda eksperimental tadqiqot natijalari, ularning tahlili va ta'lim jarayoniga ta'siri ko'rib chiqiladi. Kashtachilik o'qitish jarayonida klaster metodining ahamiyati:

1.O'rganilgan nazariy va amaliy manbalarga asoslanib, klaster metodining quyidagi afzalliklari aniqlangan.

2.Ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi – talabalar kashtachilik jarayonida yangi dizaynlar yaratishga intiladi.

3.O'quv jarayonining interaktivligini oshiradi – talabalar kichik guruhlarda ishlash orqali o'zaro tajriba almashadi.

4.Amaliy ko'nikmalarni shakllantiradi – an'anaviy ta'limdan farqli ravishda, talabalar bevosita kashtachilik ishlarini bajarish orqali tajriba orttiradi.

5.Kasbga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi – talabalar o'z ishlari natijasini ko'rib, motivatsiyaga ega bo'ladilar.

Xulosa. Tadqiqot natijalari kashtachilik san'atiga yo'naltirilgan kasb-hunar ta'limini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishga asos yaratdi. Kelgusida klaster metodining boshqa amaliy san'at yo'nalishlarida qo'llanilishi, ularning ta'lim jarayonidagi natijadorligi va ta'sirchanligi chuqurroq o'rganilishi zarur. Shu bilan birga, ushbu metodni kasb-hunar ta'limi tizimida yanada kengroq joriy etish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shomirzayev M. K. Developing Educational Technologies In School Technology Education //Next Scientists Conferences. – 2022. – P. 17.

2. Shomirzayev M. K. Technology of Educational Process in School Technology Education // The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2020. – T. 2. – №. 07. – P. 221.

3. Shomirzaev M.X. O'quvchilarda xalq hunarmandchiligi kasblariga qiziqishni fanlararo shakllantirish omillari // Maktab va hayot. – T.: - 2019/4-son. – B. 23.

4. Shomirzaev M. X. Ta'lim texnologiyalaridan foydalanish muammolari // Zamonaviy ta'lim.T.: - 2019. №. 82. – B. 27.

5. Shomirzaev M. X. Texnologiya fanini o'qitishning samaradorligini oshirish yo'llari.O'quv-metodik qo'llanma//T.: Gold print nashr.-2019.– 56 b.

ZAMONAVIY TARBIYA USULLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI
MODERN EDUCATION METHODS AND THEIR EFFECTIVENESS

Omarova Sabina Serik qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Pedagogika fakulteti tyutori

ANNOTATSİYA

Zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilgan dars davr talabidir. Maqolada ilg'or pedagogning muvaffaqiyat siri, ta'lim sifatini oshirishda pedagogic texnologiyalarning ahamiyati, mazmuni, afzalliklari va maxsus ta'lim jarayonida pedagogic texnologiyalarning samarasi va ularni qo'llash bo'yicha uslubiy tavsiyalar keltirilgan. Tarbiya – shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon, insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora tadbirlar yig'indisi. Tarbiya qadim zamonlardan mavjud bo'lgan bo'lib, u insonning insoniy sifatlarini paydo qilgan. Tarbiya bor ekan inson bor, jamiyat bor. Shu o'rinda, jadidchi Abdulla Avloniyning: "Tarbiya biz uchun yo hayot –yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" – degan so'zlarini eslash o'rinli. Maqsad, mazmun, shakl kategoriyalari tarbiya jarayonining mohiyati(u nimaga qaratilgan, nimani to'ldiradi, nimaga yo'naltirilgan, qanday shaklda tugallanadi)ni ochib beradi. Biroq, tarbiya mohiyatini yoritishda qanday qilib tarbiyalash savoli bilan aloqador yana bir muhim kategoriya ham mavjud. Bu tarbiya metodi tushunchasidir. Tarbiya metodi tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg'ulari va xulqiga ta'sir etish usullari yig'indisidir. Metodlar davr o'tishi bilan rivojlanib borishni talab etadi. Bir metodni har bir pedagog o'ziga xos yondashuv asosida qo'llaydi bu esa usullarning paydo bo'lishiga olib keladi. Demak, tarbiya metodlarining amaliyotda qo'llanishi jarayonida pedagogning yondashuvi yangi tarbiya usullarining paydo bo'lishiga asos bo'ladi. Tarbiya usullarini yaratish, avvalo, pedagogning pedogogik mahorati va tajribasi natijasida paydo bo'ladi. Ushbu maqolada "Tarbiyaning umumiy metodlari" xususida so'z yuritilib, metodlarning amaliy ahamiyati, turlari, qo'llanish usullari va vositalari haqida ma'lumotlar berilgan. Metodlarning amaliy ahamiyati atroflicha muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: Pedagogik texnologiyalar, maxsus ta'lim, dars, pedagog, samaradorlik, ta'lim va tarbiya, imkoniyati cheklangan bolalar.

ABSTRACT

A lesson enriched with modern technologies is the demand of the times. The article presents the secret of the success of an advanced pedagogue, the importance, content, advantages of pedagogical technologies in improving the quality of education, the effectiveness of pedagogical technologies in the special education process, and methodological recommendations for their use. Education is a practical pedagogical process aimed at forming certain physical, mental, moral, and spiritual qualities in a person, a set of measures taken to ensure that a person has the characteristics necessary for living in society. Education has existed since ancient times, and it has created the human qualities of a person. As long as there is education, there is a person, there is a society. At this point, it is appropriate to remember the words of Jadidist Abdulla Avloni: "Education for us is a matter of either life or death, or salvation - or destruction, or happiness - or disaster." The categories of purpose, content, and form reveal the essence of the educational process (what it is aimed at, what it fills, what it is aimed at, how it is completed). However, there is another important category related to the question of how to educate in the clarification of the essence of education. This is the concept of education method. The method of

education is a set of ways to influence the mind, will, feelings and behavior of the students. Methods need to evolve over time. A method is used by each pedagogue based on his own approach, which leads to the emergence of methods. So, during the practical application of educational methods, the approach of the pedagogue becomes the basis for the emergence of new educational methods. The creation of educational methods is primarily a result of the pedagogic skill and experience of the pedagogue. This article talks about "General methods of education" and provides information about the practical importance of methods, types, methods of use and tools. The practical significance of the methods is discussed in detail.

Key words: Pedagogical technologies, special education, lesson, pedagogue, efficiency, education and training, children with disabilities.

KIRISH

Bugungi kunda individual ta’lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Har bir o‘quvchining qobiliyati va ehtiyojlariga mos keluvchi ta’lim va tarbiya tizimini yaratish inklyuziv ta’lim asoslaridan biridir. Shuning uchun individual tarbiya yondashuvlarini inklyuziv ta’lim bilan uyg‘unlashtirish zarur. Ushbu maqolada zamonaviy tarbiya usullari, ularning samaradorligi va inklyuziv ta’limga integratsiyasi haqida so‘z yuritamiz.

Kun sayin rivojlangan demokratik davlat darajasiga erishayotgan mustaqil mamlakatimizda uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, ta’lim sohasini yangi sifat bosqichiga ko’tarishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish va faol foydalanish orqali ta’lim samaradorligini oshirish bugungi kundagi o’zining ijobiy yechimini topayotgan muhim masalalardan biridir. Ta’lim jarayonining samadorligi undagi “pedagog-moddiy muhit-o’quvchi” faoliyatining faol tashkil etilishiga bog’iqdir. Bu esa o’z navbatida ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan izchil va samarali foydalanish orqali amalga oshiriladi. Ta’lim sohasida bu kabi islohotlarni amalga oshirish pedagoglar zimmasiga ulkan mas’uliyatli vazifani yuklaydi ya’ni bugungi kun pedagogi zamon talablariga to’liq javob bera olishi shart. Yangiliklarni ta’lim jarayoniga olib kirish va joriy etish, o’z ustida ishlash pedagogik faoliyatini yangilab turish har bir pedagogning asosiy vazifasidir. Ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning bosh maqsadi zamonimiz davomchilarini intellektual va ma’naviy-axloqiy barkamol avlod ruhida tarbiyalashdan iboratdir. Bilimli pedagog ta’lim jarayonida o’qitishning zamonaviy usullarini darsning didaktik vazifasi va o’quvchilarning imkoniyatidan kelib chiqqan holda tanlaydi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari:

Tadqiqot maqsadi talabalarning individual faoliyatini boshqaradigan yondashuvlar asosida ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqishdir.

Zamonaviy tarbiya usullari va ularning samaradorligi

Quyida zamonaviy tarbiya jarayonida qo‘llaniladigan eng samarali metodlar keltirilgan.

ILMIY ADABIYOTLAR VA METODIKA TAHLILI

Pedagogik texnologiya tushunchasini izohlashda texnologiya jarayonini asos qilib olish mumkin. “Texnologiya” tushunchasi texnikaviy taraqqiyot bilan bog’liq holda fanga 1872 yilda kirib keldi va yunoncha ikki so’zdan “texnos”-san’at, hunar va “logos”-fan so’zlaridan tashkil topib, “hunar fani” ma’nosini anglatadi. Shu tushunchadan kelib chiqqan holda pedagogik texnologiya- bu o’qituvchining o’qitish vositalari yordamida o’quvchilarga muayyan sharoitda ta’sir ko’rsatishi va aks ta’sir mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini jadal shakllanishini kafolatlaydigan jarayondir. Aslini olganda ham bu tushunchaga berilgan ta’riflar soni pedagogik adabiyotlarda nihoyatda ko’pdir.

Hozirgi kunda ayrim pedagoglar metodikani ko'p hollarda texnologiyadan ajrata olmayaptilar. Shu boisdan bu tushunchalarni bir biridan farqlash juda muhimdir. Metodika o'quv jarayonini tashkil qilish va o'tkazish bo'yich tavsiyalar majmuasidan iborat. Pedagogik texnologiya o'qitish jarayonining o'zaro bog'liq qismlarini tashkiliy jihatdan tartibga keltirish, bosqichlarini qurish, joriy etish shartlarini aniqlash, mavjud imkoniyatlarni hisobga olgan holda belgilangan maqsadga erishishni ta'minlaydi. Pedagogik texnologiya o'qituvchining kasbiy faoliyatini yangilovchi va ta'limda yakuniy natijani kafolatlaydigan muolajalar yig'indisidir. Texnologiya o'zining egiluvchanligi, natijalarning turg'unligi, samaradorligi, oldindan loyihalanish zarurati bilan metodikadan farqlanib turadi. Rus olimasi N.F.Talizina texnologiyani "belgilangan o'quv maqsadiga erishishning oqilona usullarini aniqlashdan iborat" deb tushuntiradi. Akademik V.P.Bespalko "Pedagogik texnologiya- bu o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidir" deb ta'riflaydi. Eng asosiysi Edgaro Fora "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - (3) III/2020 ISSN 2181-063X 529 http://oac.dsmi-qf.uz "zamonaviy texnologiya ta'limni modernizatsiyalashda xarakatlantiruvchi kuch" ekanligini e'tirof etdi. Pedagogic faoliyat Zamonaviy pedagogic texnologiyalar orqali muttasil tarzda rivojlanib boradi, chunki u ta'lim sohasida maqsadga erishish va shaxsni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan maqsadli faoliyatdir. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ikki turga ajratish mumkin: 1.Ta'lim texnologiyalari: "Aqliy hujum", "Tarmoqlash", "Labirint", "Charxpalak", "Muloqot", "Loyiha", "Bahs-munozara va musobaqa", "Dumaloq stol" kabi texnologiyalar kiradi. 2.Tarbiya texnologiyalari: "KBI"-kuzatish, baxslashish, ishontirish, "I.M"-ishontirish maktabi, "J.I.I"- jamoaviy ijodiy ishlar, "Tanqid qilishni o'rgating", "Kurator va jamoa" kabi texnologiyalar kiradi.

MATERIALLAR VA METODLAR:

1. Differensial yondashuv

Har bir o'quvchining qobiliyat darajasi va shaxsiy ehtiyojlariga qarab turli xil tarbiya metodlari qo'llaniladi. Bu usulning afzalliklari:

- ✓ O'quvchilarning qiziqishlarini hisobga oladi;
- ✓ Har bir bolaning rivojlanish sur'atiga moslashadi;
- ✓ Shaxsiy yondashuv orqali ta'lim samaradorligi oshadi.
- ✓ 2. Innovatsion texnologiyalar va raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish

Zamonaviy texnologiyalar orqali o'quvchilarning e'tiborini jalb etish va ularda mustaqil fikrlashni rivojlantirish mumkin. Masalan:

- ✓ Interaktiv ta'lim dasturlari orqali bilim berish;
- ✓ Virtual reallik (VR) va sun'iy intellekt (AI) asosida o'quv jarayonini tashkil etish;
- ✓ Elektron darsliklar va multimedia materiallaridan foydalanish;

✓ Gamifikatsiya (o‘yinlashtirish) texnologiyalaridan foydalanish, bu esa o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi.

3. O‘yinli tarbiya metodlari

Pedagogik o‘yinlar orqali bolalarda mantiqiy fikrlash va ijtimoiy ko‘nikmalar shakllantiriladi. Bu usul:

✓ Bolalarning ijodiy fikrlash qobiliyatini oshiradi;

✓ Muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi;

✓ O‘quv jarayonini qiziqarli qiladi.

4. Refleksiya va muhokama

O‘quvchilarning dars jarayonida o‘z fikrlarini erkin bildirishlari va muhokama yuritishlari ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Bu jarayonda kritik fikrlash va muvaffaqiyatsizlikdan o‘rganish tamoyillari qo‘llanilishi muhim.

5. Loyihaviy ta’lim

O‘quvchilar muayyan mavzular bo‘yicha loyiha yaratib, amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazishlari orqali chuqur o‘zlashtirishga erishadilar. Bu metod:

Jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi;

O‘quvchilarga real hayotga yaqin bilim va tajriba beradi;

Muammolarni hal qilish qobiliyatini shakllantiradi.

6. Emosional intellektni rivojlantirish

O‘quvchilarning hissiy va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish ham tarbiya jarayonining muhim qismi hisoblanadi. Bu yo‘nalishda quyidagi elementlar qo‘llaniladi:

✓ Empatiya mashqlari;

✓ Ijtimoiy-emosional ta’lim (SEL) dasturlari;

✓ Jamoaviy muloqot va konfliktlarni hal qilish ko‘nikmalari.

✓ Individual tarbiyani inklyuziv ta’lim bilan bog‘lash

Inklyuziv ta'lim har bir bolaning imkoniyatlarini hisobga olib, ularning ta'lim jarayonida teng ishtirok etishini ta'minlaydi. Individual tarbiya bilan inklyuziv ta'limni bog'lashning muhim jihatlari:

- ✓ Har bir bola uchun moslashuvchan ta'lim rejasi tuzish;
- ✓ O'quvchilar bilan individual ish olib borish;
- ✓ Psixologik va pedagogik yordam ko'rsatish;
- ✓ Nogironligi bo'lgan bolalar uchun maxsus o'quv materiallari yaratish;

Inclusive Design (inklyuziv dizayn) tamoyillaridan foydalanish, ya'ni barcha bolalar uchun qulay o'quv muhiti yaratish.

METODLAR QO'LLANILISHI VA NATIJALAR:

Maxsus ta'lim tizimida ham dars jarayonlarda bu kabi pedagogic texnologiyalardan faol foydalaniladi. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish jarayonida hamda korreksion-rivojlantiruvchi tarbiya faoliyatida ham pedagogik texnologiyalarni qo'llash ijobiy samara beradi. Chunki imkoniyati cheklangan bolalar ham an'anaviy darsdan ko'ra interfaol uslublarni o'z ichiga qamragan, pedagogik texnologiya va texnik vositalar bilan jihozlangan darslarga ko'proq qiziqishadi. Ixtisoslashtirilgan maxsus ta'lim muassasalarida faoliyat yuritadigan pedagoglar ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishda bir qancha talablarni e'tiborga olishlari zarur.

MUHOKAMA

Yetarli darajada didaktik vositalar bilan qurollangan va ulardan samarali, o'z o'rnida mahorat bilan foydalana olgan pedagog har doim malakali, ilg'or pedagog hisoblanadi. Yangi pedagogik texnologiyalar o'qituvchi va o'quvchilarni erkin fikrlashga, bilim boyligini oshirishga, dunyoqarashini shakllantirishga, tafakkurini rivojlantirishga, xotirani kuchaytirishga, fanga bo'lgan qiziqishlarini orttirishga, mustaqil ishlash qobiliyatini o'stirishga, izlanishga va eng muhimi o'z ustida ishlashga da'vat etadi. Chunki pedagogic texnologiya ta'lim jarayoniga yangicha yondashuv bilan qarashni, o'qituvchi va o'quvchilarning sifat belgilarini oshirishni maqsad qiladi. Bu jarayonlar shubxasiz kelajakda ham davom etadi, chunki pedagogik texnologiyalar zamon talabiga hamohang tarzda yaratilaveradi

XULOSA

Zamonaviy tarbiya usullarini individual yondashuv bilan uyg'unlashtirish o'quvchilarning bilim va tarbiya sifatini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, inklyuziv ta'lim tizimida individual tarbiyaviy yondashuvlardan foydalanish barcha bolalarning teng huquqli ta'lim olishlariga imkon yaratadi. Pedagoglar zamonaviy texnologiyalar va innovatsion metodlarni ta'lim-tarbiya jarayoniga integratsiya qilish orqali yanada samarali natijalarga erishishlari mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Vigotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
2. Gardner, H. (1983). Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. Basic Books.
3. UNESCO (2020). Inclusive education: The way of the future. UNESCO Publishing.

4. Dewey, J. (1916). Democracy and Education. Macmillan.

5. Freire, P. (1970). Pedagogy of the Oppressed. Continuum.

6. Tomlinson, C. A. (2001). How to Differentiate Instruction in Mixed-Ability Classrooms. ASCD.

7. Goleman, D. (1995). Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. Bantam Books.

8. Shank, P. (2020). Practice and Feedback for Deeper Learning. ATD Press.

9. Rose, D. H., & Meyer, A. (2002). Teaching Every Student in the Digital Age: Universal Design for Learning. ASCD.

INTERFAOL TA'LIM METODLARINI TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYALARI

ТЕХНОЛОГИИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ ОБРАЗОВАНИЯ

TECHNOLOGIES FOR IMPROVING INTERACTIVE EDUCATIONAL METHODS

MUHAMADIYEVA NARGIZA KUDRATOVNA

Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Senior Lecturer at Termez State University.

ANNOTATSIYA

Bugungi kunda ta'lim metodikasinini takomillashtirish, yangi ta'lim metodlarini ishlab chiqish ta'lim sohasidagi asosiy maqsadlardan biri sanaladi. Ta'limda interfaol metodlarni takomillashtirish va uni ta'lim jarayoniga joriy etish maqsadida "Detaldan buyumgacha", "Smart step-aqlli qadam" kabi interfaol ta'lim texnologiyalari takomillashtirildi. Ushbu interfaol metodlar amaliy mashg'ulotlar uchun mo'ljallangan bo'lib, amaliy mashg'ulotlarni samarali tashkil etish maqsadida foydalaniladi.

Kalit so'zlar: Metod, metodika, takomillashtirish, interfaol, mashg'ulot, o'qitish, ta'lim, texnologiya, ijodkorlik, "Smart step - aqlli qadam", "Detaldan buyumgacha", kompetensiya.

АБСТРАКТНЫЙ

Сегодня совершенствование методики обучения, разработка новых методов обучения является одной из основных целей в сфере образования. В целях совершенствования интерактивных методов обучения и внедрения их в учебный процесс усовершенствованы такие интерактивные образовательные технологии, как «От детали к предмету», «Умный шаг». Данные интерактивные методы предназначены для практических занятий и используются для эффективной организации практических занятий.

Ключевые слова: Метод, методология, совершенствование, интерактив, обучение, обучение, образование, технология, креативность, «Разумный шаг – умный шаг», «От детали к продукту», компетентность.

ABSTRACT

Today, improving teaching methods and developing new teaching methods are one of the main goals in the field of education. In order to improve interactive methods in education and introduce them into the educational process, interactive educational technologies such as "From Detail to Item", "Smart Step" have been improved. These interactive methods are intended for practical training and are used for the effective organization of practical training.

Keywords: Method, methodology, improvement, interactive, training, education, technology, creativity, "Smart step", "From detail to product", competence.

Kirish. Yoshlarga sifatli ta'lim va tarbiya berish ularni komillik sari yetaklaydi. O'quvchilarning risoladagidek bilim olishi, olgan bilimlarini mustaqil hayoti davomida qo'llay olishi uchun ularda mustaqlik, faollik, ijodkorlik kabi ijobiy xislatlarni rivojlantirish zarur. Ushbu tadqiqot ishida amaliy mashg'ulotlarga doir takomillashtirilgan ta'lim texnologiyalari ta'lim tizmini samarali tashkil etishda muayyan darajada xizmat qildi.

Metod va usullarning yig‘indisidan iborat bo‘lgan pedagogik jarayon metodika deb ataladi. Metodika ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan harakatni amalga oshirishning o‘qitish va o‘rgatish yo‘li. Bu ikki tushuncha o‘qitish bu o‘rgatish, o‘rgatish esa ularning birgalikdagi faoliyati. O‘qitish metodikasining metodologik asoslari bilim nazariyasi bo‘lib, umumiy qonuniyatlari, inson atrofida sodir bo‘layotgan, uni o‘rab turgan dunyo shakli va metodlarni o‘rganadi. Pedagogik jarayon o‘qituvchi va o‘quvchi bilimlarini, ko‘nikma va malakalarini amaliyotda qo‘llashni o‘z ichiga qamrab olgan jarayon.

Adabiyotlar. Ta’lim-tarbiya sohasidagi O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida “Uzluksiz ta’lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, o‘qitish metodikasini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilgan. Davlat ta’lim standartlari (DTS)da ko‘zda tutilgan baholash mezonlarini ishlab chiqish orqali ta’lim sohalarini sifat jihatdan jadal yangilash, o‘quvchilarning kreativ faoliyatlarini rivojlantirish, professional ta’limni joriy etish va texnologiya ta’limida hunarmandchilikni rivojlantirish kabi yo‘nalishlarga katta e’tibor qaratilmoqda, yoshlarni kasb-hunarga o‘qitishni takomillashtirish va ishlab chiqarishning ko‘plab jarayonlarini avtomatlashtirishning jadal rivojlanayotganligini inobatga olgan holda o‘quv-ishlab chiqarish majmualarida foydalaniladigan kasb-hunar ta’limining o‘quv dasturlarini qayta ko‘rib chiqish va modernizatsiyalash” ustivor vazifa qilib belgilab olingan [1].

Tadqiqot metodologiyasi. Hozirgi kunda ta’lim metodikasinini takomillashtirish, yangi ta’lim metodlarini ishlab chiqish ta’lim sohasidagi asosiy maqsadlardan bo‘lmoqda. Interfaol usullarni qo‘llash natijasida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o‘z fikrini bayon qilish va ularni asoslagan holda himoya qilish, sog’lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko‘nikmalari shakllanib, rivojlanadi.

Pedagogik texnologiya, ta’im jarayonini majmualar nazariyasida tashkil qilish. Innovatsion pedagogik texnologiyalardan faol foydalangan holda tizimli ishlar amalga oshirilib, o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini va o‘quv faolligini oshiriladi. Interfaol metodlar o‘quvchilarning bilimlarni chuqur va doimiy o‘zlashtirishini ta’minlaydi, ularning tafakkuri, xotirasi va nutqini rivojlantiradi, halollik, mehnatsevarlik va vijdonli munosabatlarni tarbiyalashga xizmat qiladi [2].

Ta’lim metodikasini takomillashtirish maqsadida “Detaldan buyumgacha”, “Smart step-aqlli qadam” interfaol ta’lim texnologiyalari takomillashtirildi.

Zamonaviy mashg‘ulotlarni tashkil etishda interfaol ta’lim texnologiyalarining ta’lim jarayoniga kirib kelishini taqoza etadi. Interfaol metodlar o‘quvchilarni mustaqil fikirlaydigan, erkin va izlanuvchan faol tarbiyalash jarayonida bir qancha afzalliklarga egaligi bilan muhim ahamiyatga ega. Ta’lim bu o‘qituvchi (o‘rgatuvchi) va o‘quvchi (o‘rganuvchi) o‘rtasidagi munosabatdir. Ta’limda o‘qituvchining faolligi ustun bo‘lgan bo‘lsa, zamonaviy ta’lim texnologiyalarini qo‘llashda esa o‘quvchining faolligi ustun bo‘ladi. Innovatsiya ilmiy-texnika yutuqlari va ilg‘or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo‘llanilishi tushiniladi.

Interfaol ta’lim texnologiyalari ta’lim jarayonida o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi faollikni oshirish orqali o‘quvchilarning bilimlarini va o‘zlashtirishlarini faollashtirishga, ijobiy sifatlarini o‘stirishga xizmat qiladi. Interfaol ta’lim texnologiyalarini qo‘llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Innavatsion ta’lim texnologiyalari qo‘llanganda ta’limning quyidagi mezonlari norasmiy bahs-munozalarning oshishi, amaliy kreativ faoliyatning osonlashuvi, o‘quv materiallarini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyatining kengayishi, o‘quvchilarning tashabbuskorligi ortishi, guruh va jamoa bo‘lib topshiriqlar va loyiha ishlarini bajarishga qiziqishlarining ortishi kabilar faollashadi. Natijada, ta’lim sifatining oshishiga erishiladi.

Tahlil va natijalar. “Detaldan buyumgacha” deb nomlangan metod aynan amaliy mashg‘ulotlar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, mavzuga doir bilimlar berilib, buyumni tayyorlash ketma-ketligi bilan texnologik

xarita orqali tanishadi. O‘quvchilarda vazifalarni ijodiy yondoshib bajarish ko‘nikmasi shakllanadi. Buyumni tayyor holatga keltirib, uning sifatini tahlil qila olish malakasi hosil bo‘ladi.

O‘quvchilar vazifani bajarishida faolligi va ijodkorligi oshadi. Usbu ta’lim texnologiya yakka, guruh bo‘lib amaliy ish bajarishga mo‘ljallangan.

“Smart step - aqlli qadam” ta’lim texnologiyasi musobaqa usulida bo‘lib, amaliy mashg‘ulotlar uchun mo‘ljallangan. Bu usulda o‘quvchilarga berilgan vazifalar sodda yechimlardan boshlanib, keyingi yechimlari va vazifalari murakkablashib boriladi. Keyingi beriladigan vazifalarga bittadan element qo‘shilib boriladi. Natijada, bir necha qadamdan keyin takomillashtirilgan mahsulot hosil bo‘ladi. O‘quvchilarning esa ijodkorligi rivojlanadi.

Hozirgi kunda ta’lim oluvchilarning mustaqil bilim olishi va amaliy faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Pedagoglarning asosiy maqsadi o‘quvchilarning bilish qobiliyatlarini rivojlantirish va ijodiy salohiyatini o‘stirishdan iborat. Ta’limda shaxsiy natijalarga erishish, ta’lim oluvchilarning ta’limga moslashish, resurslarni rivojlantirish, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonini amalga oshirishda o‘quvchlarga alohida ta’lim dasturlari, yo‘l xaritalarini tuzishni talab etadi [3].

Xulosalar. Ta’lim jarayonining subeykti sifatida ta’lim oluvchilar va ta’lim beruvchilar qaraladi. Obyekt sifatida esa o‘qitish vositalari va o‘quv faoliyati instrumentlari, metodikalari, moddiy - texnik bazasi, pedagogik faoliyatni boshqarish sohalari, kommunikatsiya usullari (tashkiliy - boshqaruv, tushuntirish - motivatsion, javob -muomala, texnik, hissiy) hisoblanadi. Obyekt axborot va o‘quv harakatlarini tashuvchilar bo‘lsa, subyekt mazkur ma’lumotlarni o‘zlashtiradi va ongida qayta ishlab, o‘quv faoliyati jarayonini o‘zgartirib, o‘zining dunyoqarashidagi qadriyatlar tizimi va mazmunida, e’tiqodida, salohiyatida va boshqa shaxsiy xislatlariga tayanib yangilikka aylantiradi.

Ta’limda modellashtirish, konstruksiyalash, programmalashtirish, 3D loyihalashtirish kabilar fanga kirib kelmoqda. Ta’limdagi bu o‘zgarishlar o‘quvchilarning ijodkorligini rivojlantiradi va ijodiy yondoshuvlar asosida ijodkorlik ko‘nikmalarini, malakalarini etnomadaniyat lokal turlari asosida boyitadi. Buning uchun ta’limda ilg‘or ta’lim metodlarini va innovatsion hunarmandchilikning variativ komponentlarini rivojlantirish ta’lim texnologiyalari loyihasini joriy etish va tatbiq qilish lozim. O‘quvchilarning ixtirolar va turli loyihalar tayyorlashlarida ushbu ta’lim texnologiyalarning o‘rni katta ahamiyatga ega. Hozirgi kunda ta’limda electron axborotlardan foydalanish imkoniyatlari kengaymoqda. “Texnologiya” fanini Jahon mehnat bozoriga malakali mutaxasislar tayyorlashning asosiy tashkil etuvchisi deb qaraydilar”. O‘quvchilarni hozirgi kun zamon talablariga va ertangi kun texnologik o‘zgarishlarga javob bera oladigan qilib tarbiyalash “Texnologiya” fanidan bugungi kunda texnologiyalar transferi sifatida o‘qitishni talab etadi. Texnologiyalar transferi tushunchasi keng ma’noda yuz berishi mumkun bo‘lgan texnologik o‘zgarishlarga tayyor texnologik qurollangan o‘quvchilarni tayorlash jarayoni [4].

FOYDALANİLGAN ADABİYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF- 5712-son “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni.

2. Axmedov Q.M., Ismoilov O.A. Yangi pedagogik texnologiyalar va ularni joriy qilish muammolari. – Toshkent. Fan va texnologiya, 2012 y. - 36 b.

3. Muhamadiyeva N.Q. Texnologiya ta'limida milliy hunarmandchilikning variativ komponentlarini takomillashtirish texnologiyalari. Uslubiy qo'llanma. – T. TerDU NMM, 2022 y. -115 b.
4. Muhamadiyeva N.Q. Tikuvchilik va pazandachilik jihozlari. O'quv qo'llanma. – T. Publishing high future, 2024 y. -128 b.

KASBIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA O'QUVCHILARNING KREATIVLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Maftuna Abdulla qizi Raxmonova
Professional ta'limni rivojlantirish instituti tayanch doktorant
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0007-5424-6072

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik muammolari, kreativlikning mohiyati, kreativlik atamasi, o'quvchilarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish yo'llari hamda shakllari, shu bilan birga o'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish metodlarini takomillashtirish tendensiyalari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: kreativlik, individual qobiliyat, aqliy salohiyat, kreativ tafakkur, innovatsion, ijodiy fikrlash

ABSTRACT

This article involves the pedagogical issues of enhancing students' creative abilities, the essence of creativity, the term creativity, ways and forms of critical thinking, creative thinking in students, as well as trends in improving methods for developing students' creative abilities

Keywords: creativity, personal skill, mental skill, creative logic, innovative, creative thinking

KIRISH

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida o'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish muhim vazifalardan biriga aylangan. Chunki bugungi mehnat bozori faqat texnik bilimlarni emas, balki ijodiy fikrlash va muammolarni innovatsion yondashuv bilan hal qilishni ham talab qiladi.

Ta'limning qaysi sohasini olmang, o'quvchilarda tezlikda o'zgarib borayotgan jamiyat o'zgarishlariga ko'nikish qobiliyatining yuqoriligi va moslashuvchanligini inobatga olgan holda kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish tadqiqotimizning dolzarbligini bildiradi.

YUNESKO kreativlik tushunchasiga tarif berib "erkin ijod qilish va kreativlik – sohalar rivojining asosidir" deb e'tirof etdi [5]. Jahon miqyosida pedagoglarning ijodiy salohiyati, kasbiy kompetentligini va kreativligini rivojlantirish, axborot – kommunikatsiya texnologiya va dasturlari orqali o'qitishning an'anaviy va zamonaviy metodlaridan kompleks foydalanish orqali ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishning intellektual resurslarini yaratish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.10.2024-yildagi "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora - tadbirlari" to'g'risidagi PF-158-sonli Farmonida, "Kasbiy ta'lim sohasida institutsional yaxlitlikni ta'minlash va boshqaruv tizimi samaradorligini oshirish, xalqaro ta'lim dasturlarini joriy etish hamda ichki va tashqi mehnat bozori talablariga mos raqobatbardosh o'rta bo'g'in kadrlarni tayyorlash tizimini isloh qilish maqsadida" bir qancha ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Shunga asosan interfaol o'qitish metodlari asosida o'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi [4].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O‘quvchilarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to‘laqonli anglash uchun dastlab kreativlik tushunchasining ma’nosini tushunib olish talab etiladi.

Kreativlik – bu yangicha fikrlash, o‘quvchilarning o‘z fikrlarini erkin ifodalash, noodatiy yondashuvlarni ishlab chiqish va ijodiy tafakkur qilish, muammolarni original yondashuvlar orqali hal qilish va innovatsion yechimlar topish qobiliyatidir.

Tadqiqotchi K.Yusupova kreativlikni quyidagicha ifodalagan.

Kreativlik – vaziyatni turli jihatdan baholash, nostandart qarorlar qabul qilish va o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashish imkonini beradi. Kreativlik qobiliyati rivojlangan inson ijodkorga aylanadi. U g‘oyalarni ishlab chiqishi va boshqa odamlarning tashabbuslarini rivojlantirishi mumkin. Qiyinchiliklarni yengish uning uchun ajoyib jumboqqa aylanadi va bir vaqtning o‘zida bir nechta yechimlarni berish imkoniyatini yaratadi. Yechimlarning ko‘pligi ular orasidan eng mukammlini tanlash imkoniyatini beradi [3].

Tadqiqotchi G. Ibragimova interfaol o‘qitish jarayonida ta’lim oluvchilarda kreativlikning rivojlantirish bosqichlarini quyidagicha ifodalab o‘tgan:

1. Reproduktiv-tavakkalchilik bosqichi. Bu bosqich ta’lim oluvchilarda kreativ faoliyat, kreativ faollik va ijodkorlikka bo‘lgan moyillikni qaror toptirish, ta’limdagi innotvasion texnologiyalarning mohiyatini anglash va yangi g‘oyalarning tug‘ilishi, shakllanishi bilan tavsiflanadi.


2. Ijodiy-izlanish tadqiqotchilik bosqichi. Ta’lim oluvchilardagi tadqiqotchilik, ijodiy faollik, nostandart tafakkur, bilish mustaqilligi, improvizatsiya, yangilik yaratish ko‘nikmalarining shakllanishi bilan belgilanadi.


3. Kreativlik, novatorlik bosqichi. Yaratilgan yangilikni amalda qo‘llash, baholash, tahlil qilish, ommalashtirish va uni keng tatbiq etish hamda istiqbolga yo‘naltirilgan strategik rejalarni tuzish bilan bog‘liq jarayonlarni o‘z ichiga oladi [2].

Tadqiqotchi T.Aliboyev innovatsion ta’lim muhitida o‘quvchilarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish natijasidagi tendensiyalar haqida quyidagicha fikr bildirgan va muhim yondashuvlarni keltirib o‘gan.

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirishda uni fikrlashga, ma’lumotlarni umumlashtirishga, tahlil etishga, turli murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishga yoshlikdan ogohlantirib borish maqsadga muvofiqdir. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quv fanlari o‘quvchilarda kreativlikni rivojlantirishda o‘ziga xos o‘rin tutadi. Zero, ijtimoiy, gumanitar, tabiiy yoki amaliy xarakterga ega bo‘lishdan qat’iy nazar o‘quv fanlari bo‘yicha tashkil etiladigan mashg‘ulotlarda o‘quvchilarga beriladigan topshiriqlar ularni fikrlashga, o‘ylashga, mantiqiy tafakkur yuritish, o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha orginal fikrlarni ilgari surishga undaydi [1].

I-grafik





1-grafik. Texnologiya darslarida o‘quvchilarning kreativlik sifatlarini rivojlantirishga bo‘lgan muhim yondashuvlar

Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchining ijodiy salohiyati muammoga mustaqil qarash, qarama-qarshiliklar, tanqidiy fikrlash, har qanday muammolarni noana’naviy usulda tahlil qilish qobiliyati, analitik fikrlash, ular uchun yechim topish qobiliyati, bilgan metodlarini yangilariga birlashtira olish kabi ko‘nikmalarda namoyon bo‘lishi mumkin.

MUHOKAMA

Kasbiy ta’lim tashkilotlarida o‘quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishda bir qator pedagogik muammolar mavjud:

- An’anaviy ta’lim metodlarining ustunligi

An'anaviy ta'lim metodlarining ustunligi ta'lim sifatiga quyidagi salbiy ta’sirlarni ko‘rsatishi mumkin:

- Fikr yuritish va ijodkorlikni cheklash – An’anaviy usullar, ayniqsa, yodlash va takrorlashga asoslangan metodlar, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va ijodiy yondashuvini rivojlantirishga kamroq imkon beradi.
- Faol ishtirokning yetishmasligi – O‘qituvchi markazida tashkil etilgan darslarda o‘quvchilar passiv tinglovchi bo‘lib qoladi, bu esa bilimlarning mustahkam o‘zlashtirilishiga to‘sqinlik qiladi.
- Shaxsiy yondashuvning yetishmovchiligi – Har bir o‘quvchining individual ehtiyoj va qiziqishlari e’tiborga olinmagani sababli, ba’zi o‘quvchilar bilim olish jarayonida qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.
- Tanqidiy fikrlashning rivojlanmasligi – An’anaviy ta’lim metodlari ko‘pincha tayyor bilimlarni berishga yo‘naltirilgan bo‘lib, o‘quvchilar o‘z fikrini shakllantirish va mustaqil tahlil qilish ko‘nikmalarini kamroq rivojlantiradilar.
- Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatining cheklanishi – Ko‘plab an’anaviy metodlar innovatsion texnologiyalar va interaktiv usullarga kamroq e’tibor qaratadi, bu esa hozirgi axborot asrida o‘quvchilarning raqamli savodxonligini rivojlantirishga to‘sqinlik qilishi mumkin.
- Motivatsiyaning pasayishi – Bir xil uslubda olib boriladigan darslar o‘quvchilarning qiziqishini yo‘qotishi, ularni faqatgina baho olish uchun o‘qishga majbur qilishi mumkin.

- O‘quv dasturlarining moslashuvchan emasligi

O‘quv dasturlarining moslashuvchan emasligi dars jarayonlarini takomillashtirishga bir nechta salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin:

- Individuallashtirishning cheklanishi – Har bir o‘quvchining o‘ziga xos qobiliyatlari, qiziqishlari va o‘rganish sur’ati bor. Moslashuvchan bo‘lmagan dasturlar esa barcha o‘quvchilarga bir xil yondashuvni talab qilib, ularning ehtiyojlarini inobatga olmaydi.

- O‘qituvchilarning ijodiy yondashuvini cheklash – Agar dasturlar qat’iy bo‘lsa, o‘qituvchilar darsni o‘quvchilarga moslashtira olmaydi, o‘z usullarini sinab ko‘rish imkoniyatidan mahrum bo‘ladi. Bu esa darslarni zerikarli va bir xil shaklda o‘tishiga sabab bo‘ladi.
- Zamonaviy bilim va texnologiyalarni integratsiya qilishda qiyinchilik tug‘dirishi – Fanlar tez rivojlanib borayotgan bir paytda, qat’iy dasturlar yangi bilimlar, zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarni o‘quv jarayoniga tezda tatbiq etish imkoniyatini cheklaydi.
- O‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va ijodkorligini cheklashi – Moslashuvchan bo‘lmagan dasturlar odatda tayyor bilimlarni berishga yo‘naltirilgan bo‘ladi, natijada o‘quvchilar faqat yod olishga majbur bo‘lib, mustaqil fikrlash va kreativ yondashuv rivojlanmaydi.
- Dars jarayonining motivatsiyasiz bo‘lishiga sabab bo‘lishi – O‘quv dasturlarining qat’iyligi o‘quvchilarni darslarga bo‘lgan qiziqishidan mahrum qilishi mumkin. Chunki ular o‘zlari uchun qiziqarli bo‘lgan mavzularni chuqurroq o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lmaydi.
- Haqiqiy hayot bilan bog‘liqlikning sustligi – Hayotiy muammolarni hal qilish, kasb-hunar tayyorgarligi va jamiyat ehtiyojlarini inobatga olmagan qat’iy dasturlar o‘quvchilarni real dunyo bilan bog‘lay olmaydi.

➢ O‘qituvchilarning kreativ ta’limga tayyorgarligining sustligi

O‘qituvchilarning kreativ ta’limga tayyorgarligining sustligi ta’lim jarayonining ortda qolishiga bir necha jihatdan salbiy ta’sir ko‘rsatadi:

- An’anaviy va zerikarli ta’lim usullari – O‘qituvchilar kreativ yondashuvlarni qo‘llay olmasa, darslar quruq va zerikarli bo‘lib qoladi. Bu esa o‘quvchilarning qiziqishining pasayishiga, motivatsiyasining susayishiga olib keladi.
- Tanqidiy va mustaqil fikrlashning rivojlanmasligi – Zamonaviy ta’lim kreativ yondashuvlarga asoslanadi. Agar o‘qituvchilar bunday metodlarni qo‘llay olmasa, o‘quvchilarning tahliliy fikrlashi, muammolarni hal qilish qobiliyati sust rivojlanadi.
- Texnologiyalardan foydalanishning cheklanishi – Kreativ ta’lim ko‘pincha zamonaviy texnologiyalar bilan bog‘liq. Tayyorlanmagan o‘qituvchilar interaktiv doskalar, onlayn resurslar va boshqa ilg‘or vositalarni to‘g‘ri ishlatolmaydi, bu esa dars sifatini pasaytiradi.
- Yangi pedagogik yondashuvlarning joriy etilmasligi – XXI asrda ta’lim tizimi tez o‘zgarib bormoqda. Kreativ ta’lim metodlarini bilmagan yoki qo‘llay olmagan o‘qituvchilar o‘quvchilarning ehtiyojlariga mos ta’lim bera olmaydi, natijada ta’lim sifati pasayadi.
- O‘quvchilarning qobiliyatlari to‘liq rivojlanmasligi – Kreativ yondashuvlar bolalarning individualligi va iqtidorini ochishga yordam beradi. Agar o‘qituvchi bunga tayyor bo‘lmasa, o‘quvchilarning qobiliyatlari o‘z vaqtida rivojlanmaydi.
- Mehnat bozorida talab qilinadigan ko‘nikmalarning yetishmovchiligi – Zamonaviy dunyoda kreativ fikrlash va muammolarni hal qilish muhim kompetensiyalar hisoblanadi. Kreativ ta’limning sustligi natijasida o‘quvchilar bu ko‘nikmalarga ega bo‘lmay, kelajakda ish bozorida raqobatbardosh bo‘lishda qiyinchiliklarga duch kelishadi.

➢ Amaliy mashg‘ulotlarning yetishmovchiligi

Amaliy mashg‘ulotlarning dars jarayonida yetishmovchiligi quyidagi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin:

- Nazariy bilimlarning amaliy qo‘llanilishini tushunmaslik – O‘quvchilar mavzularni faqat nazariy jihatdan bilib, ularni real hayotda qanday ishlatishni bilmay qolishlari mumkin.
- Qiziqishning kamayishi – Amaliy mashg‘ulotlar darsni jonli va qiziqarli qiladi. Agar ular bo‘lmasa, o‘quvchilar tez zerikadi va darsga bo‘lgan motivatsiyasi pasayadi.

- Ijodiy va tanqidiy fikrlashning sustlashishi – Amaliy topshiriqlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashiga yordam beradi. Ularning yetishmovchiligi esa kreativlik va tahliliy fikrlash ko‘nikmalarining rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi.
- Ko‘nikmalarni shakllantirishdagi qiyinchiliklar – Ba’zi fanlarda (masalan, fizika, kimyo, biologiya, matematika) nazariy bilimlar yetarli emas, amaliy mashg‘ulotlar orqali tajribalar bajarilmasa, o‘quvchilar mavzularni chuqur tushunmaydi.
- Muloqot va jamoaviy ish ko‘nikmalarining sustlashishi – Amaliy mashg‘ulotlar o‘quvchilarning jamoada ishlash, fikr almashish va muammolarni birgalikda hal qilish kabi ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Agar bunday mashg‘ulotlar kam bo‘lsa, bu ko‘nikmalar yetarlicha shakllanmaydi.
- Natijadorlikning pasayishi – Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilar amaliyot orqali o‘rganilgan bilimlarni uzoq muddatga eslab qolishadi. Agar faqat nazariy darslarga e’tibor berilsa, o‘quvchilar tez unutishi va bilimlarni qo‘llay olmasligi mumkin.

➢ O‘quvchilarning passivligi va motivatsiya yetishmovchiligi

O‘quvchilarning passivligi va motivatsiyaning yetishmovchiligi darslarni o‘zlashtirishga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Buning asosiy sabablari quyidagicha:

- Faol ishtirokning pasayishi – O‘quvchilar darsga qiziqmasa, savol bermaydi, muhokamalarda qatnashmaydi, bu esa bilimni chuqurroq o‘zlashtirishga to‘sqinlik qiladi.
- Diqqat va kontsentratsiyaning pastligi – Motivatsiya bo‘lmasa, o‘quvchilar dars vaqtida chalg‘iydi, bu esa yangi bilimlarni eslab qolish jarayonini qiyinlashtiradi.
- Mustaqil ta’limga bo‘lgan rag‘batning yo‘qligi – O‘quvchi faqat majburiyat uchun o‘qisa, qo‘shimcha manbalar bilan ishlamaydi, amaliy mashg‘ulotlarga e’tibor bermaydi.
- Baholash tizimiga nisbatan befarqlik – Motivatsiya yetishmasa, yaxshi baho olishga ham qiziqish pasayadi, natijada bilim sifati tushadi.
- Ijodiy va tanqidiy fikrlashning cheklanishi – Passiv o‘quvchilar mustaqil izlanish qilmaydi, muammolarni hal etishga harakat qilmaydi, bu esa kelajakda ham ularning rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi.

Ko‘pgina ta’lim muassasalarida hanuzgacha an’anaviy dars usullari ustunlik qiladi. Bu esa o‘quvchilarning mustaqil va kreativ tafakkur qilish imkoniyatlarini cheklaydi. Ko‘p hollarda pedagoglar kreativ yondashuvlarni ta’lim jarayoniga to‘g‘ri integratsiya qilish bo‘yicha yetarli bilim va tajribaga ega emas. Ba’zi o‘quvchilar kreativlikni rivojlantirishga yetarlicha qiziqish bildirmaydi.

Tadqiqot doirasida yuqorida keltirib o‘tilgan muammolarning yechimi sifatida quyidagi tizimli tendensiyalar taklif etiladi

✓ Interaktiv va muammoli ta’lim metodlarini keng qo‘llash, o‘quvchilarga erkin tadqiqot olib borish sharoitlarini yaratish.
✓ Kasbiy ta’lim tashkilotlari dasturlarini o‘quvchilarga erkin ijodiy fikrlash imkoniyatini beruvchi, innovatsion yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiya qilish.
✓ O‘qituvchilar uchun malaka oshirish kurslarini tashkil etish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish.
✓ Amaliy mashg‘ulotlarni noan’anaviy shaklda tashkil etish. Yangi, kreativ yechimlarni topishga undaydigan tadqiqot ishlari yoki startap g‘oyalarni yetarlicha qo‘llash.
✓ Rag‘batlantiruvchi dasturlar yaratish, ijodiy tanlov va loyihalarni tashkil etish.

Kasbiy ta’lim tashkilotlarida o‘quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish zamonaviy jamiyat talablaridan biridir. Buning uchun innovatsion ta’lim metodlari, amaliy tadqiqotlar, loyihaviy yondashuv va ilg‘or pedagogik texnologiyalar joriy etilishi lozim. Pedagogik muammolarni hal etish orqali yosh avlodni innovatsion fikrlash va kreativ yondashuvga tayyorlash mumkin. Kasbiy ta’limda

kreativlikni rivojlantirish o‘quvchilarning nafaqat kasbiy malakasini oshirish, balki ularning moslashuvchan, yangiliklarga ochiq va innovatsion fikrlovchi mutaxassis bo‘lib yetishishiga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Aliboyev T.Ch. (2021). Innovatsion ta’lim muhitida o‘quvchilarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish / Dissertatsiya avtoreferati – T. “Fan va texnologiyalar” 11-12.

2. Ibragimova G.N. (2016). Interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. / Monografiya. – T. “Fan va texnologiyalar” 77

3. Yusupova K.N. (2022). O‘quvchilarda kreativlik kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish / Monografiya – T. “Fan va texnologiyalar” 56

4. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.10.2024-yildagi “Kasbiy ta’limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta’lim dasturlarini joriy qilish chora - tadbirlari” to‘g‘risidagi PF-158-sonli Farmoni

5.Структура ИКТ – компетентности учителей. Рекомендации ЮНЕСКО. Гамбург. (2022). https://www.unesco.org/ru

DUAL TALIMI ASOSIDA TALABALAR KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Shukurov Zuhriddin
Termiz davlat Universiteti o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada asosiy e'tibor dual ta'lim orqali talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan. Muallif o'quvchilarning ko'nikma va malakalarini oshirish uchun amaliy mashg'ulotlarni nazariy bilimlar bilan uzviy bog'lash muhimligini ta'kidlaydi. Maqolada dual ta'limning afzalliklari, masalan, bandlikni oshirish, muammolarni hal qilish ko'nikmalarini oshirish, muloqot va jamoada ishlash qobiliyatlarini oshirish muhokama qilinadi. Muallif, shuningdek, o'quvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga ko'maklashishda soha hamkorligi va murabbiylik rolini alohida ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: kasbiy kompetensiyalar, talabalar, dual ta'lim, amaliy mashg'ulotlar, nazariy bilimlar.

Dual ta'lim o'quvchilarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning samarali usuli hisoblanadi. U amaliy mashg'ulotlarni nazariy bilimlar bilan uyg'unlashtirib, talabalarga amaliy tajriba va ish beruvchilar tomonidan qadrlanadigan tegishli ko'nikmalarni beradi. Dual ta'lim ishga joylashish, muammolarni hal qilish, muloqot va jamoada ishlash qobiliyatlarini oshiradi. Sanoat hamkorligi va murabbiylik dasturlari talabalarda kasbiy qobiliyatlarni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ular haqiqiy dunyo tajribalari, resurslari va tarmoqlariga kirishni ta'minlaydi va talabalarga tajribali mutaxassislardan o'rganish imkonini beradi.

Dual ta'lim, sanoat hamkorligi va murabbiylik dasturlari talabalarga kelajakdagi kareralarida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradigan qimmatli vositalardir. Talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatga erishishlari uchun kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish zarur. Amaliy mashg'ulotlarni nazariy bilimlar bilan uyg'unlashtirgan dual ta'lim o'quvchilarning ko'nikma va malakalarini oshirishda qimmatli yondashuv hisoblanadi. Ushbu inshoda dual ta'limning afzalliklari va talabalarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda sanoat hamkorligi va murabbiylikning roli muhokama qilinadi.

Dual ta'limning asosiy afzalliklaridan biri bu ish bilan ta'minlanish darajasini oshirishdir. Dual ta'limdan o'tayotgan talabalar amaliy tajriba orttirgani va tegishli ko'nikmalarga ega bo'lganligi sababli mehnat bozoriga yaxshiroq tayyorlanadi. Ish beruvchilar amaliy tajribaga ega bo'lgan va nazariy bilimlarni real vaziyatlarda qo'llay oladigan nomzodlarni qadrlashadi.

Dual ta'lim talabalarga professional muhitda ishlash, mijozlar va hamkasblar bilan muloqot qilish, sanoat amaliyoti va tendentsiyalari bilan tanishish imkoniyatini beradi. Dual ta'limning yana bir afzalligi muammolarni hal qilish ko'nikmalarini yaxshilashdir. Amaliy mashg'ulotlar bilan shug'ullanayotgan talabalar turli qiyinchilik va to'siqlarga duch keladilar, bu esa ulardan tanqidiy fikrlashni va yechim topishni talab qiladi. Ular muammolarni tahlil qilishni, ildiz sababini aniqlashni va ularni hal qilish uchun samarali strategiyalarni ishlab chiqishni o'rganadilar. Ushbu mahorat ish beruvchilar tomonidan yuqori baholanadi, chunki u xodimlarga ongli qarorlar qabul qilish va tashkilotning o'sishi va muvaffaqiyatiga hissa qo'shish imkonini beradi.

Dual ta'lim, shuningdek, muloqot va jamoada ishlash qobiliyatini oshiradi. Professional muhitda ishlaydigan talabalar mijozlar, hamkasblar va rahbarlar bilan samarali muloqot qilishni o'rganadilar. Ular faol tinglash, empatiya va nizolarni hal qilish kabi shaxslararo ko'nikmalarni rivojlantiradilar, ular

munosabatlarni o‘rnatish va hamkorlikda ishlash uchun zarurdir. Bugungi ish joyida jamoaviy ish juda muhimdir va jamoada ishlash tajribasiga ega bo‘lgan talabalar guruh loyihalariga hissa qo‘shish va umumiy maqsadlarga erishish uchun yaxshiroq tayyorlanishadi.

Talabalarda kasbiy qobiliyatlarni rivojlantirishda sanoat hamkorligi va murabbiylik muhim rol o‘ynaydi. Sanoat hamkorliklari talabalarga real dunyo tajribasi, resurslari va tarmoqlariga kirish imkonini beradi. Ular talabalarga ushbu sohada ko‘p yillik tajribaga ega bo‘lgan va qimmatli tushuncha va yo‘l-yo‘riqlar bera oladigan mutaxassislardan o‘rganish imkonini beradi. Mentorlik dasturlari talabalarga fikr-mulohazalar, yordam va maslahatlar bera oladigan tajribali mutaxassislar bilan yaqindan hamkorlik qilish imkonini beradi. Bu munosabat o‘quvchilarning ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga, o‘z qobiliyatlariga ishonchni orttirishga yordam beradi.

Dual ta’lim, sanoat hamkorligi va murabbiylik dasturlari orqali talabalarning kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirish bo‘yicha eksperimental jarayon bir necha bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. Sanoatehtiyojlarini aniqlash: Birinchi qadam sanoatda talab qilinadigan ko‘nikma va malakalarni aniqlashdir. Buni so‘rovlar, soha mutaxassislari bilan suhbatlar va ish o‘rinlarini tahlil qilish orqali amalga oshirish mumkin.

2. O‘quv dasturini loyihalash: Sohaning aniqlangan ehtiyojlaridan kelib chiqib, amaliy mashg‘ulotlarni nazariy bilimlar bilan uyg‘unlashtirgan o‘quv rejasi tuziladi. O‘quv dasturi sanoatdagi o‘zgarishlarga mos keladigan darajada moslashuvchan bo‘lishi va muntazam yangilanishi kerak.

3. Sanoat hamkorligini yo‘lga qo‘yish: Sanoat hamkorligi talabalarga real dunyo tajribalari, resurslari va tarmoqlariga kirishni ta’minlash uchun o‘rnatiladi. Ushbu hamkorliklar amaliyot, shogirdlik yoki hamkorlikdagi tadqiqot loyihalari orqali o‘rnatilishi mumkin.

4. Mentorlarni tanlash: Mentorlar o‘z tajribalari va sohadagi tajribalariga qarab tanlanadi. Ular talabalarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish va qo‘llab-quvvatlashga tayyor bo‘lishlari va ularning kasbiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berishlari kerak.

5. Dasturni amalga oshirish: Dastur talabalarga amaliy mashg‘ulotlar, nazariy bilimlar berish, ustozlikni qo‘llab-quvvatlash orqali amalga oshiriladi. Talabalar o‘z ko‘nikmalarini real sharoitlarda qo‘llashlari va o‘z ustozlari bilan fikr-mulohazalarini izlashlari tavsiya etiladi.

6. Dasturni baholash: Dastur talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi samaradorligiga qarab baholanadi. Talabalar, murabbiylar va soha hamkorlaridan yaxshilanish yo‘nalishlarini aniqlash uchun fikr-mulohazalar yig‘iladi.

7. Doimiy takomillashtirish: Baholash natijalariga ko‘ra, dastur talabalarning kasbiy vakolatlarini rivojlantirishda dolzarb va samarali bo‘lib qolishi uchun doimiy ravishda takomillashtiriladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, dual ta’lim, sohadagihamkorlik va murabbiylik dasturlari o‘quvchilarning kelajakdagi kareralarida muvaffaqiyatga erishishlari uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradigan qimmatli vositalardir. Amaliy mashg‘ulotlarni nazariy bilimlar bilan uyg‘unlashtirib, tajribali mutaxassislar bilan yaqindan hamkorlik qilib, o‘quvchilar tanlagan kasbi bo‘yicha yuqori malakaga ega bo‘lishlari uchun zarur ko‘nikma va tajribaga ega bo‘ladilar. Talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatga erishishlari uchun kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish zarur. Dual ta’lim o‘quvchilarning malaka va ko‘nikmalarini oshirishning qimmatli yondashuvidir. Bu nazariy bilimlarni to‘ldiradigan amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazadi va talabalarni mehnat bozoriga tayyorlaydi. Sanoat hamkorligi va murabbiylik dasturlari talabalarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ular haqiqiy dunyo tajribalari, resurslari va tarmoqlariga kirishni ta’minlaydi va talabalarga tajribali mutaxassislardan o‘rganish imkonini beradi.

Dual ta'lim, sanoat hamkorligi va murabbiylik dasturlari talabalarga kelajakdagi kareralarida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradigan qimmatli vositalardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yusupova, A. (2023). DUAL TA'LIM TIZIMIDA PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK MUAMMOLARNI HAL QILISH YO'LLARI. Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi, (6), 851-855.

2. Maxkambayev, A. X. (2022). OLIY TA'LIMDA KOMPETENSIYAGA ASOSLANGAN YONDASHUVNING XUSUSIYATLARI. Экономикаисоциум, (4-3 (95)), 815-820.

3. Pogatsnik, M. (2018). Dual education: The win-win model of collaboration between universities and industry.

org14

4. Clark, J. M., & Paivio, A. (1991). Dual coding theory and education. Educational psychology review, 3, 149-210.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANIDAN QIZIQARLI MANTIQIY TOPSHIRIQLARGA KO‘NIKISH

Usmanova Nilyufar Sidakhodjayeva

Toshkent viloyati Bo’stonlik tumani 28- maktab boshlang’ich sinf o’qituvchisi

ABSTRACT

In primary school education, incorporating engaging and logical tasks in mathematics plays a crucial role in not only imparting mathematical knowledge but also developing logical thinking and problem-solving skills. This article examines the methodological approaches to implementing logical tasks in mathematics instruction for primary school students, the benefits of using these tasks, and the results of their application in teaching. The research explores how logical tasks can enhance students' interest in mathematics, improve their ability to think critically, and foster independent learning. The study also provides an analysis of various teaching methods and strategies that can be effectively employed to integrate logical problems into the learning process, promoting an active and engaging learning environment. The findings suggest that incorporating logical tasks into primary school mathematics education significantly improves students' cognitive skills and their enthusiasm for the subject.

Keywords: primary school, mathematics, logical tasks, methodology, students, teaching methods, logical thinking.

ABSTRAKT

Boshlang‘ich sinflarda matematika fanidan o‘quvchilarga qiziqarli va mantiqiy topshiriqlarni kiritish, nafaqat matematik bilimlarni o‘rgatish, balki mantiqiy tafakkur va muammoni hal qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda matematika fanidan mantiqiy topshiriqlarning o‘qituvchilar uchun metodologik yondashuvlari, ulardan foydalanishning afzalliklari, natijalar va tahlil keltiriladi. Tadqiqot davomida mantiqiy topshiriqlarni o‘qitishning samaradorligini baholash uchun bir nechta metodikalar va ularning boshlang‘ich sinflarda qo‘llanishi ko‘rib chiqiladi. Maqola o‘quvchilarda matematikaga qiziqish uyg‘otish va mantiqiy tafakkurini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan metodlarni muhokama qiladi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinflar, matematika, mantiqiy topshiriqlar, metodologiya, o‘quvchilar, ta'lim usullari, mantiqiy fikrlash.

KIRISH

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun matematika fanini o‘rgatishda mantiqiy topshiriqlarni qo‘llash, ularning nafaqat matematik bilimlarni o‘zlashtirishini, balki muammolarni tahlil qilish va hal qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Matematika fanini o‘rganish jarayonida o‘quvchilar turli xil mantiqiy topshiriqlarga duch kelishlari va ulardan foydalanish orqali nafaqat amaliy ko‘nikmalarni, balki nazariy fikrlashni ham rivojlantiradilar. Shuningdek, mantiqiy topshiriqlar o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda matematika fanidan mantiqiy topshiriqlarning qo‘llanilishi, metodologiyasi va natijalari tahlil qilinadi.

Metodologiya

Boshlang‘ich sinflarda matematika faniga mantiqiy topshiriqlarni kiritish metodologiyasi, matematik bilimlarni o‘zlashtirish va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishni ta'minlash uchun strukturalangan yondashuvga asoslangan. Tadqiqotda quyidagi asosiy metodologik yondashuvlar qo‘llanildi:

Bosqichma-bosqich o‘rgatish usuli

O‘quvchilarga mantiqiy topshiriqlarni o‘rgatishda murakkablik darajasini bosqichma-bosqich oshirish metodikasi qo‘llanildi. Dastlab, oddiy arifmetik masalalar va shakllarni tanib olish kabi oson topshiriqlar berildi, keyin esa murakkabroq mantiqiy masalalar kiritildi. Ushbu bosqichma-bosqich yondashuv o‘quvchilarga o‘z ishonchlarini oshirish va murakkab masalalarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni rivojlantirish imkoniyatini berdi.

Vizual vositalar va manipulyativlardan foydalanish

Mantiqiy topshiriqlarni tushuntirishda diagrammalar, rasmli masalalar va grafiklar kabi vizual vositalardan foydalanish o‘quvchilarga masalalarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Shuningdek, manipulyativlar (masalan, bloklar, shakllar) yordamida matematik tushunchalarni mustahkamlash va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish mumkin.

Guruhli ish va muammoli vazifalar

O‘quvchilarni guruhlarga bo‘lib ishlashga undash, ularga murakkab mantiqiy masalalarni birgalikda hal qilish imkoniyatini beradi. Bu yondashuv o‘quvchilarning jamoaviy fikrlash va muammolarni yechish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, guruhli ishlar o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshiradi va o‘zaro muloqotni rag‘batlantiradi.

Real hayotdan olingan misollar bilan ta'minlash

Mantiqiy topshiriqlarni o‘qitishda real hayotdan olingan misollarni qo‘llash o‘quvchilarga matematikaning kundalik hayotda qo‘llanilishini ko‘rsatadi. Bu o‘quvchilarni hayotiy masalalarni hal qilishda yanada motivatsiya qiladi va matematikaga bo‘lgan qiziqishni oshiradi.

Tahlil va baholash

Mantiqiy topshiriqlarni bajargan o‘quvchilarning natijalari tahlil qilindi. O‘quvchilarning yechimlari va mantiqiy xatolari kuzatildi va ular uchun konstruktiv fikrlar berildi. Bu usul, o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini aniqlash va ularga zarur yordamni ko‘rsatish imkonini berdi.

Ushbu metodologik yondashuvlar boshlang‘ich sinflarda mantiqiy topshiriqlarni samarali qo‘llashga yordam berdi va o‘quvchilarda matematik ko‘nikmalarni rivojlantirishda muhim rol o‘ynadi.

METODOLOGIK YONDASHUVLAR

Matematika fanidan mantiqiy topshiriqlarga ko‘nikishni amalga oshirishda bir nechta metodologik yondashuvlar qo‘llanilishi mumkin. Quyida ba'zi metodlar keltirilgan:

Bosqichma-bosqich O‘rgatish

Boshlang‘ich sinflarda mantiqiy topshiriqlarni o‘rgatishda murakkablikni bosqichma-bosqich oshirish kerak. Dastlab oson vazifalar, masalan, oddiy hisoblashlar, shakllarni aniqlash kabi topshiriqlarni qo‘llash, keyinchalik murakkabroq mantiqiy masalalarga o‘tish tavsiya etiladi.

Vizual Vositalarni Qo‘llash

Mantiqiy topshiriqlarni tushuntirishda vizual vositalardan, ya'ni diagrammalar, rasmli masalalar va grafiklardan foydalanish o‘quvchilarga vazifalarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Bu usul o‘quvchilarning tasavvurini rivojlantiradi va mantiqiy fikrlashni osonlashtiradi.

Guruh Ishlari va Muammoli Vazifalar

O‘quvchilarni guruhlarga bo‘lib ishlashga undash, ularga birgalikda murakkab masalalarni hal qilish imkoniyatini beradi. Bu metod o‘quvchilarning jamoaviy fikrlash va muammoni hal qilish qobiliyatini oshiradi.

Muammolarni Real Hayotdan Misollar Bilan Ta'minlash

Mantiqiy topshiriqlarni real hayotdan olingan misollar bilan ta'minlash o‘quvchilarning matematikani kundalik hayotda qo‘llashiga yordam beradi. Bu o‘quvchilarni hayotiy vazifalarni yechishda yanada motivatsiya qiladi.

TADQIQOT NATIJALARI

Boshlang‘ich sinflarda matematika fanidan mantiqiy topshiriqlarni qo‘llashning samaradorligini baholash uchun bir nechta sinovlar o‘tkazildi. Ushbu tadqiqotda o‘quvchilarga turli xil mantiqiy topshiriqlar taqdim etildi va ularning yechimlariga qaratilgan fikrlar tahlil qilindi.

Sinov Guruhidagi O‘quvchilar Sonining Oshishi

Tadqiqot davomida mantiqiy topshiriqlarni yechishda qatnashgan o‘quvchilarda fikrlash va muammolarni yechish tezligi sezilarli darajada oshdi. O‘quvchilar murakkab vazifalarni yechishda faol ishtirok etishgan va mantiqiy xatolardan qochish ko‘rsatkichlari ortgan.

Matematika Faniga Qiziqishning Oshishi

Mantiqiy topshiriqlar yordamida matematika faniga bo‘lgan qiziqish o‘quvchilarda ortdi. Dastlabki kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, mantiqiy topshiriqlarni muvaffaqiyatli bajarish o‘quvchilarda o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirgan.

TAHLIL

Mantiqiy topshiriqlarni boshlang‘ich sinflarda matematika fanida qo‘llash, o‘quvchilarda nafaqat matematik ko‘nikmalarni, balki mantiqiy fikrlash va mustaqil o‘ylash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mantiqiy topshiriqlarni o‘qitishda qo‘llash o‘quvchilarning faolligini oshiradi, ularda ijobiy hissiyotlarni uyg‘otadi va matematikaga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi.

Jadval 1

Topshiriq turi	**Dastlabki natijalar**	**So‘nggi natijalar**	**Fikrlarni rivojlantirish darajasi**
Oddiy hisoblashlar	70% to‘g‘ri javoblar	90% to‘g‘ri javoblar	Yuqori
Shakllarni tanib olish	60% to‘g‘ri javoblar	85% to‘g‘ri javoblar	O‘rtacha
Murakkab mantiqiy masalalar	50% to‘g‘ri javoblar	75% to‘g‘ri javoblar	O‘rtacha

Ushbu jadvalda boshlang‘ich sinflarda mantiqiy topshiriqlarni bajarish natijalari ko‘rsatilgan. Jadvalda o‘quvchilarning turli topshiriqlarga berilgan javoblari tahlil qilingan va dastlabki va so‘nggi natijalar orasidagi farq ko‘rsatilgan. Har bir topshiriq turi bo‘yicha o‘quvchilarning to‘g‘ri javoblar foizi va fikrlarni rivojlantirish darajasi taqdim etilgan.

- **Oddiy hisoblashlar**: Bu topshiriqlarda o‘quvchilarni oddiy arifmetik masalalar bilan tanishtirish maqsad qilingan. Dastlabki natijalarda 70% to‘g‘ri javoblar bo‘lsa, so‘nggi natijalar 90% ga yetgan.
- **Shakllarni tanib olish**: Ushbu topshiriqlarda o‘quvchilarga geometrik shakllarni tanish va ularni tasvirlash vazifasi berilgan. Dastlabki natijalarda 60% to‘g‘ri javoblar bo‘lgan, so‘nggi natijalarda esa 85% ni tashkil etgan.

- **Murakkab mantiqiy masalalar**: Bu topshiriqlarda o‘quvchilardan ko‘proq mantiqiy fikrlash talab qilindi. Dastlabki natijalarda 50% to‘g‘ri javoblar mavjud bo‘lsa, so‘nggi natijalar 75% ga ko‘tarilgan.

Jadvalning natijalari, mantiqiy topshiriqlarni o‘qitishda o‘quvchilarning matematika va mantiqiy fikrlash qobiliyatini oshirganini ko‘rsatadi.

XULOSA

Boshlang‘ich sinflarda matematika fanidan mantiqiy topshiriqlarni qo‘llash, nafaqat o‘quvchilarning matematik bilimlarini oshirish, balki ularning mantiqiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Tadqiqot davomida o‘quvchilarga turli xil mantiqiy topshiriqlarni taqdim etish, ularning faolligini oshirish va fikrlashni yanada chuqurlashtirishga yordam berdi.

Jadvalda ko‘rsatilgan natijalar, mantiqiy topshiriqlarni o‘qitishda o‘quvchilarning to‘g‘ri javoblar foizining sezilarli darajada oshishini ko‘rsatadi. Dastlabki davrda o‘quvchilar oddiy hisoblashlar va shakllarni tanib olishda hamda murakkab mantiqiy masalalarni yechishda muayyan qiyinchiliklarga duch kelishgan. Biroq, bosqichma-bosqich va yengilroq topshiriqlardan boshlanish, vizual vositalar va manipulyativlardan foydalanish, guruhli ishlar va real hayotdan olingan misollar orqali ularning fikrlash qobiliyatlari rivojlandi va matematikaga bo‘lgan qiziqishlari ortdi.

Tadqiqotning asosiy xulosalaridan biri shundaki, mantiqiy topshiriqlarni matematika faniga kiritish o‘quvchilarda ijobiy natijalar beradi. O‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi oshadi, ular murakkab masalalarni o‘zlashtirishda yanada ishtirokchan bo‘ladilar va matematikaviy tafakkurlarini mustahkamlashga muvaffaq bo‘ladilar.

Shuningdek, mantiqiy topshiriqlarni o‘qitishda ularning faoliyatini rivojlantirish va mustaqil fikrlashni qo‘llab-quvvatlash o‘quvchilarga o‘z bilimlarini chuqurroq o‘rganish imkoniyatini beradi. Bunday yondashuv, o‘quvchilarning nafaqat matematika faniga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, balki umumiy ta'lim jarayonida mustaqil fikr yuritish, muammoni hal qilish va ijodkorlikni rivojlantirishga yordam beradi.

Natijada, mantiqiy topshiriqlarni boshlang‘ich sinflarda qo‘llash, nafaqat matematika fanining o‘qitilishiga, balki o‘quvchilarning kognitiv rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko‘rsatadi. Bu usul o‘quvchilarning umumiy tafakkurini kengaytirishga, ularni yangi bilimlarni o‘zlashtirishga va o‘zlariga bo‘lgan ishonchni mustahkamlashga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. Kattaeva, N. (2019). Matematika fanini boshlang‘ich sinflarda o‘rgatish metodikasi. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.

2. Shomurodov, A. (2020). Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish usullari. Farg‘ona: Farg‘ona Universiteti nashriyoti.

3. Qodirov, J. (2021). Boshlang‘ich sinflarda matematika fanining o‘qitilishiga metodik yondashuvlar. Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti nashriyoti.

PROFESSIONAL TA'LIMDA O'QUV-TARBIYAVIY JARAYONNI AMALGA OSHIRISHDA IJIMOIY HAMKORLIKNING RO'LI

Xuramov Ilxom Panjiyevich
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti

Ijtimoiy hamkorlik hech bo'lmaganda erishib bo'lmaslik tamoyiliga qiziqishlar asosida tomonlarning munosabatlari va munosabatlar birligiga ko'ra manfaatlari uchun asoslanadi. Ammo, manfaatlarni yagona jamoaviy manfaatlarga birlashtirish qiyin, ko'proq imkonsiz holatdir.

Interaktiv yondashuv. Bu yondashuv vakillarining tasdiqlashicha ijtimoiy hamkorlik manfaatlarning tenglikda ta'minlashi ijtimoiy munosabatlarning o'ziga xos turi hisoblanadi.

O'ylaymizki quyidagi uchinchi yondashuv ijtimoiy hamkorlik tushunchasini yetarlicha ochib berishga imkoniyat tug'diradi.

Ijtimoiy hamkorlik bozor iqtisodiyoti asosida sivilizatsiyalashgan jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni o'ziga xos turidir. Unga xos quyidagi belgilar mavjud:

Hozirgi paytda ta'lim mazmunini belgilovchi o'quv-me'yoriy hujjatlar: o'rta maxsus, professional ta'limi tarmoq standartlari, o'quv rejalari va dasturlarini takomillashtirishda quyidagi o'ziga xos jihatlarini e'tiborda tutish muhimdir:

- mutaxassis kadrning kasbiy tavsifnomasini ishlab chiqishda ish beruvchilar talablarini hisobga olishni va ularning bevosita ishtirok etishini ta'minlash;

- o'quv-tarbiyaviy jarayonni amalga oshirishda hududiy mehnat bozori xususiyatlari va talablarini inobatga olish;

- o'quv-tarbiyaviy jarayonni amalga oshirishda ta'lim va ishlab chiqarishning bevosita va bilvosita aloqadorligini ta'minlash;

- o'quv rejalari va dasturlari mazmuni ishlab chiqarish va mehnat jarayoni mazmuniga hamda kasbiy faoliyat turlariga mosligini ta'minlash kabilardir.

O'quv reja va fan dasturlari mazmunini takomillashtirishda quyidagi omillarga e'tiborni qaratmoq lozim:

- ta'lim va tarbiyaning maqsadli yo'naltirilganligiga;

- yoshlarni har tomonlama barkamol qilib, vatanparvarlik va milliy mustaqillik g'oyalariga sodiqlik ruhida tarbiyalashga, shuningdek, o'quvchilarda boy ilmiy, madaniy va ma'naviy merosimizga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy va axloqiy sifatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonni yangi pedagogik shakllar va usullar asosida tashkil etishga; [9].

- mehnat va ishlab chiqarish jarayonining tuzilishi, xususiyatlari va rivojlanish yo'nalishlariga;

- tarmoq ta'lim standartida belgilangan kasbiy faoliyat turlari va mazmunini to'liq qamrab olinishiga;

- ta'lim-tarbiya tamoyillari va qonuniyatlariga amal qilinishiga.

Tarmoq ta'lim standartlari va o'quv rejalarini ishlab chiqishda mutaxassis kadrlarda shakllantirilayotgan bilim, ko'nikma va malakalar darajasining o'rganilayotgan o'quv fanlari mazmuniga, o'rganish davriga mos tushishini e'tiborga olish lozim.

Professional ta'limi tarmoq standartlarini ishlab chiqish va ularni takomillashtirishga doir bir qator fundamental tadqiqotlar ham olib borilgan.

U.I.Inoyatov tadqiqotlarida professional ta'limida mutaxassis kadrlar modelini ishlab chiqishda shaxs, davlat va jamiyatning quyidagi ehtiyoj belgilarini, ya'ni muayyan shaxs ta'lim oladigan yo'nalish

bo‘yicha o‘rta maxsus, professional ta’limi standartlari, tarmoq ta’lim standartlari, o‘rta maxsus, professional ta’limi tayyorlov yo‘nalishlari, kasblar va ixtisosliklar tasniflagichi talablarini e’tiborga olish zarurligi va albatta, ishlab chiqilgan model bitiruvchining kasbiy-shaxsiy sifatini nazorat qilish tizimini va nazorat qilish texnologiyasini qamrab olishi kerakligi alohida ta’kidlanadi [57].

The findings suggest that integrating technology into the pedagogical practicum significantly enhances student teachers' sense of professional responsibility by fostering independence, accountability, and self-improvement. Unlike traditional methods that primarily rely on external evaluations and mentor assessments, digital learning tools and interactive teaching strategies shift the focus toward self-regulation and autonomy. This transformation enables student teachers to take a more proactive role in their professional growth, ensuring they develop the necessary skills to manage classrooms effectively and adapt to the evolving demands of modern education.

One of the most notable benefits of technology integration is the way interactive learning methods encourage active engagement and decision-making. Traditional teacher education models often emphasize passive learning, where student teachers absorb theoretical knowledge without fully applying it in a practical context. In contrast, technology-driven approaches such as problem-based learning (PBL), microteaching, and role-playing simulations require student teachers to navigate complex classroom scenarios, analyze problems, and make real-time pedagogical decisions. This hands-on approach enhances their ability to take responsibility for their teaching practices, preparing them for the unpredictable nature of real classrooms.

Mentorship programs remain a crucial component of teacher education, and their effectiveness is significantly enhanced when combined with technology. Regular one-on-one mentorship sessions provide student teachers with personalized guidance and constructive feedback, while online mentorship communities facilitate continuous professional dialogue and collaboration. These digital platforms enable student teachers to connect with experienced educators from various backgrounds, fostering knowledge-sharing and expanding their professional networks. Moreover, structured peer observation and feedback mechanisms encourage student teachers to engage in collaborative learning, helping them refine their teaching skills and develop a stronger sense of accountability.

Self-reflection, a fundamental aspect of professional responsibility, is also reinforced through the use of digital tools. Maintaining reflective journals allows student teachers to document their daily experiences, challenges, and achievements, encouraging a deeper level of critical thinking about their pedagogical approaches. Self-assessment rubrics provide a structured way to measure their progress against professional teaching standards, ensuring that they actively engage in continuous improvement. Goal-setting practices, facilitated through digital tracking tools, enable student teachers to define clear objectives for their professional growth and monitor their development over time. Collectively, these self-reflective practices cultivate a mindset of lifelong learning and adaptability, essential qualities for educators in a rapidly changing educational landscape.

Despite these advantages, one of the key challenges identified in the study is the need for institutional support to effectively implement these technological tools and strategies. Many teacher education programs and schools still lack the necessary infrastructure, resources, and professional training to integrate digital learning effectively. Without proper investment in technology and faculty development, student teachers may struggle to fully utilize these tools to enhance their professional responsibility. Therefore, institutions must prioritize professional development programs that equip mentors and teacher educators with the skills needed to support student teachers in technology-driven learning environments. Additionally, ensuring equitable access to digital resources is essential for maximizing the impact of these innovations on teacher training.

By embracing technology in the pedagogical practicum, teacher education programs can better prepare student teachers to meet the demands of the modern classroom. Integrating interactive learning, digital

documentation, mentorship, and self-reflection not only fosters professional responsibility but also equips educators with the skills and confidence necessary for long-term success in their teaching careers. Ensuring ongoing institutional support and further research into the effectiveness of these strategies will be vital in shaping the future of teacher training.

Conclusion

Professional responsibility is an essential component of effective teaching, and its development must be a priority in teacher education programs. This study highlights the potential of interactive teaching strategies, digital tools, mentorship, and self-reflection in fostering a sense of accountability among student teachers.

To improve teacher preparation programs, educational institutions should embrace technology-driven approaches that empower student teachers to take ownership of their professional development. By integrating these innovative strategies, teacher training programs can cultivate educators who are not only knowledgeable but also ethically responsible, adaptable, and committed to continuous learning.

REFERENCES

1. Beauchamp, C. (2019). *Reflection in teacher education: A framework for developing professional responsibility.* Teaching and Teacher Education, 82, 131-142.

2. Ferguson, R. (2021). *Sustaining teacher identity and professional responsibility through reflective practice.* Educational Review, 73(4), 567-583.

3. Flores, M. A. (2020). *Bridging theory and practice in teacher education: The role of practicum and mentoring.* European Journal of Teacher Education, 43(2), 235-249.

4. Johnson, L., Adams Becker, S., Estrada, V., & Freeman, A. (2022). *The impact of digital mentorship on teacher professional responsibility.* Journal of Digital Learning in Teacher Education, 38(1), 25-40.

5. Smith, K., & Levitt, R. (2023). *Teacher identity and accountability: Examining professional responsibility in early career educators.* Journal of Education Policy, 95(2), 187-205.

6. Tondeur, J., van Braak, J., Siddiq, F., & Scherer, R. (2021). *Technology integration in teacher education: A systematic review of the literature.* Computers & Education, 168, 104190.

7. Zeichner, K., & Liston, D. (2022). *Reflective teaching: An introduction to professional responsibility.* Routledge.

ПСИХОЛОГО - ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ СОЗДАНИЯ ИНКЛЮЗИВНОЙ СРЕДЫ В ВЫСШЕМ УЧЕБНОМ ЗАВЕДЕНИИ

Научный руководитель: Химматалиев Дустназар Омонович

доктор педагогических наук (DSc), профессор,
Чирчикский государственный педагогический университет, г. Чирчик, Узбекистан.

Автор: Набиева Умида Ширинкуловна

магистрант 1 курса, Чирчикский государственный педагогический университет, факультет: «Специальная педагогика: сурдопедагогика»,
г. Чирчик, Узбекистан.

ABSTRACT

В статье исследуются ключевые психолого-педагогические детерминанты формирования инклюзивной образовательной среды в высшем учебном заведении. Рассматриваются концептуальные основы интеграции студентов с особыми образовательными потребностями в образовательный процесс, механизмы педагогической поддержки и методы адаптации учебных программ. Особое внимание уделено созданию толерантной образовательной среды, обеспечению дифференцированного подхода в преподавании и разработке инклюзивных технологий обучения. Подчеркивается важность междисциплинарного взаимодействия, нормативно-правового регулирования и цифровых ресурсов в реализации принципов инклюзивного образования.

KEYWORDS: Инклюзивное образование, адаптация образовательного процесса, педагогическая поддержка, толерантная среда, инклюзивные технологии, цифровые ресурсы, нормативно-правовое регулирование.

INTRODUCTION: Современное высшее образование направлено на обеспечение равных возможностей для всех обучающихся, включая студентов с особыми образовательными потребностями. В этом контексте создание инклюзивной образовательной среды становится одной из приоритетных задач вузов. Реализация инклюзии требует комплексного подхода, включающего адаптацию учебных программ, внедрение современных педагогических технологий и создание доступной инфраструктуры.

RELEVANCE OF THE PROBLEM: В условиях стремительного развития общества и технологий важно учитывать потребности студентов с различными образовательными возможностями. Формирование инклюзивной среды способствует не только академическому развитию обучающихся, но и их социальной адаптации, личностному росту и успешной профессиональной интеграции.

RESEARCH OBJECTIVE: Целью данной работы является изучение психолого-педагогических условий, способствующих созданию инклюзивной образовательной среды в высшем учебном заведении. Исследование направлено на выявление эффективных методик адаптации образовательного процесса, анализ факторов психологической поддержки и определение стратегий взаимодействия всех участников образовательного процесса.

LITERATURE REVIEW: В последние десятилетия вопрос инклюзивного образования активно обсуждается в научной литературе. Исследователи рассматривают различные аспекты инклюзии, включая психолого-педагогические подходы, социальную адаптацию студентов и влияние образовательной политики на формирование доступной среды. Анализ работ

отечественных и зарубежных авторов позволяет выявить ключевые проблемы и перспективы развития инклюзивного образования в высших учебных заведениях.


RESEARCH METHODOLOGY: В рамках исследования использованы комплексные методы анализа, включающие теоретические и эмпирические подходы. Теоретический анализ охватывает изучение научных публикаций, нормативных документов и стратегий инклюзивного образования. Эмпирическая часть исследования включает проведение опросов, интервью и анализа данных, собранных в образовательных учреждениях. Применение междисциплинарного подхода позволяет получить всесторонний анализ проблемы и разработать рекомендации по совершенствованию инклюзивной образовательной среды.

RESULTS:

DATA ANALYSIS: В ходе исследования были собраны и обработаны данные, отражающие уровень инклюзивности образовательной среды в высших учебных заведениях. Анализ показал, что внедрение адаптивных учебных программ и специализированных педагогических технологий способствует повышению доступности образования для студентов с особыми образовательными потребностями.

Диаграмма 1.

Демонстрирует распределение ключевых показателей инклюзивной образовательной среды в процентах. Она наглядно иллюстрирует различия в уровне подготовки преподавателей, доступности учебных материалов и состояния инфраструктуры высших учебных заведений.



CONCLUSIONS BASED ON THE RESULTS:

На основе проведенного анализа выявлено, что успешная реализация инклюзивной образовательной среды требует комплексного подхода, включающего развитие педагогических компетенций, модернизацию инфраструктуры и внедрение цифровых технологий. Полученные результаты подтверждают необходимость дальнейших исследований в данной области и разработки стратегий, направленных на совершенствование инклюзивных образовательных практик.

DISCUSSION OF RESULTS:

Результаты исследования демонстрируют значительное влияние адаптивных педагогических стратегий и цифровых технологий на эффективность инклюзивного образования. Важную роль играет подготовка преподавателей, их способность учитывать индивидуальные потребности студентов и использовать инклюзивные методики обучения.

PROBLEMS AND PROSPECTS:

Несмотря на положительные тенденции, существуют определенные барьеры, препятствующие полноценному внедрению инклюзии в вузах. Среди них — недостаточное финансирование, нехватка квалифицированных специалистов и необходимость совершенствования нормативно-правовой базы. В перспективе важно разработать стратегии, направленные на повышение осведомленности преподавателей и студентов, создание доступной образовательной среды и интеграцию современных технологий в учебный процесс.

CONCLUSIONS:

Завершая исследование, можно отметить, что создание инклюзивной образовательной среды в высших учебных заведениях требует комплексного подхода. Важную роль играют адаптация образовательных программ, повышение квалификации педагогического состава и обеспечение доступности инфраструктуры. Существенным аспектом является психологическая поддержка студентов и развитие толерантной среды. Дальнейшие исследования должны быть направлены на совершенствование методик инклюзивного образования и внедрение инновационных педагогических решений.

REFERENCES:

1. Выготский, Л. С. (1983). Проблемы развития психики. Москва: Педагогика.

2. Сластёнин, В. А., & Подласый, И. П. (2010). Педагогика: учебное пособие. Москва: Академия.

3. Федеральный закон РФ «Об образовании в Российской Федерации» от 29 декабря 2012 г. № 273-ФЗ.

4. UNESCO. (2021). Inclusive education: the way of the future. Paris: UNESCO Publishing.

5. Slee, R. (2018). Inclusive education: From policy to practice. London: Routledge.

6. Синельникова, А. В. (2019). Психолого-педагогическая поддержка студентов с особыми образовательными потребностями. Педагогика и психология, 4(23), 85-94.

7. Министерство науки и высшего образования РФ. (2022). Методические рекомендации по реализации инклюзивного образования в вузах.

ESHİTİSHDA NUQSONİ BOR BOLALARNİ İNKLYUZİV SİNFDA TA'LİM BERİSH TEXNOLOGİYALARİ

Abdullayeva Gavhar Saparovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Maxsus pedagogikasi kafedrasi o'qituvchisi
ORCID ID: https://orcid.org/ 0000-0002-8842-1744
Qunduzaliyeva Rushana
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
II kurs magistranti surdopedagogika yo'nalishi

ABSTRACT

This article discusses technologies and methods used in inclusive education for children with hearing impairments.Hearing impairment can negatively affect the social, emotional, and academic development of children. Therefore, educators and parents need to use modern technologies and innovative methods to help children reach their full potential. In this article, we will consider several key technologies and methods aimed at improving the educational process for children with hearing impairments..

Keywords:, higher mental functions, emotional-volitional sphere, speech communication, speech dysfunctions, social development.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada, eshitishda nuqsoni bor bolalar uchun inklyuziv ta'limda qo'llaniladigan texnologiyalar va metodikalar haqida muhokama qilinadi.Eshitish qobiliyatining cheklanishi, bolalarning ijtimoiy, emosional va akademik rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, ta'lim beruvchilar va ota-onalar, bolalarning o'z qobiliyatlarini to'liq namoyon etishlariga yordam berish uchun zamonaviy texnologiyalar va innovatsion metodlarni qo'llashlari zarur. Ushbu maqolada, eshitishda nuqsoni bor bolalar uchun ta'lim jarayonini yaxshilashga qaratilgan bir nechta asosiy texnologiyalar va metodlarni ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: eshitishda nuqsoni bor bolalar, inklyuziv ta'lim, ta'lim texnologiyalar, eshitish qobiliyati, innovatsion metodlar,

Kirish

Eshitishda nuqsoni bor bolalar uchun inklyuziv ta'lim muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada, eshitishda nuqsoni bor bolalar uchun ta'lim berish jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar va metodlarni ko'rib chiqamiz. Inklyuziv ta'lim, barcha bolalarning, shu jumladan, maxsus ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'lim olish huquqini ta'minlaydi. Eshitishda nuqsoni bor bolalar uchun inklyuziv ta'lim, zamonaviy ta'lim tizimlarining eng muhim va dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Ushbu bolalar, o'zlarining eshitish qobiliyatlaridagi cheklovlar sababli, ta'lim jarayonida ko'plab qiylarga duch kelishadi. Shuning uchun, ularga ta'lim berishda maxsus yondashuvlar va texnologiyalarni qo'llash zarurati tug'iladi.

Inklyuziv ta'lim — bu barcha bolalarning, shu jumladan, eshitishda nuqsoni bor bolalarning, ta'lim olish huquqini ta'minlashga qaratilgan yondashuvdir. Bu yondashuv, bolalarning individual ehtiyojlarini hisobga olib, ularni bir xil ta'lim muhitida rivojlantirishga imkon beradi. Eshitishda nuqsoni bor bolalar uchun ta'lim jarayonida maxsus texnologiyalar va metodologiyalarni qo'llash, ularning o'z-o'zini

anglashini, ijtimoiy ko'nikmalarini va akademik muvaffaqiyatlarini oshirishga yordam beradi. eshitishda nuqsoni bor bolalarni inklyuziv ta'limda ta'lim berish texnologiyalari, ularning samaradorligi va amaliy qo'llanilishi haqida batafsil ma'lumot beriladi. Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan innovatsion yondashuvlar va texnologiyalarni tahlil qilish orqali, bu bolalarning ta'lim olish jarayonini qanday qilib yanada samarali qilish mumkinligini ko'rsatamiz.

Metodologiya

Eshitishda nuqsoni bor bolalarni inklyuziv ta'limda ta'lim berish metodologiyasi bir necha asosiy tamoyillarga asoslanadi:

Individual yondashuv: Har bir bolaning ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga olish. Ta'lim jarayonida bolalarning shaxsiy rivojlanish darajasini aniqlash va ularga mos ravishda darslarni tashkil etish.

Ko'p uslublilik: Ta'lim jarayonida turli xil uslublar va metodlarni qo'llash. Masalan, vizual, akustik va kinestetik materiallar yordamida ta'lim berish. Bu bolalarning turli o'rganish uslublariga mos keladi va ularning qiziqishini oshiradi.

Texnologiyalardan foydalanish: Zamonaviy texnologiyalar, masalan, audiovizual materiallar, interaktiv ta'lim platformalari va mobil ilovalar orqali ta'lim jarayonini boyitish. Bu, eshitishda muammolari bo'lgan bolalar uchun muloqotni osonlashtiradi va ta'limni qiziqarli qiladi.

Inkluziv muhit yaratish: Ta'lim muassasalarida inklyuziv muhitni yaratish, ya'ni barcha bolalar o'zlarini qulay his qilishlari va bir-birlari bilan samarali muloqot qilishlari uchun sharoitlar yaratish. Bu, o'z navbatida, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

O'qituvchilarning malakasini oshirish: O'qituvchilarni eshitishda nuqsoni bor bolalar bilan ishlashga tayyorlash uchun malaka oshirish dasturlarini tashkil etish. Ular, o'z navbatida, bolalarning ehtiyojlarini yaxshiroq tushunishlari va ularga mos ravishda ta'lim berishlari mumkin.

Inklyuziv Ta'limning Asosiy Tamoyillari

Har bir bola uchun individual yondashuv: Har bir bolaga uning ehtiyojlariga mos ravishda ta'lim berish.

O'zaro hamkorlik: O'qituvchilar, ota-onalar va maxsus mutaxassislar o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish.

Muvofiqlashtirilgan o'quv dasturlari: O'quv dasturlarini eshitish nuqsonlariga moslashtirish.

Ta'lim Berish Texnologiyalari

Audiovizual materiallar: Videolar, slaydlar va boshqa vizual materiallar yordamida ta'lim jarayonini jonlantirish.


Maxsus eshitish apparatlari: Eshitish apparatlari va implantlar yordamida bolalarning eshitishini yaxshilash.

Interaktiv texnologiyalar: Kompyuterlar va planshetlar yordamida o'quv jarayonini interaktiv qilish.


Tadqiqot natijalari

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, eshitishda nuqsoni bor bolalar uchun inklyuziv ta'limda qo'llaniladigan texnologiyalar, ularning ta'lim olish jarayonini sezilarli darajada yaxshilaydi. O'qituvchilar tomonidan qo'llaniladigan zamonaviy texnologiyalar, masalan, audiovizual materiallar, interaktiv ta'lim platformalari va maxsus dasturlar, bolalarning diqqatini jalb qilish va o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali bo'ldi.

Shuningdek, tadqiqotda ishtirok etgan bolalar, inklyuziv ta'lim muhitida o'zlarini qulay his qilishlarini va ijtimoiy integratsiyaga erishishlarini ta'kidladilar. Bunga qo'shimcha ravishda, o'qituvchilar va ota-onalar o'rtasida samarali hamkorlik, bolalarning ta'lim jarayonida muvaffaqiyatga erishishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.




At the beginning of the experiment




At the end of the experiment

7 -sonli inklyuziv maktab Chirchiq shahar




At the beginning of the experiment




At the end of the experiment

15 sonli maktab o'quvchilari

PROCEEDINGS BOOK



At the beginning of the experiment



At the end of the experiment

25 -sonli maktab

Natijalar, eshitishda nuqsoni bor bolalar uchun inklyuziv ta'limda qo'llaniladigan texnologiyalar va metodologiyalarni rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Bu esa, ta'lim tizimlarining yanada inklyuziv bo'lishini ta'minlashga yordam beradi va har bir bolaning potentsialini ochishga imkon yaratadi.

Eshitishda nuqsoni bor bolalarni inklyuziv ta'limda ta'lim berish texnologiyalari bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalari quyidagi asosiy jihatlarni o'z ichiga oladi:

Ta'lim muhitining moslashtirilishi: Tadqiqot davomida aniqlanganidek, eshitishda nuqsoni bor bolalar uchun ta'lim muhitini moslashtirish juda muhim. Bu jarayonda akustik sharoitlarni yaxshilash, vizual materiallardan foydalanish va interaktiv texnologiyalarni joriy etish orqali ta'lim jarayonini yanada samarali qilish mumkin.

O'qitish strategiyalari: Eshitishda nuqsoni bor bolalar uchun maxsus o'qitish strategiyalari ishlab chiqilgan. Masalan, ko‘rish va eshitish qobiliyatlarini birlashtiruvchi metodlar, shuningdek, individual va guruhli mashg'ulotlar orqali o‘quvchilarning faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan yondashuvlar muvaffaqiyatli natijalarga olib keldi.

Texnologiyalardan foydalanish: Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, zamonaviy texnologiyalar, masalan, ovozli va vizual yordamchi vositalar (audiokitablar, video darsliklar, interaktiv ta'lim platformalari) eshitishda nuqsoni bor bolalar uchun ta'lim jarayonini sezilarli darajada yaxshilaydi. Bu vositalar o'quvchilarning o'z-o'zini anglashini va mustaqil o'qishini rag'batlantiradi.

O'qituvchilarning tayyorgarligi: O'qituvchilarning eshitishda nuqsoni bor bolalar bilan ishlashga tayyorgarligi muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot davomida o'qituvchilarning maxsus tayyorgarlik kurslarida qatnashishi, ularning bilim va ko'nikmalarini oshirishga yordam berganligi aniqlangan.

Ijtimoiy integratsiya: Eshitishda nuqsoni bor bolalarni inklyuziv ta'limda o'qitish jarayonida ijtimoiy integratsiya muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, boshqa bolalar bilan birga o'qish, o'zaro hamkorlik va ijtimoiy faoliyatlar orqali eshitishda nuqsoni bor bolalar o'zlarini yanada qulay his qilishadi va jamiyatga integratsiyalashish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

O'z-o'zini baholash va motivatsiya: Eshitishda nuqsoni bor bolalar uchun o'z-o'zini baholash imkoniyatlari yaratish, ularning motivatsiyasini oshirishga yordam beradi. Tadqiqotda o'quvchilarning o'z muvaffaqiyatlarini baholashlari va o'z maqsadlarini belgilashlari ta'lim jarayonini yanada samarali qilishga xizmat qiladi.

Xulosa

Eshitishda nuqsoni bor bolalarni inklyuziv ta'limda ta'lim berish jarayoni murakkab, lekin muhimdir. O'qituvchilar va ta'lim muassasalari ushbu bolalarning ehtiyojlarini inobatga olib, samarali ta'lim berish uchun zarur texnologiyalarni qo'llashlari lozim. Inklyuziv ta'lim har bir bolaning o'z imkoniyatlarini to'liq amalga oshirishiga yordam beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, eshitishda nuqsoni bor bolalarni inklyuziv ta'limda ta'lim berish texnologiyalari samarali bo'lishi uchun muayyan shartlar va yondashuvlar talab etiladi. Ta'lim muhitining moslashtirilishi, o'qitish strategiyalarining diversifikatsiyasi, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, o'qituvchilarning tayyorgarligi va ijtimoiy integratsiya bu jarayonda muhim omillar hisoblanadi.

Ushbu tadqiqot natijalari kelajakda eshitishda nuqsoni bor bolalar uchun yanada samarali ta'lim tizimini yaratish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. "O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qonuni //Xalq so'zi.- 1999. - 27 may. 13b
2. O'zbekiston Prezidentining "Nogironligi bo'lgan shaxslarni Davlat tomonidan qo'llab quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" gi PF – 5270-son farmoni 2017- yil 1- dekabr
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston bolalar nogironlar sportini rivojlantirish jamg'armasining tashkil etish to'g'risida"// Xalq so'zi.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasining tashkil etish to'g'risida"gi qonuni.// Xalq so'zi, 2002 y 31oktyabr.
5. Басова А.Г., Егоров С.Ф. История сурдопедагогики. – М.: Просвещение, 1984. – 295 с.
6. Р.М. Боскис Глухие и слабослышащие дети. – М.: Владос, 2001.
7. Семаго М.М. Социально -психологические проблемы семьи ребенка -
8. инвалида с детства. М.: 1992.
9. Семаго М.М. Особенности коррекционной работы с семьями, в процессе консультирования ребенка с отклонениями в развитии // Шк. здор. 1996. -№3. С.40 - 54.
10. Ступникова ЖИ.С. Воспитание глухого ребенка в семье. -Киев, 1996.
11. Ткачева В.В. О некоторых проблемах семей, воспитывающих детей с отклонениями в развитии // Дефектология. 1998. - №4. - С. 3-9

SENSOR INTEGRATSIYANING MOHIYATI VA AHAMIYATI

Yunusova Xusnora Shuxratovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti maxsus pedagogika kafedrasi o'qituvchisi P.f.f.d., (PhD) v.b dotsent

Axmedova Zarnigor Davlatboy qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Pedagogika fakulteti Maxsus pedagogika: Surdopedagogika yo'nalishi, 1-bosqich 24/1 guruh magistranti

ANNOTATSIYA

Maqolada inklyuziv ta'lim sohasiga aloqador yana bir soha, sensor integratsiya haqida ma'lumot berib o'tiladi. Sensor integratsiyaning nima ekanligi, uning boshqa kasalliklar bilan aloqasi, bugungi kunda dolzarb masalalardan biri ekanligi, pedagog kadrlar uchun yanan bir yangi o'rganilmagan soha ekanligi, bolalarni davolashda xorij tajribasining ahamiyati va yurtimizda bu sohada qilinayotgan tadqiqot ishlari haqida mulohazalar muhokama qilinadi. Sensor integratsiyasining buzilish holatlarida ko'riladigan choralar, ularning oldini olish, kerakli va zaruriy choralarni ko'rish kabi masalalar tavtish etiladi. Maqolaning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda juda ko'p nuqsoni bor yoki alohida ehtiyojga ega bolalar dunyoga kelmoqda. Buning sabablari turlicha. Ammo, jahon bo'yicha alohida ehtiyojga ega bolalar ta'limi, sog'lig'I va turmush tarsi hamisha muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ularning butun jamiyat bilan aloqasi va munosabati hamda shaxsiy dunyoqarashidagi muammolar o'rganilmoqda. Kelajakda har bir fuqaro teng huquqlardan foydalanishi uchun bugundan zamin yaratilmoqda. Pedagogika sohasi bugungi kunda faqat ta'lim-tarbiyani qamrab olmaydi. Zamonaviy pedagoglar endilikda inklyuziv ta'lim va uning mhim elementlari haqidagi ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi talab etilmoqda. Mana shunday mas'uliyatli vazialardan biri bu sensor integratsiyasi va undagi buzilishlarni oldini olishdan iborat. Maqola aynan sensor integratsiyasining ahamiyati haqida batafsil to'xtalish bilan kifoyalanmay, uning kelib chiqish sabablari va bartaraf etish uchun pedagogic-psixologik yondashuvlarni qamrab oladi. Maqolada ko'zda tutilgan tavsiyalar barchasi ilmiy asoslarga ega.

Kalit so'zlar: Sensor integratsiya, autism, nerv tizimi, hissiy ma'lumotlar, ASB, DYGS, hiperseziya, hiposeziya.

ABSTRACT

This article discusses sensory integration, another important aspect related to inclusive education. It explores what sensory integration is, its connection with other disorders, its relevance as a pressing issue today, and its status as an unexplored area for educators. The paper also highlights the significance of international experience in treating children and the research efforts being carried out in this field within our country. The article delves into the measures taken in cases of sensory integration disorders, methods of prevention, and the necessary steps to be taken. The relevance of this study lies in the fact that today, an increasing number of children with disabilities or special needs are being born. The reasons for this vary, but the education, health, and lifestyle of children with special needs remain a critical issue worldwide. The study also examines their interaction with society, social adaptation, and the personal perception challenges they face. Efforts are being made today to ensure that every citizen enjoys equal rights in the future. The field of pedagogy no longer focuses solely on education and upbringing. Modern educators are now expected to possess skills and knowledge about inclusive education and its essential elements. One of the crucial responsibilities in this field is understanding sensory integration and

preventing its disorders. This article not only explains the importance of sensory integration but also investigates its causes and pedagogical-psychological approaches to addressing the issue. The recommendations presented in the article are scientifically grounded.

Keywords: Sensory integration, autism, nervous system, sensory information, ASD, SPD, hypersensitivity, hyposensitivity.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается сенсорная интеграция, являющаяся важной составляющей инклюзивного образования. Анализируется, что такое сенсорная интеграция, ее связь с другими расстройствами, актуальность данной проблемы в современном обществе, а также ее статус как неизученной области для педагогов. В статье также подчеркивается значимость международного опыта в лечении детей и исследовательская работа, проводимая в этой области в нашей стране. Рассматриваются меры, принимаемые при нарушениях сенсорной интеграции, методы профилактики и необходимые действия. Актуальность исследования обусловлена тем, что в настоящее время наблюдается увеличение числа детей с инвалидностью и особыми образовательными потребностями. Причины этого явления различны, но вопросы, касающиеся образования, здоровья и образа жизни детей с особыми потребностями, продолжают оставаться важной темой во всем мире. В исследовании также рассматриваются их социальная адаптация, взаимодействие с обществом и проблемы личного восприятия окружающего мира. В настоящее время создаются условия для обеспечения равных прав для всех граждан в будущем. Современная педагогика уже не ограничивается только вопросами образования и воспитания. Сегодня педагоги должны обладать знаниями и навыками в области инклюзивного образования и его ключевых элементов. Одной из важнейших задач является понимание сенсорной интеграции и предотвращение ее нарушений. В данной статье не только рассматривается значимость сенсорной интеграции, но также анализируются причины ее нарушений и педагогико-психологические подходы к их устранению. Все представленные рекомендации основаны на научных данных.

Ключевые слова: Сенсорная интеграция, аутизм, нервная система, сенсорная информация, РАС, СПД, гиперчувствительность, гипочувствительность.

Kirish.

Sensor integratsiya (SI) insonning markaziy nerv tizimi tomonidan sensor (hissiy) ma’lumotlarni qabul qilish, tahlil qilish va ularga mos ravishda javob berish jarayonini anglatadi. Bu jarayon odamning kundalik hayotidagi harakatlari, o‘qishi va ijtimoiy munosabatlarida muhim rol o‘ynaydi. Sensor integratsiya nazariyasi ilk bor amerikalik psixolog va ergoterapevt Jan Ayres tomonidan 1970-yillarda ishlab chiqilgan bo‘lib, u bu kontseptsiyani “nerv tizimining hissiy ma’lumotlarni tashkil qilish jarayoni” deb ta’riflagan.[1] Ayresning fikricha, sensor integratsiya miyaning teginish, eshitish, ko‘rish, muvozanat va harakat kabi sensor tizimlardan keladigan ma’lumotlarni birlashtirib, moslashuvchan xatti-harakatlar hosil qilishga xizmat qiladi. Bu jarayon odatda avtomatik ravishda sodir bo‘lsa-da, ba’zi odamlarda, ayniqsa autizm spektri buzilishi (ASB), diqqat yetishmasligi va giperaktivlik sindromi (DYGS), sensor ishlov berish buzilishlari (SIB) yoki boshqa nevrologik holatlarga ega bo‘lgan bolalarda, sensor integratsiyada jiddiy muammolar kuzatiladi.

Sensor integratsiyaning ahamiyati zamonaviy ta’lim, psixologiya va reabilitatsiya sohasida tobora ortib bormoqda. Dunyo bo‘yicha millionlab bolalar sensor ishlov berish buzilishlaridan aziyat chekmoqda. AQShning Kasalliklarni nazorat qilish va oldini olish markazi (CDC) ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda

har 54 boladan biri autizm spektri buzilishiga ega bo‘lib, bu bolalarning taxminan 90% i sensor integratsiya muammolariga duch keladi.[2] Xuddi shunday, diqqat yetishmasligi va giperaktivlik sindromi bo‘lgan bolalarning 60-70% i sensor sezgirlik yoki sezmaslik kabi muammolarni boshdan kechiradi.[3] Bu muammolar bolalarning o‘quv jarayoniga jalb qilinishiga, ijtimoiy munosabatlariga va hatto o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, tovushga haddan tashqari sezgir bo‘lgan bola sinfda shovqin tufayli diqqatini jamlay olmaydi, teginishdan bezovtalanadigan bola esa guruhdagi jismoniy faoliyatlardan qochadi. Shu sababli, sensor muammolar bolalarning ta’lim muvaffaqiyatiga to‘siq bo‘lib xizmat qiladi va ularning hayot sifatini pasaytiradi.

O‘zbekistonda sensor integratsiya bilan bog‘liq muammolar ham dolzarb bo‘lib kelmoqda. O‘zbekiston Ta’lim Vazirligining 2023-yilgi hisobotiga ko‘ra, mamlakatda 70 mingdan ortiq bola maxsus ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lib, bu raqam har yili o‘sib bormoqda.[4] Ushbu bolalarning katta qismi sensor ishlov berish muammolariga duch kelishi taxmin qilinadi, ammo bu borada aniq statistika yo‘q. Mahalliy mutaxassislarning taxminiy hisoblariga ko‘ra, O‘zbekistonda autizm spektri buzilishi bo‘lgan bolalar soni 10 mingdan oshishi mumkin, lekin rasmiy diagnostika va ro‘yxatga olish tizimi hali to‘liq yo‘lga qo‘yilmagan. Shu bilan birga, Toshkent, Samarqand va Farg‘ona kabi yirik shaharlardagi maxsus ta’lim muassasalari sensor integratsiya terapiyasini (SIT) qisman qo‘llay boshlagan. Sensor integratsiya terapiyasi maxsus ta’limda muhim vosita sifatida qo‘llanilmoqda. SIT bolalarga sensor ma’lumotlarni to‘g‘ri qayta ishlashga yordam beradi, ularning diqqatini jamlay olish qobiliyatini oshiradi va kundalik hayotdagi faoliyatini yaxshilaydi. Xalqaro tajribada SIT AQSh, Finlyandiya va Buyuk Britaniya kabi davlatlarda inklyuziv ta’limning ajralmas qismiga aylangan. Masalan, AQShda SIT maktab dasturlariga integratsiya qilingan bo‘lib, o‘quvchilarning akademik natijalarini 15-20% ga oshirgani qayd etilgan. Finlyandiyada esa SIT o‘qituvchilarning maxsus tayyorgarligi orqali sinf muhitini yanada samarali qilgan.[5] O‘zbekiston uchun ham ushbu tajribalar muhim o‘rnak bo‘la oladi, ammo mahalliy sharoitlarni hisobga olgan holda moslashtirish talab etiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Sensor integratsiya sohasidagi tadqiqotlar 20-asrning ikkinchi yarmidan boshlab rivojlanib kelmoqda va bu sohada katta ilmiy yutuqlarga erishilgan. Sensor integratsiya nazariyasining asoschisi Jan Ayres o‘zining “Sensory Integration and Learning Disorders” asarida bu jarayonni birinchi marta tizimli ravishda o‘rgangan. Ayres sensor integratsiyani miyaning sensor tizimlardan keladigan ma’lumotlarni birlashtirib, moslashuvchan xatti-harakatlar hosil qilish jarayoni deb ta’riflaydi. Uning tadqiqotlari shuni ko‘rsatdiki, sensor integratsiya muammolari bo‘lgan bolalarda o‘quv qiyinchiliklari, motorli koordinatsiya muammolari va ijtimoiy munosabatlardagi cheklovlar tez-tez uchraydi. Ayresning ishi keyinchalik ergoterapiya va maxsus ta’lim sohasida keng qo‘llanila boshladi va bugungi kunda SITning asosiy nazariy poydevori sifatida qabul qilinadi. Ayresning yana bir muhim xulosasi shuki, sensor integratsiya miyaning plastikligiga ta’sir qiladi, ya’ni to‘g‘ri mashqlar orqali sensor qayta ishlashni yaxshilash mumkin. Bu nazariya keyingi tadqiqotlar uchun asos bo‘lib xizmat qildi.

So‘nggi o‘n yilliklarda sensor integratsiya bo‘yicha tadqiqotlar nevrologiya va psixologiya sohasida yanada chuqurlashdi. Lane o‘zining “Sensory Processing in Children” asarida sensor integratsiya muammolarining autizm spektri buzilishi (ASB) va diqqat yetishmasligi va giperaktivlik sindromi (DYGS) bilan bog‘liqligini keng yoritadi. Lane’ning tadqiqotlariga ko‘ra, sensor sezgirlikning turli ko‘rinishlari – masalan, haddan tashqari sezgirlik (hiperseziya) yoki sezmaslik (hiposeziya) – bolalarning ijtimoiy va akademik rivojlanishiga jiddiy ta’sir qiladi. Misol uchun, tovushga haddan tashqari sezgir bo‘lgan bolalarning 70% i sinfda diqqatni jamlay olmaydi, bu esa o‘quv natijalarining pasayishiga olib keladi. Lane SITning bu muammolarni kamaytirishda samarali ekanligini ta’kidlaydi va terapiya sifatida teginish (masalan, qum bilan o‘ynash), muvozanat (trampolin mashqlari) va harakat (to‘p bilan mashqlar) kabi usullarni tavsiya qiladi. Uning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, SIT

qo‘llanilgan bolalarning 60% ida xatti-harakatdagi bezovtalik darajasi sezilarli darajada kamayadi, bu esa o‘qituvchilar va ota-onalarning ijobiy mulohazalari bilan tasdiqlanadi.[6]

Piven va boshqalar “Nature” jurnalida chop etilgan maqolasida autizmli bolalardagi sensor integratsiya muammolarining nevrologik asoslarini o‘rgangan. Ular neyroimaging texnikalari yordamida o‘tkazilgan tadqiqotda autizmli bolalarning 90% i kamida bitta sensor muammoga – masalan, tovushga, teginishga yoki yorug‘likka haddan tashqari sezgirlikka – ega ekanligini aniqlagan. Bu muammolar miyaning sensor korteks va amigdalasi o‘rtasidagi neyronal aloqalarning buzilishi bilan bog‘liq. Pivenning xulosasiga ko‘ra, SIT ushbu neyronal aloqalarni qayta shakllantirish orqali sensor qayta ishlashni yaxshilashi mumkin, ammo bu ta’sirni to‘liq tasdiqlash uchun uzoq muddatli tadqiqotlar zarur. Shu bilan birga, Piven SITning samaradorligini sinash uchun randomizatsiyalangan nazorat sinovlarini o‘tkazishni tavsiya qiladi, chunki hozirgi tadqiqotlarning ko‘pchiligi kichik guruhlar bilan cheklangan.[7]

Xalqaro tajriba sensor integratsiyaning ta’lim va reabilitatsiyadagi ahamiyatini yanada aniq ko‘rsatadi. AQShda SIT maktab dasturlariga kiritilgan bo‘lib, Schaaf va Mailloux o‘zlarining “Clinician’s Guide for Implementing Ayres Sensory Integration” asarida SIT qo‘llanilgan bolalarning o‘quv natijalari 15-20% ga yaxshilangani haqida dalillar keltiradi.[8] Ularning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, SIT o‘quvchilarning diqqatini jamlay olish qobiliyatini oshiradi va motorli ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Masalan, SIT dasturida haftada 3 seans (har biri 45 daqiqa) qo‘llanilgan 50 nafar autizmli bolaning o‘quv natijalari o‘rtacha 18% ga yaxshilangan, shu bilan birga ularning sinfdagi bezovtaliklari 25% ga kamaygan. Finlyandiyada sensor integratsiya inklyuziv ta’limning ajralmas qismi sifatida qo‘llaniladi. OECD (2022) ma’lumotlariga ko‘ra, Finlyandiyada o‘qituvchilar maxsus mashg‘ulotlardan o‘tib, sensor muammoli bolalar bilan ishlashda SIT usullarini qo‘llaydi. Bu usul sinf muhitini 25% ga samaraliroq qilgan va o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvini oshirgan. Buyuk Britaniyada esa “Sensory Integration Network” tashkiloti SITni maktablar va reabilitatsiya markazlarida targ‘ib qiladi. Smith tadqiqotida SIT qo‘llanilgan bolalarning ijtimoiy ko‘nikmalari 20% ga oshgani va tengdoshlari bilan munosabatlari yaxshilangani qayd etilgan. Masalan, SIT dasturida 6 oy davomida qatnashgan 30 nafar DYGS bo‘lgan bolaning guruhdagi faolligi 15% ga oshgan.[9]

O‘zbekistonda sensor integratsiya bo‘yicha tadqiqotlar hali boshlang‘ich bosqichda. Mahalliy adabiyotlarda bu mavzu asosan inklyuziv ta’lim kontekstida qisqacha yoritilgan bo‘lib, ko‘proq umumiy ma’lumotlar berish bilan cheklanadi. Juda ko‘p manbaalarda maxsus ehtiyojli bolalar soni ko‘payayotgani ta’kidlanadi, lekin sensor integratsiya muammolarini aniqlash va davolash bo‘yicha maxsus dasturlar yetishmaydi. Shu bilan birga, Toshkentdagi maxsus ta’lim markazlari kabi muassasalarda SIT usullari qisman qo‘llanilmoqda.

Ushbu mavzuda ilmiy tadqiqot ishlari olib borayotgan yurtimiz ilmiy tadqiqotchilarining ishlari sanoqli va o‘zbek tilida bu manbaalarni toppish deyarli ilojsiz. Shunday bo‘lsada, izlanishlar davomida o‘zbek tilidagi adabiyotlardan quyidagilar topildi. Yangi asr universiteti o‘qituvchisi G.Xamidova o‘zining “Maktabgacha yoshdagi autism elementlari bo‘lgan bolalarda uchrovchi sensor buzilishlari, ularni erta aniqlash va tashxislashning ustuvor yo‘nalishlari” nomli maqolasida sensor buzilishlarning autism kasalliklari bilan uzviy bog‘liq ekanligini tasdiqlaydi va sensor buzilishga ega bolalarni davolash va bu kasalliklarni bartaraf etish uchun turli xil metodlarni taklif etadi. [10]

Test nomi	Qamrab olinadigan sezgi tizimlari	Baholash mezonlari	Natijani talqin qilish
Sensor Profil (Dunn, 1999)	Taktil, eshituv, ko'ruv, proprioseptiv, vestibulyar tizimlar	Bola qanday qilib sezgilarga javob beradi, harakatlarning mosligi va reaksiya vaqtini o'rganadi	Normaga mos kelmaslik darajasi autizm spektrida sezgi buzilishlarini ko'rsatishi mumkin
Sensor jarayonlar o'lchovi testi The Sensory Processing Measure (SPM)	Vestibulyar va proprioseptiv tizimlar	Bola qanday qilib harakatlarni boshqaradi va muvofiqlashtiradi	Buzilish darajasi bola harakatlarida disfunktsiyani ko'rsatishi mumkin
Bolalik autizmi o'lchov shkalasi Childhood Autism Rating Scale (CARS)	Ijtimoiy aloqalar, sezgi qobiliyatlari	Bolaning sezgi tizimlaridan keladigan ma'lumotlarni qayta ishlash qobiliyatlarini o'rganadi	Yuqori ball autizm va sensor integratsiya buzilishlarini ko'rsatadi

1-jadval: G. Xamidova maqolasida keltirilgan sensor texnologiya metodlari uchun testlar

Hafta	Mashg'ulotning mazmuni	Texnologiyalar	Maqsad
1-hafta	Taktil sezgilarni rivojlantirish	Taktil o'yinchoqlar	Teginish sezgilari orqali o'zaro aloqani mustahkamlash
2-hafta	Ko'ruv sezgilarni kuchaytirish	Rangli kartochkalar	Rang va shakllar yordamida idrokni kuchaytirish
3-hafta	Eshituv mashg'ulotlar	Tovushli o'yinlar	Eshitish va tovushlarga javob berish ko'nikmalarini rivojlantirish
4-hafta	Vestibulyar tizimni rivojlantirish	Balans mashqlari	Muvozanat va harakatlarni boshqarish qobiliyatini rivojlantirish
5-hafta	Proprioseptiv mashg'ulotlar	Harakatli o'yinlar	Tana sezgilarini rivojlantirish
6-hafta	Umumiy sensor integratsiya mashg'uloti	Turli xil sensor o'yinlar	Muloqot va sensor sezgilarning umumiy rivojlanishi

2-jadval: 6 hafta davomida olib boriluvchi sensor texnologiyalari metodlari.

Autizm kasalliklari bilan og‘rigan bolalarda kasallik belgilari ilk aniqlangandayoq mutaxassis bilan maslahatlashish tavsiya etiladi. Sensor integratsiyasining buzilish kasalliklarida ham xuddi shunday tavsiyalar foydadan holi bo‘lmaydi. Sensorik buzilishlar aniqlash va uni bartaraf etishga doir tavsiyalar xorijiy olimlarning e’tiboridan chetda qolmagan. Jumladan, Hindistondagi nutq va eshitishga yo‘naltirilgan Milliy institute ilmiy tadqiqotchilari tomonidan nashrga berilgan “Capitalizing on technology for developing communication skills in autism spectrum disorder: a single case study” maqolasida bir nechta metodlar va tavsiyalar berib o‘tadi. Maqolada aniq tashxis va tajriba-sinovga guvoh bo‘lish mumkin. Unda autizm bilan og‘rigan bemorning oddiy kommunikativ ko‘nikmalar, sezgi integratsiyasining buzilishi kabi nuqsonlar aniqlanadi. (masalan, hid bilish, teginish orqali qidirish va og‘zaki muloqotdagi ba’zi muammolar) Tadqiqotchilar buni davolash uchun bir nechta metodlarni sinab

ko‘rishadi: Sezgi uchun bosma materiallar, kompyuterga asoslangan interaktiv platforma shular jumlasidandir.

NATIJALAR.

Sensor integratsiya maxsus ehtiyojli bolalarning ta’lim va rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi, bu adabiyotlar tahlilida aniq ko‘rsatildi. Ayres (1972) va Lane (2020) ishlariga ko‘ra, sensor integratsiya miyaning sensor ma’lumotlarni qayta ishlash qobiliyatini oshiradi, bu esa bolalarning diqqatini jamlay olish va o‘zlashtirish darajasini yaxshilaydi. Xususan, SIT qo‘llanilgan bolalarda akademik ko‘rsatkichlarning oshishi (Schaaf & Mailloux, 2015) va ijtimoiy munosabatlardagi yaxshilanishlar (Smith, 2023) xalqaro tadqiqotlarda tasdiqlangan. Masalan, AQShda SIT qo‘llanilgan sinflarda o‘quvchilarning o‘qish va matematika natijalari o‘rtacha 15-20% ga oshgan, bu esa sensor integratsiyaning ta’limdagi bevosita ta’sirini ko‘rsatadi. Finlyandiyada SIT sinf muhitini 25% ga samaraliroq qilgani OECD (2022) tomonidan qayd etilgan bo‘lib, bu tajriba O‘zbekiston uchun muhim ma’lumot bo‘la oladi.

Sensor integratsiyaning nevrologik asoslari Piven va boshqalar tadqiqotida aniq tasdiqlangan. Ularning neyroimaging natijalari shuni ko‘rsatadiki, autizmli bolalardagi sensor muammolar miyaning neyronal aloqalari buzilishi bilan bog‘liq. SIT ushbu aloqalarni qayta shakllantirish orqali sensor qayta ishlashni yaxshilaydi, bu esa bolalarning xatti-harakatlarini tartibga soladi va akademik muvaffaqiyatga yordam beradi. Shu bilan birga, SITning ijtimoiy moslashuvga ta’siri ham katta: Lane (2020) ma’lumotlariga ko‘ra, SIT qo‘llanilgan bolalarning 60% ida sinfdagi bezovtalik kamayib, tengdoshlari bilan muloqoti yaxshilangan. Bu xulosa Smith tadqiqotida ham tasdiqlanadi, unda SIT bolalarning guruhdagi faolligini 20% ga oshirgani qayd etilgan.

Hindistonlik tadqiqotchilar aniqlagan xulosalar orqali mazkur bemorda fikr bildirish va ehtiyojlarni aniq ifodalash qobiliyati sezilarli darajada yaxshilangan. Ammo 6 oylik reabilitatsiyadan hech qanday natija chiqmagan. Qo‘llanilgan zamonaviy texnologiyalar asosida muloqotdagi ba’zi kamchiliklar ham keskin kamaygan. Shu yo‘sinda foydasiz deb topilgan metodlar ichida reabilitatsiya qatoriga rasmli muloqot ham qo‘shilgan. Bemorning onasi rasmli muloqot metodini qabul qilmaganligi uchun va samarali natija bermagani uchun bu metod ham bekor qilingan. Zamonaviy-yordamchi texnologiyalar va vositalar orqali bemordagi sensor integratsiyasidagi muammolar hal qilinishi bilan bir qatorda undagi mustaqil nazorat hissi shakllanishiga ham sabab bo‘lgan. [11]

MUHOKAMA.

O‘zbekistonda sensor integratsiyani qo‘llash potentsiali yuqori bo‘lsa-da, bir qator cheklovlar mavjud. Birinchidan, sensor muammolarni aniqlash uchun yetarli diagnostika vositalari yo‘q. Masalan, “Sensory Profile” yoki “Sensory Processing Measure” kabi standartlashtirilgan so‘rovnomalar mahalliy sharoitda keng qo‘llanilmaydi, bu esa muammolarni erta aniqlashni qiyinlashtiradi. Xalqaro tajribada bu vositalar maktab psixologlari tomonidan faol ishlatiladi, masalan, AQShda har yili 100 mingdan ortiq bola ushbu usullar bilan tekshiriladi O‘zbekistonda esa bunday tizim yo‘qligi sababli sensor muammolar ko‘pincha e’tibordan chetda qoladi va bolalar “tartibsiz” yoki “diqqatsiz” deb noto‘g‘ri baholanadi.

Ikkinchidan, o‘qituvchilarning sensor integratsiya bo‘yicha bilimlari yetarli emas. Ma’lumotlariga ko‘ra, maxsus ta’lim muassasalarida ishlaydigan o‘qituvchilarning atigi 20% i maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlash bo‘yicha maxsus kurslardan o‘tgan. Finlyandiyada esa o‘qituvchilarning 90% i SIT bo‘yicha sertifikatga ega bo‘lib, bu sinf muhitini boshqarishda katta yordam beradi. O‘zbekistonda o‘qituvchilarning aksariyati sensor muammolar haqida umumiy tushunchaga ega bo‘lsa-da, SIT usullarini qo‘llash bo‘yicha amaliy tajribasi yo‘q. Bu esa sinf muhitida tartibsizlik va o‘quv jarayonining samarasizligiga olib keladi.[12]

Uchinchidan, infratuzilma yetishmovchiligi jiddiy muammo sifatida qolmoqda. SIT qo‘llanilishi uchun maxsus xonalar, trampolinlar, balans taxtalari, teginish materiallari (qum, loy) va shovqinsiz muhit

kerak. Biroq, O‘zbekistondagi ko‘pgina maktablarda bunday sharoitlar mavjud emas. Masalan, Toshkentdagi maxsus ta’lim muassasalarida SIT xonalari sinov tariqasida tashkil qilingan bo‘lsa-da, ularning soni cheklangan va viloyatlarda umuman yo‘q. AQShda esa har bir maxsus ta’lim maktabida SIT uchun maxsus jihozlangan xonalar mavjud bo‘lib, bu terapiyaning samaradorligini oshiradi (Schaaf & Mailloux, 2015).

Xalqaro tajribani O‘zbekistonga moslashtirishda Finlyandiya va AQSh misollari muhim o‘rin tutadi. Finlyandiyada SIT inklyuziv ta’limning bir qismi sifatida qo‘llaniladi va o‘qituvchilar davlat tomonidan moliyalashtiriladigan mashg‘ulotlardan o‘tadi. Bu model O‘zbekistonda ham qo‘llanilishi mumkin, ammo buning uchun davlat dasturlari va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash zarur. AQShda SIT maktab psixologlari va ergoterapevtlar tomonidan boshqariladi, bu esa O‘zbekistonda maxsus mutaxassislar tayyorlash zarurligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, Buyuk Britaniya tajribasi SITni ota-onalarni jalb qilish bilan birlashtirish imkonini beradi, chunki ota-onalarning qo‘llab-quvvatlashi bolalarning uy sharoitidagi rivojlanishiga yordam beradi.

XULOSA

Maqola shuni ko‘rsatadiki, sensor integratsiya terapiyasi maxsus ehtiyojli bolalarning ta’lim muvaffaqiyatini oshirishda va sinf muhitini yaxshilashda samarali vositadir. O‘zbekistonda SITni inklyuziv ta’lim dasturlariga kiritish, o‘qituvchilar tayyorgarligini oshirish va maxsus jihozlangan xonalarni tashkil qilish orqali bu sohada katta yutuqlarga erishish mumkin. Kelajakda SITning mahalliy sharoitdagi ta’sirini o‘rganish uchun uzoq muddatli tadqiqotlar o‘tkazish va infratuzilmani rivojlantirish zarur. Shu bilan birga, ota-onalarni jarayonga jalb qilish SITning uy sharoitidagi samaradorligini oshiradi va bolalarning umumiy rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

E.Schopler, R.J.Reichler va B.R.Renner tomonidan ishlab chiqilgan ***Bolalar autizmi reyting shkalasi (CARS)*** 2 yoshdan boshlab autizmli bolalarni klinik va dinamik baholash uchun foydalanish maqsadga muvofiq bo‘lgan standartlashtirilgan vositadir. Shkala bolaning xatti-harakatlarini bevosita kuzatishga asoslangan. Tadqiqot jarayonida 15 ta belgi baholanadi: odamlar bilan o‘zaro munosabatlar; taqlid qilish; hissiy reaksiyalar; harakat chaqqonligi; buyumlardan foydalanish; moslashuv o‘zgarishlari; ko‘rish idroki; ta’m, hid bilish, teginish idroki; xavotirli reaksiyalar, qo‘rquvlar; og‘zaki muloqot; og‘zaki bo‘lmagan muloqot; bolaning umumiy faollik darajasi; bilish faoliyatining darajasi va ketma-ketligi; DSM-IV bilan bog‘liq bo‘lgan klinitsistning umumiy taassuroti. CARS taklif qilingan aralashuvlarning samaradorligini aniqlash uchun umumiy rivojlanish buzilishlari bo‘lgan bolalarni davriy nazorat qilish uchun ishlatiladi.

Differensial diagnostika uchun keyingi diagnostika usuli - Autizm diagnostikasi uchun ***kuzatuv shkalasi (ADOS)*** bo‘lib, u turli yosh guruhlarida autizm va umumiy (pervaziv) rivojlanish buzilishlarini baholash va tashxislash uchun ***"oltin standart"*** deb ataladi.

ADOS metodikasi "Umumiy rivojlanish buzilishlari" tashxisi bilan bog‘liq ijtimoiy va kommunikativ xulq-atvorni kuzatish imkonini beruvchi turli tadbirlardan iborat. Bu chora-tadbirlar bola uchun qiziqarli, lekin shu bilan birga u va mutaxassis o‘rtasida o‘zaro ta’sir bo‘lishi mumkin bo‘lgan me’yoriy shart-sharoitlarni ta’minlaydi. Metodika to‘rtta modulni o‘z ichiga oladi; ularning har birini qo‘llash uchun atigi 35-40 daqiqa kerak bo‘ladi. Tekshiriluvchiga uning faol nutq darajasi va yoshiga qarab faqat bitta modul beriladi:

1-modul nutqi qiyin bo‘lgan yoki umuman gapirmaydigan bolalarga nisbatan qo‘llaniladi;

2-modul - erkin gapira olmaydiganlarga nisbatan qo‘llaniladi;

3-modul - erkin gapiradigan bolalarga nisbatan qo‘llaniladi;

4-modul - erkin gapiradigan o‘smirlar va kattalar uchun qo‘llaniladi. Metodikani gapirmaydigan o‘smirlar va kattalar uchun qo‘llash maqsadga muvofiq emas.

ADOS ijtimoiy xulq-atvor va muloqotni kuzatishga qaratilgani bois, tadqiqotchi (suhbatdosh-intervyu oluvchi)ning tashkiliy maqsadi o‘zaro aloqa sodir bo‘ladigan qiziqarli standart vaziyatlarni ta’minlashdan iborat. Standartlashtirish suhbatdosh erishishi kerak bo‘lgan xulq-atvor shakllarining muayyan ierarxiyasidan va tekshiruv davomida har bir faoliyat turi uchun namoyon bo‘ladigan xulq-atvor turlarini hisobga olishdan iborat. Har bir ADOS modulini qo‘llashda qaydlar olinadi; yakuniy baholar, hatto uchrashuv videoga yozib olingan bo‘lsa ham, tekshiruv tugashi bilan darhol qo‘yiladi. ADOSdan foydalanish sifati suhbatdoshning klinik ko‘nikmalari va ushbu vositani qo‘llash tajribasiga bog‘liq. Baholar har bir modul uchun taqdim etilgan diagnostik algoritmni qo‘llash orqali tashxis qo‘yish uchun ishlatiladi.

Izchil korreksion va rivojlantirish ishlarini olib borish uchun bolaning psixomotor, ijtimoiy va bilish jarayonlarining rivojlanish xususiyatlari haqida boy ma’lumot beradigan usullarni qo‘llash zarur. Bunday ma’lumotlar asosida individual korreksion va rivojlantirish dasturini ishlab chiqish, shuningdek,

ma'lum vaqt oralig'ida (masalan, har olti oyda) bolaning rivojlanish dinamikasini kuzatib borish mumkin.

Autizm bilan og'rigan bolani chuqur tashxislash va uni o'qitish hamda rivojlantirishning individual yo'naltirilgan dasturini yozish uchun keng qo'llaniladigan usullar orasida ***Vaynlendning moslashuvchan xulq-atvor shkalasi*** (Vineland Adaptive Behavior Scale - VABS), ***Psixorivojlanish profili*** (Psychoeducational Profile Revised, PEP-R), ***verbal xulq-atvor darajasini baholash va dasturni ishlab chiqish*** (The Verbal Behavior Milestones Assessment and Placement Program, VB-MAPP) va boshqalar mavjud.

Vaynlend shkalasi moslashuvchanlikni baholashning umume'tirof etilgan vositasi hisoblanadi. Shkala olingan ma'lumotlarning ishonchliligi, haqqoniyligi va validligi bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga ega. Vaynlend shkalasi moslashuvchan faoliyat darajasini tashxislash uchun ham, alohida ehtiyojli bolalar va kattalar uchun tuzatish va rivojlantirish dasturlarini rejalashtirish va ularning samaradorligini baholash uchun ham qo'llaniladi. Shakliga ko'ra, bu yarim tuzilgan suhbat bo'lib, uning jarayonida bolaning ota-onasi yoki uning yaqin atrofidagi insonlar suhbatdoshning savollariga javob beradilar.

Shkala 0 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun 11 oy davomida qo'llaniladi va u hayot faoliyatining to'rtta asosiy sohasini baholashga imkon beradi: muloqot (xabarlarni tushunish qobiliyati sifatida retseptiv ko'nikmalar; ekspressiv va yozma ko'nikmalar), kundalik hayotiy ko'nikmalar (o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish, ijtimoiy-maishiy ko'nikmalar, jamoat joylarida o'zini tutish), ijtimoiylashuv (shaxslararo munosabatlar, o'yin, bo'sh vaqt, hamkorlik qobiliyati) va harakat ko'nikmalari (umumiy va nozik motorika). Bolaning har qanday soha bo'yicha faoliyati shkala bo'yicha aniqlanadi; ushbu bahoga muvofiq har bir sohada bolaning rivojlanish darajasi belgilanadi. Moslashuvchan xulq-atvor (ijtimoiy kompetentlik) sohasidagi individual holat grafik shaklda taqdim etilishi va ijtimoiy-moslashuv yetukligining belgilangan yosh me'yorlariga nisbatan raqamli va tavsifiy ko'rinishlarda ifodalanishi mumkin.

"PEP-R psixorivojlanish profili" testi ham autizmli shaxslarni tashxislashda butun dunyoda tan olingan. Test tekshirilayotgan shaxsning ma'lum sohalar bo'yicha faoliyat ko'rsatish darajalarini miqdoriy baholaydi, ta'lim jarayonida ularning kompensatsiya imkoniyatlarini aniqlaydi, bolaning individual psixomotor va nutqiy rivojlanishining ehtimoliy yo'nalishini bashorat qiladi, ta'lim jarayonida ma'lum bir shaxsga xos muammolarni tushunishga yo'naltiradi. PEP-R testi 6 oylikdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan. Uni 12 yoshgacha bo'lgan, ba'zi funksiyalari birinchi sinf o'quvchisi darajasidan past bo'lgan bolalar uchun ham qo'llash mumkin (o'smirlar/yoshlar va kattalar uchun alohida profil mavjud). Test o'yin va o'quv sinovlari, bola bilan bevosita muloqot shaklida o'tkaziladi. Test ikkita shkaladan iborat: Rivojlanish shkalasi 7 sohani (taqlid, idrok, mayda motorika, umumiy motorika, ko'rish-harakat koordinatsiyasi, kognitiv funksiyalar, muloqot, faol nutq) va Xulq-atvor shkalasi 4 sohani (aloqa o'rnatish va hissiy reaksiyalar, o'yin va predmetlarga qiziqish, stimullarga javob, til/nutq) qamrab oladi. "Shakllangan" / "shakllanmagan" xulosalaridan tashqari, "Shakllanmoqda" (eng yaqin rivojlanish zonasini hisobga olgan holda) xulosasi ham kiritilgan. Test natijasida yaratilgan profil har bir bolada u yoki bu psixik funksiyaning shakllanganlik holati qaysi biologik yoshga to'g'ri kelishini aniqlash imkonini beradi.

VB-MAPP metodikasi autizmli bolalar va nutqida kechikish bo'lgan boshqa shaxslarni baholash vositasidir. VB-MAPP B.Skinnerning nutq va boshqa xulq-atvor turlari, shuningdek, rivojlanishning belgilangan bosqichlari bo'yicha ishlanmalariga asoslanadi. Metodikaning beshta tarkibiy qismi samaradorlikning asosiy darajasini, aralashuv yo'nalishini, egallangan ko'nikmalarni kuzatish tizimini belgilaydi va o'quv dasturlarini rejalashtirishning asosini tashkil etadi. Metodikaning dastlabki ikki komponenti quyidagi vazifalarga qaratilgan: boladagi og'zaki va ularga yaqin ko'nikmalarning mavjud holatini aniqlash (uch rivojlanish darajasi bo'yicha: 0-18, 18-30 va 30-48 oy) hamda o'rganishdagi

to‘siqlarni aniqlash (xulq-atvor muammolari, o‘rganishda boshqaruvchanlik, ko‘rsatmalarni bajarishdagi qiyinchiliklar, taqlid, ko‘rish va eshitish idroki, ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirish, umumlashtirish qobiliyati, motivatsiya, autostimulyatsiya, giperaktiv xulq-atvor, sensor himoyaning mavjudligi). Ushbu to‘siqlarni aniqlagan mutaxassis bu muammolarni bartaraf etish va bolaning samarali ta’lim olishiga ko‘maklashish uchun aniq aralashuv strategiyalarini ishlab chiqishi mumkin.

*VB-MAPP*ning uchinchi va to‘rtinchi tarkibiy qismlari ma’lum bir bolaning ta’lim ehtiyojlarini qondirish, uning ta’lim muassasasiga kirish bosqichlari, dolzarb va uzoq muddatli vazifalarni hal qilish uchun qarorlar qabul qilish va ustuvorliklarni belgilashda ta’lim makonida bolani kuzatib borish guruhining malakali ishlashini ta’minlashga yordam beradi. Metodikaning beshinchi komponenti o‘quv dasturlari va aralashuv dasturlari o‘rtasida zarur muvozanatni o‘rnatish orqali integrativ-inklyuziv ta’lim tizimida bolaga hamrohlik qiluvchi guruh ishini kuchaytirishga hissa qo‘shadi.

Alohida ta’kidlash joizki, diagnostik muolajani o‘tkazishdagi asosiy jihat (ayniqsa, autizmli bola bilan) nafaqat metodika, balki tashxis qo‘yuvchining o‘zidir: uning tajribasi, mutaxassis sifatidagi iste’dodi tekshiruv jarayonini amalga oshiradi, natijalarni talqin qiladi va individual tuzatish-rivojlantirish dasturini ishlab chiqadi. Diagnostik vositalar yordamida ishlab chiqilgan yo‘riqnomalar va tavsiyalar bilan ularning amaliy joriy etilishi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ham g‘oyat muhimdir. Gap shundaki, muayyan korreksion-rivojlantiruvchi muassasada autizm bo‘yicha xabardor mutaxassislar chuqur tashxis qo‘yadilar va ushbu muassasa mutaxassislari autizmli bolalarga yordam ko‘rsatish kontekstida o‘rinli bo‘lgan muolajalarga e’tibor qaratgan holda psixologik-pedagogik ta’sir ko‘rsatish dasturini tuzadilar. Har qanday holatda ham, chuqur diagnostik tekshiruvni o‘tkazish va korreksion-rivojlantiruvchi dasturni ishlab chiqishning eng muhim talablari quyidagilarga e’tibor qaratishdir: bolaning yaxlit ruhiy tashkiloti, uning dolzarb ehtiyojlari va optimal rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan korreksion-rivojlantiruvchi chora-tadbirlar tizimi.

MUHOKAMA

ASB tashxisining asosiy qiyinchiliklari orasida tashxis jarayonining subyektivligi va har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olish zarurati mavjud [8]. Turli diagnostik vositalarning taqqoslanishi shuni ko‘rsatdiki, CARS va ADOS metodlari tashxisni aniq qo‘yishda samarali hisoblanadi [9]. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, tashxis jarayonini soddalashtirish va takomillashtirish uchun maxsus yondashuvlar ishlab chiqish lozim [10].

Qayta ishlangan manbalar asosida autizmli bolalarda **diagnostik tekshiruvlarni amalga oshirish standartlarini belgilashda quyidagi yondashuvlarni farqlashimiz mumkin:**

1. Autik turdagi rivojlanish buzilishlariga shubha qilingan bolalarni aniqlash uchun skrining. Diagnostika markerlari; CHAT, M-CHAT, ADI-R usullaridan foydalanish.

2. Tashxisni aniqlash (tasdiqlash) uchun differensial diagnostika, shuningdek, uning og‘irlik darajasini aniqlash. DSM-IV va XKT-10 xalqaro tasniflash to‘plamlarining diagnostik mezonlariga mos keladigan CARS va ADOS usullariga tayanish.

3. Chuqurlashtirilgan (fenomenologik) diagnostika bolalar uchun o‘quv va rivojlantiruvchi dasturlarni ishlab chiqishning asosi sifatida dolzarblik, aniqlik, o‘lchovlilik, erishish mumkinligi va ketma-ketlik, shuningdek, uzluksizlik kabi yo‘nalishlarni hisobga olgan holda. Tegishli diagnostik vositalardan foydalanish: Vaynlendning moslashuvchan xulq-atvor shkalasi (Vineland Adaptive Behavior Scale - VABS); Psixota’lim profili (Psychoeducational Profile Revised, PEP-R); Verbal xulq-atvor darajasini baholash va dasturni ishlab chiqish (The Verbal Behavior Milestones Assessment and Placement Program, VB-MAPP); bolaning yaxlit rivojlanishini baholashga va psixologik-pedagogik ta’limning samarali, amaliy yo‘naltirilgan tizimini ishlab chiqishga imkon beradigan diagnostika usullari majmuasi.

Emotsional-irodaviy sohaning buzilish darajasini aniqlash (O.S.Nikolskaya bo‘yicha ASB varianti)

Ushbu bosqichning maqsadi bolaning rivojlanishiga mos keladigan dasturni tanlash uchun autizmli dizontogenez turini aniqlashdir. Bunga bolaning xulq-atvori va spontan faoliyatini kuzatish yordamida erishiladi, bu esa boshlang‘ich darajada hissiy-irodaviy sohaning mumkin bo‘lgan buzilishlarini baholashga imkon beradi. So‘ngra, bolaning ko‘rsatilayotgan imkoniyatlariga qarab, mutaxassis u bilan aloqa o‘rnatish va o‘zaro ta’sirni tashkil etish natijasida uni yanada o‘rganishi mumkin.

Mutaxassis autizm namoyon bo‘lishining tashqi belgilari: poza, ritm va harakatlar xarakteri, yuz mimikasiga e’tibor qaratadi. Bolaning yuz ifodasi va mimikasi qotib qolgan bo‘lishi mumkin.

Bolaning xulq-atvorini baholashda uning adekvatligi va atrofdagilardan manfaatdorligi yoki uzoqlashganiga e’tibor beriladi. Bola o‘zi uchun yangi va notanish bo‘lgan sharoitga qanday munosabatda bo‘lishini ta’kidlash kerak: befarq, xotirjam yoki onasining orqasiga yashirinadi, baqiradi, urishadi, xonaga kirishni xohlamaydi, uni kuch bilan tortishadi.

Aloqaning adekvatligi bolaning affektiv sohasining buzilish darajasiga bog‘liq. O‘zaro ta’sirni tashkil etish shakli bolaning ixtiyoriy faoliyati va unga kattalarning qo‘shilishi bo‘lishi mumkin. Bolaning tegishli rivojlanish darajasida bunday birgalikdagi faoliyat o‘yinga aylanishi mumkin. Agar birgalikdagi o‘yinni shakllantirishning iloji bo‘lmasa, mutaxassis xona maydonini shunday tashkil etadiki, bunda bolaga ko‘rsatilayotgan buyumlar yordamida uning xatti-harakati va faoliyatiga iloji boricha rahbarlik qilish mumkin.

Bolaning buyumlar bilan qanday harakat qilishiga, manipulyatsiyalar autostimulyator xarakterga egami, u buyumlardan o‘yin vazifasi bo‘yicha foydalanadimi yoki ularga boshqa ma’nolar beradimi; qisqa syujetli epizodlarni o‘ynaydimi (ayiqchani oldi, mashinaga qo‘ydi, aylantirdi); qo‘rquvlarni boshdan kechirish bilan bog‘liq syujetlarni o‘ynashga moyillik sezadimi, bunga e’tibor berish muhimdir.

Autistik bolaning hissiy-irodaviy va kommunikativ-ehtiyoj sohalarining xususiyatlarini baholashda O.S.Nikolskaya tasnifida ajratilgan autistik dizontogenezning asosiy mezonlariga tayanish kerak.

Autik bolalarning kognitiv sohasi xususiyatlarini o‘rganish

Bu bosqichda quyidagi vazifalar hal etiladi:

- bolalarning bilim va ko‘nikmalari darajasini aniqlash;

- ularning imkoniyatlariga mos keladigan ta’lim dasturlarini belgilash.

XULOSA

Autizm spektri buzilishlari tashxisida samarali skrining va differensial diagnostika tizimlari zarur. Turli metodikalar va texnologiyalarning kombinatsiyasi natijalar aniqligini oshirishga yordam beradi [11]. Erta tashxis qo‘yish va mos pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish orqali autizmli bolalarning rivojlanish imkoniyatlarini oshirish mumkin [12].

Umuman olganda, bolaning kognitiv sohasini diagnostik tekshirish muolajasi tabiiy ravishda paydo bo‘lishi, bola bilan aloqa o‘rnatish bosqichidan u bilan o‘ynashga silliq o‘tishi kerak. Tavsiya etilayotgan qo‘llanmalar, buyumlar, didaktik o‘yinlarning xarakteri va bolaning ularga bo‘lgan munosabati albatta hisobga olinishi kerak.

Yaxshi ishlayotgan bola kutilmaganda paydo bo‘lgan toliqish yoki zerikish tufayli emas, balki unga ish uchun taqdim etilgan predmetga o‘zining noadekvat reaksiyasi - undan asossiz qo‘rqish tufayli topshiriqni bajarishni to‘xtatishi mumkin. Shu munosabat bilan ba’zi qo‘llanmalarni xonaning turli joylariga qo‘yib qo‘ygan ma’qul, shunda bola ularga asta-sekin o‘rganib qoladi va ular unga yangi va notanish bo‘lib tuyulmaydi. Bolaning o‘ziga xos ehtiyojlari va tanlovchanligini hisobga olgan holda biron-bir jarayonni o‘rganishga mo‘ljallangan bir nechta qo‘llanmalarni joylashtirish mumkin. Bolaning

faoliyatini tashkil etish uchun o‘yinchoq yoki buyumlarni tanlashda onasi va yaqinlarining bola nimani afzal ko‘rishi haqidagi ma’lumotlariga albatta e’tibor qaratish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shattuck, P. T., & Grosse, S. D. (2007). Delayed diagnosis and service utilization among children with autism spectrum disorder. Pediatrics, 120(5), 1122-1130.

2. Baron-Cohen, S. (1996). The CHAT checklist for autism in toddlers. Journal of Autism and Developmental Disorders, 26(5), 611-619.

3. American Academy of Pediatrics (AAP) (2020). Recommendations for autism screening in children. Pediatrics, 145(3), e20193447.

4. World Health Organization (WHO) (2018). International Classification of Diseases (ICD-11). Geneva: WHO.

5. Schopler, E., Reichler, R. J., & Renner, B. R. (1988). The Childhood Autism Rating Scale (CARS). Journal of Autism and Developmental Disorders, 18(1), 91-100.

6. Isroil Autizmni Tekshirish Markazi (2019). Autism Screening Techniques.

7. Kennedy Krieger Institute (2021). Early Detection of Autism Spectrum Disorder.

8. DSM-V va ICD-11 xalqaro tasniflari (2019). Autism Diagnostic Criteria.

9. ADOS va CARS diagnostik metodikalar taqqoslanishi (2020). Autism Research Journal.

10. Ukraina Sog‘liqni saqlash vazirligi (2022). Autism Diagnosis and Early Intervention.

11. Autism Speaks Organization (2021). Early Screening and Intervention.

12. Britaniya Milliy Autizm Rejasi (2020). Autism Educational Strategies.

13. Qodirova F.U, Pulatova D.A., Autizm sindromli bolalar bilan ishlash metodikasi. O‘quv qo‘llanma: T- Zebo prints, 2023 yil.

BOLALARDA EHTIYOJDAN QONIQISH DARAJASI VA UNI YUZAGA KELTIRUVCHI OMILLAR

Yuldasheva Yulduz Raximbay qizi.
Chirchiq davlat pedagogika unversiteti.
Pedagogika fakulteti , psihologiya yonalishi 2 bosqich talabasi.

ANNOTATSIYA

Bolalarda ehtiyojdan qoniqish darajasi - bu ularning asosiy va psixologik ehtiyojlarining qanchalik darajada qondirilganligini ko'rsatuvchi muhim ko'rsatkichdir. Bu bolaning umumiy farovonligi, ruhiy salomatligi va rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi. Ehtiyojlar qondirilmagan taqdirda, bolada turli xil muammolar, jumladan, xulq-atvor buzilishlari, depressiya va o'qishga qiziqishning yo'qolishi kabi holatlar kuzatilishi mumkin. Bolalar psixologik jihatdan murakkabdir, ularning dunyolari, o'zlariga munosib ravishda ehtiyojlari va ularning chegaraviy darajalari ham bor, maqolamizda esa bu ehtiyojlarni yuzaga keltiruvchi omillar haqida malumot berildi.

Bolalarda ehtiyojdan qoniqish darajasini oshirish - bu ularning farovonligi, ruhiy salomatligi va rivojlanishiga investitsiya qilish demakdir. Bu jamiyatning kelajagiga qo'shgan hissa hisoblanadi.

Bolalarning asosiy ehtiyojlari:

• Fiziologik ehtiyojlar: Oziq-ovqat, suv, uy-joy, kiyim-kechak va sog'liqni saqlash kabi hayotiy zaruriyatlar.

• Xavfsizlik ehtiyojlari: Jismoniy va hissiy xavfsizlik, barqarorlik, tartib va qonun-qoidalar.

• Ijtimoiy ehtiyojlar: Sevgi, mehr, do'stlik, oila va jamiyatga mansublik hissi.

• Hurmat ehtiyojlari: O'ziga bo'lgan hurmat, boshqalar tomonidan hurmat qilinish, muvaffaqiyatga erishish va e'tirof etilish.

• O'zini anglash ehtiyojlari: O'z qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish, ijod qilish, o'rganish va shaxs sifatida o'sish.

Kalit so'zlar: emotsional holat, Indulgentsiya, munosabat, xavfsizlik zarurati

Kirish

Bugungi kunda bolalar psixalogiyasida kuzatilayotgan ba'zi o'zgarishlar ota-onalarimizga bu boradagi bilimlarning kamligidandir. Zotan har bir bolaning moddiy va ma'naviy ehtiyojlari bor. XIX-XX asrlarda sanoat inqilobi va shaharlarning o'sishi oilaviy tuzilmalarning o'zgarishiga olib kelgani barchamizga malum. Moddiyatga berilish oqibatida ota-onalarning ish bilan bandligi, oilaviy munosabatlarning zaiflashishi bolalarning emotsional ehtiyojlariga e'tiborni kamaytirdi. Bolalar psixologiyasida ikkinchi zarba ikkinchi jahon urishi davrida kechdi, zotan bu davrda Urushdan keyingi davrda oilalarning parchalanishi, iqtisodiy qiyinchiliklar va ijtimoiy beqarorlik bolalar psixologiyasiga ta'sir qildi. XXI asrda texnologiyalarning rivojlanishi, ayniqsa internet va ijtimoiy tarmoqlar bolalar psixologiyasida uchinchi yangi muammolarni olib keldi. Internetdagi qaramlik va shu kabi muammolar avj olganligi sababli maqolamizda bolalar ehtiyojlari haqida so'z yuritamiz.[1,3]

Asosiy qism

Bolaning ehtiyojlarini qondirish uning rivojlanishining muhim shartidir. Uning shaxsiyatini shakllantirishda uning asosiy fiziologik ehtiyojlari, sevgi, xavfsizlik va e'tirofga bo'lgan ehtiyojlar qanchalik qondirilishi alohida rol o'ynaydi. Ushbu ehtiyojlarning birortasini keltirib chiqarish, etarli

darajada qondirish insonning o'zi va atrofidagi dunyo bilan uyg'unlikda yashashiga yordam beradigan asosiy shaxsiy tuzilmalarning (o'zini o'zi qadrlash, o'ziga ishonch va boshqalar) shakllanishiga to'sqinlik qiladi.

Indulgentsiya (U+ shkalasi). Biz ota-onalar maksimal va tanqidsiz qoniqishga intiladigan holatlarda indulgentsiya haqida gapiramiz bolaning yoki o'smirning har qanday ehtiyojlari. Ular uni "erkalik". Uning har qanday istaklari ular uchun tabiiy hol. Bunday tarbiya zarurligini tushuntirib, ota-onalar odatiy ratsionalizatsiya bo'lgan dalillarni keltiradilar - "bolaning zaifligi", uning eksklyuzivligi, ota-onasi tomonidan bir vaqtning o'zida mahrum bo'lgan narsadan unga berish istagi, bola otasiz o'sayotganligi va boshqalar. Odatdagi bayonotlar U+ shkalasida berilgan. Ota-onalar ongsiz ravishda o'zlarining ilgari qondirilmagan ehtiyojlarini o'z farzandlariga taklif qilishadi va ularni ta'lim faoliyati orqali qondirish yo'llarini izlaydilar. Bolaning ehtiyojlarini e'tiborsiz qoldirish (U-shkalasi). Bunday tarbiya uslubi indulgentsiyaga qarama-qarshi bo'lib, ota-onaning bolaning ehtiyojlarini qondirish istagining etarli emasligi bilan tavsiflanadi. Ko'pincha ruhiy ehtiyojlar azoblanadi, ayniqsa, hissiy aloqa va ota-ona bilan muloqot qilish zarurati. [5]

“G‘amxo‘r ota-ona” davra suhbatida biz imkon qadar asosiy ehtiyojlar masalalarini ochib berishga harakat qildik, chunki oila va bola bir-birining ko‘zgusi. Bunday masalalarni muhokama qilish yig'ilishda qatnashgan har bir ota-onaga o'z oilasidagi vaziyatni baholash, xatolarini tahlil qilish va tegishli xulosalar chiqarishga yordam beradi.

Metodlar va natijalar

Fiziologik ehtiyojlar (hayotiy) - bolaning hayotiy funktsiyalarini saqlab qolish imkonini beradigan ehtiyoj turi. Ularni qondirishdan qisqa muddatli voz kechish bolaning hayotiy faoliyatida barcha jiddiy yo'llar bilan (ovqatlanishda, dam olishda, uyquda, nafas olishda va hokazo) buzilishlarga olib kelishi mumkin.

Aynan bolalar uchun eng zarur hayotiy ehtiyojlar - bu yumshoq teginishlar, onaning erkalashlari, bu bolaga o'zini his qilishiga, tanasining chegaralarini bilishiga yordam beradi, bu esa umr bo'yi o'z-o'zini tarbiyalash uchun yordam bo'lib qoladi.

Shartsiz sevgiga bo'lgan ehtiyoj haqiqatan ham insonning hayotiy ehtiyojidir. Bu yaxshi va yumshoq munosabatga bo'lgan ehtiyoj. Bu, shuningdek, bolaning boshqa birov bilan emas, balki o'zi sifatida ko'rish, boshqa hech kim bilan taqqoslanmaslikdir. Oddiy qilib aytganda, bu boshqa odamlarning ko'z o'ngida bo'lish zarurati. Sevgi va insonning o'zini o'zi qabul qilishi ota-onasi uni bolaligida qanchalik sevganiga va qabul qilganiga bog'liq.

Xavfsizlik zarurati. Bolalar bu turdagi ehtiyojga eng ko'p muhtoj bo'lgan aholi toifasi. Ular katta bo'lib, jamiyatda o'z o'rnini topib olishlari uchun yillar o'tadi. Bu yillar davomida ular himoyaga, qo'rquv va qayg'udan xalos bo'lishga ehtiyoj sezadilar. Ular hayotdan qo'rqmaydigan, jamiyatga moslashgan ota-onalarning mavjudligini, bu qo'rquvni xotirjam qabul qilishni, ularga bu qo'rquvni ifoda etishga yordam berishni, qiyinchiliklarga duch kelishni o'rganishni talab qiladi. Bolalar o'z oilasining yordamini his qilishlari kerak.[2]

E'tirof yoki hurmatga muhtoj. Har bir inson doimo e'tirofga, o'z xizmatlarini barqaror va yuqori baholashga muhtoj. Bolaga uning harakatlari va yutuqlari ma'qullanishi, tan olinishi va qadrlanishi kerak.

Shuni ta'kidlash kerakki, bolalik davrida qondirilmagan ehtiyoj kattalar shaxsining asosiy motivatsion kuchiga aylanadi. Shaxsning shakllanishida oilaning roli oilaning turi va unda tarbiyalangan shaxs bilan belgilanadi.

Xulosa

Bolalar psixologiyasidagi muammolar doimo mavjud bo'lgan, ammo ularning avj olishi va rivojlanishi jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik o'zgarishlar bilan bog'liq. Ushbu muammolarni hal qilish uchun ota-onalar, o'qituvchilar, psixologlar va jamiyatning birgalikdagi harakatlari zarur. Mehr va muhabbatga boy oilaviy muhit, bolaning savollari bilan qiziqish, do’stona jamolar shakillantirib berish, maktab va bog’cha kabi davralardagi psixalogik vaziyatning yumshoq ekanligiga ishonch hosil qilib turish lozim. Zero bola shakillanayotgan vaqtda to’siqlar, turli cheklovlar unga nisbatan ishlatilgan haqoratli yoki balan tovushdagi so’zlar uning ehtiyojlarini qondirilmasligiga va qobiqqa o’ralib olishiga sabab bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi (Z.Nishanova, G.Alimova)
2. https://razvitie-rebenka.pro/biblioteka/stepen-udovletvoreniya-potrebnostej-rebenka/
3. Л.С. Выготский. «Педагогическая психология»
4. David R. Shaffer, Katherine Kipp, "Developmental Psychology: Childhood and Adolescence"
5. https://xn----7sbbkm2awcgrm9d.xn--p1ai/iblock/news/informacija_k_svedeniju/e/udovletvorenie_potrebnosti_rebjonka__vazhnoe_uslovie_stanovlenija_lichnosti_04-03-2019/

CHARACTERISTICS OF THE COLLABORATION BETWEEN THE TEACHER AND THE STUDENT IN PRIMARY EDUCATION.

ОСОБЕННОСТИ СОТРУДНИЧЕСТВА МЕЖДУ УЧИТЕЛЕМ И УЧАЩИМСЯ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

BOSHLANG‘ICH SINFDA O‘QITUVCHI VA O‘QUVCHI O‘ZARO HAMKORLIGINING XUSUSIYATLARI

Mirkosimova Xulkar Mirobidovna

ORCID ID: https://orcid.org/0009-0000-9152-2952

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

Babakulova Farangiz Uktamovna, Tuychiyeva Gulmira Kadirovna , Siyaparova Nilufar Qahramon qizi, Nuriddinova Ozoda Xamidulla qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Tabiiy fanlar fakulteti , Biologiya yo‘nalishi 3-bosqich talabalari

ABSTRACT

This article explores the key characteristics of teacher-student collaboration in primary school settings, focusing on the significance of mutual interaction in educational processes. The study investigates various aspects of this collaboration, including communication, feedback, and active participation. It emphasizes the role of teachers as facilitators of learning, while also highlighting the importance of fostering an environment where students are encouraged to take ownership of their learning. The research identifies the benefits of effective collaboration, such as increased student engagement, better understanding of the material, and the development of critical thinking skills.

Keywords: Teacher-student collaboration, primary school, communication, feedback, learning environment, student engagement, critical thinking.

АБСТРАКТНЫЙ

В данной статье исследуются ключевые характеристики взаимодействия учителя и ученика в начальной школе, уделяя особое внимание значению взаимного взаимодействия в образовательных процессах. В исследовании изучаются различные аспекты этого сотрудничества, включая коммуникацию, обратную связь и активное участие. В нем подчеркивается роль учителей как фасилитаторов обучения, а также подчеркивается важность создания среды, в которой учащиеся поощряются к тому, чтобы они брали на себя ответственность за свое обучение. В исследовании выявлены преимущества эффективного сотрудничества, такие как повышение вовлеченности студентов, лучшее понимание материала и развитие навыков критического мышления.

Ключевые слова: Сотрудничество учителя и ученика, начальная школа, общение, обратная связь, учебная среда, вовлеченность учащихся, критическое мышление.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola boshlang‘ich sinfda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlikning asosiy xususiyatlarini tahlil qiladi va o‘qish jarayonida o‘zaro aloqaning ahamiyatiga e’tibor qaratadi. Tadqiqotda bu hamkorlikning turli jihatlari, jumladan, muloqot, fikr-mulohaza va faol ishtirok etish kabi

masalalar ko‘rib chiqiladi. Maqolada o‘qituvchining o‘rganish jarayonidagi o‘rgatuvchi roli va o‘quvchilarni o‘z bilimlariga egalik qilishga undashning muhimligi ta’kidlanadi. Tadqiqot samarali hamkorlikning foydalari, masalan, o‘quvchilarni jalb qilishning oshishi, materialni yaxshiroq tushunish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish kabi jihatlariga e’tibor qaratadi.

Kalit so‘zlar: O‘qituvchi-o‘quvchi hamkorligi, boshlang‘ich sinf, muloqot, fikr-mulohaza, o‘rganish muhiti, o‘quvchilarni jalb qilish, tanqidiy fikrlash.

KIRISH

Boshlang‘ich sinfda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik, ta’lim jarayonining muvaffaqiyatini belgilovchi eng muhim omillardan biridir. O‘qituvchining pedagogik mahorati va o‘quvchilarning psixologik ehtiyojlarini inobatga olish, o‘qish jarayonining samaradorligini oshiradi. Bu hamkorlikning ijobiy, tushunarli va qo‘llab-quvvatlovchi shakllari o‘quvchilarning o‘z salohiyatini amalga oshirishiga va umumiy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Maqolaning maqsadi, boshlang‘ich sinfda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlikning xususiyatlarini aniqlash va bu hamkorlikning ta’lim jarayoniga ta’sirini o‘rganishdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Boshlang‘ich ta’limda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik haqida bir qancha ilmiy tadqiqotlar mavjud. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlik faqat o‘quvchilarning bilim olishiga yordam bermasdan, balki ularning ijtimoiy va hissiy rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchilar o‘qituvchi bilan o‘zaro hurmat, ishonch va qo‘llab-quvvatlashni sezganlarida, ta’lim jarayoniga bo‘lgan munosabatlari yanada ijobiy bo‘ladi. Pedagogik psixologiya sohasida olib borilgan izlanishlarga ko‘ra, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlikda emotsional aloqalar muhim rol o‘ynaydi.[1]O‘quvchilarni rag‘batlantirish va motivatsiya qilish, shuningdek, o‘quvchilarni o‘zlarini ifodalashga imkon berish ularning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqot sifatli tadqiqot metodlariga asoslanadi. Maqolada boshlang‘ich sinfda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni o‘rganish uchun kuzatish, suhbat va intervyu usullari qo‘llanildi. Tadqiqotda o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar, hamkorlikning qanday shakllari ishlatilayotgani, shuningdek, bu hamkorlikning ta’lim jarayonidagi o‘rni tahlil qilindi.[2] O‘qituvchi va o‘quvchilarning fikrlari, his-tuyg‘ulari va munosabatlari o‘rganilib, ta’lim jarayonidagi muvaffaqiyatga ta’sir etuvchi asosiy omillar aniqlanadi.

O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning birinchi va eng muhim xususiyati, ijobiy psixologik muhit yaratishdir. O‘qituvchi o‘quvchilarning psixologik ehtiyojlarini hisobga olib, ularni tushunishga harakat qilishi kerak. O‘qituvchining ijobiy va qo‘llab-quvvatlovchi yondashuvi o‘quvchilarda o‘zlariga bo‘lgan ishonchni oshiradi va ularning ta’limga bo‘lgan munosabatini yaxshilaydi. O‘quvchilar o‘qituvchining yordami bilan o‘z salohiyatlarini rivojlantirishlari mumkin. Shuningdek, ijobiy muhitda o‘quvchilar o‘zlarining qobiliyatlarini to‘liq namoyish etishga imkon topadilar.[3]

Boshlang‘ich ta’limda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro hurmat va ishonchning o‘rni juda katta. O‘qituvchi o‘quvchining fikrini tinglash, uning savollariga e'tiborli javob berish va unga qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish kerak. Shu bilan birga, o‘quvchilarning o‘zlarini ishonchli va hurmatli his qilishlari zarur. Bu holat o‘quvchilarning o‘quv jarayonidagi faolligini oshiradi va ularni o‘z bilimlarini yanada rivojlantirishga undaydi.

Har bir o‘quvchi o‘ziga xosdir va ularning ehtiyojlari, qobiliyatlari hamda qiziqishlari farq qiladi. Shuning uchun, boshlang‘ich sinfda o‘qituvchi har bir o‘quvchiga individual yondashuvni qo‘llashi

zarur. O‘qituvchi o‘quvchilarning o‘ziga xos xususiyatlarini tushunib, o‘quvchilarni o‘z bilim darajasiga mos tarzda rivojlantirishga yordam berishi kerak. Bu yondashuv o‘quvchilarning o‘qishdagi muvaffaqiyatini oshiradi va ularning ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlikda motivatsiya va rag‘batlantirish ham muhim omil hisoblanadi. O‘qituvchining o‘quvchilarni muvaffaqiyatlari uchun maqtash, ularni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Shuningdek, o‘quvchilar o‘z maqsadlariga erishish uchun intilishadi va o‘qishdagi muvaffaqiyatlariga erishish uchun o‘zlarini yanada ko‘proq harakatga keltiradilar.

O‘qituvchi o‘quvchilarga emotsional qo‘llab-quvvatlashni ham ta’minlashi kerak. Boshlang‘ich sinfda o‘quvchilarning hissiy holati va ruhiy rivojlanishi juda muhimdir. O‘qituvchi o‘quvchilarning hissiyotlarini tushunib, ularni ko‘maklashib, muammolarini hal qilishda yordam berishi zarur. Emotsional qo‘llab-quvvatlash o‘quvchilarga o‘zlarini erkin his qilishlariga yordam beradi va ular o‘qish jarayoniga yanada faollik bilan kirishadilar.[4]

O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi samarali hamkorlik nafaqat individual ravishda, balki guruhlar va jamoalar shaklida ham amalga oshiriladi. Jamoaviy ish orqali o‘quvchilar o‘zaro hamkorlikda ishlashni o‘rganadilar, bir-birlarining fikrlarini tinglashadi va birgalikda muammolarni hal qilishadi. Jamoaviy faoliyat, ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi va o‘quvchilarning o‘z fikrlarini erkin ifodalashiga imkon yaratadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Boshlang‘ich sinfda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlik ta’lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. O‘quvchilarning o‘z salohiyatlarini amalga oshirishlari, o‘qishga bo‘lgan qiziqishni oshirish va ijtimoiy-emotsional rivojlanishlarini qo‘llab-quvvatlashda ijobiy psixologik muhit yaratish muhimdir. Shuningdek, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro hurmat va ishonch, motivatsiya va individual yondashuv o‘quvchilarning o‘qishdagi muvaffaqiyatlarini oshiradi.

XULOSA

Boshlang‘ich sinfda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi samarali hamkorlik, ta’lim jarayonining muvaffaqiyatini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchining o‘quvchilarga individual yondashuvi, rag‘batlantirishi, emotsional qo‘llab-quvvatlashi va jamoaviy ishlarni tashkil etish hamkorlikning samarali bo‘lishiga yordam beradi. O‘quvchilar o‘zlarini hurmat qilingan va qo‘llab-quvvatlangan muhitda his qilganlarida, o‘qishdagi muvaffaqiyatlarini yanada yuqori darajaga ko‘taradilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdunazarova, Z. A. (2023). Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni ijtimoiy rivojlantirishning nazariy asoslari. *Pedagogika va psixologiya ilmiy jurnali*, 2(1), 45-52.

2. Asatova, B. F. (2023). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ta'lim va tarbiya olishida ekskursiyaning o‘rni. *Ta'lim va tarbiya jarayonlari*, 3(4), 67-74.

3. Dexkanova, M. U., & Metinboyeva, S. (2023). Kommunikativ yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tarbiyaviy faoliyatini tashkil etish. *Innovatsion ta'lim texnologiyalari jurnali*, 5(2), 88-95.

4. Dexkanova, M. U., & Metinboyeva, S. (2023). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tarbiyaviy faoliyatini tashkil etishning innovatsion texnologiyalari. *Pedagogik innovatsiyalar va tajribalar*, 4(3), 102-110.

5. Imomov, M. P. (2023). Professional ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv – kollej o‘quvchilarida kasbiy madaniyatni rivojlantirishning asosi sifatida. *Kasbiy ta'lim va rivojlanish*, 6(1), 55-63.

6. Shavkatjonova, D. S. (2015). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini didaktik o‘yinlar orqali mantiqiy fikrlashga o'rgatish metodikasi. *Pedagogik psixologiya va ta'lim texnologiyalari*, 2(1), 34-42.

7. Nazarova, G. A., & Primova, Z. A. (2021). Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilar nutqini o‘stirish usullari. *Pedagogika va psixologiya ilmiy jurnali*, 3(2), 86-92.

8. Vygotsky, L. S. (1986). Thought and Language. Cambridge: MIT Press.

BOSHLANG‘ICH SINFDA O‘QITUVCHI VA O‘QUVCHI MUNOSABATINING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Mirkosimova Xulkar Mirobidovna
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0000-9152-2952
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi
Ergashaliyeva Zuhraxon
Ergashaliyeva Fotimaxon
Anorova Farangiz
Ashirbayeva Arzigul Erbol qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Tabiiy fanlar fakulteti
Biologiya yo‘nalishi 3-bosqich talabalari

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola boshlang‘ich sinfda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning psixologik asoslarini chuqur o‘rganishga bag‘ishlangan. Boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchining shaxsiy rivojlanishi, o‘quv motivatsiyasi va ijtimoiy moslashuvi ko‘p jihatdan o‘qituvchi bilan shakllangan munosabatlar sifati bilan bog‘liq bo‘ladi. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi ishonch, hurmat, hamkorlik va o‘zaro anglashuv mazkur munosabatlarning psixologik negizini tashkil etadi. Maqolada aynan ushbu psixologik omillarning mohiyati, ularning shakllanishiga ta’sir etuvchi tashqi va ichki omillar, o‘qituvchining shaxsiy fazilatlari va pedagogik mahoratining roli ilmiy tahlil qilinadi. Maqolada ushbu omillarni samarali ta’lim jarayonida qo‘llash uchun zamonaviy pedagogik metodologiyalar, jumladan, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish, konfliktologiya va sinf iqlimini boshqarish bo‘yicha tavsiyalar keltirilgan. O‘zbekiston maktablarida olib borilgan kuzatuvlar asosida maqolada o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi sog‘lom psixologik iqlim yaratishning samarali usullari aniqlangan. Natijalar o‘qituvchilarga amaliy ko‘nikmalarni oshirishda, o‘quvchilarning psixologik salomatligi va ta’lim sifati yaxshilanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqola pedagoglar, maktab psixologlari va ta’lim tashkilotchilari uchun foydali ilmiy-amaliy manba sifatida tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf, o‘qituvchi, o‘quvchi, munosabatlar, psixologik asoslar, ta’lim jarayoni, ishonch, metodologiya.

ABSTRACT

This article is devoted to an in-depth study of the psychological foundations of the relationship between a teacher and a student in the primary school. At the primary school level, the personal development, learning motivation and social adaptation of a student are largely related to the quality of the relationship formed with the teacher. Trust, respect, cooperation and mutual understanding between the teacher and the student form the psychological basis of these relationships. The article scientifically analyzes the essence of these psychological factors, the external and internal factors influencing their formation, the role of the teacher's personal qualities and pedagogical skills. The article presents recommendations on modern pedagogical methodologies for using these factors in an effective educational process, including a person-centered approach, the development of communicative competencies, conflictology and classroom climate management. Based on observations conducted in Uzbek schools, the article identifies effective methods for creating a healthy psychological climate between the teacher and the

student. The results are of great importance for teachers in improving their practical skills, improving students' psychological health, and improving the quality of education. This article is recommended as a useful scientific and practical resource for educators, school psychologists, and educational organizers.

Keywords: primary school, teacher, student, relationships, psychological foundations, educational process, trust, methodology.

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена углубленному изучению психологических основ взаимоотношений учителя и ученика в начальной школе. В период начального образования личностное развитие ученика, мотивация к обучению и социальная адаптация во многом зависят от качества складывающихся взаимоотношений с учителем. Психологическую основу этих отношений составляют доверие, уважение, сотрудничество и взаимопонимание между учителем и учеником. В статье научно анализируется сущность этих психологических факторов, внешние и внутренние факторы, влияющие на их формирование, а также роль личностных качеств и педагогического мастерства учителя. В статье представлены рекомендации по использованию данных факторов в эффективном образовательном процессе с использованием современных педагогических методик, включающих личностно-ориентированный подход, развитие коммуникативных компетенций, конфликтологию и управление климатом в классе. В статье на основе наблюдений, проведенных в узбекских школах, определяются эффективные методы создания здорового психологического климата между учителями и учениками. Результаты важны для учителей с точки зрения совершенствования их практических навыков, улучшения психологического здоровья учащихся и повышения качества образования. Данная статья рекомендуется как полезный научный и практический ресурс для педагогов, школьных психологов и организаторов образования.

Ключевые слова: начальная школа, учитель, ученик, отношения, психологические основы, образовательный процесс, доверие, методология.

KIRISH

Boshlang‘ich ta’lim - bola rivojlanishining dastlabki bosqichlarida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan jarayon. Bu davrda bolalar o‘zlarining ilk bilimlarini olishadi, o‘qituvchi va sinfdoshlari bilan muloqot qilishni o‘rganishadi va shaxsiy rivojlanishlarida katta o‘zgarishlar yuz beradi. Shuning uchun o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlarning psixologik asoslarini yaxshi tushunish va qo‘llab-quvvatlash juda muhim.

Boshlang‘ich sinfda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlar ta’limning asosiy vaqti va ahamiyatini belgilovchi omildir. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida to‘g‘ri va ijobiy munosabatlar o‘rnatilishi, ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi, o‘quvchilarni rivojlantiradi va ularning o‘qishdagi muvaffaqiyatlarini ta’minlaydi. Ushbu maqola boshlang‘ich sinfda o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlarining psixologik asoslarini o‘rganish, ularning ta’lim jarayoniga ta’sirini tahlil qilish, shuningdek, ushbu munosabatlarni yaxshilash uchun psixologik va metodologik yondashuvlarni tavsiya etishni maqsad qiladi.

Boshlang‘ich sinfdagi o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlari bir necha omillarga bog‘liq bo‘lib, ular orasida ishonch, hurmat, hamkorlik va o‘qituvchining emotsional qo‘llab-quvvatlashi alohida o‘rin tutadi. Quyida ushbu munosabatlarning asosiy psixologik omillari keltirilgan: O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlarning asosiy omillaridan biri ishonchdir. O‘qituvchi bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish uchun unga diqqatli va g‘amxo‘r bo‘lishi, uning savollariga javob berishi va

muvaffaqiyatlarini e'tiborga olishi kerak. Bu ishonch bolada o‘zini erkin ifoda qilishiga va yangi bilimlarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirishga yordam beradi. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hurmatli munosabatlar ham muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi bolalarni hurmat qilishi va ularning fikrlarini tinglashi, ularni baholashda adolatli bo‘lishi kerak. Bu bolalarda o‘zlarini hurmat qilish va boshqa odamlarga nisbatan hurmat ko‘rsatishni o‘rganishga yordam beradi.

Boshlang‘ich sinfda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlik o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi. O‘qituvchi bolalarning faolligini rag‘batlantirishi, ularni savollarga javob berishga va jamoada ishlashga jalb qilishi kerak. Bu bolalarda muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish va jamoaviy ishlashga o‘rganishga yordam beradi.[1] O‘qituvchi bolalarga emotsional qo‘llab-quvvatlash ko‘rsatishi ham juda muhimdir. Bolalarning muammolarini tinglash, ularga yordam berish va ularni ruhlantirish o‘qituvchining vazifalariga kiradi. Bu bolalarda o‘zlariga bo‘lgan ishonch va motivatsiyani oshirishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Boshlang‘ich sinfda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlarning psixologik asoslari haqida bir qancha ilmiy ishlar mavjud. Psixologik nazariyalar va pedagogik tajribalar bu munosabatlarni yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilarning psixologik holati, o‘qituvchining pedagogik uslublari, o‘quvchilarning ehtiyojlari va motivatsiyasi bu munosabatlarning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi.[2] Ko‘plab tadqiqotlar o‘qituvchilarning ijobiy psixologik holati va pedagogik kompetensiyasi o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirishga yordam berishini ko‘rsatadi. O‘qituvchi o‘quvchilarning hissiy va intellektual rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan holda, ta’lim jarayonini yuqori darajaga ko‘taradi. Metodologiya sifatida, maqolada sifatli tadqiqot usullari, shuningdek, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi psixologik munosabatlarni o‘rganishda intervýular, kuzatishlar va anketalar kabi usullar qo‘llaniladi.

NATIJALAR

O‘tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, boshlang‘ich sinfda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning o‘quvchilarning psixologik rivojlanishi va ta’lim jarayonining samaradorligida hal qiluvchi ahamiyatga ega ekani aniqlandi. Tahlil jarayonida bir nechta muhim xulosalarga kelindi:

1. Ishonchli va ijobiy munosabatlar o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi. O‘qituvchi tomonidan berilgan ishonch, rag‘bat va hurmat o‘quvchilarda o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonch hissini kuchaytiradi, bu esa ularning dars jarayonidagi faol ishtirokini ta’minlaydi.

2. O‘qituvchining psixologik madaniyati va kommunikativ ko‘nikmalari munosabatlarning sifati uchun asosiy omildir. O‘zaro anglashuv va muloqot jarayonida o‘qituvchining empatiya, sabr-toqat, adolat va e’tibor ko‘rsatishi sinfda ijobiy psixologik iqlim yaratishga xizmat qiladi.

3. Salbiy munosabatlar o‘quvchilarda stress va bezovtalikni kuchaytiradi. Tadqiqot davomida qat’iy, sovuq yoki befarq munosabat namoyon bo‘lgan sinflarda o‘quvchilarning diqqat, o‘qishga qiziqish va ijtimoiy moslashuv darajasi pastligi kuzatildi.

4. Sinf ichida ijobiy muloqotni qo‘llab-quvvatlash o‘quvchilarning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Do‘stona muhit, tengdoshlar bilan hamkorlik va o‘zaro hurmatni shakllantirishda o‘qituvchining vositachilik roli muhim ekani isbotlandi.

5. Innovatsion pedagogik metodlar ijobiy natija beradi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, o‘yinli metodlar va muloqotga asoslangan yondashuvlar o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatlarini yanada mustahkamlashga xizmat qilishi aniqlandi.

MUHOKAMA

Boshlang‘ich sinfda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi ijobiy munosabatlar o‘quvchilarning o‘qishdagi muvaffaqiyatlarini sezilarli darajada oshiradi. O‘qituvchilarning empatiyasi, sabr-toqatliligi va

motivatsion yondashuvlari o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytiradi. Bundan tashqari, o‘quvchilar o‘zlarini ishonchli va qulay muhitda his qilganlarida, ular o‘z salohiyatlarini to‘liq amalga oshiradilar. Shuningdek, o‘qituvchilarning individual yondashuvi, o‘quvchilarning psixologik ehtiyojlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega.[4] Psixologik nuqtai nazardan, o‘quvchilarni rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash ularning ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir qiladi.

Xulosa

Boshlang‘ich sinfda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi psixologik munosabatlar ta’lim jarayonining samaradorligini belgilovchi muhim omildir. O‘quvchilarni psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ularning ehtiyojlari va motivatsiyasini hisobga olish, o‘qituvchining pedagogik uslublari bilan uyg‘unlikda ishlash o‘quvchilarning o‘qishdagi muvaffaqiyatini oshiradi. Shu bilan birga, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi ishonch va hurmat asosida yaratilgan ijobiy psixologik muhit ta’lim jarayonini yanada samarali qiladi.

FOYDALANİLGAN ADABİYOTLAR

9. Abdunazarova, Z. A. (2023). Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni ijtimoiy rivojlantirishning nazariy asoslari. *Pedagogika va psixologiya ilmiy jurnali*, 2(1), 45-52.

10. Asatova, B. F. (2023). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ta’lim va tarbiya olishida ekskursiyaning o‘rni. *Ta’lim va tarbiya jarayonlari*, 3(4), 67-74.

11. Dexkanova, M. U., & Metinboyeva, S. (2023). Kommunikativ yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tarbiyaviy faoliyatini tashkil etish. *Innovatsion ta’lim texnologiyalari jurnali*, 5(2), 88-95.

12. Dexkanova, M. U., & Metinboyeva, S. (2023). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tarbiyaviy faoliyatini tashkil etishning innovatsion texnologiyalari. *Pedagogik innovatsiyalar va tajribalar*, 4(3), 102-110.

13. Imomov, M. P. (2023). Professional ta’lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv – kollej o'quvchilarida kasbiy madaniyatni rivojlantirishning asosi sifatida. *Kasbiy ta'lim va rivojlanish*, 6(1), 55-63.

14. Shavkatjonova, D. S. (2015). Boshlang‘ich sinf o'quvchilarini didaktik o‘yinlar orqali mantiqiy fikrlashga o'rgatish metodikasi. *Pedagogik psixologiya va ta'lim texnologiyalari*, 2(1), 34-42.

15. Nazarova, G. A., & Primova, Z. A. (2021). Boshlan‘'ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilar nutqini o'stirish usullari. *Pedagogika va psixologiya ilmiy jurnali*, 3(2), 86-92.

16. Vygotsky, L. S. (1986). Thought and Language. Cambridge: MIT Press.

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA KONFLIKTLI XULQ-ATVORNING PSIXOLOGIK DETERMENANTLARI

Mirkosimova Xulkar Mirobidovna
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0000-9152-2952
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi
Turg‘unova Zarnigor Tojiali qizi
Sobirjonova Robiya Rashid qizi
Mugalimova Oygul Rafik qizi
Normamatova Dinora Norbekova

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari orasida uchraydigan konflikli xulq-atvor, jumladan, agressiya, itoatkorlikning yetishmasligi, hujumkorlik kabi salbiy xatti-harakatlarning psixologik determinantlari keng qamrovli tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida ushbu muammolarning kelib chiqish sabablari sifatida bolaning individual psixologik xususiyatlari, temperament tipi, hissiy barqarorlik darajasi, oila ichidagi tarbiya uslubi, ota-ona va farzand o‘rtasidagi o‘zaro munosabat sifati chuqur o‘rganiladi. Bundan tashqari, maktab muhitidagi o‘qituvchi va tengdoshlar bilan bo‘ladigan munosabatlar, sinf ichidagi psixologik iqlim va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash darajasi ham bolaning xulq-atvoriga qanday ta’sir ko‘rsatishi asoslantiriladi. Maqolada ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, oilaning moddiy ahvoli, mahalla va jamoa muhitining barqarorligi kabi tashqi omillar bolalardagi konflikli xatti-harakatlar shakllanishidagi bilvosita ta’siri statistik ma’lumotlar asosida ko‘rsatib beriladi. Tadqiqot davomida O‘zbekiston maktablarida olib borilgan empirik kuzatuvlar va so‘rovnoma natijalari tahlil qilinib, xalqaro tadqiqotlar bilan solishtirma tahlil asosida qiyosiy natijalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Konflikt, boshlang‘ich sinf, o‘qituvchi, o‘quvchi, xulq-atvor.

АННОТАЦИЯ

В статье представлен комплексный анализ психологических детерминант конфликтного поведения среди учащихся начальной школы, включая агрессию, непослушание и негативное поведение, такое как агрессия. В ходе исследования глубоко изучаются причины возникновения этих проблем, включая индивидуально-психологические особенности ребенка, тип темперамента, уровень эмоциональной устойчивости, стиль воспитания в семье, качество взаимоотношений родителей и ребенка. Кроме того, обосновывается, как взаимоотношения с учителями и сверстниками в школьной среде, психологический климат в классе, уровень социальной поддержки влияют на поведение ребенка. В статье на основе статистических данных показано косвенное влияние внешних факторов, таких как социально-экономические условия, материальное положение семьи, стабильность среды обитания и общества, на формирование конфликтного поведения у детей. В исследовании были проанализированы эмпирические наблюдения и результаты опросов, проведенных в узбекских школах, а также представлены сравнительные результаты, основанные на сравнительном анализе с международными исследованиями.

Ключевые слова: Конфликт, начальная школа, учитель, ученик, поведение.

ABSTRACT

This article provides a comprehensive analysis of the psychological determinants of conflict behavior among primary school students, including aggression, lack of obedience, and negative behaviors such as aggression. In the course of the research, the individual psychological characteristics of the child, temperament type, level of emotional stability, family upbringing style, and the quality of the relationship between parents and children are studied in depth as the causes of these problems. In addition, it is substantiated how relationships with teachers and peers in the school environment, the psychological climate in the classroom, and the level of social support affect the child's behavior. The article shows the indirect impact of external factors such as socio-economic conditions, the financial situation of the family, and the stability of the neighborhood and community environment on the formation of conflict behavior in children based on statistical data. The study analyzed empirical observations and survey results conducted in Uzbek schools, and presented comparative results based on a comparative analysis with international studies.

KIRISH

Boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalar uchun ijtimoiylashuv jarayoni muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu davrda ularning shaxsiyati, o‘zini tutish normalari va jamiyat bilan o‘zaro munosabatlari shakllanadi. Lekin ba’zi holatlarda, o‘quvchilarda konfliktli xulq-atvor namoyon bo‘lib, bu ularning o‘qish jarayoniga, jamoadagi obro‘siga va rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu maqolada konfliktli xulq-atvorning shakllanishiga ta’sir qiluvchi psixologik determinantlar o‘rganiladi. Boshlang‘ich sinf yoshi (6-12 yosh) bolalarda ijtimoiy munosabatlar, axloqiy qadriyatlar va xulq-atvor normalarini shakllantirishning eng sezgir davri hisoblanadi. Shu davrda kuzatiladigan konflikli xulq-atvor (masalan, do‘stlar bilan janjallashish, o‘qituvchiga itoatsizlik, hujumkorlik) bolaning keyingi rivojlanishida jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Zamonaviy pedagogik amaliyotlar shuni ko‘rsatadiki, bunday xatti-harakatlarning ildizi ko‘pincha psixologik omillarda yashaydi. Maqolaning maqsadi - konflikli xulq-atvorni shakllantiruvchi determinantlarni aniqlash va ularni oldini olish yo‘llarini taklif qilishdir.

Konfliktli xulq-atvor egalari bo‘lgan kichik maktab o‘quvchilarini psixologik qo‘llab-quvvatlash maktabda o‘qishning boshidan boshlab o‘quvchilar o‘rtasidagi ziddiyat darajasini aniqlashga qaratilgan tizimli diagnostika ishlarini, shuningdek, bolalardagi nizolar darajasini kamaytirishga qaratilgan psixokorreksion ishlarini o‘z ichiga oladi. Kichik yosshdagi o‘quvchilarda shaxsiy va xulq-atvor muammolarining butun majmuasi uyatchanlik asosida paydo bo‘lishi mumkin, bu yuqori vaziyat va shaxsiy tashvish, o‘ziga shubha, aybdorlik va o‘ziga past baho berish bilan tavsiflangan integral shaxsiy sifat shaklida tushunilishi mumkin. Bu muammolar oilaviy tarbiyaning kamchiliklari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin; kommunikativ va interaktiv xususiyatlar (aloqa qilmaslik, passivlik, sherikga e'tibor bermaslik, xushmuomalalik etishmasligi, kelishuvga erisha olmaslik va boshqalar); psixologik xususiyatlar (autizm, majruhlik, bag‘ritoshlik, apatiya, psixologik mos kelmaslik, kognitiv qiyinchiliklar va boshqalar); xarakterologik xususiyatlar (negativizm, ishonchsizlik va shubha, muvofiqlik va boshqalar); ruhiy muvozanat va somatik stress. Uyatchan, o‘ziga ishonchi yo‘q kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarini psixologik qo‘llab-quvvatlashning mazmuni - bu uyatchanlik darajasi va sabablarini aniqlashga qaratilgan psixodiagnostik ish, tashvish, aybdorlik darajasini pasaytirish, o‘zini-o‘zi hurmat qilish va o‘ziga ishonchni shakllantirish uchun psixokorrektiv ish, turli psixokoreksiya usullari yordamida samarali muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Kichik yoshdagi o‘quvchilarda maktabga moslashish muammosining yuqori darajasini ularni turli vaziyatlarda tashvishlanishga moyil bo‘lgan shaxsiy xususiyat sifatida bolalarning ruhiy va jismoniy sog‘lig‘iga, ta'lim faoliyatining muvaffaqiyatiga ta'sir qiladigan ruhiy tushkunlik ko‘rsatkichi sifatida

ko‘rish mumkin. Kichkina o‘quvchining tashvishi, qo‘rquvning yuqori darajasi oiladagi vaziyat, oilaviy ta'limning o‘ziga xos xususiyatlari va ota-onalarning bola bilan o‘zaro munosabati, sinfdagi hissiy muhit, o‘qituvchilarning pedagogik muloqot uslubi, shaxsiy xususiyatlar va boshqalar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Amaliy misol: Sarvar 8 yoshda. Psixodiagnostik tekshiruv natijalariga ko‘ra, u yuqori darajadagi tashvishga ega. Avtoritar oilada tarbiyalangan. Odatda u sinfga kirganda uni o‘rab turgan hamma narsaga diqqat bilan qaraydi, qo‘rqoq, astagina salomlashadi va o‘z stoliga noqulay o‘tiradi. U yopiq va “ichimdagini top” deydiganlar sirasiga kiradi, yangi o‘yinlarni o‘ynashdan, notanish faoliyatni boshlashdan qo‘rqadi.

Yosh o‘quvchida yuqori darajadagi tashvish va qo‘rquv maktabga moslashish davrini o‘tkazishni qiyinlashtiradi, uning qobiliyatini ob'ektiv baholashga, o‘quv faoliyatida tashabbus ko‘rsatishga, o‘qituvchilar, sinfdoshlar va ota-onalar bilan erkin aloqa o‘rnatishga to‘sqinlik qiladi. O.B.Martienko boshlang‘ich maktab yoshidagi qo‘rquv holatining namoyon bo‘lishi geterogen ekanligini ko‘rsatdi. Qo‘rquvning yetakchi guruhlaridan biri bu bolalarning eng kuchli qo‘rquvi - o‘lim, hujum, yong‘in qo‘rquvi. Qo‘rquvning ikkinchi guruhi - "umumiy ta'lim". Ushbu guruhga maktabga kechikish qo‘rquvi, kichik o‘quvchining yetakchi faoliyati - o‘qish shakllanishini aks ettiruvchi jazo kiradi. Uchinchi guruh - eng kam kuchli qo‘rquvlar - ota-onadan qo‘rqish, transport, yolg‘izlik, suvdan qo‘rqish.

NATIJALAR

Boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalarda kuchli qo‘rquvning maxsus guruhi birinchi sinf o‘quvchilarining eng kuchli qo‘rquvlarining ikki guruhining qotishmasi: jazo qo‘rquvi va og‘riq, zarar etkazilishi qo‘rquvi sifatida namoyon bo‘‘ladi. Kichik yoshdagi o‘quvchilarning tashvish darajasini pasaytirish va hissiy holatini barqarorlashtirish uchun o‘quv jarayonining barcha asosiy ishtirokchilariga qaratilgan psixologik yordamga kompleks yondashuv zarur: o‘qituvchilar va otaonalar uchun guruh va individual maslahatlar, psixologiyaning sinfdan va darsdan tashqari shakllari. -bolalar bilan turli usullardan foydalangan holda tuzatish ishlari olib borilishi lozim.

Boshlang‘ich maktab yoshidagi tajovuzkor xatti-harakatlar shaxsiy xususiyat sifatida tajovuzkorlik shaklida va muayyan vaziyatda yuzaga keladigan holat sifatida situatsion tajovuz shaklida namoyon bo‘lishi mumkin. Boshlang‘ich maktab yoshidagi tajovuzkorlikning sabablari biologik (irsiyat) bo‘lishi mumkin; psixologik (motivatsion-ehtiyoj, hissiy-irodaviy, axloqiy sohalardagi buzilishlar); ijtimoiy-pedagogik (oilada nomutanosiblik, ota-ona va bola munosabatlari tizimidagi hissiy aloqalarning buzilishi, noqulay tarbiya uslubi). Agressivlikning namoyon bo‘lishi jismoniy, og‘zaki, bilvosita bo‘lishi mumkin.

MUHOKAMA

Agressiv xulq-atvor shakllarini psixologik tuzatish hozirgi vaqtda quyidagi yo‘nalishlarda turli usullar bilan amalga oshiriladi:

1. O‘yin (yosh bolalar bilan ishlashda eng ko‘p qo‘llaniladi).

2. Tanish muhitdan voz kechish va tuzatuvchi muhit yoki guruhga joylashtirish (agar bolaning tajovuzkor xatti-harakati va uning yaqin atrofi o‘rtasida bog`liqlik mavjud bo‘lsa).

3. Ijodiy o‘zini namoyon qilish (rasm chizish, dizayn, musiqa darslari va boshqa ijodiy faoliyat).

4. Agressiyaning ijtimoiy ma'qullangan faoliyatga sublimatsiyasi (mehnat, ijtimoiy ish, ijtimoiy ish - bemorlarga, qariyalarga g‘amxo‘rlik qilish va boshqalar).

5.Sportda tajovuzkorlikni sublimatsiya qilish: bolalarni hamkorlik ko‘nikmalarini talab qiladigan jamoaviy sport turlari (futbol, basketbol va boshqalar) bilan tanishtirish maqsadga muvofiq, boks yoki karate kabi o‘ta agressiv individual sport turlari esa nomaqbuldir.

6.Konstruktiv o‘zaro ta'sir ko‘rsatish va ko‘proq moslashuvchan xattiharakatlar ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida o‘quv guruhida ishtirok etish. Xulosa qilib aytganda turli xil shaxsiy va xulq-atvor muammolari bo‘lgan kichik yoshdagi o‘quvchilarni psixologik qo‘llab-quvvatlashni amalga oshirish algoritmi quyidagilarni o‘z ichiga oladi: muammoni qo‘yish, psixodiagnostik ish jarayonida uning mazmuni va sabablarini aniqlash, tuzatish ishlarining mazmuni va uni amalga oshirish shakllarini asoslash; bolaning psixologik xususiyatlarini, uning ijtimoiy muhitini va kattalar ishtirokining imkoniyatlarini hisobga olgan holda o‘quv jarayoni, tuzatish ishlarini amalga oshirish, uning samaradorligini tekshirish. Kichik yoshdagi o‘quvchilarning turli shaxsiy va xulq-atvor muammolarini bartaraf etish uchun zarur psixologik-pedagogik shartlar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: muammoli omillarni o‘z vaqtida tashxislash va ularning ierarxik tuzilishini aniqlash; maktabning o‘quv muhitida kichik yoshdagi o‘quvchilarning aqliy rivojlanishidagi muammoli omillarni yo‘qotishning ilmiy asoslangan modelining mavjud bo‘lishi, o‘qituvchi va psixolog tomonidan tegishli tashkiliy chora-tadbirlar, psixologik-pedagogik texnika va texnologiyalar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish; maktab jamoasining umumiy e'tiborini bolaning o‘quv jarayonini insonparvarlashtirish va shaxsga yo‘naltirish, oilaviy ta'lim sohasida ushbu tamoyillarga rioya qilishga ko‘maklashish.

XULOSA

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida konflikli xulq-atvorni oldini olish uchun quyidagi choralarni ko‘rish zarur:

1.Har bir maktabda kamida 2 ta maktab psixologini jalb etish.

2. Konfliktni bartaraf etish bo‘yicha interaktiv treninglar o‘tkazish.

3."Oila-Maktab Psixologik Kengashi" tashkil etish, muntazam aloqani yo‘lga qo‘yish.

4. Bolalar ruhiy salomatligini muhofaza qilishga qaratilgan qonun loyihalari (masalan, maktab zo‘ravonligiga qarshi choralar).

5. Qashshoq oilalar uchun psixologik grant dasturlari.

6."Mehrli Maktab" kabi loyihalar orqali bolalarga rahm-shafqat va hamjihatlikni targ‘ib qilish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Martienko, O. B. (2008). Boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalarda qo‘rquv holatlari va ularning ta’siri. Psixologiya va Ta’lim, 15(3), 45-60.
2. Bandura, A. (1977). Ijtimoiy o‘rganish nazariyasi. Prentice-Hall.
3. Bowlby, J. (1988). Bog‘lanish, ajralish va yo‘qotish (3-nashr). Basic Books.
4. Erikson, E. H. (1963). Bolalik va jamiyat. W. W. Norton & Company.
5. Patterson, G. R. (2002). Oila dinamikasi va bolalardagi tajovuzkorlik. Rivojlanish Psixologiyasi Jurnali, 38(2), 267-280. https://doi.org/10.1037/0012-1649.38.2.267
6. Kazdin, A. E. (2017). Bolalar uchun psixologik aralashuvlarning samaradorligi. Amerika Psixolog Assotsiatsiyasi, 72(8), 757-768.
7. Landreth, G. L. (2012). O‘yin terapiyasi: Munosabatlar san’ati (3-nashr). Routledge.
8. Spence, S. H. (1998). Bolalarda tashvishni baholash: Tahlillar va yangi yo‘nalishlar. Xulq-atvor Terapiyasi, 36(7), 545-566.
9. Greenberg, M. T. (2006). Ijtimoiy-hissiy o‘rganish dasturlari va maktab muhiti. Ta’lim Psixologiyasi, 24(4), 191-210.
10. Baumrind, D. (1991). Ota-ona tarbiya uslublari va bolalarning moslashuvi. Rivojlanish Psixologiyasi, 27(6), 961-970.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA PSIXIK HOLATLAR

Mirkosimova Xulkar Mirobidovna
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0000-9152-2952
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi
Alimova Hilola Bobonazarovna
Shuhratova Shahnoza Xusan qizi
Amatjanova Sevinchoy Xursandbek qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Tabiiy fanlar fakulteti
Biologiya yo‘nalishi 3-bosqich talabalari

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining psixik holatlari ularning shaxsiy rivojlanishi, ta’lim jarayonidagi faolligi, o‘qish motivatsiyasi hamda ijtimoiy moslashuv jarayonlariga qanday ta’sir ko‘rsatishi kompleks yondashuv asosida tahlil etiladi. Oila muhiti, maktabdagi psixologik atmosfera, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, shuningdek, bolalarning psixologik salomatligi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklar empirik tadqiqotlar asosida ko‘rsatib beriladi. Xususan, oiladagi stress manbalari, ota-onalarning farzand tarbiyasidagi ishtiroki va ularning psixologik farovonligi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining hissiy barqarorligiga qanday ta’sir ko‘rsatishi atroflicha o‘rganiladi. Maqolada maktab muhitidagi omillar — o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatlari, tengdoshlar bilan ijtimoiylashuv darajasi hamda maktabda mavjud psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimining samaradorligi ham alohida tahlil qilinadi. Shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy muhit, oilaning moddiy ahvoli va ijtimoiy barqarorlik omillari bolalarning ruhiy holatiga qanday salbiy yoki ijobiy ta’sir ko‘rsatishi statistik ma’lumotlar bilan asoslab beriladi. Maqola zamonaviy pedagogika va bolalar psixologiyasi yo‘nalishida amalga oshirilgan eng so‘nggi ilmiy tadqiqotlar natijalari bilan boyitilgan bo‘lib, Tadqiqot natijalari, shuningdek, maktab va oila hamkorligida o‘quvchilarning psixologik salomatligini mustahkamlashga qaratilgan strategiyalar ishlab chiqish uchun ilmiy-amaliy asos vazifasini bajaradi.

ABSTRACT

This article analyzes the psychological state of primary school students based on a comprehensive approach to their personal development, activity in the educational process, motivation to study, and social adaptation processes. The interrelationships between the family environment, the psychological atmosphere at school, socio-economic conditions, and the psychological health of children are shown based on empirical research. In particular, it is studied in detail how sources of stress in the family, parental involvement in raising children, and their psychological well-being affect the emotional stability of primary school students. The article also separately analyzes factors in the school environment - teacher-student relationships, the level of socialization with peers, and the effectiveness of the psychological support system at school. It also substantiates with statistical data how the socio-economic environment, the financial situation of the family, and social stability factors negatively or positively affect the mental state of children. The article is enriched with the results of the latest scientific research conducted in the field of modern pedagogy and child psychology. The research results also serve as a scientific and practical basis for developing strategies aimed at strengthening the psychological health of students in cooperation between school and family.

PROCEEDINGS BOOK

Kalit so‘zlar: O‘quvchilar, xulq-atvor, yosh inqirozi, psixokorreksiya

Keywords: Students, behavior, age crisis, psychocorrection

KIRISH

Boshlang‘ich sinf yoshi (6-12 yosh) bolaning psixik rivojlanishida hal qiluvchi davr hisoblanadi. Ushbu davrda bolalar ijtimoiylashuv, intellektual qobiliyatlar va hissiy barqarorlikni shakllantiradilar. Zamonaviy ta’lim tizimlari bolalarga nafaqat akademik bilim, balki psixologik qo‘llab-quvvatlashni ham talab qiladi. Maqolaning maqsadi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining psixik salomatligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish usullarini taklif qilish. O'zgarishlarning butun majmui ta‟siri natijasida bola bir qator harakatlarni amalga oshiradi, uning motivi bir lahzali istak bilan emas, balki uning shaxsiyatining namoyon bo'lishi bilan bog'liq, ya'ni motiv vaziyatdan farqlanadi. Boshlang'ich maktab yoshida konfliktning kuchayishi, uyatchanlik, o'ziga ishonchsizlik, tashvish, tajovuzkorlik va boshqalar bilan bog'liq muammoli xattiharakatlar shakllari paydo bo'la boshlaydi. Shaxsiy va xulq-atvor muammolari maktabdagi o'zaro munosabatlar (o'qituvchi, tengdoshlar) hamda oiladagi munosabatlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.[1] Kichik yoshdagi o'quvchilarning maktab sharoitiga yomon moslashuvi va yo'nalishini ko'rsatadigan sindromlar ko'rinishidagi deviant xatti-harakatlarning namoyon bo'lishiga quyidagi temperament belgilari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan xarakterli xususiyatlar jiddiy ta'sir qiladi: hissiy reaktsiyalarning yuqori faolligi va intensivligi, tartibsizlik, bezovtalik, sust moslashuvchanlik va sezgirlik.

Boshlang'ich maktab yoshida konflikt darajasi asosan bolaning o'zini o'zi tanqid qilishi va o'ziga talab qo'yish darajasi bilan bog'liq. Mojarolarning namoyon bo'lishi bolalar tomonidan muloqot, o'yin va o'quv faoliyatida muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida o'zini o'zi himoya qilish shakllari sifatida ishlatilishi mumkin. Bu yoshdagi o'quvchilarda konflikt namoyon bo'lishining mazmuni va intensivligi o'quv faoliyatini tashkil etish xususiyatlariga, o'quv faoliyatining muvaffaqiyat darajasiga, temperament turiga, muloqotchanlik qobiliyatlarini shakllantirish darajasiga va shaxs tuzilishining boshqa xususiyatlariga bog'liq.[2] Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ta'kidlashicha, mojaroning yuqori darajasi ko'pincha o'quv yuklamasiga bardosh bera olmaydigan va muvaffaqiyatli sinfdoshlariga nisbatan o'zini past his qiladigan o'quvchilarda namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Psixik holat tushunchasi psixologiya fanida turli olimlar tomonidan izohlangan. L.S. Vygotskiy, D.B. Elkonin va A.N. Leontyev kabi psixologlarning tadqiqotlariga ko‘ra, bolaning psixik rivojlanishi uning ijtimoiy faoliyati va atrof-muhit bilan o‘zaro munosabati asosida shakllanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining psixik holatlari uch asosiy yo‘nalishda o‘rganiladi:

1. Emotsional holatlar – bolaning hissiy tajribalari, tashvish va hayajon darajasi.

2. Kognitiv (bilish) jarayonlar bilan bog‘liq holatlar – diqqat, tafakkur va xotira faoliyati.

3. Ijtimoiy-psixologik holatlar – bolaning tengdoshlar, o‘qituvchilar va ota-onalar bilan bo‘lgan munosabatlari.

Ushbu psixik holatlar bolaning umumiy rivojlanish jarayoniga bevosita ta’sir qiladi va uning o‘quv faoliyati samaradorligini belgilab beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun quvonch hissi va motivatsiya o‘qish jarayonining muhim omillaridan biridir. Psixologik tadqiqotlarga ko‘ra, o‘qish jarayonida ijobiy emotsiyalar bolaning bilimlarni yaxshiroq o‘zlashtirishiga yordam beradi. Rag‘batlantirish, maqtov va interfaol ta’lim metodlari bolalarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

Ba’zi bolalarda maktab muhitiga moslashish jarayonida xavotir va qo‘rquv hissi paydo bo‘lishi mumkin. Ushbu hissiyotlar quyidagi sabablarga ko‘ra yuzaga keladi:

PROCEEDINGS BOOK

1. Baholar va akademik bosim – bolaning o‘z imkoniyatlariga ishonchsizligi yoki muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqishi.

2. O‘qituvchi va ota-onalar bilan munosabatlar – haddan tashqari talabchanlik yoki tanqidning ko‘pligi.

3. Yangi muhit va ijtimoiy o‘zgarishlar – maktabga moslashish jarayoni stress keltirib chiqarishi mumkin.

NATIJALAR

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining psixik holatiga ta’sir etuvchi asosiy omillarni aniq ko‘rsatdi. Tadqiqot jarayonida maktab va oila muhiti, o‘qituvchi-o‘quvchi o‘zaro munosabatlari, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar hamda maktab psixologi faoliyatining o‘quvchilar ruhiy rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan.

Birinchidan, oila muhiti va ota-onalarning bolaga bo‘lgan munosabati, ular tomonidan ko‘rsatilgan e’tibor va qo‘llab-quvvatlash darajasi bolalarning o‘z-o‘zini qadrlashi, ijtimoiy moslashuvi va o‘qish motivatsiyasida muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqot davomida oilasida barqaror va iliq muhit mavjud bo‘lgan bolalarda stress va anksiyeta darajasi past, diqqat va o‘quv faolligi yuqoriroq ekanligi kuzatildi.

Ikkinchidan, maktab muhitida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi ijobiy munosabatlarning o‘quvchilarning psixik salomatligiga ta’siri yuqori ekani isbotlandi. O‘qituvchining mehribon, adolatli va qo‘llab-quvvatlovchi yondashuvi bolalarning dars jarayonidagi ishtirokchanligini, ijtimoiylashuv darajasini oshirib, ularda ishonch va xavfsizlik hissini kuchaytirishi aniqlandi. Aksincha, o‘qituvchi tomonidan qat’iy, sovuq yoki befarq munosabat bo‘lsa, bolalarda tashvish, bezovtalik va izolyatsiya holatlari ortishi qayd etildi.

Uchinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy sharoit ham bolalarning psixologik holatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. O‘z ehtiyojlari qondirilmagan, iqtisodiy jihatdan qiyinchilikka duch kelayotgan oilalarda ulg‘ayayotgan o‘quvchilarda diqqat va xulq-atvor buzilishlari, o‘z-o‘zini qadrlash pastligi va ijtimoiy moslashuv muammolari ko‘proq uchraydi.

Tajriba-sinov ishlarida psixologik intervensiya dasturlarining samaradorligi ham amalda tasdiqlandi. Treninglar, psixologik mashg‘ulotlar, relaksatsiya texnikalari va ota-onalar bilan olib borilgan maslahat ishlaridan so‘ng bolalarda stress darajasi kamayib, diqqat va o‘quv motivatsiyasi sezilarli ravishda oshgan.

O‘zbekistondagi maktablar kontekstida maktab psixologlari faoliyatining sifatini oshirish, ota-onalar va o‘qituvchilar bilan samarali hamkorlik tizimini yo‘lga qo‘yish, individual psixologik yondashuvlarni kuchaytirish zarurati aniqlangan.

MUHOKAMA

Xavotirli bolalar o‘zlarini qo‘rqoq yoki ishonchsiz his qilishadi, bu esa ularning o‘quv jarayonidagi faolligini pasaytiradi. Shu sababli, o‘qituvchilar va ota-onalar bolalarning ruhiy holatiga sezgir bo‘lishlari va ularga psixologik yordam ko‘rsatishlari kerak.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilish jarayonlarining rivojlanishi bo‘yicha individual farqlarga ega bo‘lishadi. Ularning tafakkur, xotira va diqqat qobiliyatlari psixik holatlar bilan chambarchas bog‘liqdir.[3]

Bolalar uzoq muddatli diqqatni saqlashda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Bu quyidagilarga olib kelishi mumkin:

-O‘quv topshiriqlarini oxiriga yetkazmaslik.

-Oson chalg‘ish va ta’lim jarayoniga kam e’tibor qaratish.

-O‘qish jarayonida qiyinchiliklar yuzaga kelishi.

Diqqatni yaxshilash uchun o‘qituvchilar interfaol metodlardan foydalanishlari va mashg‘ulotlarni qiziqarli shaklda tashkil etishlari lozim.

Ba’zi bolalar o‘rganilgan materiallarni tez unutishadi yoki ularga tayanib fikrlashda qiynalishadi. Xotirani rivojlantirish uchun vizual materiallardan, o‘yin elementlaridan va takrorlash texnikalaridan foydalanish muhimdir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari hali abstrakt fikrlashga to‘liq ega emaslar. Ularning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

-Muammoli savollar va topishmoqlar.

-Guruhli muhokamalar va rolli o‘yinlar.

-Hayotiy misollar orqali tushuntirish.

Maktabga moslashish jarayoni bolalar uchun stressli bo‘lishi mumkin. Ularning ijtimoiy-psixologik holatlari quyidagi omillarga bog‘liq bo‘ladi:

Bolalar sinfdoshlar bilan do‘stlashishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Kamgap yoki tortinchoq bolalar jamoaviy ishlarda faol bo‘lishmaydi va o‘zlarini yolg‘iz his qilishlari mumkin.

O‘qituvchi va ota-onalarning bolaga bo‘lgan munosabati uning ruhiy holatiga katta ta’sir qiladi. Ortacha darajadagi nazorat va qo‘llab-quvvatlash bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi.

Psixologik moslashuv jarayonida bolaning ehtiyojlarini tushunish va unga mos usullar bilan yondashish muhimdir.

XULOSA

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining psixik salomatligi ularning kelajakdagi akademik va shaxsiy rivojlanishi uchun asos hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda maktablar psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimini rivojlantirishning dastlabki bosqichida joylashgan. Boshlang‘ich ta’lim tizimining yadrovi bolaning ruhiy farovonligiga investitsiya qilishdir. Buning uchun oila, maktab va davlatning uyg‘un harakati zarur. Faqatgina shu holda bolalar nafaqat bilim, balki psixologik bardoshlilik bilan ham qurollangan holda katta hayotga tayyorlanishi mumkin.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining psixik holatlari ularning ta’lim jarayoniga bevosita ta’sir qiladi. Ushbu davrda bolalar turli emotsional, kognitiv va ijtimoiy-psixologik muammolarni boshdan kechiradilar. Shuning uchun o‘qituvchilar va ota-onalar bolalarning psixologik xususiyatlarini inobatga olib, ularga mos ta’lim metodlarini qo‘llashlari kerak.

Bolalarning o‘quv jarayonida motivatsiyasini oshirish, xavotir va stressni kamaytirish hamda ularning bilish jarayonlarini rivojlantirish uchun individual va interfaol yondashuv muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sahlberg, P. (2021). *Finnish Lessons 3.0: What Can the World Learn from Educational Change in Finland?*
2. Bowlby, J. (1988). Bog‘lanish, ajralish va yo‘qotish (3-nashr). Basic Books.
3. Erikson, E. H. (1963). Bolalik va jamiyat. W. W. Norton & Company.
4. Patterson, G. R. (2002). Oila dinamikasi va bolalardagi tajovuzkorlik. Rivojlanish Psixologiyasi Jurnali, 38(2), 267-280. https://doi.org/10.1037/0012-1649.38.2.267
5. Kazdin, A. E. (2017). Bolalar uchun psixologik aralashuvlarning samaradorligi. Amerika Psixolog Assotsiatsiyasi, 72(8), 757-768.
6. Landreth, G. L. (2012). O‘yin terapiyasi: Munosabatlar san’ati (3-nashr). Routledge.
7. Spence, S. H. (1998). Bolalarda tashvishni baholash: Tahlillar va yangi yo‘nalishlar. Xulq-atvor Terapiyasi, 36(7), 545-566.

8. Greenberg, M. T. (2006). Ijtimoiy-hissiy o‘rganish dasturlari va maktab muhiti. Ta’lim Psixologiyasi, 24(4), 191-210.
9. Baumrind, D. (1991). Ota-ona tarbiya uslublari va bolalarning moslashuvi. Rivojlanish Psixologiyasi, 27(6), 961-970.

BOSHLANG‘ICH SINFDA O‘QITUVCHI-O‘QUVCHI MUNOSABATLARINING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

Mirkosimova Xulkar Mirobidovna
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0000-9152-2952
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning sifati o‘quvchilarning nafaqat akademik bilimlarini egallash jarayoniga, balki ularning shaxsiy rivojlanishiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu maqolada aynan shu munosabatlarning psixologik determinantlari chuqur tahlil qilinadi, ularning o‘quvchilarning motivatsiyasi, o‘z-o‘ziga ishonchi, ijtimoiy moslashuvi va psixologik farovonligiga qanday ta’sir ko‘rsatishi ilmiy asosda ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, o‘qituvchining empatiyasi, ijobiy kommunikatsiyasi, adolatli va qo‘llab-quvvatlovchi yondashuvi o‘quvchilarda ijobiy o‘quv motivatsiyasi va o‘z-o‘zini qadrlash darajasini oshirishga xizmat qilishi tadqiqot natijalari asosida asoslab beriladi.
O‘quvchilarning ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarini rivojlantirishda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi ijobiy munosabatlarning roli ko‘plab ilmiy manbalar va empirik ma’lumotlar asosida yoritiladi. Tadqiqot natijalari pedagoglarga o‘z amaliy faoliyatida psixologik omillarga e’tibor qaratish, o‘quvchilarning shaxsiy salohiyatini yuzaga chiqarish va ta’lim sifatini oshirishda ushbu determinantlardan samarali foydalanish bo‘yicha tavsiyalar beradi.

АННОТАЦИЯ

Для учащихся начальной школы качество взаимоотношений между учителем и учеником в образовательном процессе напрямую влияет не только на академическое обучение учащихся, но и на их личностное развитие. В статье представлен глубокий анализ психологических детерминант этих отношений и на научной основе рассматривается, как они влияют на мотивацию, уверенность в себе, социальную адаптацию и психологическое благополучие студентов. В основе исследования также лежат результаты, согласно которым эмпатия учителя, позитивное общение, справедливый и поддерживающий подход способствуют повышению положительной учебной мотивации и самооценки учащихся. На основе многочисленных научных источников и эмпирических данных подчеркивается роль позитивных отношений между учителем и учеником в развитии социально-эмоциональных навыков учащихся. Результаты исследования дают рекомендации педагогам по акцентированию внимания на психологических факторах в своей практической работе, эффективному использованию этих детерминант для раскрытия личностного потенциала учащихся и повышения качества образования.

ABSTRACT

The quality of the relationship between a teacher and a student in the educational process for primary school students directly affects not only the process of acquiring academic knowledge, but also their personal development. This article provides an in-depth analysis of the psychological determinants of

these relationships, scientifically examining how they affect students' motivation, self-confidence, social adaptation and psychological well-being. It also substantiates the research results that the teacher's empathy, positive communication, fair and supportive approach serve to increase students' positive learning motivation and self-esteem.

The role of positive relationships between teachers and students in the development of students' socio-emotional skills is highlighted on the basis of numerous scientific sources and empirical data. The results of the study provide recommendations for educators to focus on psychological factors in their practical work, to effectively use these determinants to unleash the personal potential of students, and to improve the quality of education.

Kalit so‘zlar: o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatlari, psixologik determinantlar, ta’lim sifati, boshlang‘ich sinf, pedagogik muhit.

Ключевые слова: взаимоотношения учитель-ученик, психологические детерминанты, качество образования, начальная школа, педагогическая среда.

Key words: teacher-student relationship, psychological determinants, education quality, primary school, pedagogical environment.

KIRISH

Ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlarning samaradorligi o‘quvchilarning bilish jarayoni, motivatsiyasi va shaxsiy rivojlanishiga bevosita ta’sir qiladi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida pedagogning roli alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan shu bosqichda bolalarning bilim olishga bo‘lgan dastlabki munosabati shakllanadi, ularning kelajakdagi ta’lim jarayoniga nisbatan qiziqishi va ishonchi mustahkamlanadi. O‘qituvchining psixologik yondashuvi esa o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishda, ularning dars jarayoniga faol ishtirok etishini ta’minlashda va o‘quv jarayonini samarali tashkil etishda muhim rol o‘ynaydi.

Bugungi kunda boshlang‘ich sinflarda ta’lim samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish va ularning intellektual hamda ijtimoiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash masalalari pedagogika va psixologiya fanlarining dolzarb yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Chunki boshlang‘ich sinfda o‘quvchilarning darsga bo‘lgan munosabati nafaqat ta’lim jarayonining sifatiga, balki ularning kelajakda muvaffaqiyatli ta’lim olishiga ham asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi psixologik munosabatlarning ta’lim samaradorligiga ta’sirini chuqur o‘rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqotning maqsadi – boshlang‘ich sinflarda ta’lim samaradorligini oshirishda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi psixologik omillarning rolini o‘rganish, ushbu omillarning ta’lim jarayoniga ta’sirini aniqlash hamda samarali pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot doirasida quyidagi vazifalar belgilangan:

1. Boshlang‘ich ta’limda o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlarining ta’lim jarayoniga ta’sirini tahlil qilish.
2. O‘qituvchining psixologik yondashuvlari va ularning o‘quvchilarning motivatsiyasi hamda muvaffaqiyatiga ta’sirini o‘rganish.
3. Samarali pedagogik yondashuvlar asosida boshlang‘ich sinflarda ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida boshlang‘ich sinflarda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi pedagogik-psixologik munosabatlar olib qaraladi. Ushbu masala ta’limning dolzarb yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, boshlang‘ich ta’lim sifati va o‘quvchilarning ta’lim jarayoniga bo‘lgan motivatsiyasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.[2]

Shunday qilib, ushbu tadqiqot boshlang‘ich ta’limda o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlarining psixologik jihatlarini chuqur tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, uning natijalari amaliy ta’lim jarayonida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan samarali pedagogik strategiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlar nafaqat ta’lim jarayonining samaradorligini belgilovchi omillardan biri, balki o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga ham ta’sir etuvchi asosiy omillardandir. Ushbu bosqichda ta’lim jarayoni bolalar uchun yangi bilimlar olish, fikrlash qobiliyatini shakllantirish va ijtimoiylashuv jarayoni bilan chambarchas bog‘liq bo‘lganligi sababli, o‘qituvchining psixologik va pedagogik yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchining dars jarayoniga bo‘lgan motivatsiyasi, bilimlarni o‘zlashtirish sifati va o‘ziga bo‘lgan ishonchi ko‘p jihatdan o‘qituvchi bilan shakllanadigan munosabatlarga bog‘liq bo‘ladi.[5]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Psixologiyada o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlarning turli nazariyalari mavjud bo‘lib, ularning asosiy qismi shaxsiy rivojlanish va ta’lim motivatsiyasiga qaratilgan. Masalan, Lev Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, bolalar bilimni mustaqil ravishda o‘zlashtirish bilan bir qatorda, o‘qituvchi bilan ijtimoiy o‘zaro ta’sir orqali ham o‘rganadilar. Vygotskiy "yaqin rivojlanish zonasi" tushunchasini ilgari surib, o‘qituvchining o‘quvchiga ko‘rsatadigan metodik yordami bolaning qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim omil ekanligini ta’kidlaydi.[1]

Shuningdek, amerikalik psixolog Jerom Bruner ham bolalarning bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida o‘qituvchining rahbarligi muhim ekanligini ta’kidlab, "scaffolding" (qo‘llab-quvvatlovchi struktura) konsepsiyasini ilgari surdi. Unga ko‘ra, o‘qituvchi bolaga mustaqil o‘rganish imkoniyatini berishi, lekin shu bilan birga unga yordam beruvchi yo‘riqnomalar va maslahatlar bilan ta’minlashi lozim. Bu pedagogik jarayonda o‘qituvchining o‘quvchiga individual yondashuvining qanchalik muhimligini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, Albert Banduraning ijtimoiy ta’lim nazariyasiga ko‘ra, bolalar o‘rganish jarayonida kuzatish va taqlid qilish orqali bilimlarni egallaydilar.[3] Shunday ekan, o‘qituvchining dars jarayonida namoyon qiladigan xulq-atvori, til uslubi va darsga bo‘lgan munosabati o‘quvchilarga bevosita ta’sir qiladi. Agar o‘qituvchi o‘z faniga ishtiyoq bilan yondashsa va dars jarayonini jonli, interaktiv tarzda olib borsa, o‘quvchilar ham bilim olishga ko‘proq qiziqadilar.[6]

Pedagogik nuqtai nazardan, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi samarali munosabatlarning asosi o‘qituvchining pedagogik mahorati, shaxsiyati va ta’lim jarayonini tashkil etish uslublariga bog‘liq. Pedagogika fanida ushbu munosabatlarning turli modellari mavjud bo‘lib, ular orasida avtoritar, demokratik va laissez-faire (erkin) yondashuvlar eng mashhurlaridir.

1. Avtoritar yondashuv – bu uslubda o‘qituvchi barcha ta’lim jarayonini o‘z nazoratida ushlab turadi, o‘quvchilarga qat’iy tartib va intizom talablari qo‘yiladi. Bunday yondashuv ayrim hollarda samarali bo‘lsa ham, u o‘quvchilarning ijodkorligi va mustaqil fikrlash qobiliyatini cheklashi mumkin.
2. Demokratik yondashuv – bunda o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida do‘stona va o‘zaro hamkorlikka asoslangan munosabatlar shakllantiriladi. O‘qituvchi bolalarni o‘z fikrlarini ifoda etishga, dars jarayonida faol ishtirok etishga undaydi.
3. Laissez-faire yondashuvi – bu metodda o‘qituvchi o‘quvchilarga maksimal darajada erkinlik beradi va dars jarayoniga kamdan-kam hollarda bevosita aralashadi. Ushbu yondashuv individual o‘quvchilar uchun foydali bo‘lishi mumkin bo‘lsa-da, umumiy ta’lim jarayonining sifati pasayishiga olib kelishi ehtimoli mavjud.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinflarda eng samarali yondashuv – bu demokratik yondashuv bo‘lib, unda o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi hamkorlik, ishonch va motivatsiya muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi shaxs, balki o‘quvchilarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi mentor sifatida ham faoliyat yuritishi lozim.

Boshlang‘ich sinflarda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlarning samarali bo‘lishi ta’lim jarayonining muvaffaqiyatiga bevosita ta’sir qiladi.[2] Bu munosabatlarning sifatini oshirish uchun bir qator pedagogik va psixologik tamoyillarga asoslanish lozim. Eng avvalo, o‘qituvchining individuallikka asoslangan yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir o‘quvchi o‘ziga xos shaxs bo‘lib, ularning o‘rganish uslubi, qiziqishlari va qobiliyatlari bir-biridan farq qiladi. Shu sababli, ta’lim jarayonida o‘qituvchi har bir bolaning ehtiyojlarini hisobga olib, individual yondashuvni qo‘llashi lozim. Bu nafaqat bilimlarni samarali o‘zlashtirishni ta’minlaydi, balki o‘quvchilarning ta’lim jarayoniga bo‘lgan qiziqishini oshirishga ham xizmat qiladi.

Shuningdek, motivatsiyani rag‘batlantirish o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan ishtiyoqini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Agar o‘qituvchi o‘quvchilarni rag‘batlantirib, ularning intilishlarini qo‘llab-quvvatlasa, bu jarayon o‘z samarasini beradi. Rag‘batlantirishning turli usullari mavjud bo‘lib, ularga maqtov, ijobiy baholash, o‘quv jarayonini qiziqarli va interaktiv shaklda tashkil etish kiradi. Bolalar tabiatan qiziqish va ishtiyoq bilan ta’lim oladigan yoshda bo‘lganligi sababli, dars jarayoni zerikarli bo‘lib qolmasligi uchun uni kreativ va jonli shaklda olib borish zarur.[11]

Sinf muhitining ijobiy bo‘lishi ham o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilar o‘zlarini xavfsiz his qiladigan, fikrlarini erkin ifoda eta oladigan va dars jarayonida faol ishtirok etadigan muhit yaratilganda, ularning ta’lim jarayoniga bo‘lgan munosabati ijobiy tomonga o‘zgaradi. O‘qituvchi sinfda o‘zaro hurmat va ishonch tamoyillariga asoslangan atmosferani shakllantirishga intilishi kerak. O‘quvchilarga xatolar qilishdan qo‘rqmaslik, o‘z fikrlarini bemalol ayta olish va o‘zaro hamkorlik qilish imkoniyatini berish samarali ta’lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi.

O‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish ta’lim jarayonining samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biridir. O‘qituvchi bolalarning shaxsiy fikrlarini qadrlashi, ularni rag‘batlantirishi va har qanday yutuqlarini e’tirof etishi lozim.[7] Agar o‘quvchilar o‘zlariga bo‘lgan ishonchni yo‘qotsa, ularning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasi pasayadi, mustaqil fikrlash qobiliyati cheklanadi va dars jarayoniga bo‘lgan ishtiyoqi so‘nishi mumkin. Shu sababli, o‘qituvchi har bir bolaning intilishlarini qo‘llab-quvvatlashi, xatolaridan qo‘rqmaslik va o‘zining imkoniyatlariga ishonishiga yordam berishi zarur.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlarga ta’sir qiluvchi psixologik determinantlar ta’lim jarayonining samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. O‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishi, dars jarayonidagi ishtiroki va muvaffaqiyat darajasi ko‘p jihatdan o‘qituvchining shaxsiy fazilatlari, emotsional intellekti, motivatsiya usullari va sinfda shakllangan psixologik muhitga bog‘liq bo‘ladi. Ta’lim jarayonining sifatli bo‘lishi uchun o‘qituvchining o‘z o‘quvchilari bilan qanday munosabat o‘rnatishi, ularning emotsional va psixologik holatlarini qanday tushunishi muhim ahamiyatga ega.

O‘qituvchining emotsional intellekti ta’lim jarayonida samaradorlikni ta’minlovchi muhim psixologik determinantlardan biri hisoblanadi. Emotsional intellekt insonning o‘z his-tuyg‘ularini tushunish, boshqarish, boshqalarning hissiy holatini anglash va ularga mos ravishda munosabat bildirish qobiliyatidir. Ushbu jihatlar o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlarda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Samarali ta’lim jarayonida o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki bolalar uchun namuna bo‘luvchi shaxs sifatida ham namoyon bo‘ladi. Ularning hissiy holatini tushunish, ruhiy qo‘llab-quvvatlash va dars jarayonida ijobiy muhit yaratish uchun o‘qituvchi o‘zining emotsional intellektini rivojlantirishi lozim.[4] Masalan, agar o‘qituvchi o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishi pasayganini, ishonchsizlik yoki qo‘rquv hissiyotlarini sezsa, u ularni rag‘batlantirish, ishonch bildirish va qo‘llab-quvvatlash orqali bu holatni o‘zgartirishi mumkin.

Shuningdek, o‘qituvchining sabr-toqati, mehribonligi, bag‘rikengligi va adolatli munosabat ko‘rsatishi o‘quvchilarning ruhiy holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Agar o‘qituvchi dars jarayonida keskin va talabchan bo‘lsa, lekin hissiy qo‘llab-quvvatlash yetarli darajada bo‘lmasa, o‘quvchilar stress va xavotir his qilishlari, bilim olish jarayoniga nisbatan salbiy munosabat shakllanishi mumkin. Shu sababli, o‘qituvchi o‘zining shaxsiy fazilatlari orqali o‘quvchilarga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi, ularni ruhiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashi va ularning shaxsiy rivojlanishiga yordam berishi kerak.

Motivatsiya o‘quvchilarning ta’lim jarayonida faol ishtirok etishi va bilimlarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishida asosiy omillardan biridir. O‘quvchilarning ichki va tashqi motivatsiyasi ularning darsga bo‘lgan qiziqishini belgilaydi. Ichki motivatsiya, ya’ni o‘quvchining bilim olishga bo‘lgan ichki ehtiyoji, uning qiziquvchanligi va o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqi asosiy omillardan biri sanaladi. Agar o‘quvchi yangi bilimlarni o‘zlashtirish jarayonidan zavq olsa, u nafaqat dars jarayonida faol ishtirok etadi, balki mustaqil o‘rganish qobiliyatini ham rivojlantiradi.[8]

Tashqi motivatsiya esa o‘qituvchining rag‘batlantirish uslublari, baholash tizimi va o‘quv muhitiga bog‘liq. O‘qituvchi o‘quvchilarni dars jarayonida faol ishtirok etishga undashi, ularning harakatlarini qo‘llab-quvvatlashi va kichik yutuqlarini ham e’tirof etishi lozim. Agar o‘quvchi o‘zining harakatlari uchun ijobiy fikr yoki maqtov eshitsa, u yanada ishonchli harakat qiladi va ta’lim jarayoniga bo‘lgan qiziqishi oshadi.

O‘ziga bo‘lgan ishonch ham motivatsiyaning ajralmas qismi hisoblanadi. O‘quvchilarning o‘z bilimlariga ishonch hosil qilishi uchun o‘qituvchi ularni ruhlantirish, xatolardan qo‘rqmaslikka o‘rgatish va ularning har bir sa’y-harakatini qadrlash orqali yordam berishi kerak. Agar o‘quvchi dars davomida xatoga yo‘l qo‘ysa, o‘qituvchi unga tushuntirish, to‘g‘ri yo‘naltirish va xatolaridan saboq olishga imkon berishi muhim. Shunday yondashuv natijasida o‘quvchi o‘ziga nisbatan ishonch hosil qiladi va o‘z qobiliyatlarini rivojlantirishga intiladi.

Ta’lim jarayonining samaradorligi faqatgina o‘qituvchining yondashuvi yoki o‘quvchilarning shaxsiy xususiyatlariga bog‘liq bo‘lib qolmay, balki sinfda shakllangan psixologik muhit bilan ham uzviy bog‘liqdir.[9] Agar sinfda ijobiy va qo‘llab-quvvatlovchi atmosfera yaratilsa, o‘quvchilar o‘zlarini erkin his qiladilar, fikrlarini bemalol ifoda etadilar va bilimlarni o‘zlashtirish jarayoniga faolroq kirishadilar.

Sinf muhitining asosiy xususiyatlaridan biri bu o‘zaro hurmat va ishonchdir. O‘qituvchi sinfda ochiq va adolatli muhit yaratishi, o‘quvchilar o‘rtasidagi muloqotni qo‘llab-quvvatlashi kerak. O‘quvchilarning bir-biriga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lishi, guruhda ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish, bir-birining fikrini tinglash va hamkorlik qilishni o‘rgatish ta’lim jarayonining muvaffaqiyatli bo‘lishiga yordam beradi.

Sinfda stress va xavotirni kamaytirish ham muhim ahamiyatga ega. Agar o‘quvchi xatolar qilishdan yoki o‘z fikrini aytishdan qo‘rqsa, uning o‘rganish jarayoni sustlashadi. Shuning uchun o‘qituvchi o‘quvchilarga xatolar qilish tabiiy holat ekanligini tushuntirishi, har bir muvaffaqiyatsizlik o‘rganishning bir qismi ekanligini anglatishi lozim.[12]

Sinf muhiti nafaqat psixologik jihatdan qulay bo‘lishi, balki ta’lim jarayonini qiziqarli va interaktiv usullar bilan tashkil qilish orqali ham mustahkamlanishi lozim. Ta’lim metodlarining xilma-xilligi, ijodiy va interaktiv dars mashg‘ulotlaridan foydalanish, guruhli ish va o‘yin uslublarini qo‘llash sinfdagi umumiy psixologik atmosferani yaxshilashga xizmat qiladi.

topshiriqlarini chidam, qunt bilan ado yetish kabi hollar bog‘cha yoshidagi bolalarda diqqatning ixtiyoriy turini rivojlantiradi. Bolalarda ixtiyoriy diqqatni rivojlantirishda o‘yinning roli juda kattadir. Chunki turli o‘yinlar paytida bolalar diqqatlarini bir joyga to‘plab, o‘z tashabbuslari bilan ma’lum maqsadlarni ilgari suradilar. O‘yinlarning qanday qoidalar asosida yo‘nalishini o‘zlari mustaqil ravishda tanlab oladilar. O‘yin qoidasidan chetga chiqib ketmaslik uchun o‘z harakatlarini o‘yin qoidalariga moslashtirishga va o‘yinda qatnashuvchi o‘rtoqlarining harakatlarini ham kuzatib borishga intiladilar. Ana shunday o‘yinlarda ixtiyorsiz diqqat bilan birga ixtiyoriy diqqat ham faol ishtirok etadi, binobarin, bolalarning o‘yini uchun sharoit yaratib beradi. Shuni ham nazarda tutish kerakki, ixtiyoriy diqqat iroda bilan bog‘liq, shuning uchun ham ko‘pincha bolalar diqqatning bu turini o‘zlaricha mustaqil tashkil eta olmaydilar. Diqqatning ixtiyoriy turini har xil savollar va topshiriqlar berish yo‘li bilan rivojlantirib borish kerak. Xayol - bu hech qachon sezilmagan tasvir va vaziyatlarni yaratishdan iborat aqliy jarayon. Xotira - bu odam ilgari idrok etgan, boshdan kechirgan, o'ylagan, qilgan ishlarini bosib chiqarish, saqlash, tan olish va ko'paytirish. Bu aqliy hayotning asosi, ongimizning asosidir. Tajribani to'plash, uni saqlash va ishlatish xotira faoliyatining natijasidir. Xotira uzoq muddatli bo'lishi mumkin (inson hayotida butun umr xotirasida saqlanadigan so'zlar, ma'lumotlar, tushunchalar, tasvirlarning ma'lum bir zaxirasi) va qisqa muddatli (biz qisqa vaqt ichida saqlaydigan ma'lumotlar: oziq-ovqat sotib olish, borish vizual, eshitish, hid bilish, teginish va yoqimli xotira. Inson qanday ma'lumotni eslab qolishiga qarab, og'zaki, majoziy, vosita xotirasini va boshqalarni ajratish mumkin. Fikrlash - bu tashqi dunyo va uning qonuniyatlarining umumlashtirilgan, vositachilik qilgan, mavhum aks etishini ta’kidlashmiz mumkin. Fikrlashning operatsion tarkibiy qismlari aqliy operatsiyalar - tahlil, sintez, taqqoslash, mavhumlashtirish, umumlashtirish, tasniflashdir. Tafakkurning uch turidan: og'zaki-mantiqiy, obrazli-mantiqiy va vizual-samarali - bolalarda oxirgi ikki tur ancha rivojlangan va ustunlik qiladi. Birinchisi - og'zaki-mantiqiy, ilgari bunday fikrlash 6-7 yoshgacha intensiv rivojlana boshlaydi. Nutq - bu odamning boshqa odamlar bilan muloqot qilish uchun tilni amalda qo'llash jarayoni. Til odamlar o'rtasidagi aloqa vositasidir. Kichik maktabgacha yoshda sezgi faoliyati rivojlanadi. Bolalar idrokning individual birliklaridan hissiy standartlarga o'tadilar. Kichik maktabgacha yoshning oxiriga kelib, bolalar ob'yektlarning 5 va undan ortiq shakllarini va yetti yoki undan ortiq ranglarini idrok eta oladilar, ular ob'yektlarni o'lchamlari bilan farqlay olishadi. Diqqat va xotira rivojlanadi. Voyaga yetgan kishining iltimosiga binoan bolalar 3-4 so'zni va narsalarning 5-6 nomini yodlashlari mumkin. Yoshlikning oxiriga kelib, ular sevimli asarlaridan muhim parchalarni yodlab olishlari mumkin. Vizual-harakat tafakkuri rivojlanishda davom etmoqda. Bolalar ob'ektlar o'rtasida ba'zi yashirin aloqalarni va munosabatlarni o'rnatishga qodir. Ushbu yoshda bolalarning xotira qobiliyati oshadi. Maktabgacha yoshda bolalar hali ham ob'ektlar sinflari haqida g'oyalarga ega emaslar. Ob'ektlar o'zgarishi mumkin bo'lgan xususiyatlarga ko'ra guruhlanadi, ammo sinflarni mantiqiy qo'shish va ko'paytirish operatsiyalari shakllana boshlaydi. Masalan, katta yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalar ob'yektlarni guruhlashda ikkita xususiyatni hisobga olishlari mumkin: rang va shakl (material) va boshqalar. Ushbu yoshdagi bolalar, agar tahlil qilingan munosabatlar ularning vizual tajribalaridan tashqariga chiqmasa, mulohaza yuritishi va yetarli sababiy tushuntirishlar bera olishiga qodir. Xayolotning rivojlanishi bolalarga juda o'ziga xos va izchil rivojlanayotgan hikoyalarni yaratishga imkon beradi. Odamning butun aqliy taraqqiyoti asosan xotiraning taraqqiyotidan iborat ekan, xotira bola hayotining dastlabki kunlaridan boshlaboq rivojlana boshlaydi. Bolada xotiraning dastlabki alomatlari yaqin atrofidagi odamlarni va narsalarni tanishida ko‘rina boshlaydi. Tasavvurlari tufayli bolalar o‘tgan narsalarni bemalol eslay oladilar, masalan, bolaga ko‘z o‘ngida bo‘lmagan narsaning nomini aytsangiz, u ko‘zlari bilan chor atrofga qarab shu narsani izlay boshlaydi. Bola xotirasining rivojlanishida nutqining o‘sishi juda katta ahamiyatga ega. Bu davrda bola narsa va hodisalarni faqat bevosita ko‘rish orqali emas, balki shu narsa va hodisalarning nomlari orqali ham idrok qila oladigan bo‘ladi. Bundan tashqari ular kattalardan so‘rab bilib olish, eshitish orqali ham o‘z xotiralarini boyitadilar.

NATIJALAR

Ilk bolalik davridagi bolalarda xotiraning barcha jarayonlari ko‘rina boshlaydi. Masalan, kichik yoshdagi bola dastavval mexanik ravishda, ya’ni ma’nosiga tushunmasdan esda olib qolaveradi. Buning o‘ziga xos jihati bor, albatta. Birinchidan, yuqorida aytib o‘tganimiz kabi bolalarda turmush tajribasi juda oz bo‘ladi, ular ko‘p nomlarni hali mutlaqo bilmaydilar, lekin hayotda to‘qnash kelganlari sababli eslarida olib qoladilar. Ikkinchidan, bolalar asab tizimining plastikligi, ya’ni juda egiluvchanligi kattalarnikidan ham ustunroq bo‘ladi. Ana shu sababli bolalarga mexanik esda olib qolish hech qanday qiyinchilik tug‘dirmaydi. Bolalarda ma’nosiga tushunib esda olib qolish ham juda erta rivojlana boshlaydi. Bog‘cha yoshidagi bolalarda asosan ixtiyorsiz esda olib qolishning hukmron bolishi tasodifiy bir hol emas. Buning o‘z sabablari bor. Har bir tarbiyachi-pedagog bolalar xotirasiga doir xususiyatlarni yaxshi bilishi kerak. Ana shunda bolalar xotirasini to‘g‘ri rivojlantirish mumkin. Bog‘cha yoshidagi bolalar xotirasining katta odamlar xotirasidan keskin farqi, avvalo, ular oliy nerv faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liqdir. Bir qator psixologlar tomonidan o‘tkazilgan ilmiy tekshirish ishlari natijalarining ko‘rsatishicha, bog‘cha yoshidagi bolalar oliy nerv faoliyati quyidagi xususiyatlarga ega. Birinchidan, bog‘cha yoshidagi bolalarning nerv sistemasi xuddi ilk bolalik davridagi bolalar nerv sistemasi kabi juda plastik xarakterga egadir, ya’ni ularning nerv sistemalari haddan tashqari egiluvchan, ta’sirotga beriluvchandir. Shuning uchun ham bu yoshdagi bolalarda vaqtli bog‘lanishlar (assosisiyalar) juda osonlik bilan hosil bo’ladi. Bolalar nerv sistemasining xususiyati ularning esda olib qolish qobiliyatlariga ham ta’sir etmay qolmaydi. Shu sababli bog‘cha yoshidagi bolalar ashula, ritmli she’r, qiziqarli va chuqur ta’sir etadigan narsalarni beixtiyor hamda juda tez eslarida olib qolaveradilar. Ikkinchidan, bog‘cha yoshidagi bolalar nerv sistemasi yengil qo‘zg‘aluvchan bo‘lishi bilan birga yuzaga keladigan vaqtli bog‘lanishlar (assosiyatsiyalar) juda beqaror bo‘ladi, ya’ni mustahkam bo‘lmaydi. Shuning uchun bu yoshdagi bolalar tomonidan idrok qilingan turli narsa va hodisalar ularning xotiralarida uzoq vaqt saqlanib qolmaydi. Ular tez eslab qolishlari bilan birga tez unutib ham yuboradilar. Ko‘pincha narsa va hodisalarning bog‘cha yoshidagi bolalar xotiralarida mustahkam saqlanib qolishi shu narsa va hodisalarning bolaga qanchalik emosional ta’sir qilishiga bog‘liq bo‘ladi. Uchinchidan, bog‘cha yoshidagi bolalar nerv sistemasida qo‘zg‘alish jarayoniga nisbatan tormozlanish jarayoni ancha sust bo‘lganligi tufayli ular o‘xshash va birdaniga, ya’ni bir vaqtning o‘zida juda ko‘p idrok qilingan narsalarning farqini yaxshi ajrata olmaydilar. Shuning uchun ular birdaniga idrok qilgan juda ko‘p narsalarni bir-biri bilan aralashtirib yuboradilar. Agar bog‘cha yoshidagi boladan kechagi bayram kuni bo’lgan, ya’ni idrok qilgan narsalarini bir boshdan so‘zlab berish iltimos qilinsa, u ma’noli va sistemali qilib so‘zlab berolmaydi. Bola bunday holda gapni tasodifiy esiga tushib qolgan narsalardan boshlab ketaveradi. Chunki birdaniga ko‘rgan juda ko‘p narsalarini bola tamoman aralashtirib yuborgan bo‘ladi. Bola esida olib qolgan narsalarida hali sistema yo‘q, shuning uchun bola dastavval chuqur taassurot qoldirgan, ya’ni esida chuqur o‘rnashib qolgan narsalardan boshlab gapiraveradi.

MUHOKAMA.

Demak, bundan shunday xulosa chiqarish mumkin: agar bog‘cha yoshidagi bolaga bir vaqtning o‘zida haddan tashqari ko‘p narsalar ko‘rsatilsa, ular hamma narsalarni bir-biri bilan aralashtirib yuboradilar va birontasini ham puxtaroq esda olib qololmaydilar. Kichik bog‘cha yoshidagi bolalarga nisbatan o‘rta va katta yoshdagi bog‘cha bolalarida ixtiyorsiz va mexanik ravishda esda olib qolish hamda esga tushirish qobiliyati biroz susayadi. Ammo bundan, bolalar ulg‘aygan sari ularning xotirasi kuchsizlanadi, degan xulosa kelib chiqmaydi. Bu yerda gap shundaki, bolalar o‘sib, turmush tajribasi ortgan va nutqi o‘sgan sari ular narsa va hodisalar surunkasiga, ya’ni to‘g‘ri kelganicha emas, balki tanlab, ya’ni o‘zlariga kerakligini esda olib qoladigan bo‘la boshlaydilar. Shuni ham alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, keyingi yillar mobaynida bog‘cha yoshidagi bolalarda mantiqiy, ya’ni ma’nosiga tushunib esda olib qolishga nisbatan mexanik esda olib qolish ustun bo‘ladi, degan fikr mavjud bolib, shu bilan birga mexanik esda olib qolish mantiqiy esda olib qolishga qarama-qarshi qo‘yilar edi. So‘nggi

yillarda o‘tkazilgan ekserimental tekshirishlar natijalarining ko‘rsatishicha, bog‘cha yoshidagi bolalarda ham narsa va so‘zlarning ma’nosiga tushunib eslab qolish katta o‘rin tutadi. Lekin bog‘cha yoshidagi bolalarning mantiqiy esda qoldirishlari ularga to‘la tushuniladigan material berilganda yaqqol ko‘rinadi. Bog‘cha yoshidagi kichik bolalarda ko‘proq obrazli xotira rivojlangan bo‘ladi. Shuning uchun ular eshitgan narsalariga nisbatan ko‘rgan narsalarni yaxshi eslarida olib qoladilar. Uning asosiy sababi, birinchidan, bog‘cha yoshidagi bolalarning idroklari konkret obrazli xarakterga ega. Ikkinchidan, ularda hali nutq, to‘la-to‘kis shakllanmagan. Bolalar yuqori guruhlarda nutqni anchagina egallab olganlaridan keyingina so‘z bilan ifodalab olingan narsalarni esda yaxshi olib qoladigan bo‘ladilar. Bolalar juda ko‘p narsalarni asosan turli o‘yin faoliyatlari davomida eslarida olib qoladilar. Shuning uchun ularning esda olib qolishlari ko‘pincha epizodik va tasodifiy xarakterga ega bo‘ladi, bu esa eslarida olib qolingan narsalarni ma’lum bir sistemaga solishni qiyinlashtiradi. Shu tufayli bolalarning xotiralaridagi narsalar tartibsiz, bir-biri bilan aralashib ketadi. Natijada biron narsani esga tushirishlari qiyin bo‘ladi, Bog‘cha yoshidagi bolalar xotirasiga xos bo‘lgan tartibsizlikni yo‘qotish va xotirasini o‘stirish juda ko‘p jihatdan tarbiyachilarga bog‘liqdir. Tarbiyachi bolalarni esda olib qolishlari lozim bo‘lgan materialni ularning yosh xususiyatlariga mos qilib tanlashi kerak. Bolalar xotirasini mashq qildirishda turli mazmunli o‘yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA.

Umuman, bolaning materialni esda olib qolishini va qayta esga tushirishini tarbiyachi doimo boshqarib borishi zarur. Chunki bog‘cha yoshidagi bola xotirasining barcha tiplari o‘sa boshlaydi. Biroq shu narsa xarakterliki, xotiraning asosiy turlari orasida (masalan, obrazli, mexanik, mantiqiy kabi) harakat xotirasi nisbatan kuchliroq rivojlanadi. Shuning uchun ham turli harakatlarni hamda musiqa ohangida o‘ynashni bu yoshdagi bolalar osonlik bilan o‘zlashtiradilar. Mexanik tarzda o‘zlashtiriladigan nutq materialini ham qisman harakat xotirasiga kiritadi. Bog‘cha yoshidagi bolalar esa kuchli emotsional ta’sir qilgan narsalarni ham ba’zan eslaridan chiqarib qo‘yishlari mumkin. Bolalar xotirasini o‘stirishda tarbiyachi va ota-onalarning nutqi ham nihoyatda katta rol o‘ynaydi. Bola bilan gaplashganda nutq sodda, talaffuz aniq va tushunarli bo‘lishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YHATI

1.D.A.Nurkeldiyeva, M.U.Xamidova “Rivojlanishida nuqsoni bo’lgan bolalar diagnostikasi” Toshkent 2016

2. Maxsus pedagogika(darslik).-T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2014

3.Maxsus psixologiya (o’quv qollanma) O’zbekistonfaylasuflar milliy jamiyati nashriyoti- 2013

4. Nutqning ontogenezda rivojlanishi (o’quv uslubiy majmua) 2021

ALOHIDA EHTIYOJGA EGA BO'LGAN BOLALARNING OILAGA MOSLASHISHI UCHUN MUHIM OMILLAR

ВАЖНЫЕ ФАКТОРЫ АДАПТАЦИИ ДЕТЕЙ С ОСОБЫМИ ПОТРЕБНОСТЯМИ В СЕМЬЕ

IMPORTANT FACTORS FOR THE ADAPTATION OF CHILDREN WITH SPECIAL NEEDS INTO THE FAMILY

Dehqanova Muborakxon G'iyeziddin qizi
CHDPU, Maxsus pedagogika kafedrasi o'qituvchisi.
https://orcid.org/0009-0009-2928-7547
Ortiqova Zebiniso Ruslan qizi, Ergasheva Shohista Rayimqul qizi
Maxsus pedagogika:surdotarjimonlik faoliyati 24.5 guruh talabasi

Kalit so'zlar: alohida ehtiyojli bola, oila, qo'llab quvvatlash, e'tibor, vosita, imo-ishora, ikkilamchi belgilar, befarqlik, muhit.

Ключевые слова: ребенок с особыми потребностями, семья, поддержка, внимание, инструмент, жест, вторичные признаки, безразличие, окружение**.**

Keywords: child with special needs, family, support, attention, tool, gesture, secondary signs, indifference, environment.

Annotatsiya: Ushbu maqolada alohida ehtiyojiga ega bo'lgan shaxslarning oilaga moslashishi yo'l qo'yiladigan kamchiliklar, jamoa bilan ishlash, ijtimoiy pedagogik jarayonning ahamiyati, nuqsonli bolaning teng huquqli ekanligini ta'minlash haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Аннотация: В данной статье представлена информация об ограничениях семейной адаптации лиц с особыми потребностями, работе в коллективе, значении социально-педагогического процесса, обеспечении равных прав ребенка-инвалида.

Abstract: This article provides information on the shortcomings that are allowed in the adaptation of individuals with special needs to the family, the importance of working with a team, the social pedagogical process, and ensuring the equal rights of a child with disabilities.

KIRISH.

Respublikamizda jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar tug'ilishini oldini olish, bunday bolalarni davolash ishlariga davlatimiz tomonidan katta e'tibor berilmoqda. Alohida yordamga muxtoj bolalarga moddiy, tibbiy, psixologik-pedagogik, ijtimoiy yordam ko'rsatish bilan bog'liq masalalar hamma vaqt barcha davlatlarning ilg'or jamoatchiliklarini tashvishlantirib kelgan.

ADABIYOTLAR TAHLILIVA METODOLOGIYA.

Bizning mamlakatimizda nogiron bolalarni qo'llab – quvvatlash, har qanday ijtimoiy –iqtisodiy sharoitlar, tabiatda sodir bo'lib kelgan ekologik muammolar va boshqa sabablardan qat'iy nazar hamma vaqt davlat e'tiborida bo'lib kelgan. Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar orasida intellektida nuqsoni bo'lgan bolalar son jihatdan nisbatan qo'proq uchrab turadi. Aqli zaiflikning yengil, o'rta va ba'zan og'ir darajasidagi bolalar, xozirgi kunda, maxsus maxsus maktabgacha ta'lim muassasasigacha tarbiya mussasalarida va maxsus maktabgacha ta'lim muassasasilarda, maktab - internatlari yoki umumta'lim muassasalari qoshida tashkil etilgan yordamchi guruh yoki yordamchi guruhlarda ta'lim olmoqdalar. Ushbu muassasalarning asosiy vazifasi alohida ehtiyojli bolalar ijtimoiy

adaptatsiyasi, reabilitatsiyasini amalga oshirish, ya'ni aqlan zaif bolalarni mustaqil hayotga tayyorlash, ularni jamiyatda o'z o'rnini topib, hamma qatori yashab ketishiga yordam berishdir. Oila bu mexr muhabbatga to'la dargoh xisoblanadi. Oilani asosi bu ota ona, sog'lom farzandlar va sog'lom muhitdir. Lekin ayrim narsalar borki bu hayotimizning sinovi bo'ladi. Oilada farzand tug'ilishi kutilmoqda. U onasi yoki otasiga o'xshash bo'ladimi? Balki u buvisiga o'xshash? Odatda, ota-ona o'z farzandining kelajagini homila vaqtidayoq rejalashtiradilar. Bola qaysi maktabgacha ta'lim muassasasiga, maktabga borishini, katta bo'lganda kim bo'lishini tasavvur qiladilar. Mutaxassislar onaga bolaning nogironligi haqidagi ma'lumotni yetkazganlarida, bu rejalarga nima bo'ladi? Ko'pchilik tadqiqotchilar onaga bolaning tashxisi haqida ma'lumot yetkazgan vaqtdagi tashvishli xolatini ramziy ma'noda yo'qotish kechinmalari bilan taqqoslaydilar. Ota-ona kutgan farzand tug'ilmadi. Uning o'rniga boshqa farzand tug'ildi. Ota-onani birinchi larzaga solgan xolat bir umr ushbu bolani hayotga tayyorlash o'z ehtiyojlarini qondirishni o'rgatish, vazifalarini yengillashtirish. Ushbu vazifalar bajarish jarayoni bir muncha orqaga chekingach, bola kelgusida qanday yashashi kerak degan savol tug'iladi. Bolaga nima kerak? Kelgusida bola o'z oilasini qurishi uchun uni jamiyatning mustaqil, to'liq va teng huquqli a'zosi sifatida voyaga yetkazish mumkinmi? Bu bolani qanday qilib voyaga yetkazish mumkin? Ota-ona va mutaxassislar quidagi qoidalarni bilishlari zarurdir.

NATIJALAR.

Nogironligi bo'lgan bola boshqa bolalar kabi bir xil extiyojlarga ega. Bugungi kunda nogironligi bo'lgan bolalarni "alohida extiyojlarga ega bo'lgan bola" deb atash to'g'ri xisoblanadi. Qanchalik g'alati bo'lib tuyulmasin unda "alohida extiyojlar" ancha ko'zga tashlanishi xisoblanadi. Shunchaki u muxabbat, xavfsizlikka, jismoniy extiyojlarining qondirilishiga, yangi taassurotlar va uni o'rab turgan atrof-muxitni bilishga extiyoj sezadi. U boshqalar bilan muloqot qilishi, o'yin o'ynashi va o'qishi kerak. Ya'ni boshqa bolalarga kerak bo'lgan xamma narsa unga xam kerak. Ushbu extiyojlarni qondiruvchi vositalar, haqiqattan xam alohida bo'lishi mumkin. Masalan, harakat tayanch apparatida buzilishiga ega bo'lgan bolaga harakat qilishi va atrof-muxitni o'rganishi uchun maxsus moslashuvi yoki yaqinlarining yordami kerak bo'lishi mumkin. Atrof-muxitni bilish uchun faqat vosita kerak xolos. Nutqqa ega bo'lmagan bola qaysi yo'l bilan muloqot qilishi muxim emas - imo-ishoralar, maxsus suratlar - eng asosiysi uning muloqotga bo'lgan extiyoji qondirilishi lozim. Nogironlikka ega bo'lgan bola xam boshqa bolalar o'tishi kerak bo'lgan rivojlanish bosqichidan o'tadi. Yuqoridagi ko'rsatilgan sensitiv davr nogironligi bo'lgan bolalarda xam o'tadi. Agarda sensitiv davrni bola rivojlanishidagi u yoki bu funksiyaga yaxshi va qulay sharoit yaratuvchi bosqich sifatida o'tkazib yuborilsa, kelgusida ularni rivojlantirish yanada murakkab, ba'zida butunlay imkoniyatsiz bo'lishi mumkin. Masalan, bolalarda nutq rivojlanishining sensitiv davri 3 yoshgacha o'tadi. Eshitish qobiliyati va nutqqa ega bo'lmagan bola ota-onasi nima qilishi kerak? Imo-ishoralar tili - eshitish qobiliyati ga ega bo'lmagan kishilar uchun to'liq til xisoblanadi. Imo-ishoralar tilini egallagan bola o'z rivojlanishida eshitish qobiliyatiga ega bo'lgan bola kabi nutq rivojlanish bosqichidan o'tadi (6 oylikdan so'ng so'zlarni "yasaydi", bir yoshida so'z - imo-ishoralarni, bir yarim yoshida to'liq gaplar tuzadi va «lug'at boyligi» yaratiladi). Yaxshi va qulay sharoitning yo'qligi, sensitiv davrga e'tibor bermaslik tufayli bolada ikkilamchi buzilishi yuzaga keladi. Ikkilamchi buzilishi bu - bolaning birlamchi tashxisi bilan bevosita bog'liq bo'lmasdan, to'g'ri sharoit yaratish bilan bu xolatdan xoli bo'lish mumkin.

MUHOKAMA

Misol keltiramiz; tadqiqotlarning ko'rsatishicha, eshitish qobiliyatiga ega bo'lmagan bola xuddi o'zi kabi eshitish qobiliyatiga ega bo'lmagan ota-ona oilasida voyaga yetayotgan bo'lishiga qaramay, psixik rivojlanish darajasiga ko'ra o'z tengdoshlaridan qolishmaydi. Ayni paytda esa deyarli barcha eshitish qobiliyatiga ega bo'lmagan bolalar eshitishida nuqsoni yo'q ota-ona oilasida yashab, ikkilamchi buzilishi sifatida psixik rivojlanishdan ortda qoladilar. Nima uchun? Chunki birinchi vaziyatda nutqning

rivojlanishi uchun sensitiv davr boy berilmagan bo'lib, bola atrof muxitni bilish va muloqot uchun kerak bo'lgan vosita - nutqni egallagan. Uning tengdoshi esa eshitish imkoniyatiga ega bo'lgan ota-ona oilasida yashasada, bu imkoniyatga ega bo'lolmadi va rivojlanishi uchun tavsif etilgan bolaga nisbatan tengsiz sharoitda qoldi. Nima uchun ko'rish qobiliyatida jiddiy buzilishiga ega bo'lgan bola xarakat rivojlanishidan orqada qoladi. Bu xolat bolaning ko'rish imkoniyati cheklanganligi tufayli emas, balki xarakat qilishi uchun qulay sharoit yaratilmaganligi uchun yuz berdi.

XULOSA.

Demak rivojlanishida buzilishiga ega bo'lgan bolalarni boshqa bolalar o'rganishi kerak bo'lgan xamma narsaga o'rgatish lozim. Haqiqatan xam, bu bolalar sekin rivojlanadilar, lekin ular kechikib bo'lsada, oddiy bolalar o'tadigan bosqichdan o'tadilar. Bola faqat o'z tengdoshlari kabi, ularning oldida turgan vaziyatlarni xal etish va qiyinchiliklarni yengib o'tibgina muvaffaqqiyatli rivojlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1.V.S. Raxmanova "Defektologiya asoslari" TOSHKENT "VORIS NASHRIYOT"-2012

2.D.A.Nurkeldiyeva, M.U.Xamidova "Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar diagnostikasi" Toshkent 2016

3. Maxsus pedagogika(darslik).-T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2014

4.Maxsus psixologiya (o'quv qollanma) O'zbekistonfaylasuflar milliy jamiyati nashriyoti- 2013

5. Nutqning ontogenezda rivojlanishi (o'quv uslubiy majmua) 2021

MAKTABDAN KEYINGI TA'LIMDA ZAIF ESHITUVCHI BOLALAR KASBIY MALAKALARNI SHAKLLANTIRISHDA SHAXSLARARO MUNOSABAT O'RNATISH

УСТАНОВЛЕНИЕ МЕЖПЕРСОНАЛЬНЫХ ОТНОШЕНИЙ ПРИ ФОРМИРОВАНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ НАВЫКОВ СЛАБОЛУХИХ ДЕТЕЙ В ПОСЛЕШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

ESTABLISHING INTERPERSONAL RELATIONSHIPS IN FORMING PROFESSIONAL SKILLS OF HEARING-IMPAIRED CHILDREN IN POST-SCHOOL EDUCATION

Dehqanova Muborakxon G'iyeziddin qizi
CHDPU, Maxsus pedagogika kafedrasi o'qituvchisi.
https://orcid.org/0009-0009-2928-7547
Eshbekova Dilbar Abror qizi, Ernazarova Dinora Tulkin qizi
Maxsus pedagogika:surdotarjimonlik faoliyati 24.5 guruh talabasi

Kalit so'zlar: Zaif eshituvchi, poyabzalchi, payvandchi, istedod, muloqot, kasb, munosabat.

Ключевые слова: слабослышащий, сапожник, сварщик, талант, общение, профессия, мироощущение.

Keywords: Hearing impaired, shoemaker, welder, talent, communication, profession, attitude.

Annotatsiya: Ushbu maqolada eshitishida nuqsoni bo'lgan va zaif eshituvchi bolalar maktabdan keyingi ta'limida kasbiy malakalarni shakllantirishda shaxslararo munosabat o'rnatish, ularning shaxsiy hayotga kasb tanlashdagi qiyinchiliklar va kasb tanlash ko'maklashish to'g'risidagi ma'lumotlar yoritilgan.

Аннотация: В данной статье освещены сведения об установлении межличностных отношений при формировании профессиональных навыков в послешкольном образовании детей с нарушением слуха и нарушениями слуха, трудностях выбора профессии для личной жизни, а также помощи в выборе профессии.

Abstract: This article covers information about establishing interpersonal relationships in the formation of professional skills in the after-school education of children with hearing impairments and hearing impaired children, their difficulties in choosing a career for their personal lives, and assistance in choosing a career.

KIRISH.

Har bir inson dunyoga kelibdiki, yorug' olamda nimagadur erishishni va o'z yutuqlarini boshqalar bilan bo'lishishni xohlaydi. Lekin dunyo, ayrim insonlar oldida juda tinch, ayrim insonlar oldida esa juda qorong'udek tuyuladi. Eshitishida nuqsoni bor bolalar hamma bolalar singari o'z qobiliyatlarini yuzaga chiqarish va o'z iste'dodi va hunarini egallab oila a'zolariga foydasi tegishini xohlaydi. Bu harakatlarining barchasi eshitishida nuqsoni bor bolalar shaxslararo munosabat bildirish orqali namoyon qiladilar. Bunda ular o'zlarining shaxsiy nutqi bo'lmish imo-ishora va daktilemadan foydalangan holda amalga oshiradilar. Ularni bu nutqi yagona shaxslar bilan muloqot o'rnatadigan quroli hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILIVA METODOLOGIYA.

Yurtimizda yetishib kelayotgan yosh avlodni kasbiy malakalarini shakllantirish bo'yicha ko'plab ishlar yo'lga qo'yilmoqda. Bunga misol qilib : O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Malakalarni baholash tizimini tubdan takomillashtirish va mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta'minlash chora-

tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 31-dekabrdagi PQ-4939-son muvofiq, shuningdek, kasbiy malaka va bilimlarni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarorini misol qilishimiz mumkin. Unga ko’ra har bir inson sohaga oid xorijiy yetakchi boshqa ilmiy-tadqiqot institutlari va tashkilotlari bilan hamkorlik o‘rnatib, birgalikda konferensiya, seminar, forum, simpoziumlar o‘tkazsin, ilmiy xodimlar malakasini oshirib borsin hamda qo‘shma ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirish uchun o‘zaro tadqiqotchi va ekspertlarni stajirovkalarga yuborsin va taklif qilsin deb har bir insonni kasbini mukammal egallashlari uchun zamin yaratib berilgan. Unga ko’ra “…….

-xorijiy yetakchi boshqa ilmiy-tadqiqot institutlari va tashkilotlari bilan o‘zaro axborotlar almashinuvini yo‘lga qo‘ysin hamda chet el ijobiy tajribasini O‘zbekiston sharoitida qo‘llash bo‘yicha takliflar ishlab chiqsin;

-mamlakatda kasbiy malaka, bilim va ko‘nikmalar milliy tizimi takomillashtirilishida hamda kasbiy standartlarning ishlab chiqilishida ilg‘or xorijiy tajriba va ilmiy hamjamiyat takliflari qo‘llanilishini ta’minlasin;

-mehnatni me’yorlash masalalari bo‘yicha mehnat qonunchiligini takomillashtirishga qaratilgan takliflarni ishlab chiqishda ilg‘or xorijiy amaliyot va ilm-fan bilan uyg‘unlikni ta’minlab borsin;

-respublika hududlarida mehnat bozorining tizimli monitoringini tashkil qilish, mehnat resurslari balansini ishlab chiqish uchun ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilish, mehnat munosabatlarini va mehnat bozorini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlarni tashkil etsin;

-respublikaning ayrim hududlarida ayollar (ayniqsa, og‘ir turmush sharoitiga tushib qolganlar), yoshlar, shuningdek, aholining ijtimoiy zaif qatlamlarining boshqa toifalari bandligi bo‘yicha tadqiqotlarni tashkil etsin hamda yoshlar, ayollar va nogironligi bo‘lgan shaxslarni ishga joylashtirish mexanizmlarini takomillashtirish to‘g‘risida taklif kiritib borsin.

NATIJALAR.

Eshitish qobiliyati cheklangan va zaif eshituvchi bolalar ham barcha tengqurlari singari maktabda ilk kasbiy ko’nikmalarni egallaydilar. Ular payvandchi, poyabzalchi, tikuvchi, oshpaz, santexnik kabi kasblarni maktabda egallashlari va boshqa kasblarni (nonvoy) esa shogirdlikka tushib o’rganishlari mumkin. Bunda ularga maktabdagi ustozlari va tarbiyachilar katta yordam beradilar. Yana bir ulkan muommo borki, ularning muloqotga kirishishdagi boshqa insonlardan uyalish kabi xissiyotlar, imo-ishora nutqini boshqalar tushunmasligi bu esa, o’zining kasbga bo’lgan qiziqishini so’ndirishiga asosiy sabab ham bo’lishi mumkin. Bu esa o’z navbatida bolalarda shaxslararo munosabat o’rnatishga to’sqinlik qiladi. Og‘zaki nutqni shakllantirishda ta’limiy o‘yinlar va didaktik materiallardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu orqali bolalarning lug‘at boyligi oshadi, og‘zaki nutqi shakllanadi, saqlangan eshitish qoldig‘i rivojlanadi. Surdopedagog va tarbiyachining to‘g‘ri va aniq tashkil etilgan hamkorligi guruhda ijobiy rivojlantiruvchi muhit yaratib, ta’lim-tarbiya jarayonining muvaffaqiyatini ta’minlaydi. Yurtimizda innovatsion texnologiyalarga katta e’tibor qaratilmoqda. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar tarbiyasida ham innovatsion ta’lim joriy etish bo‘yicha qator ishlarni amalga oshirish, ular uchun turli xil dasturlar yaratish, AKTlar asosida mashg‘ulotlar o‘tish, zamon talabiga mos mashg‘ulot ishlanmalari yaratilmoqda. Eshitishida nuqsoni bor insonlar ham barcha kabi qaror va qonunlarga bo’ysungan holda ulardan o’zlariga tegishli qismini teng huquqda foydalanishlari mumkin.

Rivojlanishida turli nuqsonlari bo‘lgan hamda davolanishga va sog‘lomlashtirishga muhtoj bo‘lgan bolalarning ijtimoiy kafolatlarini ta’minlovchi chora-tadbirlar samaradorligini yanada oshirish, ularning ta’lim-tarbiya olishlari uchun moslashuv muhitini yaratish, imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari (maktablar, maktab-internatlar)ning differensiallashgan tarmoqlarini maqbullashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi ko’plab qarorlar qabul qilgan.

MUHOKAMA

Zamonaviy jamiyatni shaxslararo munosabatlarsiz tasavvur qilish qiyin. Ertalab uyg'onganimizdan to uyquga qadar butun umrimizni muloqotda o'tkazamiz. Internet, telefon, xatlar - bularning barchasi aloqa vositalari bo'lib, ularsiz odam qila olmaydi. Shaxs shunday yaratilganki, agar u kimdir bilan muloqot qilmasa, qisqa vaqtdan keyin u shunchaki aqldan ozadi. Xo'sh, bu bizning havomiz nima, bu bizsiz yashay olmaydigan narsa. Inson qaysidir ma'noda o'zining ichki dunyosi holatini boshqasiga uzatadi. Turlari va shakllari shaxslararo munosabatlar nima ekanligi haqida gap ketganda, biz asosiy turlarni ajratib ko'rsatishimiz mumkin va bu og'zaki bo'lmagan muloqot, imo-ishoralar va tana harakatlari, odamning tashqi ko'rinishi, og'zaki nutq va boshqalar bo'lishi mumkin. Zaif eshituvchi bolalar kasbiy malakalarni o'zlashtirish va boshqa kollektivli aloqalarni o'rnatishda uning guruhli jamoa bilan muloqot turini to'g'ri tanlay olishi ham muhim omil hisoblanadi. Bunda o'sha jamoa a'zosining qiziqishlari va ish jarayonidagi ahamiyatini inobatga olish asosiy bosqichdir. Shaxslararo munosabatlarga kiradigan kishilarning maqomi nuqtai nazaridan ular o'rtasidagi aloqalar subordinatsiya yoki paritet xarakterga ega bo'lishi mumkin. Bo'ysunish tengsizlikni, yetakchilik va bo'ysunish munosabatlarini anglatadi. Paritet, aksincha, shaxslarning tengligiga asoslanadi, munosabatlar ishtirokchilari esa mustaqil shaxslar sifatida harakat qiladilar. Shaxslararo munosabatlar muloqot quvonchini keltirishi, hayotni hissiy jihatdan to'ldirishi va xotirjamlik berishi mumkin. Boshqa tomondan, ular umidsizlik va tushkunlikka olib kelishi mumkin. Muayyan shaxsda shaxslararo munosabatlarning rivojlanishi qanchalik samarali bo'lishi uning samarali muloqot qilish qobiliyatiga, odamlarni noto'g'ri idrok eta olish qobiliyatiga, shuningdek, psixologik va hissiy yetuklikka bog'liq. Va agar siz bu ko'nikmalarga ega bo'lishdan yiroqdek tuyulsa, tushkunlikka tushmang, chunki qat'iyat ko'rsatish va maqsad qo'yish orqali siz o'zingizda barcha kerakli fazilatlarni rivojlantira olish mumkin.

XULOSA.

Xulosa qilib shuni aytish kerekki, zaif eshituvchi bolalarni kasbga yo'naltirishda eng qulay vaziyat bu jamoaviy holatda muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga ko'maklashib asosiy poydevorni yaratish, shu asnosida esa uni qanday kasbga bo'lgan qiziqishlarini bilib olib, so'ngra tanlangan kasbga qaratilgan ilk kasbiy lug'atni tashkil etish ishlarni olib borish va shu yo'nalishdagi so'zlarga ko'proq urg'u berib borish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Mamarajabova Z. Surdopedagogika. O'quv qo'llanma. 2017
2. M.Xamidova, Z.Mamarajobova, M.Xamidova, "Maxsus pedagogika, sudopedagogika", tdpu nashriyoti, darslik 2019 yil
3. Samarova D. Psixologik qo'llab quvvatlash. Metodik qo'llanma 2019 yil. Chashma print
4. Qodirova F.U. va boshqalar "Daktilologiya va imo-ishora metodikasi" O'quv qo'llanma ZEBO-PRINTS 2024.
5. Qodirova F.U.va boshqalar "Maxsus pedagogika asoslari" O'quv qo'llanma ZEBO-PRINTS 2023.

ARALASH TA'LIMNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Safiyeva Mohinur Akram qizi
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti, Maxsus Pedagogika yo'nalishi o'qituvchisi
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0005-4304-7428
To'xtamurodov Abdulloh Avazbek o'g'li
CHDPU, Maxsus pedagogika/logopediya , II bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Aralash ta'lim – an'anaviy va raqamli ta'lim usullarini uyg'unlashtirgan innovatsion yondashuv bo'lib, uning didaktik imkoniyatlari ta'lim jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiladi. Bu model o'quvchilar va o'qituvchilarga ta'limni moslashuvchan, individual va samarali tashkil etish imkonini beradi. Ushbu tadqiqotning maqsadi – aralash ta'limning didaktik imkoniyatlarini o'rganish, uning ta'lim jarayonidagi o'rni va samaradorligini tahlil qilishdir. Tadqiqot davomida aralash ta'limning o'quvchilarning bilim olish jarayoniga ta'siri, o'qitish metodikalarini takomillashtirishdagi roli va innovatsion texnologiyalar bilan integratsiyasi o'rganildi. Shuningdek, bu modelning ta'lim sifati va o'quvchilarning mustaqil o'rganish ko'nikmalarini oshirishga qanday ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Tadqiqotda nazariy tahlil, so'rovnoma, intervyu, kuzatish, statistic tahlil metodlaridan foydalanildi va samarali natijalarga erishildi. Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat: Aralash ta'lim modelining didaktik imkoniyatlari aniqlandi va uning ta'lim jarayoniga ta'siri tahlil qilindi. O'quvchilarning bilim olish jarayonidagi faolligi va mustaqil o'rganish ko'nikmalarining oshgani kuzatildi. O'qituvchilarning ta'lim metodlarini diversifikatsiya qilish va o'quv jarayonini yanada samarali tashkil etish imkoniyatlari kengaydi. Aralash ta'limning an'anaviy va raqamli ta'lim usullarini uyg'unlashtirish orqali o'quvchilarning bilimlarni mustahkamlashi yaxshilandi. Innovatsion texnologiyalardan foydalanish dars jarayonini interaktiv va qiziqarli qilishga xizmat qildi. Tadqiqot natijalariga asoslanib, aralash ta'limni yanada samarali joriy etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Bu natijalar aralash ta'limning samaradorligini oshirish va uni ta'lim tizimida keng qo'llash bo'yicha ilmiy-amaliy asos yaratishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: aralash ta'lim, an'anaviy ta'lim, innovatsion yondashuv, didaktik imkoniyatlar, ta'lim jarayoni.

Kirish

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalarning jadal sur'atlarda rivojlanishi dunyo bo'ylab ta'lim tizimlarida tub islohotlar va yangi pedagogik yondashuvlarning shakllanishiga olib keldi. Bu jarayon, ayniqsa, COVID-19 pandemiyasi davrida an'anaviy ta'lim shaklining cheklanishi natijasida yanada tezlashdi. Masofaviy va onlayn ta'lim shakllari keng joriy etildi, ammo ular mustaqil holda barcha pedagogik ehtiyojlarni qondira olmasligi ma'lum bo'ldi. Shu sharoitda, aralash (blended) ta'lim modeli zamonaviy ta'limning muqobil, innovatsion va samarali shakli sifatida shakllandi.

Aralash ta'lim — bu an'anaviy (yuzma-yuz) ta'lim bilan zamonaviy raqamli texnologiyalarni uyg'unlashtirgan yondashuv bo'lib, o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu model o'qitishning mazmuni, metodlari, vositalari va tashkiliy shakllarini boyitib, o'quvchilarga individual yondashish, o'z tempida o'rganish va darsdan tashqari faoliyatni rivojlantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, o'qituvchilar uchun darslarni moslashuvchan rejalashtirish, vizual va interaktiv materiallardan foydalanish kabi ko'plab afzalliklarni yaratadi.

Ushbu maqola aralash ta'limning aynan didaktik imkoniyatlarini ilmiy-nazariy va amaliy asosda tahlil qilishga qaratilgan. Didaktika — bu o'qitish va o'rganish jarayonini tashkil etish, uni samarali amalga oshirish prinsiplari, metodlari va shakllarini o'rganuvchi pedagogikaning muhim sohasi hisoblanadi. Har qanday yangi ta'lim modeli, shu jumladan aralash ta'lim ham, didaktik asoslar nuqtai nazaridan baholanishi, uning qanday didaktik funksiyalarni bajarishi, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini shakllantirishga qanday ta'sir ko'rsatayotgani chuqur o'rganilishi zarur.

Mazkur maqolada aralash ta'limning quyidagi jihatlari o'rganiladi:

- uning didaktik prinsiplar bilan uyg'unligi;
- ta'lim mazmuni va metodlariga ta'siri;
- o'quvchilarning bilim olish jarayonidagi faolligi va mustaqilligi;
- o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro ta'sirning yangi shakllari.

Shuningdek, tadqiqot doirasida Toshkent shahridagi bir nechta maktablarda olib borilgan amaliy tahlil va so'rovnomalar natijalariga tayanib, aralash ta'limning amalda qanday didaktik afzalliklar va cheklovlarga ega ekanligi aniqlanadi

Metodologiya

Tadqiqot 2023–2024 o'quv yili davomida Toshkent shahridagi 5 ta umumta'lim maktabida olib borildi. Asosiy metodlar quyidagilar bo'ldi:

So'rovnoma: 100 nafar o'qituvchi va 200 nafar 8–11-sinf o'quvchilari ishtirok etgan.

Kuzatuv: 30 ta aralash formatda o'tgan dars tahlil qilindi.

Intervyu: 15 nafar o'qituvchi va 10 nafar o'quvchi bilan chuqurlashtirilgan suhbatlar o'tkazildi.

Didaktik tahlil: Aralash ta'limda qo'llanilgan materiallar (prezentatsiyalar, video darslar, onlayn testlar) baholandi.

Kuzatuvlar standart jadval asosida olib borilib, o'quvchilarning faolligi, topshiriqlarni bajara olish darajasi va o'qituvchi-o'quvchi o'zaro aloqalari qayd etildi.

Natija

Olingan natijalar aralash ta'limning didaktik imkoniyatlari bir nechta asosiy yo'nalishda namoyon bo'lishini ko'rsatdi:

1. O'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga ta'siri

Aralash ta'limda qatnashgan sinflarda o'quvchilarning test natijalari an'anaviy sinflarga nisbatan o'rtacha 12,5% ga yuqori bo'ldi.

Mustaqil topshiriqlarni bajarish darajasi 8–9-sinflarda 72%, 10–11-sinflarda esa 81% ni tashkil etdi.

2. Didaktik prinsiplarning amalga oshishi

Vizuallashtirish (ko'rgazmalilik) prinsipining kuchaygani kuzatildi: 85% o'qituvchi darsda slayd, video va grafik materiallardan foydalangan.

Aktivlik prinsipiga muvofiq, o'quvchilarning darsdagi ishtiroki an'anaviy darslarga qaraganda 25–30% ga yuqori bo'ldi.

Individual yondashuv imkoniyati kengaydi: dars materiallari o'quvchilarga ularning tezligi va qobiliyatiga mos tarzda taqdim etilgan.

3. Baholash tizimidagi farqlar

Aralash ta'limda tez-tez baholab borish (testlar, onlayn viktorinalar, interaktiv savollar) orqali o'quvchilar o'z bilimlarini tez-tez tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'lishdi.

O‘qituvchilarning 68% i an’anaviy baholash tizimiga qaraganda aralash ta’limdagi baholash usullari o‘quvchilarni faolroq qilganini bildirgan.

Muhokama

Tadqiqot natijalari aralash ta’lim modelining o‘qitish jarayonida didaktik tamoyillarni samaraliroq amalga oshirish imkonini berishini tasdiqladi. Xususan, ko‘rgazmalilik, izchillik, faollik, va differensial yondashuv kabi didaktik tamoyillar raqamli vositalar yordamida yanada kuchliroq ta’minlanmoqda. Aralash ta’lim, o‘qituvchilarga an’anaviy va raqamli resurslarni birlashtirish imkonini beradi, bu esa o‘quvchilarning mavzuni yaxshiroq anglashlariga yordam beradi. Masalan, ko‘rgazmalilik tamoyili video darslar va slaydlar orqali amalga oshiriladi, bu esa mavzuni tushuntirishni soddalashtiradi va o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi. Izchillik tamoyili esa darslarni tizimli ravishda tashkil etish va o‘quvchilarga muntazam ravishda yangi bilimlar va ko‘nikmalarni taklif etish imkonini beradi.

Aralash ta’limda differensial yondashuv, ya'ni o‘quvchilarning turli ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga olish, raqamli vositalar yordamida ancha samarali amalga oshiriladi. Masalan, o‘quvchilarga o‘z tempaida o‘rganish imkoniyati berilishi, individual yondashuvni kuchaytiradi, bu esa har bir o‘quvchining o‘z salohiyatini maksimal darajada ochish imkonini yaratadi. Bu innovatsion ta’lim modelining asosiy afzalliklaridan biridir, chunki o‘quvchilar o‘z o‘rganish jarayonini mustaqil ravishda boshqarish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

Biroq, aralash ta’lim modelini joriy etishda ayrim muammolar ham mavjud. O‘qituvchilar tomonidan ta'kidlangan muammolar orasida, aralash darslarga tayyorgarlikning ko‘p vaqt talab etishi, texnik vositalarning har doim ham yetarli emasligi va talabalar bilan individual ishlashda ayrim qiyinchiliklar mavjud. O‘qituvchilar bu turdagi darslar uchun zarur bo‘lgan texnik va metodik resurslarga to‘liq tayyorlanmasliklarini aytmoqdalar. Shu bilan birga, baholash va nazorat jarayonlarida akademik halollikni ta’minlashda ham qiyinchiliklar paydo bo‘lmoqda. Aralash ta’limda baholashning shaffofligi va ob'ektivligini ta’minlash uchun yangi metodlar va texnologiyalarni joriy qilish zarur. Bu, o‘quvchilar orasida adolatli baholash tizimini yaratish va ularning o‘z bilimlarini to‘g‘ri baholash imkoniyatlarini kengaytirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, aralash ta’lim modeli o‘qitish jarayonini innovatsion va samarali tarzda tashkil etish uchun katta imkoniyatlar yaratadi, ammo bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o‘qituvchilarning texnik tayyorgarligi, metodik qo‘llab-quvvatlash va resurslarning samarali ta’minlanishi zarur.

Xulosa

Aralash ta’lim modeli didaktik nuqtai nazardan ta’lim sifatini oshirishda katta imkoniyatlarga ega. O‘qituvchilar o‘quv jarayonini yanada jonli, moslashuvchan va samarali qilish imkoniga ega bo‘lmoqda. O‘quvchilar esa o‘z tempida, mustaqil va chuqur o‘rganishga o‘rganmoqda. Ushbu modelni kengroq joriy etish uchun quyidagi tavsiyalar muhim:

O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanmalarni ishlab chiqish;

Raqamli vositalardan foydalanish bo‘yicha treninglar o‘tkazish;

Texnik infratuzilmani har bir maktabda yaxshilash;

Aralash ta’limni baholash mezonlarini aniq belgilash.

Kelgusida aralash ta’limning samaradorligini o‘quvchilarning fanlar kesimidagi yutuqlari bilan bog‘liq holda chuqurroq o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Mukhamedov, G. I., Usarov, J. E., Khimmataliev, D. O., Kodirova, F. U., Raxmanova, M. K., Safiyeva, M. A. K., Eshbekova, N. J. K., Dekhkonov, H. U., & Susilawati, A. (2024). Creative competence of future chemistry for students relating to environment. *Journal of Engineering Science and Technology, Special Issue on ISCoE2024*, *19*(6), 65-72.

2. Kodirova, F. U., Khimmataliyev, D. O., Akhlan, R. N. R., & Safiyeva, M. A. (2024). Factors affecting the effectiveness of inclusive education. *Proceedings of the International Conference on Special Education in South East Asia Region, 3*(1), 336–341. https://doi.org/10.57142/picsar.v3i1.550

3. Usarov, J. E., Kodirova, F. U., & Akhlan, R. N. R. (2024). Effective technologies for preparing children with disabilities for social life in conditions of inclusive education. *Proceedings of the International Conference on Special Education in South East Asia Region, 3*(1), 310–315. https://doi.org/10.57142/picsar.v3i1.553

4. Akhlan, R. N. R., Khimmataliyev, D. O., & Qizi, O. N. P. (2024). The importance and role of inclusive education in educational institutions. *Proceedings of the International Conference on Special Education in South East Asia Region, 3*(1), 400–405. https://doi.org/10.57142/picsar.v3i1.557

5. Fayzieva, U. Y., & Kodirova, F. U. (2023). Innovative approaches in teaching children with hearing problems. *Journal of Northeastern University*, *26*(2), https://dbdxxb.cn/

6. Buriyeva, K., & Omonovich, K. D. (2024). Dynamics and diagnosis of independent thinking processes of students (On the example of the first teenagers). *Journal of Education for Sustainability and Diversity*, *3*(1), 238–252. https://doi.org/10.57142/jesd.v3i1.633

7. Khimmataliev, D. O., & Burieva, K. E. (2024). Pedagogical conditions of moral and economic education of children 6-7 years old in play activities. *Cakrawala Diniyah, 16*(1) http://dx.doi.org/10.17509/cd.v16i1.78063

TASHKENT INTERNATIONAL CONGRESS ON MODERN SCIENCES-IV

"GLOBAL PROSPECTS FOR MULTIDISCIPLINARY RESEARCH AND EDUCATION"

CHIRCHIK STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY

April 08-10, 2025 / Chirchik, Uzbekistan

İlgili makama;

4.ULUSLARARASI MODERN BİLİMSEL ARAŞTIRMALAR KONGRESİ "ÇOK DİSİPLİNLİ ARAŞTIRMA VE EĞİTİM İÇİN KÜRESEL BEKLENTİLER" 08-10 Nisan 2025 tarihleri arasında Chırchık Devlet Pedagoji Üniversitesi'nde 18 farklı ülkenin akademisyen/araştırmacılarının katılımıyla gerçekleşmiştir. Kongre kapsamında sunumu yapılan 562 bildirinin 85 adeti Türkiye'den katılımcılar tarafından; 477 bildiri ise 18 ülkeden katılımcılar tarafından sunulmuştur. Kongre 16 Ocak 2020 Akademik Teşvik Ödeneği Yönetmeliğine getirilen "*Tebliğlerin sunulduğu yurt içinde veya yurt dışındaki etkinliğin uluslararası olarak nitelendirilebilmesi için Türkiye dışında en az beş farklı ülkeden sözlü tebliğ sunan konuşmacının katılım sağlaması ve tebliğlerin yarıdan fazlasının Türkiye dışından katılımcılar tarafından sunulması esastır.*" değişikliğine uygun düzenlenmiştir.

Bilgilerinize arz edilir,

Saygılarımla,

PEDAGOGIKA FAKULTETI

Prof. Dr. Jabbor Usarov

Chairman of the Organizing Board

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

MINISTRY OF HIGHER
EDUCATION, SCIENCE AND
INNOVATIONS OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN
CHIRCHIK STATE
PEDAGOGICAL UNIVERSITY

PEDAGOGIKA FAKULTETI

111700, O„zbekiston Respublikasi, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, A. Temur ko„chasi, 104-uy
Tel: (0370) 716-68-05, faks: (0370) 716-68-11, e-mail: tvchdpi@edu.uz

"03" "02" 2025-yil

№ 1/18-1

TO WHOM IT MAY CONCERN

The researchers listed below have been deemed suitable for assignment to the organizing committee of International congress on modern sciences-iv "Global prospects for multidisciplinary research and education" in Communication.

International congress on modern sciences-IV will take place on April 7-10, 2025, in faculty of Pedagogy Chirchik state pedagogical university, Uzbekistan.

Organizing Committee Members:

1. Prof. Dr. Gafurdjan Mukhamedov
2. Prof. Dr.Bakhodir Eshchanov
3. Associate prof. Doniyor Akhmadjanov
4. Prof. Dr. Jabbor Usarov
5. Prof. Dr. Dostnazar Khimmataliev
6. Prof. Dr. Samariddin Koraev
7. Associate prof. Saodat Gayupova
8. Prof. Dr. Umid Khodjamkulov
9. Prof. Dr.Feruzakhon Kadirova
10. Associate prof. Ikrom Kadirov
11. Prof. Dr.Deni Darmawan
12. Dr. Tina Hayati Dahlan
13. Prof. Dr. Julia, S.Pd., M.Pd.
14. Dr. Heri Ririen

Dean **prof. J.E.Usarov**

Performer: prof. D.O.Khimmataliev
(d.khimmataliev@gmail.com, +99899-6091169, whatsapp, telegram)